

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**O'ZBEK
DIPLOMATIYASI TARIXIDAN**

Tarixiy ocherklar va lavhalar

Toshkent – 2003

Akademik M. M. Xayrullaev umumiy tahriri ostida

Taqribachilar:

T. f. d. NISHONOV M.,
t. f. n. Ostonova G.

"O'zbek diplomatiyasi tarixidan" kitobida qadimgi zamonalardan to Rossiya istilosigacha yurtimiz sarhadlarida faoliyat ko'rsatib o'tgan davlatlarning tashqi aloqalariga doir qiziqarli ma'lumotlar jamlangan va turli davrlardagi elchiliklar, diplomatik yozishmalar xususida fikr yuritilgan. Bu asar mamlakatimiz diplomatiya tarixini yaratish yo'lidagi dastlabki qadamdir. Kitob oliv o'quv yurti talabalari, diplomatiya tashkilotlari xodimlari, umuman, uzoq va boy tariximiz bilan qiziquvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Ushbu kitob Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universityetining ijodiy hamkorligi mahsuli sifatida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universityeti taraqqiyot jamg'armasi tomonidan chop yetildi.

Tadqiqot FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida t.f.n. B.S. Mannonov rahbarligidagi ijodiy guruh tomonidan bajarilgan.

© Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universityeti, 2003.
© Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti, 2003.

MUNDARIJA

MUQADDIMA.....	4
I QISM.ILMIY OCHERKLAR	
O'ZBEK ELCHILIK ALOQALARINING	
TARIXIY ILDIZLARI.....	7
O'RTA OSIYONING ARAB ISTILOSI DAVRIDAGI DIPLOMATIK	
ALOQALARI.....	18
MO'G'ULLAR ISTILOSI ARAFASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR	
TARIXIDAN.....	25
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI	
DIPLOMATIYASI.....	29
1. Amir Temur diplomatiyasi.....	29
2. Temuriylar diplomatiyasi.....	43
BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTON VA TURKISTON ALOQALARI (XV-XVII ASRLAR).....	49
HOFIZ MUHAMMAD FOZILXONNING	
BUXORO MISSIYASI.....	56
XORAZM TARIXNAVISLIGIDA XIVA XONLIGI	
TASHQI SIYOSATI.....	62
O'RTA OSIYO – ERON DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXIDAN	
1."Safarnomayi Buxoro"da Eron-Buxoro elchilik aloqadari.....	69
2. Buxoro—Eron diplomatik aloqalariga oid Amir Haydar maktublari.....	73
3. Lolaboshining Xorazm safari.....	76
O'RTA OSIYO VA ROSSIYA DIPLOMATIK ALOQALARIGA DOIR	
1. "Elchiga o'lim yo'q" taomili nega buzildi?.....	83
2. Poruchik Subhonqulov missiyasi.....	89
3. Amir Haydar davrida Buxoro—Rossiya diplomatiya aloqalariga oid ma'lumotlar.....	97
O'RTA OSIYO DAVLATLARI SAROYLARIDA ELCHILARNI QABUL QILISH MAROSIMLARI.....	102
X U L O S A.....	109

II QISM.

YURTIMIZ DIPLOMATIYASIGA OID LAVHALAR.....	109
Xitoy elchisi Chjan Syan ma'lumotlaridan:.....	110
Eron shohi Doroga berilgan javob.....	110
Turk xoqonligi davri diplomatiyasidan.....	111
Bitiktoshlardagi diplomatik ma'lumotlar.....	112
Makedoniyalik Iskandar bilan elchilik muloqotlaridan.....	112
Sug'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan maktubi.....	113
Yusuf Xos Hojib elchilik va elchilar haqida (XI asr).....	113
Amir Temur huzuriga 802 hijriy yilda (1399-1400) Sohibqiron Avniqda (Gruziya) turgan vaqtida Ovrupodan kelgan elchilar haqida	115
Amir Temurning Vizantiya imperatori Manuil Paleolog II ning Konstantinopoldagi noibi Ioann Paleologga yozgan maktubi.....	115
Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan bиринчи maktubi	117
Amir Temurning Farangiston qiroli Karl VI ga yo'llagan ikkinchi nomasi.....	118
Amir Temurning Kastiliya qiroli Henrix IIIga yo'llagan maktubi.....	119
Amir Temur o'g'li Mironshoh Mirzoning Ovrupo qirollariga yo'llagan	

nomasi.....	120
Farangiston qiroli Karl VI ning Amir Temurga javob maktubi.....	121
Angliya qiroli Henrix IV ning Amir Temurga yozgan javob maktubi.....	122
Amir Temurning Yildirim Boyazidga maktubi.....	123
Sulton Boyazidning Amir Temurga javobi.....	126
Amir Temurning Yiddirim Boyazidga to’rtinchi nomasi.....	127
Amir Temurning to’rtinchi nomasiga Sulton Boyazidning javobi.....	129
Amir Temurning Sulton Boyazidga yana bir maktubi.....	129
(Abdulazizzonning) Hindiston viloyati shohiga yozgan maktublaridan biri.....	132
Hazrat Xalofatpanoh (Subxonqulixonning) aslzot sayyidnasl	
Mir Abdurahmon Xo’ja Sadr elchiligi Yuzasidan	
Hindiston shohiga yozgan nomasi.....	133
Hazrat Abdulazizzonning Hindiston podshohi (Avrangzeb)ga	
yozgan javob maktubi.....	134
(Hindiston shohi) Avrangzeb podshohning (Subxonqulixonga)	
yozgan maktubining nusxasi.....	136
Hazrat Subhonqulixonning Hindiston voliysiga	
yozgan maktubining nusxasi.....	138
Hazrat Xalofatpanoh (Abulfayzxon) ning Hind viloyatiga tabrik	
Yuzasidan Amoratpanoh Sultonbiy Qushbegi elchiligi orqali	
yozib Yuborgan maktubi	140
Hazrat Xalofatpanoh (Abdullahxon)ning Muhammad Nazarbiy Dodxoh elchiligi Yuzasidan	
Hind podshosiga yozgan maktubi.....	141
Abdullahxon O’zbekka birlikni kuchaytiruvchi maktub bitildi.....	143
Haqiqatni izlovchi jahondor, tog’dek savlatlik, alolatparvar, ilohiy soya osmonining yulduzi,	
shahanshohlik konining gavhari Jaloliddin Muhammad Akbarshoh G’oziyining Turon	
mamlakatimинг sipoxdori Abdullahxon O’zbekka xitobnomasi.....	147
Jannatmakon, abadiy oromgohdagi Hazrat Sayyid Abdulaziz	
Muhammad Bahodirxonning shoh Avrangzebga Hind (iston)	
taxtiga o’tirishini qutlash yuzasidan yozgan maktubi.....	151
Hindiston podshohi (Avrangzeb)ning bir qancha jonivor	
yuborilgani sababli Abdulazizzonga javobnomasi	152
Turon mulkinining sipohsolari Abdulloxon O’zbekning	
xonlaridan biriga.....	152
Abdulfayzning Mehtar Ubaydullo elchiligi jnhatidan Hindiston podshohiga	
yozganlari.....	153
Hindiston safari voqenavavisiga (berilgan nishon).....	154
Xoja Samandar Termiziyl “Dastur ul-muluk” (XVII asr).	
Oltinchi fasl. Elchining sifati haqida.....	154
Xiva solnomalari sahifalaridan namunalar.....	155
Xiva va Buxoro aloqalari haqida.....	155
Xiva va Qo’qon xonliklari diplomatik aloqalariga doir	
ayrim parChalar.....	158
Xiva va Eron elchiliklari.....	159
Amir Haydarning Eron shohi Fathalishohga maktubi.....	163
Amir Haydarning Rossiya podshohi Aleksandr I ga maktubi.....	164
Orenburg harbiy gubernatori P.K. Essen tashqi ishlar ministrligi boshqaruvchisi K.V.	
Nesselrodega (1818-yil 7-(19) sentabr).....	164
Azimjon Mo’mjonovning elchiligi haqida.....	165
V.K. Nesselrode S.-Pyeterburgdan Buxoro favqulodda elchisi L. Mo’mjonovga 1816-yil 5-(17) iyul.....	166
A. Mo’mjonovning Orenburg harbiy gubernatorining xatiga javobi (1818-yil 4- (16) sentabr).....	168

Tashqi ishlar ministrligi boshqaruvchisi K.V. Nesselrolening Buxoroning muxtor vakili Muminjonovga notasi (1820-yil 3-(15) iyundan oldin.....	170
MANBALAR, ADABIYOTLAR.....	171
1. Qo'lyozma asarlar.....	171
2. O'zbek va rus tillaridagi tadqiqotlar va adabiyotlar.....	172
3. Chet tillardagi adabiyotlar	175

MUQADDIMA

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'zining juda boy va qadimiy tarixiga ega. Bu o'lka inson madaniyati dastlabki kurtak otgan sarzaminlardan biri sanaladi. U butun tarix davomida umumbashariy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa qo'shib kelgan. Bu hol ana shu sarhadlarda ming yillar davomida qad ko'targan va tarix taqozosiga ko'ra birin-kyetin faoliyat ko'rsatib o'tgan o'nlab davlatlarning serqirra va mazmundor tajribasida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Afsuski, shu paytgacha yurtimiz o'tmishidagi davlatchilik tarixini o'rganishga, uning tajribalarini ilmiy jihatdan umumlashtirishga kam e'tibor berib kelindi. Mustaqillik sharoitida bu borada ham katta imkoniyatlar tug'ildi. Endi voqealarga boy tariximizni har taraflama ob'ektiv tahlil yetish, sovyetlar davrida uning ataylab buzilgan yoki unutilgan sahifalarini tiklashga kirishayotibmiz. Ammo bu sohada mutaxassislar oldida hali katta muammolar ko'ndalang turibdi.

1998-yil 26-iyunda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov bir guruh tarixchi olimlar, adiblar va jurnalistlar bilan o'tkazgan suhbatlarida Vatanimiz tarixini butun borligicha tiklash, uning nurli sahifalarini odilona yoritishga qaratilgan qator vazifalarni maydonga tashladilar. Bu sohada u kishi ko'targan chuqur nazariy muammolar va ularga yondashish tamoyillari ana shu suhbatdan keyin e'lon qilingan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida o'zining har tomonlama ifodasini topdi. Bu asar tarixchi mutaxassislar uchun beqiyos qo'llanma bo'ldi. "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, - deb ta'kidlayli I.A. Karimov, - ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yyetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan".¹ Ana shu ko'p ming yillik tarixni haqqoni yad qo'shilishga ekanligiga urg'u berib, I.A. Karimov bu masalaning ulkan ahamiyatini quyidagi ta'sirli so'zlar bilan ta'riflagan edi: "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoni tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur".²

Ma'lumki, xalqimiz uch ming yildan ortiqroq davrni qamrab olgan o'z davlatchilik tarixiga ega ekan, u ana shu uzoq vaqt davomida boshqa xalqlar va davlatlar bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan. Ammo shu paytgacha tariximizda faoliyat ko'rsatgan davlatlarning xorijiy mamlakatlar bilan bu borada olib borgan munosabatlari haqida yyetarli ma'lumotlar jamlanmagan.

Vaholanki, butun dunyoda (albatta, bu yyerda rivojlangan mamlakatlar haqida so'z kyetyatibdi) juda ko'p davlatlarda bu masalaga hamisha katta e'tibor berib kelingan. G'arb mamlakatlari tarixidagi tashqi siyosat va diplomatik aloqalar masalalariga ko'plab asarlar, silsilaviy nashrlar bag'ishlanganligi ko'pchilikka ma'lum. So'nggi yillarda qator xorijiy Sharq davlatlarida ham bunga alohida ahamiyat berilayotganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, Turkiya, Eron va Hindiston kabi mamlakatlari tashqi munosabatlari tarixiga bag'ishlangan qator monografiyalar, hujjatlar to'plamlarining birin-kyetin paydo bo'layotganligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Sobiq SSSRda ham bu masala yuzasidan katta ishlar amalga oshirilgan edi. Rossiya tashqi ishlar vazirligi arxivi hujjatlari jamlangan to'plamlar silsilasi e'lon qilindi, "Diplomatik lug'at" va 3 jildli "Diplomiya tarixi" kabi asarlar qayta-qayta nashr yetildi. Ammo ko'p jildli "Diplomiya tarixi"da Rossiya sarhadlaridagi har bir knyazlik diplomatiyasi tarixiga alohida e'tibor berilgani holda, O'rta Osiyo zaminidagi davlatlar diplomatiyasi tarixi chyetalab o'tilgan, bu mavzuga ataylab e'tibor berilmagan. Bundan ko'zlangan maqsad ma'lum, albatta.

Ana shu tarixiy muammo Yuzasidan jiddiy izlanishga kirishish, o'tmishda bu yerda paydo

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7 jild. Toshkent, «O'zbekiston», 1999. 132-bet

²O'sha asar, 149-bet

bo'lgan davlatlarshnp tashqi aloqalari haqida ma'lumotlar to'plash, diplomatik yozimshalarni jamlash hozirgi tarixnavisligimiz oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash joizki, bizning tariximizda yuz bergen bu sohadagi voqeliklarni tiklash, ularni ilmiy o'rganib, halqimizning ma'naviy mulkiga aylantirish nafaqat katta mehnat va kasb mahoratini, balki bir necha xorijiy tillarni mukammal bilishni ham taqozo yetadi. Chunki o'tmishtga bag'ishlangan va bizgacha yetib kelgan asarlarning kattagina qismi arab tilida bitilgan. So'nggi bir necha asr mobaynida diplomatik yozishmalar o'sha vaqtlardagi taomilga ko'ra fors tilida amalga oshirilib kelingan. Buning ustiga, xonliklarnish arxivlari bizgacha to'la yetib kelmagan, ular bu yerda yuz bergen siyosiy voqealar tufayli talon-toroj qilib yuborilgan. Ammo diplomatik yozishmalarining ko'pchiligi qo'shni davlatlar - xorijiy Sharq arxivlarida saqlanib qolgan va o'sha mamlakatlarda e'lon qilingan to'plamlarda keltirilgan.

Kun sayin mustaqil O'zbekistonning tashqi aloqalari keng quloch yoymoqda. Respublikamiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosi. Ist-River qirg'og'idagi muhtasham bino peshtoqida jahondagi mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida O'zbekiston bayrog'i ham hilpirab turibdi. Mamlakatimiz qator nufuzli xalqaro tashkilot va uyushmalarning e'tiborli ishtirokchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mustaqillik e'lon qilinganidan buyon o'tgan tarixan qisqa muddat ichida O'zbekiston Respublikasini jahondagi 160 ta davlat tan oldi va shulardan 120 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Tashqi siyosatimizdagi ana shu ulkan o'zgarishlar o'z navbatida diplomatlarimizning yangi-yangi avlodini tarbiyalab yyetishtirishni taqozo yetadi. Hozirda mamlakatimizda maxsus Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universityeti bu sohada yaxshi faoliyat ko'rsatmoqda. Bo'lajak diplomatlarimiz, umumam, vatanimiz tarixini o'rganuvchilar uning diplomatiya tarixidan ham yaxshi xabardor bo'lishlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa mutaxassislarimiz "O'zbek diplomatiyasi tarixi"ni yaratishlari kerak.

Ammo ilk bor bu sohada dastlabki manbalar asosida diplomatiya tariximizning turli qirralarini ilmiy jihatdan yoritishga qaratilgan hamda davlatlararo yozishmalar namunalarini o'zida mujassamlashtirgan bir necha asarlar tayyorlanishi lozim bo'ladi. "O'zbek diplomatiyasi tarixidan (qadimgi davrlardan XIX asrning II yarmigacha)" to'plam-monografiyasi ana shunday kitoblardan biri sifatida tayyorlandi.

Uni vujudga keltirishda dastlab Markaziy Osiyo bilan xorijiy mamlakatlarning elchilik va diplomatik yozishmalarini o'zida aks yetgirgan majmualar, chyet ellarda va yurtimizda chop yetilgan asarlar aniqlandi va ularga tayangan holda, uning ilmiy tahliliy hamda ilova qismi tayyorlandi. Bu mavzuga aloqador materiallar asosan quyidagi turdag'i manbalardan to'plandi:

1) Qo'lyozmalar majmualarida mavjud dastlabki manbalar. Ular arab, fors va turkiy tillarda bitilgan bo'lib, bu turdag'i manbalar tarkibida o'rta asrlarga oid noyob materiallar, jumladan, O'rta Osiyo hududlarida faoliyat ko'rsatgan davlatlar boshliqlarining boshqa mamlakatlar hukmdorlari bilan yozishmali o'z aksini topgan. Ularda mavjud bo'lgan ana shu tarzdagi ma'lumotlar haqida tasavvur hosil qilish uchun, masalan, XV-XVIII asrlarga oid yozishmalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan qo'lyozma to'plamlarga kiritilgan Buxoro xoni Abdullaxonning Hindiston podshohi Akbarshohga yozgan maktublari, Akbarshohning "Abdullaxon O'zbekka birlikni kuchaytiruvchi maktubi", Abdulaziz Muhammad Bahodirning Hindiston podshohlari Shoh Jahon va Shoh Avrangzebga maktublari hamda "Amir Haydar maktublari" nomli qo'lyozma manbalarini ko'rsatish mumkin.

Ularda Buxoro hukmdorlarining qator xorijiy davlatlar - Eron, Afg'oniston, Xindiston, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlarga yozgan maktublari, yuborgan elchilariga bergen topshiriq va vazifalari o'z aksini topgan.

Mazkur yozishmaldarda asosan "ulug' ajdoddlardan meros qolgan" yakjihatlik munosabatlarini davom yettirib, maktublar va sovg'alar yuborib turish istaklari, o'zaro elchilik hamda diplomatik aloqalarning turli qirralari yoritiladi.

Shuningdek, qator qo'lyozmaldarda (masalan, Munis, Ogahiy va Bayoniying "Xiva solnomalari" nomi bilan ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan tarixiy asarları yoki XVII asrda bitilgan Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asari kabi) o'zbek diplomatiyasining o'ziga xos uslublari, elchilarga oid asosiy talablar, ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida aniq

va ravshan fikrlar bayon yetilganki, bunday ma'lumotlar diplomatiya tariximizning nazariy masalalarini ilmiy tadqiq yetishda g'oyat muhim ahamiyat kasb yetadi.

2) Davlat arxivlarida saqanib qolgan hujjatlar. Bu xildagi materiallarning asosiy qismi Rossiya tashqi ishlar vazirligining xorijiy aloqalar tarixiga oid hujjatlarini o'z ichiga olgan to'plamlar silsilasida o'z aksini topgan. SSSR tarqalgunga qadar chop yetilgan bu kitoblarda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo davlatlari bilan olib borgan aloqalari ham ma'lum tarzda o'z aksini topgai. Ularda, jumladan, bu yerdagi davlatlardan yuborilgan elchiliklarning maktublari faksimilesi ham qisman e'lon qilingan. Bunday arxiv materiallarining qiymati shundaki, ularning apchagini qismi bizda saqlanib qolmagan, chunki davlat arxivlarini turli sabablarga ko'ra o'z vaqtida g'orat qilinganligi tufayli ular yo'q bo'lib kyetgan, mavjudlarini esa ana shu manbalardagi nuxsalar bilan qiyoslash natijasida ko'pgina Chalkash masalalarni aniqlash imkonи tug'iladi. Undan tashqari. O'zbekiston Davlat tarix arxivida Orenburg viloyati tarixi arxivi materiallari mikrofilmlari saqlanadi. Bu materiallar Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar bo'lgan davr ichida xonliklar tashqi siyosati juda qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Arxiv materiallarining o'zi nodir tarixiy manba ekanligini ta'kidlash bilan birga ularni, yuqorida eslatilganidek, qo'lyozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish, ayniqsa, muhimdir. Bunday tarzdagi muqoyasa ana shu guruh manbalardagi ma'lumotlarni o'zaro to'ldiribgina qolmay, balki xolisona haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi, tarixiy adabiyotlar va tadqiqotlarda joylashib qolgan bir qator noaniqliklar va noto'g'ri xulosalarni bartaraf yetish imkonini beradi.

3) Xorijiy mamlakatlarda chop yetilgan mageriallar. Bunga AQSH(Angliya, Hindiston, Turkiya va Eronda bosilgan va mavzuga bevosita aloqador asarlar turkumi kiradi. Masalan, E. Olvortning AQSHda chop qilingan "O'zbeklar" monografiyasida "O'zbek diplomatiyasi" haqida ancha-muncha fikrlar bayon yetilgan bo'lsa, xorijiy sharq mamlakatlarida e'lon qilingan qator ilmiy to'plamlarga Urta Osiyoning bu davlatlar bilan olib borgan aloqalari, turli davrlardagi yozishmalari haqida qimmatli ma'lumotlar kiritilgan. Bu materiallar shu davlatlarning arxivlarida saqlanib qolgan ma'lumotlar asosida bayon yetilgan.

Ma'lumki, o'zbek davlatchiligining tarixini tadqiq yetishning nazariy tamoyillari Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida to'la-to'kis o'z ifodasini topgan. Bundan uch ming yil ilgari Amu va Sir havzalarida paydo bo'lgan, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik asosida vujudga kelgan dastlabki davlat uyushmalaridan hozirgacha davom yetgan davlatchilik jarayoni o'ziga xos tadrijiy xarakterga ega ekanligiga asoslanish, chyedan bo'lgan barcha hujumlar unga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, ammo asl mohiyatini tubdan o'zgartira olmaganligi, atrofdan kelgan xalqlarning bu yyerdag'i asosiy tub aholiga qo'shilib, uning tili va madaniyatiga singib kyetganligi, bu mintaqada qad ko'targan davlatlar har vaqt mustaqil tashqi siyosat Yuritishga harakat qilib kelganligi, mustaqil davlatning asosiy atributi - diplomatiya sohasida o'ziga xos yo'l-yo'riq va an'analar vujudga kelganligi kabi tamoyillar tadqiqotchilar diqqat markazida bo'ldi. Shuningdek, izlanishlar jarayonida ayrim materiallar - xatlar, diplomatik yozishmalar, turli voqealarga oid lavhalarni qiyosiy o'rganishga harakat qilindi. Ayni vaqtda, ba'zi bir xorijiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan noto'g'ri qarashlar, o'tmishda Turkiston sarhadlarida qad ko'targan davlatlar va ular yuritgan tashqi aloqalar ahamiyatini ataylab buzib talqin yetish, ularni soxtalashtirish kabi qarashlarga ishonchli dalillar asosida keskin zarba berishga alohida e'tibor berildi. Tadqiqotning asosiy yondashuv tarzi diplomatiyamiz tarixining dolzarb qirralarini yoritishda milliy ma'naviyatimiz nuqtai nazariga tayangan holda ish ko'rishga asoslandi.

Tadqiqotda xronologik nuqtai-nazaridan, yuqorida ta'kidlanganidek, qadim zamonlardan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr ichida yurtimiz tashqi aloqalarida ro'y bergan voqealar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon yetilgan. Bu uzoq vaqt mobaynida O'rta Osiyo sarhadlarida ko'plab davlatlar tarix sahnasida faoliyat ko'rsatib o'tgan va umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan. Ularning har biri yuritgan tashqi diplomatik aloqalarning o'zi maxsus ilmiy izlanish ob'ekti bo'lishi mumkin. Bu yyerda diplomatiya tariximizning ana shu davr ichidagi faqat ayrim muhim muammolari tadqiq yetilib, ular haqida tarixiy ocherklar yaratildi va lavhalar ilova qilindi. Barcha tarixiy ocherklarning yagona mavzuga bag'ishlanganligi va ma'lum tarzda tadrijiy holda bir-birini to'ldirib borganligi tadqiqotga to'plam-monografiya tusini berdi.

Uning XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr bilan cheklanganligi xususida shuni aytish kerakki, Turkistonning Rossiya mustamlakasiga aylanishi bilan bu qadimiy o'lka mustaqil tashqi siyosat Yuritish imkonidan mahrum yetib qo'yildi va bu hol ana shu sohada Yuz bergan ayrim jo'z'iy atributlardan qat'iy nazar, O'zbekiston musgaqillikni qo'lga kiritgan vaqtgacha davom yetib keldi.

* * *

Kitobning muqaddima, xulosa, «O'zbek elchilik aloqalariningtarixiy ildizlari», «Amir Temur diplomatiyasi», «Hofiz Muhammad Fozilxonniig Buxoro missiyasi», «Xorazm tarixnavisligida Xiva xonligi tashqi siyosati», «Lolaboshining Xorazm safari», «Elchiga o'lim yo'q» taomili nega buzildi?», «Poruchik Subxonqulov missiyasi» bo'limlari B.S. Mannonov, «O'rta Osiyoning arab istilosи arafasidagi diplomatik aloqalar» - B.S. Mannonov va M. Ishoqov, «Mo'g'llar istilosи arafasidagi diplomatik aloqalar tarixidan» - J. Hazratqulov, «Temuriylar diplomatiyasi» - S.G'ulomov, «Boburiylar davrida Hindiston va Turkiston aloqalari» - B.Obidov, «Safarnomayi Buxoro»da Eron-Buxoro elchilik aloqalari», «Buxoro-Eron diplomatik aloqalariga oid Amir Haydar maktublari», «Amir Haydar davrida Buxoro-Rossiya diplomatiya aloqalariga oid ma'lumotlar», «O'rta Osiyo davlatlari saroylarida elchilarni qabul qilish marosimlari» ocherklari - D.Valiyeva tomonidan yozilgan. Tadqiqotning «Yurtimiz diplomatiyasiga oid lavhalar» deb atalgan ikkinchi qismi materiallari B.S.Mannonov va D.Valiyevalar tomonidan jamlangan.

Mualliflar guruhi ushbu kitobni tayyorlashda ko'rsatgan yordamlari va qimmatli maslahatlar uchun Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universityeti rahbariyati, shuningdek, tarix fanlari doktorlari - A. O'rincev va R. Farmonovlarga o'z minnatdorchilagini izhor qiladi.

I QISM. ILMIY OCHERKLAR

O'ZBEK ELCHILIK ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI

O'zbek elchilik munosabatlarining ma'naviy asoslarini, uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash uchun biz birinchi navbatda uch ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy davlatchiligidan an'analariga murojaat qilishimiz lozim bo'ladi.

Turkiston sarhadlaridagi ikki buyuk daryo - Amu va Sir haizalarida Xitoydagagi Xuanxe va Yanszi, Hindistondagi Hind va Gang, Iroqdagagi Furot va Dajla, Misrdagi Nil havzalarida qad ko'targan buyuk sivilizasiyalar bilan bir vaqtida sug'orma-o'troqchilikka asoslangan madaniy hayot kurtaklari barg yozgan, uning zamirida bundan necha ming yillar avval qadimgi ilk davlatlar vujudga kelgan. Bu qaqda bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda quyidagilarni o'qiymiz: "Xorazmliklar, - deb yozadi Abu Rayhon Beruniy o'zining bundan ming yil oldin bitilgan "Osorul boqiya" kitobida, - Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan to'qqiz yuz sakson yil ilgari bo'lgan edi".¹ Demak, bu vaqtida, ya'ni miloddan qariyb 1300 yil ilgari, bunday qaraganda, 3300 yil avval Xorazm zaminida dastlabki davlatchiligidan asos solingen ekan. Beruniy bu yerda qadimgi xalqlarda mavjud bo'lgan taqvim-kalendarlar haqida ma'lumot berayotibdi. Taqvim-kalendar esa faqatgina madaniy hayot qaror topgan yyerda, muayyan tartib-intizom va qonun-qoidaga asoslangan davlatchilik atributlari o'rnatilgan joyda vujudga kelishi mumkin. Beruniy bu qadimgi davlatning qaysi qavmiga taalluqli bo'lganligi haqida ham o'z fikr-mulohazalarini bayon yetib kyetgan. "Shu vaqtida, - deb yozadi u, - Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari ustidan hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqeal Xorazmga odam joylashishidan to'qson ikki yil keyin bo'ldi".² Bu voqeal, Beruniy hisobicha, taxminan miloddan 1200 yil muqaddam ro'y bergan. Buyuk allomaning ta'kidlashiga qaraganda, Xorazmda turkiy shoxlar hukmronligi esa undan ancha ilgari qaror topgan. 2700 yil muqaddam shu zaminda

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. «FAN» nashriyoti, Tosh., 1968. 71-bet.

² O'sha joyda.

zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" bitilgan. Podshohlik qilish, shahar barpo yetish va kitob bitish uchun davlat, muayyan siyosiy tizim mavjud bo'lmos' i lozim. Aks holda bularnish birontasi ham vujudga kelmaydi, albatta. Ammo zaminimizdagi ana shu qadimiy davlatlar faoliyati tafsilotlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam yetgan mahalliy yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan. Buning sababi shundaki, arablar O'rta Osiyoni zabt yetar ekanlar, bu yyerda ilgari mavjud bo'lgan barcha yozma yodgorliklarni yo'q qilib yuborganlar. Masalan, Abu Rayhon Beruniy yuqorida eslatilgan o'z asarida Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab istilochilarining Xorazmni zabt yetgach, bu yyerdagি yozma yodgorliklarga nisbatan yurgizgan siyosati haqida shunday yozadi: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok yetib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi".³ Shu sababli eng qadimgi davlatchilik tizimlarimiz to'g'risidagi yozma ma'lumotlar asosan yunon va xitoy manbalarini yoki toshlarga o'yib yozilgan bitiklar orqaligina bizgacha yetib kelgan, xolos.

O'zbek davlatchilik tarixi ming yillar ichida yuz bergan son-sanoqsiz voqealar, xorijdan balo-qazodek yopirilib kelgan yog'iylarning xurujlari, yuksalish va tanazzul davrlariga qaramay, uzlusiz davom yetgan jarayondir. Tabiiyki, bu davr ichida davlatchiligidizning tarkibiy qismi, uning ajralmas atributi bo'lgan diplomatik munosabatlar ham izchil suratda davom yetib kelgan. To'g'ri, u ma'lum voqealar ta'sirida ayrim hollarda susaygan, ba'zi vaqlarda muvaffaqiyatsizliklar girdobiga duch kelgan, lekin hamma vaqt o'z shakl va mazmunida qadimiy turkiy urf-odatlar, Movarounnahrdagi azaliy turkiy o'troq hamda ko'chmanchi xalqlarning bu sohadagi an'analarini davom qildirgan, uni turli shakl va ko'rinishlarda o'zida aks yettirib kelgan.

Turkiston sarhadlarida vujudga keltan va faoliyat ko'rsatgan davlatlar hukmdorlari tomonidan amalga oshirilib kelingan diplomatik munosabatlar qadim zamonlardan boshlaboq "elchilik aloqalari" deb yuritib kelingan. Bu tushuncha uzoq o'tmishga egadir.

Qadimiy turkiy atamalarni sinchkovlik bilan to'plab, ular yuzasidan keng ko'lamli izlanishlar olib borgan taniqli turkshunos-lug'atshunos L.Z. Budagovning ta'kidlashicha, "elchi" atamasi aslida "el", ya'ni xalq, qabila, jamaa so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Buning isboti uchun u "ellanmoq" -yarashmoq, do'stlashmoq, moyil bo'lmoq, "el turmoq", tinch, osoyishta, do'stona, bo'ysunib yashamoq, "el bo'lmoq" - itoatkor, sadoqatli bo'lmoq kabi atamalarni keltiradi⁴. U qadimiy qo'lyozmalarga tayangan holda, "elchi" atamasining qator ko'rinishlariga e'tiborni jalb yetadi. Masalan, favqulodda elchi - "elchiyi maxsus", "elchiyi kabir" yoki "buyuk elchi" atamalari bilan yuritilgan bo'lsa, "o'rta elchi" va "kichik elchi" atamalari oraliq elchilarga nisbatan ishlatilgan. "Ishur elchi" atamasi esa boshqa mamlakatga bora turib, yo'ldagi mamlakat sarhadlaridan o'tayotganda uning hukmdoriga tashrif buyurgan elchilarga nisbatan qo'llanilgan. Shuningdek, boshqa Yurtlarga yo'llangan vakilga topshirilgan vazifaning "elchilik" deb atalganiga, o'zaro elchilar almashuvini esa "elchilashmoq" atamalari bilan yuritilganligiga ham ishora qiladi¹. Ayni vaqtida L.Z. Budagov «elchi» atamasi turkiy davlatlarning o'zaro munosabatlarida qadimdan qo'llanilib kelingan "yalavach" atamasi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligiga ham e'tiborni tortadi. Bunda u mazkur iboraning "elchi" ma'nosida ishlatilib kelinganligi isboti uchun "Muhammad payg'ambar Xudoning (Ollohning) yalavachi", degan kalimani keltiradi². Bu ikki atamaning o'zaro bog'liqligi haqida bahs yuritish mumkin, albatta. Ammo "yalavach" so'zining "elchi" ma'nosida o'z vaqtida keng qo'llanilgani tarixdan ma'lum. Buning uchun Xorazmshohlar - anushteginlar (1097-1231) davrida faoliyat ko'rsatgan elchilarning "yalavach" deb atalganini, mo'g'ullar istilosini arafasida va undan keyingi siyosiy voqealarda muhim o'rinn tutgan Mahmud Yalavach³ (Elchi)

³ O'sha asar, 72-bet.

⁴ Budagov L.Z. Sravnitelniy slovar turetsko-tatarskix narechiy, tom 1, SPb. , 1869. s. 206

¹ O'sha asar, 203-bet.

² O'sha asar, II jild, 362-bet.

³ Bu haqda qarang: Abbas Iqbol. Tarixi mo'g'il az hamle-ye to tashkil doulate Temuri. Tehron, 1364(1945), 22-23 betlar (fors shilida). Muallif Mahmud Yalavach bilan bog'liq voqealarni bayon etar ekan, "Yalavach "so'zining turkiy kalima ekanligini tasdiqlaydi va uning ma'nosini forscha "feristande " "yuborilgan ", ya'ni "elchi" sifatida ishlatilganligini aytadi.

faoliyatini eslatib o'tish kifoya qiladi.

Amerikalik sharqshunos Edvard Olvort o'zining "Hozirgi o'zbeklar" monogafiyasida Turkiston diplomatiyasi tarixiga nazar tashlar ekan, u ham "elchi" atamasining qadimiyligiga va uning zamirida yashiringan keng qamrovli ma'nolarga e'tibor berishga harakat qiladi. "Markaziy Osiyoda, - deb yozadi u, -diplomatiya goyasi balki chigatoy tilidagi "elchilik" so'zining ta'siri ostida paydo bo'lgandir. Bu so'z "diplomatning faoliyati" yoki "yaqin aloqalar" yoxud "qabila (el) ichidagi munosabatlar" ma'nosini anglatadi¹. Bu fikrlarga, umuman, qo'shilish mumkin. Ularni davom yettirib shuni aytish kerakki. Demak, diplomatiya tariximiz juda qadim zamonlardayoq turkiy qavmlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, "ellar" orasidagi nizolarga barham berish, o'zaro yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yish tarzida vujudga kelgan va u asta-sekin turkiy qavmlarning o'zaro bordi-keldilaridagi eng yaxshi an'analarni o'zida mujassamlashtira borib, izchil qonun-qoidalarga ega bo'lgan diplomatik munosabatlar tarzida, ya'ni "elchilar munosabatlari"ga aylangan. Edvard Olvort bu masala Yuzasidan o'z mulohazalarini bayon yetar ekan, u Markaziy Osiyoning janubiy qismlarida ayrim hollarda elchi va elchilik o'rniga "safir" va "saforat" atamalarining ishlatilganligiga ham ishora qiladi. Arab va forsiy tilli davlatlarda bu hol mavjud, albatta. U joylardan Turkiston sarhadlarida qad ko'targan davlatlar hukmdorlariga yo'llangan elchilarni shunday deb ataganlar. Ammo Turkistonning o'zidan boshqa davlatlarga yuborilgan rasmiy vakillar hamma vaqt "elchi" va ularning vakolati "elchilik" deb Yuritilgan. Bu yerda shuni ham aytish kerakki, ayrim hollarda forsiy tilli Yurtlardan kelgan davlat vakillari ham ularning o'zlarini tomonidan "elchi" deb atalganlar, Bu hol qadimiy Turkistonda qaror topgan "elchi" va "elchilik" atamalarining boshqa mintaqalarga ham tarqalganligidan dalolatberadi. Buning o'ziga xos sabablarini bor, albatta. Ulardan biri shuki, tarixda ushbu zaminda qaror topgan va faoliyat ko'rsatgan ko'pgina davlatlar atrof yurtlar, shu jumladan, forsiy hamda arabiylar tilli mamlakatlarni ham o'z tasarrufiga olgan va uzoq muddat ichida ular ana shu davlatlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy atamalarining bir-biriga o'tishiga, ba'zi hollarda esa umumiyligi aylanishiga sharoit tug'dirgan. Markaziy Osiyo mintaqasi diplomatiyasi tarixida "elchi" va "elchilik" atamalarining ana shunday jarayonlarni tasdiqlovchi bir omilga aylanganligi ko'zga tashlanadi.

O'zbek elchilik munosabatlarining ma'naviy asoslari haqida gap kyetar ekan, uning dastlabki ildizlarini Movarounnahr davlatchiliginining ilk yozma manbasi "Avesto"dan qidirish lozim bo'ladi. Bundan uch ming yil ilgari Amu va Sir daryolari havzasida vujudga kelgan va yuksak sug'orma dehqonchilikka asoslangan qadimgi turkiy sivilizatsiyadan mujda beruvchi ushbu muqaddas kitobda boshqa ellar bilan muloqot masalalarining asl ma'naviy mohiyatlari - erk, o'zaro tenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlarga taallukli tushunChalar o'z ifodasini topgan. Masalan, Zardusht Xat (noma)laridan iborat «Avesto»ning ikkinchi kitobi - "Yosin"ning 14- bashoratida xudo "Men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman", deydi. Zardushtiylik iymonining xayotda fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyigli kabi uch tayanchga asoslangani ta'kidlanadi. "Bergan so'zning ustidan chikish, unga sodiq qolish, savdo-sotiklarda shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish" iymonlilikning ko'rinishlari sifatida talqin yetiladi². Ana shu yaxshi sifatlar kundalik hayotda, boshqa odamlar va qavmlar bilan olib boriladigan munosabatlarda osoyishtalik hamda baxtli hayot kechirish yo'lini ta'minlovchi omil bo'lishi uqtiriladi.

Movarounnahr sarhadlaridagi xalqlar asrlar mobaynida adolatli munosabatlar, vatan himoyasi, uni balo-qazolardan asrash g'oyalarini afsonaviy shoh Afrosiyob nomi bilan bog'liq ko'plab rivoyatlarda rivojlantirib keldilar, bu tushunChalar asrlar osha tobora sayqal topib, tiniqdashib bordi. To'g'ri, Afrosiyob nomi birgina turkiy rivoyatlar va keyinroq unish yozma adabiyotida o'z aksini topib qolmay, balki Eron shoiri Firdavsiyning "Shohnoma"sida, undan keyin fors tilida bitilgan qator tarixiy asarlar (masalan, "Ravzat us-safo" kabi)da ham zikr qilinib kelindi. Forsiy adabiyotda Afrosiyob siyoshi ma'lum sabablarga ko'ra salbiy tarzda baholanib kelingan bo'lsa, turkiy tilli yozma manbalarda u nihoyatda ulug'langanini ko'ramiz. Masalan, Mahmud

¹ Edvard Olvort Hozirgi o'zbeklar. O'n to'rtinchasi asrdan bugungi kungacha. Madaniyat tarixi Stanford, 1990, 80-bet (ingliz tilida).

² Ibrohim Karimov. Zardushtiylik haqida haqiqat. "Muloqot", № 11-12, 1992. 26-27-betlar.

Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida Afrosiyob Afridunning Tur ismli o'g'lining nabirasi ekanligi, zo'r insoniy xislatlarga ega turkiy bahodir shoh bo'lганligi tavsif yetiladi. "Bu turk beklarindan oti belgulik, to'nga alp er erdi, quti belgulik", deb ta'riflaydi uni Qoshg'ariy. Muallif "to'nga" so'ziga "botir, sher, bahodir, filni o'ldiruvchi eng kuchli hayvon" degan izoh beradi. Shuning uchun el og'ziga tushgan bu qahramonni alp Ertonga deb ataydi. Muallif bergen ma'lumotlarga qaraganda, Afrosiyob davlatining markaziy shahri "havosi yaxshi Qoshg'ar" bo'lgan. Devonda Afrosiyobga atalgan to'rtliklarda u aqlli, dono va mohir jangchi sifatida ta'riflanib, janglardagi qahramonligi, dushmanlarga zarba berishdagi mahorati, bahodirligiga tahsin o'qiladi va uning o'limiga affus bayon qilinadi³.

Diplomatiyamizning o'ziga xos va umuminsoniy qadriyatlarga monand tamoyillari buyuk turkiy obida - "Qutadg'u bilik" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asarida o'zining har tomonlama tavsifini topdi⁴.

Ma'lumki, bu yodgorlik turkiy xalqlar tarixini, ijtimoiy-siyosiy tuzumini o'rganish uchun ashyoviy dalillarga nihoyatda boy bo'lib, unda ahloq-odob, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabat-muomala tamoyillari haqida babs yetiladi, davlatni idora qilish usullari, o'z davri hayoti qadriyatları silsilasi bayon qilinadi.

Bu asar XI asrda, qoraxoniylar saltanatining g'oyat yuksaklikka ko'tarilgan davrida yaratildi. Bu davlat yuqori Chindan Kaspiy dengizi qirg'oqarigacha bo'lgan katta sarhadlarda qaror topgan bo'lib, uning poytaxti Qoshg'ar (O'rdukent) sanalardi. Bu davrda turkiy qavmlar orasida ilm-ma'rifat, madaniyat rivojlandi, ko'plab ilmiy-falsafiy asarlar yaratildi. Bunday katta davlatni idora qilish oson ish emas edi. Undagi xalqlarni ma'naviy jipslashtirish, hayotiy zarur qonun-qoidalarni yaratish, boshqaruv uslubi tamoyillarini ishlab chiqish, atrof elatlar, mamlakatlar va davlatlar bilan olib borilishi zarur bo'lgan diplomatik aloqalar asosini yaratish ishi hal yetilishi goyat muhim bo'lgan vazifalardan biriga aylandi. Ana shu hayotiy talabning in'ikosi sifatida davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, shuningdek, xalqning rasm-odatlarini, ahloq tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan "Qutadg'u bilik" maydonga keldi.

"Qutadg'u bilik" mundarijasi o'ziga xos holda tuzilgan bo'lib, undagi voqeа-hodisalar, orzu timsoli bo'lgan to'rt qahramon: Kuntug'di (chiquan kun) - adolat, Oyo'lди (to'lgan oy) - baxt va davlat, O'g'dulmish (aqlga to'lgan) - aql, O'zg'urmish (uyg'onan) -qanoatlar o'rtasidagi savol-javob, munozaralar tarzida bayon yetiladi. Bu babs asnosida oddiy xalqdan tortib qoraxoniylar saltanatining oliv hokimi - eliggacha bo'lgan oralikdagi barcha tabaqa va toifalarning' ahloq, odob, xatti-harakat, o'zaro munosabat chegaralari haqidagi fikr-mulohazalari o'rta ga tashlanadi va bu sohalarga oid muammolarning yechimlari to'g'isida so'z yuritiladi. Pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ruhi bilan sug'orilgan ushbu asar turkiy davlatchilik tarixi taraqqiyotida o'z ta'siri jihatidan eng buyuk cho'qqi hisoblanadi. U o'z zamondoshlari va keyingi avlodlar tomonidan aql va hikmat chirog'i sifatida e'tirof yetildi.

Hikmatlar qomusi bo'lgan ushbu asarning muallifi Yusuf Bolasog'unda¹ tavallud topgan bo'lib, u o'z asarini ellik yoshida kitobat qilgan. Asar bitgach, Yusuf Bolasog'uniy uni Tovg'achxon huzuriga keltiradi. Bu taxminan 1070 yilda sodir bo'ladi. Xon ushbu bebaho asar muallifiga o'z o'rda asida Xos Hojiblik eshik og'asi lavozimini beradi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilik" asarining muallifi nomi Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy deb Yuritiladi.

"Qutadg'u bilik" tez orada mashhur bo'lib kyetadi. Uning shuhrati qoraxoniylar sarhadlaridan chiqib, uzoq xorijiy davlatlargacha tarqaladi. Unga chinliklar "Odob ul-muluk", mochinliklar - "Amin ul-mamlakat", Sharq elining ulug'lari - "Ziynat ul-umaro", eronliklar - "Shohnomayi turkiy",

³ Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devoni lugatit turk), tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov, I tom. Uzbekiston FA nashriyoti, T., 1960. 493-494-betlar

⁴ Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilik" (Saodatga yo'llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. "Fan", Toshkent, 1971. Qashm Karimov bu qadimiy turkiy obidani hozirgi zamon tiliga o'girib, uni keng o'quvchilar ommasining mulkiga aylantirishda katta xizmat qildi. Bu bilan chegaralanmasdan, u ushbu asarga bapiilangan kirish qismida uni atroflicha tadqiq ham etgan.

¹ CHu vodisiyidagi (X1-X1U asr) yirik shahar. U XI-XII asrning birinchi yarmigacha qoraxitoylar va XII asrnipg ikkinchi yarmida qoraxitoydar imperiyasining poytaxti bo'lgan. Mo'gullar istilosidan keyin bu shahar Go'baliq ("Yaxshi Shahar") deb atalgan. XVI asrga kelib o'zaro urushlar natijasida u vayronaga aylanib qolgan. (Bartold V.V. Balasagun. Soch., T. 3, M., 1965. s. 265).

ba'zilar "Pandnomayi muluk" deb nom berganlar². Bu asarning yana bir buyuk jihat shundaki, unda hech qaysi xalq, elat va qavm pastga urilmaydi, bil'aks unda barchaga hurmat-ehtirom va tenglik nazari bilan qarash targ'ib yetilgandir.

Hayotning boshqa sohalarida bo'lganidek, "Qutadg'u bilik"da diplomatiya sohasida shunday fikr-mulohazalar bayon yetilganki, ularning har biri nafaqat o'z davri, balki hozirgi kun amaliyoti uchun ham beqiyos ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, ko'zga tashlanadigan muhim tomonlaridan biri shuki, asarda qadim zamonlardan buyon to muallif yashagan davrgacha, ya'ni XI asrgacha bu sohada yaratilgan va amal qilinib kelingan qadriyatlar ham o'z aksini topgan. Bu esa turkiy (o'zbek) diplomatiyasi tarixining umumdavlatchilik tariximizning bir qismi sifatida uzlusiz davom yetganligi va asrlar osha boyib borganligidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida xalqlar va davlatlar orasidagi yaxshi munosabatlarni joriy yetishda elchilik aloqalarini izchil suratda amalga oshirib borish, bu masalaga bo'lgan e'tiborni sira susaytirmaslik davlatchilik siyosatida katta ahamiyatga molikligini uqtirish bilan birga, elchilarni tanlash, ularning shaxsiyatiga nisbatan g'oyat katta mas'uliyat bilan yondashish lozimligini alohida ko'rsatib o'tadi. Elchilar qadim zamonlardan buyon hamisha qiyin va sharafli vazifalarini ado yetib kelganliklari, ular har vaqt katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lganliklarini aytadi. Bu haqda fikr Yuritar ekan:

*"Xudoning qu'llari orasida eng saylanganlari,
Kishilarning yaxshisi - elchilar bo'lganlar,
Turli xil ishlar elchilar tufayligina bitadi,
Xayrli ishlar elchi tufayli sodir bo'ladi", -
deb xitob qiladi muallif³.*

O'z kitobining maxsus bobini Yusuf Xos Hojib diplomatiya, ya'ni elchilik masalalariga bag'ishlagan. "O'g'dulmish eligga elchi qilib yuborishga qanday kishi keragini aytadi" deb nomlangan ana shu bobda muallif elchilik munosabatlarining ma'naviy jihatlarini, bu yo'lida xizmat qiladigan kishilarning qanday xislatlarga ega bo'lishi lozimligini birma-bir chizib beradi. "Tamomi kishilardan sarasi elchi (bo'lishi) kerak, bilimli, zakovatli, juda yetuk (bo'lishi) kerak", deydi u⁴. Demak, hukmdorlar ma'lum topshiriq bilan xorijga yo'llaydigan vakildan, avvalambor Yuksak, "sara" insoniy xislatlarga ega bo'lish, buning ustiga, o'z zamonasining ilm-ma'rifatidan xabardor, zukko shaxs bo'lmoqlik talab yetilgan. Shu bilan birga, muallif elchilikka belgilangan kishi o'z vatani, davlati va hukmdoriga sadoqatli hamda ishonchli shaxs bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor beradi. Zotan, sadoqatli yoki vatanparvar bo'limgan vakildan har qanday nojo'ya xatti-harakatlarni kutish mumkin. Ayni vaqtda, Yusuf Xos Hojib elchilarni "ko'zi to'q" kishilardan tayinlash, ochko'z va mol-dunyoga hirs qo'yganlarni xorijiy aloqa bilan bog'liq ishlarga yaqinlashtirmaslikni maslaxat beradi. Uning ta'biricha, elchi: "Sadoqatli hamda ko'zi to'q (bo'lishi) kerak, to'g'ri (bo'lishi) kerak¹".

Yusuf Xos Hojib elchilikka tayinlanadigan kishilar irodali, maishatga berilmagan bo'lishlarini alohida ta'kidlaydi. Bu hakda fikr Yuritar ekan, u shunday yozadi: "(Elchi) kayfli ichimlik ichmaydigan, o'zini tutgan (bo'lishi) kerak, o'zini tutuvchi kishi qutga quvvat bo'ladi. Bilimli ichimlik ichsa, bilimsiz bo'ladi. Bilimsiz mast bo'lsa, boshqa nima qiladi"². Elchilarga xos xislatlar haqida so'zlar ekan, muallif qatto uning tashqi qo'rinishi, turqi-tarovatiga ham e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi va bu masalaning g'oyat katta ahamiyatga molikligiga ishora qiladi. Buni u quyidagicha ta'riflaydi:

*"Yuz ko'rki niroyli bo'lishi kerak hamda
bo'yi (ya'ni qaddi-qomati),*

² Yusuf Xos Xojib. Kirish qismi, 14-bet.

³ O'sha asar, 419-bet

⁴ O'sha joyda.

¹ O'sha asar, 421-bet.

² O'sha asar, 425-bet.

*Kelishgan bo'lsa, qaddi-qomati kelishgan
(kishi) odashar orasida yaxshi bo'ladi³.*

Yusuf Xos Hojib o'z davlatining vakili sifatida o'zga Yurtlarga Yuborilishga loyiq toyilgan kimsalar ana shu xislatlar bilan bir qatorda, dono va shirinso'z, notiq bo'lishlari ham kerak, deb hisoblaydi. Uning yozishicha:

*"Tili shirin ham(da) ko'ngli ochiq (bo'lishi) kerak,
So'zi yoqimli ham(da) juda aqli (bo'lishi)kerak.
Tili shirin kishi yoqimli bo'ladi,
So'zi yoqimli bo'lsa, kishining ish(lar)i manzur bo'ladi,
So'zi Yumshoq, shakardek shirin bo'lsa,
Shirin so'zga ulug' ham, kichik ham Yumshaydi.
Elchining ishi mutlloq so'z(lar)dan iborat
(ya'ni so'zlar orgali bitadi),
So'zi yaxshi bo'lsa, (u) tilagini topadi>".*

Umuman olganda, Yusuf Xos Hojib dahosi bilan yuzaga kelgan ushbu qomusiy asarda ana shu tarzda bundan qariyb ming yil oldin turkiy diplomatiyaning o'ziga xos qonun-qoidalari chizib ko'rsatilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu borada ushbu asarda bayon yetilgan fikr-mulohazalar bиргина muallif yashagan davrninggina mahsuli bo'lmasdan, balki ularga turkiy diplomatiyasiga xos ma'naviy xislatlarning muallif yashagan zamongacha o'tgan necha asrlar mobaynida rivojlanib kelgan yakuni sifatida ham qaralmog'i lozim bo'ladi. Xuddi shuningdek, "Qutadg'u bilik"da tavsiflangan elchilik haqidagi mulohazalar so'nggi asrlardagi o'zbek davlatchiligi diplomatiyasining yanada takomillashuvi uchun ham dasturilamal vazifasini o'tab keldi.

Bu vaqtida davlatchilik masalalariga bag'ishlangan bitiklar ichida XI asrda yozilgan yana bir asar - "Siyosatnama" ham diqqatga sazovordir. Davlatni boshqarish usullari va sir-asrorlari tavsifidan iborat ushbu asar ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan qudratli davlatlardan biri - Saljuqiylar hukmronligiga bag'ishlangan. Arab xalifaligining ojizlanishi natijasida qad ko'targan turkiy davatlardan biri - Saljuqiylar imperiyasi o'g'uz turklari yoki turkmanlarga nisbat beriladi. Bu davlat O'rta Osiyoning g'arbi - janubiy qismlaridan Suriya va Falastingacha bo'lган sarhadlarni o'z ichiga olgan. V.V. Bartoldning ta'rificha, ilk o'rta asrlarda tashkil topgan turkiy davlatlar ichida saljuqiylar imperiyasi musulmon dunyosida eng katta ahamiyatga molik davlat bo'lgan. Bu davlat hukmdorlari er egaligida sharkda yangilik bo'lgan "ikta" tizimini joriy yetishgan. "Siyosatnama" muallifi Nizomulmulk ana shu davlat gurkiragan paytda hukmronlik qilgan sultonlar - Alp Arslon (1063-1072) va Malik shoh (1072-1092) davrlarida vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsatgan. U saljuqiylar davlatida ismoiliy asosinlar tariqatining yoyilishiga qarshi kurashgan. Shuning uchun ham 1092 yilda ana shu tariqat tarafдорлари tomonidan o'ldiriladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, uning kitobi muallif vafoti tufayli tamomlanmay qolgan va u XII asr boshlarida boshqa bir muallif tomonidan to'ldirilib, bir butun asar holiga keltirilgan. Har holda sharqshunoslik fanida ushbu asar Nizomulmulkka nisbat berilib kelinadi. U haqiqatan ham davlatchilik muammolariga bag'ishlangan o'sha davrdagi shu tahlitdagи bitiklar ichida o'z mazmuni va aniq masalalarni o'rta tashlaganligi bilan ajralib turadi. Bu asar ilk o'rta asrlarning muhim yozma manbalari qatorida ko'p tillarga tarjima qilingan. Uning asli fors tilida bitilgan.

Ellik bir bobdan iborat ushbu asarda davlatni boshqarish bilan bog'liq juda muhim masalalar o'rta tashlangan. Unda hukmdorning adolat yuzasidan olib borishi lozim bo'lgan siyosati mezonlaridan tortib, qozi, rais, xatib, muxtasiblar, xatto xizmatkorlar va choparlarning vazifalari xususida. Harbiy kuchlarga munosabat, hukmdor xizmatidagilarni in'omlash, rutbalarning ahamiyati va boshqalar haqida e'tiborga molik fikr-mulohazalar bayon yetilgan. O'z asarining maxsus bir bobini Nizomulmulk elchilik bordi-keldilar, ya'ni davlatning tashqi munosabatlarini

³ O'sha joyda.

tashkil yetish masalalariga bag'ishlagan. Bu bob "Elchilar va ularning xizmatlari haqida" deb nomlangan. Muallif elchilik aloqalariga hamma vaqt katta ahamiyat berish lozimligini, tashqi siyosat har bir davlatning diqqat markazida bo'lishimi alohida ta'kidlaydi. Uning yozishicha, bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakat qudratini mustahkamlaydi, hukmdor obro'-e'tiborini yuksaklikka ko'taradi, yo'l qo'yilgan xatolar esa kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keladi. "Hukmdorlar, - deb yozadi Nizomulmulk, - bir-birlariga nisbatan katta hurmatda bo'lib kelganlar, elchilarni e'zozlaganlar, bu ularning martabalari va e'tiborlarining oshishiga imkon yaratgan. Hatto o'zaro dushmanlik zohir bo'lgan paytlarda ham elchilarga nisbatan odatdagi yaxshi muomalada bo'lingan, chunki teskarisi noma'quldir¹".

Muallif o'z kitobining elchilik munosabatlariga bag'ishlangan ushbu bobida shu masalaga oid juda ko'p tafsilotlarni, hatto xorijdan kelgan elchilarni qabul qilganida o'zi yo'l qo'ygan xot-kamchiliklarni va uning oqibatlarini tavsiflab, hukmdorlarga, umuman, bu soha xizmatiga taaluqli barcha vazifadorlarga tashqi aloqalar bilan bog'liq xar bir voqeaga g'oyat ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan yondashish lozimligini uqtiradi. Shu bilan birga, u xorijiy davlatlarga elchi sifatida yuborilishga mo'ljallangan kishilar qanday xususiyatlarga ega bo'lishini ham birma-bir ko'rsatishga harakat qiladi. "Elchilikka loyiq ko'rيلган kimsa, - deb yozadi muallif, davlatpanoh. xizmatidagilardan tanlanmog'i lozim. U davrada bo'shang va tortinchoq bo'lmasligi, ammo haddan ziyyod sergap ham bo'lmasligi kerak. Ayni vaqtida u ko'p sayohat qilgan, xar bir ilm sohasidan ma'lum darajada xabardor, xotira quvvati kuchli, ehtiyotkor, o'z qadrini biluvchi va ko'rkam ko'riishli kishi bo'lmog'i lozim. Buning ustiga, u olim va ulug' yoshli bo'lsa, yana ham yaxshi. Agar elchi sifatida nodim Yuborilsa, ko'proq ishonchli bo'ladi. Mabodo bu vazifaga shijoatli va botir hamda suvoriylikda mohir kishi tayinlansa yanada yaxshi. Chunki u borgan joyida mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning o'ziga o'xshashligini namoyish yetadi. Elchi payg'ambar avlodidan bo'lsa - bu ham yaxshi. Chunki u o'z nasabi va kelib chiqishi bilanoq katta hurmatga sazovor bo'ladi". Elchilik aloqalariga bag'ishlangan bobni muallif quyidagi so'zlar bilan yakunlaydi: "Elchi hukmdorning fe'l-atvori va aql-zakovatini o'zida aks yettiradigan shaxsdir"³.

Shuningdek, diplomatiyaga oid masalalar saljuqiylar imperiyasidan ajralib chiqqan Xorazmshohlar - anushteginlar (1097-1231) sultanatiga bag'ishlangan qator tarixiy manbalarda ham u yoki bu tarzda o'z ifodasini topgan. Masalan, shunday asarlardan biri - Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti"⁴ kitobida bir qancha ibratli lavhalar keltirilganki, ular XIII asrning birinchi yarmidagi g'oyat murakkab tarixiy sharoitlarda digtlomatiyamiz tarixida namoyon bo'lgan nodir va ibratli voqeliklar haqida tasavvur beradi. Mo'g'ullar istilosи tufayli tarix sahnasidan tushib kyetgan ulkan davlat - Xorazmshohlar imperiyasining so'nggi sultoni Jaloliddin Manguberdining kotibi tomonidan bitilgan ushbu kitobda umuman Markaziy Osiyodagi o'sha davr davlatlararo munosabatlarining ko'pgina qirralari g'oyat katta mohirlik bilan tasvirlangan.

Buyuk Amir Temurning jahon siyosat maydoniga chiqishi bilan boshlangan madaniy renessans tufayli O'rta Osiyoda o'sha paytgacha tariximizda misli ko'rilmagan darajada ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon siyosiy voqealar tavsifiga bag'ishlangan yuzlab tarixiy asarlarning vujudga kelishida ham o'z ifodasini topdi. Amir Temurning qutlug' nazari tushgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si va undan keyin bitilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari kabi bitiklarda boshqa tarixiy voqealar qatorida Sohibqiron amalga oshirgan diplomatiya sohasidagi aloqalariga hamkatta o'rinn berilgan. Bu davrdagi o'zbek diplomatiyasi tamoyillari uchun buyuk hukmdor o'z "Tuzuki Temuriy"ida bayon yetgan fikr-mulohazalari hamda yo'l-yo'riqlari asos bo'lgan. Ma'lumki, bu asarda Sohibqironning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashlari, u vujudga keltirgan ulkan imperianing siyosiy va ahloqiy prinsiplari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, ushbu nodir asar avtobiografik sajiyaga qam egadir. Temurshunos olimlarning fikricha,

¹ Siaset-name. Kniga o pravlenii vazira XI stoletiya Nizam al-Mulka. (Perevod, vvedenie v izuchenie pamyatnika, primechaniya prof. B.N. Zaxodera) Izd-vo Akademii nauk, Moskva-Leningrad, 1949. s. 101.

² O'sha asar, 104-bet

³ O'sha joyda

⁴ An-Nasavi Muxammad Jizneopisanie sultana Djalal ad-Dina Mankburnu. (Per. s arab. Z.M. Buniyatova) Baku, 1973.

"Tuzuki Temuriy" Amir Temur tomonidan davlatni idora qilish majmui sifatida bitilgan (yoki og'zaki tarzda munshiylargacha aytib yozdirilgan) bo'lib, uning vorislari uchun dasturilamal vazifasini o'tashi lozim bo'lga. Bu asar Amir Temurdan ancha keyinroq fors tilidagi tarjima - nusxa orqali dunyoga tarqalgan. Vaholanki, uning asli turkiyda yozilganligini ko'pchilik mutaxassislar ta'kidlab kelmoqdalar. U XIX asrda Xiva va Qo'qon xonliklarida o'zbekchaga o'girilgan. Qo'qon xoni Muhammad Alixonning' topshirig'i bilan ushbu asarni o'zbek tiliga tarjima qilgan Xo'jand qozisi Nabijon Mahmud o'z tarjimasining kirish qismida ushbu asarning aslida turkiyda yaratilganligini qayd yetgani holda, xon tilidan uning qukmdorlar uchun naqadar katta ahamiyat kasb yetib kelganligi go'g'risida quyidagilarri yozib qoldirgan: "Bir nusxa kutub ichra bor erdikim, jaddiy buzrukrori Hazrati Amir Kabir al-mushtaxar bilviqoye va asotir, umdatan havoqin-izzamon Amir Temur Ko'rag'on o'z a-vol va atvor, yurish va qo'nush, musoloha va muhoriba voqeotiii turkiy lug'ot birla yozib erdi va aning bir kimsa iqtizoi vaqt ila forsiy taqririga oid qilib erdi. Ul nusxai forsiyning hazrati shahriyoriy ma'nishikor manzur va malhuz aylagach, buyurdikim, "Jaddiy buzrukrorim Amir Temur Ko'ragon voqeatin agarchi salotin ibrat olib hukumat va tashir muomalasin o'rganurlar, bahodir va sipoh ham vafodorlik va xizmatguzorlik rusumini andin ta'lim olg'usidur. Munosib ko'rurki, bu nusxa yana turkiy takrirg'a roje' bo'lg'ay. Takallufsiz va iste'moli alfozi latifa va g'ariba bo'limgay, balki asvoq va navohi ahlining muqovarasig'a muvofiq kelg'ay. Tokim barcha bahodir va sipohga mahfhum bo'lg'ay"⁵.

Darhaqiqat, ushbu nodir asar hukmdorlarga boshqaruv yo'l-yo'rig'larini ko'rsatuvchi tengi yo'q darajadagi bir nasihatnama yoki ibratnomadir. Undan keyingi shoh va xonlar tomonidan bu mavzuda bitilgan qator asarlar (masalan, mashhur "Boburnoma", "Tarixi Rashidiy", "Humoyunnoma" kabi) shu buyuk daho kitobining bevosita ta'siri ostida paydo bo'lqandir. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, "Tuzuki Temuriy"ning o'zida ko'p jihatdan qadimiy turkiy bitiklarda, masalan, "Qutadg'u bilik"da bayon yetilgan davlatni idora qilish usullari, do'stu dushman bilan olib boriladigan munosabatlar mezonlari, oqilu fozillarga tayanib ish ko'rish zaruriyati kabi fikrmulohazalarga tayanilganligi va ular yanada takomillashtirilganligi ko'zga tashlanadi. Demak, davlatchilimiz sohasiga oid qadimiy bitiklarda o'z aksini topgan masalalar asrlar osha yanada sayqallahib borgan, ular ma'lum sharoit va zamon talablariga moslashtirilgan holda rivojlantirib kelingan.

Bundan keyingi davrlarda faoliyat ko'rsatgan davlatchiligmizning turli bosqichlarida yozilgan qator tarixiy-didaktik asarlarda ham o'zbek diplomatiyasiga xos uslub va ma'naviy asoslar yanada taraqqiy topdi va bu sohaga oid masalalarga aniqliklar kiritildi. Bu yerda biz bunday asarlarning har biri ustida to'xtalib o'tirish imkoniga ega emasmiz. Ularni qiyosiy o'rganish va bu sohadagi ilmning tadrijiy taraqqiyotini tahlil yetish masalasi maxsus mavzudir. Shuning uchun ham bu yyerda ana shunday asarlardan biri - Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asaridagi diplomatiya masalalarining turli qirralariga bag'ishlangan sahifalaridan bir-ikki misol keltirish bilan cheklanamiz.

Bu asar XVII asrdagi Buxoro hukmdori Subxonquli Muhammad Bahodirxon (1680-1702) bag'ishlangan bo'lib, muallif uni "Dastur ul-muluk" - "Podshohlarga qo'llanma" deb nomlagan¹. Muallif o'z zamonasining buyuk adib, tarixnavis va shoirlaridan biri bo'lga. Katta salohiyat egasi Xoja Samandar o'z asarini nafaqat ungacha yaratilgan va pand-nasihat uslubida bitilgan asarlardan, balki shaxsiy tajribasida uchragan voqeliklardan ham ta'sirlanib yozgan ko'rindi. Chunki bu har tomonlama yyetuk alloma Joniyalar sulolasidan bo'lga Buxoro xonlari - Abdulazizzon (1645-1680) va Subhonqulixon xukmronligi davrlarida o'z boshidan juda ko'p voqealarni kechirgan va ularning bevosita ishtirokchisi hamda guvohi bo'lga. Masalan, Abdulazizzon vaqtida Buxoro sarxadlariga bostirib kelgan xorazmliklarga qarshi tashkil yetilgan yurishda qatnashgan, Subhonqulixonning 1685, 1693 va 1695- yillarda Balx viloyatiga uyushtirgan harbiy tadbirlarining bevosita

⁵ Amir Temur Ko'ragon. Tuzuki Temuriy. (Arab alifbosidan kiril alifbosiga o'girish, so'zboshi, lug'at va izoh mualliflari: H. Bobobekov, H. Boboev, A. Kuronbekov) Tosh., 1999. 13-14-betlar.

¹ Xoja Samandar Termizi. Dastur ul-muluk (Podshohlarga qo'llanma). Jabbor Esonov tarjimasi, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti. T., 1997. Bu asar o'z vaqshida rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada chop etilgan edi. Qarang: Xoja Samandar Termezi. Dastur al-muluk (Nazidaniya gosudaryam). Lerevod s persidskogo, predislozie, primechaniya i ukazateli M.A. Salaxetdinovoy. Izd-vo "Nauka". Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi, M., 1971.

ishtirokchisi bo'lgan. Uning shaxsiy hayotida ro'y bergan voqealar ichida bizning mavzu uchun eng muhimi shuki, Xoja Samandar Subxonqulixonga qarshi bosh ko'targan Samarqand hokimi Xoja Quli huzuriga ikki marta elchi sifatida Yuboriladi va u yerda Buxoro xoni nomidan o'zaro kelishmovchilikni bartaraf yetish Yuzasidan muzokaralar olib boradi². Demak, o'z asarida elchilik masalalariga alohida e'tibor bergan adibning o'zi bevosita diplomatik amaliyat bilan ham shug'ullanган.

Xoja Samandar tashqi munosabatlarni yaxshilashda, boshqa mamlakatlar bilan aloqalar darajasining zamirida elchilik g'oyat katta, ayrim hrillarda hal qiluvchi ahamiyatga molikligini alohida ta'kidlaydi. Shuning uchun ham elchining dastavval o'z vatanining sadoqatli farzandi, ya'ni vatanparvar bo'lishi, o'z hukmdori va mamlakatining shon-shavkatni uchun jonini fido yetishga hamisha tayyor turishi lozimligini uqtirib o'tadi.

"Azizim,- deb yozadi u,- elchi ikki masalada nihoyat hushyor bo'lishi zarur. U o'z podshohiga sodiqligini ifodalash uchun mamlakatining nomusi, shon-shuhratini, saltanatining ulug'vorligini ehtiyoq qilishi, shuning bilan birga, dushman bilan bo'lgan munosabatida uning makr-hiyasidan hamisha ogoh va xushyor bo'lishi lozim"³.

"Dastur ul-muluk"da ham, xuddi "Qutadg'u bilik"da bo'lganidek, elchilikka yuborilayotgan shaxsning aqli raso, tili, ya'ni nutqi ravon va go'zal bo'lishiga, u ochiq yuzli va yoqimli xulq-atvor sohibi bo'lmoqligiga alohida e'tibor beriladi. "Azizim, elchi o'tkir, yaltiroq shamshirga monand tildan chaqqonlik va mohirlik bilan foydalanishi lozim, -deb xitob qiladi Xoja Samandar. - Ammo uning ochiq yuzli, go'zal muomalasi biron-bir murosaga kelish yoki sulh tuzish paytida muloyim, yoqimli nutqidan taralib, so'z javharlaridan bilinib tursin. Agar u o'z nutqining avvalida dag'al, qo'rs, keskin so'zlar borligini sezsa, bunday so'zlarni yumshoqlik qaychisi bilan kesib tashlashi lozim. Elchi nutqining boshlanishida do'q-po'pisa tarzidagi so'zlarni aytgan bo'lsa, gapning xotimasini yaxshi, yoqimli munosabatlarni, mehribonlikni anglatadigan so'zlar bilan tugatishi kerak»⁴.

Ayni vaqtda bu asarda har bir mamlakat va el bilan bo'lgan munosabatlar darajasini belgilaydigan omillarni, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni, aniq rejalashtirish va har vaqt buni atroflicha tushuntirish, ya'ni elchini unga yuklatilgan vazifadan har tomonlama xabardor yetishga katta e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, o'z vakolati darajasi va zimmasiga yuklatilgan vazifadan yaxshi ogoh bo'limgan elchilik natijasidan qutlug' mujda kutib bo'lmaydi. "Azizim, - deya hukmdorga murojaat qiladi Xoja Samandar, - elchini biror joyga jo'natishda nihoyat katta e'tibor va ahamiyat bergen, unga safar mohiyati va mazmunini chuqur tushuntir. Chunki elchi podshohning tilidir".

Xoja Samandarning elchilik va elchilar haqidagi g'oyat teran muloqazalaridan yana biri shuki, muallif hukmdorlarni tarixiy o'tmishda diplomatiya sohasida yuz bergan xatolarni takrorlashdan yiroq bo'lish, elchilar tanlashda goyat ehtiyoqkorlik bilan ish ko'rish, bu ishga belgilangan shaxslar bilan o'zi o'rtasidagi munosabatlar darajasiga alohida e'tibor berish, ularning sadoqatini sinab ko'rish kabi qator masalalarga har vaqt katta e'tibor berish lozimligiga qaratishga harakat qiladt. U diplomatiya tarixi tajribasidan, ehtimol, mo'g'ul istilosidagi voqealardan kelib chiqqan holda, bu masalada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Azizim, to'rt toifa odamni elchi sifatida yubormaslik tajribada isbotlangan. Birinchisi - podshohdan jafo ko'rgan, ikkinchisi - mol-mulki, hurmat-izzati podshoh g'azabi shamoli bilan sovurilgan, uchinchisi - o'z amalidan haydalagan, to'rtinchisi - podshohning zarari hisobidan o'z manfaatini ko'zlagan, ya'ni davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yan kishilarni davlat elchilarini qilib yuborish aqldan uzoqdir. Zero, tajribadan shu narsa ma'lumki, zeb-ziynatdan, obro'-e'tiboridan judo bo'lgan odamning qalbiga alam-iztirob tikanagi qadalgan bo'ladi. Shu bois bunday kishi dushmanning kuch-quvvati va shavkatini o'z davlatining kuch-quvvatiga nisbatan ustun, ortiq deb hisoblab, shunday bir paytda fursat topib, qalbida yashirinib yotgan adovatni yuzaga chiqarib, podshohga xiyonat qilish yo'liga kirib, unga qarshi fitna uyushtirishi mumkin"¹.

² O'sha asar, 80-bet.

³ Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk (Podshohlarga qo'llanma). 80-bet.

⁴ O'sha asar, 81-bet.

¹ O'sha asar, 81-bet.

Bundan keyingi yillarda bitilgan turli tarzdagi qator tarixiy asarlarda ham yurtimiz elchilik munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, elchilarga topshirilgan vazifalarniig bajarilish mezonlari, elchilarning shaxsiy xususiyatlarining mamlakatlararo munosabatlarga ko'rsatgan ta'siri kabi juda ko'plab masalalar bayoniga duch kelamiz. Ularning asosiy qismi bu sohaga oid ayrim voqe-hodisalarining tafsiloti tarzida berilgan bo'lsada, ammo har bir ayrim holning zamirida yuqorida zikr qilingan nazariy pandlarga tayanilganligi sezilib turadi. Masalan, buxorolik Salimi o'zining "Kashkuli Salimi" kitobida amir Nasrullo (u 1827 yilda taxtga o'tirgan) davrida elchilikka tayinlangan ikki shaxsning bir- biridan farqini, ulardan bittasi o'zining cheklanganligi va so'zga usta bo'limganligi tufayli Eron va Buxoro o'rtasiga sovuqlik tushirishi mumkin bo'lgan holatga tushganligini, ikkinchisi esa zukkoligi tufayli bunday mushkul ahvoldan juda ustalik bilan chiqib kyetganligini hikoya qiladi. "Sayyid Amir Nasrullo podsho bo'lganidan keyin, - deb yozadi u, -uzoq va yaqin podshohlarga elchilar yuborib, o'zining saltanat taxtiga o'tirganini xabar qildi. Shu jumladan, Qobulbek Biy Qirq Eron podshosi Muhammadshoh Qojorga, o'n kundan so'ng Boltaqlbek Chig'atoybegi Qirq Turkiya sultonı Abdulkmajid xalifaga elchi qilib tayinlandi"². Qobulbek Biy Eron shohi bilan uchrashdi. Ammo shoh Buxoro elchisini yaxshi qabul qilmaydi, uning mamlakatiga nisbatan bo'lgan adovatini to'kib soladi.

Yuqoridagi manbada zikr yetilishicha, Muhammadshoh Qojor elchiga: "Buxoro xalqi Eron fuqarolarini o'g'irlab sotib tirikchilik o'tkazadilar - u, buning ustiga sharm-hayo qilmasdan, podshohlarga elchilar ham yuboradilar", deydi. Qobulbek Biy esa bunga javob topolmasdan sukat qiladi.³ Bu yyerda gap o'sha davrda Turkistonda mavjud bo'lgan qullar va qul savdosi haqida boradi. Qullarning asosiy qismi Eronning shimoli-sharqiy sarhadlariga uyushtirilgan "olomonlar" chopqini natijasida asir sifatida keltirilgan shialardan iborat bo'lgan. Bu masala o'z vaqtida Eron bilan Turkiston xonliklari diplomatik aloqalaridagi muzokaralarning asosini tashkil yetgan. Bu parchada Eron shohining ana shu holga shama qilib, Buxoro elchisini mulzam yetganligi ko'rsatilgan. Afsuski, Buxoro elchisi bunga qarshi biror so'z deya olmaydi, to'g'rirog'i, uning akl-farosati kamligi ana shunday qaltis vaziyatdan chiqib kyetishga imkon bermaydi. Ammo oradan bir hafta o'tgach, Boltaqlbek Chig'atoybegi Turkiyaga Eron orqali safarga chiqib, qabul qilingan taomilga ko'ra, bu mamlakat podshohiga ham (garchi unga maxsus elchi "Yuborilgan bo'lsada) o'z hukmdorining hurmat-e'tiborini izhor qilgani Tehronda to'xtab, sovg'a-salomlar bilan Nasriddinshoh xuzuriga kirgani qikoya qilinadi. Shoh unga ham yuqoridagi so'zlar bilan murojaat qiladi. Salimiyning yozishicha, Chig'atoybegi bu mushkul holatdan donolik bilan qutula oladi va hatto shohning e'tiboriga ham tuyassar bo'ladi. U shunday yozadi: "Shahanshohning o'zlariga ma'lumki, - deb javob beradi Chig'atoybegi, - qadim zamonlardan buyon Buxoro podshohlar ko'pgina mamlakatlarga hukmron bo'lib, nom chiqqanganlar. Bu borada hech kimda shak-shubba bo'lmasa kerak. Buxoro bilan Eron o'rtasida turkman jamoasi borki, u na Buxoro, na Eronga tobedir. Ular o'zboshimChalik bilan beboshlik qilib, Eron fuqarolarini qo'lga tushirib o'g'irlab olib boradilar. Buxoro xalqi dindorlik vajhidan, muruvvat va shafqat yo'li bilan ularni ma'lum bahoda sotib olib, o'z uy ichi va uydan tashqari yumushlarini ularga topshiradilar. Oz fursatda ozod bo'lib, Buxoro xalqining yaxshiligi sababidan u yerda uy-joylik, bola-chaqalik va mol-dunyolik bo'ladilar. Podshoh xizmatida yuqori mansablar egallab Eron viloyatini unutadilar". Salimiyning ta'kidlashicha, Nasriddinshoh bu javobdan qanoatlanib, "Sen o'z javobing bilan meni xursand va xotirjam qilding» deb, pul, maxsus sarpo va ko'k ot in'om qilib, mehribonlik ko'rsatadi. Bir necha kun ziyofat qilib, odam qo'shib Stanbul chegarasigacha kuzatib qo'yadi".⁴ Bu parChalarda "Qutadg'u bilik" da ta'riflangan elchiga xos donolik xususiyatlarining namoyon bo'lishi ikki davlat o'rtasidagi anglashilmovchilik g'ovi vaqtincha bo'lsada oradan ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Umuman, Turkiston sarhadlaridagi davlatlar o'z elchilik munosabatlarida har vaqt yuqorida ta'kidlangan asosiy qonun-qoidalarga rioya qilib kelgan. Bunday voqealarga g'oyatda boy o'tmishimizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, bu zamindan boshqa mamlakatlarga yuborilgan elchilar asosan o'z yurtlariga o'ta sodiq, sotqinlik nimaligini bilmaydigan, lozim bo'lganda o'z vatani uchun jon fido qilishga hamisha tayyor shaxslar bo'lgan.

² Kashkuli Salimi va Tarixi mutaqaddimin va mutaxayirin. Toshkent, 1912. 268-269-betlar (fors tilida).

³ O'sha joyda.

⁴ O'sha joyda.

Chunki hukmlorlar Turkistonda azaldan o'rnatilgan tartib-qoidalarga qattiq rioya qilganlar, chyet ellar bilan bo'lган o'z munosabatlarini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash ishiga katta ehtiyojkorlik bilan yondashganlar. Ko'pgina hollarda bu yerdan yuborilgan elchilar o'z vazifalarini ado yeta turib hatto halok ham bo'lganlar⁵.

Shuni ham aytish kerakki, hukmdorlar elchilik ishiga o'z a'yonlari ichidan iloji boricha eng zukko va obro'li zotlarni jalg yetar ekanlar, ularning faoliyatiga bu g'oyat mas'uliyatli vazifani qay darajada ado yetishlariga qarab baxr bergan. Agar elchilikning natijasi maqsadga muvofiq tarzda yakunlansa, unda bunday elchilar o'z diplomatik faoliyatlarini davom yettiraverganlar, aks holda ularni bu sohadagi xizmat vazifasi bir martalik safar bilan cheklanib qolavergan. Qo'lyozmalarda, ayniqsa, Xiva solnomalarida bu haqda juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Ularga tayangan holda shu xulosaga kelish mumkinki, Turkiston davlatchiligi tarixida ko'pgina hollarda davlat devonida hozirgi tushuncha bilan aytiganda, elchilik bilan shug'ullanuvchi maxsus va doimiy diplomatik korpuslar vujudga kelgan. Ular o'z davri taqozosiga ko'ra nainki oylar, balki yillarga cho'zilgan safarlarda birin-kyetin ishtirok yetib, umrlarini elchilik ishiga, o'z vatani bilan xorijiy mamlakatlar o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatishtek ezgu ishga baxshida yetganlar. Elchilik munosabatlarini joriy yetishdagi bu tamoyil ham Turkistonda qadim davrlardan tortib to Rossiya bosqiniga qadar, so'nggi o'zbek xonliklari o'z mustaqilliklarini yo'qotgan vaqtgacha davom yetib kelgan.

Yurtimiz tarixida faoliyat ko'rsatgan davlatlar diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning boshqa xalqlar, mamlakatlar va ularning hukmdorlariga nisbatan g'oyat hurmat va e'tibor bilan yondashishida o'z ifodasini topgan. Bu hol bizgacha yetib kelgan elchilik yozishmalarini mazmunidan shundoq ko'rinish turibdi. Bunga ham, fikrimizcha, uning tamal toshini qo'yan qadimiy yo'l-yo'riqlarning og'ishmay va izchillik bilan avloddan-avlodga o'tib kelganligi sabab bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar majmuasida ko'plab diplomatiya tarixiga oid hujjatlar jamlangan, maktublar to'plamlari mavjud. Ular turli tarixiy davrlarga mansub bo'lib, Turkiston hukmdorlari tashqi dunyo bilan Yuritib kelgan aloqalarni o'zida mujassam yetgan. Masalan, 2278 raqamli "Maktuboti Temuriya" to'plamiga Amir Temur va temuriylar xonadoniga taallukli turli shahzoda, kichik hukmdorlarga yuborilgan xatlar, ularga berilgan javoblar namunalari kiritilgan bo'lib, ular o'sha davr diplomatiya qonun-qoidalari, tashqi munosabatlar oldida ko'ndalang turgan qator muammolarga oydinlik kiritadi. 295/XXU11 raqamli "Har xil mazmundagi xatlar" - "Maktuboti muxtalifa" qo'lyozmasida jamlangan maktublar esa 1489-1511 yillar ichida Abdul Hasan nomidan Lahordagi hind shohiga bitilgan nomalarni o'z ichiga olgan.

XVI-XVII asrlarga oid qo'lyozmalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xazinasida saklanayotgan qo'lyozma to'plamlarga kiritilgan Buxoro amiri Abdullaxonning Hindiston podshohi Akbarshohga yozgan maktublari, Akbarshohning "Abdullahon O'zbekka birlikni kuchaytiruvchi maktub" nomli xati, Abulfazl Allomiyning "Makotibi Abulfazl Allomiy" to'plamidan joy olgan Abdulaziz Muhammad Bahodirxonning Hindiston podshohlari Shoh Jahon va Shoh Avrangzebga yozganlari hamda "Amir Haydar maktublari" kabi qo'lyozma asarlar ham shular jumlasiga kiradi.

Mazkur qo'lyozmalarda, asosan, "ulug' ajdoddlardan meros qolgan" yakjihatlik munosabatlarini davom yettirib, o'zaro elchilar, maktublar va sovg'alar yuborib turish istagi, podshohlarning taxtga o'tirishi yoki turli jangu jadallarda erishgan yutuqlari bilan qutlov va tabriklash, bir-birining ahvoldidan xabardor bo'lisch, yoxud biror maqsadda kuchlarni birlashtirib gadbir ko'rish kabi istaklar ifoda yetiladi, ya'ni diplomatik aloqalarning turli qirralari yoritiladi.

Turkiston sarzaminida faoliyat ko'rsatib o'tgan davlatlar hukmdorlarining bizgacha yetib kelgan barcha diplomatik yozishmalariga xos dastlabki narsa shuki, ularning hammasi yuborilgan el yoki mamlakatlarning ulug'lari va hukmfarmolariga nisbatan g'oyat katta hurmat bilan bitilgan. Aslida, elchilar orqali Yuborilgan bu maktublarni qo'shni yoki uzoq davlatlar, ularning xalqi va

⁵ S.M. o'zining "Rossiya tarixi"da yozishicha, knyaz Berkovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasining halokati (1717 yil) munosabati bilan Peterburgga yuborilgan Xiva xoshshgining rasmiy elchisi Avaz Muxammad "o'ch" olish maqsadida qamoqqa tashlab o'diriladi. Qarang: S.M.Solovev. Istorya Rossii s drevneyshix vremen. Kniga IX (toma 17-18). Izd-vo sots-ekon. literatur. M., 1963. s. 354.

hukmdori sha'niga qaratilgan maqtov hamda ezgu tilaklardan iborat bir payg'om-hujjat shaklida baholash ham mumkin, Faqat yaxshilik va o'zaro hurmatni qaror toptirishga qaratilgan ushbu uslub qadimdan tortib to so'nggi o'zbek xonliklari davrigacha og'ishmay davom yetib kelgan. Bunga yuqorida eslatilgan maktublar misol bo'la oladi.

Ushbu diplomatik uslub tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki anglashilmovchiliklarni muzokalar yo'li bilan hal yetishga, ko'pchilik hollarda oradagi gina-kuduratlarg'a barham berishga, umuman, yaxshi munosabatlар yo'lida paydo bo'lган turli g'ovlarni bartaraf yetishga hamisha yo'l ochib kelgan. Shuning uchun ham yurtimiz tarixidagi barcha hukmdorlar odatda elchilik aloqalaridagi ana shu an'anaga amal qilishga harakat qilib kelganlar.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, qadimdan o'rnashib qolgan va avloddan-avlodga o'tib kelgan elchilik yozishmalaridagi ushbu tartib-qoida hatto ultimatum tarzida yozilgan maktublarda ham buzilmaganligini ko'ramiz. Ana shu tarzdagi xatlarda ham hukmdorlar raqib shon-shavkatini tuproq bilan qrrishtiruvchi, uni yerga uruvchi va tahqirlovchi iboralarni ishlatalishdan o'zlarini tiyib kelganlar. Masalan, Ibn Arabshoh sulton Boyazidning Amir Temurga yozgan so'nggi maktubida juda ko'p nojo'ya va haqoratli iboralar ishlataliganligini aytib, bunday gap-so'zlar Turkistonlik hukmdorlarga xos emasligini va ular, jumladan, Amir Temur bunday hatti-harakatlardan hamisha yuqori turishlarini alohida qayd yetadi. Buni shu bilan isbotlasa bo'ladiki, Amir Temur Boyazid Yildirimning eslatilgan maktubiga g'oyat bosiqlik va o'ziga xos ulug'vorlik bilan javob qaytaradi. Shomiyning yozishicha, sulton Boyazidning ushbu maktubini keltirgan elchilarga u "ish ko'rgan o'z odamlaridan birini elchi sifatida qo'shib", unga quyidagi mazmunda bitilgan o'z xatini zudlik bilan yyetkazishni buyuradi: "...Biz sening nasab va xonadoning ahvolini bilamiz va aslu naslingni taniymiz. Agar o'z haddingni saqlab, o'z qadring palosi o'lchamidan tashqariga qadam bosmasang, sening uchun yaxshidir. Yana bilgilki, sen farang lashkari bilan g'azot va jang qilayotganligingni eshitib, to hozirgacha sening diyoringga dahl qilmadik va u mamlakatga bizning nusratli askarlarimizdan biror zarar yetishini xohlamadik... Hozir sen ortiqChalik maqomiga qadam qo'yib, o'z haddingdan tashqari so'zlarni aytayapsan... Aqlni ishlatib, fitnayu balo eshigini o'z yuzingga ochma"¹.

Amir Temur maktubidan keltirilgan ana shu juz'iy parchada ham Turkiston diplomatiyasida tarkib topgan yozishmalarga xos uslub o'zini namoyon yetib turibdi.

Elchilik yozishmalarida odatda elchi yuborishdan ko'zlangan maqsad atroflicha bayon yetilmagan. Ularda faqat elchining yuborilayotganligi, uning nasl-nasabi va ism-sharifi qayd yetilgan, xolos. Bunday qaraganda, xatlар odatda elchining vakolatini tasdiqlovchi ishonch yorlig'i vazifasini o'tagan ko'rindi. Ko'pchilik hollarda maktub ohrilda "qolgan gaplarni elchining o'zidan eshitursiz", deyilgan ibora qayd yetilgan. Bu narsa, birinchidan, uzoq davom yetgan safar vaqtida ikki o'rtadagi munosabatlarga dahldor masalalar tafsilotidan uchinchi tarafning, ba'zan esa raqib tomonning ogoh bo'lib qolmasligi hisobga olinib qo'llangan uslub bo'lsa, ikkinchidan, yuborilgan elchining vakolati naqadar yuksak ekanligi va u o'z hukmdori nomidan har qanday mushkul masala yuzasidan muzokalar yuritishga haqli ekanligiga ham ishora bo'lgan.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni yakunlab, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Turkiston (o'zbek) elchilik munosabatlari qadimiy tarixga ega bo'lib, u bundan uch ming yil muqaddam sarhadlarimizda tashkil topgan dastlabki davlatchilik uyushmalarining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan;
2. Uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va amaliy yo'l-yo'rig'lari bu zamin allomalari asarlarida har tomonlama puxta ishlanib, asrlar mobaynida sayqal topib keldi;
3. Tariximizning barcha davrlarida turkiy hukmdorlar o'z elchilik munosabatlarida bu sohada tarkib topgan qadimiy qonun-qoidalar va ajdodlar pand-nasihatlariga rioxo yetishga harakat qilib kelganlar.

O'RTA OSIYONING ARAB ISTILOSI DAVRIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARI

Bu davr O'rta Osiyo tarixida g'oyat murakkab bir bosqichni tashkil yetadi. Ma'lumki, arab

¹ Nizomiddin SHomiyl Zafarnoma. (Fors tipidan o'giruvchi - Yunusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab, nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir - Asomiddin O'rbinboev) 7", O'zbekistop, 1996. 284-285-betlar.

istilosini boshlanishi arafasida Turkistonning g'arbiy mintaqalari Buyuk Turk xoqonligining ishixidlari (hokimlari) hukmronligida edi. Ammo ishixidlari Turk xoqonligining bu davrga kelib ojizlanib qolganidan foydalangan holda mustaqil siyosat Yuritishga harakat qilar edilar. Shu bilan bir qatorda, ular hali to'la ravishda mustaqil atributlarga ega emasdilar. Bu jarayon o'z navbatida O'rta Osiyoda siyosiy parokandalik, markazdan chyetlashishni o'zida aks yettirgan turli voqeliklarning avj olishiga sharoit yaratari edi. Har bir katta tarixiy burilishning o'z sababları mavjud. Arablar istilosining janubi – g'arbdan yopirilib kelish vaqtida O'rta Osiyoda yagona va kuchli mustaqil davlatning yo'qligi hamda bu yerdagi turkiy qavmlarning o'zaro birligi ta'minlanmagan paytga to'g'ri keldi. Bu hol, tabiiyki, islam bayrog'i ostida birlashgan va g'oya yo'lida o'zini qurban qilishga tayyor turgan hamda ko'plab jangu jadallarda g'alaba qilib tajriba orttirgan muntazam arab qo'shinlari uchun O'rta Osijo sarhadlariga bostirib kirish uchun g'oyat katta qulaylik yaratgandi. Shunga qaramasdan, O'rta Osiyoning bosib olinishi va uning to'la ravishda bo'ysundirilishi qariyb ikki asrga cho'zildi. Bu davr tariximizning eng murakkab va ayni vaqtida mazmunli (islom dinining qabul qilinishi) davrlaridan biri bo'ldi.

Ana shu murakkab va siyosiy voqealarga g'oyat boy, sermashaqqat tarixiy bosqichda ro'y bergan diplomatik munosabatlari ham o'ziga xos saviyaga ega bo'ldi. Bu haqdagi ma'lumotlar, garchand to'la bo'lmasada, o'sha davrda yozilgan ko'plab arab manbalarida, sug'diy hujjatlarda o'z aksini topgan. "Kitob futuh al-buldon" (al-Belazuriy), "Kitob al-buldon" (al-Ya'qubiy), "Tarix ar-rusul va al-muluk" (at-Tabari), "Kitob al-masoliq va al-mamolik" (Ibn Xo'rdodbek), Ibn Fadlan taassurotlari kabi o'nlab asarlar shular jumlasiga kiradi.

O'sha davr manbalarini ma'lumotlariga tayangan holda, bizning sarzaminda o'zaro olib borilgan diplomatik aloqalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Arab lashkarboshilari bilan mahalliy hukmdorlar o'tasida olib borilgan aloqalar.

Bu tarzdagi munosabatlari asosan tomonlarning o'zaro kurash jarayonidagi yoki urush arafasidagi holatlarini o'zida aks yettirgan bo'lib, ular ko'proq arablarning ultimatum tarzidagi talablari hamda mahalliy hukmdorlarning ularga Yuborgan ijobjiy yoki salbiy javoblaridan iboratdir. Voqealarning keyingi rivoji ana shu yozishmalar natijasiga qarab belgilangan. Shu bilan bir qatorda, ayrim paytlarda arab istilochilari ahvoli tang bo'lganda ma'lum yon berish evaziga u yoki bu mintaqada o'z pozitsiyalarini saqlab qolish uchun mahalliy hukmdorlar bilan muzokaralar olib borganlari haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

2. Mintaqadagi turkiy xalqlar o'tasida islomni tinch yo'l bilan joriy yetish uchun arablar tomonidan tashviqot guruhlari-elchiliklari faoliyati haqidagi ma'lumotlar. Bunday elchiliklari hatto Volga bo'ylaridagi turkiy xalqlar yyerlariga ham yuborilgan. Ular ayrim hollarda muvaffaqiyat qozonganlar, ba'zan mag'lubiyatga uchraganlar.

3. O'rta Osiyodagi mahalliy hukmdorlarning arab istilochilari xavfi arafasida va istilo jarayonida o'zaro birlashishga, bir-birlariga madad berishga qaratilgan yozishmalari va elchilik faoliyatlar.

Umuman olganda, o'sha davr arab va fors manbalarida O'rta Osiyodagi xalqlar bilan arab istilochilari o'tasidagi munosabatlari haqida so'z borar ekan, ularda barcha aloqalar turkiy qavmlar bilan olib borilganligi, shaharlar va istehkomlar turkiylar tomonidan mudofaa qilinganligi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, mahalliy aholiga nisbatan mensimaslik qabilida yozilgan ko'plab satrlarga ham duch kelamiz. Bu hol, birinchidan, istilochilarning o'z dushmanlariga nisbatan yuqorida turib muomala qilishga harakat qilganliklarini ko'rsatsa, ikkinchidan, ularni g'ayridin hisoblab, ana shunday ta'rif-tavsiflarga yo'l qo'yanliklarini ifoda yetadi. Shuning uchun ham bu tarzdagi yondashuvlarga tanqidiy qarash lozim bo'ladi. Masalan, At-Tabariyning yozishicha, arablar Buxoro yaqinidagi Ashras degan istehkomni egallaganlarida, turkiylarning Farg'ona, Taraband, Afshona, Nasaf hamda Buxorodan

kelgan birlashgan qo'shinlari ularni qurshab oladi. Ikki orada muzokaralar boshlanadi. Arablarga, agar ular taslim bo'lishsa, avf e'lon qilinishi aytildi. Shunda muzokaraga kelgan arablarning vakili Yazid bin Said al-Baxili shunday deydi: "Bu narsa pishmaydigan savdo. Arablar bo'ri bo'lsayu, qanday qilib qo'y bo'lgan turkiylarga bo'ysunishi mumkin. Oramizda yarash bo'lishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas". Bu joydag'i jangda, deb ta'kidlaydi at-Tabariy, ko'p

arablar shahid bo'ldilar.¹

Ibn Fadlan o'z xotiralarida Buxorodagi Somoniylar tobe'ligidagi bir guruh arablar elchi sifatida Amudaryodan kemaga tushib, Shimoliy Xorazm tomon yo'l olganliklarini yozadi. Elchilarga g'ayridinlar o'rtasida islomni targ'ib yetish, ularni musulmonlikni qabul qilishga ko'ndirish vazifasi yuklatilgandi. Ular kema bilan bir necha kun daryoda suzib, Janubiy Xorazm poytaxti Kat shaxriga yyetib keladilar. Elchilar bu yyerda Janubiy Xorazm shohi Muhammad ibn Iroq huzurida bo'ladilar. U Somoniylar amirlarini tan olgan mahalliy hukmdor edi. Shox elchilarni katta xushnudlik bilan qabul qiladi. Elchilik - Susamar - Rassiy, Takin at-Turkiy, Barsa as-Saklabiy va Ibn Fadlanlardan iborat edi².

Janubiy Xorazm shohi Takin at-Turkiyga nisbatan ishonchsizlik bildiradi va uni elchilik-tarkibiga qo'shmaslikni maslahat beradi. Bu masalani yechish uchun u elchilarga Xuroson amiriga xat yozishni, undan Bag'dod xalifasidan ruxsat olib berishni iltimos qilishlarini aytadi. Ammo elchilar bu maslahatni ma'qul ko'rsalarda, uni bajarish uchun ko'p vaqt kyetishini aytib, shohdan uzr so'raydilar va o'z yo'llarini davom yetishga ruxsat berishini iltimos qiladilar. Natijada ular qishsovug'iga qaramay Shimoliy Xorazm yerlari sari ravona bo'ladilar. Bu joylardi turkiy qavmlarni islomga tobe qilib, so'ngra asosiy maqsad - Volga bo'yidagi Bulg'or xonligiga borish edi. Bu elchilikning tafsilotiga to'xtab o'tirmasdan, faqat bir narsani eslatib o'tish joiz bo'ladi. Shimoliy Xorazm va u bilan tutash cho'l mintaqalarida istiqomat qilgan qavmlar ko'p hollarda arablar bilan islom dinini qabul qilish haqidagi suhbatlar va uchrashuvlarda, Ibn Fadlanning yozishicha, "Bir Tengri", ya'ni Xudo bitta ekanligini hamma gan olganligini bildirib, boshqa dinga. ya'ni islomga o'tishni ma'qul ko'rmaydilar.³ Bu hol, birinchidan, joylarda azaldan turkiy xalqlarning istiqomat qilib kelganligini ko'rsatsa (Ibi Fadlan o'zasarida "Bir Tengri" iborasini keltiradi), ikkinchidan, ularning islomgacha bo'lган diniy e'tiqodlari haqida ham yangi ma'lumotlar beradi. Shuningdek, bu narsa, yuqorida ta'kidlanganidek, Turkiston mintaqasida islom dinining osonlik bilan tarqalmaganligini, bu yyerdagи turkiy xalqlar uzoq vaqtlar davomida o'z e'tiqodlarida qolganliklarini ham ko'rsatadi.

Arab istilochilariga qarshi kurashda o'zaro ittifoq tuzish uchun bo'lган urinishlar sug'diycha hujjatlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Garchi Yuqorida eslatib o'tilgai arab va forsiy manbalarda mintaqadagi turkiy qavmlar o'zaro dushmamlikda hayot kechirib kelganliklari tufayli, ular siyosiy va harbiy jihatdan uyushishga qodir emasdilar, (jumladan, at-Tabariyda bu hol ko'proq ta'kidlanadi) deyilgan fikr hukmron bo'lsada, bizgacha yyetib kelgan ayrim sug'diy ma'lumotlar buni rad yetadi. To'g'ri, o'zaro ittifoq tuzishga moyillik hamma joyda ham bir xilda namoyon bo'lмаган. Ammo tashqi xavf oldida uyushish yo'lida harakatlar yuz berib turgan. Demak, bu masalada ham manbalardagi axborotlarga tanqidiy yondashish lozim bo'ladi. Bunga 732-714 yillarda yozilganligi taxmin yetilgan, Sug'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan maktubi yorqin misol bo'la oladi. Bu maktub Sug'd podshohi Samarqand hokimi Devashtichga yo'llangan. Maktub muallifi podshoh Devashtichning Chochga (Toshkent), undan turk xoqoni hamda Farg'onaga podshohi huzuriga maxsus diplomatik vazifa bilan, xususan, arab istilochilariga qarshi birlashib kurashishni tashkil qilish maqsadida yuborgan elchisi Fatufarndir.

Ushbu diplomatik hujjat arab istilosiga yillaridagi vatanimiz diplomatik munosabatlariga taalluqdi g'oyat muhim sug'diy mujda bo'lганligi uchun ham u haqda batafsilroq to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Samarqand hokimi Devashtichning Choch (Toshkent) va Farg'onaga do'stlik va arab istilochilariga qarshi ittifoq tuzishni taklif yetib yo'llagan maxsus elchisining o'z hukmdoriga yozgan nomasi quyidagichadir:

"Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug'd podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e'tiborsiz ("millioninchi darajali") quli Fatufarndan murojaatnomasi.

Janobi hukmdor, (senga) butun shon-sharaf (egasiga) ko'pdan-ko'p ta'zim yo'llayman ("murojaat qilaman") va janob, men bu erga, Choch hukmdori huzuriga keldim. Janob, xatlarni ham topshirdim, og'zaki ("til bilan") lozim bo'lган murojaatlarni ham to'liq, oqizmay-tomizmay

¹ Istoriya at-Tabari. T., Fan, 1987. s. 99.

² Puteshestvie Ibn-Fadlana na Volgu. (Perevod i kommentarii pod red. I. YU. Krachkovskogo) Moskva-Leningrad, 1939. s. 57.

³ 1. O'sha joyda, 60-bet.

("qoldiqsiz") bayon yetdim.

Tudunga ham, uning yordamchisiga ham. Va janob, xoqonga (mo'ljallangan) xatni ham, Farg'ona podshosiga mo'ljallangan xatni ham Farg'ona tutig'i qo'li bilan (orgali) Farg'ona podshosi tomon jo'natdim. Janob, men shu tufayli yuqoriga tomon (yana yo'l) yura olmadimki, xabarlarg'a ko'ra xoqon (hech) ko'rinnmas emish. Janob, tudundan va uning yordamchisidan xat va og'zaki javoblarni oldim va javob (yo'lga chiqib) Anvartkonga (yyetib) kelganimda, janob, Chodirchik haqida yaxshi xabarlar eshitmadim hamda Ustrushon viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan.

Janob, men yoppa-yolg'iz behamroh holda (yo'limni davom yetib) yurishga jur'at qila olmayapman. Janob, ikkinchi qayta Choch tomon qaytib keldim. Buning uchun hukmdorimdan juda yomon qo'rquyapman. Janob, tudun chekindi, bitimga ko'ra Jamra-vaz va fors lashkarboshisi quyi tomon kyetdilar.

Xabarlar (borki) tovon undirib olish va kuchlarni arablardan nariga olib kyethish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlarg'a binoan xvonak hech ko'rinnmaydi, chunki ular Yuqoriga qarab kyethishdi va haligacha hech kim qaytib kelgani yo'q.

Janob, tudun Tarband bilan bitim tuzgan edi. U yyerdagi hamma joylarni oldi. Janob, Chodirchikda (tuzilgan) sulh munosabati bilan, eshitishimcha ("Sulh xabari tufayli") yordamchi juda g'amgin, anduhnok bo'lmoqda va yana yoniga borolmagani uchun sendan ("hukmdordan") qo'rmoqda.

Janob, so'ngra sen tomondan ("hukmdordan") xabarlar kelmay qoldi.

Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo'li orgali Kand tomonidan (aylanma yo'l bilan) jo'natdim.

Janobi qukmdor, buyuk tayanchimiz Sug'd podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e'tiborsiz ("Millioninchi darajali") quli Fatufarndan maktub¹.

Ushbu maktub elchi Fatufarn tomonidan shunday qaltis va uning uchun noqulay vaziyatda yozilgan ediki, aftidan elchi o'z safari vaqtida bunday holatning vujudga kelishini sira kutmagan edi. Gap shundaki, Fatufarn Chochga kelgach, tudun deb nomlangan Choch xokimiga va uning yordamchisiga tegishli maktub va og'zaki aytilishi lozim bo'lgan gaplarni yyetkazadi. Ulardan javob maktubini oladi. Lekin turk xoqoni bilan uchrashishning ilojini topmaydi. Vaziyat taqozosi bilan xoqonga va Farg'ona podshohiga tegishli maktublarni Farg'ona tutuni (shu kunlarda Chochda ekan) orgali jo'natadi. Shoshilinch Sug'dga qaytgach, Fatufarn Ustrushan viloyati arablar qo'liga o'tib, yo'li qirqilib qolganligini bilib qoladi. YOlg'iz holda yo'lni davom yetishga jur'at qilolmay Chochga qaytib keladi va shu yerda turib, Devashtichga ushbu maktubni yozib, Marvon ismli kishidan aylanma yo'l - Konibodom orgali Sug'dga jo'natadi. Maktubning yozilish tarixi, sanasi haqida turlicha fikrlar bayon yetilgan. Jumladan, V.A. Livshis turli tarixiy faktlarga suyanib, uni 712-714 yillarda yozilgan, deb taxmin qiladi. Haqiqatdan ham bu yillarda arab istilosini Jizzax, Zomin, O'ratega, Xo'jand viloyatlariga, Choch-Toshkent voxasiga yoyilib ulgurgan, uning asosiy yo'nalishi Farg'ona vodiysiga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan V.A. Livshis elchi Fatufarnning qaytishiga mone'lik qilgan vaziyatni arablar tomonidan Ustrushanning egallanishi orgali izohlagan edi². O.I. Smirnova esa, Devashtichning podshoh deb ko'rsatilishiga tayanib, ushbu elchilik missiyasini 720-721 yillar bilan

bog'laydi. V.A. Livshis Sug'dning VII asr ohiri va VIII asr boshlaridagi xokimlar masalasi bilan bog'liq hujjalarni taddiq yetar ekan, yana bu masalaga qaytib, unga aniqlik kiritadi - bu maktub Devashtich podshohlik qilgan 717-718-719 yillarning biriga to'g'ri keladi, degan xulosaga keladi³. Haqiqatan ham, xatning mazmuniga qaraganda, uning yozilish vaqtini xuddi ana shu ikki yilning biri bilan belgilanishiga shubha qolmaydi.

Maktub matni tarkib jihatidan ikkiga bo'linadi: birinchi qismida Fatufarn shaxsan podshohga yyetkazishi lozim bo'lgan xabar mazmunidan iborat fikrlar bayon yetilgan bo'lsa, uning ikkinchi qismida Fatufarn o'zi kuzatgan harbiy-siyosiy vaziyat hamda bu haqdagi xulosalari haqida

¹ Ishoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar (Bir turkum sug'd hujjalaringin o'zbek tiliga tarjimasi va izohlar). T., Fan, 1992. 5-6-betlar.

² Sogdiyskie dokumentsh s gorsh Mug. Vt. /-/1. M., 1963. s. 84.

³ Livshits V.A. Praviteli Pyancha. "Narodы Azii i Afriki", 1979, №4. s. 62-6.1

ma'lumot keltiradi.

Ushbu tarixiy hujjatda qayd yetilgan mas'ul shaxslar arab istilosini kunlaridagi Toshkentning siyosiy mavqeい, uning turk xoqonligi, Farg'ona vodiysi va boshqa yerlar bilan munosabati, viloyat boshqaruvining xususiyatlari kabilarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, xoqon, Choch hokimi, tudun, uning yordamchisi (yoki "yordamchi" deb atalgan rasmiy lavozim egasi), Farg'ona podshohi, Fargona tutig'i, fors lashkarboshisi, Marvon ismli shaxs va boshqalar bu hujjatda aks yetgan hodisalarning tirik qatnashchilari o'lib, murakkab tarixiy voqealarda u yoki bu darajada rol o'ynaganlar. Ayni vaqtida, matndagi «janob», «tudun» kabi atamalar ham diqqatni jalb qildi.

Sug'd elchisi Fatufarn Toshkentga kelgan vaqtida - 717-719 yishshar davomida viloyat Sharqiy turk xoqonligi tasarrufidagi o'lka bo'lib, xoqon tomonidan (ushbu maktubda qag'an) tayinlanuvchi tudun tomonidan boshqarilganligi ma'lum. Lekin u holda Choch hokimi kim bo'lgan? Manbalarda VIII asr boshlaridagi voqealar munosabati bilan "Choch podshohi" deb tilga olinadigan shaxs Sharqiy turk xoqonligi noibi nazoratida ish ko'rgan, to'liq. ma'noda siyosiy huquqqa ega bo'limgan hokim bo'lsa kerak. Fatufarn ham dastlab rasmiyat Yuzasidan unga uchrashib, asosiy diplomatik munosabatlarni tudun bilan amalga oshirgani bejiz emas.

Bu hujjatni dastlab tadqiq yetgan V.A. Livshis qator manbalar asosida 713 yildan boshlab Chochda tudun Maxedu-Bahodir bo'lganini ta'kidlaydi⁴. Lekin, hujjatning sanasi haqida Yuqorida keltirilgan yangi fikr asosida, 717-719 yillardagi Choch tuduni Inay tudun Gule bo'lgani ham ma'lum. Agar At-Tabariyning 738-739 yillar bilan bog'liq voqealar bayonida Choch hukmdorining "podshoh" deb atalGANI, shuningdek, Al-Beruniyning "Osorul boqiya" asarida⁵ ham Shosh podshohi - tudun teng ma'noni ifodalashiga ko'ra fikr yuritsa, tudun va Shosh podshohi, qolaversa, mazkur hujjatdagi xvab-xokim o'rtaSida farq yo'qdek ko'rindi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, Fatufarn Shosh podshosi haqida yozgan vaqtida odatdagidek malka - ishxid - "podshoh" so'zidan foydalanishi mumkin edi. Demak, Fatufarn uchun Choch-Shosh podshosi tushunchasi "Fargona podshohi" kabi maxsus ma'no kasb yetmagan. Tabariy va Beruniylar vaqtiga kelib esa (X-X1 asrlar), podshoh, tudun, hokim kabi ijtimoiy mavqe yillaloyasi haqidagi masala yahlit ma'no kasb yetib, an'anaviy tarzda "podshoh" atamasi bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. S.P. Tolstovning fikriga ko'ra, "tudun" so'zi turk xoqonining urug'idan chiqqan va bo'ysundirilgan viloyatlarni boshqarish joylaridagi xokimlar faoliyatini nazorat qilish hamda o'lpon va soliqlar to'plashni tashkil yetish maqsadida tayinlangan noibga nisbatan qo'llangan⁶.

Hujjatga asosan Farg'ona mulki podshoh tomonidan boshqarilganligi ma'lum bo'ladi. At-Tabariy 712-723 yillar voqealari bayonida bu podshohning nomini ham keltirib o'tgan: Farg'ona podshosi al-Tar. Bu haqsa V.A. Livshis ham to'xtalib o'tgan va boshqa manbalar qiyosida buni tasdiqlagan¹. Podshohdan tashqari (VIII asr boshlarida) tutug' lavozimi bo'lgani ham ma'lum. Tutug' lavozimi harbiy ma'muriyat boshlig'iga nisbatan qo'llangan.

"Chapish" deb nomlangan lavozim harbiy lashkarboshilik bilan bog'liq. Maktubning 22-satrida "jamravaz ti xo parsik chapish" birikmasi o'qilganki, bu "Jamravaz va fors lash-karboshisi" demakdir. Bu shaxslar kimligi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Lekin ushbu hujjat nashridagi izohlarda V.A. Livshis "lashkarboshi fors" iborasi haqida mulohaza bildirgan. Gap shundaki, sosoniylar sulolasining ohirgi vakili YAzdijird III avlodlari uzoq vaqt davomida, hatto 730-740 yillargacha ham arablarga qarshi kurashgan qo'shinlar ichida ishtirok yetgan. Ular Eron qo'ldan kyetgach, Turon sarhadlariga chekinib kelib, bu yerdagi davlatlar podshohlarining doimiy ittifoqchilariga aylanib qolishgan. Bu voqealardan sal oldinroq sosoniy shoxlar Turondagi hukmdorlar ittifoqini tashkil yetish, ularga tayangan holda arab istilochilariga qarshi chiqib, dushmani tor-mor keltirish va shu yo'l bilan Eron zaminini ozod yetish maqsadini amalga oshirishga qattiq harakat qilganlar. Bu yo'lda, ayniqsa, Yazdijirning o'g'li Feruz (678 yilda vafot yetgan) katta jonbozlik ko'rsatgan. U arablarga qarshi fors hamda O'rta Osiyo xalqlari va turk xoqonligining kuchlarini birlashtirishga uringan. Xulosa qilib aytganda, hujjatda fors lashkarboshisi pastki Chodirchik yerlariga jo'nadi, gap-so'zlarga qaraganda, arablardan tovon undirib, qo'shinni

⁴Sogdiyskie dokumenti s gorы Mug. II. s. 82.

⁵Istoriya at-Tabari. s. 137.

⁶Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M., 1948, s. 260.

¹Sogdiyskie dokumenti s gori Mug. 11. s. 84.

uzoqroqqa olib kyetmoqchi, degan xabarning Devashtichga yyetkazilishi arablarga qarshi kurashgan kuchlarning tarkibi haqida kengroq tasavvur beradi. Boshqa jihatdan bu fakt asosida konkryet tarixiy voqealar, ayniqsa, 718—719 yillar haqida ba’zi anikliklar vujudga keladi. Jumladan, mazkur yillarda arab istilochilar O’rta Osiyon bosib olib, u orqali Sharqiy Turkistonga chiqish xarakatini qilishgan. Shu maqsadda xalifalikning Xuroson noibi al-Jarroh bin Abdulloh qo’shin jo’natgan. Lekin bu urinish davomida arab qo’shinini turkiy qavmlar o’rab olgan. Arablar tovon to’lab qutulgan va lashkarboshi Abdulloh bin Ma’mar al-Yashkuriy boshchiligidagi Chochga qaytib kelgan. Bu voqealar bayoni Belozuriyning “Kitob futuh al-buldon” (“Shaharlar fathi kitobi”)da keltirilgan.² Shu tarixiy ma’lumotlarga suyanib matndagi: “Tudun arablar bilan bitimga asosan chekin-di. Bitim sharti bo’yicha Jamravaz va fors lashkarboshisi pastga (quyi yoki janub) - Chodirchikka tushib kyetishdi, ovozalarga qaraganda, arablardan tovon undirishmoqchi va qo’shinni ulardan nariga olib kyetishmoqchi”, degan parcha o’z ma’nosini topadi va 718 yil voqealari sifatida anqlik kasb yetadi,

Bu hujjat ayni vaqtida tojik yetnonimining paydo bo’lishi to’g’risida qiziq ma’lumot beradi. Hujjat matnining 21-satrida ‘Tojiklar bilan sulk (bitim) asosida chekindi” degan jumla ishlatilgan. Tojik yetnonimiga asos bo’lgan “tazik” so’zi sug’d yodgorliklarida ana shu hujjat nashr yetilgunga qadar uchramagan edi. Lekin bu so’z fors manbalarida “qul” ma’nosini anglatgani ma’lum. Bu masalaga o’z vaqtida rus olimi V.V. Bartald, ingliz olimi T.V. Beyli, yirik eronshunos olim V.B. X彭ninglar e’tibor berishgan edi. Arablarga nisbatan yetnonim sifatida ko’llangan Tozi(k) so’zi islom dini tarqala boshlashi munosabati bilan shu dinni qabul qilgan boshqa xalqlarga, xususan, eroniy oilaga kiruvchi aholiga nisbatan ham qo’llana boshlangan. Ma’lumki, arab istilosining dastlabki bosqichidanoq Eron va unga qo’shni yerlar bosib olinib, islom dini majburiy joriy qilina boshlangan. Keyinchalik bu jarayon O’rta Osiyoga ham yoyilgan. Shu voqealar asnosida islomni qabul qilgan aholi qatlamsha nisbatan arablashgan, ya’ni tojik atamasini qo’llash keng tarqalgan. Natijada bu nom islom dini ommaviy shaklga kirgan bosqichda eron tillarida so’zlashuvchi O’rta Osiyo xalqlaridan birining, hozirgi tojik xalqining yetnonimiga aylangan³.

Bu yerda Chodirchik atamasi ham ishlatilganini ko’rdik. U jug’rofiy nom shaklida tilga olingan. U holda bu joy qayerda bo’ldi ekan? Ehtimol, bu atama mintaqqa, jo’g’rofiy tushuncha sifatida ishlatilgandir. Birinchi o’rinda elchi Fatufarn “Chodirchik sulhi tufayli yordamchi juda anduhnokdir” deb yozadi. Elchi Fatufarn Sug’dga qaytishga imkon topmaganligini quyidagi parcha yanada oydinlashtiradi va jug’rofiy tushunChalarga anqlik kiritadi: “So’ng’ra, janob, men Anvartkanga kelgan vaqtimda, janob, pastki - Chodirchik yerlaridan hech qanday yaxshi ovoza eshitmadim, buning ustiga, Ustrushan yerlari (viloyati) hammasi (dushmanga) topshirilgan”. Ushbu parchada xat muallifi Chodirchik hamda Ustrushan yerlarini aniq farqlab ko’rsatgan. Demak, Yuqorida qayd yetilgan Chodirchik sulhi tarixiy

Chodirchik jug’rofiy rayoni bilan bog’liq hodisa ekan. Shunga binoan Fatufarn, Ustrushan va undan sharqsa joylashgan Falgar, Buttam, Panch kabi tog’li viloyatlardan farkli o’laroq, pasttekislikda joylashgan hozirgi Zomin, Mirzacho’l, Jizzax muzofotiga nisbatan “Chodirchik” so’zini qullagan bo’lsa kerak, deyishga to’la asos bor. Fatufarn Sirdaryodan u tomondagi yerlar, jumladan, Ustrushan arablar qo’liga o’tgani tufayli, bu hududlar orqali Sug’dga o’tib kyetolmadi. Shu bilan bir qatorda, “Chodirchik yerlaridan hambiror yaxshi xabar eshitilmadi”. Bu faktni hisobga olsak, taxminimiz asosli ekani ko’zga tashlanadi. Gap shundaki, agar Ustrushan yo’li qirqilib qolgan bo’lsa, Fatufarn Chodirchik yerlari orqali Zomin-, Jizzax ustidan aylanma yo’l bo’ylab Sug’dga qaytishni mo’ljallagan bo’lishi mumkin. Lekin u yo’l ham arablar nazoratiga o’tgani tufayli, elchi noiloj Chochga qaytishga majbur bo’ladi.

Choch hokiminining noibi tudun Chodirchik bitimi asosida qo’shirlarni arablardan uzoklashtirgani haqidagi xabar biz uchun muhim bir xulosa yasashga imkon beradi. Bu hol Choch viloyatining ilk o’rta asrlarda Zomin, Jizzax yerlari ustidan ham siyosiy hukmronligi bo’lganligidan dalolat bersa kerak. Arablar shu tufayli bu o’lkada Choch turk qo’shirlari qurshovida qolishgan va vaqtincha sulk tuzishgan hamda tovon to’lab qutilishgan. Shunlan so’ng tudun qo’shirlari, uning

² Livshits V.A. Praviteli Pincha, s. 63.

³ Sogdiyskie dokumentm s gorsh Mug. II. s. 87-88.

turli qismlari Chochga qaytgan bo'lishi kerak. Ayni shu kunlarda sug'd elchisi Toshkentda - Chochda tudun va uning yordamchisi bilan uchrashishga muyassar bo'lgan.

Chochning Chodirchik, taxminimizcha, Zomin, Mirzacho'l, Jiz-zax yerlari ustidan hukmronligi masalasi yana shu bilan asoslanadiki, bu katta muzofot sug'd podshohligi viloyatlari qatorida umuman tilga olinmaydi. Bu yerlarda mustakdl ma'muriy birlit bo'lgani to'g'risida qam hech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Shu tufayli sug'd elchisi maktubi asosida bayon yetilgan siyosiy ahvol manzarasi ilk o'rta asrlarda Jizzax, Zomin, Mirzacho'l yerlari qadimgi Toshkent hrkimligiga tobe yerlar bo'lgan deyishga asos bsradi.

Yuqorida izoxlangan sug'd diplomatik hujjatining arablar istilosini davridagi siyosiy voqealarni tasavvur yetish, ularni haqqoniyligi tiklash uchun naqalar katta ahamiyatga molik ekanligi

o'z-o'zidan ko'rinish turibdi. U o'sha zamona hodisalarini o'zida oynadek aks yetirgani uchun hambu yerda biz unga batafsил to'xtaldik.

Bu hujjatdan kelib chiqadigan xulosalardan biri shuki, arablar istilosini boshlanishi va uning jarayonida O'rta Osiyoda yagona xokimiyat bo'limgan. At-Tabariyda ta'kidlanganidek, Xorazm alohida davlat, Sug'd esa o'ziga mustaqil, Toshkent, Farg'ona podshohliklari ham mustaqil hududlar sifatida ish ko'rganlar. Bunday bir alfovza turk xoqonligining arab istilosini arafasida inqirozga Yuz tutganligi, uning siyosiy va harbiy ta'siri yo'q darajaga tushib qolganligi tarixiy fakt sifatida namoyon bo'ladi. Vaholanki, O'rta Osiyoning asosiy aholisi bo'lgan turkiy qavmlar bu yerlarda qanchadan-qancha kelgindi yovlarni yakson qilmaganlar. Xorazmning kddim-qadimlardan turkiy qavmlar o'lkasi ekanligi va bu yerda turkiy podshohlar hukmronligi joriy yetilganligini Beruniy ularning yil hisobi uslublari, ta'rifi orqali ta'riflagani to'g'risida Yuqorida uning "Osorlu-boqiya" asaridan ikgiboslar keltirib o'tildi. Bunday qadimiy davlatchilik timsollari Turkistonning boshqa qismlarida ham mavjud bo'lgan. Ammo arablar istilosini arafasida bu yerdagi siyosiy ahvol, Yuqorida ta'kidlanganidek, ancha bo'shashgan, g'arbiy turk xoqonligi ta'siri o'ta susayib kyetgan, Sug'd elchisi Fatufarn maktubida tilga olingan mustaqil xukmronliklarga bo'linib kyetgandi. At-Tabariyda Xorazm podshohligi haqida, uning arablar bilan tuzgan sulxlari, olib borgan janglari va nihoyat, engilishi to'g'risida shunday tafsilotlar keltirilganki, ulardan chiqadigan xulosa: budavrga kelib qadimiy Xorazm ham kuchsizlanib qolgan, uning atrof qavmlarga bo'lgan ta'siri uncha katta bo'limgan. Umuman, O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik arablar istilosini uchun qulay imkoniyat yaratgan va bunday tarixiy bir sharoitda arab lashkarboshilari bu yerda islom dinini tarqatish uchun zamin hozirlashga muvaffaq bo'lganlar, O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishiga yo'l ochgan holat-lardan yana biri - Eronning arablar shiddatiga dosh bera olmasdan tezda ularga taslim bo'lgani hamdir.

Ammo tarixiy asarlar va hujjatlardagi dalillar shuni ham ko'rsatadiki, O'rta Osiyodagi arab istilosini osonlikcha muvaffaqiyatga erishgani yo'q. Bu yo'lida arablar juda ko'p qurbanlar berdilar. Chunki bu yerda istilo jarayonida o'zaro birlashib, kelgindilarni daf yetish istagi g'oyat darajada kuchayib kyetadi. Natijada arab lashkarboshilari - Ibn Qutayba va boshqalar oldida har safar yangi-yangi to'siqlar paydo bo'la boshlaydi.

Turkistonda o'sha paytda mavjud siyosiy hukmronliklarning arab istilosiga qarshi Vatan himoyasi uchun birlashib kurash olib borish harakati tufayli Yuqorida uchchi Fatufarn maktubini ko'rib turibmiz. Shunisi diqqatga sazovorki, Fatufarn Shoshga kelganda bu yerda Farg'ona podshohining vakili - Tutug'ni uchratadi. Demak, umumiyl xavf oldida Farg'ona Sug'd elchisi kelgunga qadar allaqachon ittifoq tuzish masalasida Chochga (Shosh) o'z vakilini safarbar yetgan ekan. Yana bir narsa shuki, Fatufarn maktubi mazmunidan elchi bu erga kelgunga qadar birlashgan turk qo'shinlari arablarga qattiq zarba bergen va ular tovon to'lab, o'z kuchlarini batamom tor-mor yetilishdan saqlab qolganlar. Bu hakda Yuqorida aytib o'tilgandi. Albatta, bu hol Yuzaki qaraganda birlashgan turk qo'shinlari rahnamolarining katta xatosi bo'lgan. Harbiy mantiq nuqtai nazaridan qaraganda, istilochilardan tovon olib, o'z qo'shinlarini jang maydonidan olib kyetish o'rniiga, ularni tor-mor keltirish ma'qul ish bo'lur edi. Ammo biz o'sha paytdagi kuchlar muvozanati hamda siyosiy holatning barcha ikir-chikirlaridan xabardor emasmiz. Ehtimol, arablar tovon to'lash bilan birga, kuch bilan boshqa tazyiq qilmaslik majburiyatini ham o'z zimmalariga olishgandir. Ammo bunday kelishuvlar o'sha davrda ko'plab tuzilganligi (masalan, Xorazm va Sug'd podshohlari bilan) va ular turli bahonalarda poymol yetilganligi haqida tarixiy faktlar ko'plab uchraydi.

Sug'd podshosining Toshkent va Farg'ona hukmdorlariga elchi Yuborib, ularni birgalikda istilochilarga qarshi harakat yetishga da'vati birgina Yuqoridagi maktub bilan emas, balki o'sha davr voqealariga bag'ishlangan qator manbalarda ham o'z aksini topgan. Masalan, mashhur arab tarixchisi Muhammad bin Jarir at-Tabariyning (839 yilda tavallud topgan) "Payg'ambarlar va podshohlar tarixi" asarida bu hakda aniq ma'lumotlar keltirilgan. Uning asari "Tarixi at-Tabariy" nomi bilan mashhurdır. Yuqorida bu asardan qator faktlar keltirib o'tildi. Bu yerda biz Fatufarn elchiligi bilan bog'liqligi taxmin yetilayotgan bir holatni eslatish bilan kifoyalanmoqchimiz. At-Tabariyning yozishicha, Sug'd ixshidi (podshosi) Gurek (709-738) Samarcandning Abdurahmon bin Muslim va Qutayba qo'shinlari tomonidan uzoq qamal qilinganligi natijasida madad so'rab Toshkent va Farg'ona hukmdorlariga maktub yo'llagan. "Agar arablar bizni engsalar, - deb yozgandi Gurek o'z maktubida, - bizning boshimizga tushgan savdolarni sizlarning ham boshingizga solishlari turgan gap. Buni yaxshilab o'ylab ko'ringlar va shunga ko'ra harakat qilib, o'z g'amlaringai o'zlarin englar. Biz arablar bilan sizning o'rtangizda turganimiz uchun ham hozircha sizlarni ulardan muhofaza qilib turibmiz. Agar ular bizni qo'lga kirlitsalar, siz ojizlanib qolasiz va ularga bo'yusunishga majbur bo'lasiz. O'z mustaqilligingizni saqlash uchun ixtiyorningizdagi barcha imkoniyatlarni ishga soling". Tarixchining ta'kidlashiga qaraganda, "Ular o'z imkoniyatlarini chandalab ko'rdilar va qaror qildilar: "Bizga o'z fuqarolarimizdan tushum kelib turibdi, ammo arablarda bizda mavjud bo'lgan boyliklar yo'q. Bizlar bu ishning g'амини eyishimiz kerak". Va ular qo'shin to'plab, unga shahzodalarni rahnamo qildilar va buyurdilarki, shahzodalar Sug'dni qamal qilish bilan mashg'ul bo'lgan Qutaybaga tunda to'satdan hujum uyushtirsinlar. Ammo bu xabar o'sha vaqtdayoq Qutaybaga yetib keldi"¹.

Ushbu tarixiy faktlarning aniq oy va yillari ko'rsatilmagan bo'lsada, ularning Fatufarn elchiligi bilan bevosita aloqadorligiga shubha qolmaydi. Biz Sug'd elchisiga o'z hukmdori tomonidan Toshkent (Choch), Farg'ona va Turk xoqonligi hukmdorlariga yozilgan xati mazmunidan xabardor emas edik. Ammo at-Tabariy o'sha elchiga topshirilgan yozma fikr-muloxazalarni keltirganga o'xshaydi. Bu bilan cheklanmasdan, tarixchi Sug'd podshosining iltimosiga ko'ra ko'rilgan chora tadbirlar ya'ni podshoh murojaat qilgan hukmdorlarning uning taklifiqa javoban amalga oshirgan ishlari haqida hamma'lumot keltirib o'tgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu davrdagi O'rta Osiyo diplomatik aloqalari g'oyat murakkab siyosiy vaziyatda Yuz berdi. Bu sohadagi har bir hujjat va o'sha vaqt manbalaridagi sahifalarda ana shu qaltis siyosiy-harbiy holat o'z aksini topgan. Bu yerda faqat uning ayrimlari haqida mulohazalar bildirildi, xolos.

Shu tarzda bu davrga oid manbalarda keltirilgan diplomatik aloqalar tarixiga oid ma'lumotlar o'tmishimizning o'ta murakkab voqealar bilan to'la bir vaktida Vatan himoyasi, uning dahlsizligini saklash yo'lida ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar haqida tasavvur beradi. Bu sohadagi ko'p materiallar o'sha davr siyosiy-tarixiy voqealariga yangicha qarash, ularni odilona talqin yetish imkonini yaratadi.

MO'G'ULLAR ISTILOSI ARAFASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXIDAN

1199 yil yozida Nishopurdan Xorazmga qaytayotgan paytda Xorazmshox. Alouddin Takesh yo'lida hayot bilan vidolashadi. Shu yilning iYul oyida uning o'g'li Kutbiddin Muhammad Xorazm saltanati tizginini o'z qo'liga oladi. U tarixda Sulton Muhammad Xorazmshoh nomi bilan mashhur bo'lib, buyuk Xorazmshohlar imperiyasining halokati bevosita uning faoliyati bilan bog'liq.

Ushbu masalaga bag'ishlangan asarlarda turli-tuman, ayrim hollarda bir-biriga zid qarashlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ularking ayrimlarida bu zot o'zining davomli jangu jadallari bilan xalq ommasini norozi qilib quyganligidan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash boshdanoq tashkiliy tus olmadı, deyilsa, boshqalarida uning Bag'dod xalifaligiga qarshi kurashi natijasida xalifalikning mo'g'ullar bilan yaqinlashuvi sodir bo'ldi-Yu, Xorazm o'rtada yakkalanib qoldi, degan fikr-mulohazalar maydonga tashlanadi, yana birlarida Xorazmshohning harbiy mahorati

¹ Istoriya at-Tabari. s. 139-140.

pastligi va shiddatsizligi haqida so'z borsa, boshqa bir joyda u dovyurak, botir, jasur va Yuksak harbiy iste'dod sohibi sifatida talqin yetiladi. Bu hol g'oyat murakkab bir tarixiy sharoitda faoliyat ko'rsatgan Sulton Muhammad Xorazmshoh bilan bog'liq hodisalar atroficha o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Uning diplomatiya sohasidagi siyosati ham, davlatchilik siyosatining boshqa jabhalarida bo'lganidek, o'ta murakkab bir vaziyatda olib borilganligini ko'rsatadi. Ko'pgina manbalarda ta'kidlanishicha, Sulton Muhammad Xorazmshoh Markaziy Osiyoda harbiy jihatdan katta zafarlarga erishgach, Xitoyni ham zabit yetish maqsadida ancha-muncha tayyorgarchilik ko'ra boshlagan. Ammo tezda u sharkda CHingizxon rahnamoligida paydo bo'lgan ulkan kuch - mo'g'ullarning qator zafarlari haqida xabarlar eshitga boshlaydi. Yangi fotih Uyg'ur va Tibyet mintaqalarini qulga kiritgach, 1215 yilda Shimoliy Xitoyning poytaxti Pekin shaxrini egallaydi.

Bunday bir sharoitda Sulton Muhammad ana shu xabarlarni tekshirib ko'rish, sharqqa g'ulg'ula solayotgan mo'g'ul qudrati qaqlida aniq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida o'z davlat arboblaridan biri Sayyid Ajall Bahouddin Roziy boshchiligidagi Xitoyga elchilik jo'natadi. "Tabaqoti Nosiri" kitobining muallifi bu to'fida ma'lumot berar ekan, ushbu elchilikning maqsadi va vazifalari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Bu elchilikning sababi shul edikim, CHingizxonning paydo bo'lish tarixi va mo'g'ul lashkarlarining Tamg'och, To'qir, Tibyet mamlakatlari, CHin iklimi, Uzoq Sharqsagi istilosiga haqidagi xabarlar to'g'risida ishonchli odamlar orqali aniq ma'lumotlar yig'ish hamda mo'g'ul lashkarlarining ahvoli, sifati, uningsoni va quroli haqida ma'lumot to'plashdan iborat edi"¹.

CHingizxon o'z huzuriga kelgan Xorazm elchilarini yaxshi kutib oladi. U elchilarga katta izzat-ikrom ko'rsatib, ikki mamlakat o'rtasida do'stona munosabatlar va tijorat ishlarini yo'lga qo'yish niyatida Xorazmshohga katta sovg'a-salomlar Yuboradi. Muallifning yozishicha, u elchilarga shunday xitob qiladi: "Muhammad Xorazmshohga aytинг, men kun chiqar tomon podshosi bo'lsam, u kun botar tomon podshosidur. Bizning o'rtamizda ahdu vafo, mehru muhabbat va do'stlik mustahkam bo'lsin va o'zaro tijorat hamda karvonlar bordi-keldisi yo'lga qo'yilsin"².

Bu orada mo'g'ullar o'z hududlarini to Oltoy tog' tizmalarining g'arbiy yyetaklari, Tiyon-Shon, Balxash ko'li havzasasi va Issiq ko'lgacha kengaytirib keldilar. Xorazmshoh ham o'z chegarasini Qipchoq cho'llarigacha yyetkazdi. Natijada Xorazm tojirlari Oltoy dovoni orqali Mo'g'uliston va Xitoy bilan savdo-sotiq olib borish imkoniga ega bo'ldilar. Manbalarda aytishicha, musulmon savdogarlaridan uch nafari - Ahmad Xo'jandi, Abdullo bin Amir Husayn Jendiy va Ahmad Bol-jij nomli shaxslar zardan to'qilgan qimmatbaho matolar ortilgan o'z savdo karvonlari bilan CHingizxon qarorg'ohiga keladilar. Mo'g'ul hukmdori ularni katta hurmat va ehtirom ila qarshi olib, ularning matolarini Yuqori bahoda xarid qilishni buyuradi. O'z navbatida, u o'z tijoratchilarini xorazmliklarga qo'shib jo'natadi. Eronlik mualliflarning yozishicha, mo'tul savdogarlariga Mahmud Xorazmiy, Alixo'ja Buxoriy va Yusuf O'troriy nomli musulmon savdogarlar boshchilik qilishgan.³ Aftidan, bu kimsalar mo'g'ullar bilan anchadan beri bog'liq bo'lishgan. Ular O'rta Osiyoning turli mintaqalaridan ekanligi ham ma'lum mulohazaga sabab bo'lishi mumkin Demak, CHingizxon bu paytga kelib o'zidan g'arbda joylashgan kuchli va yirik davlat - Xorazmshoxlar imperiyasini yaqindan o'rganish, o'sha erlik zukko shaxslarning o'z xizmatida bo'lishni ta'minlash, o'zaro muloqtlarda ulardan faol foydalanish siyosatini qattiq yo'lga qo'ygan. Bu esa mo'ljallangan va ma'lum maqsadlar sari yo'naltirilgan davlat siyosatining bir ko'rinishi edi, albatta.

CHingizxon o'z xizmatidagi ana shu musulmon savdogarlar orqali Xorazmshohga atab qimmatbaho sovg'alar Yuborgan. Ular 1218 yilning bahorida Movarounnahrga keladilar. Elchi savdogarlar CHingizxonning sovg'a-salomlari hamda maktubini sultonga topshiradilar. CHingizxon o'z maktubida quyidagilarni yozgan edi: "Salom, senga! Bilaman sen o'zing tengsiz va cheksiz qudrat sohibi ulug' podshohsan, men seni o'z farzandimdek (o'g'lim) e'zozlayman. Shuni ham eslatib qo'ymoqchimanki, men ham dunyoning bu qismida katta qudratga egaman, jumladan, Xitoy, butun Turkiston va uning turk qabilalarini o'z tasarrufimga kiritib, bo'ysundirganman.

Bugungi kunda mening mamlakatim jangovar qudratli botirlar bilan to'la, ayni paytda boylik

¹ Minhoj Siroj. Tabaqoti Nosiri. Kobul, 1343 h.sh., 2-jild. 102-bet.

²O'sha asar, 104-bet.

³Abbos Iqbol. Ta'rixi Mo'g'ul az hamleye CHangiz to tashkile do'ulate Timuri. Tehron, 1343 h. sh. 22-bet.

jihatdan ham kumush va tilloga ko'milgan. Shuning uchun bunday qudrat va boylik sohibi bo'la turib, boshqa mamakatlarni o'z qamrovimga qo'shib olishga hech qanday ehtiyoj sezmayman. Sulton dargohiga maxsus elchilarni Yuborishdan maqsadim, do'stlik va tijorat aloqalarini qaror toptirishdan iborat. Shunday bir bitimni tuzish katta moddiy boyliklardan foydalanishdan tashqari fuqarolarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlaydi"⁴.

Bunday qaraganda, bu xat juda jo'n, sodda iboralar bilan bitilgan sahroyi bir hukmdorning maktubiga o'xshab kyetadi. Aslida esa u CHingizzondek quv va o'ta tadbirkor xon tomonidan

ataylab ana shu tarzda Xorazm shohiga Yuborilgan dastlabki mujda bo'lib, unda u o'zining Muhammad Xorazmshoxdan ustunligini, o'ta badavlat va qudratli podshohligini, ayni vaqtida, nafaqat Xitoy va mo'g'ullar, balki turkiy qabilalarning ham xoqoniga aylanganligini sha'ma qilib o'tgan edi, Bunday bepisandlik ruhida yozilgan maktub, ayniqsa, undagi "farzandim" va "Turkiston va turkiy qabilalarni ham bo'ysundirdim" qabilidagi iboralar Xorazmshohni g'azabga keltirdi. Taxtga chiqqandan buyon qator g'alabalarni qo'lga kiritgan, endilikda hatto Bag'dod xalifaligidan ham yagona musulmon hukmdori sifatida o'z nomini xutbagaga qo'shib o'qilishini talab qilayotgan, Turon va Eronning shohi sanalgan Sulton Muhammad Horazmshoh bunday muomalaga o'rganmagan edi. Shuning uchun ham u elchidan haqoratomuz bir ohangda: "Ayt-chi menga, sen tilga olgan CHingiz o'zi kim va nima ish qiladi? Bu maktubda yozganidek, CHin mamlakatini qo'lga kiritgani rostmi?" - deb so'raydi⁵.

Shohning barcha savollariga elchilar birin-kyetin juda ehtiyotkorlik va o'ta ziyraklik bilan javob qaytaradilar. Ular asosiy urg'uni CHingizzxonning do'stlik haqidagi fikrlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratadilar. CHingizzxon tomonidan Xorazmshohga tortiq sifatida Yuborilg'an juda boy sovg'a-salomlar - oltin-kumush yombilar, turli qimmatbaho yashma toshlari, oqtuya junidan to'qilgan matolar va boshqa tortiqlar ham oradagi ko'ngilsizlikni Yumshatishga sabab bo'ladi. Undan gashqari, Xorazmshoh sharqda paydo bo'lган bu qudratli davlatni yaxshi bilmas, Bag'dod bilan munosabatlarning keskinlashgan bir vaqtida u bilan dushmanlik yo'liga kirishni ma'qul topmasdi. Xullas, muzokaralar asnosida Xorazmshohning maktub mazmunidan bo'lган noroziligi asta-sekin so'nib, tomonlar ikki o'tada CHingizzxon taklif yetgan do'stlik shartnomasini tuzishga erishadilar. Bu shartnomaga muvofiq taraflar bir-birlarining do'stini do'st, dushmanini esa dushman deb bilish majburiyatini oladi.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash joizki, CHingizzxon nomidan ushbu shartnomani qabul qilib olgan kishining nomi Mahmud bo'lib, unga YAlavoch degan laqab berilgan edi. Bu atama turkiyda Yuborilgan, vakil, elchi ma'nosini bildiradi. Yuqorida

CHingizzxon Yuborgan elchi savdogarlar ichida Mahmud Xorazmiy degan kishining ham bo'lганligi aytib o'tilgan edi. Ko'pgina manbalarning taxmin yetishicha, ana shu odam Mahmud YAlavochning o'zi bo'lib, u CHingizzxonning ishonchli vakili sifatida so'nggi voqealarda Turkiston tarixida muhim mavqega ega bo'lган bir shaxsga aylanadi.

Bu shartnomaga CHingizzxon uchun ma'lum darajada o'z qarbiy Yurishlarini bemalol tayyorlash hamda qulay sharoit paydo bo'lishini kutish yo'lida muhim diplomatik kadam bo'lgandi. Ayni vaqtida u Xorazmshohdar va mo'g'ullar o'rtasidagi siyosiy va tijorat masalalarini qonun sifatida mustaqkamlab, qadimiylipak yo'lining qayta tiklanishiga ham katta ma'na-viy-huquqiy asos yaratgan edi. Ammo voqealarning keyingi rivoji undan tinch munosabatlarni taraqqiy yettirib borit yo'lida foydalanish imkonini cheklab qo'ydi.

Yuqorida eslatilganidek, Muhammad Xorazmshoh o'z tasarrufidagi tobe Yurtlar tobora ko'payib, u katta bir imperiyaga aylangach, Bag'dod xalifaligi huquklarini borgan sayin cheklash siyosatini tuta boshlaydi. Ayniqsa, Xorazmshoxning qoraxoniyalar ustidan erishgan g'alabasidan so'ng uning shuxrati keng yoyildi va o'ni "Zilulloh" (Ollohning soyasi) va "Iskandari soniy" (ikkinchchi Iskandar) deb atay boshladilar. Shunday sharoitda u Bag'doddan o'z nominining xutbagaga qo'shib o'qilishini talab qila boshlaydi.

Bag'dod xalifasi o'z navbatida oradagi kelishmovchiliklarni bartaraf yetish, ayni vaqtida

⁴ Herold Lemb. CHingizzxon. Ingliz tilidan fors tiliga tarjima. Tarjimon G'ulom Husayn Qorakuzlu. Tehron, 1373 h. sh. 197-bet.

⁵ O'sha asar, 198-bet.

Xorazmshohni insofga chaqirish maqsadida unga maxsus elchilik yo'lladi. Bu missiyaga xalifalikning eng nufuzli a'yonlaridan biri - Shayx Shamsiddin Suhravardiy boshliq exib tayinlangan edi. Ammo sulton uni juda sovuq kutib oladi va saroyda hatto o'tirishga ham izn bermaydi. Shunda Shayx undan nabaviy hadislardan zikr yetishga ruxsat so'raydi. Hadislarni tik turib aytish va eshitish mumkin bo'limgaganligidan, sulton Shayxga o'tirishga ijozat berishga majbur bo'ladi. Shayx Shamsiddin keltirilgan hadisda payg'am-bar al-Abbosga bandayi mo'minlarga ziyon yyetkazmaslikni uqtirganligi aytildi. Bubilan elchi nimademoqchi bo'lganligini sulton tez anglaydi va Xorazmshoh elchiga: "Garchi men turk bo'lsamda, arab tilini yaxshi bilmasamda, sen aytgan hadis ma'noskni yaxshi tushundim. Ammo xabarim borki, amirul mo'minning zindonida abbosiylar xalifalardan ba'zilari doimo hibsda saqlanib keladilar, ularning hatto o'sha yerda nasli ko'paymokda. Shayx bu hadisni mendan ko'ra amirul mo'minga aytgani ma'qulroq bo'lur edi", - deydi¹.

Bu elchilik shunday tarzda samarasiz yakunlanadi.

Bag'dod xalifasi bu voqeadan keyin, ayniqsa, sulton Muhammad Xorazmshoh va CHingizxon o'rtasida do'stlik haqida shartnama imzolanganach, qattiq talvasaga tushib qoladi. U Xorazm bilan mo'g'ullar orasini buzishga bel bog'laydi. Shu maqsadda musulmonlar xalifasi g'ayridin sahroyilar xoqoni CHingizxonga maxfiy tarzda maxsus elchi Yuborali. Elchingning qo'lga tushmasligi uchun CHingizxonga Yuborilgan ma'lumotlar uning sochi qirib tashlanib, boshiga o'chmas siyoh bilan yozilgandi. Ayni vaqqda elchiga xat mazmuni yod ham oldirilgandi. Manbalarda yozilishicha, bu elchi CHingizxon qarorgohiga yetib boradi va uning qabulida bo'ladi³.

Bu orada Xorazm va mo'g'ul davlati o'rtasida shartnama imzolangandan so'ng mo'g'ul savdogarlaridan katta bir guruhi ko'p sonli karvon bilan Movarounnahr tomon yo'l olib, son-sanoqsiz tuyalarga tillo idish-oyoqlar va buyumlar, qimmatbaho gazlamalar, mushk-anbar qamda boshqa mollar ortib, Xorazm-shohdar sarhadida joylashgan O'tror shahriga kirib keladilar. Bu yerda Xorazmshohning onasi - Turkon Xotunning jiyani, ya'ni akasining o'g'li G'oyirxon nomi bilan mashhur bo'lgan Oynalchiq hokim edi. O'tror hokimi bevosita Turkon Xotun ta'sirida bo'lganligi uchun ham sulton Muhammad Xorazmshohning mo'g'ullar bilan olib borayotgan siyosatiga xayrirox. emasdi, albatta. Shuning uchun ham u bu karvonni savdogarlar karvoni emas, balki Xorazmga Yuborilgan jouslar to'dasi deb ayblab, undagi barcha musulmon va mo'g'ul savdogarlarni hibsga oladi. Ba'zi manbalarning shohidlik berishicha, karvondagi mo'g'ul savdogarlar CHingizxon urug'idan bo'lib, ayrimlari xoqonga yaqin qarindosh ham bo'lgan. Ularni jous sifatida qatl yetish va mol-mulklarini musodara qilish uchun G'oyirxon sulton Muhammad Xorazmshoxdan izn so'rabbor, chopar yo'llaydi.

Ingliz olimi Herold Lembning ana shu voqealarga bag'ishlangan asarida bu hakda shunday yozilgan: "Muhammad Xorazmshoh huzuriga shoshilinch chopar jo'natildi va sultonga maktub yo'llanib, unda mo'g'ul karvonida ko'pgina joususlar mavjudligi aytilib, ular hibsga olingandan so'ng o'z ayblariga iqror bo'lgailiklari bildirildi. Shu bilan birga, maktubda shu voqealarning munosabati bilan qat'iy chora ko'rish maqsadida sultondai amri-farmon kutmokdamiz, deyilg'andi"¹. Shu tarzda karvonni boshqarib kelgan qariyb 500 kishi tig'dan o'tkaziladi. Ulardan bir mo'g'ulgina qochib qolishga muyassar bo'ladi, xolos².

Bu voqealarning haddan ziyod g'azabiga sabab bo'ladi. Albatta, karvon bilan O'trorga kelgan savdogarlarning ma'lum qismi joususlik bilan shug'ullanganiga shubha bo'lishi mumkin emas. Bunday hol Xorazm tomonidan mo'g'ul Yurtiga Yuborilgan savdo karvonlarida ham bo'lganligi tabiiy. Har ikkala tomon ham shartnama bo'lismiga qaramay, bir-birlarining harbiy tayyorgarliklari, kelajak rejalar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lib borishga harakat qilgan. Ammo G'oyirxonning bu masalada haddan tashqari ehtiyyotsizlik va oshkora haqoratomuz ish ko'rishi CHingizxon uchun katta bahona vazifasini bajargan edi. U zudlik bilan Xorazmga norozilik elchiligini jo'natishga qaror qiladi. Elchilardan biri asli xorazmlik Ibn Kafraj Bo'g'ro bo'lib, uning otasi Xorazmshox. xizmatidagi a'yonlardan edi. Qolgan ikkitasi mo'g'ullardan edi. Ular yetib kelib,

¹ Muhammad Lhmad Panohiy. CHingizxon, 1373 h. sh. 23-bet. 2. O'sha asar, 25-bet.

¹ Herold Lemb. CHingizxon. 200-bet.

² O'sha joyda.

Xorazmshohga CHingizzon qo'ygan talabni bayon yetdilar: mo'g'ul xoni talon-toroj yetilg'an mol-mulkni zudlik bilan qaytarishni, barcha gunoxkorlarni, jumladan, G'oyirxonni ham, CHingizzon huzuriga bandi sifatida Yuborishni talab yetgandi. Bunga javoban Xorazmshoh Ibn Kafraj Bo'g'roni qatl yetish, mo'g'ul elchilarni esa soqol-murtlarini qirib, sazoyi qilgan holda haydarb Yuborishga farmon beradi.

Natijada, H. Lembning' yozishicha, CHingizzon sulton Muhammadga ochiq tahdid qilib, quyidagi mazmunda maktub yo'llaydi: "Xonlar xoni CHingizzondan Muhammad Xorazmshohga: qarasam, sen dushmanlikni do'stlikdan, urushni tinchlikdan afzal ko'ryapsan. O'zingning nomardona qilmishing bilan oramizdag'i do'stlik va hurmat pardasini yirtding. Natijada ishni shu darajaga yyetkazdingki, endi o'rtamizda jang qilishdan o'zga chora qolmadni. Ohiri g'alaba qaysi birimizgadir nasib yetadi. Rostdanam Xudodan bo'lak hech kim bizning takdirimizdan bexabardir!"³.

Bundan keyin ham bir necha marta har ikkala tomon bir-birlariga elchilar yo'llaydilar. Ammolar bajargan vazifa tinchlikni mustahkamlash emas, aksincha, urush dahshatini yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Chunki har ikkala tomon ham ayovsiz kurashga bel bog'lagan va unga jon-jaxdi bilan hozirlik ko'rар edi. Buning oqibati ma'lum.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DIPLOMATIYASI

1. Amir Temur diplomatiyasi

Amir Temur davlatining tashqi siyosati, uning xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari tarixchiligidan hali jiddiy qo'l urilmagan sohalardan birini tashkil yetadi. To'g'ri, chyet ellarda bu borada ancha-muncha ishlar e'lon qilingan. Masalan, fors tilida 1928 yilda Bombayda,⁴ 1963 yilda Tehronda⁵ chop yetilgan Eronga oid hujjatlar va maktublar majmualarida Temur davriga tegishli juda ko'plab yozishmalar o'z aksini topgan. Amir Temur davriga taalukli diplomatik hujjatlar Turkiyada bosilgan qator tarixiy asarlar sahifalaridan ham o'rinni olgan.⁶ Shunga qaramasdan, Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali YAzdiy, Hofizi Abro', O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saklanayotgan "Maktuboti Temuriya" majmuasi kabi Amir Temur faoliyati haqidagi asosiy manbalarda o'z aksini topgan diplomatik hujjatlar hali-xanuz jiddiy ilmiy izlanishlar manbaiga aylanmay turibdi. O'zbekiston tarixchilaridan I.I. Umnyakovning Amir Temurning Ovrupo davlatlari bilan yozishmalariga,⁷ A.A. Hasanovning O'rta Osiyo va Misr diplomatik aloqalariga⁸ bag'ishlangan maqolalari, A. O'rionboev va O. Bo'revlarning Abdurazzoq Samarqandiy⁹ va G'iyosiddin Naqqoshning¹⁰ diplomatik faoliyatlar haqidagi asarlari, ilmiy-izoxli tarjimalari, X. Ismatullaevning matbuot sahifalarida e'lon qilgan maqolalari¹¹, L. Keren, A. Saidovning "Amir Temur va Fransiya" mavzucidagi risolasi ana shu muhim muammoning ba'zi jihatlarini yoritishga qaratilgan dastlabki qadamlar sifatida baholanishi mumkin.

Amir Temur davlatining tashqi aloqalarini o'rganishda Ovrupoda e'lon qilingan qator asarlar alohida ahamiyat kasb yetadi. Ular ichida Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Temurbek saroyiga sayohat kundaligi" juda mashhur bo'lib, u bir necha bor ispan, ingliz, fransuz va rus

³ O'sha asar, 202-bet.

⁴ Mirzo Muhammadxon Qazviniy. Bist maqoloti Qazviniy. Bombey. 1928.

⁵ Abdulhusayn Navoiy. Asnod va makotiboti tarixi-yi-Eron. Tehron. 1341 h.

⁶ Masalan, ularidan biri - Ismoil Aqa. Temur va davlati (turk tilida). Anqara, 1991.

⁷ Umnyakov I.I. Mejdunarodnme otnosheniya Sredney Azii v nachale XV v. Snosheniya Temura s Vizangpiye i Frantsiey. Trudm Uzbekskogo Universitega. Sssharkand. 1956, vt. 61. Bu maqola keigaytirilgan tarzda "Samarqand tarixi"ning ("Fan", T., 1971) 1-jildida ham o'z aksini topgan.

⁸ Hasanov A.A. Iz istorii diplomaticeskix otnosheniy Sredney Azii s Egiptom v kontse XIV - nachale XV v.

"Vostokovedenie ". Sb. nauchnmx trudov, № 589. T., 1981.

⁹ Abdurazeoq Samarqandiyning Xindiston safarnamasi. Kirish, tarjish va izoxlar muamifi A O'rionboev. Tosh., Fan, 1960.

¹⁰ Bo'reiev O. G'iyoshddin Naqqoshing Xitoy safarnomasi. Tosh., Fan, 1991.

¹¹ Karang: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati " - 1995 yil, 7 aprel, 22 sentyabr va boshqa sonlari.

tillarida, sharqda esa fors tilida ham nashr yetilgan. Unga "O'rta asr sharqining qomusiy sajiyadagi asari" degan Yuksak baho berilgan. Haqiqatan ham Klavixo esdaliklarda Amir Temur davlatida ro'y bergan ko'pchilik voqealar, mavjud urf-odatlar, iqtisodiy-siyosiy ahvolga doir xilma-xil hodisalar tilga olinganki, bunday xabarlarni boshqa manbalarda uchratish qiyin. Ayniqla, uning Amir Temur huzuriga yo'naltirilgan elchilar, ularni qabul qilish tartib-qoidalari, imperiya hududida ular uchun yaratilgan qulayliklar haqidagi batafsil ma'lumotlari Sohibqiron tuzgan davlatning tashqi aloqalari, uning turli mamlakatlar bilan olib borgan digagomatik munosabatlari haqida qimmatli ma'lumot sifatida goyat katta e'tiborga molikdir¹.

Keren tarjimasida "Samarqandga po'l" sarlavhasi bilan chiqarilgan ((fansuzcha nashri (Lf raute de Samarkand an temps de Tamerlan. Relation de voyage de L, ambassade de Castille a la cour de Timour Beg par ruy gonsalez de Clavijo. 1403-1406. Traduite yet commentes par Lucien Kehran. Paris, 1990) alohida ahamiyat kasb yetadi. Unda tarjimon va tadqiqotchi Klavixo kundaliklariga oid barcha ma'lumotlarni bir joyga toplash bilan cheklanmasdan o'sha davrda Ovrupo qirollarining Amir Temur imperiyasi bilan olib borgan yozishma Yurshsh ham ilova qilgan.

Xuddi shuningdek, Amir Temurning O'rta Er dengizi sharqiy sohillaridagi mamlakatlarni zabit yetish uchun uyushtirgan Yurishlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, ularni bevosita kuzatish imkoniga ega bo'lган ovrupolik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan yana bir necha asarlar ham borki, ularning har biri o'z kavbatida o'sha paytda Amir Temurning bu mamlakatlar, ayrim hollarda G'arbiy Ovrupo davlatlariga nisbatan Yurgizgan siyosatini aniqlashda mutaxassislar uchun yangi ma'lumotlar berishi mumkin. Italiyalik tojir Beltramus de Mignanellinnng "Temurlang hayoti yoki Damashq xarobasi" asari ana shunday manbalar qatoriga kiradi. Muallif Amir Temur Damashqni ishg'ol yetganida o'sha yerda bo'lган, keyinchalik Angora (Anqara) jangini (1402 yil iYul), Smirnaning ishg'ol yetilishini kuzatgan va o'rgangan. Bu asar YAzdiy "Zafarnoma" sidan 8 yil oldin, ya'ni 1416 yilda yozilgan. Uni lotin tilidan amerikalik olim Fishel 1956 yilda sal qisqartirgan holda izoxlar bilan ingliz tilida nashr yetgan².

Ulardan tashqari, o'z davrida Amir Temur barpo yetgan buyuk imperianing boshqa mamlakatlarga nisbatan Yuritgan munosabatlari, uning tashqi siyosatining qirralarini o'zida aks yettirgan juda ko'plab hujjalalar Ovrupo qit'asining turli qismlaridagi davlat va shaxsiy arxivlarda saqlanib turganiga shubha bo'lishi mumkin emas. Ular o'sha vaqtida Sohibqiron davlatiga Yuborilgan maxsus vakillar yoki minglab xufiyalarning o'z hukumatlariga yozma ravishda Yuborib turgan axborotlaridan iborat bo'lib, bu tahlitdagi materiallar o'z-o'zidan ma'lumki, bosib chiqarishga mo'ljallanmagan. Ularni qidirib topish, ilmiy tadqiqotlar doirasiga kiritish Amir Temur davri mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ammo Yuqorida zikr qilingan manbalarda ham Amir Temur imperiyasining diplomatik aloqalari haqida qimmatli materiallar jamlanganki, ularga asoslangan holda bu borada ushbu mavzu Yuzasidan yetarli darajada fikr Yuritish mumkin deb o'ylaymiz.

Umuman olganda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur diplomatiyasi juda katta va keng qamrovli mavzudir.

Amir Temurning Turkistonda mustaqil davlat tuzish jarayonidagi diplomatik faoliyati, uning yosh davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Oltin O'rda va Dashti Qipchoqqa nisbatan amalga oshirgan tadbirlari, jahongirlik faoliyati boshlanganda dastlab Xuroson, so'ngra Eron va Ajam Iroqi, Kavkaz sarhadlari, Hindiston, so'ngra arab mamlakatlari hamda Turkiya va nihoyat, Ovrupo davlatlari bilan bo'lган muloqotlarining har biri alohida ilmiy tadqiqot manbai sifatida tahlil qilinishi kerak. Bu yerda faqat Amir Temur davlati tashqi siyosati, uning diplomatiyasi haqida umumiy tasavvur berishi mumkin bo'lган ayrim mulohazalarni keltirish bilan cheklaniladi, xolos.

Ma'lumki, o'zbek olimi Ibroqim Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" asarida Sohibqiron faoliyatini ikki bosqichga — Turonzaminda mustaqil davlat tuzish va xorijiy mamlakatlarni fath yetishga yo'naltirilgan davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya yetgan edi³.

Ushbu asarning Ovrupo tillaridagi tarjima nashrlari ichida 1990 yilda Larijda professor Lyusen

²Walter J. Fishel. A new Latin course on Tamerlan's conquest of Damascus (1400-1401), (B. De Mignanelli's "Vita Tamerlan", 1410). "Oriens", 9. 1956. p. 2.

³Qarang: Mo'minov Ibrohim. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. 71, Fan, 1993. 57-bet.

Nazarimizda, Sohibqiron davlatining tashqi siyosatini tahlil yetishda qam ana shu mezondan kelib chiqish ma'qul ko'rindi. Chunki, tarixda tarkib topgan har qanday davlatning tashqi siyosati va uning xorijiy munosabatlari uning ichki siyosatining bevosita davomi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, Amir Temur davlati diplomatik aloqalari ham u Yuritgan umumiy siyosatning ajralmas va uzviy bir qismi sifatida maydonga chiqqan hamda amalga oshirilib kelingan.

Amir Temur faoliyatining 1370 yilgacha bo'lgan davri, asosan, Movarounnahrni 150 yildan ortiqroq davom yetgan mo'g'ullar zulmidan ozod qilish, bu yo'lda uchragan barcha to'siqlarni engib o'tish va Turonzaminda mustaqillik bayrog'ini barqaror yetish bilan belgilanadi. Bu vaqt ichida Sohibqiron ana shu asosiy maqsadni ruyobga chiqarish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirdi. U juda katta akl-zakovat va ziyraklik bilan barcha og'ir vaziyatlardan chiqa bildi. Manbalarda bayon qilingan voqealar tafsilotlari shuni ko'rsatadiki, bu yerda Amir Temur mavjud kuchlar nisbatini va hodisalar rivojini hamma vaqt yanglishmay to'g'ri baholay oldi va shunga ko'ra ish ko'rdi. Amakisi Hoji Barlos Shaxrisabzni tashlab qochganda, u vaziyatni to'g'ri baholab, mo'g'ullar bilan ittifoq tuzishga qaror qildi va o'z ona Yurtini hamda undagi harbiy-siyosiy tayanchini saklab qola bildi, sarbadorlar rahnamoligidagi vatanparvar kuchlarning mustaqillik uchun kurashidan foydalana bildi va Turkiston mustaqilligi uchun zavol keltirishi muqarrar bo'lgan no'noq va nodon chingiziy amir Husaynni o'z vaqtida chyetlashtirishga muvaffaq bo'ldi. U Turkiston taxtini qo'lga kiritganda ham o'sha davr siyosiy hayotida qattiq ildiz otgan udumlarni hisobga olgan holda ish ko'rdi: Yuzaki bo'lsada, chingiziylar sulolasidan xon ko'tarib, o'zi amirlashkarboshi unvoni bilan kifoyalandi, ammo, shu bilan bir qatorda, chingiziy malikaga uylanib "ko'ragon - xon kuyovi" unvoniga tuyassar bo'ldi. U ana shu tarzda amalga oshirgan oqilonha tadbirlar natijasida Movarounnahrdagi barcha qabila boshliklari, o'troq nohiyalardagi aholi uning atrofiga mahkam jipslashdi. Tez orada Movarounnahrdagi markazlashgan kuchli mustaqil davlatga asos solindi.

Ammo, o'rta asrlar sharoitida qaytadan o'z mustaqilligiga erishgan Movarounnahrddek boy va serfayz o'lkani chingiziylar imperiyasining parChalanishi hamda emirilishi natijasida atrofda avj olgan siyosiy parokandalik va jangu jadallar sharoitida qo'l qovushtirib o'tirib saqlab qolib bo'lmasdi. Oltin O'rda hali Xorazm vohasidan umid uzmagan, jyeta mo'g'ullari bu joylarga o'z ochko'z nigoxlgarini tikib turar, janubiy sarhadlardagi siyosiy parChalanish esa Turkistonga har qanday kuchlarning ular orqali yopirilib kirishi uchun qulay vaziyat yaratari edi. Ana shunday bir sharoitda Amir Temur faoliyatining ikkinchi davri - uning Turkistondan tashqarida bo'lgan xorijiy mamlakatlardagi faoliyati boshlanadi. Bu davrdagi Amir Temur siyosati va diplomatiyasi oldida endi yangi, son-sanoqsiz muammolar paydo bo'ladi. Ular, tabiiyki, O'rta Osiyoniyagona davlatga birlashtirishdagi vazifalardan tubdan farq qiladi, albatta. Ammo bu davrda ham, ya'ni 27 mamlakatni o'z ichiga olgan buyuk imperiyani barpo yetishda sodir bo'lgan barcha hodisalarda ham

Amir Temurning zukko davlat siyosati va diplomatiyasi o'z aksini topib boradi.

Amir Temurning bu davrda Movarounnahrdan tashqaridagi mamlakatlar hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik muloqotlari shuni ko'rsatadiki, uning jahongirlik siyosatidagi barcha masalalar asosan islom dini nuqtai nazariga asoslangan holda xal yetishga qaratilgan. To'g'ri, ko'pchilik hollarda Sohibqironning harbiy Yurishlari islom mamlakatlariga nisbatan amalga oshirilgan. Gap shundaki, bunday hollarda musulmon hukmdorining hech qanday asos bo'limgan bir sharoitda boshqa musulmon davlatiga tajovuz qilishiga fatvo yo'q. Ammo mo'g'ullar hukmronligi yillarda ko'pgina musulmon sarhadlarida islom dinining oldingi mavqeい susayib qolgan, chunki majusiy mo'g'ul hukmdorlar (masalan, O'rta Sharqdagi xulagiylar yoki Markaziy Osiyo sharqidagi jyetalar) o'z manfaatlari yo'lida islom qonun-qoidalari bilan mutlaqo hisoblashmas edilar. Amir Temur davlat tepasiga kelgan vaqtida bu boradagi ahvol islom dini foydasiga o'zgara boshlagan bo'lsada, hali ko'p nohiyalarda majusiyarning g'oyaviy hayotdagi salbiy ta'siridan bo'lgan norozilik bosilmagan edi. Sohibqiron bu ahvoldan o'ziga tobe kuchlarni maqsad sari safarbar yetishda va boshqa mamlakatlarga nisbatan uyuşhtirilgan harbiy Yurishlarni okutash uchun g'oyat oqillik bilan foydalanadi. U olib borgan barcha jangu jadallar islom dinining g'oyat yetilishiga yo'l qo'ymaslik, uning susayishiga o'z xatti-harakati bilan sababchi bo'lgan hukmdorlarni jazolash shiori ostida amalga oshirila boshlanadi. Islom dini dahlsizligini muhofaza qilish, bu boradagi qonun-qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uni tarqatish - Sohibqiron davlatining g'oyaviy

bayrog'iga aylanadi. Amir Temur Mavarounnahrni mo'g'ul istibdodidan ozod qilishda, so'nfa buyuk imperiyani barpo yetishda bir yarim asr davom yetgan g'ayridin mo'g'ullar hukmron-ligidan zada bo'lган mintaqapar uchun usha davrda islom g'oyasining birlashtiruvchi kuchga aylanishi mumkinligini to'la anglagan holda harakat qiladi. "Tajribadan ko'rib bildimki, - deb ta'kidlagan edi u, - davlat agar dinu oyin (qoida) asosida qurilmas ekan, unday sultanatning shukuhi qudrati va tartibi yo'qoladi"¹. Uning dini islom sohasida Yuritgan siyosati din peshvolari tomonidan qattiq ko'llab-quvvatlandi, hatto ular Amir Temurga "bu Yuz yilliqda Muhammad dinining yangilovchisi shu kishi bo'lg'ay"², degan fatvo ham berdilar. Jahongirlik siyosatining ana shu g'oya bilan asoslanganiga misol tariqasida "Zafarnoma"dan quyidagi parchani eslatib o'tishni lozim topamiz: "Davlatning ravshan quyoshi jangu jadal ma'rakasi gardining qorong'iligidan so'ng Yuz ko'rsatadi, komronlik chamanining yashnashi urush bulutidan qon-yomg'ur yoqqanidan keyin sodir bo'ladi. Vaqtiki, bu sa'Yu ko'shishlardan kutilgan maqsad haq kalimasining Yuksakligiga erishish va islom shiorini izhor yetish bo'lsa, bu matlub natijasi tezroq qo'lga kiradi va u orzu chehrasi osonroq Yuz ko'rsatadi".¹

Shu tarzda Amir Temur islomni g'oyaviy bayroq sifatida o'zining boshqa mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lган munosabatlarida hamisha bedahl saqlashga, uni bosh masala tarzida har vaqt diqqat markazida tutishga qattiq e'tibor berib keldi. U, masalan, turk sultoni Boyazid Yildirim bilan olib borgan yozishmalarida doimo uning g'ayridinlarga qarshi olib borgan kurashiga xayrixohlik bildirishni unutmagan, bu boradagi o'z nuqqai nazarini imkonli kengroq tarqatishga harakat kdlgan. Boyazid Yildirimning Kemax qal'asini bosib olganiga qattik, e'tiroz bildirgan Amir Temur turk sultonidan uni darhol o'z egalariga qaytarib berishni talab qilar ekan, bu masala Yuzasidan unga yo'llagan maktubida, jumladan, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Uni (Kemax qal'asini) bizning gumashtalarimizga topshirasan, qolgan Rum mamlakati senga musallamligicha qolgay, agar u hududda (islom) diniga muxolif bo'lganlarga qarshi g'azot marosimini barpo qilsang, har nimaiki iltimos qilsang, qudratimiz yetgancha madad va yordamimizni darig' tutmaymiz, biz ham g'azot savobida senga sherik bo'lgaymiz"². Shundan sal oldin Qoraboqqa Amir Temur huzuriga kelg'an turk elchilariga (taxminan 1402 yil mart oyining boshlarida) Sohibqiron shunday so'zlarni aytadi: "Men tabiatan u tomonga Yuzlanish va u mamlakatga lashkar surishni xohlamatman. (Amir Boyazid) doimo faranglarga qarshi g'azot qilayotg'anligi sababli men faranglar quvvatlanib, ahli islomning kuchsizlanishini istamayman"³. Amir Temur Ovrupo davlatlariga Yuborgan elchilariga qirollar bilan olib boriladigan muzokaralar uchun keng huqukkut bergani holda, ularga diniy masalalar Yuzasidan fikrlashishni mutlaqo man yetgan. Masalan, Amir Temurning 1402 yilda Farangiston qiroli Karl VI yo'l-lagan maktubida shunday satrlarni o'qiymiz: "Buyuk hukmdorlar va do'stlar o'rtasidagi ulug' ishlar haqida bir-birlarini ogoh yetish odatiga buysunib, mazkur arxieliskop Janni siz janoblarining huzuriga jo'natdik, toki ul kishi bizning mamlakatimiz va hozirgi ahvolimiz, shuning birla, so'nggi paytlarda bul o'lkalarda sizning g'animlaringizga nisbatan sodir bo'lgan voqealar tug'risinda sizni xabardor yetsinlar, batafsil so'zlab ittifoqimiz, siz va sizning odamlaringizga hurmat-e'tiborimiz hamda birodarligimiz ravnaqi yo'lida shu kunlarda bajarilayotgan ko'pgina foydali tadbirlar haqinda ham hikoya qilg'aylar. Ul zotni ham sizning, ham bizning odamimiz tariqa-sinda tavsiya yetmoqdamiz; ul kishini diniy masalalardan tashkari. boshka

¹Temur tuzuklari. (Forschadan Alixon Sog'uniy va Xabibullo Karomatov tarjimasi) Tosh., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa birlashmasi, 1991. 57-bet. Bu asarni Amir Temur yozgan yoki Sohibqiron aypgib shurib yozdirgan, degan tushuncha bilan bir qatorda, u birinchi daf'a XVII asrda fors tilida bitilgan va XV asrga taalluqli emas, degan tushuncha ham mavjud. Hozirga qadar bu masalada bir fikrga kelinmagan. Ammo shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik temurshunoslarning mulohazalariga ko'ra, unda Amir Temur davri, uning davlatchilik siyosatining asosiy qirralari aniq tasvirlangan. Bu erda biz Sohibqiron diplomatiisi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ushbu kitobda bu sohaga toalluqli siyosati va io'l-po'rshi aks ettiriyagan qator nuqtalarga tayanishni lozim topdik

²O'sha asar, 58-bet.

¹ Nizomiddin SHomiy. Zafarnoma. (Fors tilidai o'giruvchi -YUnusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga taiyorlovchi va masul muharrir - Asomiddin O'rboev) 7., O'zbekiston, 1996. 246-bet.

²O'sha asar, 324-bet.

³O'sha asar, 323-bet.

barcha masalalarda ishonchli vakil. deb tinglag'aysiz"⁴, Ushbu maktubdagi ostiga chizilgan so'nggi jumla bilan Amir Temur o'zining musulmon imperiyasi hukmdori sifatida diniy masalalar Yuzasidan muzokaralar olib borish niyati yo'qligini bildirish bilan bir qatorda, nasroniy e'tiqodga oid o'z xizmatkorining (elchisining) bu sohada umuman hech qanday haq-huquqqa ega emasligini ham alohida qayd yetgan. Ayrim tadqiqotchilarning, masalan, I.I. Umnyakovning "bu narsa Amir Temur va uning a'yонларининг фикри бо'лмасдан, археопископнинг о'зи томонидан мактубга оқшилган"⁵, деган фикрини сира quvvatlab bo'lmaydi. Chunki elchi sifatida Yuborilgan monax Jan bunday erkinlikka yo'l qo'yishi aql bovar qilmaydigan bir holdir. Amir Temurning islom dini himoyachisi sifatida Yurgizgan ichki va tashqi siyosatining ifodasi tarzida bu jumla ataylab ana shu maktubning boshlanoq o'rinni organligiga shubha bo'lishi mumkin emas.

Amir Temurga bo'y sunishni istamagan va undan qochib Boyazil Yildirim saroyida panoh topgan turkman sardori Qora Yusuf masalasida ham islom dini nuqqai nazaridan yondashilgan. Aslida bundan Amir Temur o'z siyosiy va harbiy maqsadlarini amalga oyuirish uchun g'oyat zukkolik bilan foydalangan. Natijada Qora Yusuf masalasi uning bilan turk sultonini o'rtasidagi eng chigal muammolardan biri darajasiga ko'tariladi, chunki Sohibqironning bu boradagi talabini Boyazid bajarishdan bosh torgali. Amir Temur Boyazidga yo'llagan qator maktublarila Qora Yusufni o'z Yurtida musulmon qonun-qoidalarini oyog' osti qilganlikda, qaroqchilik yo'liga o'tib, Makkaga borayotgan hojilar karvonlarini talaganlikda ayblaydi va bunday shaxsning, Qur'on oyatlarida ko'rsatilganidek, og'ir jazoga mustahiq yetilishi lozimligini ta'kidlaydi. "Qora Yusuf yo'lto'sarlardan bo'lganligi va necha martalar hojilarni g'oyat qilganligi, islom mamlakatlarida talon-toroj qilib fitna qo'zg'otganligi uchun, - deb yozgan edi Sohibqiron bu xaqsa Boyazidga Yuborgan o'z maktublaridan birida, - umumxalq huzurida dorga osilishi kerak, toki o'zga mufsidlarga ibrat bo'lgay". Bu yerda ana shunday "dini islomni g'oyat qilgan" bir kimsani o'z panohida saqlagan hukmdorning ham shu gunohga sherik bo'lishi, islom qonun-qoidalariga xilof yo'l tutayotganligiga ham sha'ma qilib o'tiladi. Amir Temurning Misr mamluklari bilan olib borgan diplomatik yozishmalarida xuddi shu diniy masalalarni xisobga organ holda sal boshqacharorq yo'l tutgani ko'zga tashlanadi. Gap shundaki, mo'g'ullar 1258 yilda Bag'dodni egallab, Abbosiylar xalifaligiga xotima bergach, islom dunyosi (sunnilar) o'zlarining yagona ruhoni rahnamolari - xalifalaridan judo yetiladilar, o'sha paytlarda Bag'doddan Qahiraga kelgan qochokushrdan biri o'zini so'ngti xalifaning amakisi deb e'lon qiladi. Bu da'vo ko'p ham ishonchli bo'lmasada mamluklar islom dunyosida o'z siyosiy mavqelarini mustahkamlash maqsadida uni qabul qiladilar va shundan boshlab Qohirada Abbosiylarning vakillari mamluk sultonlari huzurida islom olamining bosh diniy rahnamosi sifatida qaror topadilar. Ular mamluk sultonlari uchun atrof mamlakatlarni qo'lga olishda ma'naviy tayanch vazifasini o'taydilar. Mamluk Beybars (1260-1277) davrida Afrika qitasidegi Liviya va Barka, so'ngra Nubiya Misrga qo'shib olinadi. Shuningdek, mamluk sultonlari Makka va Madina joylashgan Hijoz ustidan ham o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Amir Temur Misr bilan bo'lgan o'z muloqotlarida ana shu faktlarni e'tiborga olishga majbur edi. U Bag'dodni qo'lga kiritar ekan, Misr bilan o'z sarhadlarining tutashganini hisobga olib, Barquqqa 1393 yil boshida "podshohona tuhfalar va xadyalar bilan" "Sova shahrining mashoyixlaridan va qadimiyy xonardonlaridan bo'lgan aslzoda va sharif bir kishini elchi sifatida" yo'llaydi. Amir Temur Misr sultoniga yozgan maktubida: "hamsoyalik xaqqiga rioya qilib, do'stlik eshigini ochaylik, toki bundan buyon xar ikki tomondan elchilar borib kelib tursinlar, har ikki mamlakat savdogarları uchun yo'l ochib qo'yilsin va bu ma'ni xalq osoyishtaligiga va yo'llarning eminligiga sabab bo'lsin", degan so'zlarni bitgan edi. Ammo elchilik Shom hududiga yetgach, xech qanday sababsiz elchi va uning hamma mulozimlari tig'dan o'tkaziladi. Ayni vaqtida, Barquknning farmoniga muvofiq, o'zaro to'qnashuvda qo'lga to'shgan Amir Temurning yaqin a'yонларидан biri Otlamish¹

⁴"O'zbekiston adabiyoti va sanati 1993 yil 28 may.

⁵ Umnyakov I.I. Mejdunarodnshe otnosheniya Sredney Azii v nachale XV v. Snosheniya Timura s Vizantiey i Frantsiey. Trudy Uzbekskogo Universiteta. Samarkand. Vsh. 61, 1956. s-180.

⁶ SHomiy. "Zafarnoma", 289-bet.

¹Ibn Arabshoh uni Amir Temurning qarindoshi deb sha'riflaydi. Har holda Otplamish Sohibqironga eng yaqin, u bilan urug'dosh barlos beklaridan biri bo'lsa kerak. 1405 yilda Temur O'trorda vafot etganda, uning valiahdi

Qox.iraga olib kyetilib, bandi zindon yetiladi. Bu vaqgda Amir Temur ochiqdan-ochiq Barquqqa qarshi harbiy kuch bilan tazyiq ko'rsata olmas edi. U buyuk strateg sifatida buning uchun qulay fursat yetilmaganini yaxshi bilardi. Chunki Barquq Amir Temurga qarshi Boyazid Yildirim bilan ittifoq tuzgan, agar o'zaro muhoraba boshlansa, uning an'anaviy sherigi Oltin O'rda ham Temur lashkarlariga orqadan zarba berishi mumkin edi. Shuning uchun Amir Temur o'ziga yyetkazilgan ozorni vaqtincha orqaga tashlashga majbur bo'ladi va sulton Barquqni faqat qattiq ogoxlantirish bilan cheklanadi. Shomiyning yozishicha, u Rum chegaralaridan o'tib, Malotiyaga kelganda Misr sultoniga yana elchi Yuboradi va "Men begona lashkarni Shom yerlariga kiritishni xoxlamayman, sizlar bundan ortiq jahl maqomiga qadam bosmanglar, amir Otlamishni tezlik bilan Yuboringlar, toki men elchini o'ldirganingiz gunohidan o'taman va diyoringizni salomat qoldiraman"², degan mazmunda maktub yo'llaydi. Ammo bu maktubga ham ijobjiy javob bo'lmaydi. Bu orada Amir Temur 1394 yilda to'satdan o'z suyuriylari jilovini orqaga burishga farmon beradi. Buni ko'pgana g'arb tadqiqotchilar "Temur 1394 yidda mamluklar ixtiyoridagi Suriya yerlari tomon yo'lga chiqqandi. Ammo u mamluk sulton Barquq qo'shinidan qo'rqib, birdan sharqqa chekinishga majbur bo'ldi", deb izoxlaydilar³. Aslida Amir Temur, Yuqorida ta'kidlanganidek, bu vaqgda Misrga qarshi muhoraba maydoniga chiqmoqchi emas edi. To'qnashuv uchun yetarli va asosli sabab bor edi, ammo qulay fursat va sharoit yo'q edi. Shuning uchun ham u mamluklar bilan bo'ladigan jangni orkdga tashlab, Hindiston safariga otlanadi. U Hindiston Yurishidan qaytgach, mamluklar hukmronligidagi sarhadlarga o'zi uchun qulay bo'lgan yangi vaziyatda Yurish boshlaydi, tez orada yirik shaharlardan Halab va Damashqni qo'lga kiritadi. Misr sultonni Faraj tor-mor qilinib, bu joylarni o'z holiga tashlab Qohiraga qochadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Misr mamluklariga qarshi uyushtirilgan harbiy tadbir uchun Sohibqiron ixtiyorida yetarli bahona bor edi: uning do'stlik mujdasi bilan sulton Barquqqa Yuborilgan elchilarini xiyonatkorona o'ldirilgandi. Barcha xalqlar gomonidan qabul yetilgan va amal qilinib kelingan qadimiy udum - "elchiga o'lim yo'q" udumi buzilgandi. Amir Temur Suriya sarhadlarini egallagach, bu yerkarta, ya'ni musulmon xalifalari qaror topgan mamlakat sarhadlariga kelganligini ma'naviy jihatdan isbotlash maqsadida Yuqoridagi sabab bilan cheklan-masdan yana qator tadbirlarni amalga oshiradi. 1401 yilda sharqning o'sha davrdagi eng yirik va gavjum savdo markazlaridan biri - Damashq shahrining Amir Temur qo'shninidan zabit yetilishining shohidi bo'lgan italiyalik tojir Beltramus de Mingnanelli o'z esdaliklarida ana shunday ma'naviy-diplomatik tadbirlardan biri haqida quyidagicha hikoya qiladi: "Bir kun Temur Misrning Suriyada asir tushgan mamluk shahzodalari va sulton noiblarini o'z huzuriga olib kelishni buyurdi. U ularga sulton huzurida bajargan ishlari haqida qator savollar berdi. Ularning javoblarini eshitgach, boshini sarak-sarak qilib shunday dedi: "O'z-o'zidan ravshanki, sizlar hech narsaga yaroqsiz kishilar ekansiz, sultoningiz esa nodon ekan. Agar u nodon bo'limganda, sizlardek odamlarni shunday Yuksak lavozilarga tayinlarmidi". Shundan so'ng u Damashqda Misr sultonni noibi lavozimida bo'lgan Sayfuddin Sudundan¹ boshlab, qolgan asirlarni ham birma-bir so'roq qildi. Ammo ularning birontasida ham e'tiborga loyiq akl-zakovat ko'rmadi. Shunda u: "Sizlar faqat cho'chqa boqishga yaraysizlar, xolos. Hammangiz o'z insoniy qiyofangizni yo'qotgansiz", - dedi va buyruq berdi: "Bug'doy, makka va otlarga xashak olib kelinglar. Bular orqalab olib kyetsin, chunki boshqa ishga yaramaydilar"². Bu bilan Amir Temur u yerdagi aholiga ular tepasida turgan a'yonlarning Yurtni boshqaruv ishiga yaroqsiz kishilar ekanligini, bunday zotlar zulmidan musulmonlarni ozod yetish esa savobiylardan sanalishini eslatib qo'yadi. Tanshush tarixchi olim Edvard Gibbonning ta'kidlashicha, Amir Temur xuddi shu vaqtida Halab shaxrida asir tushganlar orasidan huquq olimlarini yig'ib, ular bilan suhbat qurgan va bu suhbatda islom bayrog'ini bedahl va bezavol

Pirmuhammadga barcha beklar imzo chekkan "Ittifoqnomma" ni zudlik bilan Qandahorga etkazishdek yuyat muhim va o'ta maxfiy yumush Otlamishga yuklatilganini ko'ramiz. Qarang: Tadj ad-din As-Salmani, Tarix-name. Perevod s turkskogo akad. Z.M. Bunintova. Baku, Elm, 1911. s. 26.

²SHomiy. Zafarnoma, 289-bet

³W. J. Fishel. A new Latin source. - r. 201.

¹ Temur elchilarining o'ldirilishida asosiy aybdor bo'lgan Sayfiddin Sudunni Sohibqiron o'limga hukm etadi.

²W. J. Fishel. A new Latin source. - r. 201.

saqlash uning asosiy maqsadi ekanligini qat'iy ta'kidlagan. Ayni vaqtida, u bu joylarda mavjud bo'lgan asl islomdan chekinish hollariga ishora qilib «Moaviya istilochi edi. Yazid zolim, qonxo'r edi. Faqat Ali xazratlari payg'ambarimizning qonuniy izdoshlari bo'lganlar»³, deydi.

Bu parchadan ko'rinish turibdiki, Sohibqiron atrofdagilarga hatto xalifa bo'lgan mamlakatda ham xaq yo'lidan toygan Muoviya va Yazid tarafdarlari borligini, bu mamlakatni islom diniga rahna soluvchi buzg'unchilardan tozalash Oolloxga xush keladigan savob ishlardan ekanligi va bu vazifa uning zimmasiga Yuklanganini tushuntirishga harakat hiladi. Bu esa, o'z navbatida, uning boshqa mamlakatlarga amalga oshirilgan Yurishlaridagi kabi, qo'shinlari bilan Halabga kelganligini ma'naviy jixatdan oklashga qaratilgan targ'ibiy tadbirdaridan biri bo'lgandi. "Qaysi bir viloyat xalqining e'tiqodi, - deb yozilgan bu hakda "Temur tuzuklarida", - Hazrati Sayyid al-Mursalin, unga Ollohning marhamatlari bo'lsin, xonadoni aqidalaridan farqlanib o'zgargan bo'lsa, podshohlar o'sha viloyatni bosib olishlari va u er aholisini buzuq e'tiqodlaridan qaytarishlari lozim. Bunga misol, men Shom viloyatiga kirib, buzuq e'tiqriddi kishilarni jazoladim"⁴.

Amir Temur "Tuzuklari"da "Qaysi ishni chora-tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim"⁵ degan ibora bitilgan. Bu narsa uning diplomatiyasida asosiy o'rinni tutganligini ko'ramiz. Bu diplomatik yo'l Turonzaminni bir yahlit davlat sifatida birlashtirishda katta ijobjiy natijalar berdi. Aks holda ko'plab qon to'kilgan, mo'g'ullarning 150 yil davom yetgan zulmidan keyin endi qad rostlab kelayotgan o'nlab shahar-qishloqlar va sug'orish inshootlari qaytadan vayron qilingan bo'lur edi. Bu esa, o'z navbatida, mo'g'ul istibdodiga qarshi kurashdagi yakdilikka rahna solgan, mustaqillik taraf-dori sifatida siyosiy maydonga chiqqan kuchlarning ijtimoiy va iqtisodiy tayanchini ojizlantirib, pirovard natijada bu kuchlarning maqsadga erishuv muddatini cho'zib Yuborgan bo'lur edi.

Diplomatik yo'l bilan o'z ta'sir doirasini kengaytirish usulini Amir Temur o'z faoliyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni jahongirlik davrida ham keng qo'llagan. U, ayniqsa, kichik hukmdorlarga jangu jadalga kirishmaslikni, Yuqori hokimiyat sifatila uni tan olgan holda o'z Yurtida avvalgidek hukmronlik qilaverishni tavsiya yetgan. Manbalardan ma'lumki, ko'p hollarda bu siyosat muvaffaqiyat qozongan. Albatta, bunday hukmdorlarning Amir Temur takliflarini qabul qilishi zamirida Turondagidek birlashish zarurati emas, balki noilojlik asosiy omil bo'lgan. Shu bilan ular, cheklangan bo'lsada, o'z hukmronliklarini saqlab qolganlar.

Harbiy kuch-qudratga tayangan bu diplomatik usul ko'p hollarda muvaffaqiyat qozonganligining yana bir sababi shundaki, Amir Temur o'z faoliyatida aytigan so'zni albatta amalga oshirishga harakat qilgan.

Tarixdan ma'lumki, ko'pgina fotihlar u yoki bu istehkomni zabit yetishda yoki biron mamlakatni o'z tasarrufiga olishda, agar ictiyoran taslim bo'linsa juda katta va'dalar berishgan, el-Yurt, mol-jon omonligini saklash haqida qasamlar ichishgan, ammo o'z maqsadlariga erishgach, turli rivoyatlar topib, uni buzishgan. Bunday holni biz CHingizzon va uning lashkar-boshilar ni faoliyatida ayniqsa ko'p uchratamiz. Tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, Temur bunday hollarda so'z va ish birligiga asosan qat'iy amal qilgan. Bunga faqat bitta misol keltirish bilan cheklanamiz. Manbalardan ma'lumki, Amir Temur Boyazid Yildirim bilan to'qnashuvda turk sultoni tarafida bo'lgan "totorlar" qavmini Turkiston sarhadlariga qaytarish va'dasi bilan o'z tomoniga ag'larishga muvaffaq bo'ladi. Bu haqda Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshohasarlarida to'la ma'lumot berilgan. Muallifi o'sha davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rgan boshqa bir manba - "Tarixnama"da Sohibqiron bergen ana shu so'zning oqibati haqida aniq faktlarga duch kelamiz. Ma'lumki, 1404 yil sentyabr oyida Samarqand yaqinidagi Konigilda Amir Temur uyuştirgan sayl-to'yda boshqa nabiralari qatori uning suyukli nabirasi Ulug'bek ham uylantiriladi. Yuqori dagi asar muallifi Tojiddin as-Salmoniying ta'kidlashicha, Amir Temur Muhammad Tarag'ay Ulug'bekka "Mo'g'ullar yashay digan Yurtlarni (suba) va yerlarni (julka) idora qilishni topshirdi va dedi:

³Edvard Gibbon. Rum imperiyasining emirilishi va qulashi sharixi, 6 - jipd. Iyu-York, 1850, 373-374-betlar. Bu asardan keltirilgan lavha X. Ismatutaevning "Amir Temur va Ovrupo" maqolasidan olindi. Qarang: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1995 yil, 14 iyul.

⁴Temur tuzuklari. 92-bet.

⁵O'sha asar, 12-bet.

"Ulug'bek u joylardagi barcha ishlarga boshchilik qilsin, chunki unda shunday iste'dod mavjud, Olloh panohida u bu mamlakatga hukmronlik qilishga qodir va bu hol men boshqa Yurtlarni zabit yetishga otlanganimda meni xotirjam bo'lismiga sharoit yaratadi". Buninguchun Amir Temur o'z nabirasi ixtiyoriga Movarounnahr, Iroq va Huroson odamlari bilan birga 20 minglik totor suvorilarini ham o'tkazdi. Ular Rumdan xotin-xalajlari va bola-chaqalari va xeshu - toborlari bilan bu erga ko'chirilgan edilar"¹.

Amir Temurning tashqi siyosat borasidagi faoliyatiga taalluqli juda ko'p voqealar shuni ko'rsatadiki, bu ulug' zot biron daqiqqa bo'lmasin siyosiy hodisalar tizginini nazardan qochir-magan va bu borada timmasdan mexnat qilgan. U nafakat o'z poytaxti Samarcandda, balki bepoyon imperianing qaerida bo'lmasin, har vaqt chyet el elchilarini qabul qilgan, unga atrof mamlakatlardan uzluksiz suratda xabarlar kelib turgan. Umumai, Amir Temur davrida aloqa vositalari izchil va puxta tashkil yetilgan edi. "Amr qildimki, - deydi Temur o'z "Tuzuklar"ida, - mingta tezYurar tuyu mingan, mingta ot mingan elib-Yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezYurar piyodani (chopar) yetib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarxadlarning xabarla-rini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqealari kor-xol Yuz bermasdan burun chora va ilojini qilaylik..."². U harbiy Yurishlar vaqtida ham yo'l-yo'lakay atrof-javonibdan kelgan elchilarini qabul qilgan, o'z vassallarining o'ziga bo'lgan sadoqatini sinab ko'rgan va mustahkamlash choralarini amalga oshirgan, hatto uzoq mamlakatlar bilan do'stona aloqlar masalalarini ham hal yetib kyetavergan. O'sha vaqt sharoitida bu tabiiy hol edi, albatta. Chunki chyet el vakillari Sohibqironni Samarcandda kutib turolmas, uning shaxsan o'zi echadigan muammolarga esa hech kim aralasholmas edi. Masalan, Hindiston safari vaqtida Kobul yaqinidagi Durinda Amir Temur huzuriga Temur Qutlug' Ug'lon, Amir Idiku, Hizrxo'ja O'g'lon elchilari kelib, Shomiyning yozishicha, o'z xo'jalarining quyidagi mazmunda bitilgan nomalarini topshiradi: "Bizlar hammamiz Sohibqironning bandalari, xizmatkorlari va tarbiyalarini topgan kishilarmiz. Agar bundan ilgari muxolifat tirnog'i ixlosimiz Yuzini tirnagan bo'lsa, endi biz akl oynasida uning aybini ko'rdik va oyog'imizni u (ixtilof) maqomidan tortdik. Agar xalifalik panohi bo'lmish hazrat avf qilsalar, bundan keyin bandalik ko'chasidan chyetga qadam qo'yamymiz va itoat ostonasidan boshimizni ko'tarmaymiz"³. Sohibqiron ularni avf yetadi va "xisravona tuhfalar bilan sarafroz" yetib, qaytishlariga ijozat beradi.

Bu yerda bo'lib o'tgan yig'inga atrof-javonibdag'i mamlakat va hukmdorlardan kelgan elchilar bilan bir qatorda uzoq Do'g'u Mo'g'ul (Ulug' Yurt)ning chingiziy hukmdori Temur Kut-lug'ning maxsus vakili, Xitoy imperatorining elchisi Tayzi Ug'lon ham o'z odamlari bilan yetib keladilar. Boshqalar qatorida Amir Temur ularni ham katta xushnudlik bilan kutib oladi. Ushbu anjumanga tashrif buyurganlar odatga muvofiq katta sovg'a-salomlar bilan kelgan edilar. Sohibqiron elchilarga o'z navbatida qimmatbaho tuhfalar ulashadi. Yig'indagilarni ayniqsa Fors viloyati voliysi amirzoda Shayx Nuriddinning Amir Temurga keltirgan qimmatbaho sovg'a-salomlari qattiq hayratga soladi. "Atrof (diyorlar)dan kelgan elchilar - deb yozadi Nizomiddin Shomiy bu haqda hikoya qilar ekan, - masalan, Xitoy mamlakatidan elchi bo'lib kelgan Toyzi O'g'lon va Temur Kutlug'ning elchilarini ham shu majlisda hozir bo'lib, u qimmatbaho sovg'alarga taajjub ko'zi bilan tikilardilar. Sohibqiron hazratlari u tuhfalardan elchilarga suyurg'allar ulashdi"³. Xitoy elchisining Duringa yetib kelishining sabablari haqida manbalarda aniq ma'lumot uchramasada, uning bu erga o'z-o'zidan kelmaganligini, Amir Temurning Hindistonga otlanganini eshitgan Xitoy imperatori Sohibqironning gal dagi rejalaridan tashvishga tushib, zudlik bilan uning huzuriga o'z elchisi Toyzini Yuborganini taxmin yetish mumkin. Yirik sharqshunos olim Zakiy Validiy To'g'onning ta'kidlashicha, xuddi shu yerda, ya'ni Durinda Amir Temur hind safaridan keyin Xitoyga Yurish uyuşhtirish niyatiii ochiq e'lon qiladi. Uning fikricha, Sohibqironning bu masaladagi rejasi qatiy bo'lib, shu niyatda u 1397 yilda CHig'atoy xoni Xizrxo'ja bilan yarashib, uning qizi Tug'al xonimiga uylanadi va valiaxdi Muhammadsulton Mirzo hamda boshqa bir qancha amirlarga Xitoy safariga yaqindan tayyorgar-lik ko'rish uchun Mo'g'uliston taraflarida, Yettisuvda qal'alar va istehkomlar qurish va u yerlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan shug'ullanishni buyuradi.

¹Tadj ad-Din as-Salmoniy. Tarixname. s. 115. 2. Temur tuzuklari, 26-bet.

²SHomiy. Zafarnoma, 225-226-bet.

³O'sha asar. 226-bet.

"Ammo, - deb yozadi To'g'on, - Misr va Anado'li sultonlarining Temur imperiyasining g'arbiy sarhadlariga nisbatan olib borgan siyosatlari Sohibqironni yana g'arbga otlanishga va Xitoy safarini u mo'ljallagan 1398 yilda boshlashga imkon bermadi va uni orqag'a surishga uni majbur qildi. Agar Amir Temurning ana shu rejasи amalga oshganda edi, ehtimol, u barpo yetgan imperiyaning Sohibqiron vafotidan keyingi takdiri boshqacha bo'lardi"⁴.

Har holda hind safari davomida Durinda bo'lib o'tgan ana shu yig'inda Amir Temur yo'l-yo'lakay g'oyat muhim ichki va tashqi siyosatga doir qator masalalarni muhokamadan o'tka-zadi, ularning har biri Yuzasidan ma'lum qarorlar qabul qiladi. Manbalarning xabaricha, bunday anjumanlar tez-tez o'tkazib turilgan.

Amir Temur Sind daryosi qirg'oklariga yetib kelganda uning huzuriga atrofdagi hokimliklardan yana bir qator elchilar yetib keladilar. Ular Sohibqironga o'z hukmdorlarining ixlos va tobelik izhor yetilgan maktublarini topshiradilar. Bu elchilarning ayrimlariga topshirilgan javob maktublaridan Amir Temur ularning hukmdori gardaniga Hindiston fathi bilan bog'liq bo'lган aniq vazifalar Yuklaydi. Masalan, Kashmir hukmdori Iskandar shohga Dibolpur shahri yonida o'z qo'shinlari bilan shay bo'lib turish vazifasini topshiradi¹.

Amir Temur davlatining tashqi munosabatlariga oid va turli davlat boshliklari — podshohlar, sultonlar, qirollar va qar xil hukmdorlarga yo'llangan diplomatik yozishmalari asosan Sohibqiron nomidan olib borilgan. Bu tabiiy hol bo'lib, Movarounnahrda vujudga kelgan mustaqil davlat va so'ng barpo yetilgan bepoyon imperiyaning asoschisi va yagona oliv hukmdori - Amir Temur edi. Ammo, gap shundaki, ana shu davlatda ayni vaqtida uning o'zi va safdoshlari tomonidan rasmiy suratda "xon" kursisiga o'tqazilib qo'yilgan chingiziy shahzodalar ham mavjud edi. Temur davlatida zarb yetilgan va davlatchilikning asosiy belgilardan biri bo'lган muomala vositasi - tangalarda ana shu xonning nomi lbatta zikr yetilar edi. Masalan, Samarqandda 1402-03 yillarda zarb yetilgan tangalarning old tomoniga Qur'ondan kalima va ularning to'rt burchagiga birinchi to'rt xalifaning nomi, boshqa burchaklariga esa tangalar zarb qilingan shahar hamda sana yozilgan bo'lsa, ularning orqa tomoniga avval chingiziy "xon" - sulton Mahmudxon va so'ngra Amir Temur Ko'ragon ia Amir Muhammad sulton nomlari yozilgan². To'g'ri, nomigagina "xon" ko'tarilgan chingiziylarning eng Yuksak darajadagi rasmiy hurmati asosan shu bilan cheklangan. Chunki, ular aslida Amir Temurning yaqin a'yonlari qatorida, uning xizmatida bo'lganlar. Ular Amir Temur rejalarining bajarilishiga ma'lum hissa qo'shganlar, uning topshiriklarini so'zsiz ado yetib kelganlar. Masalan, 1388 yilda Suyurgotmish o'rniga xon ko'tarilgan sulton Mahmudxon Amir Temur harbiy Yurishlariga faol ishtirot yetgan. Sohibqiron unga har vaqt qo'shning ma'lum qismiga qo'mondonlik qilish vazifasini Yuklab kelgan. 1402 yilda Angora (Anqara) yonidagi jangda Boyazid Yildirim engilib, bir guruhi a'yonlari bilan jang maydonini tashlab qochganda, uni Sulton Maxmudxon rahbarligidagi qushin dastasi ta'qib yetadi va asir olib Amir Temur xuzuriga olib keladi³. Bu voqeadan bir necha yil burun Amir Temur Hindiston fathiga yo'lga chiqqanda (1398 yil) Kobul shaxri yaqinidagi Durin degan so'lim joyda katta bazm uyushtirgach, o'z haramining bir qismini, jumladan, suyukli nabirasi Ulugbekni Samarqandga qaytarishga qaror qilganligini bildirib, ularni kuzatib borishni sulgon Maxmudxonga topshirgan⁴.

Demak, Amir Temur davlatining tashqi aloqalari bilan bog'liq masalalarga qo'g'irchoq xonlar yondashtirilmagan va bu boradagi davlat siyosati faqat Sohibqironnish irodasi bilan amalga oshirilgan.

Ma'lumki, Amir Temur Turonzaminda mustaqil davlatni qayta tiklagach, bu yerda turkiy tilning davlat tili darajasiga ko'tarilishiga katta imkon yaratgan va bu masalaga alohida e'tibor bergen. Bunga misol tariqasida uning Dashti Qipchoqqa qarshi uyushtirgan Yurishi haqida o'sha joydagи xarsashlarga bu Yurish haqidagi ma'lumotni turkiy tilda o'yib yozish haqida farmon

⁴A. Zeki Yelidi togan. Umumi Turk Tarihine giris. En eski devirlerden 16 asra kader. 3 baski, Istanbul, 1981. 347-348-betlar.

¹SHomiy. Zafarnoma, 225-bet.

²Tuxtiev T.I. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. 7", "Fan", 1992. 16-bet.

³Ismoil Aqa. Temur va davlashi, 29-30-betlar.

⁴SHomiy. "Zafarnoma", 225-bet.

berganligi⁵ va Mavarounnahrdagi o'z yorliklarini shu tilda yozdirganligini eslatish kifoyadir. Sohibqironning Xorazmdagi Abu Muslim avlodlari bo'lган sayyidlarga imti-yozlar berish haqidagi ana shunday bir yorlig'i O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saklanmokda. Bu yorlikda Amir Temurning muhri bosingan⁶.

Ammo Sohibqironning xalqaro yozishmalari asosan fors tilida olib borilgan. Chunki bu til o'sha paytda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining nafaqat o'zaro, balki boshqa mintaqaga davlatlari bilan olib borgan muloqotlarida rasmiy xalqaro aloqalar vositasi sifatida tan olingen va diplomatik yozishma-lar ko'pincha ana shu tilda olib borilgan. Amir Temur bu an'anaga amal qildi, lekin o'z xatlarini "Amir Temur so'zim" yoki "so'zimiz" degan turkiy kalima bilan boshlashni rasmiy udumga aylantirdi. Buni Ovrupo mamlakatlariga yo'llangan yozishmalarda ham ko'ramiz. Hatto Amir Temur maktublarining lotincha tarjimalaridan birida "so'zimiz" kalimasi Temurning rasmiy unvonlaridan biri bo'lsa kerak, degan andisha bilan ag'darilmasdan "so'smo's" deb yozib qo'ya qolinganligi nazarga tashlanadi⁷.

O'sha davrga oid yozishmalar majmualari va boshqa manbalarda keltirilgan hujjatlarda Amir Temurning jaxongirlik siyosati osonlik bilan amalgalashganligi, unga qarshi joylarda turli tarzda o'zaro ittifoqlar tuzilgani, har xil podshohliklar harbiy imkoniyatlarini birlashtirgan xrlida harakat qilishga urinishgani, O'rta Sharqsa esa dastlab Misr sultonasi Barquq mamlukni, so'nfa turk sultonasi Boyazid Yildirimni Amir Temurga qarshi kurashga otlantirishga qattiq harakatlar bo'lgani haqida ma'lumotlarga duch kelamiz. Bu hakda faqat bir-ikkita misol keltirish bilan cheklanamiz. Ibn Arabshohning yozishchicha, Amir Temur Kaspiy bo'yiga yo'nalganda Mozandaron hokimi Shoh Vali uning elchilarini yaxshi qabul qilib, tobelik bayon yetadi, ammo oradan sal fursat o'tgach, Ajam Iroqi hamda Kirmon hukmdorlari shoh Shuj'a va sulton Ahmadga elchi Yuborib, Temurga qarshi ittifoq tuzishni taklif yetadi. Ammo unga berilgan javob, bu podshoeushklar atrofida ro'y berayotgan voqealar haqida aniq tasavvurga ega bo'limganliklari, shu tufayli g'affat uyqusida qolganliklarini ko'rsatadi. Jumladan, sulton Ahmad Mozandaron hokimiga Yuborgan javob maktubida Amir Temur sha'niga yog'dirgan haqoratlardan keyin quyidagilarni bitgan edi: "Temur Iroqni Xuroson misoli xayol qilmasin. Agar u bizning Yurtimizga kelishni niyat qilgan bo'lsa, albatta, o'zi bilan (birga) o'limi ham keladi va uning butun orzu-umidlari puchga chiqishi muqarrardir. Bizlar shunday qilamizki, bizda ham kuch-quvvat ham shiddat, quroq-yarog'u qo'shin, mol-dunyo ham shavkat mavjuddir. Faqat bizgagina balandparvozlik yarashadi". Tabiiyki, bunday ahvolda ittifoq haqida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. 1963 yilda Tehronda e'lon qilingan Eron tarixiga oid hujjatlar va xatlar majmuasida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur Ozarbayjon tomon Yuz burganda uning O'rta Sharq nohiyasidagi eng ashaddiy dushmanlaridan biri Qora Yusuf zudlik bilan Boyazid Yildirimga elchi yo'llaydi. U o'z elchisi orqali Yuborgap maktubida shunday jumlalarni o'qiyimiz: "Temur Turondan Eronga o'tib, Xulagu singari, elxonlik da'vo qilib, Fors chegarasigacha bo'lgan hududda ahli islom guruhini yo'q qildi... Kaminangiz u bilan Yuzma-Yuz to'qnashish va jang qilishda musulmonlar uchun jonu tanini fido qiladi. Umid borki, hazratingiz ham bundan voqif bo'lib, chegaradagi amirlarga farmon bersalar, toki ular vaqtida tayyor bo'lib tursinlar, agar extiyoj tug'ilsa, fursatni ko'ldan bermasinlar, chunki u nobakorni daf qilish kofirlarga qarshi g'azovot qilishdan ko'ra ming bor afzalroqdir. Qolgan gaplarni hurmatli amir Muroddan eshitasiz va tezlik bilan chora ko'rasiz". Boyazid Yildirim esa o'z javob xatida Qora Yusufni bu masalada to'la qo'llab-quvvatlashini bildirib, agar Amir Temur "sizlarning viloyatlariningizga yaqinlashib kelsa g'olib va muzaffar askarlar paydar-pay yetib boradilar" va "o'sha jahonso'z otashni" oyna Yuzidan changni sidirgandek supurib tashlaydilar, deb Qora Yusufni xotirjam qiladi, ayni vaklda unga Shirvon, Gilon. Kurdiston va Luriston hokimlari

⁵Harsangdagi arab alifbosida eski o'zbek tilida tushirilgan yozuvda bo'nday deyilgan: "Turon sultonasi Temurbek bahrr oyida (1391 yilning aprelida) ikki yuz ming askari bilan To'xtamishga qarshi yurishda shu erga kelib, toshdan qo'rg'on ko'tardi. Tangriga maqul bo'lsa, haqyaik qilur, ummatlar ja esga olur deb toshga vzdirdim" Qarang: "Toshkent haqiqati ", 1995 yil, 2 mart.

⁶O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoashk instituti qo'lyozmalar fondi. 17-papka, hujjat raqami 5.

⁷Umnyakov I. I. Mejdunarodnye otnosheniya., (ilova qismi). s. 186. 2. SHomiy. Zafarnoma, 284-bet.

bilan itgifoq tuzib, birga harakat boshlashni maslahat beradi¹.

Tabiiyki, Amir Temur o'z raqiblarining shu kabi xatti-harakatlaridan har vaqt voqif bo'lib turgan va o'z vaqtida ularga qarshi ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirib borgan.

Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, u raqiblariga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-ahloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan. Bu xaqda Yuqorida Sohibqiron va Sulton Boyazid o'talaridagi yozishmalardan misollar keltirib o'tgan edik.

Bizgacha yetib kelgan ko'pgina hujjatlarning guvohlik berishicha, oldingi o'tgan podshohlar udumiga muvofiq Amir Temur ham unga bo'ysungan va o'z Yurtida hukmdor qilib qoldirilgan podshohlarning valiaxdarini (odatda ularning bosh o'g'illarini) o'z ixtiyoriga Yuborilishini talab qilgan. Ular uning a'yonlari qatorida hayot kechirganlar, shahzodalarga ko'rsatilishi lozim bo'lgan xurmat-e'zozga loyiq toyilib, barcha Yurishlarda Sohibqiron atrofida ma'lum vazifa bajarib kelganlar. Bundan kuzatilgan maqsad ayon edi. Bu ham o'ziga xos diplomatik uslub bo'lib, u asosan kafolat sifatida ko'llanilar edi. Chunki, birin-chidan, o'z farzandi Yuksak hukmdor ixtiyoriga Yuborilgan har qanday hokim itoatsizlik tadbirlarini amalga oshirishdan oddin naliadx taqsirini o'yashga majbur bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, agar shunday voqeа sodir bo'lganda Amir Temur uning o'rniga darxol valiaxdni tayinlashi ham mumkin bo'lgan. Bu usul Amir Temurdan keyingi hukmdorlar tomonidan qam doimiy tarzda ishlatilib kelinganligi tarixdan ma'lum. Ushbu taomilga faqat sharq podshohlari amal qilib kolmasdan, u Ovrupo kirollari gomonidan ham izchil suratda qo'llanib kelingan. Nizomiddin Shomiy o'z asarida Amir Temurning ana shu masala bilan bog'liq bo'lgan siyosati haqida juda ko'p ma'lumotlar keltirgan. Masalan, "Zafarnoma"ning "Amir Soqibqironning Kichik Lur buzg'un-chilarini daf yetishga Yuzlangani bayonida" deb nomlangan bobida, jumladan, quyidagilar bitilgan: "Turklarning bars yiliga muvofiq kelgan yetti Yuz sakson sakkizinch (hijriy) yili (milodiy 1386 yil) Amir Sohibqiron Feruzshohga yetdi. Shu yerda Sayyid Kamoliddin palos o'pishga yetib keldi va o'g'li Sayyid G'iyosiddinni Amir Sohibqironning mulozimligiga mansub yetdi. Amir uni izzat-ikrom bilan qarshilab, podshohona marhamatlar ko'rsatdi"². Bu hol, shubhasiz, o'z valiaxdini Sohibqiron xizmatiga Yuborgan hukmdorming Amir Temurga bo'ysunishi yoki uning ga'sirini tan olganligini bildiruvchi eng yorqin alomat edi. Turk tarixchisi Ismoil Aqaning yozishicha, Amir Temur va Boyazid Yildirim o'tasidagi munosabatlar qaltis tus olganda, Temur turk sultonidan boshqa talablar qatorida uning valihsini o'z huzuriga Yuborilishini ham qat'iy qo'ygan. Bu talab Boyazidni larzaga keltirgan va u o'z vaziriga: "Kuchimiz va shiddatimiz bor. Endi urushga tayyor bo'lishimiz kerak", - degan¹. Shundan keyin, turk sultoni Amir Temurga elchilar orqali ultimativ sajiyadagi

o'z maktubini Yullagan bo'lsa ajab emas. Boyazid Yildirim oldi ga ana shunday talabning ko'ndalang qo'yiltanligi manbalardan ham ma'lum. Masalan, Nizomiddin Shomiy bu to'g'ridagi Amir Temurning, agar turk sultoni bu boradagi uning talabini bajo keltirsa, ikki o'ttada bo'lishi mumkin bo'lgan to'qnashuvga barham berilishi hamda turk sultonni o'z Yurtidagi hukmronligini bemalol davom yettiraverishi mumkinligi haqidagi fikrlarini keltirib, jumladan, quyidagilarni yozadi: "Amir Temur turk elchilariga: "Borib Boyazidga aytinlar, o'z o'g'lini ham bizning huzurimizga Yuborsin, toki biz unga shunday izzat-ehsonlar ko'rgazaylikki, bundayni o'z mehribon otasidan ham ko'rмаган bo'lsin, uni farzandlikka qabul qilib, Rum mamlakatini Yildirim Boyazidga topshiraman, vahshat va gina tikonlari o'rtadan ko'garilib, u bundan keyin davlat va komronlik bog'idan omonlik gulbargini tergay, shaharlar, xalqlar aminu omonliq va farovonlikda, farog'atu osudalikda bo'lgaylar, buning sa1Yubi (u dunyoda) bizning davlatimiz zamoniga mansub bo'lgay"².

Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar Yuborar ekan, ularga Yuklatilgan missiyaning ahamiyatiga qarab o'z nomidan ish ko'rvuchi bunday odamlarning e'tiborli, el-Yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo'lishiga katta e'tibor bergen. Uning a'yonlari ham ana shunday kishilardan iborat

¹SHomiy. Zafarnoma, 133-bet.

²SHomiy. Zafarnoma. 327-328-betlar.

¹ W.J. Fischel. A new Latin source. - r. 201, 206.

²SHomiy. Zafarnoma. 246-bet.

bo'lgan. Buni italiyalik tojir Mignanelli asarida keltirilgan quyidagi satrlar to'la isbotlaydi: "Temurning kishilar, - deb yozadi u, - juda ham ko'rkar edilar, ular nasli-nasabiga ko'ra ham ulug'vor ko'rinardi. Ular oliv xususiyatlari, farosatli, mashhur, yoshiga qarab mansabdor bo'lgan kishilar edi. Temurning shunday odamlari bor ediki, ular arab, Yunon, hibru (yahudiy) va boshqa qator tillarni bilardilar, osmon ilmi, geomyetriyadan mashhur edilar"³. Sohibqiron elchilarni ham ana shunday kishilardan tanlaganligiga shubha qolmaydi.

Manbalarda keltirilgan Amir Temur diplomatik aloqala-riga doir materiallar shundan dalolat beradiki, Sohibqiron elchilarni tanlashda g'oyat ehtiyyotkorlik ko'rsatgan, o'z a'yondari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalar nigarina bu ishga loyiq ko'rgan.

Bu o'rinda Sohibqiron, fikrimizcha, to'la-to'kis qadimiyligi turkiy diplomatiyaga xos bo'lgan urfatlarga qattiq rioya qilgan. U, shubhasiz, bu soxa uchun g'oyat qimmatli sanalgan, XI asrda bitilgan va qadimiyligi diplomatiya sir-asrorlarini o'zida ifoda yetgan turkiy tildagi qomusiy asar - "Qutadg'u bilik" bilan yaxshi tanish bo'lgan.

Amir Temur tashqi siyosatiga o'z hayotini bag'ishlagan uning sadoqatli elchilari orasida Ispaniyaga borib, u yerda Amir Temur elchisi sifatida ma'lum muddat turgan va Kastiliya elchilari bilan Samarqandga qaytgan Muhammad Al-Keshiy singari zukko dishYumatlar bor edi. Amir Temur saltanatining mashhur diplomatlaridan biri - Muhammad Al-Keshiy haqida ma'lumotlar kam uchraydi. Ovrupo mamlakatlariga Amir Temur musulmon diplomatlardan faqat Al-Keshiyini Yuborishni lozim topgan. Bu narsa Al-Keshiyning Yuksak madaniyatli va savodli bir kishi bo'lishi bilan bir qatorda uning ma'lum darajada Ovrupo tillaridan, hech bo'limganda uning birontasidan xabardor bo'lganligini bildiradi. U Ispaniyaga yetib borib, uning qiroli Henrix III huzurida Sharqning buyuk imperatori - Amir Temuring shaxsiy vakili sifatida juda katta hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi, qirol saroylaridagi yig'inlarda katta obro' qozonadi. Henrix III unga Rui Gonsales de Klavixo rahbarligidagi o'z elchilarini qo'shib, hurmat-ehtirom bilan Samarqandga qaytaradi⁴.

Bu ajoyib diplomatni shu sohaning yana bir yetuk vakili -Jaloliddin Keshiy bilan taqqoslasa bo'ladi. U Amir Temurga asosan Movarounnahrda mustaqil va bir butun davlatni barpo qilish yillarida katta xizmatlar ko'rsatgandi. Masalan, Sharafiddin Ali YAzdiyning yozishchicha, Jaloliddin Keshiy ortiqcha qon to'kilishining oldini olish maqsadida o'z talabiga muvo-fiq Amir Temur tomonidan Xorazm voliysi Husayn So'fi huzuriga elchi tariqasida Yuborilgandi.

"Mavlono Jaloliddin xayriyoxlik Yuzini Xorazm tomon qaratdi va ul muhim (vazifa)ni rahmi shafqat yo'li bilan hal yetmoqchi bo'ldi. U erga borgach, - deb yozadi YAzdiy, - donishmand ulamo va dinparvar peshvolarga xos bo'lgan nasihat va xushmuomalalik bilan so'z qotdi; nizoni tubdan bartaraf yetish va fitna olovini o'chirish uchun oyatlar va isbotiga hadislari keltirdi. Ammo payti bo'limgani uchun notiqning gapdonligi va so'zga chechanligi foydasi bo'lindi va natija bermadi. (Misra: Qulog'i kar, esi yo'q (odamga) chirolyi nutq so'zlamog'dan ne foyda) Husayn So'fi (u aytgan) so'zlarni qabul qilmadi va u shunday haqiqatgo'y ulug' kishini qamab qo'yishga jur'at qiladi"¹.

Amir Temur a'yondari ichida bunday ajoyib diplomatlar ko'p bo'lgan. Amir Temur To'xtamishga Yuborgan elchi Shamsiddin Almoliqiyini Nizomiddin Shomiy shunday ta'riflaydi: "U ish ko'rgan, aklli, hushyor, donishmand bir kishi edi. U borib shirinsuxanlik bilan ko'ngilga yoqar gaplarni aytib, so'zning ulanishu rivojiga rioya qilgan holda maqsadni ado yetdi. Uning so'zlarini podshoh va amirlar qalbiga ta'sir ko'rsatib (To'xta-mishxon) sulhu safoga moyil bo'ldi g'i

³Ismoil Aqa. Temur va davlati, 73-bet.

⁴Muhammad Al-Keshiy haqida Klavixoning esdaliklarida asosiy ma'lumotlar o'z aksini topgan. SHuni ham ta'kidlash joizki, bu yorqin siyomonning ism-sharifi turli manbalarda har xil tarzda yoziladi: Al-Kahiy, Al-Kachi, Al-Qozi, Al-Hoji. Ma'lumki, Sohibqironning ona vatani — SHahrisabzning avvalgi nomi Kesh bo'lgan. Klavixo uni o'z esdaliklarida "kach" deb talaffuz etgan. U Temur elchisi nomini ham al-Kachi deb yozgan. Har ikki holda xam gap Kesh haqida boradi. Frantsuz tadqiqotchisi Lyusen Keren elchi nomini al-Keshiy, deb to'g'ri yo'l tutgan. Muhammad Al-Keshiy, asli Kesh shahridan bo'lib, Sohibqironning yaqin vatandoshlaridan biri bo'lganligiga shubha qolmaydi. U o'ziga tug'ilgan shahri nomini nisba qilib olgan.

¹SHarafiddin Ali YAzdip. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari. 1360-1370. Mas'ul muharrir, so'z boshi muallifi va nashrha tayyorlovchi Asomiddin O'rinoev, tarjimon O. Bo'riev. T., "Ksshalak", 1994. 242-243-betlar.

Shamsiddin Almoliqiyini siylab, hurmat bilan qaytardi..."². Bu haqsa Shomiydan yana bir misol keltirish mumkin. Amir Temur Dexlini qo'lga kiritgach, atrof rojalarga elchilar Yuborib, ularni tobelikka da'vat yetadi. Bu diplomatik xizmat ham Temur atrofidagi g'oyat e'tiborli shaxslarga Yuklatilganligini ko'ramiz, "Dexlining Feruzobod darvozasidan chiqqanlarida (Amir Temur) - deb yozadi Shomiy, - bundan ilgariroq lashkargoxdan elchilik rasmi bilan Lahovar tarafiga jo'nagan Termez sayyidlaridan bo'lみish Xudovandzoda Sayyid Shamsuddin va Alovuddin noiblar qaytib keldilar va Hind viloyatlaridan ba'zisini xrkimi bo'lgan Bahodir Nahor qullik chizig'iga bosh qo'yib, juma kuni palos o'pish sharafiga musharraf bo'lajagini arz qildilar"³.

Ayni vaqtida Amir Temur davlatlararo g'oyat nozik va qaltis vazifalarni ado yetishda Yuborilgan elchiliklar boshlikligiga o'z farzandlari yoki nabiralaridan birini tayinlagan hollarga ham duch kelamiz. Masalan, Sohibqiron Movarounnahr taxtiga chiqqach, Hirotdagi kurtlar sulolasini namoyandalari bilan muzo-karalar olib borish uchun Yuborilgan elchilikni boshqarishni o'z to'ng'ich farzandi - valiahdi Jahongir Mirzoga topshirgan. Bu haqsa yana bir voqeani keltirish mumkin. Manbalardan ma'lumki, Sohibqironning suyukli nabirasi - Muhammad Tarag'ay Ulug'bek juda yoshligidanoq o'z akl-zakovati va o'tkir zehni bilan atrofdagilarning taxsiniga sazovor bo'lgan. Amir Temur Sulton Boyazidga Yuborgan elchiliklarining biriga endi 8-9 yoshlarga kirgan ana shu nabirasini boshliq qilib Yuboradi. Bu haqda ma'lumot keltirilgan manbada uning topshirilgan vazifani bajarishda va o'zaro savol-javoblarda elchi sifatida naqadar katta akl va topqirlik ko'rsatganligi haqida hikoya qilinadi⁴.

Shu bilan birga, Amir Temur Ovrupo mamlakatlari bilan olib borgan diplomatik aloqalarida nasroniy rohiblar xizmatidan ham keng foydalangan. Sohibqiron bilan Vizantiya o'rtasida, Fransiya hamda Angliya bilan bo'lgan uning muloqotlarida katta xizmat ko'rsatgan monahlar Fransisko va Fransisko Sadru hamda Sultonianing arxiepiskopi Jailar Amir Temurga katta xizmat ko'rsatgan diplomatlardan edi. Bu boradagi yozishmalarda ta'kidlanganidek, Sohibqiron o'z xizmatida bo'lgan xristian e'tiqodidagi ana shu kishilarga to'la ishongan va ularning faoliyati haqida hech qachon shubxa bildirmagan. O'z navbatida, ular ham Amir Temurga sidqidildan xizmat qilganlar.

Amir Temurning mamlakatlararo munosabatlarga katta e'tibor bergenligiga yana bir dalil shuki, u hukmronlik qilgan davlat sarhadlarida xorijiy vakillar, ayniqsa, elchilarga bedaxil kishilar sifatida qaralar, Sohibqironning buyrug'iga binoan joylardagi barcha katta-kichik amaldorlar ularga har tomonlama qulay sharoit hozirlashlari shart qilib qo'yilgandi. Bu xakda ayniqsa 1403-1406 yillarda Amir Temur imperiyasida safarda bo'lgan Kastiliya (Ispaniya) elchisi Rui Gonsales de Klavixoning esdaliklarida ajoyib ma'lumotlarga duch kelamiz. Uning hikoya qilishicha, ispan elchilari Amir Temur suvoriylari tuyoklari yetgan sarhadlarga qadam qo'yishlari bilanoq o'zlariga nisbatan butunlay boshqacha munosabatga duch keladilar. Ular yo'l-yo'lakay qayerda to'xtamasinlar, hamma joyda katta hurmat bilan e'zozlanadilar, mutlaqo pulsiz yetarlicha oziq-ovqat, ot-ulov hatto kiyim-kechak bilan ham ta'minlanib boradilar. 1404 yil 3 mayda elchilarni bir qishloksa qanday kutib olganliklarini Klavixo shunday ta'riflaydi: "U yerda elchilarni yaxshi kutib olishdi, odamlarga ovqat va mingani ot, hatto Yuklarni tashish uchun ulov ham berishdi. YOtish uchun boshqa qishloqqa kelishdi. Bu yerda ham ularni mehmon qilishdi, ot va boshqa kerakli narsalarni berishdi. Bu joydagi odat shunday ekan: qaerga elchilar kelishmasin, u yerda qolishadimiyo'qmi, har bir xonadondan palos olib chiqishib joy hozirlashadi, oldilariga charmdan tikilgan doira shaklidagi supra yoyishib, uning ustiga non, so'ngra ko'plab go'sht, qatiq, tuxum va asal kabi eguliklarni to'kib solishadi"⁵. Ispan elchilari Eronning Xoy shaxriga kelganlarida Misrdagi mamluk sultoni Nosiriddin Farajning Samarqandga yo'llangan elchilarini uchratadilar. Klavixoning ta'kidlashicha, "Vavilon sultonining elchisi bilan birga yigirmatacha suvoriy,

²SHomiy. Zafarnoma. 209-bet.

³O'sha asar, 254-bet.

⁴"Og'ozi dostoni elchigariyi Mirzo Ulugbek ", Fors tipida bitilgan bu qo'lyozma Toshkent milliy universiteti kutubxonasida saqlanadi. Qarang: A. Nasirov. Ukazatel literaturm o jizni i deyatelnosti Ulugbek. V kn.: Iz istorii epoxi Ulugbeka. Nauka, T., 1965. s. 377.

⁵Rui Gonsales de Klovixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ki dvoru Timura (1403-1406): Perevod. predislovie i kommentarii I.S. Mirokovoy. M., Nauka, 1990. s. 74.

Temurbekka sulton Yuborayotgan sovg'a-salomlar ortilgan o'n beshga yaqin tevani kuzatib borardi. Undan tashqari, elchi oltita straus va jiraf deb ataluvchi bir jonivorlarni ham o'zi bilan birga olib kyetayotgan edi". Shubha yo'qli, bu elchilarga ham hamma joyda xuddi Yuqriddagidek xizmat ko'rsatilgan. Chunki bu hol Amir Temur davlatida o'rnatilgan qat'iy qoidalardan biri bo'lgan. Uni buzganlar jazoga mustahiq qilinganlar.

Amir Temur davlatida elchilarни qabul qilish, tantanali yiginlarda ularning mamlakatlarini mavqeiga qarab joylashtirish masalalari o'rnatilgan qat'iy tartib-qoida asosida amalga oshirilgan. Buhaqaaham Klavixo kitobida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Har bir davlat elchisiga bo'lgai munosabat nafaqat u vakil bo'lgan davlatning katta-kichikligi va qudrati bilan, balki Temur imperiyasining u bilan o'rnatgan alokolari mezoni bilan ham belgilangan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur dastlabki yillarda Xitoy imperatoriga xdr yili ma'lum mikdorda o'lpon to'lab kelgan. Shuni ham aytish kerakki, xitoy hukmdorlari ko'pchilik hollarda o'zaro munosabatlarda qo'ni-qo'shnilaridan Yuborilgan sovg'a-salomlarni ham o'lpon sifatida gushungailar. Klavixo bergen ma'lumotlarga ko'ra, Temur 1404 yilda Samarqandga qaytib kelganda, Xitoy imperatoridan Yuborilgan elchi unga yetga yildan buyon hukmdoriga o'lpon to'lanmayotganligini eslatadi. Shunda Soqibqiron unga: "bu gapning to'g'riligini ta'kidlab, o'lponni to'lash niyati borligini, ammo uni elchi orqali Yubormoqchi emasligini, yo'lda o'lponni o'zlashtirib qo'ymasliklari uchun o'zi olib borib topshirish niyatida lkanligini aytdi. Buni u hazil tariqasida aytgandi, chunki uning hech qanaqa o'lpon to'lash niyati yo'q edi".¹

Ma'lumki, bu vaqida Amir Temur Xitoy tomonga harbiy Yurish uyushtirishgatayyorgarlik ishlarini tugallagan edi. Shuninguchun ham elchilar qabuli marosimida u Xitoy elchisining Kastiliya elchilaridan Yuqorida o'tirganini ko'rib, ularning joylarini almashtirishni va bundan keyin faqat shunday tartibda ularni o'tqazish kerakligini qat'iy tayinlaydi. "Shundan keyin, - deb yozadi Klavixo, - elchilarni, senor Amir Temur uyushtirgan barcha bayram va ziyofatlarda ana shu tartibda joylashtiradigan bo'ldilar".

Umuman, nafaqat M²ovarounnahr, balki butun imperiya sarhadlarida o'rnatilgan qatiy tartib-qoida va karvomlar qatnovi uchun tug'dirilgan kulay shart-sharoit tufayli, turli nohinlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda xorijiy ellar bilan bo'lgan savdo-sotiq ham o'sib borgai. Amir Temur o'zining yozishmalarida, joylarda olimlar bilan uyuhshtirgam suhbatlarda bu masalaga alohida urg'u bergen, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqdlarning rivojlanishi muhim omillardan biri ekanligini, uning izmidagi Yurtlarda bu masalaga alohida e'tibor berib kelayotganligini har vakt qayd yetib o'tgan. Bu narsaning haqiqatga mos ekanligini isbotlovchi dalillar ko'p. Manbalarda yozilishicha, imperiya sarhadlarida musulmon savdogarlari bilan bir qatorda nasroniy, hind, xitoy savdo ahyai ham bemaol faoliyat ko'rsatgan, karvonsaroylar, bozorlar va boshqa qulayliklardan to'la foydalanish xuquqiga ega bo'lganlar. Ayni vaktda, Amir Temur boshqa hukmdorlarga yozgan maktublarida ularga ham savdo-sotiq uchun ana shunday shart-sharoitlar yaratilishini tavsiya yetgan. Bu hol uning Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Henrix IV, Kastiliya qiroli Henrix III ga yo'llagan maktublarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, 1402 yilda Fransiya va Angliyaga Yuborgan o'z elchisi Sultoniya arxiepiskopi Janga qirollar uchun topshirilgan maxsus maktublardan tashkdri Sohibqiron quyidagi ikki narsaga goyat qatqiq e'tibor berishni uqtirgan: 1. Har ikkala davlatda istiqrmat qiladigan musulmon va xristianlar o'rtasida erkin iqtisodiy munosabatlarni barpo yetish, savdo-sotiqni har taraflama rivojlantirish. 2. Agar qirol janobi oliylari va hurmatli gersoglar bunga ra'y birdirsalar va rozilik bersalar, unda ushbu masala Yuzasidan bir shartnoma tuzib, bu xolni rasmiy mustahkamlash. Shuningdek, Amir Temur Xitoydagagi Min imperiya-si bilan ham to 1404 yilgacha yaqin diplomatik va iqtisodiy aloqalarning joriy yetilishiga alohsda e'tibor berib keldi. Xitoy imperatori Tayszu (1368-1398) Amir Temurga bir necha bor elchilar Yuboradi va Sohibqiron ham 1387, 1392 va 1395 yillarda bu mamlakatga o'z elchilarini yo'llagan. Elchilarga topshirilgan maktublardan birida Amir Temurning Min imperiyasi bilan do'stona alokdlarni qo'llab-quvvatlash istagi, shuningdek, savdo-sotiq sohasidagi ayriboshlashning qaror topishidan, Xitoy bozorlarining ochilishidan mammuniyat tuyg'ulari ifodalangan.

¹O'sha erda, 140-bet.

²O'sha erda, 110-bet.

Tashqi savdo-iktisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida Temur imperiyasining barcha qismlarida bozorlar gavjum bo'lgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, mamlakat poytaxti Samarqand shu yerda ishlab chiqqa-rilgan va jahonning turli qismlaridan keltirilgan tovarlar bilan to'lib-toshib kyetgan edi. U yozadi: "Rossiya va Tatariyadan bo'z, surp va otlar, Xitoydan ipak gazlamalar keltirilgan. Bundan tashqari, Xitoydan boshqa joyda bo'Imaydigan mushk, yoqut va marvarid, brilliantlar va ko'plab anvoyi ziravorlar keltiriladi"³.

Amir Temurning Samarqanddagi saroyida, u harbiy Yurish-larda bo'lgan vaqtlarida imperianing turli joylarida uyushtirilgan barcha tantanalarga atrof mamlakatlar elchilari taklif yetilgan va ularga ehtirom ko'rsatilgan. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur yetti yillik (1399-1404) harbiy Yurishdan qaytgach, o'z poytaxti Samarqand yaqinidagi Konigilda uyushtirilgan to'y sayllarida ko'plab chyet ellik mehmonlar, jumladan, qator xorijiy davlatlarning elchilari ham hozir bo'lganlar. "Ushbu ulug'vor sayllarga, - deb yozadi uni o'z ko'zi bilan ko'rgan Ibn Arabshoh, - dunyoning turli mamlakatlaridan armug'on va sovg'alar keltirdilarki, shular jumlasidan jiraflar, tuyaqushlar bor edi; Xitoy, Hind, Iroq, Dasht, Sind, Farang elchilari va ulardan boshqalar, yaqin va uzoqdagi barcha qismlardan kelgan vakillar, har bir muxolifi muvofiq, do'stu dushman vakillari yig'ilgan edilar"¹.

Amir Temur asos soltan buyuk imgteriyaning xorijiy va diplo-matik munosabatlariga doir Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Sohibqironning buyuk davlat arbobi va zukko diplomat bo'lganligini, u tuzgan davlatning jahon miqyosida dovruq taratgan-ligi va keng miqyosda faoliyat ko'rsatganligi, o'z davridagi barcha nufuzli mamlakatlar bilan yaqin aloqlar o'rnatganligini isbotlab turibdi.

2. Temuriylar diplomatiysi

Amir Temur olib borgan serqirra diplomatik faoliyat uning vafotidan keyin ham avlodlari tomonidan davom yettirildi. Bu haqda bir tomonidan ko'pgina tarixiy asarlarda uchraydigan ma'lumotlar guvoxlik bersa, ikkinchi tomonidan temuriy shahzodalarining zamondosh hukmdorlar bilan olib borgan yozishmalari, aniqrog'i, mazkur maktublarning turli xatlar majmualarida saklanib qolgan nusxalari dalolatberadi.

Amir Temur tarixiga oid asarlarda bo'lganidek, ko'pgina temuriylar davri tarixiga doir solnomalarda temuriy hukmdorlar saroylaridan xorij hukmdorlar dargohlariga diplomatik tashrifotlar, elchilik missiyalarini ado yetgan o'z davrining yetuk diplomatlari haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Temuriylar davlatining xorijiy aloqlari shu qadar katta geografik kengliklarni kdmrab oladiki, Sharqda Xitoydan tortib, G'arbda Ovrupo davlatlari bunga dohil bo'lib qoladi.

Alohida ta'kidlash joizki, Sohibqiron hali hayotlik davridayoq shahzoda Mironshoh g'arbiy Ovrupo davlatlari bilan muloqotga kira boshlagan edi. Bizgacha Angliya qiroli Henrix XV ning Mironshoh Mirzoga yo'llagan javob xati lotincha tarji-mada saklanib qolgan. Maktubda qirol Mironshohning katolik mazhabiga homiylik qilayotgani, xristian savdogarlarining xavfsizligini ta'minlagani uchun o'z mamnuniyatini izhor qiladi.

Bu maktubdan tashqari, Mironshohning xristian hukmdorlariga yo'llagan bir maktubi bizgacha yetib kelgan. Faqat lotin tilidagi tarjimasi saqyaangan bu maktubda Mironshoh Ovrupo hukmdorlariga "Siz bilan bizning dushmanimizni batamom mag'lub yetdik" deya, Anqara jangida Boyazid Yildirim ustidan qozonilgan g'alabaga ishora qiladi.² Maktubda aniq qirolning nomi ko'rsatilmaganidan va asosan g'alaba haqida xabar berilishidan, bu Anqara jangidan so'ng bitilgan fathnoma bo'lsa kerak. Mironshohning Ovrupo bilan munosabatlarida ham Amir Temur nomidan Ovrupoga elchi bo'lib borgan Sultoniyadagi katolik cherkovining vakili Ioann elchi vazifasini bajargan.

Amir Temur davrida xalqaro maydonda katta nufuzga ega bo'lgan davlatlarning ko'pchiligi,

³O'sha erda, 139-bet.

¹Ibn Arabshoh. Amir Temur glarixi ("Ajoib al-maqdur fi sharixi Giimur"- "Temur tarixida taqdir ajoibotlari"). 1-kitob. So'zboshi va tarjima U. Uvatovniki. Tosh., Mehnat, 1992. 311-312-betlar.

²Istoriya Samarkanda. T. I, T., 1969. s. 185.

siyosiy sahnada ko'pgina o'zgarishlar ro'y beraganligiga qaramay, xdli o'z mavqelarini yo'qotmagan va ba'zilari Amir Temurdek sarkardaning vafotidan so'ng ancha faollashib qolgan edilar.

Xorijiy munosabatlarda, albatta, katta vazifa elchilar zimmasida turar edi. O'sha zamonda sodir yetayotgan siyosiy voqealarning Chalkashligi elchidan katta mahoratni talab yetardi. Elchilar odatda zimmasiga Yuklangan missiyani bajarish bilan birga ajnabiy mamlakat haqidagi turli zarur ma'lumotlarni to'plab borishi zarur bo'lgan. Shu bois elchilar safarning ibtidosidan intihosiga qadar marshrut, yo'lida sodir bo'lgan voqealarning manzilning jug'rofiy o'mni, tabiatini, xo'jaligi, ichki siyosiy ahvoli, mamlakat hududida joriy yetilgan tartib-qoidalar, hukmdor saroyidagi qabul marosimlari, diplomatik ceremonial va hokazolar borasidagi ma'lumotlarni mufassal bayon yetganlar. Bunday kundaliklar safar poyoniga borib kattagina safarnoma asar holiga ham kelishi mumkin edi. Bu kabi asarlar sirasiga Boysunqur Mirzo tomonidan 1419 yilda Xitoy hukmdori saroyiga elchi yetib yo'llangan G'iyosiddin Naqqoshning safarnomasini kiritish mumkin. Asarga murojaat yetishdan avval temuriylarning Xitoy bilan aloqalari masalasiga to'xtalmoq lozim, zero Amir Temurning vafotidan so'ng to 1419 yilgi G'iyosiddin Naqqosh elchiligiga qadar ikki davlat orasidagi munosabatlarning o'z tarixi mavjud. Shu kungacha bizga ma'lum bo'lib turgan tarixiy asarlardagi ma'lumotlarga qaraganda, temuriylar saroyiga Xitoy hukmdorlaridan elchilar 1409 yilda Shohrux Mirzo huzuriga kelganlar. Elchilik zimmasida turgan ent asosiy vazifa Xitoy hukmdorining Amir Temur vafoti munosabati bilan ta'ziyanomasini yyetkazish edi.³ Bu elchilik haqida Xitoy solnomalaridan tashqari tafsilotli ma'lumot saqlanmagan.

1412 yilda Shohrux saroyiga Xitoy imperatori Doy-Ming tomonidan yana bir elchilik hay'ati kelib imperatorning maktubini topshirgan. Imperagor o'z maktubini Shohrux nomiga sermaqtov jumlalar, nazokatomuz iboralar bilan boshlab, avvalgi gal Yuborgan elchiliklari saroyda yaxshi kutibolingani va javoban Xitoya elchilik hay'atini yo'llaganidan o'zinish chuqur mamnuniyatini izxrr qiladi. Maktubda Amir Temur haqida ham so'z boradi. Uning Xitoy imperatori Tayszu⁴ bilan yaxshi munosabatda bo'lgani, oradagi elchilik tashrifotlariga xayriyohlik qilgani va hokazolar haqida yozadi. Imperatorning nomasida ikki mamlakat orasidagi savdogarlar qatnovini jonlantirish masalasiga alohida o'rinn berilgan¹.

Hirot saroyida elchilikning kelishiga anchagini tayyorgarlik ko'rilgan ko'rindi. Bu xakda Abdurazzoq Samarcandiy o'zining "Matlai sa'dayn" asarida shunday yozgan:

"Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatlarning CHinu Mochin va boshqa yerlari podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi. (Xoqoni Sa'id tomonidan ya'ni Shoxrux): "Shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san'at egasi o'z hunarini to'la zohir qilib do'konini bezatsin" - degan humoyun farmon sodir bo'ldi.

Amirlar istiqbol rasmi bo'yicha (shahardan) tashqari chiqib, elchilarining hammasini izzat-hurmat bilan shaharga olib kirdilar. (Bu) xuddi yoshlik chog'idek shodlikni orttiruvchi bir zamon va visol kechasidek g'amni tarqatuvchi bir oi edi. Hazrat Xoqoni Sa'idning farmoni bo'yicha Bog'i Zag'onga xuddi jannat bog'idek oro berib, Bahrom savlat, sher haybat yasovullar har kim uchun (o'ziga xos) joy va makonini tayin qildilar. Hazrat Xoqrni Sa'id xuddi balandlik avjidagi oftob singari xurshid chehra bilan saltanat taxtiga ko'tarildi. Ulug' amirlar elchilarni qo'l o'lish sharafiga yyetkazib, tortiklarni qo'ydilar va ularning so'zlarini arz qildilar"².

Xitoy elchilari qaytayotganlarida ular bilan birga Shayx Muhammad Baxshiy nomli shaxs Xitoya Shohrux nomidan elchi bo'lib borgan va o'zi bilan uning imperator nomiga yozgan maktubini yyetkazgan. Maktubning o'ziga xos tomoni, unda Shohrux Xitoy imperatoridan islom dini va shariati qoidalari asosida savdogarlar muhofazasini ta'minlashni iltimos qiladi. Shoxrux

³Abdurazzoq Samarcandiy. Matlai sadayn va majmai bahrays. (Fors tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar A. O'rinoevniki) Tosh. 1969. 124-bet.

⁴Taytszu - 1368-1398 yillarda Xitoya hukmronlik qilgan imperatorning taxtga chiqqandan keyingi nomi. Xitoy manbalarida Xun-u nomi bilan ham keladi. Buning sababi shundaki, Xitoy davlatchilik odatlariga ko'ra taxtga o'tirgan hukmdorga yangi ism berilgan. Bundan tashqari, bu yangi hukmdor o'zi uchun hukmronlik shiorini tanlashi lozim bo'lgan va ba'zan ularga shu shior nomi bilan ham murojaat etilgan. Xun-u aynan Taytszuning hukmronlik shioridir (Qarang: Karimova N. Temuriylar bilan Xishoy apoqalari. «SHarqshunoslik», № 7, Tosh., 1996. 50-bet).

¹Matlai sa'dayn. 174-175-betlar.

²Mazkur asar, 174-6.

Mirzo Xitoy imperatori nomidan kelgan elchilik haqida ham to'xtalib o'tadi va bu elchilikka javoban mazkur Muhammad Baxshiy ismli elchini yo'llayotgani haqida yozadi.³

DoyMing bilan Shohrux oralarida navbatdagi elchilik mubodalasi 1417 yilgato'g'ri keladi. Ushbu elchilik hay'ati Xitoy imperatorining maktubini takdim yetadi. Abdurazzoq Samarqandiy ushbu maktub mazmunini qisqacha shunday ta'riflaydi:

"Shuningdek, o'tmishdagi aloqalarni (yakunlovchi) bezak bo'ladijan va kelajakdag'i o'zaro xayrixohlik uchun asos bo'ladijan so'zlarni o'z ichiga olgan bir maktubni ham keltirdilar. Mazmuni shunday: "Har ikki tomonidan ham g'ayrilik va begonalik pardasi daf qilinmog'i, muvofiqatchilik, birdamlik eshigi ochilmog'i lozimdir, toki ra'viyatlar va savdogarlar o'z istak-ixtiyorlari bilan borib kelsinlar, yo'llar bexaYutar bo'lsin"⁴.

Saroyda elchilarga ko'p navozish va iltifotlar ko'rsatiladi va ularni kuzatish chog'ida Shohrux Ardasher Tavochi ismli elchini hamroh qilib Xitoya yo'llaydi.⁵

Ardasher Tavochi 1419 yilda Xitoydan katta elchilik bilan birga Hirota qaytadi va Xitoy elchilarini Shohruxga tanishtiradi. Elchilar bu safar ham hadyalar va imperatorning maktubini topshiradilar. Bu maktubda ham Xitoy imperatori uning elchilariga ko'rsatilgan iltifotlardan nihoyatda mamnun ekanini, kelgusida aloqalarni yanada mustaqkamlash haqidagi fikrlarini bayon yetadi.⁶

Shu yilning o'zida Xitoy imperatori saroyiga navbatdagi elchilik hay'ati yo'lga chiqqan. Tarkibiga G'iyosiddin Naqqosh kirgan bu elchilik deyarli ko'pchilikni tashkil yetgan, chunki unga faqatgina bir hukmdorning emas, balki bir necha temuriy shahzodalarning elchilarini safarbar yetilgan edi. Safarnoma muallifi G'iyosiddin Naqqosh bu elchilarni nomma-nom sanab, qaysi hukmdorning vakolati bilan borayotganligini qayd yetadi. Asarga yo'l marshruti, to'xtalgan manzillardagi elchilarga ko'rsatilgan iltifotlar atroficha tasvirlangan. Xonbaliq (Pekin) shahridagi imperator tomonidan elchilarining qabul marosimi, butun diplomatik seremonial juz'iy xususlargacha batafsil bayon yetilgan. Shuning bilan birga asarda siyosiy tarix, yetnografiya, geografiya, xuquqshunoslik sohalariga doir ko'plab muhim va o'z navbatida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Asarga alohida ahamiyat baxsh yetuvchi yana bir masala, savdogarlar va savdo-iqtisodiy munosabatlarning aks yetishidir.

Xitoy bilan g'arbiy mamlakatlar (Xitoya nisbatan) oralaridagi o'zaro munosabatlarda elchilar bilan birgalikda katta savdogarlar guruhining hamishtirot yetishlari mazkur ikki mamlakat aloqalariga xos bo'lган bir qirradir. Gap shundaki, Turkiston sarhadlariga yo'l olgan Xitoy elchilarini imperator maktubidan tashqari turli-tuman xadyalar bilan kelar edilar. Bunga javoban Movarounnaxr va Xuroson elchilarini o'z mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan Xitoya olib borib xadya sifatida tortiq qilganlar. Bunday hadya ulashish an'anasi bora-bora ham shaklan, ham mazmunan o'zgarib, elchilar bilan birgalikda endi katta-katta savdogarlar guruhi hamroxlik qila boshlagan. Ular imperatorga atalgan hadyalardan tashqari Xitoy ichkarisidagi aholi bilan katta hajmda mol ayirboshlaydilar.

Xitoyda Min sulolasiga hukmronligi davrida Turkiston hukmdorlari elchilariga aholi bilan soliqdan ozod holda savdo qilishga ruxsat berilgan edi.¹

Elchilik tarkibidagi savdogarlarning o'rni haqida G'iyosiddin Nakkrshning quyidagi ma'lumotlaridan tasavvur hosil kdgtish mumkin:

"So'ngra elchilardan har biri nechadan navkarga ega ekanligi haqida ro'yxat tuzdilar, ko'p savdogarlar elchilar qoshida navkar bo'lib xizmat qiladilar. Ruyxat quyidagi tartibda tuzildi: Mirzo

³Mazkur asar, 176-178-betlar.

⁴Mazkur asar, 242-6.

⁵Xitoy manbalarida 1418 yilda Ulug'bek Mirzo tomonidan elchilik kelgani va unga Ardasher ismipi elchi boshchilik qilgashshgi haqida yozilgan. (Qarang: Karimova N. Tvmuriylar, 51-bet). "Matlai sa'dayn" ham 1417 yilda Ardasher Tavochi ismli elchingning Xitoya SHohruh tomonidan jo'natilganligi va 1419 yilda Ardasherning xitoylik elchilar bilan qaytganligi haqida bayon qilingan (242, 257 betlar). Bundan ma'lum bo'ladiki, agar ikki Ardasher ismili elchingning otdosh shaxslar ekanligini inkor qilsak, bu elchi bir vaqtning o'zida ham SHohruh, ham Ulugbek Mirzolar nomidan mchilikni boshqargan.

⁶Matlai sa'dayn. 257-258-betlar.

¹Karimova N. Temuriylar, 47-bet.

Shohruxning elchilari, Shodiyxo'ja va Ko'kcha boshchiligidagi ikki Yuz nafar; Mirzo Boysunqurning elchilari, Sulton Ahmad va Xoja G'iyosiddin boshchiligidagi, bir Yuz ellik nafar; Mirzo Suyurg'at mishning elchisi, Urug'doq boshchiligidagi, yetmish nafar; amir Shohmalikning elchisi O'rduvon — ellik nafar.

Ibrohim Sulton Bahodirning (Alloh uning podsholigini abadiy yetsin) elchilari esa hali yetab kelmagan edilar"².

Xitoy solnomalarida Movarounnahr va Xurosandan tashrif buyurgan elchilar haqida talaygina ma'lumotlar saqlangan.

Unga ko'ra Amir Temur davridan to 1500 yillargacha Samarqand, Xuroson, SHeroz, Hirot, Isfahon, Toshkentdan Xitoya qariyb 100 marotaba elchilik tashrifotlari amalga oshirilganligi qayd yetilgan³

1442 yil Shohrux saroyidan Hindistonga Yuboriltan elchilikni boshqargan Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Dostoni safari Hindiston va sharhi g'aroyib va bayoni ajoyibion" asarida safardan qaytish chog'ida Kermonga kelgani va mazkur shax.ar hokimi bilan quyidagi suhbatini bayon yetganki, nazarimizda, bizning mavzuimiz bilan bog'liq qiziq bir ma'lumotdir:

"Mavlono, elchilar va sizning (Hindistonga) borib keli-shingaz uchun qancha mablag' sarf bo'ddi?", deb hokim savol qildi. Men: "Kdriyb ellik ming dinor deb javob berdim, U yana: "U yerdan olib kelayotgan buyumlar qancha mablag' turadi?" - deb so'radi. Men "o'n ming dinor" dedim. U (kinoya bilan): "YAxshi savdo ekan — ellik ming dinor berish-u, o'n ming dinor qo'lga kiritish" — dedi. Men unga javoban "Xoqon-i Sa'id hazratlari (Shohrux) bunday hisoblarga borib o'tiradigan savdogar emaslar; goxo u kishiga bitta shunqorni keltirib qolsalar, uning evaziga ellik ming dinordan ham ortiq (mablag') beradilar.

Men Sarandib taraflaridan sekka, xutba, tuhfa va elchilar olib kelayapman; bu hol u kishining nazarida xazinada ellik ming dinor bo'lishidan ko'ra yoqimlirokdir" - dedim".⁴

Abdurazzoq Samarqandiying ohirgi jumlasidan ma'lum bo'ladiki, elchilikning asl maqsadi Hindistonning Kolikut shaxri hukmdoriga Shoxrux nomi bilan o'qiladigan xutbani yyetkazish edi. Qo'tlni viloyatlar oralaridagi kelishmovchiliklarni ko'rgan Kolikut voliysining o'zi bunday tashabbus bilan Shohruxga murojaat qilgan edi. Bular haqida safarnomada muallifning o'zi bunday yozadi:

"Bu xabarni eshitgan Kolikut voliysi xar xil tuhfa va sovg'alar tuzdirdi hamda bir xabarchini Shohruxga Yubordi va "bu bandarda juma va iyd (namoz)larida islom xutbasini o'qiydilar, agar onhazrat ruxsat bersalar, (xutbani u kishining) muborak nomlari laqablari bilan aziz va sharaifi qilsalar" deb, arzga

yyetkazdi"

Abdurazzoq bu xabar bilan Kolikut elchilarining Shoxrux huzuriga yetib kelganliklari, shundan so'ng Hindistonga elchilik tashrifoti mo'ljallangani va bu elchilikka uning (Abduraz-zoqning) o'zi bosh yetib tayinlanganligi haqida ma'lumot beradi.

Abdurazzoq Samarqandiying safarnomasi ham G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi singari ko'plab tarixiy, geografik, yetnofafik ma'lumotlarni o'zida aks yetgiradi.

Xususan, diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalarga doir ma'lumotlar asarning aksariyat qismini tashkil yetadi.

Elchi Abdurazzoq Eronning janubi-sharqidagi Ho'rmuz viloyati, Ummon yarim orolidagi Qurayyot va Kdlxot shaharlardan o'tib, suv yo'li bmlan 1442 yilda Hindistonning Kolikut shahriga yetib borgan. U yerdan Vijayanagar shahriga taklif yetilgan.

Vijayanagara borishiga sabab shuki, Abdurazzoq hali Kolikutda ekanligida Vijayanagar hukmdori Deva Raya II (1422-1446) elchi Yuborib, Shohruxning elchisini (ya'ni Abdurazzoqni) uning huzuriga Yuborishlarini talab qilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy Vijayanagarda hukmdor tomonidan ko'p marotaba saroyga taklif qilingan. U yerda bo'lib o'tgan suhbatlar, unga ko'rsatilgan iltifotlarni .muallif o'z kundaliklarida

²G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. 13-14-betlar.

³Karimova N. Gemuriylar. 50-59-betlar.

⁴O'rınboev A. Abdurazzoq Samarqandiying Hindiston safarno-masi. 1960. 72-bet.

bat afsil bayon yetgan. Mazkur elchilikdan ilgari ham Temuriylar davlati va Hindiston orasida munosabatlar davom yetib kelayotgan edi. 1411, 1416, 1421 yillarda Shimoliy Hindistondan elchilar kelganligi ma'lum¹.

Shohruxonning Dehliga hukmronlik qilgan Said Xizrxon (1414-1421) nomiga yo'llagan maktubining nusxasi Haydar Ivog'li tomonidan tuzilgan maktublar majmuasidan o'r'in olgan².

1414 yilda taxtga o'tirgan Hizrxon Hirotg'a o'z elchilarini yo'llab, Shohruxdan uning nomi bilan juma va ramazon iydi namozlarida o'qiladigan xutbaning suratini so'ragan.³ Shohrux o'z nomasida Hizrxonni barcha zafarlari bilan muborakbod yetadi va maktub ohiriga xutbaning matnini ilova qiladi.⁴

Temuriy shahzodalar olib borgan diplomatik aloqalar ko'lamining qanChalar keng ekanligi ularning xorijiy hukmdorlar va zamonaning yetuk shaxslari bilan Yuritgan yozishmalarining hozirgacha saklanib qolgan nusxalaridan ham ko'rini turadi. Bu yozishmalar asosan dunyoning turli qo'lyozma zaxiralarida saklanayotgan munshaot - xatlar majmualaridan o'r'in olgan. Lekin alohida ta'kidlash joizki, tarixiy asarlarda ham ba'zan muallif xatlarning matnini to'liq keltirgan hollarni ham uchratish mumkin. Biz Yuqorida nomini keltirgan Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn" asari ham bundan mustasno emas.

Ushbu yozishmalardan kelib chiqqan holda o'sha paytdagi temuriylar davri tarixiy-siyosiy va iqtisodiy manzarasini ham tasavvur yetish mumkin. Shohrux xukmronligi davrida olib borilgan diplomatik yozishmalarining ko'pligi, ularni geografik nuqtai nazardan bo'lib o'rganishni talab yetadi. Jumladan, Xitoy imperatori Doy Ming va Shohrux oralaridagi diplomatik aloqalar, xususan, yozishmalar juda faol Yuritilgan. Ular haqida biz Yuqorida, G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi haqida yozganimizda qayd yetib, "Matlai Sa'dayn"da keltirilgan maktublar mazmunini ham havola yetdan.

Amir Temur diplomatiyasi bo'limida XIV asrning ohirgi choragada xalqaro siyosiy vaziyat, sodir bo'lgan siyosiy voqealar, paydo bo'lgan siyosiy muvozanat haqida gapirib o'tdik. Amir Tsmur vafotidan keyin uning vorislari olib borgan munosabatlarda anchagina o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Lekin ta'kidlash lozimki, Amir Temurga zamondosh xorij hukmdorlarning ko'pchiligi temuriy shahzodalar davrida ham xali o'z siyosatlarini Yurigayottan edilar va bu hol temuriy hukmdorlardan o'ta sergaklik va nozik diplomatayani talab yetar edi.

Temuriylar tashqi munosabatlaridagi o'ziga xos bir bosqichni Usmoniyalar Davlati bilan bo'lgan aloqalar mav-zusi tashkil yetadi, Usmoniyalar Davlati, Anqara jangi (1402 y.)da mag'lubiyatga uchraganligiga qaramasdan, siyosiy maydonidagi o'z mavqeini tez orada mustahkamlab olgan edi. Temuriy hukmdorlar ular bilan muttasil aloqa bog'lab turganlar. Bu xakda har ikki tomon orasida Yuborilib turilgan maktublarning nusxalari dalolat beradi.

Ma'lumki, Amir Temur bilan usmoniyalar sultonı Boyazid Yildirim oralaridagi nizoning sabablaridan biri, Tabrizda hukmronlik qilgan qora quyunlilar hukmdori Qora Yusuf Turkman (1389-1420)ga usmoniyalar sultonining homiylik qilishi edi⁵. Qora Yusufga nisbatan Amir Temurdagi adovatning sababi shunda ediki, Sohibqiron Qora Yusufni savdo va haj karvonlarini g'orat qilishda ayblar edi. Buning ustiga, Qora Yusuf Amir Temur tomonidan Avnik qal'asiga hukmdor yetib tayinlangan Otlamish Qavchin ismli shaxsni asir olib, Qoqiraga - mamluklar saroyiga Yuborgan edi. Amir Temurdan keyin uning vorislari bilan ham mazkur Qora Yusuf oralaridagi munosabatlar muhiti o'zgarmay qoldi.

Temuriy shahzodalarning usmoniyalar, oq quyunlilar bilan yozishmalarining ko'pchiligidida Qora Yusufning nomi o'rtaga chiqaveradi. Shoxrux Mirzo Usmoniyalar sultonı Muhammad Chalabiy (1402-1421)ga noma yo'llagan. Bu nomada Shohrux, agar Qora Yusuf usmoniyalar mamlakatida

¹Amir Temur jahon tarixida. Parij. 1996. 106-bet.

²Abdulhusayn Navoiy. Asnod va makotibot-i tarixi-yi Eron. (Az Temur pgo shoh Ismoil). Tehron. 1963. 143-145-betlar.

³Hizrxon 1399 yili Amir Temur tomonidan Hindistonning Mo'lton, Lahor va Divalpur shaharlariga noib etib tayinlangan edi. Keyitalik 1414 yilda Dehlida hukmronlikni qo'lga kiritgandan keyin ham temuriylarning noibi sifatida hukmronlik qilgan. SHohruhning xutba matnini yo'llashining boisi ham shunda edi.

⁴Asnod va makotibot, 145-bet.

⁵G'ulomov S. Amir Temur va Boyazid Yildirim munosabatlari. «SHarqshunoslik», № 7. 1996.

ko'ringudek bo'lqa, uni temuriylar saroyiga jo'natib Yuborishlarini iltimos qiladi.⁶ Bu maktubga usmoniyalar sultoni mufassal bir javob qaytarar ekan, Qora Yusuf uchun usmoniyalar mamlakatiga boradigan yo'llarni berkitishi yoki uzrxohlik Yuzasidan uni (Qora Yusufni) temuriylar saroyiga Yuborishga harakat qilajagini ma'lum qiladi⁷.

Qora Yusufning o'zi bir necha bor Shohruxga maktub Yuborib unga tahsinlar o'qigan⁸. Shu yo'l bilan Ozarbayjon taxtini yana o'z tasarrufiga olishni ko'zlagan edi. Lekin Shohrux uning Amir Temur bilan munosabatlarini, o'z ittifoqsoshi Bag'dod xrkimi Ahmad Jaloyiriy (1382-1410)ga nisbatan qilgan xiyonatkorligini hali unutmaganligi uchun bu urinishlar benatija qoladi.

Amir Temur bilan ittifokdosh bo'lgan hukmdorlarning ko'pchiligi uning vafotidan keyin ham temuriylar bilan munosabatlarini davom yetgiradilar. Ma'lumki, Kichik Osiyo va unga chegaradosh hududlardagi bir qancha hukmdor doiralar Amir Temur tomonini yoqlagan edilar.¹ Shulardan biri Diyor-bakr hukmdorlari bilan munosabatlar Shoxrux hukmronligi davrida ham davom yetgan. Bu tabiiy hol, chunki oq quyunlilarning ashaddiy dushmani bo'lgan qora quyunlilar, Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'z ittifoqchilari bilan birlgilikda ham temuriylar, ham oq quyunlilarga qarshi faol harakatda edilar². Munshaot majmualarida oq quyunlilar hukmdori Qora Usmon (1378-1435)ning Shohruxga yo'llagan maktubining nusxasi saqlanib qolgan. Maktubda oq quyunli hukmdori Kichik Osiyo va Ozarbayjonda Yuzaga kelgan siyosiy ahvol, jumladan, Qora Yusufning Ozarbayjon taxi shganjida qilayottan harakatlari qaqida yozadi. Shu bilan birga, Shoxrux Mirzoga temuriy shahzodalar oralaridagi o'zaro kelishmovchiliklarga barham berishni nasihat kiladi. Ushbu maktub Shohruxga yetib bormagan, chunki u yo'lda Qora Yusufning ko'liga tushgan va usmoniyalar sultoniga jo'natib Yuborilgan. Bular haqida Qora Usmon va usmoniyalar sultoni Muhammad Chalabiy oralarida olib borilgan yozishmada ma'lumotlar bor³.

Shohruxning usmoniyalar sultoni bilan yozishmalaridan biri Qora Yusuf ustidan qozonilgan g'alaba bilan bog'liq. "Matlai Sa'dayn" muallifi o'z asarida Shohrux Mirzoning Iroq va Ozarbayjon mamlakatlari fath yetilishining sababi haqida shunday yozadi:

"On hazrat (Shohrux) Siddiq ismli bir navkarni Amir Qora Yusuf qoshiga Yubordi va: "Amir Yusuf muvofigatchilik yo'liga tushsin va fisqu fasod ko'chasidan ham to'trilik sodiqlik shevasiga burilsin", degan xabarni Yubordi. Siddiq elchilik mazmunini adoga yyetkazdi. Biroq amir Qora Yusuf isyon belgilarini zohir qildi. Siddiq qaytib keldi va nimaniki ko'rib bilgan bo'lqa, hakiqat-xulosasini arzga yyetkazib: "Amir Qora Yusufning xayolida saltanat darajalariga ko'tarilish savdosi Yu davlat pog'onalariga kjsalish orzusi bor va u mamlakatda o'zini mustaqil bir sulton deb hisoblaydi: Atro(1) amirlari uning amrlariga mutedirlar va u mamlakatda uning farmoni joriy. U mustahkam hisorlar qurdirib, kuchli qal'alar bino qilgan-u, ammo shar'iy qonun-qoidalar buzilgan, xayrli joylar beravnaq, qarovsiz qolib kyetgan. U kecha Yu kunduzni fisqu fujur bilan o'tkazmokda va mustaqillik xayoli dimog'ini aqldan ozdirmoqsa", deydi⁴.

Shohrux Mirzo Qora Yusuf huzuriga bir necha bor elchilar yo'llagan. Diplomatik tadbirlar natija bermagandan so'ng jang tadbiri ko'rila boshlagan. Shu kezlar Qora Yusuf kasalga Chalinib 1420 yilda vafot yetadi. Lashkari esa har tomonga tarqalib kyetadi. Shohrux ushbu yoqeadan so'ng turli mamlakatlarga, shu jumladan, usmoniyalar sultoniga ham fathnomalar yo'llagan.⁵

1421 yildan boshlab Usmoniyalar davlatini sulton Murod (1421-1444; 1446-1451) boshqardi. Temuriy hukmdorlar u bilan ham muttasil aloqa bog'lab turganlar. Ular nomidan o'zaro Yuborilgan maktublarning nusxalari insho majmualarida uchraydi. Shohrux va Murod nomlaridan yozilgan olti maktub nusxasi hozirgacha aniqlangan va ilmiy muomalaga kiritilgan.

⁶Ahmad Feriydunbek. Munshaot as-salotini. Istanbul, 1874. 150-151-betlar.

⁷Ayni majmua. 151-bet.

⁸Asnod va makotibot, 167-173-betlar.

¹Kichik Osiyoning Arzinjon shahrida hukmronlik qilgan amir Tahurtan, Koniya hokimi Alouddin Qaramanlu, Diyorbakrda hukmronlik qilgan oq quyunli hukmdori Qora Usmonpar Amir Temur tomonini yoqlagan edilar. Amir Temurning vafotidan keyin ham shu sulola boshliqlari temuriy hukmdorlar bilan yaxshi aloqada bo'lganlar.

²John E. Woods. The Agguyunlu Clan, Confederation Empire. Minneapolis and Chicago. 1976.

³Asnod va makotibot. 183-186-betlar.

⁴Matlai Sa'dayn, 267-bet.

⁵Asnod va makotibot. 202-205-betlar.

Sulton Muhammad Fotih (1444-1446)ning Shohrux Mirzo bilan makotibasining nusxasi ham saqlangan. Ushbu yozma muloqot tashabbusi Muhammad Fotih tomonidan ko'rsatilgan edi. Maktubda Fotih o'z otasi Sulton Murodning saltanat taxtini unga topshirgani va Ovrupo ittifoqchi kuchlari bilan bo'lgan muhorabalarda qozongan g'alabalari haqida yozgan. Shohrux ushbu nomaga javoban o'z maktubida, avvalo, Fotihni sultonlik taxtiga musharraf bo'lganligi bilan tabriklab, so'ng orada savdo, elchilik aloqalarini mustahkamlash istagini bildirgan.⁶

Shohruxdan keyingi vorislar, umuman, temuriy shahzodalarning usmoniy sultonlari bilan doimiy aloqada bo'lib kelganligi, saqlanib qolgan yozishmalar to'plamlaridan ham ko'rinish turadi.

Shohruxdan keyin temuriyzodalardan uning nabirasi sulton Alouddavla (1417-1460)ning usmoniy sultonlaridan sulton Muhammad va sulton Murodlar bilan yozishmalar, Mironshohning nabirasi Abu Said Mirzo (1451-1469)ning qora quyunlilar hukmdori Jahonshoh (1538-1467) bilan yozishmasi, sulton Husayn Boyqaro (1470-1506)ningusmoniy sultonlaridan sulton Muhammad (1444-1446; 1451-1481) va sulton Boyazid (1481-1512)lar, oq quyunli hukmdorlaridan Rustam shoh (1493-1497)lar bilan yozishmalar turli insho to'plamlari tarkibida sakdanib qolganki, ularning barchasi byzning mavzu bo'yicha juda qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Tarixiy asarlarda uchraydigan temuriy shahzodalar saroyidan xorijiy mamlakatlarga kyetgan elchilar, xorijiy elchilarni temuriylar saroyida qabul marosimlari, xorij hukmdorlari bilan yozishmalar, qisqasi, temuriylar xorijiy munosabatlariga doir ko'plab ma'lumotlar borki, ularni ko'zdan kechirar ekanmiz, temuriylar saroyida tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi butun bir tizim ishlab turganini ko'rish mumkin. Xorijiy davlatga boradigan elchilikni tashkil yetish, xorijdan keladigan elchilarni kutib olish, qabul marosimlarini tashkil yetish, elchilarga xizmat ko'rsatish kabi har bir masalaning o'z mutasaddisi temuriylar saroyida tayin qilingan. Saroya munshiy devoni faoliyat ko'rsatib turgan va temuriy hukmdor nomidan xorijiy shohu sultonlarga Yuboriladigan maktubning mukammal, nazokatomuz iboralar bilan bezatilgan bo'lishi va aksincha, xorij hukmdorlaridan keladigan maktublarni tarjima qilish, ularning nusxasini olish kabi masalalar mazkur devonning mas'uliyatiga kirgan.

Temuriylar tashqi munosabatlarida ko'zga tashlanadigan yana bir qirra shuki, ularning xorij hukmdorlari bilan yozishmala-rida yoki elchilarning hukmdorlar bilan muloqotlarida, albatga, savdo aloqalarini yo'lga ko'yish yoki mustahkamlash va savdogarlar xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar ko'tarilganligini ko'ramiz. Bu esa temuriy hukmdorlarning savdo-iktisodiy aloqalarga naqadar jiddiy e'tibor bergenligidan dalolat beradi.

Temuriy shahzodalarning xorij hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari keng jug'rofiy hududlarni va uzun davrlarni qamragani bois, ularni bu yerda batafsil yoritish imkonii yo'q, albatta. Yuqorida keltirilgan ayrim dalillarning o'ziyoq temuriylar diplomatiyasi Amir Temur asos solgan buyuk davlat an'analariga tayangan holda keng ko'lamma tashqi siyosat Yuritib kelganligini isbotlab turibdi.

BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTON VA TURKISTON ALOQALARI (XVI-XVII ASRLAR)

Hindiston yarim oroli eng qadim zamonlardan beri dunyo tizimining bo'linmas bir qismi bo'lib kelayotganligi hammaga yaxshi ma'lum. Ushbu mintaqqa asosan shimoli-g'arb tomonidan, ya'ni Hindiqush tog tizmalari osha Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston bilan bevosita aloqada bo'lib kelganligi ham hech kimga yangilik emas.

Biz mavzu qilib organ davr ham ana shu aloqalarning bir qismini tashkil yetadi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Hindiston va Turkistonning XVI-XVII asrlardagi tarixiga bag'ishlangan qo'lyozma manbalar va keyinchalik yozilgan bosma manbalar juda ko'p va xilma-xildir. Lekin, shunga qaramay, bu ikki mintaqada yashovchi xalqlar o'rtasidagi aloqalarga bag'ishlab yozilgan ilmiy tadqiqotlar kamchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, ushbu mavzuda o'zbek tilida hozirgi zamon

⁶Ayni majmua. 258-264-betlar.

talablariga javob bera oladigan, tarixni xolisona ifoda yetuvchi ilmiy ishlar deyarli yo'q desa ham bo'ladi.

Ana shu holatni nazarga olgan holda, biz XVI-XVII asrlarda, ya'ni Hindistonda boburiylar sulolasasi xukmronlik qilgan davrda, Turkiston bilan olib borilgan aloqalarni yoritishga xdrakat qildik.

Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o'rtasida qadimdan davom yetib kelayotgan aloqalar aynan Hindistonda temuriylar sulolasining davomchilari bo'lgan boburiylar xukmronlik qilgan davrda o'z cho'qqisiga yetdi deb ayta olamiz. Chunki xuddi shu davrga kelib ikki mintaqaga o'rtasidagi madaniy yaqinlashuv jarayoni tezlashdi va har jihatdan bu o'zaro qo'shiluv yangicha ijobjiy sintezni vujudga keltirdi. Boburiylar hukmronligiga qadar Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi madaniy aloqalar va o'zaro ta'sir qilish hech davrda shunChalik ko'zga tashlanarli darajaga yetmagan edi. Ushbu holatni amerikalik tarixchi olim Richard Fols shunday ifodalaydi: "O'sha davrda musulmon Osiyosi ko'p jihatdan bir dunyo edi"¹. Bu yerda u islom madaniyatining birlashtiruvchi kuch ekanligini ta'kidlaydi. Albatta, bu fikrni inkor yetmagan holda, Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlarining o'ziga xos madaniyati, milliy an'ana-lari, san'ati, adabiyoti ham ikki mintaqaga xalqlari aloqalari jarayonida bir-birlariga o'zaro ta'sir qilib, boyitganliklarini alohida qayd yetish lozim.

Lekin yana shuni hamta'kidlash kerakki, bu borada hali ko'p masalalar ilmiy jixatdan to'liq o'r ganilmagan. Masalan, Markaziy va Janubiy Osiyodagi mamlakatlarda musulmon jamiyatlari o'rtasidagi umumiylik qay darajada bo'lgan? Ular orasidagi o'zaro ta'sir qanChalik faol bo'lgan va ular o'zlar yashab turgan mamlakat chegaralarini jug'rofiy jihatdan hozir biz bilganChalik ko'ra olganlarmi? Ana shunga o'xshash ko'pgina savollar o'z tadqiqotchilarni kutmoqda.

Shularni hisobga olgan holda quyida Turkiston va Hindiston xalqlari o'rtasida XVI-XVII asrlarda olib borilgan aloqalar xususida so'z Yuritilar ekan, ular orasidagi umumiy tomonlari va farq qiladigan jihatlari hamda ikkala tomonni madaniy jihatdan bog'lovchi omillar haqida to'xtalib o'tishga xarakat qilinadi.

Boburiylar sulolasiga mansub hukmdorlar to'g'risida so'z borar ekan, ularning Turkistonni o'zlarining "haqiqiy" ona Yurtlari va temuriyaldan meros qolgan hududlar deb qarashlariga ham ahamiyat berish joiz bo'ladi. Hindiston yarim orolida, umuman olganda, qariyb ikki asr (1526-1707), ya'ni Hindistonda musulmonlar hukmronlik qilgan eng diqqatga sazovor davrda, davlatni boshqargan birinchi olti boburiy sultonlarning xar biri ona Yurtlari, ularning ko'pchiligi bu yerlarni hech qachon ko'rмаган bo'lsalarda, Turkiston bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish xis tuyg'ularini namoyish yetib kelganliklarini ko'ramiz.

Ma'lumki, Temuriylar sulolasining eng so'nggi avlodlari bo'lgan boburiy hukmdorlar Hindiston yarim oroliga kelib o'z hokimiyatlarini o'rmatdilar. Boburiy sultonlar davrida Turkiston hududlaridan Hindistonga keng miqyosda turli soha vakillarining, ayniqsa, madaniyat sohasiga aloqador kishilarining ko'chib o'tishi turkiy xalqlar madaniyati bilan erlik xalq-larni tanishtirdi va shu madaniyatning Hind yerlarida yoyilishigaham sabab bo'ldi. Turkistonliklar Hindistonga nafaqat siyosiy, ma'muriy va harbiy tomonidan, balki madaniyat (rassomchilik, me'morchilik, adabiyot, she'riyat va h.k.) sohalarida ham katta ta'sir ko'rsatganlar. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, Hindistonda eng mashhur tarixiy obida Toj Maxal, ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha, Samarcanddag'i Amir Temur maqbarasi - "Go'ri Amir"ga to'g'ridan-to'g'ri taklid qilib solingan¹. Toj Mahalni qurdirgan Shoh Jahon o'z "ona vatani" bo'lgan Turkistonni qaytadan qo'lga kiritish umidida yashagan. Hatgo u 1646 yidda Balx viloyati orqali bu tomoniga harbiy Yurishni amalga oshirishga ham urinib ko'rgan. Shoh Jahonning Balxga Yurishi to'g'risida Boburiylarga tegishli ko'pgina maktublarda va boshqa hujjat-larda Turkiston "ajdodlarimizning qabrlari bor joy" deb qayd qilingan².

Hattoki, otasining ko'p sohalardagi siyosatining teskari-sini qilgan Avrangzeb ham, boburiylarning Turkistonga nisbatan bildirgan o'y-xayollariga sodiqqolgan. Bunday misol-lar XVI-XVII asrlarda turli to'siqlarga qaramasdan, Turkiston va Hindiston o'rtasida muntazam aloqalar

¹Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998. p. XX III.

¹O'sha asar. R. XXIII,

²Nizomiddshuv I.YO. XU1-XUSH asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. Tosh., FAN, 1966. 53-bet.

mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. XU11 asrga tegishli manba bo'lgan "Muzak-kir-i-ashob"da qayd qilinishicha, boburiylarning so'nggi avlodlari, o'z bobolari Jahongirshox. qilganidek, Samarqandga "Go'ri Amirni" ta'mirlash uchun pul va ustalarni Yuborgan-lar"³.

Boburiylarning Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonga bo'lgan bunday munosabatlarining sababini amerikalik olim Richard Fols shunday sharxlaydi: "Mo'g'ul imperatorlarining o'z "ona Yurtlari" bo'lgan Markaziy Osiyoga nisbatan ko'rsatgan sog'inch hislarini ifoda yetishlariga, ular o'zlarini "Hind" dunyosining bir bo'lagi deya olmasliklari emas, balki yo'qotgan dunyolarining markazi, ya'ni nafaqat Hindistonni, balki Eron, Suriya, Anatoliya va ichki Osiyoning dasht yerlarini ham o'z ichiga olgan Temur imperiyasining gullab-yashnagan poytaxti - Samarqandni yo'qotganliklari sabab bo'lgan, deb o'yaymiz"⁴.

Haqiqatan ham Temur avlodlari bo'lgan boburiy sultonlar Turkistonni o'zlariga boshqarish uchun meros bo'lib qolgan dunyo deb xisoblaganlar. Masalan, Bobur Hindistonda o'z xokimiyat ini o'rnatgandan so'ng, u yerda doimo yashab qolish niyati yo'q edi, balki u o'z davlatini Temur bobosiga o'xshab Samarqanddan turib boshqarishni xoxlar edi.

Boburning vafotidan keyin, Humoyun va undan keyingi avlodlar nihoyato'zlarining Hindiston sultonlari sifatidagi mavqelarini tan olganlar. Lekin kelib chiqishi, qaysi sulolaga mansubligi juda ham katta ahamiyat kasb yetgan dunyoda, Temuriylar sulolasining vakillari bo'lgan boburiy sultonlar Hindistonda mustahkam o'rashib olsalarda, o'zlarining Turkistonga bo'lgan intilishlarini hech to'xtata olmaganlar. Abul Fazl Akbarni "Ko'ragon oilasining faxri" va "Temur urug'inining chirog'i "chirog'-i-dudmon-i- Sohibqiron"⁵ deb ataydi. Jahongir Kobulda, Boburning maqbarasi yonida, o'z nomi va Temurdan keyingi ajdodlarining nomlari o'yib yozilgan toshni o'rnatishni buyurgan edi⁶.

Amir Temur siyoshi barcha Boburiy sultonlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Temur shaxsiyatiga, uning Yurishlariga bag'ishlangan kitoblar doimo ularning hamrohi bo'lganligi bizga manbalardan ma'lum. Masalan, Jahongir va Shox. Jahop Sharafiddin Ali YAzdiyning "Zafarnoma" asarini qayta-qayta o'qib Yurganlar.

Boburiy sultonlar Hindistonda o'z faoliyatlar davomida (davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda va h.k.) ko'pincha Temuriylar davridagi qonun-qoidalar, an'analar, rasm-rusumlarga amal qilganlar.

Boburiylar Hindistonda o'z hukmronligini mustahkam o'rnatib olganlaridan so'ng, tashqi dunyo hukmronlari ularni Temuriylar xonadoni davomchilari sifatida tam olishni lozim topdilar. Masalan, Eron shohi Abbas Jahongirga yo'llagan rasmiy maktubida "ushbuni Ko'ragon taxtida o'tirgan zotga va Temur tojining merosxo'riga yo'llayman"⁷, deb yozadi va yana bir joyda Hindiston elchisi Xon A'lampa imperatorga sovg'a tariqasida Isfahondan Temur, uning o'g'llari va lashkarboshilarining To'xtamishxon bilan olib borayotgan jangti tasvir-langan noyob san'at asarini olib kyetishga ruxsat beradi.¹

Ikki mintaqqa xalqlarining XVI-XVII asrlardagi aloqa-larida islom dinining ham birlashtiruvchi roli borligini inkor qilib bo'lmaydi. O'sha davrda Hindiston musulmonlari Turkistonni eng avvalo diniy ilmlar markazi sifatida hurmat qilganlar, ayniqsa, Buxoro madrasalarining dovruq'i Hind musulmonlari orasida keng yoyilgan. Shu sababdan bir qancha hind musulmonlari Buxoroda tahsil olganliklari ma'lum¹. Yuqorida bayon qilingan fikrlar va bir qator manba va adabiyetlardan olingan

³ Muhammad Hadi "Maliho" Samarqandiy, Muzakkir-i-Ashob. O'zbekiston Respublikasi Fanaar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondi. № 4270. 234-bet.

⁴ Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p. XX IIX.

⁵ Abul Fazl. "Allami", Akbar-nama, ed. Abd al-Rahim, 3 vols., Tr. Henry Beveridge, (reprint Low Price Publ. Delhi, 1993), I, p., 17 (text p. 8).

⁶ Shan Nawaz Khan and Abd-hayy. Ma athir al-ulama, tr. Henry Beveridge, Calcutta, 1941-1942. p. 97.

⁷ Tuzuk-i-Jahangiri, tr. A. Rogers, ND. 1978 II p. 1956 TJ. P. 112

¹ O'sha asar. 11. B. P6B 77 R. 3229. MsShesney R. D. Wagf in Central Asia, Princeton Univ. Press, Princeton, 1991, r. 110.

¹ 3. McChesney R. D. Wagf in Central Asia, Princeton Univ. Press, Princeton, 1991. p. 110.

ma'lumotlar XVI-XVII asrlarda boburiylar davridagi Hindiston va Turkiston o'rtasida diplomatik, harbiy, savdo va madaniy aloqalar ancha faol olib borilganligidan darak beradi.

XVI asr ohirlarida Movarounnahr, Hindiston va Eronda kuchli feodal davlatlar tashkil topadi. Hindistonda boburiy-lar sulolasining eng zabardasti buyuk Akbar saltanat egasi bo'lganda (1556), Movarounnahrda shayboniylar sulolasining so'nggi tadbirkor namoyandasini Abdulla II hokimiyatni o'z qo'liga oldi(1557).

Abdullaxon va Akbar taxtni egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga, mustaqil va yarim mustaqil xon va knyazliklarni bo'yusundirishga, yangidan-yangi o'lkalarni bosib olishga kirishdilar. Abdullaxon qatqaq kurash natijasida Balx va Hirotni (1573), Shahrisabz, Qarshi va Hisorni (1574), xuddi shu yillari Akbar Malva, Gondvan, Chitor va Gujaratni zabit yetdi. O'sha davrda ikkala davlat o'rtasida bir qator diplomatik almashinuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, Abdulla xon 1572-73; 1577-78 va 1586 yillarda Hindistonga elchilar Yubordi.¹

Abdullaxonning elchisi Oltamish 1572 yili Dexliga boradi. Elchi Abdullaxonning har ikkala mamlakat o'rtasida davom yetib kelayotgan do'stlik aloqalarini kuchaytirish haqidagi maktubini topshiradi.² Akbar o'zbek elchisini, Gujarat Yurishi muvaffaqiyatli tugagach, qabul qildi. Akbar elchi orqali Abdullaxon nomiga Yuborgan maktubida do'stlik munosabatlarini o'rnatishga rozi ekanligini bildiradi.

O'zbek elchisi Hindistondan o'z Yurtiga qaytish arafasida Badaxshonda xokimiyat uchun o'zaro kurash boshlanganligi ma'lum bo'ladi. Imperator Akbar bu kurashda o'zbek xonining qo'li borligini gumon qildi. 1577 yilda Abdullaxonning ikkinchi elchisi Mir Abdurahmon Xo'ja Sadr Hindistonga keladi. Elchi Turkiston bilan Hindiston o'rtasida Eronni bo'lib olishni taklif qildi. Endi Akbar o'z navbatida Mirza Fulod boshchiligidagi o'z elchilarini Abdullaxon saroyiga Yuboradi. Bundan maqsad, hind elchisi Eronning musulmon davlati ekanligini eslatib, Akbarning bu davlat yerlarini bo'lib olishga rozi emasligini anglatishi kerak edi. Elchi zimmasiga ikkinchi vazifa ham Yuklatilgan edi. Abdullaxon davlatining tobora kuchayib borishi Badaxshonga xavf tug'dirayotgan edi. Hind tomoni bu xavfning oldini olish uchun qurolli kuch ishlatishdan ko'ra diplomatik yo'l bilan kelishishga urinadi. Shuning uchun Mirza Fulod o'zbek xonining Badaxshonga nisbatan munosabatini aniqlash vazifasini ham bajarishi kerak edi. Haqiqatda Akbarning taxmini to'g'ri edi.³

Abdullaxon Balx va Hirotni egallagach, Badaxshon va Kobulni ham bosib olishni mo'ljallagan edi. 1583-1584 yillarda o'zbek qo'shinlari Badaxshonga hujum qilib, uni bosib oldilar. Badaxshon xrkimi Mirza Sulaymon va uning nabirasi Shohruk Akbardon yordam so'radi. Kobul hokimi Mirza Hakim ham o'z yerlariga tug'ilgan xavfning oldini olish uchun Akbarga yordam so'rab murojaat qildi.⁴ Shu sababdan Akbar katta qurolli kuch bilan 1585 yilda Panjobga keldi va shu yili Kobulni o'z imperiyasiga qo'shib olib, Abdullaxonning rejalarini chippakka chiqardi. Akbar tomonidan amalga oshirilgan ishlar Abdullaxonni xavfsiratib ko'ysi va uning Eronga nisbatan bosqinchilik siyosatini davom yettirishda bu masala Yuzasidan hind imperatorining roziligin olib, u bilan ittifoq bo'lishga majbur yetdi⁵.

Shu yo'sinda diplomatik aloqalar uzluksiz davom yetaverGANligi bizga turli manbalardan ma'lum.

1585 yilda Abdullaxon tomonidan Hindistonga Mirquraysh rahbarligida elchilar Yuborilgan edi. "Abdullanoma" asarining muallifi Hofiz Tanishning ta'kidlashicha, Mirquraysh elchiligi Hindistonga o'zbeklar tomonidan Badaxshonning (1584) bosib olinish sabablarini tushuntirish uchun Yuborilgan, chunki bu hodisa boburiylar imperiyasi tomonidan Hindistonga nisbatan dushmanlik ishi deb qaralishi mumkin edi⁶.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saklanayotgan "Tarixi Akbarshohi" qo'lyozmasida, Mirquraysh elchiligi saroyga kelmasdan oldin, Turondan Akbarni xursand qilish

¹ 1. Ahmedov Buri. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIIvv Fan. Tosh., 1985. s. 53.

² 2. Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture", Vo1. XXI, № 4, 1947, Hyderabad, r. 330.

³ 3. Bu haqda qarang: Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari. T., 1961. 15-38-betlar

⁴ 1. I. Nizomiddinov. O'sha asar. 15-bet.

⁵ 2. O'sha asar, 15-bet.

⁶ 3. Umnyakov I. Abdullanamv Xafiza Tanchia i ego issledovateli. "Zapiski kolyaegii vostokovedov". IV. Tosh., 1929. s. 325.

uchun eng yaxshi o'ynoqi kabutarlar bilan o'ynatuvchi kabutarbozlar kelishgan. «Shu kuni, - deb yozadi muallif, -Nazarbiy va uning bolalari Qambarbiy, Shodbiy va Boqibiy-lar qudsi ostonaga sajda qilib, peshonalarini yoriq yetdilar. Turon elchilari shu vaqt Sind daryosiga yetgan bo'lib, Zobuliston tuprog'ida edilar. Mirquraysh-sayyidlar urug'inining eng yaxshisi, ot, tuya, yo'rg'a, xachirlar, yaxshi po'stin, teri va boshqa nafis mollar bilan u oliv dargohga dilomiz do'stlik haqidagi nomi bilan Yuborildi». "Tarixi Akbarshohi" muallifi Akbar kasallik sababli uzoq vaqt Mirquraysh elchisini qabul qilmagani, so'ngra bu hol elchilarni tashvishga solgach, ularni Akbar yangi solingen 21-devonxonada qabul qilganligi haqida bayon qiladi, "Xisravona ziyofat berildi", deb yozadi.¹

Haqiqatda Mirquraysh elchiligi uzoq vaqt Akbar tomonidan qabul qilinmaydi. Elchilar 1585 yilning ohirida o'z mamlakatiga qaytish oldidangina qabul qilinadilar.²

1586 yilning avgust oyida Mirquraysh boshliq elchilar Hindistondan o'z Yurtlariga Akbar tomonidan Abdullaxoi saroyiga Yuborilgan Hakim Ho'mom va Mir Sadrjahon elchiligi bilan birgalikda qaytib keladilar. Hakim Ho'mom davlat ishlari bilan kelgan rasmiy elchi hisoblansa, Sadr Jahon Abdullaxonning otasi vafot yetishi munosabati bilan ta'ziya bildirish uchun Yuborilgan Akbar vakili edi.

Elchilar 1587 yili may oyida Abdullaxon saroyiga keladilar va Abdullaxon ularni katta tantana bilan qabul qiladi³.

Hind elchisi Akbarning Abdullaxon nomiga yozilgan maktubini topshiradi. Maktubda davlat tepasida turgan shoh yoki xonning o'z mamlakatini idora yetishi va boshqa mamlakatlar xalqlari bilan o'rnatiladigan do'stona munosabatlarida uning tutgan o'rni, Abdullaxonning Akbarni islam diniga nisbatan bo'lган salbiy qerashlari to'g'risida yoziladi. Akbar o'zining javob maktubida u chin musulmonligi, islam dini qoidalarini buzishga urinmaganligi, faqat ulamolar hal qila olmagak masalalarni hal qilishga harakat qilganligini yozadi. Maktubda Eron masalasi to'g'risida ham fikr bildirilgan. Lekin Akbarning maktubida Eronni bosib olish to'g'risida aniq fikr aytilmagan, shu bilan birga Abdullaxon Badaxshonni bosib olganligi ham eslatib o'tilmagan, demak, Hindiston davlati Abdullaxon bilan aloqani murakkablashtirishni istamasligi aniq edi.

1589 yilda Hakim Ho'mom Turkistondan Hindistonga qaytadi. U Abdullaxonning maktubini olib boradi va u bilan birga Abdullaxon Boburiylar imperiyasi saroyiga tayinlangan elchilari sifatida Ahmad Ali Otaliq va Mir Sadrjahonlar unga hamroh bo'lib boradilar. Abdullaxon Akbarshoh nomiga yozilgan xatda unga minnatdorchilik bildiradi, maktubda

shunday fikr bildirilgan ediki, go'yo Akbarning iltifoti bilan Abdullaxon Hirot va Xurosonni zabit yetashga muvaffaq bo'lgan.

Bunday elchilar almashinuvi keyinchalik ham davom yetdi. Masalan 1591-1592 va 1597 yillarda Akbarning elchilari Turkistonga kelganligi ma'lum.⁴ Har ikki davlat o'zaro do'stlik munosabatlarini saklab qolishdan manfaatdor edi. Abdullaxon uchun Boburiylar imperiyasining Eronga kdrshi kurashda byetaraf pozisiada turishi ahamiyatli bo'lsa, boburiylar imperiyasi uchun esa o'zbek xonligi bilan do'st bo'lishi Hindistonning hali tobe bo'lman o'lkalarini bosib olishni muvaffaqiyatli tamomlaisha imperianing sharqiy o'lkalarida osoyishtalik hukm surish uchun zarur edi.

Hindistonda Akbarshoxdan keyingi boburiy sultonlar Jahongir (1605-1627) va Shoh Jahon (1627-1658) hukmronlik qilgan davrlarda mintaqalar o'rtasidagi diplomatik aloqalar to'xtab qolgani yo'q.

Masalan, Buxoro xoni Imomqulixon (1611-1642) 1614 yilda o'z elchilarini imperator Jahongar saroyiga Yuborgan. Hind tarixchisi Ramesh Varma o'zbek elchilari haqida gapirib, ular Imomqulixonning Jahongir nomiga yozgan maktubini olib kelganliklarini aytadi.⁵ Maktubda o'zbek xoni marhum Abdullaxon va Akbar zamonlarida Turkiston va Hindiston mamlakatlari o'rtasida o'zaro itgafoq tuzilgan bo'lib, bu ittifoq natijasida Iraq va Eronning ko'p qismi va Xurosonning

¹ O'sha joyda.

² Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari. T., 1961. 17-bet.

³ O'sha joyda.

⁴ O'sha asar. 21-22-betlar.

⁵ Ramesh Chandra Varma. Op.Cit p. 332.

bosib olinganligi to'g'risida yozilgan, deb ko'rsatiladi.¹ Oradan bir qancha vaqt o'ttach, 1625 yilda Jahongar o'z elchisi Hakim Hoziqni Mavarounnahrga - Imomqulixon saroyiga Yuboradi.

Hakim Hoziq o'z zamonasining buyuk kishisi, yorqin aql egasi, olim, shoir va tabib edi. Hakim Hoziqning mamlakatlararo do'stlikni mustahkamlashda katga rol o'ynaganligini o'zbek olimi I. Nizomiddinov aloxdsa ta'kidlaydi.² 1626-yilda Imomqulixon imperator Jahongir saroyiga o'z elchisi Abdurahmon Juyboriyni jo'natib, Xuroson uchun safaviylarga qarshi kurashda yordam ko'rsatishini so'raydi, lekin muzokaralar Jahongarning vafoti tufayli to'xtab qoldi³.

Shoh Jahon, o'z navbatida, Eronning byetaraf mavqedaga turishi maqsadga muvofiq, deb fikr Yuritar edi. Chunki u O'rta Osiyoga Yurish qilish rejalarini tuzgandi. Ammo Shoh Jahon qo'shinlarining Balxga qilgan Yurishlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi⁴.

Hind tarixchilari N.K. Sinxa va A.CH. Banerjilarning fikricha, Shoh Jahon qo'shinlarining Balx Yurishida muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabablari shuki, birinchidan, boburiy a'yonlar dabdabali va jo'shqin hayotga o'rganib qolgan edilar, ular boy Hindistondan uzoq, ular uchun doimo notinch o'lkalarda turishni yoqgarmas edilar, ikkinchidan, ular srli xalqlar bilan kelishib kyetolmadidar"⁵. Shu voqealardan so'ng ikki mintaqqa o'rtasidagi aloqalar biroz to'xtab qoldi, Lekin 1658 yilda boburiylar imperiyasining taxti Avrangzeb qo'liga o'tdi. U taxtni egallaganda otasi Shoh Jahon tirik bo'lib (1666 yilda vafot yetdi), to o'limiga qadar Avrangzeb kishilarining nazorati ostida bo'ldi.

Avrangzeb zamonida Hindiston bilan Turkiston o'rtasidagi munosabatlar birmuncha do'stona sajiya kasb yetadi. Bu munosabatlar Buxoro xoni Abdulazizning Avrangzeb podshohlik taxtiga o'tirganligini qutlovchi xati bilan boshlanib kyetdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik insti-tutida saqlanayotgan "Maktubot, munshaot va manshuot" qo'lyozma asarda Abdulazizning Avrangzeb nomiga yozilgan uch maktubi keltirilgan.⁶

Ushbu maktublarning mazmuni va elchilarning kimligi to'g'risida I. Nizomiddinov o'zining Yuqorida zikr qilingan asarida batafsil bayon qilgan.⁷

1684 yilda Avrangzeb Buxoroga elchi Yuborib, "dahriy" shialarga qarshi birgalashib hujum qilish taklifini bildirgan. Shu bilan birga ushbu tashabbusdan yana bir alohida maqsad ham bor edi. Buning ma'nosi boburiylarning Qandahorni qaytarib olishga intilishi edi.⁸ Xuddi shu fikr "Tarixi Muqimxoniy"da ham bildiriladi. Undagi ma'lumotga ko'ra Hind elchisi bilan Buxoro xoni o'rtasida Eronga qarshi bir ittifoq tuzilgan. Subhonqulixon shu ittifoqqa suyangan xrlda Xurosonni bosib olish uchun bir necha bor hujum uyuşhtirgan, lekin o'sha vaqtda Xorazm xoni Ernak sultonning Buxoroga qo'shin tortib kelishi Xuroson urushining muvaffaqiyatl chiqishiga to'sqinlik qilgan edi.⁹ Avrangzeb qam o'z navbatida maratxlar qo'zg'olonini bostirish bilan, keyinchalik esa Dekanni bo'ysundirish bilan uzoq vaqt band bo'lgani sababli, Eronga qarshi kurashda Buxoroning itgifoqchisi sifatida ishtirot yetolmadi.

Turkiston va Hindistondagi boburiylar imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalarni tahlil yetar ekanmiz, bu aloqalar ko'proq ikki tomonning safaviylar sulolasiga hukmronlik qilgan Eronga qarshi kurashda ittifoq tuzish rejasini amalga oshirish maqsadini ko'zlab olib borilgan deb taxmin qilish mumkin. Bu borada uchala tomon ham muayyan manfaatlarni ko'zlab, ya'ni o'z chegaralariga yaqin joylashgan hududlar, xususan, Xuroson va hozirgi Afg'oniston yerlari ustidan nazorat o'rnatish uchun kurash olib borganlar.¹⁰

¹ O'sha joido.

² Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning net el sharqi bilan munosabatlari. 27-bet.

³ 1. Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p. 54.

⁴ Bu haqda qarang: Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning nel el sharqi bilan aloqalari. 28-30-betlar.

⁵ Sinxa I.K., Banerji A.CH. Istorija Indii. M., 1954. s. 242.

⁶ Maktubot, munshaot va manshuot. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyoshalar xazinasi 289-qo'lyozmasi 1.

⁷ Qarang: NYuomiddinov I. O'sha asar, 34-36-betlar.

⁸ Semenov L.A. "K voprosu o kulturno-politicheskix svyazyax Buxari i "Velikomongolskoy" Indii v XVII v." Materiali 2-go sovetaniya arxelogov i etnografov Sredney Azii. Izd-vo AN SSSR, M. 1959. s. 1-10.

⁹ Muhammad Yusuf Munshi. Mukimxanskaya istoriya. Tash., 1956. s. 153.

¹⁰ Qarang: Semyonov A. A. "K voprosu o kulturno-politicheskix svyazyax." s. 14.

Turkistonliklar ham, boburiylar ham elchilarni tanlashda o'zlaricha bir-birlarini hayratga solishga harakat qilganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, islom dunyosida qabul qilingan an'anaga muvofiq, elchilik lavozimiga ko'pincha din arboblarini tayinlaganlar. Bu borada yana shuni ham nazarda tutish kerakki, "ayrim xillarda yomon xabar keltirgan elchilarni qatl qilish hodisalarining oldini olishni ko'zlab ham shunday qilinardi", deb yozadi amerikanlik olim R. Fols¹. Undan tashqari, Turkiston hukmdorlari o'z hududlarida naqshbandiy silsilasidan bo'lган katta obro'-e'tiborga ega olim-fozil ulamolarni elchi vazifasiga tayinlaganlar. Boburiy sultonlar esa, o'z navbatida, elchilik lavozimiga kelib chiqishi asli turkistonlik bo'lган va Yuqori mansablarni egallab turgan shaxslarni tayinlar edilar. Masalan, asli buxorolik bo'lган Mir Baraka bir necha bor Jahongir va Shoh Jalon tomonidan o'z vataniga elchi sifatida Yuborilganligi ma'lum.² Nodir Muhammad tomonidan Hindistonga elchi sifatida Yuborilgan Vaqqos Hoji 1633 yilda Turkistonga yana boshqa O'rta Osiyolik shaxs Tarbiyatxon Faxriddin Ahmad (u Jahongir davrida Hindistonga kelgan) bilan birga Hindiston elchisi sifatida qaytib kelgan.³ Ushbu elchilarning zimmasiga, o'z ishlaridan tashqari, ko'pgina Yuqori lavozimdagи boburiy aslzodalar tomonidan Movarounnahrdagi din arboblariga, do'st-birodarlariga yoki qarindosh-urug'lariga jo'natilgan maktublar, turli sovg'alarni topshirish va shu mintaqaga tegishli kamyob mollar va buyumlarni olib kelish ham Yuklatilar edi. Masalan, elchi Hakim Ho'mom Akbarshoh uchun sulton Husayn tomonidan yozilgan kabutarlar haqidagi kitobdan ikki nusxasini olib kyetganligi ma'lum⁴.

Shunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ikkala tomon namoyondalari tomonidan olib borilgan shu xildagi faoliyat Hindistonda yashab turgan boburiylar va boshqa turkiy oilalar bilan Movarounnahrdagi o'zbeklar o'rtasidagi shaxsiy aloqalarning muntazam davom yetib turishiga katta yordam bergenligi shubhasizdir.

Albatta, elchilar zimmasiga an'anaviy ravishda xufiya ma'lumotlarni to'plash ham Yuklatilanligi o'z-o'zidan ma'lum. Bunga Abul Fazl Giloniyning 1588 yilda Buxoroga elchi bo'lib kelgan Hakim Xo'momga yo'llagan maktubi misol bo'la oladi. Ushbu maktubda Hindistondagi boburiylar manfaati uchun xizmat qila oladigan imperiya do'stlarini ko'paytirish yo'lida har qancha moddiy xarajat qilishga ham tayyor bo'lish kerakligi uqtiriladi. Shu maktubda, Akbarshohning Badaxshon viloyatini qaytarib olishga qaratilgan siyosati elchining bu hakda qanday ma'lumot olib kelishiga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Keyinchalik Avrangzeb zamonda ham turkistonliklar uning diplomatik xizmatini bajarganliklari ma'lum. Avrangzeb ularni Movarounnahr va Balxda hukmronlik qilayotgan o'zbek xonlari xuzuriga elchi qilib Yuborgan. Masalan, Hindistonga kelishdan oldin Balxda Subhonkulixon xizmatida bo'lган Mulla Niyoz Qashg'ariy Avrangzeb tomonidan 1687 yilda Zabardastxon elchiligining tarkibida Subhonkulixon xuzuriga jo'natilgan.⁵

Bunday misollardan ko'rinish turibdiki, boburiy hukmronlar o'zları boshqarib turgan mamlakat manfaati hamda Turkiston xalqlari o'rtasidagi aloqalarni davom yettirish yo'lida ajdod-larning ona zamini bo'lган yerlardan kelgan ilmli, obro'-e'tiborli, tajribali turli soha vakillarining xizmatidan unumli foydalanishga harakat qilganlar.

Boburiy hukmdorlar turli sabablarga ko'ra Turkistondan Hindistonga kelib qolgan va davlat ishlarida yoki boshqa sohalarda katta tajribaga ega bo'lган bilimli kishilarga ishonch bildirib, Yuqori lavozimlarga, harbiy qo'mondonlik vazifa-lariga tayinlaganlar va ular mehnati va sadoqatini Yuqori baholaganlar. Yaxshi xizmatlari uchun ularga katta mukofotlar, yerlar hadya qilganlar va shu bilan birga ular yo'l qo'ygan ba'zi xatolarni ham kechirib kyetganlar. Shu o'rinda misol qilib Hindistonga kelib ancha boylik va nufuzga ega bo'lган Turdibek Turkistoniyning imperator Humoyunga nisbatan noinsoflik qilganligini aytib o'tish mumkin. Humoyun Hindistonda SHer Shohomonidan amalga oshirilgan isyon tufayli Eronga boshipana izlab kyetayotganida Turdibek Turkistoniy unga otlar va pul qarz berib turishdan bosh tortgan hamda Humoyunning ukasi,

¹Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p.55.

² Rahim Abdur, "Mughal Relations with Central Asia. Islamic Culture, N. 9 (1937) p. 194

³ Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p. 55.

⁴ Islam, Riasul A. Calendar of Documents on Indo-Persian Relations. (1500-1750), II vols. Karachi, 1979-1982. r. 218.

⁵ Muhammad Hadi. Maliho Samarqandiy Muzakkiri ashob. O'zbekiston Rvspublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lvzmapar fondi, № 427, 237-a, v.

shahzoda Askariy tomoniga o'tib kyetgan edi. Lekin Humoyun Hindistonga qaytib, taxtni yana egallagandan so'ng Turkistoniy undan o'z qilgan xatosi uchun avf so'rab kelganda Humoyun uni kechiradi va Mevat hokimi yetib tayinlaydi. Akbar davrida esa Turdibek Turkistoniy Dehli shahrining hokimi lavozimiga tayinlanib, 5000 otliq askarga boshliq bo'lisl mansabiga erishadi, lekin keyinchalik Bayramxon tomonidan uyuşhtirilgan ig'vo natijasida o'ldiriladi¹. Shayboniylar vakili Ali Qulixon va uning ukasi Bahodirxon boburiylarga qarshi ikki marta isyon ko'targan bo'lsalar hamavf yetilib, uchinchi martasida qatl yetilgan edilar². Ilgari Balx viloyati hokimi bo'lgan, keyin Abdullaxon bilan chiqishmasdan o'zining uch o'g'li bilan birga boburiylar xizmatiga o'tib kyetgan Nazrbiyga Akbarshoh tomonidan jogir (er mulkiga egalik) hadya yetilgan edi, lekin u 1590 yilda isyon ko'targani uchun qatl yetilgan.

O'rta Osiyodagi tasavvuf oqimidagi bir qancha oilalar boburiylarning Naqshbandiya tariqatiga mansub ekanlik-laridan foydalanib, ko'pchiligi Hindistonga kelgan va saroy xizmatiga olinganlar. Ulardan biri bo'lgan Sharafiddin Samarcandiy Akbarshoh xizmatida ishlagan, lekin ikki marta isyonda ishtirok yetganligi sababli Bengaliyada hayotidan ajralgan.³ Yana biri, Abdullaxon (uni Turon hukmdori nomi bilan yoki Hindistonga kelib Humoyun yaqinlaridan bo'lgan shaxs bilan adashtirmaslik kerak) avvaliga Dekanda SHer Xo'ja xizmatida bo'lgan, keyinchalik Lohurda o'zini shahzoda Salim (keyinchalik Jahongir) ixtiyoriga topshirgan. 1603 yilda u Akbar saroyiga kelgan va 1000 askarga rahbarlik qilish mansabiga erishgan va Safdar jang (Jang qahramoni) unvoniga sazovor bo'lgan.⁴

Avrangzeb zamonida Xo'ja Ubaydullo Ahror muridlaridan bo'lgan Sayfuddavla (asli nomi Abdusamad) Hindistonga kelib, 5000 suvoriy lashkarga qo'mondonlik vazifasigacha ko'tarilgan, so'nfa Loxur shahrining hokimi yetib tayinlangan edi.

Turkistondan Hindistonga kelgan muhojirlar orasida boburiylar saroyida eng katta lavozimni egallaganlardan biri Abdul Boqi Turkistoniy bo'lib, uni Akbarshoh sadr (bosh vazir) yetib tayinlagan.⁵ Shunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

R. Folsning fikricha, ko'plab Yuqori nufuzga ega bo'lgan turkistonliklarning Hindistonga kelib, boburiylar xizmatiga o'tishining asosiy sababi, o'sha davrda (XVI-XVIIasrlar) Turkistonda uzlusiz tartibsizliklar va nobakorlikning hukm surib turganligi bo'lishi mumkin.⁶ Masalan, 1611 yildagi "tarqoqlik" (xarj va marj) natijasida ko'plab o'zbek lashkarboshilari va sipohiyilari, jumladan Husaynbiy, Pahlavon Bobo, Navro'zbiy Darmoq va Bayrambiylar Hindistonga kelib, Jahongir xizmatiga o'tadilar va qimmataho sarupolar, otlar, pullar, mansablar va jogarlar bilan takdirlanadilar.⁷ Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'sha davrda siyosiy boshipana izlab yoki boshqa sabablarga ko'ra ba'zi nufuzli shaxslar Hind yerlarini tashlab, Turkistonga ko'chib o'tganliklari ham ma'lum. Masalan, Jahongirshoh davrida, imperatorning katga o'g'li Xusrav isyon ko'tarib, Badaxshonga qochib o'tgan. Kobul hokimi, Akbarning ukasi shahzoda Muhammad Hakimning vafotidan so'ng, uning yaqin amaldorlaridan bo'lgan Xo'ja Hasan Xoldor Naqshbandiyning o'g'li Badiuzzamon siyosiy ta'qibdan qo'rqib, Movarounnahrga qochib kelgan.⁸ Bunday hodisalarining tez-tez bo'lib turganligi ikkala mintaka o'rtasidagi siyosiy alokalarga salbiy ta'sir ko'rsatganligi o'z-o'zidan ma'lum.

Lekin, shunga qaramay, boshqa sohalarda, ya'ni savdo-sotiq, madaniyat va h.klarda aloqalar hech vaqt uzilib qolmagan.

Hofiz Muhammad Fozilxonning Buxoro missiyasi

XIX asrning dastlabki o'n besh yili tarixda «Napoleon urushlari» nomi bilan Yuritilib kelinadi. Agar e'tibor qilib qaralsa, bu xol faqat Ovrupo mamlakatlari hududlari bilan cheklanmasdan, uning

¹ Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p. 57.

² Nizam al-din Ahmad, Tabaqati-Akbari, tr. B De, 3 vols., Biblioteca Indica, Calcutta. 1911-41, II P. 655

³ Shan Nawaz Kahn and Abd-al-Hayy "Ma athiral-ulama", tr. Henry Beveridge, I. r. 97.

⁴ Abul Fazl Allomiy. Akbar-noma, Xenri Beverij tarj. Kalkutta, 1902-39 (qayta nashri, Dehli 1993) H, r. 351.

⁵ Richard C. Foltz. Mughal and Central Asia. Oxford, 1998, p. 59.

⁶ Jahangir Nuruddin Muhammad, "Jahangir-nama", tr. A. Rogers, ed. Beveridge, new Delhi 1978. p. 115-16

⁷ O'sha asar, 308-bet.

ta'siri Sharq mamlakatlarini ham qamrab olganligini, bu davrdagi Ovrupo davlatlari o'rtasidagi nizo va qarama-qarshiliklar u yoki bu tarzda Sharq xalqlari taqdirida ham bevosita muhim rol o'ynaganligini ko'ramiz. Bunga sabab shuki, yyetakchi Ovrupo davlatlarini domiga tortgan o'zaro urush va nizolar ayni vaqtida ularning mustamlakachilik siyosatlari bilan ham chambarchas bog'liq edi. Demak, kurash birgina Ovrupo qit'asida ustunlikni ta'minlash Yuzasidan bo'lmay, balki dengiz yo'llari va Osiyo-Afrika kengliklarida joylashgan o'nlab mamlakat va xalqlar tizginini qo'lga kiritish ustida ham borardi.

XVIII asr ohirida, Napoleon (1804-1815) o'z qo'shinlari bilan Misrda ekanligi vaqtidayoq o'zining pirovard maqsadi Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik hukmronligiga chek qo'yish, unga qarashli Sharq mamlakatlarini, jumladan, Hind yarim oroli muzofotlarini qo'lga kiritish ekanligini baralla e'lon qilgan edi. Shu vaqtidan boshlab London "Buyuk Britaniya tojidagi gavhar" - Hindistonni fransuz xavfidan muhofaza qilish uchun butun chora-tadbirlarni ko'rish ishiga faol kirishib kyetadi. Ayniqsa, Napoleon bilan Rossiya imperatori Pavel 1 (1796-1801) o'rtasida Hindistonga Yurish haqida o'zaro kelishuv¹ imzolangandan keyin inglizlarning bu boradagi tashvishlari yanada ortib kyetdi. O'z vaqtida katta shov-shuvga sabab bo'lgan Fransiya va Rossiya o'rtasidagi ushbu bitim Pavel I ning fojiali o'limi va Rossiya-Fransiya ittifoqining barbod yetilishi bilan tarixda amalga oshmagai voqeliklar qatoridan o'ren olgan bo'lsada, Angliya Napoleon Fransiyasining Sharq mamlakatlariga nisbatan olib borgan siyosatiga, ayniqsa, uning Buyuk Britaniya mustamlakachilik rejalariga rahna solishga qaratilgan niyatlariga qarshi kurashni to'xtatmadı. Bu narsa dastlab Eronda Angliyaning ana shu Sharq mamlakatini Rossiyaga qarshi urush ochish uchun gij-gijlatish siyosatida o'z aksini topgan bo'lsa,² 1812 yilda Napoleon qo'shinlari Rossiya chegaralarini buzib, unga qarshi hujumga o'tgan paytdan boshlab O'rta Osiyo muzofotidagi davlatlar bilan yaqindan aloqa bog'lash, ularni ma'lum tarzda o'zta'siri doirasiga olishga qaratilgan urinishlarda, ayniqsa ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Gap shundaki, o'z vaqtida Napoleon bilan Pavel I ning Hindistonni zabit yetish maqsadida tuzgan ahdnomasida bu mamlakatga Yurish rejası ikki yo'naliş orqali, birinchisi, Eronning Kaspiy qirgoklari, anshfog'i Astrobod va Xuroson viloyatlari orqali Afg'onistonga, so'ng Haybar dovonidan to'g'ri Hindistonga o'tish mo'ljali belgilangan bo'lsa, ikkinchisi, Rossiyaning janubida joylashgan O'rta Osiyo xonliklari sarhadlarini bosib-yanchib o'tgan holda AfYunistonga, undan Xindistonga hujum qilish niyati bayon qilingan edi.³ Fransyaning Rossiyaga qarshi boshlagan tajovuzi, inglizlarning fikricha, Napoleon 1 uchun O'rta Osiyo orqali Hindistonga hujum qilish, ya'ni ilgari shu maqsadda ishlab chiqilgan rejani endi yolg'iz uning o'zi amalga oshirishiga qulay imkoniyat yaratishi mumkin edi.

Shunday bir sharoitda Angliya shoshilinch choralar ko'rishga kirishib kyetadi. Uning o'z oldiga qo'yan asosiy maqsadi -O'rta Osiyo sarhadlarida Hindiston yo'lini bekitadigan jiddiy g'ov tashkil yetish edi. To'g'ri, Bukj Britaniya Hindistonda uning rasmiy panohida mustamlakachilik xurujlarini avj oldirayotgan Ost-Indiya kompaniyasi nomidan bu borada allaqachon qator tadbirlarni amalga oshirgan edi. Masalan, 1809 yilda ingliz zobiti Elfinston boshchiligidagi missiya Hindistondan Afg'onistonga olib boradigan yo'llar va bu mamlakatga aloqador qator muzofotlarni maxsus o'rganib chiqqan, ingliz siyosiy tuzog'iga ilingan afg'on amiri Shujoul-Mulk (1803-1809, 1839-1842) bilan shartnomal imzolab, bu mamlakatda o'z ta'sirini bir qadar mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan edi. Ayni vaqtida Afg'oniston amiri orqali Buxoro xonligi bilan ma'lum aloqalarni joriy qilishga ham harakatlar bo'lgandi. Ammo 1812 yilga kelib, O'rta Sharq mamlakatlarida, ayniqsa Afg'onistonda ro'y bergen siyosiy voqealar inglizlar puxta o'ylab tuzgan ushbu rejalarini buzib

¹ Fransiya konsuli Napoleon Bopapart va Rossiya imperatori Pavel 1 o'rtasida 1800 yilda imzolangan bu bitim maxfiy sahiyadagi xalqaro hujatlardan biri bo'lib, uning tafsilotlari Fransin va Rossiya davlat arxivlarida saqlanadi. Bu masala Yuzasidan chet el hamda inqilobgacha bo'lgan rus matbuotida ayrim malumotlar chop etilgan.

² 1804-1813 yillardagi rus-eron urushi.

³ Sovet davri adabiyotida tarixda "Hindistonga rus xayfi" bo'lgan degan tushunchaning noto'g'ri ekanligi haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Ularda, asosan, Rossiya imperiyasi agressiyaga asoslangan siyosat olib bormagan, qolaversa, Hindistonga hujum qilish uchun unda etarli harbiy-iqtisodiy imkoniyat mavjud bo'lmasan, degan fikrni asoslashga harakat qilinadi. Tarixiy dalillar esa Rossiya hukmron doiralarida bir vaqtlar shunday rejalarining bo'lganligini va Rossiya o'z mustamlakachilik siyosatida har vaqt inglizlarni talvasaga solib kvlgan ushbu omildan ustalik bilan foydalanib kelganligini ko'rsatadi.

Yuborgan edi. Afg'oniston o'zaro kurashlar natijasida bir-birini tan olmaydigan bir necha bo'lakka bo'lingan, inglizlarning sodiq do'sti Shujoul-Mulk Kobuldan quvilgan va u o'z xrmiyları pano힒da jon saqlab turardi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya asosiy e'tiborini O'rta Osiyoga, to'g'rirog'i, u yerdagı kuchli davlatlardan biri - Buxoro bilan bevosita aloqa o'rnatishga qaratadi.

Shu maqsadda inglizlar O'rta Osiyoga Mir Izzatullox. rahbarligida maxsus ta'limdan o'tgan musulmon mutaxassislar guruhini yo'llaydi. Bu guruh Kashmir orqali Sharqiy Turkiston (Sinszyan)ga o'tib, undan Buxoro xonligiga kelib kyetadi. Bu safar haqidagi barcha ma'lumotlar Mir Izzatullohning yo'l xotiralarida o'z aksini topgan bo'lib, uning asosiy mazmuni Ovrupo tillarida bir necha bor tarjima qilingan va chop yetilgan.¹ U haqda ingliz, fransuz va rus tillarida ma'lum darajada materiallar mavjudligini hisobga olib, bu yerda Mir Izzatullohning safariga to'xtalib o'tirmaymiz. Ammo inglizlar bir vaqtning o'zida Buxoroga yana bir vakil - Hofiz Muhammad Fozilxon degan elchini ham Yuborganlari to'g'risida keyingi vaqlargacha adabiyotlarda e'tiborga molik ma'lumot bayon qilinmagan.

Bu elchining nomi Mir Izzatulloh esdaliklarida tilga olingen bo'lsada, ammo uning shaxsi haqida va safari go'g'risida biron bir tafsilot keltirilmagan. Mir Izzatulloh kundaliklariga yozgan qisqa so'zboshisida o'z asarini yozishda Buxoroga safar qilgan Hofiz Fozilxon kuzatishlaridan ham foydalanganini ta'kidlab, uning nomini faqat bir marta zikr yetish bilan cheklangan, xolos. Mir Izzatulloh safarnomasining ayrim qismlarini ingliz (fransuzcha nashr bilan solishtirgan holda) tilidan ruschaga tarjima qilgan YU. Sokolov esa, ana shu ma'lumotga tayanib, "asarning inglizcha tarjimasqsa Pekindan Kdshqargacha bo'lган masofadagi 126 bekatning sharhi keltirilgan. Bu ma'lumotlarni Mir Izzatulloh Hofiz Fozilxon degan bir kimsadan oлgan", degan haqiqatdan uzoq xulosani maydonga tashlaydi².

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, inglizlar Buxoro xonligiga bir vaqgning o'zida ikkita elchi yo'llaganlari bilan asosiy e'tibor va vakolat Mir Izzatullohga beriltan. Unga o'sha paytgacha ingliz mustamlakachilari uchun noma'lum Kashmir-Sinszyan- Buxoro yo'nalishini sinchiklab o'rganish, O'rta Osiyodagi davlatlarning harbiy kuch-qudratiga baho berish, Xindistonga qarshi shimoldan Yurish Yuz berganda uni to'xtatash imkonlari qay darajada ekanligini aniklash, O'rta Osiyo xonliklari, bиринчи navbatda Buxoro amirligi bilan yaqin munosabatlar o'rnatish vazifalari Yuklatilgan. Ayni vaqgda Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlari Afg'oniston orqali Buxoroga boradigan yo'llarni yana bir karra puxta o'rganish, ayniqsa, bu mamlakatda Yuz bergen siyosiy o'zgarishlardan voqif bo'lish, Buxoro xonligining janubiy chegaralariga bevosita tutashgan shimoliy Afg'oniston muzofotlaridagi ahvol haqida ma'lumot toplashni ham maqsad qilib quyadilar. Bu vazifa Fozilxon zimmasiga Yuklatiladi. Shunday qilib, har ikkala elchi O'rta Osiyoni Hindiston bilan ulaydigan marshrutlarni o'rganish va biri Turkistonning sharqiy, ikkinchisi esa janubiy sarhadlaridan o'tib, har ikkalasi safarlarini Buxoroda yakunlashi lozim edi. Bunday, Yuqorida ta'kidlanganidek, asosiy vazifa Mir Izzatullox. missiyasi zimmasiga Yuklatilganligi sababli, Buxoro hukmdori bilan Ost-Indiya kompaniyasi o'rtasidagi rasmiy muzokaralar faqat Mir Izzatulloh tarafidan olib borilishi shart qilib qo'yilgandi. Fozilxon missiyasiga esa ikkinchi darajali vazifa — Buxoro xoniga maxsus maktublarni yyetkazish va Mir Izzatulloh boshchiligidagi asosiy elchi guruhi kelayotganligidan uni ogoh yetish topshirilgandi. Chunki elchilar bosib o'tadigan masofalar bir-biridan farq qilganligidan Fozilxon Buxoroga Mir Izzatulloxdan oldin yetib borishi va o'z vazifasini ado yetgach, uni kutmasdanoq orqaga qaytishi tayinlangan edi.

Mir Izzatulloh O'rta Osiyodan qdytib kelishi bilan Ost-Isdiya kompaniyasi rahbarlariga safar tasurotlari haqida bataysil qisobsgg yozib topshiradi va u, Yuqorida aytiganidek, oradan ma'lum muddat o'tishi bilan Ovrupo tillarigatarjima qilinib chop yetiladi. Ammo Fozilxonning safarnomasi negadir kompaniya arxivida qolib kyetadi. Fors tilidagi "Tarixi manozili Buxoro" ("Buxoro

¹ Mir Izzatullohning safarnomasi o'n uch yildan keyin G. Kpaprot tomonidan forsiyidan fransuzchaga o'girilib, 1826 yilda Larijda chop etildi. Oradan ancha vaqt o'tgach, bu asar Angliyaning Foreyn Offis xizmatchisi - kapitan R.D.Xonderson tarjimasida 1872 yilda Kalkuttada ingliz tilida bosmadan chiqdi, Ammo har ikkala nashrda ham safarnoma qisqartirilgan holda chop qilingan. Mir Izzatullohning qulyozmasi haqida esa hozirgacha tayinli ma'lumot yo'q. 1956-57 iillarda YU.A.Sokolov ana shu tarjimalardan ayrim qismlarini universitet ilmiy to'plamida rus tilida e'lon qilgandi. Karang: "TrudыSAGU, Istorija Sredney Azii i Uzbekistana. Novaya seriya. Vyp XXVIII, kn. II, Tash., 1956, s.41-52, Vyp XS, kn. 14, T., 1957. s. 193-217".

² "Trudы SAGU". , vyp IXVIII, kn. II. str. 41.

manzillari tarixi") nomi bilan bitilgan ushbu qulyozma hozirgi vaqgda Hindistonning Aligarx universityeti qo'lyozmalar majmuaskda saqlanmoqda¹. Fozilxon missiyasi xaqsda ma'lumot beradigan yakkayu yagona manba ana shu "Buxoro manzillari tarixi" asaridir.

Fozilxon "Tarixi manozili Buxoro"da o'zi haqida va mir Izzatulloh missiyasi bilan bir vaqtida uning boshchiligida ikkinchi elchilik guruhining Buxoroga yo'llanganligi sabablari to'g'risida quyidagi qisqacha tafsilotlarni bayon qiladi: "Ushbu asar, - deb yozadi u, - Peshovardan Buxoroga qilingan safardan olingan ayrim tasurotlar, Turkiston muzofotidagi ahvol, undagi hokimlarning hayot tarzi va xulq-atvorlari haqida yozilgan. U Bareyli shahrida istiqomat qiluvchi marhum Qosimxon o'g'li - Hofiz Muhammad Fozilxon qalamiga mansubdir". Afsuski, muallif o'zi haqida bundan boshqa ma'lumot bermagan. Fozilxonning yozishicha, dastlabki rejaga muvofiq Mir Izzatulloh missiyasi tarkibiga qo'shilgan bo'lib, uning yordamchilaridan biri sifatida "ingлиз kompaniyasi hukumati xizmatchisi Sayyid Izzatullohga hamrohlik qilishi" kerak edi. Ammo Peshovarda missiya safarga chiqishi oldidan tasodifan ro'y bergan voqeа tufayli bu reja o'zgarib kyetadi. Fozilxonning ta'kidlashicha, "1812 yil mart oyida navob muntazimul davla muxtor-ul-mulk Charlz Harper, janob Myetkalf Sohib Bahodir va sohibi volomanoqib Uilyam Murkraft Sohib Bahodirlar"² topshirig'iga muvofiq "Angrez Bahodir kompaniyasi"³ xizmatchisi Sayyid Izzatullohxon Buxoro safariga jo'nash uchun Peshovarga kelishi bilan marhum vazir SHer Muhammadxonning o'g'li Bahodirxon unga qarshi chiqib, uni hibsga olishni buyuradi va Attok qo'rg'oniga qamab qo'yadi. Bu voqeadan sarosimaga tushgan inglizlar, Fozilxonning ta'kidlashicha, Turkistonga jo'natalishi mo'ljallangan missiya rejasi buzilmasligi uchun, darhol Fozilxon boshchiligida qo'shimcha elchilik tashkil qilib, uni Peshovar-Xulm-Buxoro yo'nalishi orqali safarga jo'natishadi. Unga muhrlangan nomalar topshirishib, ularni Xulm hokimi va Buxoro amiriga yyetkazish buyuriladi. Ayni vaqtda, Fozilxon ma'lumotlariga ko'ra, xuddi shu kunlari

Peshovarda savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lib turgan Buxoro muftiysining o'g'li Sarfarazxon⁴ unga yo'l boshlovchi qilib tayinlanadi. "Bu vazifani ado yetish uchun inglizlar yo'l xarajatlari va oziq-ovqat uchun Sarfarazxonga 500 rupiya pul berishdi", - deb yozadi Fozilxon. Shu tarzda Fozilxon missiyasi 1812 yilning aprel oyida Sarfarazxon yo'lboshchiligida Peshovardan Buxoro safariga chiqadi⁵.

1812 yilning aprel oyida Fozilxon missiyasi Afg'oniston shimolidagi Xulm shahriga yetib kelib, uning hokimi Mir Qilich Alibek qabulida bo'ladi. Fozilxon Mir Qilich Alibekka Uilyam Murkraftning Ost-Indiya kompaniyasi nomidan yozgan maktubini topshiradi. Fozilxonning yozishicha, Mir Qilich Alibek u bilan qilgan uzoq suhbatida Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlari, uning tashkiliy va amaliy faoliyati haqida ko'plab savollar beradi. Bu yerda elchilar besh kun davomida Xulm tobelligidagi nohiyalar ahvoli bilan yaqindan tanishadi, bu beklikning savdo-

¹ Hofiz Muhammad Fozilxon valadi Qosimxon. Tarixi manozili Buxoro (fors shilida, muallif dasshxashi), 54 sahifa, Hindishonning Ushtar-Pradesh shtatidagi Aligarx universiteti kutubxonasi majmuasi (Abbos-Salom kolleksiyasi, № 692)da saqlanadi.

² Bu hol o'sha yillari O'rta Sharqda mavjud bo'lgan siyosiy alg'ovdal Yuvlarga qaramasdan Buxoro bilan sharqiy Hindiston tumanlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar davom etib turganligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda u Buxoro xonligidagi ayrim hukmron doiralar va diniy arboblar bilan Ost-Indiya kompaniyasi o'rtasida malum apoqalar ham mayjudligidan dalolat beradi.

³ Ost-Indiya kompaniyasini Fozilxon shunday deb ataydi.

⁴ 1. Bu hol o'sha yillari O'rta Sharqda mavjud bo'lgan siyosiy alg'ovdal Yuvlarga qaramasdan Buxoro bilan sharqiy Hindiston tumanlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar davom etib turganligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda u Buxoro xonligidagi ayrim hukmron doiralar va diniy arboblar bilan Ost-Indiya kompaniyasi o'rtasida malum apoqalar ham mayjudligidan dalolat beradi

⁵ Bu yerda Fozilxon missiyasining Yuborilishi sabablari haqida uning o'zi bayon qipgan fikr-mulohazalar keltirildi. Ammo oradan ko'p o'tmay Mir Izzatulloh boshchiligidagi asosiy elchilik guruhining avvaddan belgshshangan yo'nalish orqayai safarga chiqqanligi ma'lum. Bu hol qo'shimcha missiya Yuborish masalasining, Fozilxon ta'riflaganidek, ana shu tarzda tez va jo'n hal etilganligiga shubha tug'diradi. Fozilxonning ta'kidlashicha, maktublardan biri Sayyid Izzatullohxon nomidan yozilgan bo'lib, u Buxoro hukmdoriga topshirishshshi lozim bo'lgan. Demak, masalani inglizlar avvaldan puxta tayyorlaganliklari ko'rinish turibdi. Aftidan, Ost-Indiya kompaniyasi rahbariyati Fozshaonni bu masalalar Yuzasidan ko'rilgan tayyorgarliklar tafsiloti bilan oldindan tanishtirishni lozim ko'rmagan.

iqtisodiy aloqalari, harbiy quvvati haqida ma'lumotlar to'plashadi. Ularning barchasi Fozilxonning kundaliklarida o'z aksini topgan. "Tarixi manozili Buxoro"da Xulm hokimligi to'g'risida bayon qilingan fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston shimolida bu vaqtga kelib Mir Qilich Alibek qo'l ostida xuddi Hirot va Qandahordagi kabi markaziy hokimiyatga bo'yusunmaydigan alohida beklik tashkil topgan. Ost-Indiya kompaniyasi bu voqelikni hisobga olib, u bilan yaqin aloqalar o'rnatishga katta e'tibor bergan. Yana shuni ham aytib o'gish kerakki, Fozilxon boshchiligidagi Ost-Indiya kompaniyasi vakillarining Xulm bekligida o'zlarini bemalol tutishlari, uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy hayoti bilan to'la tanishish imkoniyatiga ega bo'lganlig'slari Mir Qilich Alibek bilan Ost-Indiya kompaniyasi rahbariyati o'rtasida bundan oldin ham ma'lum tarzda muloqot mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Fozilxon o'z safari tasurotlarida Xulm haqida hikoya qilar ekan, Mir Qilich Alixonning hech kimga bo'yusunmasligani, unga qarashli shahar va qishloqlarda undan boshqa birov soliq-oliq ishlari bilan shug'ullanishga haqli emasligini, uning hukmronligidagi aholi Peshovardan Xulmgacha bo'lgan nohiyalarda istiqomat qilishini ta'kidlashga harakat qiladi. Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlarini alohida qiziqgirgan masalalardan biri - sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi janjal hamda qarama-qarshiliklar bo'lganligidan Fozilxon unga ham qattiq e'tibor beradi. U o'z esdaliklarida Mir Qilich Alibekning shia mazhabidagi Hazora urug'iga nisbatan amalga oshirgan xunrezliklarini butun tafsiloti bilan bayon qiladi.

Umuman sunniy - shia mazhablari o'rtasidagi qarama-qarshilik ingliz mustamlakachilari uchun Urta Sharqda "Oraga nizo solu hukm sur" shiorini amalga oshirishda goyat qo'l kelgan omillardan biri bo'lganligi uchun ham ular bu voqelikka katta e'tibor berar edilar. Chunki u qancha avj oldirilsa, Angliyaning bu mintaqada bemalol harakat qilishi uchun shuncha keng imkoniyat tug'ilar edi. Bu voqealardan bir necha yil burun, inglizlar ta'siridagi afg'on amiri Shuja ul-Mulk hali Kobuldan quvilmasdan oldin, Buxoro amiri Haydar (1800-1820) bilan uning o'rtasida ana shu asosda yaqinlik paydo bo'lgan va bu xolni inglizlar bir tomonidan Eron, ikkinchi tarafdan O'rta Osiyo va Afg'oniston orasidagi nizolarni kuchaytirishda foydalanishni maqsad qilib ko'ygan edi. Ularning fikricha, agar Eron fransuzlar ta'siriga tushib qolsa, u holda Angliya Afg'oniston va O'rta Osiyodagi sunniy davlatlar orqali bevosita yoki bilvosita unga tazyiq ko'rsatishi va Eron tomonidan Hindistonga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olishi mumkin edi. Buxoro amiri Haydar va Afg'oniston amiri Shuja ul-Mulk o'rtasidagi bu boradagi yozishma 1804 yilda, ya'ni Shuja ul-Mulk Afg'oniston taxtiga chiqqan yiliyoq boshlangan edi. O'sha yili amir Haydar Kobulga maxsus elchi yo'llab, Shuja ul-Mulkni muborakbod yetgan va shu munosabat bilan bitilgan maktubda "Ota-bobolar o'stirgan do'stlik daraxtining yanada gullab-yashnashi" umidini bildirib, «shialarga nisbatan muqaddas kurashga» doimo tayyorligini izhor qilgan edi.¹

Fozilxon "Tarixi manozili Buxoro"da Mir Qilich Alibekning sunniy va shia mazxablari o'rtasidagi ziddiyatga munosabatini oydinlashtiruvchi voqealar bilan bir qatorda, Xulm-Buxoro do'stona aloqalari haqida ham batafsil to'xtalib, Amudaryoning ikki tomonida joylashgan Xulm bekligi va Buxoro amirligida bu masalada eski an'anaga muvofiq yakdillik mavjudligini ham isbotlashga uringan. Tabiiyki, bunday ma'lumotlar Ost-Indiya kompaniyasi raxbaryati uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Fozilxon Xulmda o'n besh kun mehmon bo'lgach, Mir Qilich Alibek unga kompaniya mutasaddisi Murkraft nomiga yozilgan javob maktubini topshiradi. Bu xat Fozilxonning ilovasi bilan o'sha kuniyoq maxsus chopar orqali Peshovarga jo'natiladi. Shundan so'ng elchilar qayikutarda Amudaryodan o'tib, Buxoro xonligi sarhadlariga qadam qo'yadilar.

Fozilxon Buxoroda tez orada Sarfarazxon yordamida amir Haydar qabuliga kirishga tuyassar bo'ladi. Uning yozishicha, "Buxoro podshosi" Ost-Indiya kompaniyasi elchisini ochiq chehra va mammunlik bilan kutib oladi. Fozilxon amirga kompaniya rahbaryati hamda Mir Izzatulloh yozgan nomalarni topshiradi. "Nomalarning mazmuni bilan tanishib chiqqach, - deb yozadi Fozilxon, - podshoh Hindistondagi ahvolni surishtirdi. Men uning barcha savollariga javob berishga harakat qildim. Shundan so'ng uning ijozati bilan podshoh huzuridan chiqdim"².

¹ *Qo'lyozma, "Munshaot va manshurot". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi, inv. M 302.*

² *Tarixi manzili Buxoro, 17-bet.*

Ost-Indiya kompaniyasi elchilari amir Haydardan Yuqoridagi nomalarga javob kutib Buxoroda uzoq turib qoladilar. "Tarixi manozili Buxoro"da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda ham ular, Xulmida bo'lganidek, xonlik hayoti bilan yaqindan tanishishga xarakat qiladilar. Natijada Buxoroning ichki va tashqi siyosati, uning iqtisodiy va harbiy holati haqida birmuncha fikr-mulohazalar hamda turli ma'lumotlarni to'plashga tuyassar bo'ladilar. Masalan, Buxoro xonliganining o'sha davrdagi harbiy quvvati to'g'risida Fozilxon quyidagilarni ma'lum qiladi: "Buxoro qo'shini sakson ming suvoriydan iboratdir. Bu raqam amirning qo'shinni yo'qlama qilish daftarida qayd yetilgan. Saroydagi ayrim e'tiborli mulozimlar ham ana shu raqamning to'g'ri ekanligini tasdikladilar". Shundan so'ng u xonlikdagi harbiy kuchlarning asosiy joylashgan nohiyalari ustida to'xtab, «qo'shinning 10 mingi Samarqandda, qolganlari ham shu tarzda boshqa nohiyalarda, jumladan, Buxoro, O'rakepa va Marvda joylashgandir. Barcha harbiy kuchlar amir qo'mondonligiga bo'ysunadi. Ularning ta'minoti ham uning ixtiyoridadir. Amir qo'lidiagi daftarda nafaqat harbiy xizmatchilarning nomlari, balki ular mingan otlarning rangi va belgisi ham yozib qo'yilgan. U qo'shinni vakti-vaqgi bilan shaxsan o'zi ko'riqdan o'tkazib turadi»¹, deb yozadi. Fozilxon safarnomasida qayd qilingan ana shu kabi ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin.

Oradan bir yarim oy o'tgach, amirning topshirig'i bilan Buxoro muftiysi Fozilxonga "Mir Haydar janobi oliylariga keltirilgan nomalarga javob hozircha tayyor emasligani, elchilar uni kutmasdan o'z Yurtlariga qaytishlari mumkinligini, xatlarga esa javob Mir Izzatulloh elchiliga topshirilishini" bildiradi. Shundan so'ng Fozilxon va uning hamroxlari "Buxoroda qish boshlanib, qor yog'ayotgan paytda" bu shaharni tark yetib, Xulmga keladilar va bu yerda yana Mir Qilich Alibek huzurida bir necha muddat mehmon bo'lgach, o'z vatanlari tomon yo'lga chikdsilar. Fozilxon va uning xizmatchilari Peshovardan Buxoro tomon yo'lga chiqqanlariga rosa bir yil to'lgach, 1813 yil 9 aprelda Shohjahonobod (eski Dexli) shahriga kirib keladilar.

Yuzaki qaraganda, Fozilxon missiyasi o'sha yillarda O'rta Sharqsa mavjud bo'lgan murakkab xalqaro vaziyatda ko'p ham ahamiyatga molik mavqe tutmagandek ko'rindi. Aslida esa bunday emas. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, inglizlar Mir Izzatulloh missiyasiga qo'shimcha ravishda Fozilxonni Afg'onistondan Buxoroga Yuborib, bu yo'nalihsdag'i siyosiy ahvolni chukur o'rganish, Xulm bilan bo'lgan aloqalarni mustahkamlash, Buxoro-Xulm munosabatlari haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lism imkoniga erishdilar. Ayni vaqgda, Ost-Indiya xo'jayinlari bu bilan Mir Izzatulloq boshchiligidagi elchilikka naqadar katta ahamiyat bergenliklarini va unga favqulodda vazifalarni hal yetish Yuklatilganligini Buxoro amiri Haydarga oldindan bildirib qo'yish vazifasini ham hal yetgan edilar. Afsuski, biz har ikkala elchilikning Buxoro amiriga topshirgan maktublari va ularga yozilgan javoblar mazmunidan bexabarmiz. Na Fozilxon va na Mir Izzatulloh o'z safarnomalarida bu hakda biron ma'lumot keltirishmagan. Ammo shu davrdagi Buxoro xonligi diplomatiyasiga oid ayrim hujjatlarga asoslanib, Fozilxon va Mir Izzatulloh elchiliklarining Amir Haydar siyosatida katta mavqe tutganligini taxmin yetish mumkin. Gap shundaki, Amir Haydar Buxoro xonligini O'rta Osiyoda hukmron davlat darajasiga ko'tarish uchun kurashar ekan, bu yo'lda juda tadbirkorlik bilan ish ko'rardi. Eron hukmdorlarining Marv viloyatiga bo'lgan ilinjiga qarshi kurash olib borish hamda Xiva xonligi bilan bo'lgan o'zaro ziddiyatda u itgafoqchilar izlardi. Uning Yuqoridagi zikr yetilgan Shuja ul-Mulkka yo'llagan 1804 yildagi maktubida afg'on amiriga shialarga qarshi birga kurashda kamarbasta ekanligini bildirish bilan birga o'sha yili Buxoroga hujum qilgan Xiva hukmdori Eltuzarxon (1804-1806) ustidan qozoshan g'alabasi tafsilotlari ham keltirilganki, bu bilan Amir Haydar O'rta Osiyoda yagona kuchli davlat bo'lism niyatini o'z janubiy qo'shniysiga namoyish yetgandi. Inglizlar esa bundan yaxshi xabardor edilar. Shuning uchun ham ular Buxoroga o'z elchilarini Yuborar ekanlar, ular oldiga qo'yilgan asosiy maqsad - fransuz qo'shiilariga qarshi O'rta Osiyoda kuchli to'siq tashkil yetish imkoniyatlarini o'rganish va hal yetish bilan birga, Amir Haydarning ana shu niyatlarining amalga oshishiga yorlam tariqasida ishonchli va'dalar bermasliklari mumkii emasdi. Aks holda Ost-Indiya kompaniyasi o'z niyatiga erisha olmasligini tushunardi.

Buxoro hukmdorlari fransuz - rus urushidan xabardor edilar. Mir Izzatulloh ana shu haqda Buxoroda tarqalgan fikr-mulohazalarga tayanib, o'z tasurotlarida quyidagilarni yozadi: "1227 yil

¹ Tarixi manozili Buxoro. 24-25-betlar.

(1812) qishi arafasida og'ir janglar bo'lib o'tib, unda ruslar talofot ko'rganlar va franshuzlar Moskvani qo'lga kiritganlar. Ammo oziq-ovqat yetishmasligi hamda qattiq sovuq vajhidan ular yanagi faslda (bahorda) urush harakatlarini qaytadan boshlash niyatida mamlakatni tark yetishga majbur bo'lganlar"¹. Demak, Buxoroda hali fransuz-rus urushi tugallanmagan va u davom yetadi, degan fikr muqim bo'lган. Ost-Indiya kompaniyasi elchilari o'z muzokaralarini shunga asoslangan holda olib borganliklariga va Amir Haydarni franiuz hujumi xavfidan saqlashda unga yordam va'da qilganliklariga shubha qolmaydi. Chyedan kelishi mumkin bo'lgan madad esa amir Haydarga birinchi navbatda O'rta Osiyoda o'z rejalarini amalga oshirish uchun zarur edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oradagi muzokaralar natijalaridan ilhomlangan Amir Haydar Ost-Indiya kompaniyasi elchilari Buxoroga kelib-kyetishi bilanoq Turkiya sultonı Mahmud II (1808- 1839)ga 1813 yilda Mirza Muhammad Yusufbey boshchiligidagi maxsus elchilik yo'llaydi. Uning qo'liga topshirilgan maktubda Amir Haydar pardali so'zlar orqali Ost-Indiya kompaniyasi bilan aloqalar o'rnatilganidan islom xalifasini xabardor qilib qo'yadi. Buni biz uning turk sultonidan "bu yerda fiqh kitoblariga muhtojlik kuchayib kyetganligi", ya'ni qattiq tartib-intizom o'rnatish lozimligi, "Hindistondan ana shu masalaga oid bir qancha kitoblar keltirildi-Yu, ammo ular kifoya qilmayotibdi", ya'ni Hindiston bilan yaxshi aloqalar o'rnatilganligi, ammo unga O'rta Osiyoda yagona hukmron bo'lism uchun islom xalifasining fatvosi lozimligi bayon qilingan jumlalardan bilib olamiz. Amir Haydar maktub ohirida so'nggi masala Yuzasidan turk sultoniga quyidagi tarzda ochiq murojaat qilishni lozim topgan: "Movarounnahr, Qazg'an, Dashti Qipchoq, Xorazm, Marvi Shoh Jahon va Dug'lab taraflari, Balx va Badaxshon o'lkalari mutloq va bevosita bizning mulkimiz bo'lib kelgani, bu mamlakatlarning hokimlari qadimdan Buxoro xoni tarafidan tayinlanib kelinganligi va hozirda ham shunday bo'lumog'i lozimligi ma'lum. Ammo Qazg'an va Xorazm viloyatlari hokimlarining ba'zan itoatdan chiqish hollari ro'y bermoqda. Buxoro amirligining ushbu hududlari, davlati oliyingizning itoatkor bir tobe ekanligimizni inobatga olgan holda, bizning mulkimiz ekanligini tasdiklaydigan bir manshur (farmon) Yuborilishini o'tinib so'rayman". Ammo Amir Haydar turk sultonining bunday fatvosini ololmaydi. CHamasi, Turkiya O'rta Osiyodagi ahvoldan yaxshi xabardor bo'lganligidan bu yerdagi musulmon davlatlaridan faqat bittasi - Buxoro xonligining tarafini olib, boshqalari bilan aloqani uzishni istamagan.

Tarixiy voqealarning keyingi rivoji inglizlarning Hindistonni Napoleon I ning O'rta Osiyo orqali amalga oshirilishi kutilgan hujumini daf yetish yo'lida ko'rgan ehtiyyot choralarining behuda ekanligini ko'rsatdi. Lekin o'z vaqtida buni hech kim oldindan aytib berolmasdi, albatta. Ost-Indiya Kompaniyasining shu maqsadda Buxoro xonligiga Yuborgan Fozilxon va Mir Izzatulloh rahbarligidagi elchiliklari natijasida yozilgan safarnomalar XIX asr boshlarida O'rta Sharq mintaqasida hukm surgan g'oyat murakkab xalqaro munosabatlarni o'rganish borasida, diplomatiya tariximizning ma'lum davrini o'zida aks yettirgan qimmatli tarixiy manba sifatida bizgacha yetib keldi.

XORAZM TARIXNAVISLIGIDA XIVA XONLIGI TASHQI SIYOSATI

Xorazm jahon madaniyati rivojiga, umuminsoniy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa qo'shgan muqaddas o'lkalardan biridir. Bu aziz zaminda tavallud topgan o'nlab buyuk zotlarning nomi mashriqu mag'ribda g'oyat katta ehtirom bilan tilga olinadi. Jahon fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan ana shu allomalardan biri — Abu Rayhon Beruniyningta'biril bilan aytganda "inson extiyoylari vujudga keltirgan fanlarning" har bir sohasida bu diyor salmoqli iz qoldirgan. Bu hol tarixnavislik borasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, arablar istilosini natijasida yo'q bo'lib kyetgan mahalliy tillardagi yozma manbalarni hisobga olmasak, Turkiston xalqlari tarixi haqida hikoya qiluvchi yozma adabiyotning yoshi o'rta hisobda 1200 yil atrofidagi voqealar bilan cheklanadi. Ularning aksariyati o'sha vaqtlardagi taomilga ko'ra arab va fors tillarida bitilgan. Bu narsa tarixnavislik sohasiga ham taalluqlidir. Hatto

¹ Bu elchilik haqidagi malumotlar Mehmet Sarayning "Rus ishg'oli davrida Turkiston xonliklarining Usmonli davlati bilan siyosip munosabatlari" (Istanbul, 1990) kitobidan olindi, 24-25-betlar.

o'zbek tili va adabiyotida har tomonlama o'zini namoyon yetgan temuriylar davrida ham tarixnavislik, asosan, fors tilida olib borilgan.

XVI-XVIII asrlarda Turkiston sarhadlarida ro'y bergan o'zaro qonli janjallar va to'qnashuvlar, toj-taxt uchun kurashlar natijasida bu yerda bir yo'la uch mustaqil davlat: Buxoroda - mang'itlar, Xivada - qo'ng'irotlar, Farg'ona vodiyisida esa minglar sulolasi qaror topadi. Har uchala davlat o'zbeklar tasarrufida bo'lsada, ammo tarixnavislik Buxoro va Qo'qon xonliklarida eski an'anaga binoan asosan fors tilida olib borildi. Xiva xonligida esa bu soha faqat o'zbek tilida rivojlandi. Bu yerda o'ziga xos o'zbek tarixnavisligi maktabi vujudga keldi va halqimiz tilida shunday ajoyib tarixiy asarlar silsilasi yaratildiki, ularning har biri nafaqat Xiva xonligi, balki Turkistonning voqealarga boy o'tmish sahifalarini x. aqqoni yoritishda beqiyos ahamiyatga moliqdir.

Xorazm tarixnavisligida eski o'zbek tilida yozilgan va bizgacha yetib kelgan dastlabki asar 1550 yidda yozilgan. "Tarixi Do'st sulton" yoki "Chingiznama" deb atalgan ushbu bitik O'tamish Hoji qalamiga mansubdir¹. XVI asrning o'rtalarida Xivada xukmronlik qilgan shayboniyilar sulolasi vakili Abulg'oziy Bahodirxon ikki mashhur tarixiy asar - "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk"ni yozib qoldirdi. Keyingi shoh qo'lyozma uning vafotidan so'ng Anusha Muhammadxon (1663-87) siperishi bilan urganchlik tarixchi Mahmud ibn Muhammad Zamon tomonidan to'ldirilib, nihoyasiga yyetkaziladi². Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, SHerg'ozixon (1714-1727) davrida Mavlono Sayyid Muhammad Oxund degan mudarris Xiva o'tmishiga oid "Gulshani iqbol" degan ajoyib tarixiy vsar yaratgan. Ammo u bizgacha yetib kelmagan³.

Xorazmda shakllangan o'zbek tarixnavislik maktabi ayniqsa qo'ng'irotlar sulolasi davrgsha Yuksaklikka ko'tariladi. Bu yerda birin-kyetin buyuk o'zbek tarixnavislari - Munis, Ogahiy va Bayoniylarning "Firdavs ul-iqbol", "Riyoz uddavla", "Zubdat ul-tavorix", "Jome' ul-voqeati sultoni", "Tulshani davlat", "Shohidi iqbol", "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" asarları vujudga keladi. Ular jahon tarixnavisligida "Xiva solnomalari" nomini olgan. Bu tarixiy manbalarning har biriga ko'zga ko'rigan sharqshunoslar Yuksak baho bergenlar. Xorijiy mamlakatlarda (jumladan, AQSHda) ushbu qimmatli solnomalarni xar tomonlama chuqur o'rganish ishlari boshlab Yuborilgan. Ammo bizda hozirgacha ajdodlarimizdan qolgan ana shu ajoyib asarlar bir butun silsila sifatida o'quvchilar e'tiboriga havola yetilganicha yo'q.⁴

Xorazm tarixnavisligi maktabiga oid eslatilgan bitiklar ma'lum bir tarixiy davrda Markaziy Osiyoning ushbu mintaqasida ro'y bergan siyosiy voqealar, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar to'g'risida beqiyos qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, uning jahondagi boshqa davlatlar bilan olib borgan tashqi aloqalari, birinchi navbatda Xiva xonligining xalqaro munosabatlari haqida ham g'oyat e'tiborli ma'lumotlar beradi. Bu hol, birinchidan, Turkiston tuprog'ida qad ko'targan xonliklarning o'z qobig'iga o'ralib qolmasdan boshqa xalqlar, uzoq-yaqin mamlakatlar bilan uzviy suratda munosabatlар Yuritib kelganligini, ikkinchidan, ana shu xonliklar tashqi siyosat Yuritish imkoniyatiga ham ega bo'lganliklarini namoyon yetadi.

¹ Bu asar rus tiliga tarjima qilinib, 1992 yilda Qozotstonda nashr etildi. Qarang: Utemish-xadji. Chingiz-name. Faksimile, perevod, transkripsiya, tvkstologicheskie primechaniya V. P. YUDINA. Podgotovila k izdaniyu Yu.G. Baranova, kommentarii i ukazateli M.X. Abuseitovoy. Otv. red. B.A. Axmedov, Alma-Ata, 1992.

² "Shajarayi turk" kirill alifbosida 1992 yilda Toshkentda bosmadan chiqqan: Abulg'oziy, Shajarayi turk. Nashrga tayyorlovchilar Quvommiddin Munirov, Qozoqboy Mahmudov. Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi B.A. Ahmedov, "CHO'lpon", T., 1992.

³ Munis "Firdavs ul-iqbol" da bu asar haqida quyidagiparni yozib qoldirgan: "Aning zamonida (SHerg'ozixon, 1714-1727) fuzapodin mavlono Sayyid Muhammad Oxunddir, kim oning ajdodi va ansobi va ahvoloti va futuhotida "Gulshani iqbol" nomli bir tarix bitibdur. Musajjihat va tarsiot va istiorot va majozot va sano'i bila orasitadir, ammo hanuz mun'adad yozilmadur erdi. Buxoro fuzalosining qo'liga tushub, hasaddin har dostonidin juzu juz va varaq varaq maqtu' etib, burda-burda qilib zoe' qilibdurlar". Munis bu voqealha qida xabar berar ekan, asarki yirtib tashlaganlarni lanatlab, oxirida shunday arabiylar keltiradi: "Xudo yo xudovandi! Ushbuni kim toptagan bo'lsa, uling surriyotini qirq, surriyotdan mahrum qil". Qarang: Munis, Firdavs ul-iqbol, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshuposlik instituti, qo'lyozmalar majmuasi, tartib raqami 5364, 134a 2-bet.

⁴ Xiva solnomalari haqida kengroq ma'lumot olish uchun quyidagi asarlarga murojaat etish mumkin: Material po istorii turkmen i Turkmenii, XVI-XIX vv. Iranskie, buxarskie i xivinskie istochniki, M.-L., Izd-vo AN SSSR, 1938; Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlar, Tosh., O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashrivti, T., 1960; SHer Muhammad Mirob Munis va Muhammad Rizo Mirob Ogahip, Firdavs-ul iqbol. Xorazm ptarixi. Qiyosiy-tanqidiy matn. Kirish (ingliz tilida) qismi muallifi va nashrga tayyorlovchi YU. Bregip, NYu-York. 1988 va boshq.

Xiva solnomalarida xonlikning tashqi siyosiy-diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalariga doir ma'lumotlarni jug'rofiy jixatdan quyidagicha izoxlash mumkin:

1. Turkiston qalamlaridagi o'zbek xonliklari - Buxoro va Qo'qon bilan olib borilgan aloqalar;
2. Yaqin va O'rta Shark, davlatlari - Turkiya, Eron hamda Afg'oniston bilan Yuritilgan munosabatalar;
3. Rossiya, qisman Britaniya Hindistoni bilan mavjud bo'lgan aloqalar.

Shuni ham aytib o'tish joizki, solnomalarda Yuqoridagi davlatlar bilan olib borilgan munosabatlar haqidagi ma'lumotlar, asosan, juda qisqa ravishda bayon etilgan bo'lib, voqealarning tafsilotiga keng to'xtalinilmagan. Masalan, ko'p hollarda Eron yoki Rossiyadan kelgan elchilarining nomi, ularning u yoki bu xon tomonidan qabul qilinganligi, ba'zan esa Xiva hukmroni tomonidan ularga bshtdirilgan munosabat aytib o'tiladi, xolos. Ammo tashqi siyosat bobida xonlar tomonidan amalga oshirilgan biron ta'siri ham muhim hodisa solnomalar mualliflari nazaridan chetda qolmagan. Bu hrl juda katta ahamiyatga molik bo'lib, yilma-yil bayon etilgan ana shu ma'lumotlar qiymatini dastlabki ishonchli manba darajasiga ko'targan. Agar biz xonliklarda mavjud arxiv hujjatlarinnng ko'ttchilik qismi bizgacha etib kelmaganligini hisobga olsak, tashqi aloqalar bobidagi ana shu ma'lumotlarning naqadar katta ahamiyatga molikligini darhol anglab olamiz. Shu bilan bir qatorda, solnomalar sahifalarida tashqi siyosatga oid ayrim masalalarning tafsilotiga ham duch kelamiz. Masalan, Ost-Indiya kompaniyasi elchisi Jeyms Abbotning Xiva xonligi gordaniga subsidiar shartnomani Yuklash, uni pirovard natijada Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylantirish niyatida qilgan safari va uning bu boradagi "taklifi"ga nisbatan bildirilgan qat'iy rad javobiga doir fikrmulohazalarning keng bayon etilganini ko'ramiz. To'g'ri, Jeyms Abbot missiyasi haqida Ogahiy "Riyoz uddavla" asarida quyidagi qisqa ahborot bilan cheklangan: "Ham ul yil (1255-1839-1840) zulqa'da oyining o'n beshida Hindistondan Haybat otlig' inglis elchisi kelib, oston bo'sliqg'a musharraf bo'ldi"¹. Ammo shu voqeа Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohi"da batafsil berilgankim, uni o'qigan har bir kishi ingliz mustamlakachilik siyosati nayranglari o'sha yillar Turkiston xonliklari osmonida ham qora ko'lanka tashlaganligiga bir daqiqa bo'lsada shubha qoldirmaydi. "Hindistondan, - deb yozadi Bayoniy, - Habbot (Abbot) sohib otlig' inglis Angliston podshohi tarafidan elchi bo'lib keldi. Nomasing mazmuni bu erdikim, ko'p zamondan beri Rossiya ahli sialar tarafga harakat etib, viloyatlaringizni olmoqni fikridur. Maqsadi (Rossiyaning) budurkim, tamomi Movarounnahrni va Xorazm va Xurosonni olib, Siyiston ustidan biz tarafga (Hindistonga) o'tgay. Rossiya podshohi bir ulug' podshohdurkim, aning lashkari va dastgohi ta'rifdin ortikdur. Sizlarda aning lashkariga muqobil bo'la olgudek quvvat yo'kdir. Kamoli g'olib budurkim, yana ellik yildan so'ng (Rossiya) sizlarning viloyatlaringizni olur. Agar xoxlasangizkim, viloyatingiz davom qo'lingizda turib, hech kimsa anga mo'taarrez bo'la olmag'ay, viloyatingizni xatlatib bizga (Angliyaga) bering. Xorazm inglis Yurti bo'ldi, degan so'z ishtihor topsun, andin so'ng bu xavfdin forig' bo'lursiz. Bizning sizga bu so'zimiz hasho kim nafsoniyat Yuzidin bo'lg'ay, balki maxzi do'stlikdurkim, g'arazimiz Rusiyag'a hind yo'lin bekitmokdur. Xatlashg'anda xohishingizcha shartnama yozduring, biz qabul etarmiz. Noma tamom, vassalom"¹.

Shundan so'ng Bayoniy Xiva xoni huzuridagi Devon majlisida bo'lib o'tgan munozaralar va inglizlarning surbetlarcha qilgan bu taklifiga berilgan qatiy rad javobi haqida shunday yozadi: "Vaqtkim Olloqulixon dedi: (Rossiya) alhol avval bizning ustimizga Yurush etgan emas, ellik yilgacha kim bor-u kim yo'q. Biz ellik yilda kelur ishning andishasi bila bu kun Yurtimizni qo'ldan birovga bermasmiz. Bizdan so'ngilar ne ish etmoqni xoxlar - etsunlar".²

Shu tarzda Xiva xonligini Buyuk Britaniya tasarrufiga olish maqsadida bu erga Yuborilgan ingliz "elchisi" o'z zimmasiga Yuklatilgan rasmiy vazifani ado eta olmasdan orqaga qaytishga majbur bo'ladi. "Habbot sohib, darig'kim bu ishda sizlarga ko'p foyda bor erdi, deb qaytib ketdi"³, deyiladi qo'lyozmada.

Xiva xonligi O'rta Sharqda Yuz bergen xalqaro voqealarni har vaqt hushyorlik bilan kuzatib borgan va ko'p hollarda ularda, o'z manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, faol ishtirok etishga harakat qilgan. Bunga solnomalar sahifalaridan juda ko'p misollar keltirish mumkin. Bu

¹ Bayoniy. Shajarayi xorazmshohi. O'zbekiston Respublikasi Fanpar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozmalar majmuasi, tartib raqami 9596, 301-bet.

² O'sha asar, 302-a bet.

mintaqadagi ana shunday xalqaro muammolardan biri, masalan, XIX asrda Eron, Afg'oniston va Angliya o'rtasida mojaro o'chog'iga aylangan va bir necha bor urush chiqishiga sabab bo'lgan Hirot masalasi bo'lgan edi. Afsuski, O'rta Osiyo xonliklarining bu masaladagi siyosati hozirgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib keladi.

Solnomalar esa Turkiston sarhadlariga tutash joyda ro'y bergan va bu yerdagi davlatlar xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan ushbu voqealarga Xiva xonligining munosabati hakdsa juda qimmatli ma'lumotlar beradi. 1837-1838 yillarda Hirot Eron hukmdori Muhammadshoh (1834-1848) tarafidan qamal qilinganda, Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) bu xabarni eshitishi bilan o'z vaziri Muhammad Yusuf mehtor raxbarligida Marv tomonga qo'shin yo'llaydi. Ayni vakdaa xon turkmanlarning taka qabilasi sardorlariga maxsus murojaatnama Yuborib, ularni birgalikda Eron qo'shinlariga qarshi kurashga da'vat etadi. Muhammad Yusuf mehtor Marvgaga etib kelgach, bu yerdan Abdurahmon xalifa, Rahmonberdi parvonachi va Mahmud To'qsabolar boshchiligidagi Hirot tarafida turish uchun harbiy bo'linmalar Yuboradi. Ular Shayx Ahmad Talqoniy maqbarasi yoniga joylashib, Hirot atrofidagi Xuroson ko'shinlariga qarshi janglarga qatnashib turadilar. "Riyoz uddavla"da yozilishicha, Xiva suvoriyari Xuroson voliysi Allayorxon Asaf bilan bo'lgan to'qnashuvda g'olib chiqadilar va ko'p o'lja va asirlar bilan orqaga qaytadilar. Tez orada Xivadap bu yerdagi harbiy kuchlarga madad tariqasida qo'shimcha ravishda Muhammad Soliq eshon, Qutbiddinxo'ja shayx ul-islom, Said Nazarbiy boshchiligidagi yana qo'shin Yuboriladi. Solnomada bu masalaga shu qadar katta e'tibor berilganligi va Xivaning ko'zga ko'ringan davlat hamda diniy namoyondalarining safarga otlanishi sabablari quyidagicha izohlanadi: "Bu jamoa azimatining sababi ul erdikim, chun Muhammadshoh Qojarning Hirot ustiga kelib, tashaddudi tamom bila muxosara qilgoni, barcha atrof va aknofda ishtixor topdi va jame' musulmon axdig'a baqadri hol say' va ko'shish ko'rgizmoqlozim, balki farz bo'ldi. Shahri Xivaq qozisi Muhammad Soliq eshon hazrat soxibqiron ostonasining mulozimi saodat nishonlarig'a arz qildikim: "al-on kufr Cheriki g'alaba qilib, Hirot mamlakatining ulusikim, musulmoni komil va iymon nuri bila ravshandildurlar, muxosara qilmish va mujodalalik ko'rguzmish. Ul jamoa jihatig'a jahd qilmoq va urushiga Yurish ko'rguzmak axdi fatvo rivoyati bilan jame' musulmon ahyaiq'a va ajibot jumlesi va farziyot qabilasidin bo'lgonin ko'rur".

Bu vaqt ichida mehtor Tajan takalaridan Muhammad Amin Yuzboshi va Xudoyberdi Yuzboshi hamda Axaldan Niyoz Muhammad Yuzboshilarning har qaysi 300 tadan suvoriyiga rahnamo qilib, Marv tomonlarga em-xashak va oziq-ovqat yig'ish uchun chopqin yasagan Eron harbiy dastalarini to'zg'itish, ularning karvon-larini qo'lga kiritishda katta muvaffaqiyat qozonadi. Bu holat o'z navbatida Hirotni qamal qilib yotgan Eron qo'shinlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, albatta. Xivadan yangi madad kuchlari etib kelgach, Muhammad Yusuf mehtor o'z qo'shinlarini yomud, imreli, solur va soruq turkman qabilalari Yuborgan harbiy bo'linmalar bilan yanada kuchaytirgan holda Hirot tomon yo'naladi va Yo'lo'tan istehkomiga kelib joylashadi. Solnomaning ma'lumoticha, Xiva qo'shinlarini choraymoqlar sardorlari - Shermuhammadxon, Zomonxon va Karim dodxoxlari qarshi oladilar. Ular bilan kelganlar orasida Komron shohning valiaxdi shahzoda Nodirxon va mufti Mulla Laqablar ham bor edi.

Ma'lumki, bu urushda Eron engiladi va Muhammadshoh o'z qo'shinlari bilan qaytib ketishga majbur bo'ladi. Ularning talafotida Hirot xalqining jasorati bilan bir qatorda inglizlarning Hirotden muhim strategik nuqtani Eronga topshirib qo'ymaslik siyosati ham katta o'rinn tutgandi. Ammo Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ushbu shaharning forslar qo'liga tushmasligida Xiva xonligi va u bilan ittifokda bo'lgan kuchlarning ham ahamiyati katta bo'lganligini ko'rsatadi. Buni yana shundan ham bilsa bo'ladiki, forslar chekingach, Hirot hukmdori Komron shoh zudlik bilan Marvda turgan Xiva xoni vaziriga elchi Yuborib, ana shu xushxabarni unga yetkazishga oshiqadi. "Shoh Komrondin, - deyiladi solnomada, - -tavotir rasmi bila vaziri sohibi tadbir qoshiga bu behjad asar va bu mujdai farxadsamar etishdi. Tahniyatguylik, muborakbodlig' rusumi bila o'z tarafidin kishi Yubormoqni ansab va ujib ko'rib, fazilatbaror, farosatintimo Shukrullo Og'oni elchi qilib va tansuq va armug'on tariqasida ming kalla qo'y va ming botmon g'alla topshirub, Hirot Yubordi".

1856 yilda esa, Eron qo'shinlari Hirot ustiga yana bostirib kelganlarida, Marvgaga etib kelgan Xiva xoni Muhammad Amin (1845-1856) o'z sarhadlari mudofaasi yo'lida qator tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, ushbu shaharga tug'ilgan xatarni oldini olishda uning hukmdoriga ko'mak

berish maqsadida nafaqat Hirot, balki Afg'onistonidagi boshqa hukmdorlar bilan ham uzviy diplomatik muzokaralar olib borgandi. "Xon hazratlari, - deb yozadi Bayoniya ana shu voqealar xususida, -Marvg'a min jazm etib va navkarlargal pul berib va tamomi og'a-inilarig'a va tamomi umaro va arkoni davlatlarga in'omlar berib buyurdilar: hama safar asbobini tayyor etsunlar. Muidin bir hafta o'tkandin so'ng tangriquli to'rani joynishin etib, otlanib chiqib, ohista-ohista ravon bo'ldilar, tokim tamomi lashkar izlaridin tushub jam bo'ldilar. Qiyoko'lining bir manziliga etib kelib erdilar. Maymananing xoni o'g'lini elchi qilib peshkashlar bila Yuborib erdi, ul erga kelib mulozimmatg'a etdi. Hirot shoxdsin ham bir elchi ko'p tuhfa va peshkashlar bila bir fil kelturdi va Kobuldin hamelchi keldi. Xon hazratlari buyurdilar: filni yasatib, ustiga qanor yopib, oning ustiga taxt qurub - borgohning oldiga kelturdilar"¹.

Bu parchadan yana bir narsa anglashiladiki, Hirot shaxriga nisbatan Eron uyushtirgan harbiy Yurishga qarshi bo'lgan kuchlar ichida Xiva xonligi sezilarli nufuzga ega bo'lgan va qushni hukmronliklar unga katta hurmat bilan qaraganlar.

Solnomalarda o'sha davr diplomatiyasi tarixida qaror topgan qator qonun-qoidalar haqida va ularga qatiy rioya etilganligi xususida ham g'oyat qimmatli ma'lumotlarga duch kelamiz. Bu sohadagi faktlar birgina Xiva xonligi tashqi siyosatiga doir masalalar tarixinigina emas, balki, umuman muslimon sharqidagi qator boshqa mamlakatlar diplomatiyasi tarixiga oid ayrim muammolarni tadqiq etishga ham imkon beradi.

Chunonchi, Xiva xonlaridan birontasi vafot topsa va uning o'rniga yangi xon tayinlansa, albatta, bu voqealarni munosabati bilan qo'shni va aloqada bo'lingan uzoq mamlakatlarga elchilar yo'llangan. Bu mamlakatlar hukmdorlari ham o'z navbatada ana shu elchilarga qo'shib vakillar Yuborganlar. Ular, birinchidan, avvalgi xon vafoti munosabati bilan o'z hukumatlarining ta'ziyasini izhor etgan bo'lsalar, ikkinchidan, yangi xonning taxtga chiqishini muborakbos qilib, unga valine'matlarining tabrik maktubi hamda sovg'a-salomlarini topshirganlar. Bayoniying yozishicha, Raximqulixondan (1843-1846) so'ng taxta chiqqan Muhammad Aminxon ana shu an'anaga muvofiq darxrl "atrof va aknoldag'i qal'a va baladalarning hukmronlarikim, muhabbatnomalar Yuborib yakjihatlikdin dam urar erdilar, barChalarig'a julusi xumaYunning e'loni uchun paygom Yubormoqni munosib ko'rib, har biriga bir kishini tahniyatnomaga bila Yubordilar, andog'kim Shukrulla Oqoni Tehronga Yuborib, andin Istanbulg'a bormoqni zam amr etib, shohga va halifag'a munosib tuhfa va peshkashlar berib, nomalar topshurdilar va Xo'qang'a Otaniyozbekni tahniyatnomaga bila Yubordilar, xoni mag'furning vafoti va o'zlarining juluslari axbori uchun Muhammad Sharifboyni Buxoroga Yubordilar"². Qat'iy qoidalardan yana biri shu bo'lganki, agar elchi Yuborilgan manzilga etib borguncha uni yo'llagan hukmdor vafot topsa, bunday elchining vakolati rasmiy kuchini yo'qotgan hisoblangan va uni borgan joyidagi hukmdor qabul qilmagan hamda u bilan hech qanday muzokaralar Yuritmagan. Bunday hollarda elchilar vazifalarini ado eta olmasdan orqaga qaytishga yoki chopar orqali maktub yo'llab, yangi hukmdordan o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat kelgunga qadar o'sha mamlakatda istiqomat qilib turishga majbur bo'lganlar. Bunga misol tariqasida Muhammad Aminxon tomonidan Turkiyaga 1855 yidda elchi sifatida Yuborilgan Shukrullo Oqo bilan Yuz bergan voqealarni keltirish mumkin. Ma'lumki, bu elchi xalifa huzuriga ravona bo'lishi bilan bir vaqtida Xiva xoni Seraks tomonga Yurish uyushtiradi va u yerda jangda halok bo'ladi. Bu xabarni elchi yo'lida eshitishiga qaramay o'z safarini davom ettiradi. Ammo Istambulda uni Xiva elchisi sifatida tan olmaydilar va u sulton huzuriga kiritilmaydi.

Shundan so'ng u Xorazmga maktub yo'llab, o'zining elchilik vakolatini yangidan tasdiqlanishini iltimos qiladi. Ogahiy "Gulshani davlat"da ana shu voqealar tafsilotini bayon etar ekan, Xiva taxtiga o'tirgan yangi xon - Sayyid Muhammad Bahodirxonning (1855-1865) Turkiya sultoni Abdulmajidga (1839-1861) maxsus maktub yo'llagani va unda Shukrullo Oqo vakolatini to'la tasdiq etganligini ta'kidlaydi. Solnomada buning isboti sifatida keltirilgan xon maktubida, jumladan, quyidagilar bitilgan edi: "Shukrullo Oqonikim, Muhammad Amin xoni marhumiyining amri bila Rum viloyatig'a marsul bo'lmish erdi, holo Islombul shahrida oliy janoblari xizmatida tavaqquf ko'rgizmishdur, o'z tarafimizdin vakil va elchi qilduq. Oning vakillik va elchiligin qabul etsunlar va Muhammad Aminxon marhumiy oqomizning Yuborgon nomasida harna so'z bo'lsa,

¹ Bayoni, Shajarayi xorazmshohi. 345-6-346-a betlar.

² O'sha asar, 326-a-326-6 betlar.

bizning ham so'zimiz shuldur, eshitsunlar". Ogahiyning yozishicha, "xalifa noma mazmunig'a muttale' bo'lg'ondin so'ng Shukrullo Oqoning elchiligin va Muhammad Aminxon jannat makonning nomasin qabul qildi. Va Shukrullo Oqoning martabasini burung'idin necha daraja baland etib, vazifasig'a ko'p zaru mol muqarrar qildi va Shukrullo Oqo g'oyatsiz masrur va xushhol bo'lib, bir necha ayyomni Xorazm azimati uchun ruxsat olmoq fikrida o'tkardi".

Ayrim hollarda elchilarga Yuklatilgan vazifalar haqida ham aniq ma'lumotlar keltiriladiki, ulardan o'zaro siyosiy aloqalarning darajasi haqida, ba'zi muhim tarixiy voqealar tug'risida to'la tasavvurga ega bo'lish imkonи tug'iladi. Masalan, "Firdavs ul-iqbol"da bayon qilinishicha, 1814 yilda Xurosonda2 Xivaga kelgan elchilarga xon o'z navbatida elchi qo'shib jo'natar ekan, u bilan birga qo'yidagi mazmunda xabar yo'llaydi: "Agar ellik va itoat izhorida sodiq bo'lsalar, kuz faslida inshoalloh ul tarafга azm etkumizdir. Agar el muxolif bo'lsalar, alar samtig'a nuhzat qilg'umizdir. Agar el bo'lsalar, Saodatqulixon yanglig' akobir va mo'tabar kishilardan ko'p kishi mulozimatga irsol qilib, zakot va xirojni kamo haqqahu Yuborsiilar"¹. Bundan o'sha yillarda Xurosonning shimoliy nohiyalari, jumladan, Seraxs va uning atroflari Xiva xonligi tasarrufida bo'lganligi va unga tobe joylar sifatida xiroj to'lab turganligi ma'lum bo'ladi. Yana bir misol. 1845 yili Buxoro amiri Nasrulloxon Xivaga Qo'chqorbek Mirohurni elchi qilib Yuboradi. Aftidan, amir Nasrulloxon Xiva hukmdori Rahimqulixonga yo'llagan o'z maktubida uning sha'niga tegadigan tarzda muomalada bo'ltan yoki ichki ishlariqa aralashish darajasvdagi takliflar yo'llagan. Bunga javoban Xiva xoni Qo'chqorbek Mirohurga o'z elchisi Raxmatulla Qorako'zni qo'shib Buxoroga jo'natar ekan, Nasrulloxonqa quyidagi mazmundagi maktubni topshirishni buyuradi: "Amir Nasrulloning muddaosi agar musolaha qilib borishmoq bo'lsa muxoriba maydoniga chiqsunkim, biz ham ul amrga muhayyo va madaddurmiz. Bu ikki ishning kaysisini ixtiyor qilsa, ul ishga bel bog'lasunkim, ikkisi ham bizning maqsadimizdur"².

Shu narsa diqqatta sazovorki, Xiva solnomalarida mualliflar u yoki bu mamlakatga xonlik tarafidan elchi qilib tayinlangan shaxslarning nomini atash bilan cheklanmasdan, ko'pchilik hollarda, ularning nasl-nasabi, tavallud topgan joyi, xonlikda egallab turgan mavqeい haqida ham ajoyib ma'lumotlar keltirib o'tadilar. Hoji Shukrullo Oqo, - deyiladi "Gulshani davlat"da, - Xorazm davlatining qadimiy davlatxoh umarosidin va sartiya tavoyifining korogoh kuborosidindur va aning mansha' va mavlidi Kot viloyatidir va vatan va maskani ham andadur va Muhammad Aminxon saltanati avoyilida oning amri bila elchi bo'lib Rum podshohi sulton Abdulmajidxon'a noma va tuhfa eltib, oning noma va hadyasin ham mazkur xonning oldig'a kelturmish erdi"³. «Jome' ul-voqeati sultoniy»da Eronga Yuborilgan navbatdagi elchi haqida esa quyidagilarni o'qiymiz: "Eron podshohi Muhammad shohniga Yuborgan elchisiga atabayi falak martaba mulozimlaridin donish va ixlos oroy Muhammad

Sharifboyni elchilik tariqasi bila hamroh qilib, muhabbat noma bila Eron mamlakatiga irsol ettilar"⁴. YOKI 1852 yilda Buxoroga Yuborilgan elchilarga shunday tafsif beriladi: "Umaroi sadoqat intisobdin Avaz Murod mirobkim, Qiyot dudamonining izzat maobi erdi, iltifoti podshohonadin Buxoro elchilishga nomzod bo'lmish erdi Kot akobiridin Otaniyozbek qo'ng'irotnikim, arkoni davlat aozimidin erdi, elchilik rasmi bila qo'shib, muvalafatnomai va savg'oti kiromiy topshurub Buxoro savbig'a irsol qildi". Albatta, zarur paytlarda xon devonidagi e'tiborli a'yonlardan har birida ham elchi sifatida foyda-lanilgan. Ammo xonlikning xorijiy aloqalari haqida solnoma-larda keltirilgan ma'lumotlardan shu xulosaga kelish mumkin-ki, bu yerda ma'lum tarzda o'ziga xos diplomatlar guruhi shakllangan. Chunki, Yuqorida nomlari zikr etilgan elchilar bir emas, balki bir necha martalab turli mamlakatlarga Xiva vakili sifatida safarbor etilgan va ularga har vaqt o'ta muhim davlatlararo muammolarni hal etish vazifasi Yuklatilgan. Masalan, Muhammad Aminxon tomonidan Turkiyaga elchi qilib Yuborilgan Hoji Shukrullo Oqo, Yuqorida ta'kidlanganidek, oradan ma'lum muddat o'tgach, yana shu mamlakatga Xiva vakili sifatida safarga otlantiriladi. "Muhammad Aminxon, - deb yozadi Ogahiy, - o'zining umri va sultanati ayyomining

¹ Bu yerda Seraxsdan kelgan elchilar haqida so'z boradi.

² Munis. Firdavs ul-iqbol. 186-a-b betlar.

³ Ogahiy. Jome' ul-voqeati sultoniy. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instiuti, qo'lyoshalar majmuasi, tartib raqami 9786. 188-bet.

⁴ Ogahiy. Gulshani davlat. 76-a-76-b betlar.

avoxirida, bars yili ta'rix hijriy 1271 da, rabiussuni oyining g'urrasida (dekabr 1855 — yanvar 1856) Shukrullo Oqoni o'z tarafidin vakil etib, haj savobin xrsil qilmoq niyati bila, baytulloh ziyorati va Rum safari uchun noma topshirub va yo'l xarojati uchun ko'p nakdu mol berib yana Rum viloyatig'a irsol qildi".¹ Solnomalardagi ana shu tarzdagi ma'lumotlar Xiva xonligi tashqi siyosatida muhim o'rinn tutgan qator o'zbek diplomatlari haqida va ularning faoliyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklarida, jumladan, Xivada chet davlatlarning doimiy vakolatxonalar bo'limgan. Boshqa qo'shni xorijiy sharq davlatlari, masalan, Eron va Afgonistonda XIX asrda G'arb mamlakatlari, chunonchi, Angliya,

Rossiya va Fransiyaning elchixonalari qaror topgandi. Ammo ana shu G'arb daalatlari poytaxtlarida Sharq mamlakatlarining doimiy elchixonalarini ochishga ruxsat berilmasdi. Ular fakat zarur hollardagina u Yurtlarga o'z elchilarini Yuborish bilan cheklanishardi. Bu xol diplomatiya tarixida qaror topgan mustamlakachilik siyosatining bir ko'rinishi edi.

Turkistondagi uch xonlikning o'zaro elchilik aloqalari tarixiga nazar tashlasak, ularning poytaxtlarida ham bir-birlarining doimiy vakolatxonalar bo'limgan, ammo o'zaro diplomatik bordi-keldilar izchil suratda amalga oshirilib borilgan. Bu munosabatlar faqat orada nizo qo'zg'algan paytlardagina uzib qo'yilgan. Odatta Buxoro yoki Qo'qon xonligidan kelgan elchilarga, albatta, Xiva xoni ham o'z diplomatik vakilini qo'shib jo'natgan. Bu yerdan borgan elchi ham o'z navbatida ularning elchilari hamroxlida vataniga qaytgan. Masalan, 1854 yilda "rabi'ussoniy oyining o'n uchida, dushanba kuni, Buxoro elchisi Abdulvohid Mirahurga Rahmatullo mahram kim, "Qora ko'z" laqabi bilan mashhurdur, elchilik Yusuni bila anga qo'shib, muhabbatnama topshurub Buxoro sari irsol qilindi". YOinki 1855 yidda «Qo'qonga mu'azzaz va mukarram kishisi O'rinxo'ja Mirasadni elchilik rasmi bila onga musohib qilib, tuhafoti loyiq va tansuqoti muvofiq va musodaqat nomayi topshurub, Xorazmi jannat bazm samtig'a irsol etdi»² va hokazo.

Ana shu tarzda xonliklar o'rtasida uzlusiz bordi-keldilarning amalga oshirilib kelinganidan, tabiiyki ularning poytaxtlarida har birining muqim elchixonasi va doimiy vakilining qaror topishiga extiyoj tug'ilman ko'rindi. Bu yerda o'zaro masofalarning yaqinligini ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Ammo Turkistondan tashqaridagi xorijiy davlatlar bilan bo'lgan aloqalarda bunday izchillikni ko'rmaymiz. U mamlakatlardan kelgan elchilarga ham elchi qo'shib jo'natish qoidasiga rioya qilingan. Ammo bu yerdan borgan elchi yolg'iz qaytib kelgan takdirda aloqalar ma'lum muddatga, ularga zarurat tug'ilgunga qadar uzilib turgan,

Solnomalardagi ma'lumotlarga qaraganda, elchilar poytaxtg'a kirish oldida xon tomonidan tayinlangan e'tiborli a'yon tomonidan kutib olingan. Xivada xorijdan kelgan elchilarning istiqomat qilishi uchun barcha sharoitlar hozir qilingan maxsus elchixonona bo'lib, chet ellardan kelgan rasmiy vakillar to o'z Yurtlarig'a qaytgunga qadar ana shu joyda yashashgan. Masalan, Bayoniy 1846 yilda Buxorodan Xivaga kelgan elchilar haqida ma'lumot berar ekan, jumladan, quyidagilarni yozadi: "Muhammad Aminxonning amri bila shigovulbek elchilarning oldig'a chiqib, e'zoz va ikrom ila kelturub elchixonaga tushurdi". "Gulshani davlat"da 1854 yilda Xivaga kelgan Buxoro elchisi haqida shunday yozilgan: "Buxoro podshohi Amir Nasrullohning elchisi Mirzo Qarovulbegikim, burunroq amiri mazkurnish muhabbatnomasin keltirub, Xivaq shahrida elchixonai humoyunda mutamakkin erdi hazrat sohibqiron umaroyi izom va kubaroyi fihom zumrasidin muqarrabi bargohi sultoniy, mahrami asrori nihoniy YAxshi Muhammad dorug'oni onga elchilik tariqasi bila Buxoro jonibig'a irsol qildi"³. Shu asarning boshqa bir sahifasida keltirilgan ma'lumotlar esa, Yuqorida ta'kid-langanidek, ana shu elchixonada hayot kechirish uchun barcha sharoitlar muhayyo bo'lganligini va xorijdan kelgan elchilarning maishati har vaqt xonning diqqat-e'tiborida turganligini ko'rsatadi. "1274 yil rabi'ussoniy oyining yigirma ikkisida (1856 yil, 9 dekabr), - deb yozadi Ogaqiy, -Buxoro elchisi Dovudxo'ja Miraxurboshi elchixonayi oliyg'a tushuruldi va o'z muddosidin afsunroq vazifa va qunuq etkuruldi".

Bunday maxsus elchixonalar Turkistondagi boshqa xonlik-larning poytaxtlarida ham mavjud

¹ O'sha asar, 121-6 bet.

² 1. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohi. 326-6 bet.

³ 1. Ogahiy. Gulshani davlat. 96-a bet. 2. O'sha asar. 135-a bet.

bo'lgan. Buni solnomalardagi quyidagi satrlardan bilsa bo'ladi: "Atabai gardun martaba davlat va iqbolhamdam Do'stniyoz maxramkim, elchilik tariqasi bila burunroq (1855 yil) Xo'qand viloyatig'a mursal bo'lmish erdi andog' kim, sobiqan tahrir topdi. Xudoyorxon (unga) podshohona navozish va pursishlar ko'rguzdi va elchixonai firdavsnishonag'a tushurub, ta'zim va takrimi kamoyanbag'i sa'i va ko'shish qildi".

Yuqorida keltirilgan ayrim parChalardan ko'rinish turibdiki, Xiva solnomalarida o'z aksini topgan tashqi siyosat masalalariga taallukli ma'lumotlarga tayangan holda XVIII asrdan to Rossiya Xiva xonligini bosib olgunga qadar (1873 yil) bo'lgan vaqt ichidagi ushbu xonlikning tashqi siyosati haqida ishonchli materiallar bilan birga, o'sha davrda O'rta Sharq mintaqasida vujudga kelgan murakkab vaziyat, mustamlakachi davlatlarning bu mintaqaga mamlakatlarini o'z tasarruflariga olish uchun Yuritgan siyosatlari haqida tasavvur hosil etish mumkin.

Bu yerda yana bir g'oyat muhim holni ta'kidlash lozimki, solnomalardagi Xiva xonligining tashqi siyosatiga oid ma'lumotlar Xiva xonlarining o'z tashqi siyosatlarida o'z davrida diplomatiya sohasida o'rnatilgan qonun-qoidalarga har vaqt qatiy rioya etib kelganliklarini ko'rsatadi. Rossiya, Eron va Turkiya davlat arxivlarida saklanib qolgan, Xiva elchilari o'z xonlari nomidan bu mamlakatlar hukmdorlariga olib borgan rasmiy maktublar ham buni isbotlab turibdi.

O'RTA OSIYO - ERON DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXIDAN

1."Safarnomayi Buxoro"da Eron-Buxoro elchilik aloqalari

1994 yili Texronda Eron Milliy Majlis kutubxonasi-(№1)ning qo'lyozmalar xazinasida sak^lanayotgan (№2860) "Safarnomayi Buxoro" asari chop etildi. Qo'lyozmani nashrga tayyorlagan tarixchi olim Husayn Zamoniy uni Qojorlar davlatidan "birinchi elchi" bo'lib Buxoroga kelgan zotning qalamiga mansub deb hisoblaydi¹.

Noshirning tadqiqotlaridan va risolaning mazmunidan u Muhammadshoh (1835-1848) tomonidan Buxoroga elchi qilib Yuborilgan Eron davlat arboblarkdan birining safar xotiralari ekanligi ma'lum bo'ladi. Qo'lyozmaning oxirgi sahifalari noqis bo'lganligidan (yagona nusxa) muallifning nom nishonini aniklashning imkonи yo'q va elchi Yuborilgan vaqt haqida ham biror aniq ishora qilinmaydi. Elchining vazifalaridan biri ingliz fuqarosi Jozef Vulfni ozod qilish bo'lganligidan, uning Buxoroga 1844 yili kelganini taxmin qilish mumkin. Zero, mazkur Angliya fuqarosi ayni shu davrda Buxoroda tutqunliqda edi. Matnda eslatilgan turkiy "tushqon yili" iborasi ham xuddi shu yilga to'g'ri keladi.

"Safarnomayi Buxoro" muallifi Buxoroga elchi bo'lib kelishdan avval Buxoro amiri "Eron davlatiga do'stlik va sadoqat ko'rsatib", Sayid Halil nomli zotni elchi qilib Yuborganini eslatadi va "Niso" surasining 86-oyatiga² ko'ra o'zining bu erga ravona qilinganini qayd etadi.

"Safarnomayi Buxoro"da ushbu shahar haqida turli xil ma'lumotlar: u erga boradigan yo'llar, yo'ldagi manzillar, beqatlar, ularning suv bilan ta'minlanishi haqida, har bir bekatda uchragan odamlar va taka, soruq, solur turkman qabilalarining joylashishi to'g'risida, davlat tuzumi, soliq yig'ish usullari va aholining urf-odatlari borasida eronli Yurishlarni qiziqtiradigan ma'lumotlar beriladi. Xususan, shunday fikrlar e'tiborni tortadi: "O'zbakiya ahlining avzoyi atvori, odamiyati, raftoru guftori, o'tirib-turishi, libosu taomi, aslan boshqa viloyatlarga dahli bo'lmagan tarzi va g'aroyib qoidalari bor". YOki "Amir (urushga) ketgandan so'ng besh kun o'tgach soliqchi kelib (xabar qildi). Abdussamadxon noib bilan askar, go'pxona va suvora kelishadi; ikki kun ichida vazir to'pxonaning tadorikini (ko'rsin) va Buxorodan va uning atrofidan Yuz ming tuman chog'lik pul yig'ib olinsin, deb topshirilgan. Ja'mini ikki kundan keyin yig'ib olishdi va har qachon qo'shin tortishni istab qolishsa va pulga zarurat tug'ilsa, Buxoro aholisi qarz unvonida unga pul beradi»¹. Unda Buxoro amirligida joriy bo'lgan diplomatik marosimlar - elchilarni qabul qilish, shoh yorlig'ini topshirish, sovg'alar taqdim qilish rusumlari, mehmonnavozlik urf-odatlari haqida ham

¹ Safarnomayi Buxoro (asari Muhammadshohi qojor) (1259- 1260h). Ba ehtimomi Husayn Zamoni. Tehron. 1373h.

² Alloh yo'lida kurash va boshqalarni ham qo'zg'at, ma'nosida,

ma'lumot beriladi.

"Safarnoma"da, shuningdek, Buxoroning o'z qo'shnilar -Qo'qon, Urganch bilan ziddiyatli munosabatlari, turkmanlar va Xuroson hokimlari bilan aloqalari, amirning inglizlarga ishonchhsizlik kayfiyati hamda Eron-Buxoro munosabatlari haqida ma'lumotlar yig'ilgan.

Eron elchisi asosan uchta vazifa bilan Yuborilgan edi:

- a) Buxoro hududida saqpanayotgan eronlik asirlar masalasi;
- b) Marv va turkmanlar masalasi va
- v) Buxoroda tutqunlikda bo'lган ingliz fuqarosi Jozef Vulfni ozod qilish.

Buxoro amiri tomonidan rasman qabul qilingan odat bo'yicha, sovg'a-salomlardan so'ng bir necha bor munozaralar bo'lib o'tgani va mazkur muammolar haqidagi muzokaralarning mazmuni bayon qilinadi. "Amir menda miltiq, shamshir, ingliz to'pponchasi, tilla soat va asboblar, tilla va kumushdan yasalgan choy va qahva idishlari borligini Halilxo'jadan eshitib, ularni ko'rgani bersin", debdi, degan jumladan Eronga Yuboriltan Buxoro elchisi Sayid Halilning Eron elchisi bilan birga qaytib kelgani ma'lum bo'ladi va Sayid Halil elchiligining vaqqi ham aniklanadi.

XIX asrning I yarmida qullar masalasi, asirlarni qul qilib sotish - o'sha betinch zamonning mudhish belgilaridan biri bo'lib qolgan edi. Bu odat faqat Buxorodagina emas, balki qo'shny mamlakatlarda ham mayjud edi. Hind sayyohi Mohan La'l Qunduzda (Afgoniston) bozorda qullar sotilayotganini ko'rgani, rus sayyohi I.P. Pashino esa Sori (Eron)da qullar bozori bo'lganligi haqida guvoxdik berishadi. Buxoroda keng tus olgan asirlarni (xususan, eronliklarni) sotishda islomning sunnii va shia mazhablari o'rtaсидаги ziddiyatlarning ta'siri ham rol o'ynar edi.

Buxoro amiri Eron elchisi bilan suhbatda asirlar haqdsiga gapirib, ularni sotish va xarid qilish qadim zamonlardan buyon ulamolarning fatvolari asosida davom etib kelayotgani va fuqaro ularni naqd pulga sotib olgani bois qaytarib bermasligini aytadi. Muayyan bir vaqt o'tib, Eron bilan ittifoq mustahkamlansa, o'zaro bordi-keldilar kengaysa, bu muammo ham o'z-o'zidan barham topadi, deb umid bildiradi amir.

Ikkinci masalada Eron elchisining Marv Eron mulki hisoblanadi, degan fikriga javoban Buxoro amiri u yerdagи ahvolning nihoyat murakkabligini tushuntiradi va Marv hokimi shahar aholisi talabiga ko'ra tayinlanganini aytadi. Soruq, solur va taka turkman urug'lari Buxoroga qarshi "muxolifat binosini tiklagan" Urganch hokimi bilan birgalikda Buxoro ustiga bostirib kelib, qirg'in uyushtirganliklari, keyin ularning boshliqlari Urganch hokimini o'ldirib, amirdan Marvga hokim tayinlashni so'raganlarini bayon qiladi. "Haqiqat shundaki, - deydi amir, - agar Marv avvalgiday obod bo'lmas ekan, u yerda na turkmanlar ra'iyat bo'ladi, na hokim (u qayerdan kelsada) uni boshqara oladi".

Uchinchi masala bo'yicha munozara ancha keskin kechadi, chunki bu masala inglizlarning Buxoroda, umuman, O'rta Osiyodagi, joususlik faoliyati bilan bog'liq edi.

Inglizlar Afg'onistonga bostirib kirkach, Hindistondagi ingliz gubernatori polkovnik Stoddartni Buxoroga jo'natadi (1838). Mulla Olim Mahdum uni ingliz hukumati tarafidan amir Nasrullo (1826-1860) huzuriga kelgan birinchi elchi deb hisoblaydi va uning fikricha, Stoddartning "istak va muddaosi amirni inglizlar tarafidan biror turli yomon niyat yo zarar keltirmaslikka ishontirib, boshqa davlatlarning, ya'ni Rossiyaning bu mamlakatlarga qasd va tajovuzlaridan saqlamoq va mudofaa etmoqni xoxlaganidan" iborat bo'lgan. Mulla Olim Maxdum inglizlarning bu niyatlarini "Movarounnahr xalqiga do'stlik va muhabbatdan bo'lmay, balki Rossiyaning Eron va Afg'oniston hududlariga yaqin kelishini xohlamaganidan edi", deb to'g'ri talqin qiladi, biroqbu elchilikning asosiy maqsadi O'rta Osiyo hududlarini o'rganish, ma'lumot yig'ish va xonliklarni o'zining beg'arazligiga ishontirib, ular bilan bitim tuzishga erishish bo'lganligini tushunib etmaydi. Inglizlarning asosiy maqsadi esa, "Buxoro lashkarini yangi qurol, tezotar to'plar bilan qurollantirish, harbiy muallimlar Yuborish va Rossiyaning xufya harakatlaridan Buxoro hokimlarini xabardor etib turishgina" bo'lmay¹, balki Afg'onistonga nisbatan amalga oshirilgan tajovuzdan so'ng bu yerda ham o'z mavqeini mustahkamlab olishdan iborat edi.

Amir Nasrullo uning harakatlaridan yovuz niyatlarini tushunib etgach, Stoddartni qamoqqa oladi.

¹ Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi. /992. 121-bet.

Stoddartni qutqarish va uning rejalarini davom ettirish maqsadida 1841 yili kapitan Konolli Xiva va Qo'qonga Yuboriladi. A. G. Serebrennikovning yozishicha, u "Xiva xoni orqali Stoddartni qutqarishga harakat qilish bilan birga, qushbegi va mehtar bilan shaxsiy uchrashuvlarida xivaliklarni Buxoroga qarshi urushga otlanadirish uchun har tomonlama harakat qiladi.¹ U yerdan Qo'qonga o'tib, xon bilan uchrashuvlarida Qo'qon askarlariga inglizlarning "harbiy usuli"ni o'rgatishni taklif qiladi. Ayni shu vaqtida Qo'qonga Yurish qilib kelgan amir Nasrullo uni o'zining o'rzasiga taklif qiladi va o'zi bilan Buxoroga olib ketadi. Bu yerda ham Konolli zimmasiga Yuklatilgan topshiriqlarni bajarish bilan shug'ullanayotganiga amin bo'lган amir uni ham qamoqqa oladi. Buxoro amiri Eron elchisi bilan suxbatda ularning kirdikorlari hakdda shunday degan edi: "Siz bilmaysiz, bu ikkalasi bizning davlatimizni xarob qilishga bel bog'lashgan. Goho qog'oz Yuborib Qo'qond xonini bizga dushman qilish harakatida bo'lishgan va ba'zan Urganch xoni bilan bordi-keldi maqomiga o'tib, ularni bizga qarshi adovatga ig'vo qilishgan va (bu yo'lida) qancha harajat qilsangiz biz to'laymiz deb ahd qilishgan".

Stoddart va Konollining hayotini saqdab qolish haqida Britaniya qirolichasining Buxoro amiriga yo'llagan maktubi ham, uning iltimosiga ko'ra Rossiya va Turkiyaning vositachiligi ham, Xiva xonining homiyligi ham samara bermaydi — ingliz zabitlari qatlga yetkaziladi. Bu haqda yozgan barcha tarixchilar amirning bu a'molini inglizlarning Afg'onistonda mag'lubiyatga uchrashi bilan bog'laydilar.

Bundan bexabar Angliya xukumati ularni ozod qilish uchun Eron vositachiligidan foydalanishga herakat kdpadi va Eron orqali Jozef Vulf nomli shaxsni jo'natadi. U Muhammadshoxdan omonnoma olib, 1844 yili Buxoroga etib keladi.

Stoddart va Konollini ozod qilishda vositachi bo'lib kelgan Jozef Vulf ham ularning Sherigi sifatida qamoqqa tashlanadi. Shundan so'ng Angliyaning Erondagi elchisi polkovnik SHeyl Muhammadshoxdan bu ishda shaxsan vositachilik qilishni iltimos kdpadi va shoh Buxoroga o'zining elchisini jo'natib, unga boshqa masalalar qatorida Jozef Vulfni ozod qilish vazifasini ham topshiradi.

Eron elchisi Buxoro amiri bilan suxbatda o'zining mamlakati bilan Angliya o'rtasida ittifoq borligini eslatib, qo'lila Eron shohidan omonnomasini bo'lган ingliz fuqarosi Jozef Vulfni izzatikrom bilan unga topshirish lozimligini basn qiladi. Bundan "Eron shohining rozi bo'lishi" va, aks holla, "podshohning xotiri ranjishiga" sabab bo'lishi haqida ogoxlantiradi.

Eron elchisi Buxoroda sakkiz haftadan ortiqroq istiqomat qiladi va u yerdagi ahvol haqida, amirning Samarqand, Xo'jand Yurishlari va shikast eb qaytganining tafsilotlari, amirning fe'l-atvori haqida hamda "shahar kezib yig'ilgan" boshka xabarlar borasida yozib, bir necha daf'a Mashhalga, Hoji Qosim Tehroniy nomli shaxsga Yuborib, u esa ularni shox saroyiga jo'natib turadi.

Shu tariqa Buxoroning ichki va tashqi ahvoldan xabardor bo'lib turgan shoh hukumati amirga yangi yorliq va elchiga maktub yo'llaydi. Elchiga Xuroson hokimi Osifuddavla tomonidan yozilgan va Mulla Kozim nomli shaxs olib kelgan maktubdan ma'lum bo'lishicha, shohning yangi yorlig'i Jozef Vulfni ozod qilish xususida bo'lган. YOrliqni o'qib chiqqan zamon amirning darhol ingliz sohiblari haqida gap ochishi ham ayni shu muddaoni tasdiklaydi. Amir aytadi: "YAshira olmayman, men ulardan tinch va xotirjam emasman; uni ham o'zining Sheriklariga qo'shsam (ya'ni qatlga yetkazsam — D.V.) deyman".

Amirning fikrini uning qo'shnilarini — inglizlarning niyatlaridan xabardor bo'lган Xuroson hokimlari ham qo'llab-quvvatlar edilar. Eron elchisi Buxoroda turgan kezlari bu erga Hirotdan, Shahrisabzdan, Hulumdan, Urganchdan elchilar kelib-ketgan edi. Amir e'tirof etishicha, Hirot hokimining elchisi YOrmuhammadxon olib kelgan maktubda Jozef Vulfni ham qatlga yetkazish taklifi bor edi.¹

Biroqamir, ehtimol, murakkab vaziyatda Eron bilan diplomatik aloqalarni sakdab turish maqsadida bo'lgandir, elchiga aytadi: "A'lo hazrat davlatining xohishi (shunday) ekan va Siz kelgan ekansiz, (mayli), Sizningcha bo'lgin - uni baxshida qildim, qaytayotganingizda o'zingiz bilan birga olib ketasiz".

Shu bilan birga amir - balki, biz ham sizga qo'shib Angliya davlatiga odam jo'natarmiz va

¹ Qarang: Muhammadjonov A. R., Ne'matov T. N. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabapglari tarixiga oid bazi manbapar. Tosh., 1957. 70-bet.

o'zimizning maktubimizni siz orqali berib Yuborarmiz, deb qo'shib qo'yadi. Biroq "Safarnoma"da bu haqda boshqa ma'lumot uchramaydi.

Shundan so'ng Eron elchisi eronlik asirlar masalasida ham qatiyat ko'rsatishga kirishadi. Amir bilan xilvatda olib borilgan musohabada Buxoroning ichki va tashqi ahvoldagi mushkulotlarini gasvirlab, elchi bunday sharoitda Eron bilan hamjihat bo'lish birdan bir to'fi yo'l, deb uqgiradi. Hamjihatlikning asosiy shartlaridan biri esa, elchi fikricha, eronlik asirlarni ozod qilish va bundan buyon ularni sotmaslik va xarid qilmaslik haqida farmon berishdir.

"Safarnomayi Buxoro" mazmunidan elchining bu taklifi Eronning harbiy qudrati mavqeidan turib aytigani ochikdan-ochiq ko'zga tashlanadi. Uning fikricha, "jang asboblari va quro-

yarokutar, to'p va miltiqlar, qurolxona va hokazolar shu qadar (ko'p) yig'ilganki, unga hech bir mamlakat bir soat ham bardosh berolmaydi". Elchi Eronning harbiy qudratini eslatib, u bilan ittifoqchi bo'lish lozimligini islom manfaatlari bilan asoslaydi: "Shunday davlat bilan do'stlik va hamjihatlik islomni baquvvat qiladi va kufrni mag'lub etadi".

Eron elchisi Buxoro amiri bilan suhbatda Eronning mavqeい va harbiy qudratini tavsiflashda ancha mubolag'a qilgan edi. Zero bu davrda Eron saroyi Angliyaning teng huquklı ittifoqchisi emas, balki uning kuchli ta'siri va tazyiqi ostida bo'lib, Angliyaning istak va talablarini bajarishdan bosh torta olmay qolgan edi. Masalan, Hirota qarshi urush olib borayotgan (1837-1838) Muhammadshoh, ayni Angliyaning talabi va tazyiqi ostida bir yil davom etgan Hirot qamalidan Yuz kechib, qaytib ketishga majbur bo'lgan edi. Bu urushda inglizlar Eronga qarshi Hirot hokimini qo'llab-quvvatlab, uni qurol bilan ta'minlagan, qal'a mudofaasini ingliz zobiti Pottinjer boshqarib turgan edi. Eronlik tarixchi Jamshid Kiyonfar bu hakda shunday yozadi: "Angliya davlati xirot hokimiga pinhona yordam ko'rsatish bilan cheklanmay haqiqiy basharasidan niqobini olib tashlab, Eronga rasman urush e'lon qildi va Eronning janubiy bandarlarini o'qqa tutdi".¹ Shundan so'ng Muhammadshohning inglizlar talabiga bo'ysunishdan o'zga iloji qolmagan va, mazkur tarixchi yozishicha, Muhammadshoh "Angliyaga qarshi tura oladigan qudrati bo'limganidan qamalni bo'shatib, ruhi tushib Texronga qaytgan edi".²

Sal o'tmay inglizlar Eronni teng huquki bo'limgan shartnomaga tuzishga majbur etadilar (1841) va Bandar Bushirda, Texronda, Tabrizda o'zlarining savdo agentliklarini ochishga va savdoda katta imtiyozlar olishga erishadilar. Oqibatda inglizlarning Eronga eksporti yildan-yilga importdan bir necha barobar ortiq bo'la boradi. Savdo aloqalarida balansning bunday buzilishi Eron xo'jaligini butunlay xarob qiladi: qishloq xo'jaligi tushkunlikka Yuz tutadi, paxtachilik, hunarmandchilik, umuman, an'anaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish inqirozga uchraydi. Oqibatda keng xalq ommasining g'azabi 1844 yili boshlanib, sakkiz yil davom epggan "bobiylar qo'zgoloni"da o'z aksini topadi. Bunday ahYul mamlakatning qudrati va Angliya bilan teng huquqli ittifoqdan guvohlik bermasdi, albatga. Eron shohi Muhammadshohning notavonligi haqida uning huzurida katta nufuzga ega bo'lib, maslahatchilik qilib turgan Rossiyaning muxtor elchisi I.O. Simonich ham guvohlik beradi. Muhammadshohning Hirot bilan urush boshlashiga o'zining qarshi bo'limganligini eslatib, u yozadi: "Agar bir yil avval men harbiy Yurish tarafdoi bo'ltan bo'lsamda, 1836 yilgi turkmanlar ustiga Yurishdan keyin shunga katiy iqror bo'ldimki, na yosh shoh, na uning vasiysi qo'shinga qo'mondonlik qilishga mutlaqo qodir emaslar. Men sodir bo'lajak oqibatni oldindan ko'ra biltan edim".³

Eron elchisi Buxoro amiri bilan suhbatda, tabiiyki, bular haqida gapirmagan va, aftidan, amir ham ulardan bexabar edi. Buxoro amirining xalqaro ahvoldan voqif bo'limganligi haqida "Turkiston tarixi"da ham o'qiyimiz: "U vaqtarda Buxoro umarolari orasida Rossiya bilan inglizning va ahvoli olamning nima ekanligini bilgan kishi yo'q edi". Bunday vaziyatda Eron elchisining so'zleri Buxoro amiriga kuchli ta'sir qilgani ajablanarli hol emas, albatga.

Oqibatda amir Buxoroning ichki va tashqi mavqeini va voqealar taraqqiyotini hisobga olib, Eron bilan zohiri diplomatiyani saklab qolishga qaror qiladi va "Safarnomayi Buxoro"da yozilishicha, "Hech kimni majbur etmagan va o'zleri xohish bildirgan hodda" Buxoroda bo'lgan asirlardan 300-400 kishini olib ketishga ruxsat beradi. Elchi yozishicha, go'yo amirning o'zi ham

¹ "Safarnomayi Turkiston" az d-r Pashino. Tarjimon Martiros Dovudxonov. Tehron, 1372h. 11-bet.

² O'sha asar, 12-bet.

³ Simonich I.O. Vospominaniya polnomochnogo ministra (1832-1838). M. "Nauka", 1967. s. 119.

30 ming tillaga sotib olgan mingga yaqin eronlik navkarlarini berib Yuborishga qarshilik qilmasligini bildiradi.

"Safarnomayi Buxoro"da ta'kidlanishicha, elchining tashabbusi va harakatlari oqibatida mingga yaqin asirlar yig'iladi va ba'zilari o'zлari nakd to'lab, ba'zilari uchun elchi haq to'lab ozod qilinadi.

Elchi jo'nab ketishi oldidan amirning xodimi uning nomidan hil'at va in'omlar olib kelib, mehmondor sifatida ularni CHorjo'ygacha kuzatib qo'yadi.

Amir Eron elchisi bilan Subhonqulibek nomli zotni sovg'a-salomlar bilan Eron davlatiga alchi qilib Yuboradi.

Eron elchisi u zotni, Jozef Vulfni va eronlik asirlarni olib, Buxoroni tark etadi.

Umuman, risolada elchi (muallif)ning siyrati juda yorqin ifoda qilinadi. U zimmasiga Yuklatilgan uchga vazifadan deyarli yarmini bajarishga noil bo'lган, garchi amirning bundan buyon eronliklarni sotmaslik va sotib olmaslik haqida farmon berishiga erisha olmagan bo'lsada, o'z vazifasini bajariisha u nihoyat ustomonlik bilan ish Yuritib, ochiq va pinhona imkoniyatlardan to'la foydalangan, deyish mumkin.

Xullas, Muhammadshoh davrida Buxoroga Yuborilgan Eron elchisining "Safarnomayi Buxoro" nomli qo'lyozmasining Texronda chop etilgani xayrli ishdir. U XIX asrning birinchi yarmida Eron bilan Buxoro munosabatlari tarixi haqida tasavvurimizni kengaytiradi va ikki davlat o'rtaсидagi diplomatik aloqalarining yana bir sahifasini yoritish uchun ma'lumotlar beradi.

Biroq, noshirning mazkur elchini "Qojorlar davlatidai Buxoroga birinchi elchi" deb atashi, fikrimizcha, yangi izlanishlarni taqozo etadi, zotan Fathalishoh qojor davrida ham Eron bilan Buxoro o'rtaсиda elchilik munosabatlari mavjud bo'lган - bu xakda amir Haydar maktublari guvoxlik beradi.

2. Buxoro—Eron diplomatik aloqalariga oid Amir Haydar maktublari

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro bilan Eron o'rtaсиagi munosabatlar bir qator sabablarga ko'ra yaxshi qo'shnichilik mavqeidan ancha uzoqda edi. Buxoro bilan Eron aloqalar o'tadigan Xuroson viloyati ustiga Tehron saroyi tomonidan tez-tez uyushtirib turilgan hujumlar va qurolli to'qnashuvlar; xonliklar o'rtaсиida sodir bo'lib turadigan urush va nizolar ikki davlat orasida tinch-totuvlik munosabatlarini o'rnatish yo'lida to'siq bo'lib qolgan edi. Ayniqsa, Buxoro bilan Eron o'rtaсиida joylashgan ko'chmanchi qabilalar goh u tomonga, goh Eron ustiga xujumlar uyushtirib, ularning samarasi sifatida asirlar olar va qullikka sotar edilar. Bu hol karvon yo'llarini, o'zaro bordi-keldilarni xavf ostida qoldirar va ikki o'rtaсиagi aloqalarini davlatlararo normal aloqalar iziga solishga halal berardi.

Shunga qaramay, tomonlar o'rtada tinch-totuvlik aloqalarini saqlab turish maqsadida elchilik bordi-keldilarini uyushtirib turar edilar.

Mazkur elchilarga taalluqli manbalar ko'p emas. Eron tarixchisi Husayn Zamoni yozganidek, "Eron bilan Buxoro aloqalarining matlabi manbalarda va tadqiqotlarda zikr qilinmaydi, faqat ayrim to'plamlarda Buxoro amiridan maktub kelganligi eslatiladi, xolos"¹.

Buxoroda ham, xuddi Eronda bo'lгани каби, amirning diplomatik yozishmalari mutnazam ravishda yig'ib borilmagan. Biroq amirning munshilari o'sha davrning rasmiy yozishmalaridan namuna sifatida uning maktublari, yozishmalari va yorliklarini to'plab majmualar tuzganlar va ulardan bir nechasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saklanadi¹.

Mazkur to'plamlar, umuman, ancha yaxshi o'rganilgan. Bir guruh olimlar (A.A. Semyonov, P. Ivanov, O. CHexovich, M. Abduraimov, A. Juvanmardiev, A. O'rинboev, R. Mukminova, A. Vildanova. I Fayziev, G. Ostonova, SH. Tilovov) bu majmualardan Buxoronish xo'jalik-ma'muriy tuzumi, er-suv munosabatlari, soliq tizimi va h.k. ga oid hujjatlarni tadqiq qilganlar va qilmoqdalar.

Buxoroning diplomatik aloqalariga oid hujjatlardan. xususan Buxoro amirlarining Hindiston podshohdari bilan yozishmalari I. Nizomiddinov tomonidan va "Amir Haydar maktublari" to'plami asosida Buxoro-Afg'oniston diplomatik aloqalariga oid ayrim ma'lumotlar B. Xo'jaeva tomonidan

¹ Safarnomayi Buxoro (asari Muhammadshohi qojor, 1259-1260). Ba ehtimomi Husayn Zamoni. Tehran. 1373 h.k, 9-bet.

chop etilgan¹.

Bu yerda shu paytgacha o'rganilmagan va XIX asrning birnnchi choragida Buxoroning Eron bilan diplomatik aloqalariga oid hujjatlar xususan, amir Haydar (1801-1826)ning Eron shohi Fathalishoh {1803-1833}ga yo'llagan maktublaridan biri atroflicha taxdil qilinadi. Chunki Muhammad Rizo Balxiyning "Maktuboti amir Haydar" nomli majmuasidan joy olgan amirning Fatxalishohga yozgan "Hazrat amir Haydar ba Fathalishoh, hokimi Eron navishtand"² sarlavhali bu maktubi hanuz to'laligicha tarjima qilinmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan. Vaholanki, u o'sha davrdagi Buxoro-Eron diplomatik munosabatlariga oydinlik kirituvchi muhim manbadir.

Yuqorida eslatilgan majmuadan joy olgan ushbu maktub asl nusxdan ko'chirmadir, uning yozilgan vaqqi yoki bositgan muhri haqida ma'lumot berilmaydi. Quyida maktub to'laligacha keltiriladi:

"Hazrat amir Haydar Eron hokimi Fathalishohga yozdilar: U³ podshohi (olamga) behisob hamdu sanolar munosibdirki, uning davlati hududlari yov xurujidan va mulklari fazosi dushman zarbidan mustasnodir.

Rasulullohning ruhi pokiga beedad duolar tuhfa bo'lsinki, payg'ambarlik yetakchiligi uning maqgovli zotiga ravodir. Unga, yaqinlariga va ashobalarining jam'iga Ollohnning salomlari bo'lsin!

Yaratganga sanolar va maqtovli (mahmud) yetakchi maqomidagi sultonga duolardan so'ng ko'ngil oinasida benazir bo'lgan podshoh - Jamshid' maqomiga munosib, lashkari Yulduzarcha sanoqsiz, oftob yangliq toj egasi, osmondek baland, Surayyo (YUpiter)dek martabalik, Bahrom (Mars)dek savlatlik, Keyvon (Saturn)dek Yuksak, Nohid (Venera)dek qobiliyatlik, Utgorud (Merkuriy)dek ziyrak, Jamshiddek shavkatli, Feridundek⁴ hashamatli, Dorodek⁵ posbon, Husravdek⁶ nishondor (belgilik), emni omonlik bisotini yoyuvchi, Eron mulklarining hukmdori, shavkatga tartib beruvchi, makdexv va jilolarga ehtiyoji bo'limgan, tavsif va bayonlardan Yuqori turuvchi, davlatini Olloh inoyat qilgan Fathalishohga yetkaziladi va ma'lum qilinadiki, hazratullo dargohining bu niyozmandi bundan avval hazrati xalifai islomdan kitob so'ragan edi. Mamlakatlar bezagi bo'lgan ul hukmdor iltifot va mehribonlik bilan hurmatli imomlar va buyuk mujtahidlarning - Olloh ularni rahmat qilsin! - bir necha kitoblarini Bag'dod voliysiga Yuborib, ul zotga kitoblarni bu tarafga yetkazishni buyurib-dilar. Mazkur voliy o'sha kitoblarni o'zining ishonzhli kishilaridan biri orqali bu tarafga yetkazdi. Elchi etib kelgandan va kitoblar topshirilgandan keyin, mazkur kitoblarni biz tarafga Yubortigan shahriyoriy zotini bu ma'nidan to'la xabardor qilmoq uchun lozim bo'ldiki, bu taraf ham o'zimizning davlatxoqlarimizdan birini a'lo hazrat xoqon saroyiga ravona qildik. Binobarin, imoratpanox, ikki sharkf maxramga xaj qilgan hoji Muhammad Sharifbeyn (ul zot davlatxoqlarimiz jumlasiga kiradi) mazkur elchi hamrohligida jo'natdik. Humoyun ko'rinish sharafiga musharraf bo'lgach, zoti oliyni duo qilib, maqsad manzili tomon shoshilsin. Ikki davlat bir davlat (dek hamdam) va boshqa hech qanday maqsadu muddaomiz yo'q. Bundan buyon oliv davlat o'rtasida oshnolik va bordi-keldilar yo'li ochiladi va Yaratganning xayriyati va marhamati tushadi. Boshqa gaplarni mazkur imoratpanoh og'zidan eshitasiz. Shahriyoriy davlatining quyuq soyasi uzun va davomli bo'lsin! Bu tarafga (ko'rsatiladigan) xar qancha izzat-ikromdan umid shuki, (Olloh taoloning) va'dasiga ko'ra, kim mening avlodimni siylasa, men uni ko'proq siylayman.

Duoda qolaman".⁷

Maktub Buxoro amirligi diplomatik yozishmalari uslubida nihoyatda mulozamat va mubolag'a bilan yozilgan. Unda Ollohg'a, uning payg'ambariga hamdu sanolar aytilgandan so'ng Fathalishoh

¹ Nizomuddinov I. YO. XU1-XUSH asrlarda O'rta Osiyo-Hindiston munosabatlari. T. Fan. 1968; Xodjaeva B. "O vzaimootnosheniyax Buxarskogo xanstva s Afganistanom v pervoy chetverti XIX veka" (po pismam amira Xaydara //Obshchestvennie nauki v Uzbekistane. 1990. № 7. s. 53-56.

² Muhammad Rizo Balxiy. Maktuboti amir Haydar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi SHI qo'lyozmalar xazinasi. Inv. №292. 156-166-betlar.

³ Qadimgi Eronning afsonaviy shohi, go'v uning davri bashariyatning oltin davri bo'lgan.

⁴ Firdavsiyning "Shohnoma"sida kuylangan afsonaviy shohlardan biri.

⁵ Ahmoniyalar davlatining (mil. av. XI-IVasrlar) mashhur podshohi.

⁶ 590-628 yillarda hukmronlik qilgan sosoniylar sulolasining shohlaridan biri.

⁷ Mazkur maktub "Amir Haydar Fathalipodshohga yozdilar" sarlavhasi ostida "Munshaot va yorliqot" to'plamiga ham kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi SHI qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 300. 22-a,b betlar.

ta'rifiga o'tiladi hamda uning saroyiga Yuborilayotgan elchilikning maqsadu sabablari haqida, elchi Hoji Muhammad Sharifbeyning amir saroyida tutgan mavqeい borasida tushuntirish beriladi.

Maktubdan ko'riniб turibdiki, ikki sharif maxram (Makka Yu Madina)ni haj qilgan Hoji Muhammad Sharifbey elchiligi asosan Turkiya sultoni saroyiga jo'natilgan bo'lib, uning oldiga yo'l-yo'lakay Eron saroyiga ham kirib o'tish, Fatxalishohgahurmat bajo keltirib, ikki o'rtadagi bordi-keldilar yo'lini ochish, so'ng maqsad manziliga ravona bo'lish vazifasi ko'yilgan edi. Hoji Muhammad Sharifbey elchiligi Turkiya elchiligiga javob tariqasida, aniqrog'i, Turkiya sultoni nomidan Bag'dod volysi Buxoroga Yuborgan va amir iltimosiga ko'ra islom ulamolarining bir necha kitoblarini yetkazgan elchilikka javoban o'sha elchi bilan hamrohlikda Yuborilgan edi.

Buxoro amirligi bilan Eron o'rtasidagi munosabatlarda, Yuqorida eslatilganidek, eng o'tkir masalalardan biri - qullar masalasi bo'lib, u davlatlararo aloqalarining rivojiga to'siq bo'lib turardi. Na Buxoroga va na Eronga bo'ysunmagan ko'chmanchi qabilalar karvon yo'llarida va chegara bo'ylarida olomonlar va talon-torojlar uyuştirib, odamlarni haydab ketar va Buxoro yoki boshqa shaharlar bozorlarida qullikka sotardilar. Bunday mudhish savdodan ham sotuvchilar, ham oluvchilar manfaatdor bo'lganligidan unga barham berish qiyinlashar edi. Bu muammoning ijtimoiy-siyosiy mohiyatidan tashqari, g'oyaviy asosi ham mavjud bo'lib, u sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi tafovutlar bilan belgilanar edi. Masalan, amir 1844 yili Buxoroga kelgan Eron elchisi bilan suhbatda mazkur masala bo'yicha izoh berib, shialarni asir olish, sotosh va sotab olish kabi amallar o'tmish ulamolarning fatvolari asosida olib boriladi, degan edi.

Ikkinci taraf bunday fikrni bahsli deb hisoblashi sababli hamda ikki davlat o'rtasida tinch-totuvlik aloqalarini o'rnatish maqsadida Buxoro amiri vaqt-i-vaqt bilan Turkiya sultoni (xalifai islom)ga elchilar Yuborib, masalaning shar'iyligini aniqlashga harakat qilar va uning talqini uchun lozim bo'lgan kitoblar ulug' ulamolar va buyuk mujtahidlarning asarlarini Yuborishni iltimos qilar edi. Bu vazifa 1228 h. k. (1813) yili amir Haydar Eronga va Turkiyaga Yuborgan Ali Riza elchiligiga ham topshirilgan,¹ Hoji Muhammad Sharifbey elchiligi ham shu masala bilan bog'liq edi va undan keyingi elchiliklar davomida ham bu muammo bahs etilar edi.

Shunga qaramay, amir maktubida ikki davlat o'rtasida hech qanday g'araz yo'kligi, ular bir davlat (dek hamdam) ekanligiga ishonch va bundan buyon oshnolik va bordi-keldilar yo'li ochilajagiga umid bildiriladi. Shu bilan birga, Buxoro amiri yozishmalarida qabul qilingan taomilga ko'ra, elchiga og'zaki. Fors tilida yozilgan maktubda "elchi", "ko'rinish berish" kabi turkiy so'zlarning qo'llanilishi kuzatiladi.

Hoji Muhammad Sharifbey Fathalishohga amirning maktubini olib borish bilan birga Eron vaziri Mirza Shafe'ga Muhammad Hakim qushbegining xatini ham olib borgan edi.² Bu maktub "Muhammad Hakim qushbegi ba Mirza Shafe' vazir navishtaand" sarlavhasi bilan "Munshaot va yorliqot" to'plamiga ham kiritilgan.

Qushbegi maktubida Hoji Muhammad Sharifbey elchiligi va amir maktubidagi ma'lumotlarga izoh beriladi. Qushbegi Buxoro amirining "diniy mushkulotlar va zarur masalalarni xal qilish uchun" xalifai zamon hazratlaridan mo'tabar islom imomlari va ulug' mujtahidlarning bir necha jill kitoblarini so'ragani va xalifa talab qilgan kitoblarni "marhamatnomा" bilan birgalikda Bag'dod voliysiga Yuborib, unga kitoblar va maktubni amirga yetkazishni buyurgani haqida yoziladi. Qushbegi maktubida Bag'dod voliysi bu kitoblarni o'zining yirik a'yonlaridan biri bo'lgan Basraning sobiq daftardori (hisobchisi) Hasan Chalabiy orqali Yuborgani aytildi. Mazkur elchiga Hoji Muhammad Sharifbey hamrohligida Yurtiga qaytishga ruxsat etilgani va qadrdon do'st Surayyo maqom Yuksak shohga javohirlar bilan nozik bezatilgan yashma kosa sovg'a qilib Yuborganini eslatadi. Mazkur elchilar etib borganda (ularga) munosib mehmonnavozlik va musofirparvarlik ko'rsatib, Bag'dod tomon jo'natib Yuborish haqida iltimos qilinadi.

Demak, qushbegining Eron vaziri Mirza Shafe'ga maktubi amir Haydar maktubidagi ma'lumotlarni tasdiqlagan holda unda amirga Turkiya sultonidan kitoblar bilan birga "marhamatnomা" ham kelgani, ularni olib kelgan elchining nomi va unvoni (Basraning sobiq daftardori Hasan Chalabiy) va Buxoro amirining Eron shohiga Yuborgan sovg'asi (javohir-lar bilan

¹ Qarang: "Eron". Maqolalar to'plami. Tosh., Fan., 1977. 103-114 betlar.

² I. Muhammad Rizo Bayaxiy. Maktuboti amir Haidar. O'zR FA SHI qo'lyozmalar xazinasi. Inv. №292. 146-150 betlar.

bezatilgan yashma kosa) hamda elchilar shoh saroyini ziyorat qilgandan so'ng Bag'dodga yo'l olishi haqidagi ma'lumot-lar ayon bo'ladi.

Amir Haydar maktubining yozilgan vaqt va Hoji Muhammad Sharifbey elchiligining sanasi esa arxiv hujjatlari asosida aniqlanadi.

Orenburg oblast davlat arxivida saklanayotgan ushbu chegara-bo'yi shaharning general-gubernatori P. Esseining Rossiya tashqi ishlar ministri K.V. Nesselrodega yo'llagan maktubida' Turkiya sultoni Buxoro amiriga qimmatbaho kitoblar Yuborgani va unga javoban amir o'zining a'yonlaridan bo'lgan Mirza Hojini Turkiyaga elchi etib Yuborayotgani hamda Konstantinopolga ketayotgan amir elchisi Eron orqali o'tib, shohga ham maxsus maktub va sovg'alar olib ketayotgani ma'lum qilinadi.

Mazkur qujjat o'zining shu jihat bilan ahamiyatliki, u Hoji Muhammad Sharifbey elchiligining sanasi hamda amir Haydarning Eron shohi Fathalishohga maktub yozgan vaqtini aniqlash imkonini beradi. General-gubernatorning graf Nesselrodega 1819 yil 24 may kuni yozgan maktubida Mirza Hoji elchi sifatida 1819 yil 4 martda jo'nab ketgani qayd qilinadi. Demak, Turkiya elchisi Buxoroga 1819 yilning boshida kelgan bo'lib chiqadi.

Umuman, Buxoro amiri Eron va Turkiyaga Yuborgan Hoji Muhammad Sharifbey boshchiligidagi elchilik hamda shu munosabat bilan Fathalishohga yo'llagan maktub va sovg'a-salomlar XIX asrning birinchi choragida Buxoro va Eron o'rtasida tez-tez sodir bo'lib turgan ziddiyatlar sharoitida ham diploma-tik aloqalarni saqlab turish va o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf qilishga intilishlar ikki o'rtasidagi elchilik munosabatlarida o'z aksini topganidan dalolat beradi.

3. Lolaboshining Xorazm safari

Eron-Turkiston munosabatlari juda qadim tarixga ega. Bu ikki sarzamin bir-birlarining iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Turkistonda XVIII asrga kelib takomillasha boshlagan uch mustaqil davlat

- Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari davrida o'zaro aloqalar tarixida O'rta Sharkda o'sha vaqtlar vujudga kelgan murakkab siyosiy vaziyat ta'sirida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Eronning Xuroson viloyati shimolidagi sarhadlar bilan tutashgan qator joylarning o'zaro janjalli masalaga aylanganligi ko'p jihatdan bu mamlakat bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi turli tarzdagi nizolarning tobora kengayib borishiga sabab bo'ldi. Bu hol, ayniqsa, XIX asrga kelib yanada keskin tus oladi. Turkman sahrosidagi siyosiy turg'unsizlik natijasida Turkiston sarhadlaridan Eronning shimoli-sharqiy viloyatlariga nisbatan talonchilik niyatida uyuşhtirilgan olomon chopqinlari odatiy tusga aylanadi. Har tomonlama ojizlinib borayotgan va G'arbdagi turli davlatlarning ta'siriga tushib qolgan Eron markaziy hukumati esa o'z sarhadlarini qo'riklashga imkon topolmay qoladi. Olomon chopqinlari natijasida O'rta Osiyo xonliklari bozorlarida qul savdosi avj olib ketadi.

Ammo ana shunday murakkab sharoitda ham Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari bilan Eron o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalar ma'lum tarzda davom etib borganligi ko'zga tashlanadi. O'zaro siyosiy-diplomatik munosabatlarda, tabiiyki, tomonlarni tashvishga solgan voqeliklar birinchi o'ringa ko'tariladi.

Umuman, bu davrga oid Turkiston xonliklari tashqi siyosatini o'rganish nafaqat ilmiy, balki tarixiy-siyosiy ahamiyatga ham molik muammolardan biridir. Bu davlatlarning tashqi siyosat sohasidagi hujjatlari: turli tarzdagi diplomatiya yozishmalari, xorijiy davlatlarga qilingan murojaatnomalar, do'stona yoki ultimativ mazmundagi maktublar, xonliklarga chetdan kelgan xatlar va javob maktublarining ko'pchiligi, bu davlatlarning arxivlari o'z vaqtida talon-toroj qilinganligi sababli, bizgacha etib kelmagan. Ammo Eron bilan olib borilgan munosabatlarga oid asosiy hujjatlar Texron davlat arxivi yoki bu mamlakatdagi shaxsiy kutubxonalarda saqlanib qolgan. Shunga asoslangan holda Eron tashqi ishlar vazirligi huzurida tashkil etilgan "Markaziy Osiyo va Kavkazni tadqiq etish markazi" so'nggi yillarda Eron-Markaziy Osiyo munosabatlariga doir qator hujjatlar to'plamlari, xonliklarga o'z vaqtida kelib ketgan Eron elchilarining safar taassurotnomalarini e'lon qilib kelmokda1. Bu xayrli ish, albatta. Ammo ana shu tarixiy manbalarni

talqin etishda, afsuski, ayrim hollarda ilmiylikdan chekinish hollari ro'y bermokda. Vaholanki, tarixiy voqealar faqat to'gri va xolisona baholangandagina haqiqat Yuzaga chiqishi mumkin. Bunga faqat bitta misol keltirish bilan cheklanmoqchimiz. Masalan, 1994 yilda Texronda Yuqoridagi Markaz tomonidan chop etilgan "Markaziy Osiyo yozishmalari" hujjatlar to'plamining kirish qismida quyidagilarni o'qiyimiz: "Bu nohiya (Turkiston) islomdan oldingi davrlarda oriyalar dastlab istiqomat qilgan mintaqalardan biri sanaladi"¹. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki bu yerda qadim davrlardan boshlab turkiy qabilalarning ham hayot kechirib kelganligi ilmiy jihatdan isbotlangan. "Hijriy X asr boshlarida (XV-XVI melodiy), - deyiladi o'sha joyda, - Eronda safaviylar sulolasiga qaror topgach, ushbu sarzaminning asosiy mintaqalari shoh Ismoil qo'l ostida qaror toldi va shundan so'ng ba'zi nisbiy o'zgarishlar bilan bu hol Nasriddin shoh Qojor (1848-1896) vaqtigacha etib keldi"². Vaholanki, safaviylar tajovuzi o'z vaqtida daf etilganligi va uzoqqa cho'zilmaganligi, qolaversa, o'tmish tarixda Eron sarhadlari bir emas, bir necha bor Turkistonda tarkib topgan davlatlar tasarrufida ham bo'lganligi hech kimga sir emas. XIX asr o'rtalariga kelganda esa, Yuqorida zikr etilganidek, Eron markaziy hukumati Turkiston qalamravidagi joylar u yokda tursin, hatto o'z chegaralarini qo'riqdashga ham qurbi etmay qolgandi.

Mana shunday bir holatda Eronda bobiyalar qo'zgoloni ro'y beradi. Bu qo'zgolon qator Sharq mamlakatlari, masalan, Xitoyda taypinlar, Hisdistossa sipohiyalar harakati bilan mazmunan o'zaro bog'liq voqelkk sifatida tarix sahnasiqa qalqib chiqqandi. Bu mamlakatlarda endi kurtak otayotgan bozor munosabatlarining asriy feodal turg'unlik bilan to'qnashganligi, uning ustiga, mustamlakachi G'arb davlatlarining hukmronligiga qarshi mahalliy aholining gurli tabaqalari orasida kuchayib ketgan norozilik kayfiyati ana shu qo'zgololarning Yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'lган edi. Erondagagi bobiyalar harakati tez orala bostirilgan bo'lsada, uning bevosita ta'sirida bu mamlakatda ijtimoiy-siyosiy x.ayotning ko'pgina qirralarini qamrab olgan islohotlar davri boshlanib ketgandi. Bu islohotlar shoh xukumati sadr a'zami Muhammad Taqixon nomi bilan bevosita bog'liq bo'lди. Bir vaktning o'zida u mamlakat harbiy kuchlarining bosh qo'mondoni bo'lganligi uchun uning islohotchilik faoliyati ko'pchilik adabiyotlarda "Amir Nizom islohotlari" yoki "Amiri Kabir islohotlari" iboralari bilan ham ishlatalidi.

Amiri Kabirning mamlakat ichki ahvolini yaxshilash, tashqi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan tadbir-islohotlari ichida uning "Turkman sahrosi", umuman, Turkiston xonliklariga nisbatan amalga oshirgan va hayotga tadbiq etilishi mo'ljallangan rejali alohida o'rinn tutadi. Bu tadbirlarning asosiy qismi Eronda uning bevosita rahnamoligida amalga oigirila boshlangan qator muhim islohotlar, chunonchi, davlat intizomini mustahkamlash, harbiy sohada chuqur islohotlar o'tkazish, iqtisodiy-moliyaviy masalalarni tubdan qayta ko'rib chiqish kabi tadbirlarning uzviy qismi edi. Amir Kabir Eronning shimoli-sharqiy nohiyalari - Xuroson, Astrobod va Seyistonda ichki tartib-intizomni mustahkamlashga qaratilgan bir qator masalalarga e'tibor berar ekan, dastlab Eron sarhadlarida va u bilan bevosita chegaradosh mintaqalarda istiqomat qilayotgan turkman qabilalari bilan markaziy hukumatning munosabatini yaxshilashga harakat qiladi. Erontarixchilariningta'kidlashicha, uning bu sohadagi urinishlari "katta muvaffaqiyat qozonadi". Ulardan biri - Odamiyatning yozishiga qaraganda, Marv vodiysining turkmanlari - solorlar "Eronni darhol tan olib, markaziy hukumatga bo'y sunishni ma'qul topadilar. Bu qabila xonlari - Shohmurodxon, Jahonmurodxon, Muhammad Anan, Arzabek, Ozodilkuy, Annamuhammad, Safarmuhammad, Ozor, Muhammad Murod, Azrozi, Elmurod va hatto Shohmurodxonning xotini ham amirning (Muhammad Taqixonning) taklifiga binoan Tehronga kelib yakdillik bilan shoh hukmronligini tan oladilar. Amir o'z navbatida ularga navozishlar ko'rsatadi va chegaralar xavfsizligini saqlash xususida maxsus ko'rsatmalar berib, 1265 (1849) yilning rabi-ul-avval oyida Marvg'a jo'natib Yuboradi"³. Shu muallifning ma'lumotlariga ko'ra, shundan so'ng "turkmanlarning yovmut qabilasi ham to'la ravishda Eronga bo'ysundiriladi va amir ularning e'tiborli kishilariga qimmatbaho sarpolar jo'natadi"⁴. Amir Kabirning bu sohada amalga oshirgan

¹ Esnodi az ravobashi Eron bo manotiqi Osiyoyi Markaziy, Markazi mutolioti Osiyoyi Markazi va Qafqoz. Tehron, 1994. 1-bet.

² O'sha asar, 1-2-betlar.

³ Odamiyat, Amiri Kabir va Eron. Tehron, 1969. 416-bet.

⁴ O'sha joyda.

tadbirlari o'sha paytdayoq "Turkman siyosati" nomini olgan bo'lib, u nafaqat turkman qabilalari boshlikutari bilan olib borilgan muzokaralar va ularga nisbatan berilgan turli tarzdagi imtiyoz va rutbalar bilan, balki, ayni vaqtda, qonli to'qnashuvlar yo'li bilan ham hayotga tadbiq etib boriladi. Masalan, Amirning goklan qabilasi bilan olib borgan muzokaralari hech qanday natija bermaydi, Turkmanlarning bu toifasi Eron shohi hukmronligini tan olishni istamaydi va rad javobini beradi. Bundan g'azablangan Amir Kabir 1849 yilning noyabr oyida Gurgon sahrosiga maxsus qo'shin yo'llaydi. 1849 yilning 3 dekabrida Qorashayx degan joyda fors muntazam qo'shnlari bilan goklanlar o'rtasida qattiq jang bo'lib o'tadi. Bu qonli to'qnashuv natijasida goklanlarning 5 ming kishidan iborat kuchlari talofotga uchraydi¹.

Bir vaqtning o'zida Amiri Kabirning ko'rsatmasiga muvofiq Eronning shimoli-sharqiyo nohiyalari chegaralarini, ayniqsa, Turkiston xonliklari sarhadlari bilan tutash joylarni harbiy jixagdan mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, Gurgon daryosining so'l qirg'og'ida Zadar, Elxon va Oq qal'a kabi mudofaa istehkomlari qad ko'taradi, Xo'ja Nafasda esa yirik harbiy qal'a qurilishi boshlab Yuboriladi. CHegara joylaridagi eski va Yuqoridagi kabi yangi istehkomlarda muntazam qo'shin bo'linmalari joylashtiriladi.

Albatta, Eron markaziy hokimiyatining mamlakat sharqi-shimoliy mintaqalari chegaralarini mustahkamlash, ayniqsa, ana shu mintaqalarda Eron va Turkiston xonliklari ta'siriga kirishni xoxlamagan erkin turkman qabilalarini Texronga tobe etishga qaratilgan "Turkman siyosati" ma'lum ijobjiy natijalar beradi. Ushbu tadbirlar birinchi galda Eronning ana shu nohiyalari aholisini qattiq tashvishga solib kelgan "olomon" chopqinlarining keskin suratda kamayishiga sabab bo'ldi. Ammo Eron tarixchilari bu boradagi Amiri Kabir islohotlariga baho berar ekanlar, ularning ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirib tavsiflashga xdrakat qiladilar. Masalan, "Voqeayi ittifoqiya" deb nomlangan bir fors manbasida uning muallifi "o'zboshimcha turkmanlar" ni Eronga tobe etish yo'lida Amir Kabir amalga oshirgan tadbirlar natijasida hatto 1-2 ta odam ham bemalol chegaralardan Astrobodgacha bexavotir kelib-ketadigan bo'ldi; agar turkman saxrosida bironqa sigir podadan adashib qolgudek bo'lsa, uni turkmanlar darhol tutib egasiga topshiradigan bo'ldilar"¹, deb yozgandi. Vahrlanki, boshqa ko'plab manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, "olomon" chopqinlari kamaygan bo'lsa ham, ammo mutlaqo to'xtab qolmagan, O'rta Osiyo xonliklaridagi qul bozorlari esa ishlab turgan.

Tabiiyki, Turkistondagi xonliklar, ayniqsa, "turkman masalasi"da ko'p jihatdan Eron bilan uzoq vaqglardan busi muxolifatda bo'lib kelgan Xiva xonligi Eron hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan ana shu tadbirlardan yaxshi xabardor bo'lgan. Marv viloyati uchun o'zaro kurash daYum etayotgan bir alfozda Amiri Kabirning "Turkman siyosati" Yuqoridagi tadbirlar bilan cheklanmasligi va u kelajakda yanada kengroq tarzda davom ettirilishi, bu siyosat Eron hukumati anchadan beri orzu qilib kelgan masala - Turkiston xonliklari mustaqilligiga rahna solish yo'lida amaliy qadamlar tashlashga olib kelishi mumkinligini ular sezib turardilar. Amiri Kabir esa bu boradagi o'z niyatlarini sir saqpashni lozim ham ko'rmasgandi. Chunki tez orada uning ana shu maqsadlarni o'zida aks eggirgan va Eron tarixchilari tomonidan "Amiri Kabirning Turkiston siyosati" deb nomlangan yo'l-yo'riqlari o'zini namoyon eta boshlagandi.

Turkistonning boshqa xonliklarida bo'lganidek, Eron tomonidan tug'ilgan jiddiy xavf-xatar Xiva hukmon doiralarida ham tashvishli voqelik sifatida muhokamaga sabab bo'ladi. Muhammad Aminxon (1845-1855) boshchiligidagi Devon bunday sharoitda Eron bilan bo'lgan munosabatlarni yaxshilash sari qadam tashlash, bu mamlakat hukumati uchun urush bahonasi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan omillarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga tayyor ekanligini izhor etish maqsadida zudlik bilan Tehronga e'tiborli elchilik Yuborish lozim, degan qarorga keladi. Bu elchilikka bir necha bor shunday mas'ul davlatlararo xizmatlarni ado etib kelgan va xonlikda katta nufuzga ega bo'lgan zukko diplomat Otaniyoz Mahram boshliq etib tayinlanadi. Xiva elchisi 1850 yil "rabi-us-soniy oyining eggisida boy sovg'a-salomlar, bir necha uchqur otlar va qimmatbaho ov qushlari" bilan Tehronga etib keladi va Otaniyoz Mahram shoh tomonidan qabul qilinib, Xiva elchisi unga o'z hukmdorining "do'stlik izhori bitilgan maktubini" topshiradi'. Bundan avvallari bo'lganidek, bu safar ham Xiva xoni Eron shohiga yo'llagan o'z maktubida unga do'stona ehtirom

¹ Odamiyat, 417-bet.

izhor qilib, ikki o'rtadagi birodarlik rishtalarini mustahkamlash. tarafdori ekanligini bildirgandi. Ammo fors manbalariga qaraganda, Xiva xoni Yuborgan elchilik, ayniqsa, Otaniyoz Mahram keltirgan maktub mazmuni bu safar nafaqat shohga, balki saroyda yig'ilgan barcha a'yonlarga qattiqtegadi. Yuqorida nomi zikr qilingan Eron tarixchisi Odamiyatning ta'kidlashicha, bunga sabab bo'lган narsa shu ediki, "Xiva xoni o'z xatida Eron shohiga xuddi teng hukmdorlardek muomala qilgan, o'zini mustaqil davlatning hukmdori sifatida tutgandi. Bu esa Muhammad Taqixon, ya'ni Amiri Kabirning rejalariga zid bir hol edi"¹. "Tarixi muntazami Nosiriy" muallifi bu voqeani bayon etar ekan, shoh hukumatining Xiva elchisi keltirgan maktubdan bo'lган noroziligi sabablarini yanada kenfoq izoxlashga harakat qiladi. Uning yozishicha, Xiva xonining Eron hukmdoriga bu tarzda muomalada bo'lishi qaram hokimlik va oliv hokimiyat o'rtasidagi qonun-qoidalarga xiлоf narsa bo'lib, Muhammad Aminxon Nasriddinshohga hech qachon "kichik podshoh katta podshohga xat yo'llagan tarzda o'zini tutmasligi kerak edi. Chunki, birinchidan, Xorazm davlati Eron davlatining bir qismi sanaladi, ikkinchidan esa, Eron hukmdorining Muhammad Aminga o'xshagan yigirmadan ortiq vassali bo'lib, ularning har biri Xorazmdan ko'ra kattaroq podshohlikni boshqaradi. Shu sababdan uning bu qilmishi podshohning viqorlik sha'niga yoqmadni, albatta. Shoh bir necha bor Xorazm tomonga qo'shin surish va u joyni Muhammad Amin hamda uning odamlaridan tozalashga jazm qildi. Ammo har safar Sadr a'zam uni sabr qilishga undab keldi, U shohga "Muhammad Aminxonga qarshi qo'shin tortish va Xivaga Yurish uyuştirish og'ir va sermashaqqat ish ekanini, chunki u tarafga olib boradigan yo'llarda na bir daraxt, na bir qultum suv yo'qligini, safarbar qilingan qo'shinni em-xashak va suv bilan ta'minlashga Xorazm ustidan qo'lga kiritilgan g'alaba tufayli olingan o'lya qoplamasligini izhor etib, "agar farmoni oliv bo'lsa, men qilich va nayzalar o'rniga qalam va barmoklarimni ishga solaman, qal'alarни qulatadigan zambaraklar o'rniga bir necha qatordan iborat bir maktub bilan Muhammad Aminxonning tayanch daraxtini ildiz-yildizi bilan qo'porib tashlayman, dedi"².

Bu masala shox saroyida uzoq muxrkamaga sabab bo'ladi, albatta. Xorazmga, umuman, Turkiston xonliklariga kdrshi qushin tortish tarafdorlari bilan Eron ta'sirini diplomatik muzoka-ralar orqali u joylarda mustahkamlash tarafdorlari o'rtasida ro'y bergen tortishuvlardan keyin tinchlik yo'li bilan harakat qilish siyosati ustun chiqadi. Bunda hozircha Eronning shimoli-sharqiy chegaralarda mo'ljallangan barcha rejalarining to'la ravishda amalga oshirilmaganligi, bunday sharoitda Texron dabdurustdan Turkiston xonliklari ustiga hujum uyuştirishga, ularga qarshi g'alabani ta'minlaydigan darajadagi harbiy kuch tashlashga tayyor emasligi asosiy sabablardan biri bo'lgandi, albatta. Har holda Tehron hukumati hrzircha Xorazmga e'tiborli elchilar yo'llash bilan cheklanishga qaror qiladi. Bu elchilikni tayyorlashga qariyb ikki oy hozirlilik ko'rildi. Bu vaqt ichida Xivaning Eronga Yuborgan Otaniyoz Mahram boshchiligidagi elchiligi Tehrondan jilmasdan shohning javob maktubini kutib turishga majbur bo'ladi. Nihoyat, ularga Rizoqulixon Lolaboshi³

¹ Odamiyat, 418-bet.

² Materialы по истории туркмен и Туркмении. II (бундан keyin -MITT). Moskva-Leningrad, Izdatelstvo AN SSSR, 1938. s. 259.

³ Amir ash-shuaro Rizoqulixon Hidoyat bin Muhammad - Xodi Tabaristooni 1800 yilda Tehronda tavallud topgan. Uning otasi mamlakat hukmdorlariga yaqin a'yonlardan bo'lib, dastlab Og'a Muhammadshoh Qojor (1779-1797) va bir necha muddat Fathalishoh (1797-1834) hukmronligi yillarida xazinachi lavozimida xizmat qilgan, so'ig shox tomonidan Fors viloyatiga xuddi shu vazifani ado etishga Yuborilgan. Otasidan vaqtli etim qolgan Rizoquli Barfurushdag'i qarindoshlari hamda Fors viloyatida o'gay otasi Muhammad Mahdixoi Shixna Mozandaroniy qo'lida tarbiya topdi. U dastlab Forsda Fathalishohliig o'gillaridai biri - Husayn Ali Mirzo xizmatida bo'ldi, so'ngro shohning taklifi bilan Tehrokga ko'chib, saroyda Xon va Amir ash-shuaro unvoniga sazovor bo'ladi. 1834 yilda Muhammadshoh pgaxsga chiqqach, SHerozga qayshib, shahzodalardan avval Feruz Mirzo, so'ng Faridun Mirzolar huzurida maslahatchi vazifasini bajaradi. Muhammadshoh 1839 yildagi Hirot Yurishidan mag'lub bo'lib qaytgach, uni saroyga chaqirtiradi va o'z valiahdi Abbas Mirzoga otabek qiyaib tayinlaydi. 1847 yilda u Feruzqul nohiyasiga hokim etib tayinlanadi. 1848 yilda Nasriddinshoh taxtga o'tirgach, Rizoqulixon ma'lum muddat davlat ishlaridan cheklanadi va asosan ijod bilan shug'ullanadi. 1851 yilda u shoh huzuriga chaqirshgib Xivaga elchi qilib Yuborilgan. Sakkiz oy davom etgan ushbu safardan qaytgach, uni Tehronda tashkil etilgan Dorulfununga rohbar etib qo'yishadi. U aia shu lavozimda qariyb 15 yidcha faoliyat ko'rsatadi. So'ngro valiahdi Muzaffariddin Mirzoga Lolaboish, yani otabek qilib tayiilaiadi va shu vazifani bajarish asnosida bir necha yil Tabrizda istiqomat qiladi. Rizoqulixon 1871 yil 1 30 iYunda Tehron shaxrida olamdan ko'z Yumgan. Rizoqulixon yirik Rizoqulixon olim, sho'ir va tarixnavis sifatida o'z davrida katta hurmat qozongan fors allomalaridan biri sanaladi. Uning qalamiga mansub bo'lган tarixiy asarning o'zi yigirmadan ortiqdir.

rahbarligidagi Eron elchiligi bilan hamrohyaikda o'z Yurtlariga qaytishga ruxsat beriladi. Shuni ham aytish kerakki, avvaliga do'q-po'pisalar bilan nihoyatda sovuq kutib olingen Xiva elchiligi yana qaytadan shoh saroyiga taklif etiladi va bu safar Otanisz Mahram hamda uning Sheriklari katga hurmat-izzatga sazovor bo'ladilar. Eron hukmdori ularga navozishlar ko'rsatib, sovg'a-salomlar bilan xushnud qiladi.

Shu tarzda 1851 yilning 5 aprelida Otaniyoz Mahram va Rizoqulixon Lolaboshi rahbarligidagi har ikkala elchilik Tehrondan yo'lga chiqib, Mozandaron va Astrobod orqali Xorazm sari ravona bo'ladilar.

Rizoqulixon Lolaboshining yozishicha, u boshchiligidagi elchilik zimmasiga quyidagi muhim vazifalar Yuklatilgandi:

1. Xonlikda asoratda bo'lgan barcha Eron fuqarolarini ozod qilishga erishish va ularni o'zlar bilan birga Eronga olib kelish;

2. Xonni Eron sarhadlariga uyushtirilayotgan olomon chopqinlarini man etishga qaratilgan maxsus farmon chiqqa-rishga majbur etish va musulmonlarni olib sotishni, ya'ni qulchilikni bekor qilishga majbur qilish;

3. Ushbu talablarni bajarishdan bosh tortilgan takdirda Eron bu soxada o'z maqsadiga erishish yo'lida boshk,a chora-tadbir-larni qo'llashga tayyor ekanligini ochiq-oysin bildirish;

4. Turkman sardorlari orasida ularni Eronga tobe etish uchun oshkora tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borish;

5. "Ko'rilgan va eshitilgan" barcha narsalarni bataysil yozib borish, joy nomlari, yo'llar, daryolar va buloqlar, qishloq hamda ovullar haqida ma'lumotlar to'plash;

6. Xonning nafaqat Eronga, balki barcha qo'shnilariga nisbatan Yuritayotgan siyosati va fikrmulohazalarini aniklash, uns Eronning qudrati bilan qo'rqtish, iloji bo'lsa, xonni Eronning siyosiy rahnamoligini tan olishga ko'ndirish¹.

Eron elchiligi oldiga qo'yilgan ushbu vazifalardan ko'rinish turibdiki, Tehron hukumati bu daf'a Xorazm diyoriga yo'llagan o'z vakiliga odatiy davlatlararo munosabatlarda kamdan-kam uchraydigan muhim va ayni vaqgda goyat qaltis masalalar echimini ado etishni topshirgandi. Xiva xoni oldiga ko'yilishi lozim bo'lgan ushbu talablar mustaqil davlat tomonidan ixtiyoriy suratda qabul qilinishi mumkin bo'limgan "taklif"lardan iborat edi. Bu talablar oxirida hatto sharoit taqozo etganda, xonni Eron tasarrufiga o'tishga ko'ndirish kabi fikr mavjudligi hisobga olinsa, ushbu elchilikning juda katta vakolat bilan jo'natalganligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. To'g'ri, Eron hukumati bu safar Xivaga elchi sifatida o'ta bilimdon, zukko va g'oyat tajribali kishini yo'llagandi. Ammo har qanday Yuksak rutbali dono elchi ham bunday do'q-po'pisaga asoslangan, boshqa bir davlatning mustaqilligiga taxdid soladigan vazifani birgina muzokaralar yo'li bilan amalga oshirishi mushkul bir hol edi. Buni Amiri Kabir yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham u Rizoqulixon Lolaboshi rahbarligidagi elchilik Eron chegaralaridan o'tib, O'rta Osiyo sarhadlariga qadam qo'yishi bilan Xiva xonini Yuqoridagi talablarni tan olishga majbur qiladigan qator qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi.

Dastlab, Amiri Kabir "ilgari turkmanlar orasida bir necha bor o'z shafqatsizligi bilan vahima solgan" Ja'farqulixon Qoracha Dog'iyni katta qo'shin bilan Astrobodga etib borib, chegara sarhadlarida shay bo'lib turishga buyuradi va ayni vaqtida Hisom us-Saltana boshchishshgidagi ikkinchi bir guruh qushinga Seraks sari yo'nalishga buyruqberadi. 1267 yil ramazon oyining o'rtalarida (1851 yil, iYun) turkmanlarning yovmut qabilasi va Xiva aholisi o'rtasida Astrobodga etib kelgan yirik harbiy kuchlarning Ja'farqulixon va Astrobod beglar begi - Muhammad Valixon rahbarligida Turkiston tomonga siljiyotganligi haqida mish-mishlar tarqaladi. Lolaboshining

Ular orasida Yuyat muhim sanalgan uch jildli "Ravzat us-safoyi Iosiri" aloxida ahamiyat kasb etadi. Bu asar Mirxonning mashhur "Ravzat us-safo" asarining davomi sifatida bitilgan bo'lib, uning birinchi jildida safaviylar Nodirshoh va uning vorislari haqida, ikkinchisida — Karimxon Zanddan to 1834 yilgacha yani, Muhammadshohning mamlakat taxtiga chiqishigacha bo'lgan davr voqealari va nixoyat, uchinchi jidda Muhammadshoh va Nasriddin shoh hukmronligi bilan bog'liq hodisalar qalamga olingen. Bu asarlarda Eronning eslatilgan hukmdorlari davrida ro'y bergen voqealar bilan bir qatorda bevosita muallifning tarjimai holi va siyosiy-ilmiy faoliyatiga doir ko'plab malumotlar ham mavjud. *Qarang: MITT, t. 2., 280-bet; Stori CH.A. Persidskaya literatura. Bibliograficheskiy obzor. Chast II. Glavnaya redaksiya vostochnoy literatursh. M., 1972. s. 982-983.*

¹ Rizoqulixon "Hidoyat". Safarnomayi Xavorazim. Tehron, Toxuri, 1978. 16-bet.

esdaliklarida ta'kidlanishicha, bu hol "Turkman saxrosi va Xiva xonligi aholisi orasida katta vahima va sarosimalikning ko'tarilishiga sabab bo'ldi". Elchilik gardaniga Yuklatilgan vazifaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun amalga oshirilgan ushbu tadbirlar, Eron hukumatining fikricha, muzokaralarda o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak edi. Kuchga tayangan siyosatning raqib tomonga bo'lган tazyiqini kuchaytirish maqsadida Yuqoridagi mish-mishlar Turkman sahrosi va Xiva xonligining turli joylarida ataylab tarqatilgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas edi.

Lolaboshi rahnamoligida Eron elchiligi jazirama qum sahrolarida ko'pdan-ko'p mashaqqatlarni boshidan kechirgan holda 1851 yil iYul oyida Xiva shahriga etib keladi. Ammo Eron elchisi bu erga kelgan kundan boshlaboq muzokaralarga kirishishni niyat qilgan bo'lsa ham bunga tuyassar bo'la olmaydi. Chunki Xiva xoni Muhammad Amin bu vaqtida poytaxtda yo'q edi.

Gap shundaki, Muhammad Aminxon o'z elchisi Otaniyoz Mahramni Tehronga jo'natgandan so'ng, bu erga Marv viloyatiga Eron taxdid solayotganligi xabari etib keladi. Marvni o'z tasarrufidagi sarhadlardan biri deb bilgan va bu viloyat uchun necha bor Buxoro xonligi bilan kurash olib borgan Xiva xoniga bu hol go'yo uning davlatiga qarshi Eronning hujumi boshlanganidek ta'sir ko'rsatadi. Bunday bir sharoitda xon darxrl Marv vodiysi tomon qo'shin tortishga jazm qiladi. Ikki oy mobaynida Xiva qo'shini Marvni qamal qilib tursada, ammo shaharni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'la olmaydi. Marvliklar o'z shaxarlarining yana bir bor harbiy kuchlar tomonidan talon-toroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun butun jon-jaxdlari bilan uni mudofaa qiladilar. Ikki oylik qamal natijasida Marv aholisi katga qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, ammo xivaliklar ham suv, oziq-ovqat tanqisligi hamda qulay sharoit yo'qligidan nochor ahvolga tushadilar, "em-xashak zaxiralari tugaydi, otlar va tuyalar ozib-to'zib ketadi".¹ Muvaffaqiyatsizlikdan ruhi tushgan Muhammad Aminxon noiloj orqaga qaytishga farmoyish beradi. Ammo xuddi shu paytda unga Xuroson voliysi Sulton Murod Mirzo boshchiligidida fors qo'shnlari Eronning shimoli-sharqiy sarhadlari tomon yo'lga chiqqanligi va Seraxs shahriga yaqinlashib qolganligi haqida xabar yetkaziladi. Xiva xoni ikki o't orasida qolgan edi. Shunday sharoitda Muhammad Aminxon shoshilinch ravishda atrofdagi turkman qabilalariga "qizilbosh kofirlarning musulmonlar ustiga Yurish qilganligi va ularga qarshi g'azotga ko'tarilish har bir musulmon uchun farz ekanligi" haqida xitobnama va maxsus xatlar yo'llaydi. Ayni paytda u, Seraxs shahri aholisining iltimosiga ko'ra, ularga o'z qo'shining yovmut va jamshidlardan iborat Mir Ahmadxon Jamshid qo'mondonligidagi saralangan qismlarini zudlik bilan yordamga yo'llaydi².

Bu orada Xuroson voliysi sulton Murod Mirzoning xufiya-lari unga qarshi kelayotgan Xiva suvoriyalarining qudrati haqida vahimali xabarlar keltiradilar va fors qo'mondoni o'z qo'shnlariga Seraxs ostonalalaridan zudlik bilan Mashhadga qaytish haqida buyruq beradi. Bundan ilhomlangan turkman qabilalari va jamshidlari 8 ming kishilik suvoriyalar bilan o'zlaridan ikki baravar ko'p bo'lgan Xuroson qo'shini ustiga shiddatli hujumga o'tadilar. Natijada sulton Murod Mirzoning muntazam armiyasi tor-mor keltiriladi. G'olib tomon ko'plab o'ljalar bilan birga Yuzlab fors sarbozlarini asir olishga muvaffaq bo'ladilar. Asirlar guruh-guruh qilinib Xivaga keltiriladi va xonlik bozorlarida qul sifatida sotila boshlanadi³. Tabiiyki, bu voqealarning barchasi Muhammad Aminxонни Xivada kutib o'tirgan Eron elchisi Rizoqulixon Lolaboshi ko'z o'ngida sodir bo'ladi, albatta. U o'z hukumatining Yuksak topshiriqlaridan biri - Xivada eronlik fuqarolarning asoratda utilishiga uzil-kesil chek qo'yish masalasining sulton Murod Mirzo talofati natijasida yanada murakkab tus olganligini tushunadi.

Ana shunday bir sharoitda Xivaga qaytgan Muhammad Aminxon va Eron elchisi Lolaboshi o'rtasida muzokaralar boshlanadi. Elchi xon qabulida bo'lar ekan, birinchi kundanoq o'ziga nisbatan u qadar katta xayrixdik sezmaydi. Chunki xon, birinchidan, Marv viloyatiga nisbatan Eronning ilinji tufayli katta sarf-harajatli Yurishni uyuştirib, undan muvaffaqiyatsiz qaytishga

¹ MITT, t. 2. 289-bet.

² MITT, t. 2. 288-bet.

³ O'rta Osiyo xonliklaridagi qullar tarixiga bag'ishlangan bir qo'lyozma asarda keltirilgan malumotlarga qaraganda, bu vaqtida Xiva xonligining o'zida qariyb 40 ming qul bo'lib, ularning aksariyati eronliklardan iborat bo'lgan. Qarang: Bekjon Raxmon o'g'li. Ozodnom. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik intstitutidagi qo'lyozmalar majmuasi, raqam tartibi 8956, 6-bet.

majbur bo'lgan ekan, buni Eronning o'z mamlakatiga nisbatan Yuritilayotgan ta'magirlik siyosati natijasi deb qarar, ikkinchidan, Erondag'i islohotlar tufayli qayta tuzilgan fors muntazam armiyasining engilmasligi haqidagi vahimali gap-so'zlar Sulton Murod Mirzo qo'shinining tor-mor keltirilishi natijasida chipakka chiqqan, bu borada Xiva asosiy tashabbuskor bo'lganligi uchun ham Muhammad Aminxon o'zini forslar ustidan g'alabani qo'lga kiritgan hukmdor sifatida tutardi.

Ikki o'rtada bo'lib o'tgan muzokalarlarning tafsilotlari Lolaboshining esdaliklarida birma-bir bayon etilgan¹. Afsuski, ular haqidagi ma'lumotlar Xiva solnomalari yoki bizgacha etib kelgan xonlik arxivi hujjatlarida uchramaydi.

Eron elchisi o'z tasurotlarida yozishicha, Xivadagi qullarni-ozod qilish masalasiga xon Eronning unga nisbatan dushmanlik niyatida qo'shin yo'llaganini ro'kach qilib, bunday bir sharoitda bu masala Yuzasidan muzokalarlarga o'rinn qolmaganligini shama' qiladi. "Biz Ali va uning farzandlariga,

- deydi xon, - katta ehtirom bilan qaraymiz. Nega eronliklar bizlarni bu oilaga nisbatan dushmanlikda ayblaydilar". Bunga javoban elchi "bu yerda asosiy sabab eronlik musulmonlarni qil qilishdadur"¹, deydi. Xon esa bu masalada asosiy ayb turkman qabilalarida ekanligini ta'kidlab, Eron

- Xiva chegaralaridagi qabilalar unga bo'y sunmasligini, ular qullarni keltirib, oltin evaziga Xiva bozorlarida pullashini aytadi. Lolaboshining ta'kidlashicha, u xondan ana shu qabilalarning Xivaga tobe emasligi to'g'risida rasmiy xat yozib berishini iltimos qiladi. Muhammad Aminxon Eron elchisining ustalik bilan o'rtaga tashlagan bu taklifiga javob bermaydi.

Eronlik qullarni ozod qilish masalasi Yuzasidan olib borilgan muzokalarlar asnosida Xiva xoni bu boradagi qatiy fikrini qonunlashtirib ham oladi. Shu maqsadda u masalani davlat devoni muhokamasiga havola qiladi. Devon qabul qilgan qarorda xonning rad javobi tasdiq etiladi. "Agar biz Eron elchisining talabini bajo keltirsak, -deyiladi unda, - forslar bizni Astrobod va Xuroson qo'shnlari tahdididan qo'rqqan hisoblab, har kuni Xivaga nisbatan yangidan-yangi majburiyatlarni Yuklayveradilar"²

Tabiiyki, Xiva asoratidan eronlik qullarni ozod etish masalasi hal bo'lmatash, elchi o'z hukumatining boshqa topshiriqlari haqida ochiq-oydin so'z Yuritishdan cho'chiydi. Uning yozganlariga qaraganda, Lolaboshi muzokalarlarda umumiylar tarzda bo'lsada, Xiva xonligiga Rossiya xavfi mavjudligi xususida fikr Yuritib, Eron bilan yaqinlik uni ana shu xatardan xalos etishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ammo uning bu boradagi mulohazalari ham e'tiborsiz qoldiriladi.

Shu tarzda Lolaboshi elchiligi o'z oldiga qo'yilgan bironta ham vazifasini ado etolmasdan 1851 yil sentyabr oyida orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Elchi xondan o'z Yurtiga kelgan yo'l bilan emas, balki Xuroson orqali jo'nashga ruxsat so'raydi. Bu yo'nalishni ham u o'z hukumati uchun izchil tavsiflash niyatida edi. Xivada Lolaboshining bu boradagi rejasini yaxshi tushunganliklari uchun unga yangi yo'nalish orqali safar qilish taqiqlanadi. Eron elchisi kelgan yo'li, ya'ni Astrobod orqali o'z Yurtiga ravona bo'ladi.

Xiva xoni Eron elchisiga o'z elchisi Muhammad Sharif Mahramni qo'shib jo'natadi. Bu haqda Ogahiy shunday yozadi: "Ul hazrat (Muhammad Aminxon) zulqa'da oyining o'n beshida payshanba kuni Eron podshohi Muhammad shohning Yuborgan elchisiga atabayi falak martaba mulozimlaridan donish va ixlos oroy Muhammad Sharifboyni elchilik tariqasi bilan hamroh qilib, muhabbatnoma bila Eron mamlakatiga irlar ettilar"³.

Xivaning navbatdagi elchisi Tehronga etib kelgach, avvalgilaridek, Eron shohiga sovg'a-salomlar bilan birga Muhammad Aminxonning maxsus maktubini topshiradi. Aslini olganda, xonning bu safargi maktubi hech jihatdan ilgarigilardan farq qilmasdi. Unda xon Eron shohiga yana teng hukmdor sifatida "birodar" deb murojaat qshtgan va har ikkala davlat o'rtasndagi do'stona munosabatlarni davom ettirish istagini izhor zotandi. Bu makgub haqsda to'la tasavvur hosil qilmoq uchun uning Eronda chop etilgan nusxasidan quyidagi ko'chirmani keltiramiz:

"Jalolat va saltanatning daraxshanda mexri, rif"at va maknat mexrining tarozanda sipehri, ablot

¹ Rizoqulixon Hidoyat, 62-bet.

² Rizoqulixon Hidoyat. 73-bet.

³ Ogahiy. Jami'ul-voqeoti sultoniy. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Berunii nomidagi Sharqshunoslik institutidagi qo'lyozmalar mazkmusi, raqam tartibi 9786, 188-bet.

va hukmronlik osmonining tobanda axtari, imorati komronliq ummonining daraxshanda gavhari, podshohi shavkatpanoh Nasrshshin shoh hamisha ravnaq afzoyi mamlakati Eron va liroi kalomi muvolot payom adosidan so'ngra malhuzi zamiri munir va makshufi xotiri muvoxot taxmir ulkim, bu ayyomi fursat anjom va hangomi bexjat farjomda ul maktubi sarosar uslubkim, mo'tamed ul atvor, sadoqat nishon Mirzoqulixon sahabati bila irsol qilib erdi. As'adi zamon va ovovda vosil va mazmuni tavaddud mashxuni mehr tanviri zamiri munirga hosil o'ldi. Chun shohi muhabbat ogohning firistodasi rusumi risolat domini saforatni takdimga etkurub murajaat istid'osin qildi, muraxxas qilub ixlos va e'tiqod taom Muhammad Sharif Mahramni anga qo'shib ul sovg'a rag'ona va ma'mur qilduq, tokim, anda borish ul muhabbat asar birodarning sihat va ofiyatmandlig'in ko'rib kelgay. Emdi mundin so'ngra hamvora fimbayni davlatayni oliyatayn elchi raft-omadi mutavorit va mutavoli o'lub, ikki tarafnrgng do'stliq va oshnolig'i izdiyodi darajayi sanniy g'adiyat har oina ittihof rishtasi doiman barqaror va mustahkam bo'lqusidir, ulkakim, til so'zumizdur va mushourun alayh Maxram sharafyobi xuzur bo'lg'och taqrir qilur mujibi sidikdur deb, zulqa'da oyining o'nlamchisi jum'a kuni bu muhabbatnoma marqum bo'ddi.

Assalomu alaykum, sana 1267' (1851 yil, 6 sentyabr)". Shunisi qiziqliki, xon o'z maktubida Eron elchisi Mirzoqulixonning, ya'ni Rizoquli Lolaboshining Xorazmga kelganligi, uni qabul etganligi va o'z navbatida Eronga "ixlos va e'tiqod tav'om Muhammad Sharif Mahramni anga qo'shub ul savbg'a ravona" qilgani haqida eslatib o'tgan bo'lsada, ammo ikki o'rtada olib borilgan muzokalar hamda ularning natijalari to'g'risida hech fikr bildirmagan.

Rizoqulixon Lolaboshi rahbarligidagi elchilikning natijasiz yakunlanishi Amiri Kabir va uning tarafdarlarini g'azabga keltiradi. Chunki ularning Xiva xonligiga nisbatan osongina amalga oshirilishi mo'ljallangan rejalarini barbod bo'lgan edi. Bunday sharoitda Amiri Kabir o'z "Turkiston siyosati"ning ikkinchi bosqichini amalga oshirishga kirishadi. Tez orada Xiva xonligiga qarshi qo'shin tortish tadoriklari ko'rila boshlanadi. Shu maqsadda mamlakatda qurolli kuchlar safiga qushimcha chaqiriq e'lon qilinadi. Ayni vaqida uning buyrug'i bilan Xurosonda harbiy bo'linmalar qaytadan kurikdan o'tkazilib, ular uzoq safarga shaylab qo'yiladi. Odamiyatning yozishicha, Amiri Kabir Seraxs, Marv, Hirot va Balhda Eron qukmronligini o'rnatib, Xorazm ustiga hujum uyushtirishga qat'iy kirishgan edi¹.

Ammo ana shu keng qamrovli, aslida xom xayoddan iborat bo'lgan o'z rejalarini amalga oshirishga qattiq bel bog'lagan Amiri Kabir uning islohotlariga qarshi kuchlarning qutqusi bilan to'satdan barcha lavozimlardan ozod etnladi. Nasriddin shohning buyrug'iga binoan u Koshonga badarga qilinib, o'sha yerda qatl etiladi². Ayni vakda uning Turkistonga hujum qilish Yuzasndan boshlagan barcha gadbirlarini to'xtatish haqida hambuyruq beriladi. Aftidan, Shoh hukumati Xuroson qushinining Seraxs ostonasidagi mag'lubiyatidan keyin Turkistonga qilinadigan harbiy Yurishning Eron uchun behuda ekanligini yaxshi tushungan edi.

O'RTA OSIYO VA ROSSIYA DIPLOMATIK ALOQALARIGA DOIR

1. "Elchiga o'lim yo'й" taomili nega buzildi?

Bu yerda biz XVIII asrning birinchi choragida Rossiya-Xiva munosabatlarida ro'y bergen bir voqeа haqida fikr Yuritmoqchimiz. Shunisi qiziqliki, ana shu voqeа tufayli har ikki tomonning elchilarini o'z vazifalarini ado etib turganlarida hayot bilan vidolashishga majbur bo'ldilar. Bunda Rossiya tomoni Xivani elchilik qonun-qoidalarini buzishda ayblagan bo'lsa, Xiva xonligi Sankt-Peterburgni "elchiga o'lim yo'q" taomiliga amal qilmaslikda ayblagan. Kim haq - u kim nohaq? Buni aniqlash uchun quyidagilarni inobatga olish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, Petr I Rossiyada harbiy imperiyaga asos solib, uning tashqi siyosati zamiriga boshqa Yurtlarga tax-did solish tamoyilini qo'ygandi. Qo'shni xalqlar sarhadlari hisobiga Rossiya chegaralarini kengaytirib borish uning asosiy mazmunini tashkil etardi. Uzlucksiz davom etgan urushlar mamlakat xazinasini quritganligi sababli imperator tinimsiz ravishda qo'shimcha mablag

¹ Ushbu maktub O'roz Muhammad Sorli kitobida to'la chop etiagan, 63-bet.

² Odamiyat, 42-bet.

axtarar, atrof mamlakatlarning harbiy quvvati va boyliklari haqida ma'lumot to'plash maqsadida turli tarzdag'i ekspedisiyalar tashkil etardi. Masalan, Sibir gubernatori knyaz Gagarin qalmiq shahri Erketi (Erke-ti) yaqinidagi Daryo degan joyda oltin qum koni borligi haqidagi xabarni yetkazishi bilanoq, Petr I unga zudlik bilan polkovnik Buxgols rahbarligida maxsus ekspedisiya uyushtirish va u joyga borib dastlab harbiy istehkom qurish, so'ng Zaysan ko'li tarafga Yurib barcha oltin zaxiralari aniqlash, ularni iloji boricha qo'lga kiritish, ya'ni bu joylarni Rossiya tasarrufidagi yerlar deb e'lon qilish haqida siperish bergandi. 1714 yilda Buxgols YAmish ko'li bo'yiga o'rashib, bir yil mobaynida bu yerda harbiy istehkom barpo qiladi va 1716 yilning baqorida Erketi tomon Yurish boshlash niyatida ekanligi haqida xabar yuboradi¹. Ammo rus imperatorining bu rejalar amalga oshmay qoladi. Qalmiqlar sardori Cheren-Donduk o'sha yildayoq Buxgols qurg'an harbiy istehkomni qurshab, agar u buzib tashlanmasa bu yerdagi barcha ruslarni qirib Yuborish niyatida ekanligini bildiradi. Istehkom vayron etilib, Buxgols orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida Sankt-Peterburg Turkiston sarhadlaridagi boyliklarni qo'lga kiritishning boshqa yo'llarini ham qidira boshlagandi. O'rta Osiyo xonliklariga Kaspiy dengizining sharqi qirg'oqlaridan suqilib kirish ana shu sohadagi asosiy rejalaridan biri edi. Shuning uchun ham bu masala Petr I Kaspiy siyosatining uzviy qismiga aylantirilgandi.

Gap shundaki, Petr I ko'pdan Kaspiy dengizini Rossianing ichki suv havzasiga aylantirish, uning qirg'oklarida harbiy tayanch nuqtalari vujudga keltirib, ularga tayangan holda bosqinchilik xurujlarini avj oldirishni maqsad qilib qo'ygandi. Bu boradagi rejalar juda katga edi. Ularning asosiy mazmuni "Petr I ning issiq dengizlarga chiqish haqidagi vasiyatnomasi"da o'z aksini topgan. Unga muvofiq Rossiya nafaqat Kavkaz, Eron, O'rta Osiyo, balki Hind yarim oroliga hamegalik qilishni mo'ljallagan edi. Hindistonga u vaqtida Rossiyadan asosan Eron orqali qatnalar va bu yo'l g'oyat darajada mashaqqatli sanalardi. 1716 yilda Hindistonga savdo ishlari bilan kelgan Andrey Semyonov bu yo'nalish haqida ma'lumot berish uchun Senat kanselyarisiga chaqirilganda, u o'z Sheriklari bilan Astraxandan kemalarda Nizavoyga, u yerdan otlarda XVIII asrning boshlaridan to 1758 yilgacha faoliyat ko'rsatgan Jung'oriya davlati bu vrlarda hukmron bo'lib, uning aholisi oyrat, uyg'ur va qirg'izlardan iborat bo'lган. O'rta Osiyolik mualliflar, keyinchalik ham Rossiya tarixchilari ularni qalmiqlar, deb ataganlar.

3. Petr I ning ushbu vasiyatnomasi ko'p yillar davomida o'ta maxfiy hujjat sifatida sir saqlanib kelingan. U birinchi marta 1775 iilda fransuz tadqiqotchisi Beon tomonidan Larijsa elon qilindi. Sovet tarixchilari Rossiya imperiyasining hujumkorlik siyosatini oqlash maqsadida uni soxta hujjat deb baholagan edilar. Qarang: "Pravda", 1980, 23 mart.

Shemaxa va Isfaxon orqali Bandar Abbosgacha borganligi, bu portdan Arab dengizi orqali Hindiston sohillariga o'tganligi haqida axborot bergandi. Bu yerda savdogarlar avval Buranpur (hind podshohlari qarorgohi), so'ngra Akra va Dexlida bo'lib, oradan 5 yil o'tgach Yuqornda eslatilgan marshrut bilan Rossiyaga qaytib kelgandilar¹.

Bu mashaqqatli yo'lni qisqartish, Hindistonga shimoli-sharqsagi mintaqalardan kirib borish uchun dastlab Turkisgon xonliklarini qo'lga kiritish lozim edi. Shu maqsadsa 1714 yildayoq Petr I Senatga quyidagi mazmunda farmoyish yo'llagandi: "Xiva va Buxoro xonlariga savdo niqobi ostida ekspedisiya Yuborish. Uning zimmasiga Erkettomonga Kaspiydai yoki unga yaqin biron joydan suv yo'li bor-yo'qligini akiqlash vazifasini Yuklash"². Ushbu farmoyishga muvofiq 1716 yilning boshida imperatorning yaqin a'yonlaridan biri - Kabarda knyazi Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ana shunday harbiy ekspedisiya tashkil etiladi.

Bunda Bekovich-Cherkasskiyning harbiy mahorati bilan birga uning Petr I buyrug'iga binoan bundan oldin Kaspiyning sharqiy qirg'oqlarini "o'rganib" qaytganligi va uni yozma tavsiflab bergenligi ham hisobga olingandi. Petr I bu ekspedisiyaga katta vazifalar Yuklaydi. Avvalo, Bekovich-Cherkasskiy Kaspiy dengizi sohilida ming kishilik fort -qal'a qurishi, so'ngra undan Xiva tomonga Yurib, Amudaryoning qadimda Kaspiyga oqqan o'zanini qidirib topishi (u yerda katta oltin zaxiralari bor, degan xabarlar tarqalgandi), daryoning Orolga oqadigan hozirgi o'zanini to'sishi va uni yana Kaspiyga yo'naltirishi, shundan keyin suv yo'li bilan Buxoroga Yurishi, undan

¹ Solovev S.M., Istorya Rossii s drevneyshix vremen, Izd-vo sos. - ekon. literatura. M. , 1963, kn. IX, s. 349.

² Lissov V.I. Persidskiy poxod Peshra I, 1722-1723, M., s. 73. 2. Solovev S.M. Istorya, n. IX, s. 349.

iloji boricha hind tomonga siljishga urinib ko'rishi lozim edi.

Bu ishlarning jo'ngina bitmasligini va ekspedisiya avvalo Xiva, qolaversa, Buxoroning qarshiligiga duch kelishini bilgan Rossiya imperatori Bekovich-Cherkasskiyga xonlar bilan muomala qilganda elchi sifatida ish ko'rishni uqtirali. Podshoh siperishiga muvofiq u Xiva xoni Sherg'ozixonning (1715-1728) taxtg'a o'tirishi munosabati bilan o'z imperatori nomidan muborakbod etishi va uni iloji boricha Rossiya tobelogiga o'tishga ko'ndirishi lozim edi. Buning evaziga u xonga 1000 kishidan iborat gvardiya ajratishi, ammo gvardiya bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni xon zimmasiga Yuklashi shart qilib qo'yilgandi. Agar bunga xon ko'nmasa, unda bir yil muddatgacha xarajatlarni Rossiya o'z ustiga olishi va keyingi sarflar xon tomonidan belgilanishi kerakligini uqtirish, bu ishlar bajarilgach, xondan kemalar olib daryo orqali Erket tomonga suzib borish va undan, Yuqorida ta'kidlanganidek, Hind taraflarga ham o'tish mo'ljallangandi. Rejaga muvofiq, Bekovich-Cherkasskiy Hindistongaporuchik Kojinni yo'llashi lozim edi. Poruchik Kojin savdogar niqobida "Buyuk mo'g'ullar" hukmdori huzuriga borishi, yo'llarning aniq rejasini tuzishi, ayniqsa, Kaspiydan Turkiston sarhadlari orqali Hindistonga o'tadigan (u vaqtarda shunday tushuncha bo'lган) suv yo'llari haqida to'la va atroflicha ma'lumot to'plashi shart qilib qo'yilgandi. Ayni vaqtida, Bekovich-Cherkasskiyga Xiva xonidan Buxoro hukmdorining ham Rossiya tabaasiga o'tish-o'tmasligi haqida fikrini bilish va bu masalada shunga rioya qilgan holda harakat qilish lozimligi Yuklatilgandi.

Bekovich-Cherkasskiy Petr I dan bu farmonni olgach, imperatorga murojaat qilib, O'rta Osiyo xonliklari Rossiya qo'ygan shartlarni tan olmagan taqdirda qanday harakat qilish kerakligini so'raydi. 1716 yil 13 mayda Petr I unga "Agar shartlarimizni qabul qilishmasa, hech bo'limganda do'stona aloqalarni o'rnatishga rozi bo'lishar, aks holda sen o'z yo'lingda harakat qilaver, bizning topshiriqqa muvofiq dengiz qirg'og'ida ikkita istehkom qo'rg'oni barpo qil-u, Amudaryoni Orolga burgan to'g'ONNI buzib tashla va daryo orqali Yuqoriga safarga otlanaver"¹, degan mazmunda javob qaytaradi. Bu esa kuchga tayanib belgilangan maqsadni hayotga tatbiq etaver, degan gap edi.

Berkovich-Cherkasskiy harbiy ekspedisiyasi uchun ajratilgan kuch-quvvat etarli darajada edi. Uning ixtiyoriga 4000 kishilik muntazam harbiylar, dengiz ofiseri poruchik Kojin rahbarligida suv inshootlari mutaxassislaridan iborat maxsus guruh, 2 injener, yoyiq kazaklaridan 1500 va greben kazaklaridan 500 hamda tajribali ofiser boshlichiligidan 100 ta dragun ajratilgan edi.

1716 yilning kuzida Bekovich-Cherkasskiy Volga daryosining dengizga quyiladigan joyidan kemalarda Kaspiyning sharqiy qirg'oqlari tomon safarga chiqadi va Tik Qaragan degan joyda istehkom-qal'a qurilishini boshlab Yuboradi. Undan janubga siljib, dengiz sohilidagi Qizil Suv (Krasnme vodm) nuqgasiga keladi va bu yerda ham harbiy istehkomga asos soladi. Bu ishlarni bajarib bo'lгach, u Xivaga qarshi Yurishga astoydil tayyorgarlik ko'rish maqsadida 1717 yil 20 fevralda Astraxanga qaytib keladi.

Oradan ko'p fursat o'tmasdan Bekovich-Cherkasskiy 1717 yilning bahorida Kaspiy dengizi qirgog'ida o'zi barpo etgan Tik Qaragan istehkomidan Xiva tomonga Yurish boshlaydi. Ammo harbiy ekspedisiya boshliqlari bu safarga tayyorgarlik ko'rар ekanlar, ular Kaspiydan Xivagacha bo'lган masofani bosib o'tishning haddan tashqari mushkulligini, bu joylarda o'qgin-o'qtin qo'zg'olib turadigan qum bo'ronlarining halokatli ekanligini, yo'lda suv masalasi asosiy mushkulliklardan biriga aylanishini to'la tasavvur qilmagan edilar. Natijada ekspedisiya Xiva yaqinida holdan toygan, parokanda bo'lган bir ahvolda paydo bo'ladi. Tez orada Rossiyada uning tor-mor etilganligi haqida xabarlar tarqaladi.

Rus tarixchisi S.M. Solovyovning yozishicha, yoyiq kazaklari safidagi tatar Axmetov Xivadan qochib kelib, u yerda Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspedisiyasi boshiga tushgan barcha voqealarni so'zlab beradi. Uning guvoxlik bergeniga qaraganda, Bekovich-Cherkasskiy 1717 yilning avgust oyida Xivaga olti kunlik yo'l qolganda Daryo deb ataluvchi oqar suv yaqinidagi bir ko'lcha atrofiga kelib joylashadi. Ko'lning old va yon tomonlarida bir kechadayoq tuprokdan istehkomlar barpo etiladi. Ertasi saharda Xiva askarlari bu erga etib keladilar. Xivadan kelgan suvoriy va piyodalar kamonlardan o'q uzib hujum boshlaydilar. Uch kun ichida kazaklardan talaygina kishi halok bo'ladi. To'rtinchi kuni xon Bekovich-Cherkasskiyga yarash taklifi bilan

¹ Edvard Olvort. Hozirgi o'zbeklar. O'n to'rtinchi asrdan bugungi kungacha. Madaniyat tarixi (ingliz tilida). Stanford, 1990, 98-bet.

odam Yuboradi. Uning nomidan kelgan xivalik e'tiborli vakillar rus askarlariga zarar yetkazmaslik va tinch kelishuvga amal qilishga va'da beradilar. Shundan so'ng Bekovich-Cherkasskiy sovg'a-salomlar bilan xon huzuriga tashrif buyuradi. Xon unga rus askarlarini barchasini birgina Xivaga joylashtirish va boshipana bilan ta'minlash qiyinligini aytib ularni bo'lib-bo'lib xonlikning oltita shahri xonadonlariga joylashtirish taklifini o'rtaga tashlaydi. Bekovich-Cherkasskiy bunga rozilik bildiradi. Shundan so'ng rus harbiylari to'pu to'pxonalari bilan bir necha guruxlarga bo'linib, Xiva askarlari bilan birgalikda belgilangan manzillar sari ravona bo'ladilar. Jumladan, Axmetov xizmat qilgan 240 kishilik yoyiq kazaklari ham ming kishilik Xiva suvoriylari hamrohligida belgilangan joyga jo'naydilar. Ular cho'lda birinchi kechani osoyishta o'tkazadilar. Ammo ertasi sahar paytida xivaliklar kazaklarni guruhlarga bo'lib, qo'l-oyoqlarini kishanlaydilar, buyumlari va otlarini tortib oladilar va asir sifatida qo'riqlab yo'lni davom ettiradilar. Axmetovni esa qo'yib Yuboradilar. U Xivaga kelib karvon saroyga joylashadi va u yerda rus askarlari safida bo'lgan qalmiq Baxshidan boshqa tafsilotlarni eshitadi. Qalmiq Baxshining hikoyasiga qaraganda, Rossiya tasarrufida bo'lgan qalmiq xoni Ayiq Bekovich-Cherkasskiy ekspedisiyasi boshlanishi arafasida Xivaga kelib ketgan va Xiva xoniga bu harbiy ekspedisianing asl maqsadi nimadan iboratligi haqida ma'lumot bergen. Bu hol Xiva hukmdorini o'z Yurtini saqlab qolish yo'lida qat'iy choralar ko'rishga undagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Qalmiq Baxshining ta'kidlashicha, Xiva xoni Sherg'ozixon rus qo'shinini olti bo'lakka bo'lib, o'z harbiylari ixtiyoriga topshirgach, o'zi knyaz Cherkasskiy bilan poytaxtgacha birga kelgan va unga safar vaqtida navozishlar ko'rsatgan. Ammo Xivaga kelgach, uni darhol qatl ettirib, kalla terisiga somon tiqtirgan va shahar darvozasi tepasiga osib qo'yishni buyurgan. U bilan birga kelgan Astraxan dvoryani Mixaylo Zamonov ham shunday jazoga loyiq ko'rilgan¹. Shu tarzda Rossiya harbiy ekspedisiyasi Xiva ostonalarida mutlaq tor-mor keltirilgan.

Xiva xoni Shergozixonning bu kurashda g'olib chiqishi va o'z Yurti mustaqilligini saqlab qolishda u ishlatgan harbiy hiyla, Yuqoridagi voqealardan ko'rinish turibdiki, unga katga imkon yaratgan. Aks holda tish-tirnog'igacha qurollangan va turli jangu jadallarda chiniqqan, Ovrupo harbiy uslubida ta'lim olgan bu muntazam qo'shinga Xivaning qarshi turishi, ayniqsa, uning ustidan uzil-kesil g'alabaga erishishi ancha mushkul edi. Bu to'qnashuvda xivaliklarning juda ustalik bilan harbiy hiyla ishlatib xavf-xatardan qutulib qolganliklari Xivada bitilgan tarixiy qo'lyozma asarlar saqifalaridan ham o'rinn olgan. Masalan, Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol"ida bu xikoyada quyidagilarni o'qiyimiz: "Tovuq yili o'russ to'ralaridan Davlat Girey va Andrey Gubernot o'ttiz ming o'ris bila Shayx Jalil tog'ikim oltin va kumush ma'danidur, aning orzusi bila balkim Xorazm fathining tamonnosti bila Orol hududiga nuzul qildi. Xon qo'ng'irot Qulmuhammad otalig' va nayman amir Avaz inoqni junudi noma'dud bila mudofaaga nomzod etti. Alar Davlat Girey bila gurgoshti qilib, ziyofat bahonasi bila a'doyi millati bayzoni meqmonxonayi asfala as-sofiling'a etkurdnlar.

Masnaviy:

*Agar ishing'a paysal bersa tadbir,
Na hojat tortmoq ul ishda shamshir.
Base mulk ochdi Skandar hiyal din,
Ki ochshshas erdi razmu
Jadapdin.
Bale tadbir erur davlat nishoni,
Qo'lidin bermas ahli davlat oni¹ "".*

Rossiya harbiy ekspedisiyasining Xiva ostonalarida tor-mor keltirilishi, tabiiyki, Peterburgda kagga shov-shuvga sabab bo'ldi. Rasmiy doiralarda "yovvoyilar"ni jazolash, Xivaga qarshi yangidan Yurish uyuştirish haqida fikr-mulohazalar bildirilisa boshlandi. Ikki o'rtadagi savdo-

¹ Munis va Ogahi. Firdavs ul-iqbol. O'zbekiston Respublikasi Failar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, raqam 5364/1, 32 a bet. Bu asarda Xivaga qarshi Yurishga qatnashgan kishilarning soni oshirib ko'rsatilganga o'xshaydi. M. S. Solove'dan biz keltirgan raqamlar bilan uning o'rtasida katta farq bor. O'z asarida ushbu masala Yuzasidan fikr bildirib o'tgan N.I. Veselovskiy ham rus qo'shshshning umumiyligi soni 6655ishidan iborat edi, debyozgan. Buraqam S.M. Solove'dagi faktlarga to'g'ri keladi. Qurang: N.I. Veselovskiy. Ocherk istoriko-geograficheskix svedeniy o Xivinskom xanstve. SLb., 1877. s. 169.

iqtisodiy munosabatlar sezilarli darajada susayib ketdi. Xiva xonligadan Rossiyaga borgan savdogarlarga nisbatan joylarda nohaq munosabatda bo'lina boshladi.

Ayni vaqgda, Petr I Buxoro xonligiga maxsus elchi yo'llab, unga Turkistonning bu davlati bilan Xiva o'rtasiga rahna solish, Xivani yakkalab qo'yish va pirovard natijada har ikkala xonlikni ham osongina qo'lga kiritish rejalarini tuzishni topshiradi. Bu elchi italiyalik Florio Benevini edi. U 1718 yilda, bu voqeadan bir yil oldin Buxorodan Peterburgga elchi sifatida borgan Qulibek To'pchi boshi bilan birgalikda, Astraxandan Kaspiy dengizi orqali Shemaxa va Gilon viloyatidan Kazvin va Tehronga, so'ngra Hirot orqali Buxoroga kirib keladi. Bu elchilik Buxoro va Eron o'rtasida o'sha yillar mavjud bo'lgan mojarolar tufayli qariyb bir yilcha Shemaxida turib qolganligi uchun, u Buxoroga 1721 yilda keltandi. Florio Benevini ancha o'qimishli odam bo'lgan. Uning Buxoroga elchi sifatida Yuborilishini E. Olvort "hukumat o'sha vaktda malakali rus vakilini topa olmagan yoki Peterburg o'z diplomatini xavf-xatar ostiga qo'iishni istamagan bo'lsa kerak", deb izoxlaydi¹. Bunga qo'shib bo'lmaydi. Chunki Petr I saroyida o'z vaqtida bu kabi vazifalarni bajarishga shay turgan juda ko'p xorijliklar xizmat kilganligi ma'lum. Benevini ham shulardan biri bo'lgan. Bu uzoq safarga qiziqishda ehtimol, undagi avantYuristik sajiya ham sabab bo'lgandir.

Florio Beneviniga Turkistonga doir harbiy va diplomatik ma'lumotlar yig'ish, ayniqsa Xivaga qarshi Rossiya-Buxoro ittifoqini tashkil etish, bu xonliklar bilan urush bo'lgan takdirda qancha askar va to'plarni ishga solish mumkinligi, ularningjoylashgan yerlarini aniqgsash vazifasi Yuklatilgandi. U Buxoro hukmdori Abulfayzxonga (1711-1747) maxsus rus otryadini taklif etishi hamda Turkiston o'lkasida oltin zaxiralari mavjud joylarni o'rganishi ham lozim. edi.

Florio Benevini Buxoro xonligida qariyib uch yilcha turib qoladi, ya'ni 1721 -1724 yillar ichida bu yerda faoliyat ko'rsatadi. Abdulfayzxonni qo'shnisi Xivani qo'llab-quvvatlamaslikka ko'ndiradi. Uning kamerdineri N. Minersavdogar niqobi ostida bir necha bor Hirot, Balx va Badaxshonga borib keladi. U o'z xo'jasining kureri sifatida Benevini to'plagan axborotlarni bu orada Peterburgga ham yetkazadi.²

Buning ustiga Shimoliy urushdan qutulgan Petr I jadal sur'atda Kaspiy flotiliyasini kuchaytirish va dengiz qirg'og'idagi quruqlik kuchlarini ko'paytirish ishiga kirishib ketadi. Natijada 1722 yil yoziga kelib Eronning Kavkaz chegaralari bilan tutash rus viloyatlarida muntazam piyoda qo'shinlari, dragun otliq askarlari, kazak, qalmiq va kabardalardan iborat 50 ming kishilik harbiy kuch shaylab qo'yiladi. To'g'ri, bu kuchlar, asosan, Eronga qarshi qaratilgan edi. Ammo lozim bo'lgan paytda ular Xivaga qarshi ishlatalishi ham ehtimoldan xoli emasdi.

Shu tarzda Xiva uchun g'oyat xavfli bir vaziyat vujudga kelgandi. Uning hukmdori Rossiyadek katta harbiy salohiyatga ega bo'lgan bir davlat bilan Yuzma-Yuz kela olmasligini yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Sherg'ozixon ko'p o'tmay Peterburgga elchilik Yuborib, o'rtadagi sovuqchilikni Yumshatishga, Bekovich-Cherkas-skiy harbiy ekspedisiyasidan qolgan asirlarni Rossiyaga qaytib berishga qaror qiladi. Ayni vaqtda, u elchilikka Yuz bergen voqealarni bayon etib berish va bo'lgan anglashilmovchilik uchui ayb Xiva tomonida emasligini izhor etishni topshirib, elchi qo'liga o'z nomidan Petr I ga yozilgan maxsus noma ham topshiradi,

Sherg'ozixon elchilikka boshliq qilib o'zining yaqin a'yon-laridan biri, ish ko'rghan va zukko Avaz Muhammadbekni tayinlaydi. Elchilik 1720 yilning may oyida Astraxanga etib keladi. O'rnatilgan tamoyilga muvofiq Avaz Muhammadbek Astraxan gubernatoriga o'z vakolati haqidagi hujjatlar va Sherg'ozixonning imperator nomiga yozgan maktubini topshiradi. Xon maktubida quyidagilar bitilgan edi: "Ilgarilar biz Siz bilan do'stona aloqada edik, xrzirda ham shunday bo'lishini istaymiz. Ammo Siz va bizning oramizdag'i ana shu do'stona aloqalarga rahna tushdi va unga quyidagi voqeа sabab bo'ldi: bizga Davlat Gireyning elchi bo'lib kelayotgani haqida xabar etdi va biz bundan xushnud bo'ldik. So'ngra eshitdikki, Davlat Girey bizning uluslarda shaharlar qurish niyatida ekan. Biz unga buni taqiqladik, lekin u qulqoq osmadni va shahar qurdi. Shundan keyin u bizga elchi yo'llab, katta Daryodan qo'shin bilan o'tish uchun ko'prik qurish niyatida ekanligini bildirdi va bizdan ot ulovlar Yuborishni talab qildi. Biz ana shu masalalar bo'yicha muzokaralar olib borish uchun elchi Yubordik, ammo Davlat Girey odamlari uni haqoratladi va bog'lab qatl etmoqchi bo'ldilar. Elchimiz kelib, Davlat Girey elchi sifatida emas, balki shahar

¹ Edvard Olvort. Hozirgi o'zbeklar. 99-bet.

² Popov A.N. Snosheniya Rossii s Xivoyu i Buxaroyu. SPb, 1853. s. 65. 2. Lisssov V.I. Persidskiy poxod.

qurish uchun kelgan ekan, degan xabarni yetkazdi. Biz Davlat Gireyga yana o'z kishilarimizni Yubordik, ammo u ularni yaqinlashtirmay to'plardan o'qqa tuta boshladi. Jang bo'ldi. O'shanda bizning ko'p odamlarimiz halok bo'ldi, biznikilar ham ko'p ruslarni o'liddilar. Davlat Gireyni har xil toifadagi rus odamlari bilan mening huzurimga keltirdilar. Tirik qolgan ruslarni biz, Siz ulug' davlatpanoh ularni xohish bildirsangiz, qaytarish niyatida o'zimizda saqlab turibmiz, chunki Siz bilan urush qilish bizning xayolimizda yo'q"¹.

O'sha yili avgust oyining oxirlarida tashqi ishlar kollegiyasidan Astraxan gubernatoriga elchini Peterburgga Yuborish haqida farmoyish keladi. Unda Xiva elchisini oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta'minlagan holda mahbus sifatida qo'riqlab poytaxtga jo'natish lozimligi, shu maqsadda bir zabit boshchiligidagi etarli darajada askar ajratish, qo'riqchilarga elchining qochmasligi uchun xushyor bo'lismi uqgirish, bu hoyani elchining o'ziga ham aytib qo'yish ta'kidlangandi. Farmoyishda bu tadbirdilar Xiva xonining unga elchi sifatida Yuborilgan Cherkasskiyga nisbatan dushmanlarcha ish ko'rghanligi tufayli amalga oshirilayotganligi aytilgandi.

1721 yilning boshida Xiva elchisi Yuqoridagi alfozda Peterburgga olib kelinadi. Tashqi ishlar kollegiyasiga kelti-rilib, bu yerda vazirlar huzurida so'roq qilinadi. "Senga xon og'zaki nimalarni yetkazishni buyurgandi", deyishadi ular. Bunga javoban elchi: "Xon menga podshoh oliv hazratlariga uzoq vaqtlardan buyon Rossiya va Xiva o'rtasida o'zaro hurmat va savdoga asoslangan munosabatlар barqaror bo'liganligini va ba'zi voqealar tufayli ular barham topganligini, ammo o'sha o'zaro hurmat va savdoning qaytadan o'rnatilishi istagida ekanligini bildirishni buyurdi", deydi. "Biz o'ylaymizki, butun yorug' jahonda va hech qaysi qonunda elchini o'ladirish taomili yo'q, nima sababdan sizlar podshoh hazratlarining elchisi knyaz Cherkasskiyni gunohsiz qatl ettirdingiz?", deyishadi vazirlar. "To'g'ri shunday qilindi, - deb javob beradi elchi, - ammo u bizga elchi sifatida emas, balki dushman sifatida kelib, (bizning sarhadlarimizda) shahar barpo qildi, unda 8000 askar qoldirdi. So'nfa biz tomonga otlandi va Xivaga bir necha kunlik yo'l qolgan joyda bizning askarlarimiz bilan bo'lган jangda halok bo'ldi. Uning qolgan odamlari hozirgacha Xiva sarhadlarida turibdi va xon ularning barchasini qaytib berish niyatidadir". "Sening xoning, - deyishadi bunga javoban vazirlar, - ilgari podshoh hazratlariga murojaat qilib, savdo-sotiqni rivojlaktirish maqsadida shahar qurishni so'ragan edi, so'ngra esa shunday buyuk hukmdor sha'niga tegadigan ish qildi - uning elchisini gunohsiz qatl etdi. Ehtimol, sening o'z xoning oldida guno-hing bordir va knyaz Cherkasskiy uchun osib o'ladirishimizni istab, bu erga Yuborgandir?", "Ixtiyor sizlarda, - deydi elchi, — ammo xon meni o'zaro hurmatda bo'lismi va barcha asirlarni qaytib berish niyatida ekanligini yetkazish uchun Yuborgan"². Ammo, ana shu tarzda davom etgan so'roq natijasi Xipa elchisi foydasiga hal bo'lmaydi. Tashqi ishlar kollegiyasida yig'ilgan vazirlar uni gunohkor sifatida hibsga olish haqida hukm chiqaradilar. Elchi shu yerdan to'ppa-to'g'ri qamoqxonaga jo'natiladi. Oradan ko'p o'tmasdan u yerda Avaz Muhammadbek noma'lum sabab bilan vafot etadi. Taxmin etish mumkinki, rus a'yonlari knyaz Cherkasskiyning o'chini olish uchun imperatorдан uni qatl etish haqida farmoyish olganlar va bu farmon qamoqxonada ijro etilgan. Shu tarzda ular Yuqoridagi so'roq vaqtida o'zlari ta'kidlagan "elchiga o'lim yo'q" shioriga xilof ish tutganlar.

Peterburg bu voqeaneing Rossiya-Xiva munosabatlari uchun salbiy ta'sir ko'rsatishini yaxshi tushunardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Xiva elchisining Sheriklariga o'z vatanlariga qaytishga ruxsat beriladi va ulardan biriga kansler va uning yordamchisi imzosi bilan podshoh nomidan bitilgan yorliq topshiriladi. Unda Avaz Muhammadbekning o'z ajali bilan vafot etganligi (qatl qilinganligi emas) bildirilib, Xivadagi rus asirlarini ozod qilish haqidagi talab olg'a surilgandi. Sherg'ozixon masalaning mohiyatini darhol anglaydi, albatta. Shuning uchun bo'lsa kerak, 1722 yilning yanvarida bu yerdan o'z Yurtiga qaytgan sobiq yoyiq kazakning ma'lumotiga qaraganda, Xiva xoni bu yorliqni o'qib chiqqach, g'azabdan oyoq ostiga olib tepkilab tashlaydi. Shunga qaramasdan, Sherg'ozixon Rossiya bilan yaxshi aloqalarni tiklashga urinadi. Shu maqsadda u Buxoroda elchi sifatida bir necha yildan buyon ish ko'rib kelayotgan Florio Benevinining o'ziga yozgan maxfiy xatlariga xayrioxlik bilan qaraydi va javob maktublaridan birida uni Xivaga taklif etadi. Ammo rus elchisi Buxoro-Xiva munosabatlarning buzilganligi tufayli (bunga uning o'zi ham ma'lum darajada sababchi bo'lgandi) Buxoro hukmdori Abulfayzxondan rasmiy rozilik ola

¹ Solovev S.M. Istoriya Rossii. n. IX. s. 353.

² O'sha asar, 354-bet.

olmaydi. Shundan so'ng u Buxoroni yashirinchcha tark etib, Xivaga etib keladi va 1725 yilning avgust oyida Sherg'ozixon qabulida bo'ladi. Ammo o'z buzuq niyatlarining oshkora bo'lib qolishidan cho'chigan Florio Benevini bu xonlikdan ham maxfiy holda chiqib ketib, Gurev orqali Peterburgga etib keladi. Etti yillik safarotdan qaytgan rus elchisi imperator saroyida katta izzat va e'tibor bilan kutib olinadi. U o'zining rasmiy axborotida Turkistondagi oltin zaxiralari va uning sarhadlaridagi davlatlarning harbiy quvvati haqida batafsil ma'lumotlar keltiradi. Elchi Rossiya imperatorini siyosiy jihatdan notinch Buxoro va dushman Xiva xonliklariga qarshi tezdan harbiy Yurish uyuşdırıshga undaydi va uni bu ishning muvafaqqiyat bilan yakunlanishiga ishontırıshga katta kuch sarflayıd¹. Ammo 1725 yil yanvarda Petr I o'lgach, Rossiya imperatorining boshqa qator hujumkorlik niyatları qatorida Florio Benevini jon kuydirgan bu masala ham Peterburg saroyida qo'zg'olgan ichki ziddiyatlar qa'rida yo'q bo'lib ketadi. Rossiya imperiyasining Turkiston sarhadlariga uyuşdırılgan dastlabki harbiy xuruji ana shu tarzda o'z yakunini topadi.

2. Poruchik Subhonqulov missiyasi

XIX asrning dastlabki yillarda O'rta Osiyo mintaqasid;ni xonliklar bilan Rossiya imperiyasi o'rtaşıdagı munosabatlar, Rossianing asosan Ovrupo qıtasıdagı murakkab siyosiy vaziyat bilan band bo'lganligidan, ma'lum tarzda sustlashib qolgandi. To'g'ri, Rossiya Kavkaz uchun Eron bilan urush alib borar (1804-1813), ammo ikki davlat o'rtaşıdagı bu qurolli to'qnashuv ham Ovrupodagi katta siyosatning in'ikosi sifatida u yoki bu voqeliklar tufayli goh kuchaysa, ba'zan tanaffuslar bilan davom etardi. Rossiya Turkiston xonliklari bilan olib borgai aloqalarida asosan xonliklarning Eron bilan birgalikda unga qarshi ittifoq tuzishidan cho'chiganidan, bu erga savdo karvonlari bilan Yuborilgan xufiyalar orqali bunday xavf-xatar yo'kligiga ishonch hosil qilgan va shuning uchun ham xonliklar bilan aloqalar Yuritishni Orenburg harbiy gubernatorligiga Yuklab qo'ygandi. Orenburg harbiy gubernatori savdo karvonlari harakatlarini kuzatib borar, O'rta Osiyodan Rossiyaga yo'llangan elchilarni Peterburgga o'tkazish-o'tkazmaslik masalasini xal qilar, ko'pgina hollarda u yoki bu muammo Yuzasidan xonliklar hukmdorlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish odatini karor toptirishga harakat qilar edi. Bu vaqtda, asosan, ikki masala ustida bahs-musohaba olib borilganligi ko'zga tashlanadi. Ulardan biri - yo'lga chiqib, sahroda qaroqchilar hujumi tufayli talon-toroj etilgan savdo karvonlari masalalariga taalluqli bo'lsa, ikkinchisi Rossiyadan qochib Buxoroda boshpana topgan soxta pul yasovchi Hamitov va uning Sheriklari faoliyati bilan bog'liq masalalardan iborat bo'lgan.

Har ikki masala Yuzasidan olib borilgan muzokaralarning natijalari Orenburg mahalliy hukumati tarafidan Rossiya tashqi ishlar vazirligiga izchil suratda axborot tarzida yetkazilib turilgan. Ammo bu muzokaralar asnosida tomonlarni baravar rozi qiladigan xulosalarga kelish qiyin edi. Chunki ko'gtchilik hollarda ixtilofli masalalarda Rossiya ma'murlari va xonliklar vakillari faqat o'zlarinigina haq deb bilardilar. Shundan bo'lsa kerak, Buxorodan 1805 yilda Peterburgga Yuborilgan elchi, garchi u Rossiya ma'muriyati talabiga binoan soxta pul yasovchi Hamitov va uning Sheriklari ixtiyorida bo'lgan asbob-uskunalarni olib kelgan bo'lsada, qo'yilgan talabning faqat bir qismigina bajarilganligi uchun uning hujatlari rasmiy emas, degan bahona bilan orqasiga qaytarib Yuboriladi².

Orenburg harbiy gubernatori bu hakda Rossiya tashqi ishlar vazirligiga yozma axborot yo'llaydi, albatta. Poytaxtdagilar uning ushbu xatti-harakatini oqlash uchun Buxoro amiri nomiga tashqi ishlar vazirligining maxsus tushuntirish xatini tayyorlashadi.

Rossiya tashqi ishlar vaziri A.YA. Budberg 1806 yil 19 noyabrda Buxoro amiri Mir Haydar nomiga bitilgan va podshoh nazaridan o'tkazilgan ushbu maktubda 1805 yilda Orenburgga Buxoro elchilari sifatida ikki savdogar - Mirzabek Allayorov va G'ofurjon Navro'zjonovlarning

¹ Edvard Olvort, Hozirgi o'zbekyaar. 100-bet.

² Vneshnyaya politika Rossii XIX naChala XX veka. Dokumentm rossiyskogo Ministerstva inostrannshx del. Seriya pervaya. 1801-1815 gg. Tom chetvertiy. Izd-vo polit. lit-r1. Moskva, 1965, s. 126.

kelganligini va ular Orenburg harbiy gubernatori G.S. Volkonskiyga soxta pul yasovchi Valit Hamitovdan musodara qilingan asbob-uskunalarini topshirganini bildiradi. Ammo elchi sifatida o'z missiyalarini tasdiqllovchi hujjatlarga ega bo'Imaganliklari uchun qabul qilinmaganligini va bundan buyon Yuboriladigan shaxslar elchilik vakolatini tasdikuyuvchi rasmiy hujjatlarga ega bo'lgandagina va soxta pul yasovchilar rus ma'murlariga topshirilgan taqsirda Rossiya ma'murlari ularni hurmat-ehtirom bilan qabul qilishlari mumkinligini bayon qiladi. Ayni vaqqda Rossiya tashqi ishlar vaziri Buxoro bilan do'stona munosabatlarni rivojlantarishga tarafdar ekanligini bildirib, bundan keyingi elchilik aloqalarida "qay tarzdagi hujjatlar kerakligi" haqida kelishib olish lozimligini ta'kidlaydi. Budberg xuddi shunday mazmundagi xat bilan Buxoro amirinig bosh vaziriga ham murojaat qiladi va unda soxta pul yasovchilarni rus ma'murlariga topshirish haqidagi talabni yana bir karra takrorlaydi. Podshoh nazaridan o'tgan bu ikkinchi maktub 1806 yil 29 noyabrda bitilgan edi¹.

Orenburg harbiy gubernatori G.S. Volkonskiy 1807 yil bahorida ushbu maktublarni o'z ishonchli odamlari bilan Buxoro hukmdoriga yo'llaydi. Rossiya tashqi ishlar vaziri Budbergning xatlari bilan birga harbiy gubernator o'z nomidan ham amir Haydarga maxsus maktub bilan murojaat qiladi. 1807 yil 20 martda bitilgan ushbu maktubda u Yuqoridagi masalalar Yuzasidan fikr Yuritib, Mir Haydardan soxta pul yasovchini va uning Sheriklarini zudlik bilan Rossiya ma'muriyatiga topshirishni talab qiladi.

Buxoro hukmdori amir xaydar Orenburg harbiy gubernatoriga 1807 yil avgust oyida yo'llagan javob maktubida Rossianing bir viloyati hokimi bilan mustaqil davlat hukmdori bevosita muzokaralar olib borishi mumkin emasligi, harbiy gubernator maktubida ko'tarilgan masalalar Yuzasidan amirga faqat bevosita Rossiya podshosi murojaat qilishi lozimligi haqida, umuman, davlatlararo munosabatlarda qadimdan barcha rioya qilib kelgan umumiyligini qonun-qoidalarga amal qilish kerakligi xususida fikr-mulohazalar bayon etilganini ko'ramiz. Chunki, Rossiya viloyatlaridan biri - Orenburg hokimi Turkistonidagi davlatlarni pisand qilmaslik yo'llini tutgan va ularning hukmdorlari bilan baravar mavqeda turib diplomatik munosabatlar Yuritishga harakat qilgan edi. Buxoro amiri Haydar o'zining ana shu maktubi bilan davlatlararo qonun-qoidalarga rioya etish masalasini eslatib, unga tanbeh berish bilan birga xalqaro miqyosda Buxoro amirligining mustaqil davlat sifatida obro'-e'tiborini saqlashga naqadar katta e'tibor berib kelganligini ham namoyon etadi. Turkiston davlatchiligi tarixi uchun katta ahamiyatga molik bo'lgan ushbu maktubning asl nussxasi bizgacha etib kelmagan, ammo uning rus tilidagi tarjimasi Rossiya tashqi ishlar vazirligi arxivida saqlanib qolgan. Bu e'tiborli hujjatda, jumladan, quyidagilar bitilgan: "Orenburg harbiy gubernatori knyaz Grigoriy Semenovichning Mullo Yomg'ir va Mullo Abdil Nosir1 no'g'aylor orqali Yuborilgan maktubi bizga etib keldi. Ammo biz unga javob yozishni lozim topmadik. Chunki ikki davlat o'rtasida ko'tarilgan bu masala Yuzasidan biz tomonimizdan allaqachonlar javob xati yozilgan va u mo'tabarli va Yuksak shon-shavkatli umumrossiya imperatori e'tiboriga havola etilgan. Agar ul janobi oliylaridan maktub kelsa, biz javob yozib jo'naturmiz. Sen esa shuni bilgilki, agar Orenburg harbiy gubernatori ikkala davlat orasidagi ishlar Yuzasidan fikr bildirmoqchi bo'lsa, u bundan buyon bizning e'tiborli va Yuksak martabali, ishonchli vakilimiz Muhammad Hakimbiy Devonbegi bilan aloqa o'rnatishi va undan javob olishi mumkin. Chunki, qadim zamonlardan buyon o'rnatilgan qonun-qoidaga muvofiq, hukmdor hukmdorga, vazir vazirga, hokim esa faqat hokimga xat bilan murojaat qilib kelgan. Bu taomilga hamma vaqq amal qilib kelinmoqda.

Maktub 1222 yilning jumadu-s-soniy oyida bitilgan. Bu arning yil hisobida 1807 yil avgust oyi. Siyoh bilan bosilgan muhrda Mir Haydar nomi yozilgan"¹.

Bu maktubni olgach, Orenburg general-gubernatori G.S. Volkonskiy Rossiya tashqi ishlar

¹ Bu maktubda nomi zikr etilgan muldo YOmgi'ir va mullo Abdul Nosirlar aftidan savdo karvoni bilan Buxoroga Yuborilgan. Ular Orenburg harbiy gubernatorining vakillari sifatida ish ko'rishgan. Ulardan biri - Mullo Abdul Nosir oradan ikki yil o'tgach Buxoroga Rossianing rasmiy elchisi sifatida Yuborilgan poruchik Subhonqulov bo'lishi kerak. Buni shundan ham bilsa bo'ladi, u elchilik safaridan Peterburg uchun yozgan bildirgisi (raport) oxiriga arab imlosida "Boshqird askarlari poruchigi Abdul Nosir Subhonqul o'g'li " deb imzo chvkkan. Qarang: SGA Uz., f. 6, op. 10. Kanselyariya Orenburgskogo voennogo gubernatora, d. 291. O komandirovanii xanskogo pismovoditelya Subxankulova v g. BuxariYu, l. 277.

vazirligi boshqaruvchisi N.P. Rumyansevga 1807 yil 18 noyabrda yozgan axborotiga "Buxoro xoni Yuborgan xatni ham ilova" qilib Peterburgga jo'natar ekan, uning mazmuniga ishora tarzida "Xon faqat imerator hazratlari bilan bevosita aloqa Yuritish niyatini yozgan", deyish bilan cheklanmasdan, Buxoro tomoni qimmatbaho tuhfalar ilinjida Rossiyaga kelayotgan turli toifadagi odamlarni hamelchi tarzida qabul qilishga da'vo qilib kelayotganligini, Mir Haydar esa "Podshoh hazratlariga maktub Yuborganligini aytib, undan javob kutayotganligini", vaholanki, u "Imperator hazratlariga hech qanday maktub Yubormagan"ligini yozadi. "Chunki, - deb ta'diklaydi u, - shu paytga qadar mening vositachiligidan Buxoroning birona ham xati imperator hazratlariga Yuborilgani yo'q. Faqat 1805 yil 24 iyulda Orenburgga kelgan va o'zini Buxoro elchisi deb tanishtirgan Buxoro mansabdori devonbegi G'ofurjon Navro'zjonovdan olingan, aslida xat emas, balki imperator hazratlariga yo'llangan, ammo hech qanday rasmiy kuchga ega bo'lмаган YOrliqning nusxasini tashqi ishlar vazirining yordamchisi knyaz Chertorijskiyga jo'natgan edim. Bu hujjat G'ofurjon va uning hamrohi Mirzobeklarning elchilik vakolatlarini tasdiklovchi rasmiy dalil sifatida qabul qilinmaganligi sababli ular Buxoroga qaytarib Yuboriladi"¹.

Ushbu maxfiy axborotida G.S. Volkonskiy yana bir karra soxta gtul yasovchi teptar (tatar) Valit Hamitov va uning Sheriklarining Buxoroda panoh topganligini hamda ularni Rossiyaga tutib berish haqida Buxoro hukumati bilan 1804 yildan buyon uzlusiz yozishmalar olib borayotganligi, ammo bundan kutilgan natija chiqmayotganligi, Buxoro xoni Orenburgta faqat soxta pul yasashda qo'llanadigan asbob-uskunalarini Yuborish bilan cheklangan-ligini izhor qilib, Buxoro tomoni bu masalada g'irromlik yo'liga o'tganligi hamda haddan ziyod manfaat kutayotganligini e'tiborga olib, hozircha bu haqda muzokaralar Yuritishni qulay fursat kelguncha to'xtatmoq lozimligini maslahat beradi. Ayni vaktda, u ana shu masalada Peterburgni xotirjam qilish maqsadida, "butun Orenburg chegara chizig'ida soxta pullarning biz tomondan o'tmasligini ta'minlaydigan qattiq chora-tadbirlar ko'rildi"ligini ta'kidlaydi.

Bu yerdaaslida gap Yuqorida nomlari zikr etilgan elchilarining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlarda emasdi, albatga. Ular Rossiya tomonidan qo'yilgan talab - soxta pul yasovchi hamda uning Sheriklarini olib kelishmagan va Buxoro ular orqali soxta pul yasovchilarining asbob-uskunalarinigina yuborish bilan cheklangan edi. Fikrimizcha, ana shu sababdan rus ma'murlari Yuqoridagi kimsalarning elchiligini tan olmaydi va Orenburg general-gubernatori ularni poytaxtga Yubormaslik yo'llarini qidiradi. Aslida esa Buxoro amiri Mir Haydarning xatida aytilgan gap, ya'ni Rossiya imperatoriga rasmiy javob ham mavjud bo'lgan. Bu G.S.Volkonskiyning N.P. Rumyansevga yozgan xatida esalatilgan va 1805 yil 24 iyulda Chertorijskiyga jo'natilgan Yorliqidir.

Orenburg general-gubernatorining ushbu maktubida Buxoro hukmdori va uning noiblari diplomatiya sohasidagi siyosatiga nisbatan bildirilgan salbiy fikr-mulohazalariga kelsak, ular Buxoro amiri Haydarning unga yo'llagan tanbehona xati ta'siri ostida namoyon bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

G.S.Volkonskiyning poytaxtga Yuborgan ushbu axboroti, Mir Haydarning maktubi Rossiya tashqi ishlar vazirligida har tomonlama muhokamadan o'tadi. Natijada hukumat doiralarida Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan olib borayotgan siyosatining pirovard maqsadlarini nazarda tutib, ular bilan, jumladan, Buxoro amirligi bilan yaxshi munosabatlarni davom ettirish, bu davlatlarni har tomonlama o'rganish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanishga qaror qilinadi. Shu maqsadda, Mir Haydarning maktubi bu yerda ma'lum norozilikka sabab bo'lsada, unga yo'rig'lik bilan javob qaytarish lozim toyiladi va Buxoro amiriga bevosita imperator nomidan maktub yo'llashga qaror qilinadi.

Imperator Aleksandr I nomidan tayyorlangan rasmiy YOrliq 1808 yil 20 avgustda imzolanib, tashqi ishlar vaziri graf M.P. Rumyansevga topshiriladi. Vazirlik o'z navbatida uni zudlik bilan Orenburg harbiy gubernatori G.S.Volkonskiyga yetkazadi. Ushbu YOrliqqa binoan Orenburg hokimi o'z xodimlaridan birini elchi qilib tayinlashi va u orqali bu muhim hujjatni Buxoro hukmdoriga olib borib topshirishi kerak edi. Shu maqsadda G.S. Volkonskiy Buxoro xonligidagi siyosiy vaziyatni hisobga olib, elchilikka o'z xizmatida bo'lgan boshqird muslimmon ofisyerlaridan biri poruchik Abdul Nosir Subhonqulovni tayinlaydi. Rossiya imperatori imzosi bilan bitilgan

¹ O'sha asar, 127-bet. 2. O'sha joyda.

quyidagi YOrliq uning qo'liga beriladi.

"Aleksandr I ning Buxoro xoni Mir Haydarga yo'llagan YOrlig'i (Gramota). 1808 yil 20 avgust.

Buxoro mulkining hukmdori Mir Haydarxonga bizkim, imperator hazrati oliyning tabriYutari bo'lsin. Fuqarolarimizning Siz janobi oliylari ixtiyoridagi viloyatlar hamda ularga qo'shni yerlar va xalqlar bilan o'zaro foydali savdoni rivojlantirishga bo'lgan rag'batini hamda Sizning fuqarolaringizning bu boradagi katta sa'y-harakatlarini inobatga olib, biz kavaleriya generali va Orenburg harbiy gubernatori knyaz Volkonskiyga o'z ixtiyoridagi amalgYurlaridan birini Sizning huzuringizga Yuborishi haqida farmoyish berdik. Bu to'g'rida Sizga xabar yo'llar ekanmiz, bizkim, buyuk hukmdor, imperator hazrati oliy, Sizning qadim zamonlardan bizga bo'lgan ixlosmandligingiz va imperiyaga do'stona xayrixoxlgigingizga ishongan holda umid qilamizki, Siz, Yuksak martabali xon, ana shu o'zaro foydali maqsadning ro'yobga chiqishiga xayrixohlik ko'rsatib, huzuringizga Yuborilgan amaldorni iltifot bilan qabul qilgaysiz va unga imkon boricha marhamat ko'rgazgaysiz. Biz o'zimizning ushbu imperatorlik YOrlig'imizni Sizga yo'llash haqida farmon berar ekanmiz, avvalo, Yuqorida zikr qilinganlarni yetkazishni maqsad qilib qo'yan bo'lsak, ayni vaqtida ushbu yorliq Siz va Sizning davlatangizga bildirilgan bizning iltifotli marhamatimiz nishonasi hamdir.

Yorliq Sankt Peterburgda Xristos tavalludining 1808 yili yozda 20 avgustda va bizning podshohligimizning sakkizinchil yilida bitildi".

Rossiya tashqi ishlar vazirligi arxivida saklangan ushbu YOrliqning nusxasi (Buxoroga jo'natilgan asli bizgacha etib kelmagan) oxirida quyidagilar bitib ko'yilgan: "Ilova. Imperator oliy hazratlarining barcha rutbalari YOrliq boshida eng yirik harflar bilan sanab o'tildi. Asl nusxada harbir xatboshi harf turk sultoni vaziriga yozilgan maktublardagidek katta hajmdagi harflar bilan yozildi. Imperatorning barcha rut^alari oltin bilan bitildi. Xat oxirida oliy maqomli imzo chekildi va unga davlatning kichik muhri bosildi. yorliqqa uning fors tilidagi tarjimasi ilova qilindi. yorliq oltin suvi bilan jilo berilgan g'ilofga solinib, bitilgan kuni, ya'ni 20-chida vazir graf N. I. Rumyansev mahkamasiga Yuborildi"¹.

Abdul Nosir Subhonqulov 1809 yil 17 oktyabrda Orenburgdan yo'lga chiqqan savdo karvonni bilan Buxoroga ravona bo'ladi. Poruchikka Rossiyaning elchisi sifatida barcha vakolatlar berilgan edi. Unga imperatorning maxsus yorlig'ini Mir Haydarga shaxsan topshirish, undan tashqari qushbegiga tashqi ishlar va savdo vaziri Rumyansev va Orenburg general-gubernatori Volkonskiy nomidan ham maktublar yetkazish buyurilgan edi. Umuman, Subhonqulov zimmasiga Yuklatilgan vazifa keng qamrovli bo'lib, u Rossiya hukumatiga O'rta Osiyoda uni qiziqtirgan juda ko'p masalalarini o'rganish va ular haqida batafsil ma'lumot keltirishi kerak edi. Bu masalalarining nimalardan iboratligi esa Subhonqulovga berilgan maxfiy yo'riqnomasi - instruksiyada o'z aksini topgandi. 1809 yil 14 oktyabrda Orenburg harbiy gubernatori Volkonskiy tomonidan elchiga topshirilgan ana shu yo'riqnomasi (instruksiya)da quyidagilar bitilgan edi:

"Buxoroga safaringiz vaqgida Sizdan quyvdagilarga qattiq e'tibor berishni va aniq bajarishni talab qilaman:

1. Imperator xdzrati oliylarining Buxoro hukmroni Yuksak martabali Mir Haydarxonga yo'llagan yorlig'i hamda Davlat kanileri tashqi ishlar va savdo vaziri graf Rumyansev va mening xatimni Buxoroga etib kelgach, uning hukmdoriga topshiring va ularga javob berishini kuting;

2. Agar Buxoro hukmdori yoki uning amaldorlaridan birontasi Sizning u erga kelishingiz sababini surishtirib qolishsa, Siz faqat Oliy rutbali YOrliq va xatlarni topshirish uchun kelganligingizni, undan tashqari karvon carbonlari Rossiya ma'muriyatidan savdo yo'naliшини aniklab olish uchun meni shaxsan karvonga qo'shilib borishimni iltimos qilganlar, degan javobni berishni zinhor unutmang;

3. Undan tashqari, Siz Rossiya hukumatining Buxoriya bilan hamisha munosabatlar tarafdoi ekanligi, qirg'izlar (qozoklar) bundan keyin savdo karvonlarini talamasliklari uchun Orenburgga chaqirilib, savdo karvonlari harakati xavfsizligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadvda ularga ma'lum majburiyatlar Yuklatilayotganligi hakdsa gapirishingiz mumkin;

¹ SGA Uz. , f. 6, op. 10, d. 291, t. 101-102.

4. Buxoroda bo'lgan vaqgingizda Siz uning qaysi shaxarlar va xalqyaar bilan savdo-sotiq olib borishi, umuman, savdonish davomiyligiga aloxdsa e'tibor bering;

5. Ma'lumki, Buxoriyada yahudiylar jamoasi istiqomat qiladi. Siz ularning hayot tarzi va kasb-korlari bilan qiziqing;

6. U yerdagi amaldorlar yoki buxorolik savdo ahli bilan bo'ltan suhbatlarda Amu va Sir daryolari orqali kemalar yordamida savdoni rivojlantirishga ularning rag'batlari bor-yo'kligini aniqlashga urinib ko'ring;

7. Maxfiy yo'llar bilan soxta pul yasovchi jinoyatchi Valit Hamitovning qayerda istiqomat qilishini, uning ozodlikda Yurgan-Yurmaganligini, Sheriklarining soni, ularning turar joylarini aniqlashga harakat qiling, shuningdek, maxfiy holda Buxoro hukumati nima sababdan uni va o'rtoqlarini qaytarib bermayotganligini bilib oling;

8. Buxoroga borishda va qaytishda yo'l-yo'lakay qirg'iz (qozoq) oqsoqollaridan qaysilarishonchli hamda to'g'ri fikrli ekanligini va karvonlarni qo'riklab borishga yarokli ekanligini, umuman, oliv toju taxtga sadoqatlilarini aniklashga harakat qiling;

9. Safar vaqtida har ikki tomon yo'lini bilib olish maqsadida yo'lda uchragan yaylovlar, to'xtov manzillari, daryolar va kechuv joylari, em-xashak zaxiralari, karvonning har kuni bosib o'tgan aniq masofasi o'lchovi kabilarni atrofdagilarga sezdirmay izchil yozib boring. Shuningdek, Buxoriyaga borish yo'lida istiqomat qiladigan xalqlarning, jumladan, qoraqalpoqlarning Rossiyaga nisbatan xayrixoxligi darajasini aniklashga, ularning chegaralarga hujum qilish niyatlari bor-yo'kligini bilishga ham harakat qiling;

10. Xiva va Buxoro munosabatlарining hozirgi holati haqida ma'lumot yig'ing, ular o'rtasida to'qnashuvlar Yuz berayotibdimi yoki yo'qmi aniklang, xuddi shuningdek, Forsiston (Eron) yoki boshqa xalqlar bilan Buxoriya o'rtasida nizolar mavjudligi haqida ma'lumotlar go'plashga harakat qiling".

Yo'riqnomma-instruksiyada harbiy gubernator elchiga ana shu aytiganlarni maxfiy yo'l bilan anikdash vazifasini Yuklar ekan, safardan qaytgach, undan "ularning hammasi haqida bataf-sil yozma ma'lumotnomasi" yozib topshirishni talab qilgan. Shu bilan birga unda "agar topshirilgan vazifalar" bekamiko'st bajarilgan taqdirda "elchini katga mukofotlar kutayotganligi, bu gap elchiga yordamchi sifatida u bilan birga Yuborilayotgan "boshqird Rahmon-qulovga ham taallukli" ekanligi aytib o'tilgan¹.

Subhonqulovning yozishicha, u Buxoroga kelgach, amir Haydar qabulsda bo'ladi va qo'lsdagi YOrliq va xatlarni unga topshiradi. 1810 yil 28 yanvarda Mir Haydar uni o'rdaga taklif etadi. Uning sha'niga tashkil etilgan ziyoftda Mir Hayaar elchiga "Osiyo nuqgai nazariaan krragavda anchamuncha qimmatbaho sovg'a-salomlar topshiradi". Ayni vaqida, amir unga Rossiya imperatorining yorlig'iga ham javob mayuubini beradi. Elching "davlat kansleri va Orenburg harbiy gubernatori maktublariga ham javob berilishi lozim"ligi haqidagi iltimosi yerda qoldiriladi. Unga hamma xatlarga yozilgan javob "imperator xdzrati oliylari YOrlikdariga berilgan javob maYuubida o'z aksini topgan", degan bahona ro'kach qilinadi.² Shu tarzda poruchik general-gubernator Volkonskiy uning zimmasiga Yuklagan "barcha maYuublarga javob olib kelish zarur"ligi haqidagi siperishni bajara olmaydi.

Afsuski, Rossiya kanileri graf Rumyansev va Orenburg general-gubernatori Valkonskiylarning poruchik Subhonkulov orqali Buxoro amiri Mir Haydarga Yuborgan maYuublari mazmuni bilan tanishish imkoniga ega emasmiz. Bu maktublarning nusxalari bizning ixtaylorimizdagi arxiv hujjatlari ichida uchramadi. Faqat taxmin etish mumkinki, har ikkala chor amaldorlari, Buxoro hukmdorining ogoxlantirishiga kedeamay, yana unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etishgan bo'lsa kerak. Aftidan, shuning uchun ularning xatlariga Mir Haydar javob qaytarishni isgamagan ko'rindi.

Ammo voqealarning keyingi tafsiloti shuni ko'rsatadiki, amir bu xatlarga javob qaytarishni lozim topmagan bo'lsada, elching "boshqa masalalardagi iltimoslarini inobatga alib, uni kushbegi Hakimbiy bilan muzokaralar olib borishiga sharoit yaratadi. Bu muzokaralar vaqida Subhrnkupov "soxta pul yasovchi Mulla Vali va uning Sheriklarini Rossiyaga kayggarish masalasini kundalang

¹ O'sha asar, l. 138 ob.

² O'sha asar, ll. 139, 141.

qo'yadi. Bu talabga, poruchikning yozishicha, Hakimbiy musulmon odati bo'yicha soxta pul yasovchini tirik qo'yib Yuborib bo'lmasligi, u zindonda saklanayotganligi, agar Rossiya podshosi qadimiy urf-odatlarga binoan katta sovg'a salomlar bilan bu masala Yuzasidan Buxoroga maxsus elchilik jo'natsa, u holda jinoyatchi ana shu elchilar ko'z o'ngida qatl qilinishi mumkinligi haqida gapiradi. Ammo Subhonqulovning o'z safari natijalari haqida yozgan bildirgisida (raportida) u bu suhbatga qadar so'rab-surishtirishlar orkali "Mulla Valining zindonda emas, balki yaxshi jihozlangan, ammo derazasiz bir xonada istiqomat qilishini, u hech narsaga zoriqmasdan osoyishta xayot kechirayotganligini va faqat nazorat ostida ekan"ligini bilib olganligi ta'kidlangan. Uning yozishicha, Hakimbiy bu haqda masala ko'tarilgandagina jinoyatchini zindonga tashlaiia shoshilinch sur'atda buyruq bergan, xolos. Uzoq tortishuvlardan keyin har holda elchining xohishiga qarab, unga "soxta pul yasovchi jinoyatchini ko'rishga ruxsat beriladi". Qushbegi Hakimbiy ishtirokida o'tgan bu uchrashuvda Subhonqulov faqat quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo'ladi: "Soxta assignasiyalar jinoyatchi tomonidan Buxoro rasmiy doiralari ruxsatisiz yasalgan. Bu soxta pullar rus savdogarları va Rossiyaga savdo bilan boradigan buxoroliklar hamda Qozon totorları orqali tarqatilgan. Shu munosabat bilan poruchik qozon totorlarining Buxoroda mavjudligini, "ular, asosan, 1800 yilda Rossiyadan haj qilish uchun Makkaga ketgan shaxslardan iborat bo'lib, negadir bu yerda muqim turib qolganlar"ini yozadi. Shu bilan birga, u o'z bildirgisida bu toifaga oid odamlar ro'yxatini ham ilova qilgan.

Poruchik Subhonqulov Buxoroga borgan karvon bilan Oren-burgga qaytib keladi. Bu yerda u o'z tasurotlarini tartibga solib, ularni dastlab Orenburg harbiy gubernatori Volkonskiy kanselyariyasiga topshiradi. Bu yerda tasurotlar tahrir qilinib, uni bildirgi (raport) holiga keltiriladi va poruchik bilan Peterburgga jo'natiladi. 1811 yil boshida poruchik Rossiya tashqi ishlar va savdo vazirligiga o'z safari haqidagi hisobotni topshirib qaytadi.

Shunday qilib, 1809 yil kuzida boshlangan poruchik Subhonqulovning Buxoro safari 1811 yil boshiga kelib o'z yakunini topadi. Shundan keyin ancha vaqgacha bu kimsa Rossiya tashqi munosabatlari bilan bog'liq siyosiy-diplomatik masalalarda ko'zga tashlanmaydi. Faqat 1818 yilga kelib Orenburg uni yana O'rta Osiyoga, bu safar Xiva xonligaga elchi sifatida jo'natganligi haqida ma'lumot bor. Buning tafsiloti shundaki, 1816 yilda Troiskdan Buxoro tomon yo'lga chiqqan katga savdo karvoni Bukan degan joyda Xiva suzoriylarining hujumi tufayli talon-toroj qilinadi. Bu qaroqchilik natijasida karvondagi Buxorolik savdogarlar qatorida Ekaterinburglik rus savdogarlaridan Yakushev va Lazarev deganlar ham o'z mol-mulklaridan ajraladilar. Tabiiyki, ular Orenburgga qaytib kelgach, harbiy gubernatorga shikoyat yozib, talangan boyliklarini qaytarib olish uchun Rossiya hukumatidan madad so'raydilar. Harbiy gubernator P. Essen bu haqsa Peterburgta xabar berar ekan, nomlari zikr qilingan rus savdogarları qo'rgan zararni 127 ming rus rubli miqdorida ekanligini yozgandi. Ammo poytaxtdan hadeganda javob kelavermaydi. Shundan bo'lsa kerak, Orenburg harbiy gubernatori bu haqda poytaxtga qayta-qayta yozishga majbur bo'ladi. Natijada Peterburgdan talon-toroj etilgan karvon masalasi bo'yicha podshoh nomidan Xiva xoniga maxsus elchi Yuborish haqida farmoyish keladi. Shu farmoyishga asosan harbiy gubernator P. Essen 1818 yilning iyun oyida Xiva xoni Muhammad Rahim (1806-1825)ga boshqird askarları poruchigi Abdul Nosir Subhonqulovni elchi sifatida yuboradi va unga rus savdogarları Lazarev va Yakushevlar ko'rgan zararni undirish masalasini hal qilish vazifasini topshiradi. Ammo missiya mutlaqo mag'lubiyat bilan yakunlanadi. Subhonqulov Xivada juda sovuq qabul qilinadi. Xatto uning musulmon qavmidan ekanligiga ham shubha bildirilib, o'z xo'jalariga xonlikka xristianlarning kirishi mutlaqo man etilganligi, agar bu taqiqni buzib ular bu yerda paydo bo'lguday bo'lsalar, u holda darhrl qatl etilishlari mumkinligini yetkazishni aytib, elchi bilan muzokaraga kirishmasdan uni qaytarib Yuborishadi¹.

Poruchik Subxnqulovning O'rta Osiyoga yo'llangan ikkinchi missiyasi ana shu tarzda muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Bundan keyingi yillardagi diplomatik bordi-keldilarda Subhonqulovning nomini uchratmaymiz. Aftidan rus ma'murlari Xiva safaridan keyin undan boshqa bu yo'lda foydalanmaslikka qaror qilgan ko'rinadi.

¹ Xalfin N.A. Rossiya i xanstva Sredney Azii (pervaya polovina XIX v.). Moskva, "Nauka", 1974. s. 133-134. 2. SGA Uz, f. 6. op. 10. d. 291, l. 217.

Ammo Subhonqulovning Buxoroga Yuborilgan missiyasi Rossiya uchun ancha muvaffaqiyatli bo'lgandi. Albatta, bu o'rinda uning Buxoro hukmdoriga shaxsan imperatorning o'zi nomidan bitilgan maxsus YOrliq bilan borganligi xal qiluvchi omil bo'lgandi. Shuning uchun ham u, Yuqorida aytilganidek, hatto soxta pul yasovchi Valit Hamitov bilan ham uchrashishga muvaffaq bo'ladi. Hujjatlarda ta'kidlanishicha, u Buxoroda "3 ta rus asirini ozod etishga erishadi".

Ushbu safar natijasida Rossiya hukmron doiralari O'rtta Osiyodagi siyosiy ahvol, ayniqsa, Buxoro amirligining xalqaro mavqeい hamda ichki vaziyati to'g'risida sinchkovlik bilan yig'ilgan aniq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Poruchik Subhonqulovning yo'l xotiralarida keltirilgan bu soxadagi ma'lumotlar elchining o'ziga topshirilgan, ayniqsa, maxfiy Yo'riqnomada birma-bir sanab o'tilgan masalalarga javob topish uchun tinmay harakat qilganligini ko'rsatib turibdi.

Poruchik Subhonqulov o'z safari xotiralarida Buxoroga borish yo'llarini, aholi nuqtalari orasidagi masofalarni, ichimlik suvlari zaxiralarini (hatto quduqlarni ham), daryolar, o'simliklar nomlarini birma-bir sanab o'tishga harakat qiladi. Orenburg davlat arxivida u yozgan yo'l xotiralarining dastlabki qoralama nusxasi sakuganib qolgan. Unda hatto yo'llarda uchragan ayrim o'simliklarning shakllarigacha chizilgan.

Subhonqulov unga Yuklatilgan topshiriqqa binoan Turkiston mintaqasida mavjud davlatlar orasidagi munosabatlар darajasi bilan juda qiziqadi. Ayniqsa, Buxoro-Xiva orasiga rahna solgan voqealar tafsilotiga alohida e'tibor beradi. Uning yozishicha, bu vaqglarda Buxoro bilan Xiva o'rtasidagi siyosiy aloqalar buzilgan va ikki o'rtada qator harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tgan.

Xiva va Buxoro munosabatlari haqida yozar ekan, asosiy e'tiborni u Xiva xonligi bilan qoraqalpoq qo'ng'irotlari o'rtasida Yuz bergan ixtiloflarga qaratadi, " 1809 yilda, - deb yozadi u, - xivaliklar savdo-sotiq ishlari bilan Sirdaryo bo'ylarvda ko'chib Yuruvchi qirg'izlarning (qozoqlarning) Chiklin qabilasi tomon borganlar. Ular savdo ishlarini tamomlab qaytayotganida YAngi Daryo bo'ylaridagi qo'ng'irot-qoraqalpokdar To'ra Murat So'fi boshchiligidagi xivalik savdogarlarga hujum qilib, ulardan bir qanchasini o'ldiradilar, qolganlarining mol-mulkini tortib oladilar. Bu xabar Xiva xoni Muhammad Rzhimga etgach, qoraqalpoqlarga qarshi qo'shin Yuboradi va ularni tor-mor keltirib, 300 ga yaqin kishini oilasi bilan asir qilib olishadi. Qolganlarga esa Yangi Daryo bo'ylarini tark etib, Xivaga yoki Qirg'iz-Qaysoq O'rdasiga tobe joylarga ko'chib o'tish haqida siperish beriladi. Ammo qoraqalpoklar xonning bu buyrug'ini nazar-pisand qilmasdan o'z joylarvda istiqomat qilaverganlar.¹

Subhonqulovning ta'kidlashicha, ana shu voqealar sabab bo'lib, Buxoro va Xiva o'rtasida sovuqchilik paydo bo'ladi, bu esa asta-sekin qurolli to'qnashuvlarga ham olib keladi. Chunki Chiklin kebilasining boshliklaridan aka-uka Xoja Murod va To'ra Murod So'fiylar o'zar o'dushmanlik tufayli o'z tarafдорлari bilan biri Xiva va ikkinchisi Buxoro xonligaga tayanib ish ko'rishga harakat qiladi. To'ra Murod Buxoro xoni Mir Haydardan harbiy madad oladi. O'z ukasi tazyiqidan Xivaga qochib borgan Xoja Murod esa u yerda qandaydir sabab bilan o'ldiriladi va bu voqealarni bayon etar ekan, ularni yakunlab: "Buxoro va Xiva o'rtasidagi munosabatlар yomon ahvolda", deb xulosa qiladi Subhonqulov.²

Shuningdek, u Buxoro bilan Qo'qon o'rtasidagi alokalarni ham yoritishga xarakat qilgan. "1807 yilda, - deb yozadi Subhonqulov, -Qo'qon askarlari Buxoroga qarashli O'rategaga yaqin qishloklardan biriga hujum qilib, O'ratega qokimi qushbegi Hakimbiyning ukasi O'tkir so'fini odamlari bilan asir olib ketishgan. Ular hozir ham Qo'qon xoki ixtiyorida turishibdi. Qo'qon xoni Alimxon 1810 yil 5 yanvarda O'rategaga hujum qilib, ko'plab odamlarni asir olgan va mollarni haydab ketgan. Bunga javoban 1810 yil 15 yanvarda Buxoro ko'shnlari qo'qonliklardan 150 tasini asir olib, Buxoroga olib ketganlar. 20- va 24-yanvar kunlari Buxoro xoni Qo'qonga qarshi 18000 kishilik qo'shin jo'natadi. Ammo bu qo'shin Jizzax yaqinida Alimxon kuchlari bilan to'qnashganda unga hujum qilishga jur'at eta olmaydi va orqaga qaytadi. Alimxon esa may oyida Toshkentni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. 18 mayda u yerdan qochgan Toshkent hokimi Xoja va Qobilbiy degan qalmpq o'zlarining bir necha suvoriy Sheriklari bilan Mir Haydar huzuriga keldilar. Ular xonga beshta qalqon, o'n beshta yaxshi miltiq, qimmatbaho egar-jabduqlari hamda yopinchoq bilan 15 ta arg'umoq tortiq qildilar. Mir Haydarxon o'z navbatida Xoja va Qobilbiy hamda ularning 3 ta

¹ GAOO, f. 6. Op. 10. 291, l. 142. 2. O'sha asar, l. 143.

² O'sha joyda

Sheriklarini oltin qinli xanjarlar bklan siylaydi. Bu xanjarlar Buxoroda ma'muriyat belgisi sifatida tan olinadi"¹.

Yuqorida keltirilgan parchadan ko'rinish turibdiki, Subhonqulov nafaqat Xiva-Buxoro, balki Buxoro-Qo'qon munosabatlari haqvda ham sinchkovlik bilan ma'lumotlar to'plagan.

Umuman, poruchik Subhonqulov hisobotida bu masalalar Yuzasidan keltirilgan tafsilotlar O'rtta Osiyodagi o'sha davr siyosiy voqealarini yoritish uchun muxim ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, Subhonqulov Turkiston xonliklariish boshqa davlatlar bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradi. "Buxoroliklar eronliklar bilan hech qanday ittifoq tuzmaganlar"², deydi u.

Buxoro xonligining savdosiga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bu erga Ko'nak, Kashmir, Hindiston, Memet, Hirot, Qashgar, Toshkent, Xiva va Osiyoning boshqa shaharlardan savdo karvonlari kelib turadi. YAnvar va fevral oylarida savdo gavjum bo'ladi. U ba'zan xatgo 15 aprelgacha ham davom etadi. Shundan so'ng karvonlar turli taraflarga jo'nab ketadilar».

Buxoro xonligqdagi turli millat vakillarining mashg'ulotlari va kasb-korlari haqida shunday yozadi: "Buxoroda istiqomat qilayotgan isroilliklar ipak qurti etishtirish, ipakni bo'yash, shohi va boshqa matolarni to'qish bilan shugullanadilar, ammo dehqonchilik ishlari ularga begona. Hindlar, afgonlar, armanlar savdo bilan mashg'ul, ular ham dehqonchilik qilmaydilar. Turkmanlar harbiy ishlarga jalb etilgan, ammo ularning ichida dehqonlar ham mavjud. Asli buxorolik bo'lgan o'zbek va sartlarga kelsak, ularning ayrimlari harbiy xizmat bilan, ba'zilari savdo-sotiqlari, qolganlari esa g'alla hamda boshqa hayotiy zarur mahsulotlarni etishtirish bilan shutullanadilar».

Poruchikning kundaliklarida Amu va Sirning katga kemalar qatnovi uchun noqulayligi, ular "atrofi qumliklar bilan o'ralgan va Kaspiydan uzoqda joylashgan ko'l - Orolga quyilishi" haqidagi ma'lumotlar bilan birga O'rta Osiyo janubidagi xorijiy Sharq mamlakatlarida ro'y bergen voqealargacha bayon etilganligini ko'ramiz. "Ishonchli xabarlarga qaraganda, - deb yozadi u, - inglzlar daryolardan suzib kelib joylarda turli tovarlar va bug'doyni aholi o'rtasida ataylab arzon pullamokdalar. Vaholanki, o'zлari ularni qimmat narxda xarid qilganlar. Shunday makkorona usullar bilan ular Qandahor va Peshovar degan shaharlarni ijaraga olishga muvaffaq bo'lganlar. Qobul shahrining hokimi Shuja ul-Mulk degan bir kimsa ilgarigi yillarda shahar aholisining siquvidan u yerdan ketib, inglzlar bilan tanishgan. 1810 yil bahorining boshida inglzlar Shuja ul-Mulkka bir qancha askar berib, Kashmir orqali uni yana Kobulga olib kelganlar va avvalgi lavozimiga tiklab qo'yganlar"³.

Subhonqulovning kundaliklarida yana bir tarixiy faktga duch kelamiz. Uning ta'kidlashicha, 1810 yilning 1 apreldidan 18 mayigacha Buxoroda juda katta qum bo'roni Yuz bergen. Xonlikning ayrim nohiyalarida butun boshli hovli-joylar va bog'lar qum to'dalari ostida qolib ketgan. Dalalardagi barcha ekinlarni qattiqsov urib yo'q qilib Yuborgan. Buning natijasida aholi o'rtasida dahshatli ochlik boshlanib ketadi, qimmatchilik avj oladi, bozorlar bekiladi, hech kim biror egulik sotmay qo'yadi. Buxoroda turli g'alayonlar, o'g'irlilik va qaroqchilik odatlari voqelikka aylanadi. Bunday sharoitda, Subhonqulov keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Mir Haydar shahardagi erkagu ayolni qal'a tashqarisiga olib chiqib, o'zi boshchiligidagi uch kun davomida qo'llarni osmonga ko'tarib Ollohga nola qilishga majbur etadi. Shundan so'ng amirning buyrug'i bilan shaxardagi xususiy omborlardagi barcha don-dun zaxiralari musodara qilinadi va sotuvga chiqariladi. "Bir botmon, ya'ni sakkiz pud g'allaning bahosi, - deb yozadi Subhonqulov, - besh Chervonga ko'tarildi. Chetdan kelgan aholi o'z Yurtlariga tarqab keta boshladi. Buxoro va unish atroflarida istiqomat qiluvchi qoraqalpoq va qirkiz-qaysoq (qozoklar) kambag'allar asl joylariga qaytib ketdilar. Umuman, shaharning uchdan bir qismi o'z uy-joylarini tashlab Qo'qon, Samarqand, Shahrisabz, Xiva kabi boshqa shaharlarga jo'nashga majbur bo'ldilar. IYunning o'ninchisida shaharga ariq qazilib suv keltirilgandan keyin hamma narsaning narxi yana asta-sekin o'z holiga kela boshladi"⁴.

Poruchik Subhonqulov xotira daftaridan joy olgan bu kabi qiziqarli tarixiy voqealarini ko'plab

¹ O'sha asar, l. 145.

² O'sha asar, l. 145.

³ O'sha asar, l. 147.

⁴ O'sha asar, l. 149.

keltirish mumkin.

Bu ma'lumotlarga tayangan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin: XIX asrning boshlarida Buxoro-Rossiya munosabatlari u qadar rivoj topmagan bo'lib, savdo karvonlarining yo'llarda talanishi, Rossiyadan O'rta Osiyoga qochib, u yerda panoh topgan ayrim shaxslarning faoliyatidan (masalan, soxta pullar yasalishi kabi) rus ma'murlarining noroziligi kabi voqealar ikki oradagi aloqalarning yanada susayishiga sabab bo'ladi.

Ovrupodagi muhim voqealar bilan band bo'lган Peterburg Turkiston xonliklariga ko'п ham e'tibor qilmas, ular bilan aloqa qilishni Orenburg harbiy gubernatoriga gashlab qо'yan edi. Bu esa o'z navbatida xonliklardan biri - Buxoroning kattiq noroziligiga sabab bo'ladi. Bu vaqtga kelib Ovrupodagi siyosiy ahvol O'rta Sharqdagi voqealarda ham o'z in'ikosini topa boshlaydi. Shunday bir vaziyatda Peterburg Buxoro xonligi bilan yaxshi aloqalarni o'rnatishtga jiddiy ahamiyat berishga qaror qiladi. Natijada Buxoroga Orenburg harbiy gubernatori nomidan emas, balki imperator YOrlig'i bilan maxsus elchi Subhonqulov jo'natiladi.

Poruchik Subhonqulov elchiligi ikki o'rtadagi siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga katta xissa qo'shmagan bo'lsada, ammo oradagi rasmiy munosabatlarning bir maromga tushishiga yo'l ochdi. Aslida bu missiyaning Rossiya uchun ahamiyati katta bo'ldi. Peterburg Napoleon xuruji arafasida bu mintaqadagi siyosiy vaziyat, xonliklarning xalqaro aloqalari, ularning kuch-qudratlari, iqtisodiy holati haqida ishonchli materiallar to'plash, ulardan Rossiya gashqi siyosati uchun ma'lum xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, bu missiya va uning Yuborilishi bilan bog'liq voqealar Buxoro xonligi mustaqil tashqi siyosiy tarixini o'rganishda katga ahamiyat kasb etadi.

3. Amir Haydar davrida Buxoro-Rossiya diplomatiya aloqalariga oid ma'lumotlar

XIX asr boshlarida Buxoroning Rossiya bilan olib borgan diplomatik aloqalarini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqtanayotgan "Tarixi amir Haydar" nomli nodir qo'lyozma asarning ahamiyati kattadir.¹

Bu asarning bir qismini 1950 yillarda A.A. Semyonov rus tilida e'lon qilgan². Uning fikricha, bu nusxa Mulla Ibodulla va Mulla Muhammadsharkovlar tomonidan juda mufassal yozilgan asarning boshqa noma'lum muallif tomonidan qisqartirib ko'chirilgan nusxasidir. A.A. Semyonov uni Buxoro amaddorlaridan bo'lsa kerak, deb hisoblaydi. Hajmi 97 betdan iborat bo'lган bu asarning bir bobি amir Haydarning rus elchisi A.F. Negrini qabul qilish marosimiga bag'ishlanadi. Buxoro-Rossiya diplomatik aloqalariga tegishli bo'lган ayni shu bobni hozirgi vaqtida tadqiqotchilar ixtiyorida bo'lган arxiv materiallari bilan taqqoslab o'rganish muhim. Chunki qiyosiy tadqiqot natijasida ba'zan manbalarda turli sabablarga ko'ra yo'l qo'yilgan xatoliklar va Chalkashliklar ham aniklanadi.

A.F. Negri elchiligi XIX asrning avvalida Rossiyaning Buxoroga etib kelgan birinchi yirik rasmiy elchiligi edi.

To'g'ri, ungacha ham ikki o'rtada elchilik aloqalari davom etib kelgan, biroq bu aloqalarda Buxoro tomoni ko'proq faollik ko'rsatgan. Tarixchilar shahodat berishicha, 1762 yili Orenburg atroflarida Buxoroning savdo karvoni Pugachyov qo'zg'olonchilari tomonidan talangandan so'ng Buxoro amiri 1775 va 1779 yillari Mulla Ernazar Maqsudovni o'zining elchisi sifatida Peterburgga Yuborgan edi. Shundan so'ng to 1820 yilgacha Buxorodan Rossiyaga o'n bir marta elchiliklar Yuboriladi. Garchi ular siyosiy-diplomatik xaraktyerdagi muammolar bilan bog'liq bo'lsada, ularga hamma vaqt o'zaro savdo aloqalarini mustahkamlash vazifasi ham Yuklanar edi. Zero, Buxoro Rossiya bilan savdo aloqalarini kengaytirishdan va uning tranzit imkoniyatlaridan manfaatdor edi.

XIX asr boshlarida Rossiyadan Buxoroga Yuborilgan elchiliklarning soni ko'п emas. O'rta

¹ Tarixi amir Haydar. O'zR FA Sharqshunoslik institutgi (SHI) qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 1836.

² Semyonov A.A. K istorii digiYumatičeskix snosheniy mejdu Rossiey i Buxoroy v nachape XIX veka. - Izvestiya akademii nauk Uz SSR. 1951. № 1. s 85-95.

Sharq va Ovrupo mojarolariga aralashib ketgan Peterburg O'rta Osiyo xonliklari bilan diplomatik aloqalar olib borishdan ko'ra bu o'lkkalar qaqida ma'lumotlar yig'ish bilan shug'ullanardi. 1804 yili Buxoroga Yuborilgan rus elchisi poruchik Gaverdovskiy (unga bu o'lkan o'rganish bo'yicha keng qamrovli topshirik/shr berilgan edi) yo'lida qaroqchilarga duch kelib, maqsadiga etolmay orqaga qaytishga majburbo'ladi. 1809 yili podshoh Aleksandr I nomidan Orenburg general-gubernatori tomonidan Buxoroga Yuborilgan Subhonqulov elchiligining Rossiya uchun samarasi uning diplomatik ahamiyatidan ko'ra, u yig'ib qaytgan harbiy-strategik qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlarda edi, desa ham bo'ladi.

Rus-fransuz urushi davrida (1812) Buxoro bilan Rossiya o'rtasida nafaqat elchilik aloqalari, balki karvon yo'llaridagi qaroqchilikning kuchayib ketganligi tufayli o'zaro savdo aloqalari ham ancha qisqarib qolgan edi.

Fransiya bilan urush tugagach, Rossiya hukmron doiralari o'z e'tiborini O'rta Osiyoga qaratadi va ikki o'rtadagi savdo aloqalarini kengaytirish bilan bir qatorda, bu "noma'lum o'lka" haqida turli xil ma'lumotlar yig'ishga astoydil kirishadi.

Orenburg general-gubernatori Buxoro amiriga xat yozib, Fransiya bilan urush Rossiya g'alabasi bilan tugaganligini xabar qiladi va ikki o'rtadagi savdo aloqalarini kengaytirishga da'nat ztadi.

Shundan so'ng Buxorodan Rossiyaga ikki marta rasmiy elchiliklar Yuboriladi. Ularning har ikkalasiga devonbegi Azimjon Mo'minjonov boshchilik qiladi¹.

Amir Haydar (1800-1826) Azimjon devonbegi orqali podshohga Yuborgan yorliqda Fransiya ustidan qozonilgan g'alaba bilan tabriklab, uning e'tiborini savdo aloqalariga oid muammolarga: savdo karvonlarining qaroqchilar tomonidan talanayotgani, chegara bojxonalarida buxorolik savdogarlarga aziyat yetkazilayotgani va h.k. larga qaratadi¹. Elchi bu fikrlarni sharhlab, savdo aloqalarini mustahkamlash maqsadida birgalikda tadbirlar ko'rish, ular yo'lida g'ov bo'layotgan to'siklarni bartaraf etish, hatto Buxoroning rus asirlari masalasini muhokama qilishga ham tayyor ekanligini bildirib, Rossiyaning vakolatli elchisini Buxoroga Yuborishni amir nomidan taklif etadi.²

Rossiya tashqi ishlar vazirligining notasida Azimjon devonbegi elchiligi mammuniyat bilan qabul qilinganligi va o'zaro aloqalarga oid masalalar borasida muzokaralar olib borish uchun Buxoroga rus elchiligi Yuborilishi haqida rasmiy ravishda e'lon qilinadi. Biroq, amalda bunday elchilik kelavermaganidan 1818 yilda yana Azimjon devonbegi boshchiligidida "do'stlik va totuvlik asoslarini mustahkamlash uchun" Buxorodan elchilik jo'natiladi va Yuqorida eslatilgan masalalar Yuzasidan muzokaralar davom ettiriladi.

Rossiya podshohi Buxoro amirining mazkur elchiliklariga javoban 1820 yil sentyabrda o'zining Yuksak maqom amaldori -haqiqiy davlat maslahatchisi, fors va turk tillarini yaxshi bilgan sharkdlunos, Rossiyaning Tehrondagi elchixonasida ishlab, tajriba orttirgan diplomat Aleksandr Fedorovich Negri (1784-1854) rahbarligida rasmiy davlat elchiliginu yuboradi.

Aleksandr I A.F. Negri orqali amir Haydarga Yuborgan YOrlig'ida shunday deyiladi: "Buxoroning moliki amir Haydar Sultonga Bizning, Imperator hazratlarining, yoqimli olqishlarimiz (bo'lzin!). Hazratingizdan Yuborilgan elchi devonbegi Azimjon Mo'minjonov Bizga Sizning yorlig'ingizni topshirdi. Biz undan Sizning Rossiya va Buxoro o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan do'stlik va savdo aloqalarining ravnaq topishi haqidagi istaklaringizni mammuniyat bilan angladik. Bu masalaga o'zimizning e'tiborimizni namoyish qilish (maqsadida) Biz Hazratingiz huzuriga haqiqiy davlat maslahatchisi va kavaleri Aleksandr Negrini jo'natdik; unga Sizning zotingizga goyat moyilligimizni tasdiqlash va Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalarini eng qulay tartibga keltirish va ta'minlashga aloqador bo'lgan jihatlarini tushuntirish topshiriladi. Alqissa, Sizni Xudoga topshirdik.

Peterburgda, 1820 yil 24 iYul kuni, Bizning podshohligimizning yigirmanchi yilida berildi".³

Podshoh yorlig'ida juda beg'ubor, hatto nazokatli jilolangan bu fikrlar Rossiya tashqi ishlar vaziri K.V. Nesselrodening A.F. Negriga bergen qo'shimcha qo'llanmasida (1820 yil 25 iyul (6

¹ Mironshoh Munshi. Maktubot, munshaot va manshurot. O'z RFA SHI qo'lyozmapar xazinasi. Inv. № 289, 200-a, 6 betlar.

² Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya I, T., VIII. M. 1972. s. 646-647.

³ Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya II. T. III (XI). M., 1979. s. 453.

avgust) shunday talqin qilinadi: "Garchi bizdan uzokda bo'lsalarda, biroq savdo vositasi bilan muayyan bir darajada bog'liqligi bo'lgan Osiyo mulklari haqida mumkin qadar eng to'g'ri ma'lumotlarni yig'ish uchun missiyamizni Buxoroga jo'natishdan foydalanish zarurligini e'tirof etib, vazirlik janobingizga quyidagi topshiriklarni beradi.

1. Qo'qon xonligining ahvolini, bu mulkning muzofotlari, tabiiy boyliklari, savdosi, boshqaruvi, hozirgi hokimning xislatlari va xonlikning qo'shnilarini bilan munosabatlarini bilish.

2. Turkiston va Toshkent haqida ham xuddi shunday tafsilotlar.

3. Buxoroning Usmonli Porta (Turkiya) ga, Eronga, Xivaga va afgonlarga nisbatan munosabati.

4. Eslatilganlardan oxiridagilarining hozirgi ahvoli.

5. Sirdaryo (Yaksart) va Amudaryo (Jayhun) da kemalar Yuradimi, qaysi joyidan boshlanadi va qayerda to'xtaydi.

6. Shuningdek, Kobul, Qandahor, Kashmir, Tibetdagi Latak va Panjob haqida haqiqatga juda yaqin bo'lgan ma'lumotlarni olish goyat maqsadga muvofiq bo'lur edi; o'sha yerlarning haqiqiy siyosiy holati, o'zaro aloqalari do'stonami yoki dushmanona va eng asosiy mahsulotlari (nima?).

Nihoyat, u yerlarda ko'proq qanday Ovrupo mollariga ehtiyoj bor va ularni qayerdan olishadi?¹

Qo'llanmadan ko'rinish turibdiki, garchi elchilikning asosiy maqsadi savdo aloqalari ekanligi e'tirof etilsada, o'lkani har tomonlama o'rganish, uning ichki va tashqi aloqalari, moddiy va ma'naviy holati, iqqisodiy va ijtimoiy ahvoli, boyliklari, xo'jaligi, ishlab chiqarishi, jug'rofiy imkoniyatlari, qo'shni davlatlar va xalqlar bilan munosabatlari va ularning ham ichki va tashqi ahvoli haqida mufassal va mukammal ma'lumotlar yig'ishdan iborat edi.

Tabiiyki, bu qadar keng qamrovli topshiriklarni bajarish uchun elchilik tarkibiga turli xil mutaxassislar, tabiatshunos, vrach, geograf-kartofaf va harbiylar kiritilgan va ularning har biriga muayyan-aniq vazifalar Yuklatilgan edi. Jumladan, elchi huzurida bo'lgan rus-fransuz urushining ishtirokchisi, harbiy masalalar bo'yicha bilimdon mutaxassis va shijoatli kapitan baron E.K. Meyendorfga elchilik bosib o'tgan yo'llar va o'lkkalar haqida jug'rofiy va statistik ma'lumotlar yig'ish vazifasi topshiriladi. Uning oldiga Troiskdan Buxorogacha bo'lgan yo'llar, daryolar va Orenburgdan quynda bo'lgan muzofot-larni o'zlashtirish, u yerlarga aholi joylashtirish rejalar va muammolari haqida mulohaza Yuritish; Orsk hamda Troiskdan Sirdaryogacha bo'lgan yo'llarning qayerlarida istehkomlar va qal'alar qurish mumkinligi va h.k. ni aniqlash; yo'llarning astronomik kengligi va uzunligini tadqiq qilish asosida o'lkaning bosh xaritasini tayyorlash kabi muhim vazifalarning qo'yilishi Rossiya hukumatining O'rta Osiyodagi manfaatlari faqat savdo aloqalari bilan chegaralanmaganligini, balki ular uzoqni ko'zlovchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlardan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, amerikalik tarixchi Edvard Olvordsning: "Moskva diplomatlari Markaziy Osiyoning harbiy imkoniyatlari haqida ma'lumotlar yig'ar edilar... Markaziy Osiyo xonlari Rossiya bilan diplomatik aloqalarda bu kabi iqtisodiy va strategik omillarga e'tibor bermas edilar", deyishiga asos bor edi.

1820 yil dekabrda Rossiya elchisi A.F. Negri tantanali ravishda Buxoroga kirib keladi.

Unga ikkita dala to'pi bilan 200 ta askar, 200 ta kazaklar, 25 ta boshqird otlikdari hamroxlik qilar va Yuk ortilgan 380 tuyalik karvon, 400 ta ot elchilik xizmatida edi. Davlat elchisining yaxshi himoyalanganligi davlatning qudratini namoyish qilishi kerak edi.

Buxoroga 15 chaqirim etmasdan elchilikni 30 ta otlmq bilan amir yasovuli kutib oladi va Bozorchi nomli joyga boshlab borali. Bu yerda 36 soat davomida qabul marosimining qonun-qoidalari muxrkama qilingandan so'ng, A.F. Negriga amir huzurida o'tirgan hodda suhbatlashish uchun ijozat beriladi.

Nihoyat, 20 dekabr kuni choshgohda elchi amir huzuriga saf tortib yo'l oladi. "Safning oldida, - deb yozadi E. K. Meyendorf, - kazaklar biz olib kelgan sovg'alarni ko'tarib borishardi. Ular: mo'ynalar, chinni va billur idishlar, tilla soatlar va quro'l-lardan iborat edi. Piyoda askarlarning bir qismi saf tortib orkdsan kelishardi. Fors tilini mukammal biladigan, xushsurat, muhim mansabli o'zbek amaddor elchilikni saroya olib kirish uchun ularning oldiga tushib borardi".

Elchining amir huzurida kdbul qilinishi va unga podishohning ishonch yorlig'ini topshirishi

¹ Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya II. T. III (XI). M. 1979. s. 453.

haqida quyidagilarni o'qiyimiz: "Ikki yonida kameryerlari bilan Netri xon tomoniga o'n qadam yurib, unga fors tilida murojaat qildi va keyin qushbegiga ishonch yorlig'ini topshirdi va o'tirdi. Elehilikning boshka a'zolari eshikning ikki tomonida turgancha qoldilar. Qushbegi zudlik bilan imperatorning maktubini xonga topshirdi; xon uni baland ovoz bilan o'qib chiqsi..."¹

A.A. Semyonov bu odatni o'rta asrlar Buxoro diplomatiyasidagi qoidalar bilan solishtirib, ularning birmuncha o'zgarganini ko'rsatadi. Avval elchi olib kelgan chet el hukmdorining maktubi kichik inoq (inoqi xurd)ga topshirilar edi; u xatni ochib va xonning buyrug'i bilan o'z hokimining shaxsiy kotibiga, munshiga berar, u esa baland ovozda uni o'qib berardi².

Qabul marosimi 20 daqiqa davom etadi. Elchi yana bir necha bor amir va uning vaziri bilan uchrashib, muzokaralar olib boradi. Amir har ikki tomondan savdo karvonlarining tez-tez kelib turishi va ularning xavfsizligini ta'minlash lozimligi, jumladan, savdo karvonlarini Sirdaryogacha buxorolik otliqlar kuzatib borishi, u yerdan Orenburggacha rus otlikdari o'z himoyasiga olishi to'g'risida fikr bildiradi. Biroq Rossiya elchisining Buxoroda Rossiya imperiyasining doimiy konsulligini ochish fikriga u ro'yxush bermaydi; xuddi shuningdek, Orenburgda yoki Peterburgda Buxoro konsulligini tashkil etish haqidagi taklif ham ma'qullanmaydi. Rossiya elchisining o'zi va Orenburg general-gubernatori A.F. Negri elchiligi muvaffaqiyatl o'tdi, deb hisoblasalarda, bo'lib o'tgan muzokaralar haqida biron-bir rasmiy yozma hujjat imzolanmagan edi. Aftidan, Buxoro hukmdorlari Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga harakat qilsalarda, o'zlarini yozma bitim va shartnomalar bilan bog'lab qo'yishni istamas edilar. Har holda A. F. Negri Rossiya davlat elchisi sifatida Buxoroda amir bilan savdo-sotiq masalalarini rasmiy muhokama qildi va ko'p o'tmay yuqorida zikr etilgan savdo karvonlarini qurolli otliklar himoyasida kuzatib qo'yish va kutib olish odat tusiga kira boshladi. Shu bilan birga elchi boshqa masalalar bo'yicha, jumladan, rus asirlari haqida rasmiy va norasmiy uchrashuvlar olib bordi va 20 ga yaqin rus asirlarini xarid qilib, o'zi bilan olib ketdi.

Amir elchiga Muhammad Yusuf Munshining "Tarixi Muqimxoniy" qo'lyozmasini tavdim qildi; buni rus elchiligiga ko'rsatilgan shohona iltifot, deyish mumkin, zero, bunday asarning borligi Peterburgda hali hech kimga ma'lum emas edi. Sharqshunos O. I. Senkovskiy uning ayrim qismlarini fransuz tilida nashr etganidan so'ng mazkur qo'lyozma Ovrupoda ham mashhur bo'lgan edi. "Tarixi Muqimxoniy"ning 1956 yili A.A. Semyonov tomonidan rus tilida chop etilganligi hammaga ma'lum³.

A.F. Negri elchiliginining Rossiya davlati uchun muhim samaralaridan biri - bu o'lka haqida uning a'zolari amalga oshirgan turli xil ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va xulosalar yasash bo'ldiki, E. K. Meyendorfning "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asari bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'z vaqtida Buxoro haqida eng mukammal asar hisoblangan, biroq shovinistik ruhdagi ayrim fikr-muloxazalari e'tirozli bo'lgan bu kitobning muallifi Buxoro-Rossiya savdo aloqalarining istiqbollari haqida fikr Yuritib, bu yo'ltagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi uzoqni ko'zlagan xulosalarni bergak edi: "Agar Buxorodan Rossiyaga boradigan yo'lida qaroqchilik va yo'lto'sarlik tugatilsa, savdo ancha kengayadi. Agar Xiva xonligi Rossiya hukmronligi ostiga o'tsa, bu yo'l mutlaqo xavfsiz bo'ladi"⁴.

A.F. Negri Buxoroda 1820 yil 20 dekabrdan 1821 yil 10 martgacha istiqomat qiladi va yana Bozorchida ikki hafta turib, 25 mart kuni Buxoro muzofotlarini tark etadi.

Rossiya elchiliginining Buxoroga kelishi bilan bog'liq voqealar "Tarixi amir Haydar" asarida shunday ta'riflanadi:

"Hokiy aytadi: Buxoroga (rus) elchisi kelgani haqida xabar etgach, xalq mislsiz tomoshani ko'rgani ko'Chalarga chiqdi. Shuncha xalq yig'ilgan ediki, ta'riflab bo'lmaydi. Elchi shahar hududiga kirib kelganda u Yurgan yo'lning ikki tarafidagi tomoshabinlar safi Obulxafs Kabir - Alloh uni rahmat qilsin, darvozasigacha cho'zilgan edi. Elchi xalqning favqulodda ko'pligidan g'oyat hayratga kelgan edi. Shunday qilib, u shaharga kirib keldi; amir (shu munosabat bilan)

¹ O'sha yerda.

² Semenov A.A. K istorii diplomaticeskix snosheniy mejdju Rossiey i Buxaroy v naChale XIX v. - Izvestiya akademii nauk Uz SSR. 1951. № 1. s. 91.

³ Muhammed Yusuf Munshi. Mukimxanovskaya istoriya (Tarix-i Mukim-xani). T., 1956.

⁴ Meyendorf E.K, Pusheshestvie iz Orenburga v Buxaru. M., 1975.

poytaxt ruhoniylaridan so'radi: "Biz elchi oddida o'rnimizdan tursak, to'g'ri bo'ladi? Yo'qmi"? Ruhoniylar shunday javob berdi: "Amir biron ta odamga qo'ltig'iga Qur'on olishni buyursinlar va u elchining oldiga tushib Yursin; agar amir o'rinalardan tursalar, (bu) faqat Ollohnning Kalomiga chuqur hurmat vajhidan turgan bo'ladiilar (va kofirlar bilmay, buni o'zlariga nisbatan Yuksak maqom amirning e'tibori belgisi, deb qabul qiladilar)". Fikr amirga ma'qul bo'ldi. Shu vaqtida elchi Registonga kirib kelgani haqida xabar keldi; u yerda arklar va devorlar, maydon atrofidagi masjid va madrasalar tomoshabinlar bilan to'la edi. Elchi arkda paydo bo'lishi bilan amir a'yонлардан biriga qo'ltig'iga Qur'on olib, elchining oldiga tushib yurishni buyurdi. U xuddi shunday qildi. Elchining yaqinlashib kelayotganini ko'rgan amir o'rnidan turdi; elchi shu on amirga yaqinlashib, unga ehtirom ko'rsatdi. Amir unga joy ko'rsatdi va o'z o'rniغا o'tirdi. Amir elchiga shahar ichida katta uy ajratib berdi, unga maxsus muvakkal tayin qilinib, elchining kundalik ta'minotini muhayyo qilishni unga topshirdi. Elchining hamrohlari Bozorchi nomli erga joylashtirildi. Ruslar tasvir san'atida mohir bo'lganligidan ular barcha mansabdorlar (amirlar) va ruhoniylarning rasmlarini chizib oldilar. Xuddi shuningdek, ular Arkni, Registonni, Boleyi hovuzni va boshqa narsalarning rasmini chizib oldilar. Muqimxonning ham rasmi chizildi, chunki u vaqtida (Buxoroda) husndor (odamlar) ko'p edi (u esa husndorlarning husndori edi). Amir Nasrullo hukmronligi vaqtida ushbu Muqimxon Rossiya poytaxtiga elchi bo'lib borganda (u yerda) o'zining rasmini ko'rgan. Vaqt kelganda bu haqda maxsus aytildi.

Xullas, bu (rus) elchisi Buxoroda qariyb 50 kun (yo undan ko'proq yoki kamroq) istiqomat qildi, keyin amirdan orqaga qaytishga ijozat oldi. Rus davlati boshlig'iغا ko'p narsalar tortiq qilindi; elchi bilan birgalikda niyoyat katta fil (fil mahmudiy) Yuborildi. Amir o'z tarafidan Rossiyaga elchi Yuboradi, biroq yo'lda rus elchisi olamdan o'tadi (va) amirning elchisi yo'lida davom etib, ajnabiylar davlat boshlig'i talabiga muvofiq xizmat qilib, unga munosib ehtirom ko'rsatadi, olib kelingan sovg'alarni takdim qiladi, ularni podshoh nazaridan o'tkazadi, podshoh g'oyat katta filni ko'rib taajjub qiladi, zero, Rossiyada bunday hayvonlar yo'q edi. Podshoh qabulida Buxoro elchisiga imperator belgilagan joy tayin qilinadi va mukammal ehtirom ko'rsatiladi".

Aytish mumkinki, "Tarixi amir Haydar" asarida Buxoro -Rossiya diplomatik aloqalari qisqagina yoritilgan bo'lsada, u, shubhasiz, E. K. Meyendorf kitobidagi ma'lumotlarni boyitadi. Bu asar Buxoro amirining ikki davlat o'rtaida yaxshi munosabatlari va savdo aloqalarini mustahkamlashga intilganidan dalolat beradi. Bu hol rus elchisini qabul qilish marosimida diplomashk rasm-rusumlarning birmuncha o'zgartirilganida ham aks etadi. Amir rus elchisiga katta hurmat ko'rsatib, uni o'rnidan turib kutib oladi. Ruhoniylar diplomatik iltifotning bu ko'rinishi uchun juda nozik sabab o'ylab topgan bo'lib, bu a'mol amir "kofirlar" oldida emas, balki Qur'oni karim oldida o'rnidan turdi, degan xulosaga ishora qilar edi. Shuningdek, rus elchisiga amir huzurida o'tirgan holda suhbat olib borishga ijozat berilgani ham amirning unga e'tiborini namoyish qilardi. Asarda ruslarga ko'rgan har bir narsaning, shu jumladan, saroy ahli, ruhoniylar va tarixnavis Muqimxonning rasmini chizib olishga ruxsat berilgani ham muallif (yoki nusxa ko'chiruvchi)ning nazaridan chetda qolmaydi. Biroq u bu holni elchilik a'zolarining asosiy vazifalaradan deb bilmay, balki "ruslarning su'rat chizishda mohirligi" bilan izoxlaydi.

Qo'lyozma mazkur voqealar Yuz bergandan ancha keyin yozilgan (yoki kuchirilgan) bo'lsa kerak deb taxmin qilish mumkin. Chunki unda ayrim xatoliklar va Chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, "rus elchisi olamdan o'tdi (va) amirning elchisi yo'lida davom etib, ajnabiylar davlat boshlig'i talabiga muvofiq xizmat qilib, unga munosib ehtirom ko'rsatdi", deyiladi. Birinchidan, rus elchisi A.F. Nefi nafaqat omon-eson va xavfu xatarsiz Peterburgga etib borgani, balki yana 34 yil yashab, 70 yoshida dunyodan o'tgani ma'lum. Ikkinchidan, A.A. Semyonovniga: "balki elchilikning biror a'zosi dunyodan o'tgandir", degan taxmini ham shubhali; bunday holda mazkur elchilik haqida katga kitob yozgan E.K. Meyendorf buni eslamay o'tmas edi. Uchinchidan, amir Haydar A.F. Negri elchiligi bilan birga o'zining elchisini qo'shib Yuborgani haqidagi fikr ham tasdiklanmaydi. Orenburg viloyati davlat arxivsi va Rossiyaning boshqa arxivlaridan foydalangan tadqiqotchilar A.F. Negri bilan birga Buxorodan javob elchiligi Yuborilmaganligini qayd qiladilar.

Aftidan, qo'lyozma mualliflari (yoki uni ko'chirgan shaxs) turli vaqlarda sodir bo'lgan ikkita elchilikka aloqador bo'lgan voqeani aralashtirib Yuborgan bo'lsalar kerak. Gap shundaki, amir

Haydar Negri elchiligiga javoban 1825 yildagina elchilik Yuboradi. Beknazar Abdurasulov boshchiligidagi Buxoro elchiligi 1825 yili jo'natilib, 1826 yanvarda Peterburgga etib keladi. Elchi Rossiya imperatoriga olib borgan amir YOrlig'ida Buxoroning qo'qonliklar va boshqa xalqlar bilan tinch-totuv munosabatlar o'rnattani haqida xabar berilib, Rossiya bilan savdo aloqalariga doir masalalarni hal qilishni istayotgani zikr qilinadi. Biroq bu haqdagi muzokaralar amalga oshmay qoladi - amirning elchisi og'ir kasallanib, dunyodan o'tadi.

Uning o'rniga 1826 yiliyoq Rossiyaga Beknazar Abdukarimov yuboriladi. U olib borgan amir YOrlig'ida do'stona munosabatlar va savdo aloqalarini rivojlantirish istaklari bildirilgan edi. Amir Rossiya podshohidan qozoq cho'llaridagi qaroqchilarni tinchitish, boj soliqdarini kamaytirish, Orenburgga kelgan karvonboshilariga buxorolik savdogarlarning savdo-sotiq ishlarida ularga kafil bo'lish (huquqini berish) xususida taklif etilgan hamda Rossiya xazinasi hisobidan Buxoroda masjid solib berish iltimos qilingan edi.

Rossiya podshohining javob xatida karvon yo'llaridagi qaroqchilik va qotilliklar uchun Kichik juzning sultoni Xorungozi u yerdan chiqarib Yuborilgani haqida xabar beriladi. Buxorolik karvonboshilarga o'zlarining savdogarlari uchun kafil bo'lishga yo'l qo'yish imkoniy yo'qligi va Buxoroda masjid qurish masalasiga ham rad javobi beriladi1.

Biroq bu elchilik muayyan bir ma'noda Rossiya hukumatini Buxoroga nisbatan munosabatlarida o'zini ancha ziyrak tortishga majbur etadi. Amir elchisi Buxoroga inglizlar kelgani haqida axborot bergandan so'ng Rossiya hukumati tahlikaga tushib qoladi va Orenburg general-gubernatori P. K. Essenga mazkur masala bo'yicha barcha ma'lumotlarni vazirlikka Yuborish topshiriladi¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, "Tarixi amir Haydar" qo'lyozmasi XIX asrning birinchi choragida Buxoro-Rossiya diplomatik aloqalari tarixini o'rganishda muhim manbadir. Uning ma'lumotlarini arxiv hujjatlari bilan qiyosiy o'rganish esa ikki o'rtadagi diplomatik aloqalar tarixini yoritishda uchrab turadigan tarixiy Chalkashliklar natijasida noto'g'ri xulosalar kelib chiqishiga asos qoldirmaydi.

O'RTA OSIYO DAVLATLARI SAROYLARIDA ELCHILARNI QABUL QILISH MAROSIMLARI

O'rta Osiyo hududida ming yilliklar davomida hukm surib kelgan davlatchilik tizimi mavjud bo'lganligi, davlatchilikning o'ziga xos barcha xususiyatlari, shu jumladan tashqi siyosati, diplomatik aloqalari, elchiliklar bordi-keldilari uzlucksiz daYum etib kelganligi hozirgi vaqida hech kimda shubha uyg'otmaydi, albatta.

Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash, hukmdorlarning o'zaro muloqotlarini barqaror etash bilan ishonch hosil qilish, mamlakatlarning ichki va tashqi holatidan xabardor bo'lish, ikki o'rtada hamjihatlik o'rnatish orkdli fuqarolarning tinchligi va osoyishini barqaror etish va boshqa xil muammolarni bartaraf qilish - elchilik aloqalarining asosiy maqsad-ari hisoblangan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun, o'z hukumatining siyosati va niyatlarini tushuntirish va unga ishontira olish uchun elchilarning shaxsiyatiga katga ahamiyat berilgan va ular eng etuk insonlar orasidan tanlanganlar. Davrning dono va zukko zotlari hukmdorlar uchun bu borada qo'llanmalar yozib, chet ellarga Yuborilajak elchilarni tanlash, tayyorlash va ularning faoliyati tamoyillari va me'yorlarini belgalab bergenlar. Bu hakda Yuqorida to'xtab o'tildi.

Quyida Markaziy Osiyo davlatlari saroylarida elchilarni qabul qilishda turli davrlarda qaror topgan o'zbek diplomatiyasining bu masaladagi o'ziga xos qirralari haqida fikr yuritiladi.

Manbalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyo davlatlarida elchilarni qabul qilish tartib-qoidalari qadim zamondardanoq hukmdorlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va bu masalaga har vaqq jiddiy munosabatda bo'lingan. Diplomatiyamiz tarixiga oid ko'plab asarlarda uning yo'il-yo'riqlari atroflicha tahlil etilgan. Yuqorida eslatilgan Nizomulmulkning XI asrda bitilgan "Siyosatnama"sida bu hakda, jumladan quyidagilarni o'qiyimiz: "Agar atrof mamlakatlardan kelgan

¹ Gosudarstvennshy arxiv Orvnburgskoy oblasti. F. 6, Op. 110, d. 3260. ll. 55-56, 63.

elchilar hukodor saroyiga etgunlaricha, garchi ularning kelishlari haqida hech qanday xabar olinmagan taqsirda ham ular e'tiborsiz qoldirilsa va zudlik bilan xabar yetkazilmasa - bu hol davlatdagi tartib-qoidalarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tarzida baholanadi. Sarxadlardagi ma'murlarga uqtirib qo'yilishi lozimki, ular elchilarga darhol ishonchli bir vakilni kuzatuvchi etib tayinlasinlar va bu vakil ularni ma'lum bir manzilga (shahar-ga) yetkazib qo'ysin va u yerdagi ishonchli mulozimga topshirsin, tokim u ham elchilarni navbatdagi manzilgacha kuzatib borsin. Bu tartib elchilar hukmdor saroyiga etgunlaricha davom etsin. Har bir to'xtamda elchilarni ziyofat qilib, ularni xushfe'llik bilan kutish, keyingi manzilgacha zarur oziq-ovqatlar bilan ta'minlash lozim, chunki ularga nisbatan ko'rsatilgan har bir yaxshilik yoki yomonlik qabilidagi xattiharakatlar hukmdor tomonidan amalga oshirilgan tadbir sifatida baholanishini unutmaslik darkor¹.

Amir Temur saroyida chet ellik elchilarni qabul qilish marosimi elchilar chegaradan o'tib, uning mulklari hududiga qadam qo'yishlaridan boshlanar edi deyish mumkin. Mamlakat bo'ylab shunday tartib o'rnatilgan ediki, elchilar yo'lidagi shahar va qishloqlarning hokimlari ularni kutib olar, aholi uylaridan gilamlar chiqarib joy solar, dasturxon yozib mehmonnavozlik ko'rsatar, tunash uchun munosib joy berar va yo'lni davom etgarish uchun ot-ulov bilan ta'minlashar edi. Bu arning odati shunday, deb yozadi Ispaniya (Kastiliya) qiroli Genrix III ning Amir Temur saroyiga Yuborgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo². Agarda Amir Temur kimniki biror erga Yuborsa, balki uning qoshiga kimdir kelayotgan bo'lsa, shu tarzda kutib olishadi va har kuni yangi ot bilan ta'minlashadi, deb davom etadi elchi. Bu otlar aholi bor yerlarda ham, yo'q yerlarda ham amirning buyrug'iga ko'ra tayyor turadi, ularga qaraydigan odamlar tayinlanadi. Aloqa tizimida o'rnatilgan bunday muntazam tartib nafaqat elchilarga qulay sharoit yaratadi, balki Amir Temur bepoyon mulklarining har chekkasidan xabardor bo'lib turadi³.

Ispaniya elchilari Amir Temur davlatidagi yo'llarda o'rnatilgan tartib-intizomdan bahramand bo'lib, Samarqandga etib kelganlarida ular Samarqandga yaqin Guliston bog'iga joylashtirilib, bir hafta davomida mehmovdorchiliqsa dam oladilar.

Amir Temur qarorgohi - Dilkusho bog'ida - ularni qabul dilish marosimi bo'lib o'tadi. Ispaniya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixoning safar xotiralariga bag'ishlangan asarvda bu marosim shunday tasvirlanadi: "Amirning yaqinlaridan ikkita mirza ularni qo'ltiklab boshlab boradilar. Oldinda Ispaniya qiroli Yuborgan sovg'alarni ko'targan odamlar ularni namoyish qilib o'tadilar.

Elchilarni avval keksa bir shaxs oldida to'xtatdilar - u amirning egachilaridan birining o'g'li edi - unga ta'zim qilgach, o'sha yerda o'ltirgan yosh o'spirinlar qoshiga olib boradilar - ular amirning nevaralari edi - ularga ham ta'zim qiladilar.

Yspaniya qirolining maktubini topshirish vaqtida ham shunday odat qo'llaniladi. Xatni o'tirgan o'spirinlardan biri (Mironshohning o'g'li) oladi va uchala o'spirin o'rinalidan turib, maktubni amirga eltadilar.

Shunda elchilarga olg'a Yurish buyuriladi va ular ro'baro'da supada o'tirgan amirni ko'rgan zamon qo'lllarini ko'ksilariga qo'yib, tiz cho'kib ta'zim qiladilar. Ta'zim uch marta takrorlanadi va elchilar tiz cho'kkan holda qoladilar. Amir ularga o'rinalardan turishni va yaqinroq kelishni buyuradi - hamrox. bo'lган mirzalar o'z joylarida qoladilar. So'ng amir oldida turgan uchta mirza kelib, elchilarni qo'ltiqlab amir qoshiga olib keladilar, "Amir qo'lini o'pish uchun uzatmadni, - deb yozadi Rui Gonsales de Klavixo. - Bu ularning odatiga kirmayda va buyuk hukmdorlardan hech birining qo'lini o'pmaydilar - chunki o'zlari haqida fikrlari baland". Amir elchilarga qirollari, uning sog'lig'i, ishlari haqida savollar beradi - javob oladi. Elchilar o'z elchiliklarining maqsadini tushuntiradilar - amir diqqat bilan quloq soladi. Amirning nevarasi qirol Yuborgan xatni balavd ko'tarib bobosi oldida turadi. Shu on ilohiyat ilmlari magistri tilmochga qarab: «Senorga aytинг, amirning qirol o'g'li Yuborgan bu xatni mendan boshqa hech kim o'qiy olmaydi va qachon a'lo hazratlariga ma'qul bo'lsa, o'qib beraman.» Shunda amir nevarasi qo'lidagi xatni oladi, ochadi va uni hozir o'qishni istayotgani, biroq keyinroq, yolg'iz qolganda tilmochni chorlashini va xatni o'qishini aytadi.

Keyin mirzalar elchilarni o'rinalidan turg'azib, qo'ltiklab amir o'tirgan supaga olib borib, uning o'ng tomoniga o'tqazadilar. Amir ularni Xitoy elchisidan Yuqori o'tqazishni buyuradi.

¹ Siasat-name. Kniga o pravlenii vazira XI stoletiya, Moskva-Leningrad, 1949. s. 101.

² Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406). M., Nauka. 1990.

Ispaniya elchilari va boshqa davlatlardan kelgan elchilarmi joylashtirib bo'lgach, ziyofat boshlanadi.

Ziyofatdan keyin amir oldida elchilar keltirgan sovg'alarmi namoyish qiladilar. Shundan so'ng maxsus tayinlangan shaxs elchilarni o'zlar uchun ajratilgan manzilga eltilib qo'yib, lozim bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlab turadi.

Ispaniya elchilari g'oyat Yuksak extirom va tantana bilan qabul qilinadi va amir bir necha bor Bog'i chinor, Bog'i nav, Bog'i dilkusho va boshqa dargoxlarda ular sharafiga ziyofatlar beradi, ular amirning nevaralari to'ylariga taklif etiladilar, bu marosimlarda elchilarga sarupolar kiydiriladi, boshlaridam tangalar sochiladi, sovg'alar beriladi va boshqa turfa xil e'tibor timsollari ko'rsatiladi. Elchi xotiralarida mazkur marosimlarda erkaklar qatorida ayollar ham ishtirok etganligi, ularning o'zlar ham u yoki bu munosabat bilan ziyofatlar bergenligi va ularga chet ellik elchilar ham taklif etilganligi haqida ma'lumotlar beriladi.

Yuqoridagilardan ravshan bo'ladiki, Amir Temur saroyida boshka davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish va rivojlantirish ishiga g'oyat katga ahamiyat berilgan va elchilarni kutib olish va qabul qilish marosimlari aniq tartib-intizom va muayyan bir qoidalar bilan belgilangan.

Chet ellik elchilar Amir Temur mulklari xududiga kirib kelishi bilanoq yo'lda joylashgan shahar va qishloklarning hokimlari va aholisi peshvoz chiqib, ularni kutib olishi va mehmon maqomida qabul qilib, safarni davom ettirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi yirik davlatda o'rnatilgan mustahkam intizom belgisigina bo'lmay, balki Amir Temur davlatining chet ellar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirishga samimiy intilganidan va bu o'lkada mehmondo'stlik xalqqa xos xususiyat va milliy qadriyat bo'lganidan ham dalolat beradi.

Amir Temur saroyida chet ellik elchilarni kutib olish marosimida asosan amirning avlodlari, mirzalar, nevaralarining faol ishtiroki ko'zga tashlanadi: elchilarni kutib oluvchilar ham, ularni amir huzuriga salomga olib keluvchilar ham, chet el hukmdorining maktubini qabul qilib olib, amirga topshiruvchilar ham amirning yaqinlari - mirzalar edilar.

Elchi olib kelgan maktubni topshirish marosimi ham o'ziga xos tarzda o'tadi: nevaralardan biri uni baland ko'tarib Amir Temur huzuriga boradi va elchilar amirga ta'zim qilganlaridan so'ng maktub unga topshiriladi. U xatni olib o'zi ochadi va hozir emas, yolg'iz qolganda o'qimoqchi ekanini bildiradi. Elchilar amirga ta'zim bajo keltirgach va savol-javoblar tugagach, mirzalar ularni hukmdor o'ltirgan supaga olib borib, uning o'ng tomoniga o'tqazadilar. Amirning buyrug'i bilan ular Xitoy elchisidan Yuqori o'tqaziladi.

Bu kabi diplomatik marosimlarda aytilgan har bir so'z va bosilgan har bir qadam o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, shu o'lkaning milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ichki hamda tashqi siyosatini namoyish etish uchun foydalanilgan. Elchilarning amirdan oldin qariya qoshiga, so'ngra nevaralar oldiga salomga olib borilishida ham muayyan bir ma'no yotadi - bir tarafdan, keksalarga hurmat va yoshlarga izzat bu o'lkaning odati ekanligini namoyish qilsa, ikkinchi tarafdan, yosh avlodga - kelajak hukmdorlariga ham munosib hurmat ko'rsatish lozimligi, davlatning davomiyligini e'tirof etish va shu bilan birga diplomatiyaning nozik qonun-qoidalalarini ularga yoshligidan singdirib borish, chet elliklar bilan muloqotga tayyorlash maqsadlari nazarda tutilgan bo'lsa, ajab emas.

Amir Temur buyrug'i bilan Ispaniya elchilarining Xitoy elchisidan Yuqori o'tqazilishi misolida bu davlatning tashqi siyosati yorqin ifoda topadi. Bu omil amir Temurning yangi-yangi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga katta ahamiyat bergenini ko'rsatsa, Xitoy bilan aloqalarning tarang-ligini ham namoyish etar edi. Demak, elchilarni qabul qilish marosimini davlatlararo aloqalarning xarakteri aks etgan oyna desa ham bo'ladi.

XVI-XVIII asrlarda ham Markaziy Osiyo davlatlarining chet ellar bilan diplomatik munosabatlari va elchilik aloqalari to'xtab qolmadi. Movarounnahr hukmdorlari mamlakatda obodonlik va osudalikni saqlash, davlatlararo munosabatlardagi muammolarni hamjihatlikda bartaraf qilish, u yoki bu masalaga bir-birlarining nuqtai nazarini aniqlab olish, o'z Yurtlarnda-gi ahvoldan xabardor etish va do'stlik rishtalarini mustahkamlash masalalarini elchilar vositasida amalga oshirar edilar. Elchilar orqali Yuborilgan maktublarda ota-bobalardan meros qolgan do'stlikni saklash mamlakat tinchligi va aholining farovonligini ta'minlovchi va islomning qudratini oshiruvchi omil deb baholanar va bir-birlarini shunga da'vat egar edilar.

Bu davrda Buxoro amirlari saroyida joriy bo'lgan chet ellik elchilar, tuman raislari, ulus

boshliklarini qabul qilish marosimlarining tartib-qoidalari haqida yozma risola ham mavjud bo'lgan. Mahmud bin Vali asarida elchilarni qabul qilish marosimining tartibi shunday tasvirlanadi: «Eng avval shigovul oldinga chiqadi va hukmdorga elchini Yuborgan zotning arzi va iltimoslarini (sovg'alarini bilan) bayon qiladi; keyin u bir necha qadam orqaga chekinadi va elchining salomlarini, uni qabul qilish ("ko'rinish") haqidagi iltimoslarini va uning tortiqlarini yetkazadi. Agarda elchi mashhur amirlar sirasiga kirsa, mansabdor shaxslardan ikki kishi (parvonachi, to'qsoba va h.k.) ikki tarafdan unga yaqinlashadilar va uni Yuksak taxt poyasiga olib keladilar. "Ollohnning soyasi bo'l mish hukmdorning qo'li uning saodatmand elkasiga tekkanda" xuddi shunday tarzda elchini o'rabi oladilar va o'zining oldingi joyiga kuzatib qo'yadilar. Shundan so'ng hukmdor ko'rsatma beradi - u majlisning o'ng tomonigami yoki chap tomoniga o'tirsin. Elchi ko'rsatilgan erga o'ltiradi va toki undan so'ramagunlaricha gap boshlamaydi.»¹

Biroq davlatlararo munosabatlarning xarakteri, davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy omillari ta'sirida elchilarni qabul qilish marosimlarining qoida va tartiblari1 a yangiliklar kiritila boradi. Buni XVI asrda ravnaq topgan Buxoro - Hindiston diplomatik aloqalari misolida ko'rish mumkin. Bu ikki davlat hukmdorlari o'zlarining nasabiy ildizlari birligidan bir-birlariga hurmat va ishonch bilan qarar edilar va bu hol ba'zan ularni elchilarni qabul qilish marosimiga yangiliklar kiritishga olib kelardi.

Hofiz Tanish Buxoriy o'zining "Abdullanova"¹ asarida 1587 yili Hindistondagi boburiylar sulolasidan bo'lgan Akbarshoh (1542-1605) saroyiga Yuborilgan Abdullaxonning (1557-1599) elchisi Mir Kuraysh bilan birqalikda uning elchilari Hakim Humom va Sadr Jahonning kelganligi haqida ma'lumotlar beradi. Asarda Hindiston elchilarini Buxoro amiri saroyida qabul qilish marosimi shunday ta'riflanadi: "Sulton Husayn Mirza madrasasida katta bazm uyshtirildi. Abdullaxon uchun taxt o'rnatilib, uning atrofida, amallariga qarab, noiblar, amir va lashkarboshilar joylashdilar. Tillado'zi to'nlar kiygan va marvaridlar kdsalib bezatilgan xanjarlar taqqan maxsus kishilar xizmatda edilar. Saroy hojiblarining quloqlari xon farmoyishiga qaratilgan edi. Majlis boshlanishi bilan Hakim Humom, Sadr Jahon va elchilikning boshqa kishilari bazmga taklif etildilar. Hind elchilariga ularning shohlari elchilarni qanday tartibda qabul qilsa, shu tartib-qoidaga asosan muro-jaat qilishlariga ijozat beriddi. Hind elchisi Hakim Humom hayajonga to'lgan holda yigirma etgi marotaba salom berdi. Salom shundan iborat ediki, qo'l-kaftlarini erga tekkizib, so'ng balandga ko'taradi va oldinga qadam tashlab boshini quyi soladi. Oliy joyga (taxtga) yaqinlashganda elchi tizzasida turib xon qo'lini o'padi va o'zi bilan keltirgan nomani uzatadi. Nomaning mazmuni shundan iborat ediki, - deb yozadi Xofiz Tanish Buxo-riy, - muhabbat va do'stlik haqida so'zlanib, umumiy dushman (Eron)dan saqlanish uchun birqalikda harakat qilish taklif etiladi".²

Bu tarixiy hujjatdan ko'rini turibdiki, hind elchisini qabul qilish marosimi tantanali tarzda o'tkazilgan. Buxoro amiri Hindiston elchisiga amirlikda qabul qilingan tartib bo'yicha emas, balki o'z Yurtidagi odat bo'yicha salomga kelishni taklif etib, unga katga iltifot kursatgan. Elchilarni qabul qilish marosimi tartibiga kiritilgan bu yangilik nainki elchiga kursatilgan xos izzat, balki elchi timsolida Hindiston davlatiga, uning podshohiga nisbatan chuqur hurmat ifodasi bo'lgan edi. Abdullaxon bu bilan Akbarshohni naqadar qadrlashini, o'zaro aloqalar rivojidan qanchalik manfaatdor ekanligini, Buxoro-Hindiston munosabatlari boshqa davlatlar bilan munosabatlardan farq qilishini namoyish etgan edi. Zsro, ularning o'zaro yozishmalarida hamisha nafaqat diplomatk iltifot, balki "ildizlari bir bo'lgan ulug' ajdoddalar meros qolgan hamjihatlik munosabatlarini davom ettirish", o'z mulklarida "oroyish va osoyish eshiklarini kushoyish etish" uchun bir-birlari bilan birga bo'lish istagi ifodalananar edi. Albatta, Buxoro va Hindiston hukmdorlari o'rtasidagi bunday hamjihatlik asosida nafaqat nasabiy ildizlarining birligi, balki bir qator siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa muammolarning mavjudligi ham, har ikki tomonning tashqi xavfdan - zo'rayib borayotgan Eron safaviylar davlatidan xavotirlanishi va Eron bilan ular o'rtasida sunniy-shia ziddiyatlari ham bo'lganligini inkor qilib bo'lmaydi.

¹Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomai shohiy). I jild. Forschadan Sodiq Mirzaev tarjimasi. Masul muharirr YA. G'. G'ulomov. Toshkent, "Fan". 1969.

²Qarang: Nizomuddinov I.G'. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo-Hindiston munosabatlari. Toshkent. "Fan ". 1969. 35-6.

Demak, XVI-XVIII asrlarda Buxoro amiri saroyida chet el elchilarini qabul qilish marosimining qoidalari yozma risolada belgilangan bo'lgan. Unga ko'ra elchini kutib olishda shigovulning roli katta bo'lgan. Elchi haqida ham, uni Yuborgan zot haqida ham, ularning sovg'a-salomlari va arzu iltimoslari haqida ham shig'ovul arz qilgan. Shu ham belgilab qo'yilganki, shig'ovul elchini Yuborgan zot haqida arz qilib bo'lgach, bir necha qadam orqaga chekinib, keyin elchining o'zi haqida, uning "ko'rinish"ga iltimoslari va tortiqlari borasida bayonot bergan. Bu a'mol elchi bilan uning hukmdori o'rtasidagi oraliqni ko'rsatish uchun qo'llanilgan bo'lisi mumkin. Elchining o'z davlatidagi mavqeiga ko'ra uni Yuksak maqom saroy mansabdorlaridan ikki kishi xon qoshiga salomga olib kelganlar; hukmdor uning elkasiga qulini tekkizgach, yana o'sha mansabdorlar uni joyiga olib borib qo'yanlar. Elchini qaerga o'tqazishni amir buyurgai. Undan so'ramagunlaricha gap boshlamagan.

Biroq Hindiston podshohining elchisini qabul qilishda bu qoidalardan voz kechilgan edi.

Mazkur faktida o'zaro diplomatik va boshqa xil aloqalar taraqqiyotidan manfaatdorlik elchilarini qabul qilish marosimi tartibining o'zgartirilishiga, uning Buxoro saroyidagi tartib bo'yicha emas, balki elchi kelgan danlatning marosimi qoidalari bilan almashtirilishiga olib kelganini ham ko'ramyz.

XIX asrga kelib Buxoro saroyida elchilarini qabul qilish marosimi bir qadar o'zgargani va avvalgi yozma qoidalarga yangiliklar kiritilgan ko'zga tashlanadi. A.A. Semyonov ham buni qayd qilgan edi. "Avvalda elchi olib kelgan chet el hukmdorining maktubi kichik inoqqa topshirilar, u xatni ochib, xonning buyrug'i bilan o'z hukmdorining shaxsiy kotibiga - munshiga topshirar, u esa baland ovozda uni o'qib berar edi"¹.

Qabul marosimi qoidalari kiritilgan yangiliklar, ayniqsa, shimoldagi qo'shnilar bilan, o'zga madaniy muhit va o'zga denga mansub bo'lgan yirik davlatlar bilan diplomatik aloqalarda aks etadi va elchilarini qabul qilish marosimlari turfa xil ko'rinishlarda ifoda topa boshlaydi.

Qabul marosimi qoidalari o'zaro muhokama qilish tajribasining qo'llanilgani shunday yangiliklardan biri bo'lgan edi. Jumladan, 1820 yili Rossiya podshohi Aleksandr I (1801-1826) Buxoro amiri Haydarxon (1800-1826) saroyiga Yuborgan rasmiy elchisi A.F. Negrini qabul qilish marosimi har ikki tomonga maqbul bo'lisi uchun uzoq muhokama va munozara qilingan edi. Rossiya diplomatiyasi o'z talablarini yirik davlat mavqeidan turib qo'yan bo'lsa, amirlik diplomatiyasi yirik davlat bilan munosabatlarda o'z sha'niga putur yetkazmaslikni, uni teng huquklgi sherik deb hisoblashlarini ko'zlar edi. Ayni bir vaqtida o'zaro savdo aloqalaridan, tinch-totuv munosabatlardan manfaatdorlik tomonlarni hamjihatlikka olib kelardi. Negri elchiligining asosiy vazifasi ham ayni shu maqsadni ko'zlar - u Rossiya-Buxoro savdo aloqalarini kengaytirishdan, savdo yo'llaridagi xavf-xatarni bирgalikda bartaraf qilishdan va rus asirlari masalasini xal qilishga intilishdan iborat edi. Mazkur elchilikning rasmiy kotibi E.K. Meyendorfning yozishicha, Buxoroga 15 chaqirim etmasdan Bozorchi nomli joyda 36 soat davomida qabul marosimining qoidalari muhokama qilinadi va elchiga amir huzurida o'ltingan holda suhbatlashish uchun ijozat beriladi.

Elchini amir huzurida qabul qilish va unga podshohning YOrlig'ini topshirish marosimini mazkur muallif shunday tasvirlaydi: "Ikki yonida kameryerlari bilan Negri xon tomoniga o'n kddam Yurib, unga fors tilida murojaat qildi va keyin qushbegiga ishonch YOrlig'ini topshirdi va o'lirdi. Elchilikning boshqa a'zolari eshikning ikki tomonida turgancha qoddilar. Qushbegi zudlik bilan imperatorning maktubini xonga topshirdi; xon uni baland ovoz bilan o'qib chikdi"².

Demak, o'rta asrlarda maxsus risolada qayd qilingan qoidalari bo'yicha amirga elchi haqida, uni Yuborgan zot va ularning iltimoslari borasida shig'ovul arz qilgan, elchi keltirgan sovg'a-salomlar haqida ham u axborot bergan, chet el hukmdorining maktubi kichik inoqqa (keyinroq: shig'ovulga) topshirilgan, u - munshiga bergan, munshi xatni o'qib bergan bo'lsa, XIX asr boshida Rossiya elchisi o'zi haqida o'zi arz qilgan, podshohining maktubini shig'ovulga emas, qushbegiga topshirgan, u esa xatni amirga eltib bergan va amir baland ovozda o'zi o'qib chiqqan edi. Elchiga amir huzurida o'ltingan xrlda suhbatlashishga ijozat berilgan; amir Rossiya elchisini o'rnidan turib

¹ Semyonov A.A. K istorii diplomaticeskix snosheniy mejdju Rossiey i Buxaroy v nachayae XIX veka. Izvestiya akademii nauk UzSSR. 11. 1951 s. 91.

² Meyendorf E.K. Puteshestvie iz Orenburga v Buxaru. M., 1975. s.56.

kutib olganligi ham yangilik edi. Garchi bunda Yuqorida eslatilganidek elchi uchun emas, balki Qur'on hurmati uchun o'rindan turishdek nozik diplomatik usul qo'llanilgan bo'lsa ham.

Har qanday davlatning tashqi siyosati ichki siyosatining davomi bo'lganligi vajhidan elchilarni qabul qilish marosimlarida ham Buxoro ma'muriyatida belgilovchi omil bo'lgan ruhiyat masalasi, islomning roli Yuqori qo'yilgan va, ayniqsa, boshqa dindagi davlatlar elchilarini qabul qilish jarayonida unga putur yetkazmaslik choralar qidirilgan.

Biroq chet el elchilarini qabul qilish marosimlari hamma vaqt ham silliqqina o'tar edi, deb bo'lmaydi. Buning uchun har ikki tomonning birdek intilishi, diplomatiyaga izchil rioya qilishi talab qilinardi. Shunday holni 1844 yili Buxoroga Yuborilgan Eron shohining elchisini qabul qilish marosimi misolida ko'rish mumkin.

Mazkur elchi yozib qoldirgan "Safarnomayi Buxoro" qo'lyozma manbada1 safar tafsilotlari qatorida amir saroyida elchini qabul qilish marosimi haqida ham ma'lumot beriladi. "Kun botishga yarim soat qolganda shaharga kirib bordik, - deb yozadi elchi. - Bizni amirga qarashli uylardan biriga joylashtirishdi.

...Keyin shirinliklar, non, xolvalar keltirib sufra yoyishdi. Bir necha kalla qand va choy amir nomidan keltirildi". Amir huzuriga elchi istasa bugun, istasa ertasi kuni kelishi mumkinligi biddirildi.

Ertasi kuni shig'ovul kelib, uni amir huzuriga boshlab boradi.

Elchini Registon arkida qabul qilish marosimi shunday ga'riflanadi: "Shig'ovul bilan birlashtirishda devonxonaga kirdik... Kamina xonaga kirib, baland ovozda salom berdim. Amir hazratlari javob berib, o'zi ishora qilib joy ko'rsatdi - o'ltirdim. Rasmiy tanishuvdan keyin jaxonpanohning muborak farmonini o'pib, boshimdan baland ko'tarib, nigoh qildim.

Amir hazratlari ikki qo'li bilan olib, ochib, boshidan oxirigacha o'qib chikdi. Ahvol so'radi: (aytadigan) farmoyishi bormi, shoh nima buyurgan"¹.

Elchi shohning og'zaki topshirig'ini - Buxoroda joususliqda ayblanib zindonga tashlangan Angliya fuqarosi Jozef Vulfni ozod qilish masalasi ekanligini bayon qiladi. Shohning maktubida ham ayni shu masala va eronlik asirlar masalasi qo'yilgan edi.

Shu bilan birinchi qabul marosimi tugaydi; keyin elchini dasturxonchining manziliga olib borib mehmon qiladilar va uni "dasturxonchining mehmoni" deb ataydilar. Elchi bilmay yoki boshqa maqsadda, dasturxonchini vazir deb ta'riflaydi.

Xullas, elchini qabul qilish marosimining ancha soddalash-tirilgani ko'zga tashlanadi. Elchini kutib olish, joylashtirish, uning ta'minoti bilan, odatdagicha, shig'ovul shug'ullanadi, uning vositasida bir necha bor amir bilan uchrashuvlar uyushtiriladi va u boshqa davlat arboblari bilan muloqotda bo'lmaydi.

Amir Eron elchisiga iltifot ko'rsatib, o'z huzuriga kelish uchun maxsus vaqt belgilamaydi, uni elchining o'z ixtiyoriga qoldiradi; shohning yorlig'ini shig'ovul qo'lidan emas, balki elchining qo'lidan amirning o'zi oladi, o'zi o'qiydi.

Biroq bu marosimda Buxoro amiri saroyida elchilarini qabul qilish marosimlaridagi tantana va bayramona ruh sezilmaydi. Elchini davlat boshlig'ining emas, dasturxonchining mehmoni deb ataydilar va uning sharafiga uyuştirilgan ziyofat ham dasturxonchtshing uyida o'tkaziladi.

Buning sababini, tabiiyki, o'sha davrda ikki davlat o'rta sidagi munosabatlarning tarangligi va elchilikning maqsad-vazifalarining xarakteri bilan izoxlash mumkin. U Buxoroda joususliqda ayblangan shaxsni ozod qilish uchun kelgan va bu vazifani bajarishda nodiplomatik usullardan ham foydalanishdan bosh tortmagan edi.

Elchi Buxoroda ekanligida pinhona vositachilar orqali Tehron bilan bog'lanib turgan va shoxdan amir nomiga yana maktub olgan edi. Uni amirliqdagi qoidaga ko'ra shig'ovul orqali berishdan bosh tortib, "bizda odat shunday", deb amirga o'z qo'li bilan topshirishni talab qiladi. Bir necha bor muzokaralardan so'ng amir bung'a rozilik bildiradi.

Biroq amir uning bu talablariga, ya'ni qabul marosimi tartibining buzilishiga o'z e'tirozini diplomatik usul bilan sezdirib qo'yadi - elchini ikkinchi bor qabul qilishda, odatda-gidek, o'z joyida kutib olmaydi va elchi kirib kelgandan keyingana chiqib salomlashadi1. Ammo "Safarnoma"da

¹ O'sha asar. 33-34-betlar.

elchi bu timsolni tushunganligi haqida lom-mim deyilmaydi,

"Safarnomayi Buxoro" asari o'quvchida uning muallifi (Eron elchisi) va shoh hukumatining diplomatiyasi haqida bir qator savollartug'diradi. Noshir uni "Eronning davlat arboblaridan biri" deb ta'riflaydi. Elchi esa o'zining diplomatiyaning umumiy qoidalarini pisand qilmaganligi hamda o'zini go'yo buyuk davlatning vakili sifatida tutib, "a'lo hazrat davlatiga munosib shavkat bilan harakat qilganini" qayta-qayta ta'kidlaydi. "Registondan arkka o'tishda har bir amaldor piyoda bo'ladi, - deb yozadi u. - Men hamma joydan otliq o'tib, amirning o'zi, qozikalon va qushbegi oldidagina otdan tushdim."¹

Bunday e'tirofdan mazkur elchi diplomatiyaning xalqaro tan olingan an'analaridan sanalmish qoida - har bir elchining zimmasida nafaqat o'z vatanining shon-shavkatini saqlash, ayni bir vaqtida o'zi borgan mamlakatning qonun-qoidalarini hurmat qilish majburiyati ham borligidan bexabarmidi, yoki "Safarnoma..." muallifning shoh oldidagi xizmatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun yozilgan asarmi degan savol kelib chiqadi. Afsuski, uning ma'lumotlarini boshqa manbalar bilan qiyoslash imkoniy yo'q - noshir ta'kidlashicha, Eron manbalarida na uning nomi, na o'zi haqida biror eslatma uchramaydi. Bizning ixtiyorimizdagi manbalarda ham bu hakda ma'lumotlar toyilmadi. "Safarnoma"da: "Men omi odam va navkar bo'lsamda..." degan ibora uchraydi. Bu holda elchining diplomatiyaning talab va qoidalaridan bexabar bo'lganini tushunish mumkin. Biroq uning amir bilan suhbatlari haqida: "Men, maslahat qilinganidek, davlat shukuhiga munosib javob qildim..."² kabi jumlalarni va elchining Eronning siyosiy-iqtisodiy ahvoli haqida hamda Angliya bilan munosabatlari to'g'risida amirga bergen mubolag'ali axboroti tarixiy haqiqatdan yiroq ekanligini ham hisobga olinsa, buni shoh hukumatining Buxoroga nisbatan takabburona siyosatidan dalolat, deyish mumkin bo'ladi.

Eron elchisi Buxoro amiri bilan muzokaralarda Eronning harbiy qudrati, unda yig'ilgan qurolyarog'lar shiddatiga hech kim bardosh bera olmasligi haqida mubolag'a qilgan va u bilan ittifoq bo'lishni tavsiya etgandi. Shoh diplomatiyasi ingliz-larning tazyiqi ostida ularning talabini bajarish maqsadida barcha omillardan, shu jumladan elchining, "omi"ligi va "navkarlik" shiddatidan ham foydalangan va eronliklarga xos bo'lgan latofat va nazokat an'analaridan chekingan edi.

Xullas, Buxoro saroyida Eron elchisini qabul qilish marosimida ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar va elchining nosamimiyligi o'z aksini topgan va ular marosim tartibiga putur yetkazgan edi. Shunga qaramay, amir o'zaro munosabatlarda zoxiriy tinchlikni saklab krlish maqsadida Eron elchiligining arziga qisman ijobjiy javob qilgan edi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib ishonch bilan aytish mumkinki, O'rta Osiyo davlatlarida, har bir mustaqil davlatda bo'lgani kabi, diplomatiya davlatchilikning o'ziga xos xususiyati sifatida davlatning tashqi siyosatida katta rol o'ynagan va uning vositasida davlatlararo munosabatlarda sodir bo'ladigan siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, savdo aloqalari muammolari xal qilingan, jangu jadallarning oldi olingan, do'stona munosabatlarni rivojlantirish ko'zlangan.

Elchilarни qabul qilish marosimi muayyan bir tartib-qoidalar asosida olib borilgan, bu haqda risolalar yozilgan.

U yoki bu davrda diplomatik aloqalarning rivoji davlatlar o'rtasidagi munosabatlar darajasiga bog'liq bo'lganidek, elchilarни qabul qilish marosimlari ham muayyan bir tarixiy davrda tomonlarning o'zaro munosabatlarining xarakteri, xususiyatlari, imkoniyatlari va xalqaro maydonidagi mavqeい bilan belgilangan.

Amir Temur davlatida chet ellik elchilarни qabul qilish marosimiga xos bo'lgan qat'iy tartib-qoidalar davlatning qudrati va unda o'rnatilgan intizomni x.ama davlatning chet ellar bilan diplomatik aloqalarni kengaytirish ishtiyokini namoyish qilsa, XVI-XVII asrlarda Buxoro-Hindiston diplomatik aloqalari marosimiga kiritilgan yangiliklarda ikki davlat hukmdorlarining o'zaro yaqinligi, bir-biriga extiyojmandligi, diplomatik aloqalarni mustahkamlashdan koyatda manfaatdor ekanligi aks etadi.

XIX asr boshida Buxoroda Rossiya elchisini qabul qilish marosimi qoidalariga kiritilgan o'zgartishlar Buxoroning yirik davlat bilan diplomatik aloqalarini mustahkamlashdan, o'zaro savdo aloqalarini kengaytirishdan manfaatdor ekanligidan darak beradi hamda muayyan bir darajada

¹ O'sha joyda.

² O'sha joyda.

ehtiyotkorlik mavjudligini ham ko'rsatadi.

XIX asr o'talarida Eron elchisini qabul qilish marosi-mining u qadar tantanavor bo'limganligi va ayrim tushunmov-chiliklar Yuz bergani ham ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar bilan belgilanadi. Bu aloqalarda tashqi dunyodan ajralib qolgan va zaiflashib borayotgan Buxoro amirining xudli shuningdek zaiflashayotgan va Angliyaga qaram bo'lib boraytan Eronning ichki va tashqi ahvoldidan muglaqo bexabarligi va Eron elchisining bundan foydalanganligi namoyon bo'ladi

Demak, Urta Osiyo davlatlarvarda chet ellik elchilarini qabul qilish marosimi muayyan tartib qoidalar asosida olib borilgan bulsada, uzaro munosabatlarning xarakteri va davrning siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy omillari taqozosi bilan ularga o'zgartishlar kiritib borilgani kuzatiladi

XUL OSA

Mustaqillik sharofati bilan uch ming yildan ziyod vaqt ichida faoliyat ko'rsatgan davlatchilik tariximizning barcha jabhalarini odilona tadqiq etish, uni xalqimizga bir butun va xaqqoniy tarzda takdim etish imkoniga ega bo'ldik.

Albatta, bu birdan Yuzaga chiqadigan oson ish emas. Buning uchun shu paytgacha o'r ganilmagan yoki ataylab chetlab o'tilgan son-sanoqsiz yozma manbalarni o'rganish, arxiv ma'lumotlariga murojaat kdlish, hatto ilgari istafodaga kiritilgan Yuzlab hujjatlarni hozirgi kun talablari nuqgai nazaridan qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Hali tariximizda o'r ganilmagan voqeliklar, yozilmagan "oq dog'lar" ko'p.

Ana shunday sohalardan biri o'zbek diplomatiyasi tarixidir.

Ma'lumki, diplomatiya tarixi davlatchilik tarixining tarkibiy atributidir. Uni yoritmasdan turib davlatchilikning muayyan tarixiy sharoitdagi faoliyatini ob'ektiv baholab bo'lmaydi. Shuning uchun ham ushbu mavzu hozirgi kunda goyat katga ahamiyatga molik bo'lgan dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi.

O'zbek diplomatiyasi tarixi sarhadlarimizda birinchi paydo bo'lgan davlatchilik uyushmalari tarixidan boshlanadi. Uning sarchashmalari "Avesto" sahifalarida aks etgan fikr-mulohazalardan oziqlangan. U asrlar mobaynida sayqallanib kelgan. Davlatdandavlatga, eldan-elga, asrdan-asrga o'tib, tobora tiniqlashib borgan uning turli qirralari "Qutadg'u bilik" va o'nlab dasturiy asarlarda o'z aksini topib kelgan. Bunday ajoyib manbalar tariximizda faoliyat ko'rsatgan hukmdorlar uchun tashqi siyosat bobida dasturilamal vazifasini o'tagan.

Davlatchilik tariximizda bo'lganidek, uning tarkibiy qismi - o'zbek diplomatiyasi tarixida ham hodisalar rivoji bir zaylda davom etmagan, unda ba'zan keng qamrovli imkoniyatlar davri hukm surgan bo'lsa, ayrim zamonlarda tanazzul qamda cheklangan voqeliklar davrlari ham namoyon bo'lgan. Ammo, shunga qaramasdan, davlatchiligidimiz tarixvda Yuz bergen barcha holatlarda diplomatiyamiz tarixan tarkib topgan o'z tamoyillariga amal qilib kelgan, unda mustaqillik goyasiga sodiklik, tinchlik va osoyishtalikka intilish, uni asrash, qo'shni davlatlar va xalqpar bilan yaxshi munosabatlarni joriy etish, savdo-sotiqni riYujlantarish, boshqa xalqlarga hurmat bilan qarash, vatanni sevish, adolat nuqgai nazaridan ish ko'rish kabi qirralar hamisha namoyon bo'lib kelgan.

To'plam-monografiyadagi har bir davrga bag'ishlangan shtmiy o'Cherkda, unga ilova qnlingan digaYumatik yozishmalar, hujjatlar va lavhalarda ana shu tamoyillar u yoki bu tarzda o'z aksini tottgan. Bu hol uzoq tariximizda Yuz bergen ayrim uzilishlar hisobga olinmasa, qadim davrlardan to XIX asrning ikkinchi yarmigechasi, ya'ni O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar uzluksiz davom etib kelgan.

II qism Yurtimiz diplomatiyasiga oid lavhalar

O'zbek diplomatiyasining juda qadim zamonlarga oid yozishmalarini bizgacha yetib kelmagan. Arab istilosigacha bu yerda mavjud bo'lgan asarlar va hujjatlar "kofirlar ma'naviyati sifatida musulmon fotihlari tomonidan yo'q qilib tashlangan."

Masalan, Abu Rayhon Beruniy arab lashkarboshisi Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi istilochilar Xorazmni zabit yettach, bu yerdagi yozma yodgorliklarga nisbatan Yuritgan siyosati

haqida shunday yozgandi: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshkalarga o'rgatadigan kishilarni halok yetib, butkul yo'q qilib Yuborgai edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi"¹. Shuning uchun ham bunday ma'lumotlar ko'proq xorijiy mualliflar (Yunoniy, chiniy kabi) asarlarida uchraydi. Ayni vaqda ko'pgkna ajoyib ma'lumotlarni toshbitiklardagi xabarlardan ham olish mumkin. Ba'zi xabarlar bizgacha yetib kelgan sug'd hujjatlarida ham mavjud. Aslida esa uch ming yildan ortiq davlatchilik tarixiga ega bo'lgan Yurtimizda turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan davlatlar tashqi siyosatiga doir minglab hujjatlarning bo'lganligiga shubxa bo'lishi mumkin emas.

Keyingi ming yillik tariximiz esa ajdodlarimiz qo'li bilan yozilgan kitoblar - qo'lyozmalarda o'z aksini topgan. Ularla diplomatik yozishmalarga ona ko'plab ma'yaumotlar jamlangan. Ayni vaqda bunday ma'lumotlar turli davlat arxivlarida ham mavjud.

Quyida ana shu manbalardan ayrim namunalar keltiriladi.

Xitoy elchisi Chjan Syan ma'lumotlaridan:

Xitoy davlati miloddan avvalgi ikkinchi asrda Xan sulolasini davrida g'arbgatomon intila boshlaydi. Bu hrl ikkinchi asrning so'nggi choragida Farg'ona bilan Xitoy o'rtasida keskin siyosiy-harbiy aloqalarga olib keladi. Bu sohadagi ma'lum muammolarni hal yetash uchun Fargonaga Xitoy elchisi CHjan Yuboriladi. Elchiga aslida katga vazifalar Yuklangan edi. Uning maqsadi mintaqaning Baqtriya qismida hukmron bo'lgan Yujilar (taxorlar) bilan xunlarga qarshi harbiy ittifoq tuzish, yo'l-yo'lakay Farg'onaga ham kirib, u bilan bo'lgan ixtiloflarni bartaraf yetish bo'ltandi. Xitoyliklardan elchi CHjan Syan Farg'ona bilan ilk bor tanishgan kimsalardan biri bo'ldi. Ular Fargonani Doyun, bu yerdagи davlatni Dovon - Ulug' Van davyaati deb atardilar. CHjan Syan yozib qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda, Fargona hukmdori uni juda yaxshi qabul qiladi. Uning sovg'a-salomlarini katta mammuniyat bilan olib, kyetar chog'ida elchiga o'z navbatida ko'plab qimmatbaxo tortiklar xadya yetadi va unga yo'l ko'rsatuvchi aloqa xizmatchilarini hamroh qilib jo'natadi. Bu hol o'rtadagi muzokaralarning har ikkala tomon uchun ham makbul darajada bo'lib o'tganligiga shohidlik beradi.

Elchi CHjan Syan o'z safari davrida Farg'ona, Sug'diyona, Baqtriya va Turkistonning boshqa qator viloyatlarida bo'lib, bu yerdagи xalqlar, ularning siyosiy tuzumi, madaniy hayoti va urf-odatlari haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi va ularni yozib qoldiradi. "Dovondan garbgatomon Ansigacha (Parfiyagacha) bo'lgan ulkan hududda turli tillarda, lahjalarda so'zlashsalarda, ammo urf-odatlari o'xshash va muomalada bir-birlarini tushunadilar" - deb ta'kidlaydi elchi. Uning yozishicha, Farg'ona davlati boshqaruvi tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatgan. Oqsoqollar kengashi urush ochish, sulkh tuzish, yangi hukmdorni tayinlashda katta o'rinn tutgan. Masalan, xitoyliklarning Fargonaga tajovuzlari chog'ida oqsoqollar kengashi o'zaro sulkh tuzish tarafidori bo'lib chiqadi va bunga tuyassar bo'ladi ham.

Eron shohi Doroga berilgan javob

Eron shohi Doro (miloddan oldingi 522-485 yillar) Turon sarhadlariga bostirib kirar ekan, bu yerdagи qo'chmanchi skif qabilalarini juda tez o'ziga bo'ysundirishni xayol qilgandi. Ammo bunday bo'lmedi. Doro o'zining 700 minglik sarbozlariga ishonar edi. Ular mashq ko'rgan, ko'plab janglarda chiniqqan bo'lsalarda, otta Yurishda, nayza otishda skiflarga teng kela olmas edilar. Tunda kichik-kichik skif to'dalari eroniylarnish oldingi qismlariga qo'qqisdan hujum qilib, qirib tashladilar. Doro qo'shinlari borgan sari siyraklashaverdi. Doroning sabr-toqati tugab, skiflar shohi Idanfrisga maktub yo'lladi. Maktubda bunday deyilgan edi:

"Tentak, ikki yo'ldan birini tanla, imkoning bor. Ammo sen qochib Yuribsan. Agar menga qarshi turishga kuching yetsa, daydib Yurishdan to'xta, men bilan jang qil. Agar zaifligingni tan olsang, qochib ovora bo'lma, er-suvingni o'z sultoningga siylov qilib berginda, kelishuv bitimi

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar.

tuzgin".

Skiflar shohi Idanfris Doroning ushbu xatiga bunday javob bergen ekan:

"Mening ahvolim bunday, shoh! Men avvallari ham biror kimsadan qo'rqib qochmaganman. Hozir ham sendan qo'rqqanim uchun qochayotganim yo'q. Tinchlik vaqgida qanday yo'l tutgan bo'lsam, hozir ham shunday yo'l tutyapman. Sen bilan darhol jang qilmaganimning boisi bunday: shaharlarimiz yoki ekin ekadigan yerlarimiz bo'lsaki, ularning talon-toroj qilinishi va yakson bo'lishidan qo'rqsak. Shul sabab sizlar bilan darhol jang boshlamadik. Agar jang qilishni juda istasangiz, otalari-mizning qabrлarini topib, ularni oyoqosti qilishga urinib ko'ringlar, jang qilamizmi, yo'qmi, keyin bilasizlar. Bu jash haqida aytganim. Men o'z sultonim va hukmdorim deb Zevs bilan Gestiyani - skiflar malikasini hisoblayman. Senga esa siyov qilib, er-suv o'rniga boshqa narsalarni Yuboraman. O'zingni menga sulton, hokim deb hisoblaganing uchun hali adabingni eysan!"¹.

Ko'rinib turibdiki, skiflar shohi Idanfris Doroning bo'ysunish haqidagi talabiga mag'rurona javob bergen, u o'z Yurtini birovga berib qo'ymasligini, uning jazosini berishga gayyor ekanligini bildiradi. Oradan ko'p o'tmasdan qumliklar ichida sarosimaga tushib qolgan Doro qarorgohiga skiflardan maxsus sovg'a keladi. Bu sovg'a qush, sichqon, baqa va beshta o'tkir o'qdan iborat edi. Eroniylar, jumladan, Doroning o'zi ham bu narsalar skiflarning engilganidan darak beruvchi bir mujda deb quvonadilar. Faqat Doroning maslahatchisi GobriYun bundan to'g'ri xulosa chiqaradi: "Bu skiflarning bizning oldimizga qo'ygan shartidir, - deydi u. - Ular bizga bunday demoqchilar: "Agar siz, eroniylar, qush kabi uchib g'oyib bo'lmasangiz, yo sichqon kabi er tagiga kirib kyetmasangiz, yo qurbaqa singari botqoqlikka sho'ng'imasangiz, u holda o'qlardan shikast eb, shu yerlarda qolib kyetasiz"².

Shundan keyin oradan ko'p o'tmay skiflar shunday hujumlar uyushtardilarki, ularning kecha-kunduz tinim bilmagan suvoriylari yashin tezligida Doro qo'shinlarini parokanda qilib tashlay boshladi. Doro sharmandalarcha mag'lubiyatgauchradi. Skiflar va ularning shohi Idanfris g'alabaga erishdi.

Asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan ana shu lavhalar avloddan avlodga o'tib, ajdodlarimizning Vatan ozodligi, uning mustaqilligi uchun naqadar mardonaYurlik bilan kurashganligi, kelgindi bosqinchilarining kuch-qudrati oddvda esankirab qolmasdan, ularga oqilona jaYub berganlari hamda o'z so'zlari ustidan chiqqanlari haqida hikoya qilib kelgan. Qadimiy kuchmanchi davlat uyushmalarida qattiq jangovar intizom va dono diplomatiya bo'lganligi haqida mujda beruvchi ushbu satrlarga jo bo'lgan voqelik undan keyingi Yuz yilliklarda elimizda ro'y bergen tarixiy voqealarda ko'rsatilgan qahramonlik va fidokorlik namunalari uchun dastlabki tayanch bo'lgan.

Turk xoqonligi davri diplomatiyasidan

Yurtimizning qadimgi davrlarda olib borgan dishYumatik aloqalari haqida so'z borar ekan, bu hol, ayniqsa, Turk xoqo-ligi davrlaridan qolgan turli bitiklar va ashyoviy dalillarda o'zining yorqin ifodasini topganligani ko'ramiz. Ayni vaqtda, birinchi turk xoqonligi (551-630 yillar) va ikkinchi turk xoqonligi (VIII asrning 20-30 yillari) yoki uyg'ur xoqonligi (VII asrning II yarmi) hukmronligiga oid juda ko'p voqealar, jumladan, boshqa xalqlar bilan olib borilgan diplomatik aloqalar xitoy manbalarida ko'plab saqgtanib qolgan.

Bu vaqqlar ichida turkiylar G'arbu Sharqsa va Janub tarafda taraqqiy yetgan mamlakatlar bilan uzbek aloqada edilar. Xitoylar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari bor edi.

Turk xoqoni Bo'min vafotidan keyin 552 yilda xoqonlik uning o'g'li (Sharqiy turk xoqonligi) va ukasi Istami xoqon (G'arbiy turk xoqonligi) tomonidan boshqariladigan bo'ldi. (Vizantiyalik tarixchi Feofilakg Simkatta uni Stembli xoqon deb ataydi). Oradan ko'p o'tmay, u Sharqiy turk xoqonligidan ajralib, mustaqillikka erishgach, xalqaro doiradagi xoqon bo'lib qoldi. Sosoniylar hukmdori Xusrav Anushirvon (531-579) bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Buning ustiga, Istami Anushirvonga o'z qizlaridan birini bergen edi. Ikki hukmdor o'zaro kelishib O'rta Osiyo va

¹Drachuk V. Dorogami tijyacheletiy. M., 1976. s. 34-bet.

²Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. Toshkent, 1993. 21-23-betlar.

Afg'onistonning bir qismida, Eronning shimoli-sharkdda xukmron bo'lgan eroniylarni tor-mor kelti-rib, ularga qarashli joylarni bo'lishib oldilar.

Istami uzoqni ko'radigan hukmdor edi. U Vizantiya bilan ham o'z aloqasini mustahkamladi. Ipak jo'natib turish maqsadida Mannax degan sug'dni Volga va Kavkaz orqali Vizantiyaga jo'natib, imperator YUstin II bilan aloqa o'rnatdi. Kelasi yili Mannax o'zi bilan birga Vizantiya elchisi Zemarxosni olib qaytdi. Biroq Istami diplomatik munosabatlarni yozuvsiz o'rnatishi mumkin emas edi.

Elchi Mannax YUustinga, albatta, xat olib borgan va runiy alifbo xuddi shu yo'sinda xalqaro alokdirlar uchun xizmat qila boshlagan. Bu hakda yana bir shunday tarixiy dalil bor. Istami xoqon YUstin II ga maktub jo'natganligi haqida tarixchi Menandr xabar beradi. Ammo bu maktub qaysi yozuv - sug'd yozuvi yoki turkiy yozuv bilan bitilganmi, degan savol ochiq qoladi. Ko'rinib turibdiki, Istami xoqon davrida turkiy yozuv asosiy aloqa vositasi bo'lgan¹.

Bitiktoshlardagi diplomatik ma'lumotlar

Qadimiy turkiy davlatlarning diplomatik aloqalarini aniqlashda ularning boshqa davlatlar bilan olib borgan munosabatlari haqida bitiktoshlardagi yozuvlar juda katta ahamiyatga egadir. ularning asosiy qismi o'rxun yozuvlari nomi bilan mashhur bo'lgan bitiklardir. Bunday bitiklarning kashf yetilishi tarixi, o'rganilish darajasi turlicha bo'lib, ular orasida Kultegin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, To'nYuquq bitiktoshi, Kulichur bitiktoshi, Moyunchur bitiktoshlari, ayniqsa, yaxshi o'rganilgan obidalar qatoriga kiradi. Bu bitiklarda turkiy xoqonlarning qahramonligi, ularning faoliyatidagi muhim voqealar bilan birga, bunday shaxslarning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirishga vakillari kelgan turli mamlakat, xalqlar va shaharlarning nomlari ham kelti-rilgan. Bu esa ana shu xoqon hukmronligida, uning ta'sirida bo'lgan yoki u bilan yaqin do'stona-diplomatik aloqalarda bo'lgan joylар haqida yaxshi tasavvur beradi.

Masalan, 731 yilda vafot yetgan xoqon Kul teginning azasiga ta'ziya izhor qilish uchun kelganlar haqida quyidagi ma'lumot berilgan: "Azachi, yig'ichi, qitan, tatabi xalqini boshlab Udar sengun keldi. Tabg'ach xoqoni Isyi, Likang keldi. Bir tuman ipak, oltin, kumushni ortiqcha keltirdi. Tubut (Tibyet) xoqonidan bulung (oliy martabali shaxs) keldi. Janubdan kunbotardagi Sug'd muhojirlari, Buqaraq (Buxoro) ulusidan Nang sangum, O'g'ul taxxon keldi. Turg'ash xoqonidan Maqarach tamg'achi, O'g'uz bilga tamg'achi keldi. Naqshli bitiktosh yasovchi, binokor usta Tabg'ach xoqonning sangtaroshi CHang sangun keldi".

Kultigin vafotidan keyin 3 oy o'tgach, 731 yilning may oyida Bilga xoqon Xitoy imperatori SYuan Szunga murojaat yetib, Kulteginning suratini, bitiktosh yasovchi ustalar jo'natishni iltimos qildi. Uning iltimosi qondirilib, CHjon Soy va LYu Syam (bitiktoshdagi Isyi va Likang) kelib, 732 yilning avgustigacha bitiktoshni o'rnatib kyetdilar².

Makedoniyalik Iskandar bilan elchilik muloqotlaridan

Qadimgi Yunon tarixchilarining guvohlik berishicha, Iskandar Zulqarnayn istilosiga yillarda Iskandar taxminan hozirgi Bekobod yaqinida CHekla Aleksandriya (Aleksandriya Esxata) nomini olgan harbiy istehkom-shaharchani bunyod yetib, undan Sirdaryoning shimoli-sharqiy tomonlarida yashovchi skiflarga (saklar) qarshi foydalanmoqchi bo'lgan. Kvint Kursiy Rufning yozishicha, bu hol Tanaisning (Sirdaryoning) narigi tomonida hukmronlik qilayotgan skiflar (saklar) podshohining jahlini chiqaradi va u o'z inisi Kartazisni Yunonliklarga qarshi Yuborib, istexdomni buzib tashlashni buyuradi. O'zaro to'qnashuv ohir-oqibatda sulh bilan tugaydi. Aleksandr qarorgohiga kelgan 20 otlikdan iborat elchilar: "Bilginki, biz skiflarga (saklarga) shundayin ne'matlar ato yetilgan: qo'sh, nayza, kamon va qadah... Biz do'stu dushmanlar bilan bo'lgan muloqotimizda ulardan har vaqg foydalanib kelganmiz. Qo'sh vositasida olgan noz-ne'matlarimizni do'starimiz bilan baham ko'ramiz, qadahlarda ular bilan birga xudolar sha'niga sharob ichamiz, kamon bilan

¹ Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. Toshkent, 1993. 33-34-betlar.

² 1. O'sha asar, 78-79-betlar.

uzokdan turib, nayza bilan esa baqamti borib dushmanlarimizni mahv yetamiz..." Kvint Kursiyning aytishicha, elchilar yana deydi: "Agar xudo sening tanangni ishtiyoqingga yarasha bichib yaratganda, sen (hatto) butun er Yuziga (ham) sig'magan bo'larding; bir qo'ling bilan mashriqni tutsang, ikkinchisi bilan birga mag'ribga intilarding. Ularga yetishgach, sen, albatta, yaratganning nurli o'chog'ini bilishni ham xoxpab qolarding... Sen bilmaysanki, axir ulkan daraxt uzoq vaqt o'tsada, bir zumdayoq quporib tashlanadi... Biz hech kimga bosh egmaymiz, birovni itoat yettirishni (ham) xoxlamaymiz, faqat o'zaro tenglar o'rtasidagina mustahkam do'stlik bo'lishi mumkin, o'zaro teng deb esa, bir-birlariga kuch ishlitmaganlarni aytish mumkin... Skiflar (saklar) quruq qasam ichib do'stlikka undayaptilar, deb o'ylama, ular uchun qasam sodiklik garovidir. Siz, Yunonliklar ehtiyyotkorlik Yuzasidan axdnoma imzo-laysizlar va bunda xudolarga ham iltijo qilasizlar. Sodiqlikni saqlash bizning (duanu) imonimizdir. Kim insonni hurmat qilmasa, u xudolarni aldagan bo'ladi"¹.

Sug'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan maktubi

Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug'd podshosi, Samar-qand hokimi Devashtichga uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan murojaatnoma.

Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko'pdan-ko'p ta'zim yo'llayman ("murojaat qilaman").

Va janob, men bu erga, Choch hukmdori huzuriga keldim. Janob, xatlarni ham topshirdim, og'zaki ("til bilan") (aytilishi) lozim bo'lgan murojaatnomani ham to'liq, oqizmay-tomizmay ("qoldiqsiz") bayon yetdim.

Tudunga ham, uning yordamchisiga ham. Va janob, xoqonga (mo'ljallangan) xatni ham, Farg'ona podshosiga mo'ljallangan xatni ham Fargona tutug'i qo'li bilan (orqali) Fargona podshosi tomon jo'natdim. Janob, men shu tufayli Yuqoriga tomon (yana yo'l) Yura olmadimki, xabarlarg'a ko'ra xoqon (hech) ko'rinnmas emish. Janob, tudundan va uning yordamchisidan xat va og'zaki javoblarni oldim va janob (yo'lga chiqib) Apvartkonga (yetib) kelganimda, jaiob, CHadrchik haqvda yaxshi xabarlar eshitmadim hamda Ustrushon viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan. Janob, men yoppa-yolg'iz, behamrox holda (yo'limda davom yetib) Yurishga jur'at qilolmayapman. Janob, ikkinchi qayta Choch tomon qaytib keddim. Buning uchun (sen) hukmdorimdan juda yomon qo'rqaqapman. Janob tudun toziylar (arablar) bilan bitimga binoan chekindi. Bitimga ko'ra, Jamravaz va fors lashkarboshisi quyi tomon kyetdilar.

Xabarlar (borki), tovon undirib olish va kuchlarni arablardan nariga olib kyetish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlarg'a binoan xvonak hech ko'rinnmaydi, chunki ular Yuqoriga qarab kyetishdi va haligacha hech kim qaytib kelgani yo'q. Janob, tudun Tarband bilan bitim tuzgan edi. U yerdagi hamma joylarni oldi. Janob Chadrchiqda (tuzilgan) sulh munosabati bilan, eshitishimcha ("Sulh xabari tufayli") yordamchi juda g'amgin, anduhnok bo'lmoqda va yana yoningga borolmagani uchun sendan ("hukmdordan") qo'rmoqda.

Janob, so'ngra sen tomondan ("hukmdordan") xabarlar kelmay qaldi.

Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo'li orqali Kand tomonidan (aylanma yo'l bilan) jo'natdim.

Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz Sug'd podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning e'tiborsiz ("millioninchi" darajali) quli Fatufarndan maktub².

Yusuf Xos Hojib elchilik va elchilar haqida (XI asr)³

¹ 1. *Istoriya Uzbekistana v istochnikakh. Sostavitel B.V. Lunin. Tashkent, Fan, 1984. s. 128-129.*

² 1. *Ishoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, Fan, 1992. 5-6-betlar.*

³ 1. *Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik (Saodatga yo'llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi QaYum Karimov. Toshkent, Fan, 1971.*

Tamomi kishilardan sarasi elchi (bo'lishi) kerak,
Bilimli, zakovatli, juda yetuk (bo'lishi) kerak.
Xudoning qullari orasida emg saylanganlari,
Kishilarning yaxshisi elchilar bo'lganlar.
Turli xil ishlar elchi tufayligina bitadi,
Xayrli ishlar elchilar tufayli sodir bo'ladi,
Elchi juda zakovatli, xotirjam (bo'lishi) kerak.
Bilimli, so'zga dono, tadbirli (bo'lishi) kerak.
Yana so'zining ichi ham tashini bilsa,
(Toki) uning tufayli buzilgan ishlar tuzalsa.

(419-byet).

Sadoqatli hamda ko'zi to's (bo'lishi) kerak.
Ishonchli, chin, qiladigan ishlari faqat to'g'ri
(bo'lishi) kerak.

(421-byet).

Turli xil san'at-xunarlarni tugal bilsa,
Shu sap'at-hunar(lar) bilan kishi Yuzini yorug'
qilsa.

Kitoblar o'qisa hamda so'z(larni) biladigap bo'lsa,
SHe'r(lar)ni uqadigan bo'lsa ham o'zi qo'shadigan
(yozadigan) bo'lsa.

Nujum va tibni bilsa hamda tush yo'ra bilsa,
Uning ta'bir qilganidek so'zlari to'/ri kelsa.

Saqish hamda handasani bilsa,
Sondan ildiz chiqarsa, yana chegaralarni
aniqlashni bilsa.

Yana nard va shatranjni yaxshi biladigan bo'lsa,
Raqiblari undan juda bukilsa (mot qolsa),
Chavgonga mohir bo'lsa, o'q otadigan (mergan) bo'lsa,
Yana dunyoda ilg'or lochindor, ovchi bo'lsa.

Barcha tillarni biladigan bo'lsa, tilini
(so'zga) ochsa,

Turli xatlarni bilsa, qo'li (ilan) yozsa
(ya'ni qo'li xatga ravon Yursa).

Bu yanglig' barcha sanat-hunararlarni
biladigan (bo'lishi) kerak,
Bu yanglig' elchi tilakka yetadi.
Elchi zehnli, dono, ziyrak bo'lsa,
Beg undan manfaat topadi, balolarning
oldi olinadi.

Elchi yaramas, qipchoqlar suli bo'lsa,
Shubhasiz, u tufayli beg (lar)ning
obro'si to'kiladi.

Elchi (bo'lib) boradigan kishi juda yaxshi
(bo'lishi) kerak,
(Toki) u turli xil ishlarga jur'at qila olsin.
Har qanday kishi yana (o'z) so'z (lar)ini
so'zlaganda,
U (so'zlar)ni uqsa, bilsa hamda sir tutsa.
Elchi hamma san'at-hunararlarni biladigan bo'lsa,
Begining nomi elda juda ulug'lanadi.

So'zni uqqan, hozirjavob bo'lishi kerak,
 Berilgan so'zga (savolga) to'g'ri javob qilsa.
 Ichimlik ichmaydigan, o'zini tutgan
 (bo'lishi) kerak,
 O'zini tutuvchi kishi qutga suvvat bo'ladi.
 Bilimli ichkilik ichsa, bshimsiz bo'ladi.
 Bilimsiz mast bo'lsa, boshqa nima qiladi.

(425-byet)

Tili shirin (da) ko'ngli ochiq
 (bo'lishi) kerak,
 So'zi yoqimli ham (da) juda aqli
 (bo'lishi) kerak.
 Tili shirin kishi yoqimli bo'ladi,
 So'zi yoqimli bo'lsa, kishining ish (lar)i
 manzur bo'ladi.
 Xotirasi yaxshi bo'lishi kerak, (toki)
 so'zni unutmasa,
 Qanday so'z eshitsa, (ko'ngilda) qattiq saqlasa.
 Yuzi ko'rki chirolyi bo'lishi kerak hamda
 bo'yi (yani qaddi-qomati),
 Kelishgan bo'lsa, qaddi-qomati kelishgan
 (kishi) odamlar orasida yaxshi bo'ladi.

O'zi mard, himmati buyuk bo'lsa,
 Kishinipg himmati shu ikki (xislat) bilandir.
 So'zi Yumshoq, shakardek shirin bo'lsa,
 Shirin so'zga ulug' ham, kichik ham Yumshaydi.
 Elchining ishi mutloq so'z (lar)dan iborat
 (ya'ni so'zlar orqali bitadi),
 So'zi yaxshi bo'lsa, (u) tilagini topadi.

(427-byet)

Bu yanglig' kishi toyilsa, ey baxtiyor elchi
 Unga elchi oti (mansabi)ni bersa bo'ladi.
 Uni elchilikka Yuborsa bo'ladi,
 Yiroqqa bo'lsa yot-begonani, yaqinga bo'lsa, o'zga yaqin (kishini).

Amir Temur huzuriga 802 hijriy yilda
(1399-1400) Sohibqiron Avniqda (Gruziya)
turgan vaqtida Ovrupodan kelgan
elchilar haqida

"Farang tomonidan elchilar keldilar... Oyoq o'pishga yetib, o'z amirlarining so'zlarini arz izzatgohiga yyetkazdilar. Amir Sohibqiron hazrat ularni siyovolar bilan takdirlab chopon kiygizdi va ko'ngillarini xushvaqt qilib qaytardi"¹

Amir Temurning Vizantiya imperatori Manuil Paleolog II ning Konstantinopoldagi noibi
Ioann Paleologga yozgan maktubi²

¹ Nizomiddin Shomiy, "Zafarnoma", 217-sahifadan keltirilgan ushbu parchada Amir Temur huzuriga kelgan elchilarining qaysi mampakatdan va kimdan kelgashshi haqida ma'lumot berilmagan. Ammo shu qisqa axborotdan xulosa qilish mumkinki, Amir Temur bilan Ovrupo mamlakatlari o'rtasida bu vaqtida uzviy diplomatik ayaqolar mavjud bo'lgan va har ikki tarafdan elchilar borib-kelib turishgan. Shomiy "Zafarnoma»sidan olingen bu parchada muamif, fikrimizcha, Vizantiya imperatori Manuil II Paleolog yoki fransuz qiroli Karl VI Valua elchilarining tashrif haqida ma'lumot bergen bo'lsa kerak.

² Ushbu maktubning yozshgan vaqt (oy va kunidan tashqari) aniq emas. Uni Anqara yaqinidagi jang arafasida bitilgan deb taxmin etish mumkin, Chunki xatniig mazmuni Boyazid Yildirimga qarshi asosiy hujumga tayyorgarlik ko'rish

"Kirmanoliya¹ imperatorining bosh muxtor². Aleksandr bilan birga Yuborilgan monax Franchesko³ yetib keldi va sening xatlaringni menga topshirdi. Bizularni ko'rdik va o'qib chiqdik. Biz endi senga aytmoqchimiz: ana shu xatlaring orqali tinchlik va osoyishtalikka bo'lган ishonchimiz ilgarigidan ham mustahkamlandi⁴. Monax Franchesko birinchi marta kelgan (vaqt) dayoq menda yaxshi niyatlar paydo bo'lган edi. Trapezund imperatori (Manuil III) unga (yo'lда) katta to'sqinlik ko'rsatgan, bu narsa bizni taajjubga soldi va ana shu sababga ko'ra biz Ollohnning panohi ostida u erga (Trapezundga) Yurish uyuştirdik va men unga (Trapezund imperatoriga) suzishga yaxshi tayyorlangan 20 ta kema bo'lishi kerakligini buyurdim⁵. Agar bizning so'zlarimiz adolatli bo'lsa (bizning buyruqlarimiz Trapezundda ijro yetish uchun qabul qilingan), u holda bu erga (bizning qarorgohimizga) bizning elchilarimiz kelishadi (ular Trapezundda qrldirib kyetilgan edi); hozir turgan joydan biz Yildirimga qarshi kurash boshlashimiz kerak. Sening odamlaring bu erga kelishi bilanoq, biz zarur hisoblangan masalalarni birgaliqsa muhokama qilamiz. Biz shuning uchun ham monax Francheskonи sening huzuringga Yubordikki, shiddatkor Boyaziddan elchi kelishini kutib turibmiz, chunki Boyaziddan shaxsiy elchining kelishi to'g'risida ishonchli xabarlar oldik va monax Franchesko o'sha (turk) elchi bilan birgadir. Monax Franchesko o'sha elchiga (Manuil noibi nomidan) quyidagilarni aytdi: "Konstantinopol bilan Peraning Boyazidga to'lagan soliqlarini endilikda ulug' senor Temurga berishni hoxlayman"⁶. Biz bunga qo'shilamiz. Mana shu sababga ko'ra men (keyin-Chalik) Boyazidni og'ir ahvolga solib qo'yishni istamagandim. Mana,

masaaalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuning uchui ham umi 1402 yilda Vizantiya davlati bilan olib borilgan uzluksiz yozishmalar ping namunasi sifatida baxolash mumkin. Afsuski bu sohaga taalluqli bundan boshqa mujda bizgana etib kelmagan. "Samarqand tarixi"- da ta'kidlanishicha, "Venesiyalik zodagon tomonidan Konstantinopoldan Zenesiyaga olib borilgan bu xat bizga asl nusxada emas, balki bir oz buzilgan italyancha tarjimada etib kelgan. Italian tarixchisi Marino Sanudo (XU-XUI asrlar) bu xatni o'zining "Venesiya podshohlarining hayoti" degan asarida bosib chiqargan" - Samarqand tarixi, I jild. Toshkent, "Fan", 1971. 18-bet.

¹ Kirmanoli - Konstantinopolning (Vizantiya) imperatori Manuil II Paleolog shunday deb Yuritilgan. Bu so'z Yunonchadagi "Janob Manuil" ning buzib talaffuz etishshshi natijasida paydo bo'lган. Qarang: Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya... s. 44; Istorija Vizantii. T. 3. M., 1967, s. 383.

² Maktub Vizantiya imperatori nomiga emas, balki uning noibi imperatorning jiyanı nomiga bitilgan. Amir Temurdek jahonga mashhur davlat boshlig'ining kichik bir hukmdor noibi bilan bevosita muloqot olib borishi hatto o'rta asr diplomatiyasi qonun-qoidalariga ham xi洛f bir holdir. Ammo gap shundaki, bu vaqt Vizantiya imperatori Manuil Paleolog Boyazid Yildirim qo'shinlari dahshatidan qo'rqib, tobora kichrayib borayotgan o'z davlati mustaqilligini saqlab qolish, turklar qo'liga o'tib ketgan sarhadlarni yana qaytarib olish umidida Evropa hukmdorlaridan yordam so'rash uchun jo'nab ketgandi. Uuzuq vaqt davomida g'oh u, goh bu qirol saroyida «hurmatli mehmon» sifatida turib, o'z maqsadini amalga oshirishga harakat qildi. Ammo bu urinishlardan ijobiy natija chiqmadi. Imperator Manuil Ovropada ana shu tarzda hayot kechirib Yurgan vaqtida Konstantinopolda barcha ishlar, shuningdek tashqi aloqalar ham uning nomidan imperator noibi Ioann Paleolog tomonidan amalgal oshirib berilgan. Bu yerda yana shuni ham takidlash joizki, xapshing mazmunidan Amir Temur Vizantiya imperatori noibiga teng hukmdor sifatida emas, balki o'ziga qaram bo'lган bir kimsa sifatida muloqotda bo'lqashigi ham ko'zga tashlanadi.

³ Bu hol Eeropa mamlakatlari bilan olib borilgan o'zaro diplomatik ayaqaparda Amir Temur nasroniy diniga mansub ishonchli kishshshrdan keng foydalanganini ko'rsatadi. Ularning ko'plari xristian rohiblari -monahlardan iborat bo'lган. O'qimishlari, g'arb va sharq tillarini puxta egallagan bunday kimsalar eng murakkab sharoitparda ham boshqalarning e'tiborini jalb etmay o'z vazifalarini ado etaverganlar. Xristian mamlakatlarida ularni hamma joyda yaxshi qabul qilishgan. Bunday shaxslarning musulmon hukmdori xizmatida bo'lislari, uning izmi bilan g'oyat muhim, ba'zan esa qaltsi siyosiy topshiriqlarni muvaffaqiyat bilan ado etganlari shuni ko'rsatadiki, Amir Temur saptanashida ham ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Umuman, xristian diniga mansub kimsalar (nasroniy e'tiqodining turli mazhab va ordenlariga mansub rohib-lar, yirik savdogarlar) xulagiylar, mamluklar va usmonli turklar hukmdorlariga ham Evropa bilan bo'lган ularning muloqotlarida izchil faoliyat ko'rsatib kelganlar. Amir Temur bu an'anani buzmagan va o'z diplomatik aloqalarida undan keng foydalangan.

⁴ Bu jumla ikki orada izchil suratda yozshima bo'lib turganligini ko'rsatadi.

⁵ Trapezund imperatori Manuil III dastlab Amir Temur davatiga teskari ish tutib, Furot daryosi bo'yida uning qo'shinlariga qarshilik ko'rsatishga ham harakat qilgandi. Bu hol Yuqorida ta'kidlanganidek, Amir Temur vakolatpi bilan muzokaralar olib borishi lozim bo'lган rohib Franchesko va uning hamrohlariga nisbapgan u shutgan siyosatda ham namoyon bo'ladi. Hisqasi, bunday xatti-harakatlarning barchasi Sohibqironni kuch ishlatishga majbur qiladi. Natijada Amir Temur Trapezundni mahv etadi va 1402 yilning bahorida Manuil III ning shaxsan o'zi itoat Yuzasidan uning qarorgohiga kirib keladi.

⁶ Bu jumla Amir Temur va Vizanshiya o'rtasida Anqara jangigacha ana shu tarzdagi rasmiy hujjat tuzilganligidan darak beradi. Ayni vaqtida u Sohibqironni Boyazid Yildirim faoliyatini cheklash yo'lidagi o'zining yana bir talabini unga yetkazgashshgini namoyon etadi.

endi zero Boyazid seni tinch qo'y mayotgan ekan, men uning yo'lini to'saman (unga qarshi chiqaman). Agar Boyazid senga aholi yashaydigan joylaryai va qal'alarни qaytarib bersa, yyetkazilgan ziyon va zararlarni (to'lasa), u holda men u bilan urushmayman¹. Shunday qilib, sen menga mulklaringni qaytarib bergan-bermaganligini yozib Yuborgan. Bu xatda menga ochiq ravshan yozib Yuborgan, chunki bizning odamlarimizning Trapezundda boshidan kechirgan ko'ngilsiz voqealarni eshitdim va shaxsan o'zim Trapezund yaqiniga keldim (va uni bo'y sunishga majbur yetdim), bu haqsa sen hech ham shubhalanma. Shunday, sen menga aytmoqchi bo'lgnlariningni aniq-ravshan yozib Yuborgan, chunki Trapezund imperatorlari va uning odamlari huzurimizga (qarorgohga) kelishadi, shu boisdan biz qabul qilgan shartnomaga (bizning o'zaro shartnomamiz) sening uchun buzilmas va ishonchli bitim bo'lishi kerak.

Mana shu Ishoq (xatni topshiruvchi) senga aytadigan barcha gaplar va xatimning mazmuni ochiq-ravshan, xullas, sen 20 ta kemani olib, ular bilan Trapezund tomon suzishing kerak².

Biz Ollohnning yordami bilan Yuzimizga dog' tushirmay va ishonch bilan aniq maqsadga erishish uchun kddam tashladik.

Bu xat 15 mayda yozildi va ishonchli bo'lishi uchun biz unga o'z muhrimizni bosdik".

Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan birinchi maktubi³

Ulug' Amiri Kabir Temur Ko'ragon umrlari ziyoda bo'lg'ay. Roy de Frans⁴ bu do'stingizning Yuz ming salomi va istaklarini bir jahon orzulari bilan qabul qilg'aysiz.

Duolarni yyetkazishdan so'ng u ulug' amirning oliv ra'yiga yyetkaziladi, ta'lim beruvchi (missioner) Fri Fransiskus⁵ bu tarafga keldi va malikona yozuvlar keltirdi, hamda u ulug' amirning olivjanobligi va buzrugvorligini arz qildi. Ko'p shodmon bo'ldik. Yana u aytdiki, (janobingiz) "katta lashkar bilan ravona bo'lib, Ollox. taoloning ko'magida bizning va sizning dushmanlarimizni zabun qilibsiz"⁶.

Shundan so'ng Sultonianing navqiron Mor Xasesi (Arxie-piskop Jan) huzuringazga Yuborildi. Har nimaiki voqe' bo'lган bo'lsa, u xizmatingizda arz yetgusidir. Endi u ulug' amirdan iltimosimiz

¹ Amir Temur bilan Vizantiya o'rtasida Boyazid Yildirimga qarshi tuzilgan bitimning Vizantiya uchun muhim asosiy shartlari shulardan iborat bo'lsa kerak. Ma'lumki, Amir Temur Anqara to'qnashuvidan keyin Konstantinopolga bergen o'z va'dasshsh asosan bajarishga harakat qiladi. U Turk imperiyasini mag'lub etsada Konstantinopolga hujum qilmadi va shartnomaga asosan Vizantianing o'ziga qaram davlat sifatida xiroj to'lab turishini joriy etish bipan cheklandi.

² Amir Temur olib borgan barcha harbiy Yurishlar quruqlikda sodir bo'lgan. Uning imperiyasida harbiy floti yo'q edi. Ammo bu buyuk sarkarda g'arbga shomon siljib, O'rsha er dengizi va Hora dengiz hamda Fors ko'rfazi qirYuqlariga chiqqan, suvda Yuz berishi mumkin bo'lgan muhorabalarga ham ehtiyoj tug'ilishini to'la idrok etgan. Buni biz uning yirik dengiz kuchlariga ega bo'lgan Genuya va Venesiya bilan yaqin aloqa bog'lash maqsadida ularga e'tiborli elchilar yo'llagani haqidagi faktlardan bilishimiz mumkin. Afsuski, bu masaladagi yozishmalar va muzokaralar to'g'risidagi materiallarga ega emasmiz. Ular, ehtimol, o'sha mamlakatlardagi arxivlarda saqlangan bo'lishi mumkin. Ushbu maktubda eslatilgan kemalar masalasi ham Sohibqironning Boyazid Yildirim bilan to'qnashuvga tayyorgarlik ko'rishda ana shu masalaga jiddiy e'tibor bergenligini ko'rsatadi. Tarixdan ma'lumki, o'sha davrda jahon miqyosidagi eng yirik ikki harbiy sarkardaning jang maydonidagi bevosita bellashuvi Amir Temur sarkardalik dahosishing to'la ustunligi bilan yakunlandi. Boyazid Yildirim qo'shinlarining Anqara yonida uzil-kesil tormor etilishi, aftidan, dengizdagi suv janglariga ehtiyoj qoldirmadi. Shuning uchun ham Sohibqiron tomonidan bu masalada ko'rilgan ehtiyyot chora-tadbirlar hayotga tadbiq etshshasdan qoldi.

³ Maktub ayrim juz'iy tuzatishlar bilan A. O'rbinboev va D. Valievaparning forschadan qilingan tarjimasida berildi.

⁴ Itapyancha "Fransiya qiroli" iborasining fransuzcha talaffuzi.

⁵ Fri - birodar (xristian monahlari nomiga qo'shib aytilgan). Amir Temur yozishmalari tadqiqotchisi Sshgvester de Sasi esa bu nomani italyancha talaffuzda emas, balki fransuzcha - Frynsua tarzida bergen.

⁶ Bu yerda qapsi urush haqida gap borayotgani ma'lum emas. I.I.Umnyakov Fransuz qirolining marshal Busiko rahbarligido Vizantiyaga 1399 yilda yordamga Yuborgan harbiy kemalar ekspediqiyasi haqida gap boradi, deb yozgan bo'lsa (I.I.Umnyakov, Mejdunarodnsh otnosheniya..., s.181), eronlik tadqiqotchi Husayn Navoiy esa "gap Vengriya qiroli Sigizmund iltimosiga ko'ra Komte de Nevers rahbarligida Fransiya qo'shinlarining Nikopolos qal'asi uchun bo'lgan jangda (1396 yil 22 sentyabr) ishtirok etishi haqida borayotibdi. Bu jangda garchi ovro'paliklar shikast egan bo'lsalarda, Temur siyosiy nazokat Yuzasidan Fransiya podshosiga uning mag'lubiyatiga ishora qilmay, balki "Sizning va bizning dushmanizni engdingiz", deb yozadi "qabilida izoh bergen."

shulki, doimo humoyun nomalarini Yuborib tursalar va ulug' amirning salomatliklarini bildirib tursalar, toki xotirimiz tasalli topsa. Yana o'z savdogarlariningizni bu tarafga Yuborib tursalar, biz ularni azizu-mukarram tutg'umizdir. Shunday biz ham o'z savdogarlarimizni u tarafga Yuborib tursak, ularni ham muazzaz va mukarram tutsalar va ularga hech kim zo'ravonlik qilmasa. Zo'rlik va tazyiq qilmasa, zero dunyo bozorgonlar (tujjorlar) bilan oboddir¹.

Bundan ortiqnimani talab qilaman. Davlatingiz ko'p yillar komronlikda o'tsin. Vassalom. Mukarram muharram oyining boshida 805 hijriy yilda bitildi. (1402 yil 1 avgust)².

Amir Temur muhrining o'rni.

Amir Temurning Farangiston qiroli Karl VI ga yo'llagan ikkinchi nomasi³

Biz kim, Amir Temur Ko'ragon so'zimiz.

Aslzoda va muzaffar do'stimiz qirol hazratlariga, dunyo uchun bag'oyat foydali, buyuk janglarning g'olibi, malik va sulton, Farangiston va boshqa ko'pgina xalqlarning qiroliga salomlar yo'llaymiz, hamda osoyishtalik tilaymiz.

Haqiqiy do'st sifatida, biz sizning kishvariningizning hamisha ravnakda bo'lmg'ini istaymiz. Buning boisi shuldirikim, sizning nomingizni uzoq-uzoq o'lkalarda ham biladilar va sizning barcha qirollar orasidagi obro'-e'tiboringiz to'g'risida butun Sharq arxiepiskopi, bir vaqtlar faranglar tomonidan, mening huzurimga jo'natilgan monax Jan⁴ bizga hikoya qilib berdilar. Ul kishining hikoyalari ham monax Fransisk Satrunikiga juda o'xhash bo'lib, saltanatingiz tasarrufining ko'plab, xususan, hozirgi kundagi o'lkalargacha kengayganligini biz yaqinda Turkiyada bo'lganimizda eshittdik. Bundan tashqari, tijorat ahli va boshqalarning manfaatlari to'g'risida ham eshittdik. Saroyingizning ulug'vorligi, qudrati va tartib-qoidalari bizni mammun qildi.

Sizning turk Boyazid bilan orangizning sovuqpigini eshittdik. Ul sulton men bilan bir tuzum va bir din odami bo'lishiga qaramasdan, oramizda tuzilgan bitimni hurmat qilmadi. Oqibat, biz va do'starimiz uni sindirishga azm yetdik. Birodarlarimizning da'vati hamda sizga bergen va'damizga amal qilib⁵, siz va biz uchun bir xil g'anim bo'lg'on Turkiya sultoniga qarshi Yurish qildik. Ollohning madadi birla qisqa muddat ichida sulton Boyazidning butun qo'shinini tor-mor keltirdik⁶.

Buyuk hukmdorlar va do'stlar o'rtasidagi ulug' ishlar haqida bir-birlarini ogoh yetish odatiga bo'ysunib, mazkur arxiepiskop Janni siz janoblarining huzuriga jo'natdik, toki ul kishi bizning mamlakatimiz va hozirgi ahvolimiz, shuning birla, so'ngi paytlarda bul o'lkalarda sizning g'animingizga nisbatan sodir bo'lgan voqealar to'g'risida sizni xabardor yetsinlar, batafsil so'zlab bersinlar. Tag'in ul zot sizlar bilan bo'lgan do'stligimiz va ittifoqimiz, siz va sizning

¹ R. Qilichev va M. Xolbekovlar tarjimasida shundan keyin "Risolatni (elchilikni) ham o'maturniz", degan jumla bitilgan. (Qarang: "O'zbekiston adabiyoti va sanati " 1993 yil 28 may). Bu esa muhim ahamiyatga molik bo'lib, gap ikki davlat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatish haqida bormoqda.

² Ushbu maktubning jo'natilgan vaqtqi Anqara jangidan keyingi paytga to'g'ri keladi. Shunisi qiziqliki, Amir Temurning bizgacha etib kelgan ikkinchi maktubi ham Fransiya qiroliga xuddi shu sanada, yani 1402 yil 1 avgustda jo'natilgan. Ammo ko'tilik mutaxassislarining fikricha, ushbu xat Anqara jangidan ancha oldin bitilgan va qandaydir sabab bilan u o'z vaqtida jo'natilmagan. Agar maktub bu yerda ko'rsatilgan sanada bitilganda edi, unda, albatta, Anqara jangi esga olingan bo'lur edi. Vaholanki ikkinchi maktub xuddi ana shu mavzuga bag'ishlangan.

³ Ushbu maktub lotin va farang tillaridagi nuxsalardan Rahim Qilichev va Muhammadjon Xolbekov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati " ro'znomasida (1993 yil, 28 may) e'lon qilingan. Tarjima fransuz olimi LYusen Kerenning 1991 yilda Larijda nashr etshirgan Rui Gonsales de Klavixoning "Temurbek saroyiga saethodi kundaligi" (u "Samarqandga yo'l" sarlavhasi bilan bosilgan) kitobidagi ilovalarida berilgan yozishmalar asosida bajarilgan. Zotan, mualliflar o'z tarjimalari haqida ular "maktublarning asliga yohud lotincha, farangcha va ispanchaga o'girilgan nuxsalariga tamomila monanddur, degan da'vodan yiroqmiz" degan bo'lsalarda, bu maktublarning oldingi tarjimalariga nisbatan sifatiroq ado etilgani ko'zga tashlanadi.

⁴ Bu jumladan ma'lum bo'ladiki, monax Jan dastpab Amir Temur huzuriga Fransiya qiroli nomidan elchi tariqasida kelib, unga Karl UIning "Sulton Boyazidga qarshi ittifoq tuzish " to'g'risidagi iltimosini yetkazgan. Afsuski, bu masalaga taalluqli fransuz qirolining maktubi bizgacha etib kvlmagan.

⁵ 2. Demak, Amir Temur va Karl VI o'rtasida Boyazid Yildirimga qarshi kurashda hamkorlik qipish xususida o'zaro kelushuvga o'xhash bir narsa bo'lgan.

⁶ 3. Bu yerda gap Angora (Anqara) yonidagi 1402 yilda 27 iyun kunida ro'y bergen jang haqida boradi.

odamlaringizga hurmat-e'tiborimiz hamda birodarligimiz ravnaqi yo'lida shu kunlarda bajarilayotgan ko'pg'ina foydali tadbirlar haqinda ham hikoya qilg'aylar¹. Ul zotni ham sizning, ham bizning odamimiz tariqasinda tavsiya yetmokdamiz; ul kishini diniy masalalardan tashqari, boshqa barcha masalalarda ishonchli vakil, deb tinglag'aysiz².

Bizning istagimiz - sizning salomatligingiz ustivor bo'lzin; sizning va bizning odamlarimiz bu ikki e'tiborli mamlakat o'rtasida o'zaro borish-kelish qilsinlar, toki bizning ulutvorligamiz hamma yerda maqgovga loyiq bo'lzin. Tijorat ishlarining foydali bo'luviga ham erishaylik.

Qolg'on boshqa ishlar, faoliyatimiz va rejalarimiz xususida utibu arxiepiskop sizga so'zlab berur, chunki ul kishi bu mamlakatda uzoq vakt" bo'ldilar va ko'p narsani biladilar.

Hijriy 805 yil muharram oyining birinchi kunida (melodiylar 1402 yil 1 avgust) Sivasda berildi.

Amir Temurning Kastiliya kiroli Henrix IIIga yo'llagan maktubi³

Podsho va sohibqiron Temurbekdan Kastiliya shaharlari va yerlari hamda Ispaniya Leoni qiroliga.

Uzoq yillar shuhratli va farog'atli, hamiyatli va marhamatli umr ko'ring. Sizga ma'lum qilg'aymizkim, Payo va Ernan Sanches orqali jo'natgan nomangiz beshikast yetib keldi⁴. Biz aning do'stlik va yaxshi munosabatlarini rivojlantirishga oid mazmuni bilan tanishib chiqsik. Hech bir shubha yo'qki, nomangiz sharoitingizning guzalligi, o'tgan yillar mobaynida qirolligingizning tinchlik borasinda ustuvorligi, harakatlarining qat'iyligini o'zida aks yettiribdur.

Men buyuk Tangriga iltijo qilurmanki, u sizning sultanatangizni rohi mustaqimda saklasin va davlatingaz umrini juda ko'p kecha-kunduzlarga uzaytirsin, payg'ambarlar tahsiniga sazovor bo'lzin!

Alqissa, sulton Boyazid o'z xuquq doirasidan chiqib, o'rtada nizolar paydo qildi, parokandalik tug'dirish, podshalar va hukmdorlarga hukm o'tkazish to'g'risinda xusumatli farmonlar berdi, bizning ogoxlantirishlarimizga qulq osmadi, zig'ircha hayiqmadni. Andin so'ng biz ham buyuk tangri nomi bilan uning ustiga son-sanoqsiz tug'larimizni ko'tardik. Biz janglarda tob-langan lashkarlarimizni, ani jazoga mahkum yetmoq niyatinda nasroniy mamlakatlar yerlariga boshladik, yo'l-yo'lakay ko'plab nasroniy shahar hamda qal'alarni ozod qildik va kelishmov-chiliklarimizni jangning takdiriga havola yetdik⁵.

¹ 1. O'sha vaqtagi og'ir sharoit va yo'llarning notinchligi tufayli ko'pgina elchiliklarning talon-puroj etilgani tarixdan ma'lum Shuning uchun ham odatda yo'llangan maktublarda ko'pgina masalalar tafsloti o'z aksini topmagan va ularni qo'shimcha suratda og'zaki arz etish elchi zimmasiga Yuklatilgan. Bunday uslubni Amir Temur ham o'z diplomatiyasida keng qo'llaganini ko'ramiz.

² 2. "Diniy masalalardan tashqari" iborasini I.I.Umnyakov "ushbu mutlaqo kutilmagan cheklash monax Janning aqliga kelgan ajoyib fikr bo'lib, Temur va uning vaziri buni hech qachon hatto xayoliga ham keltirishi mumkin emas edi", deb izohlagan. (Qarang: I.I. Uminkov. Mejdunarodnshe otnosheniya... s. 184) Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu ibora Amir Temur tomonidan maktubga kiritilgan. Bu bilan u islom dinining homiysi sifatida xristian qiroli bilan diniy masalalarda muzokaralar Yuritishni mutlaqo lozim deb topmasligini qat'iy ta'kidlab qo'ygan.

³ Lotin va farang tillaridagi nusxalardan Rahim Qilichev va Muhammadjon Xolbekovlar tarjimasi.

⁴ Kastiliya va Leon (Ispaniya) qiroli Henrix III 1401 yilda bir vaqtning o'zida Turkiya sultonı Boyazid Yildirim va Amir Temurga ikki zodagon - Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palesueloslar rahbarligida elchilik yo'llaydi. Ular dastlab turk sultonı huzurida bo'ladilar. Boyazid Yildirim elchilarni yaxshi kutib oladi va uning qarorgohi bilan birga ular Anqara yonidagi jang maydoniga ham kelishga va bu yerda Yuz bergan qonli to'qnashuvni ko'rishga muvaffaq bo'ladilar. Bu elchilik haqida ma'lumot bergen Klavixo quyidagilarni yozib qoldirgan: "Ushbu jangni (Anqara yaqinidagi Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rshasidagi to'qnashuv - B.M.) xudoning marhamati bilan Kastiliya va Leon qiroli bo'lgan buyuk va shavkatli senor don Enrikening, Yaratgan uni o'z panohida asrasin, elchilar Payo de Soto Mapor, Ernan Sanches de Palasueloslar bevosita kuzatishga muvaffaq bo'ldilar. Ular qirol tomotdan Temurbek va Turk Yildirim (Boyazid Yildirim)ning qudrashini o'rganish, ularning boyliklari, bir-birlariga qarshi qo'ygan qo'shinlarining soni haqida malumot to'plashga hamda bu hukmdorlar o'rtasida Yuz berishi kutilgan jangni bevosita kuzatish uchun Yuborilgan edilar (Rui Gonsales de Klavixo, Dnevnikputeshestviya... str. 15) Elchiparoradagi jangtugashi bilanoq birinchilar qatorida Amir Temurni buyuk g'alaba bilan muborakbod etadilar va unga o'z qirollarining do'stlik izhori bittilgan maktubini topshiradilar. Amir Temur ularni katta xushnudlik bilan qabul qiladi, qimmatbaxo sovg'a-salomlar bilan siylaydi va o'z elchisi Muhammad al-Keshiyini qo'shib Ispaniyaga jo'natadi.

⁵ Bu yerda Amir Temur Boyazid Yildirim tahdid solgan Kichik Osiyodagi dengiz sohillarida joylashgan nasroniy hukmdorliklar, jumladan, Kaffa, Tana, Trapezund, Pera kabi hududlarni nazarda tutgan bo'lsa kerak. Undan tashqari, bu jang natijasida turk sultonı izmida bo'lgan minglab ovrupoliklar ham ozod etilgan edilar. Ularning ko'plariga

O'rtamizda jang boshlanib, Ollohnning irodasi va panohi ostida biz uni mag'lub yetdik, chunki buyuk tangrining - barcha narsalarning yaratguvchisi va xaloskorining panohidan o'zga panoh yo'kdir. Biz Yildirim Boyazid va uning o'g'li Mustafoni asir oldik. Ular bizning qo'limizga tushdilar, qo'shinini qirib tashladik, odamlarini qilichdan o'tkazdik, bizning nayzamiz va qilichimizdan mahv bo'ldilar, er ularning qoniga bo'yaldi. Biznikilar ularning jasadlarini hayvonlarga tashladilar,

omon qolganlari to's-to'polonda yalang'och, yalangoyoq qochdilar. Ollohnning inoyati birlan, bu choperlar xabardor bo'lganlaridek, barcha nasroniy qirollarga ularning shahar va qo'rgonlarini biz marhamat qilib qaytarib berdik.

Amir Temur o'g'li Mironshoh Mirzoning Ovrupo qirollariga yo'llagan nomasi¹

Biz kim, Mironshoh Ko'ragon² so'zimiz.

Nasroniy dinidagilar orasindan tanlab olingen, Olloh suygan qudratli qirollar, hukmdorlar, jamoalar va franklarning hazrati oliylariga salomlar bo'lsin.

Biz do'stona sizlarga ma'lum qilamizki, magar sizlar xohish bildirib, bizning Yurtlarga tashrif buyursangizlar, hamma narsani sizning diningizga mos keladirg'on holatda tayyor yetgumizdir, negaki zulhijja oyidagi yozishmalar salomnomaga tarzidagi tinchlik, do'stlik va tangri tomonidan baxt-iqbol yo'linda nimaiki maqbul ko'rilgan bo'lsa, o'shalarni tilab bitilgan maktublardir³.

sohibqiron o'z Yurtlariga jo'nashga ruxsat beradi. Bu hol Ovrupo mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarni yanada mustaxkashashga qaratilgan ajoyib diplomatik tadbirlardan bo'lib, Ovrupo qirollarining minnatdorligiga sabab bo'lgandi. Jumladan, Amir Temur Ispaniya qiroli Henrix III huzuriga yo'llagan o'z elchisi Muhammad al-Keshiya qironga shopshirish uchun ko'plab qimmatbaho sovyular bilan birga, Klavixoniig yozishicha, "o'z odatiga ko'ra xotiilar ham Yuborgandi" (Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik putesthestviya..., str. 16) H. Ismatullaning ta'kidlashicha, Klavixo kundaliklariniig boshqa tillardagi tarjimshshrida 'o'z odatiga ko'ra "iborasi yo'q bo'lib, "Amir Gemur o'z ota-onasiga topshirish maqsadida Henrix III ixtiyoriga xopisharni emas, balki yosh, turmushga chiqmagan ikki qizni Yuborgan". H. Ismatulla, boshqi manbalarga tayangan holda ularniig keyingi taqdiri haqida ajoyib ma'lumotlarni keltiradi (Qarang: O'zbekiston adabiyoti va san'ati ", 1995 yil, 7 aprel).

¹ Lotin va farang tillaridagi nusxasidan Rahim Qilichev va Muhammadjon Xolbekovlar tarjimasi.

² Mironshoh Ko'ragon - Amir Temurning uchinchi o'g'li. 1393 yilda Sohibqiron unga o'z imperiyasining g'arbiy sarhadlarini boshqarishni topshirgan. Mironshoh 1408 yilda hayotdan ko'z Yumgan. U 1376 yilda katta akasi Mirzo Jahongirning vafotidan keyin, uning bevasi -O'zbekxoining nabirasi - Xonzoda Sevin-bekaga uylansdi. Shuning uchun ham unga ko'ragon, ya'ni xon kuyovi unvoni berilgan.

³ "Zulhijja oyidagi yozishmalar" iborasi Mironshoh bilan Ovrupo qirollari o'rtasida bundan oldin ham diplomatik yozishmalar ro'y berganligini ko'rsatadi. Ular Amir Temur topshirig'i bilan uning nomidan amalga oshirilib kelingan bo'lishi ham mumkin. Ammo ushbu maktub Mironshoxning Ovrupo hukmdorlariga bevosita murojaat qilish huquqiga ham ega bo'lganligidan darak beradi. Vaholanki, rasmiy tarixnavislarning xabaricha, Mironshoh 1396 yilda otdan yiqilgach davlat ishlariga sovuqqonlik bilan yondoshib, uning xatti-harakatlarida ma'lum noqisliklar sezila boshlagan (masalan, Sharafiddin Ali YAzdij shunday yozgan), Klavixonning takidlashicha esa, u Tabriz va o'z poytaxshi Sultoniyada "odamlar Miassa Miraxa (Mirzo Mironshoh - B.M.) hech narsa qurmagan bo'lsada, jahondagi eng hashamatli binolarni vayron etishga farmon bergan", deb meni eslaydilar, degan andisha bilan juda ko'p ajoyib qurilishlarni er bilan yakson etgan" (Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik putesthestviya..., s. 82). Boshqa ma'lumotlarga qaraganda, 1399 yilda Mironshohning xazinani talon-toroj etganligi va xotini Sevshch-bekanining Sohibqiron huzuriga uning qilmishlaridan arz bilan borganligidan g'azabga kelgan Amir Temur shu yiliyoq g'arbg'a Yurish qilib, Sultoniyaga epgib keladi va ota-bola o'rtasida katta ta'bixiralik ro'y beradi. Shundan so'ng Mironshohning katta o'g'li - Bag'dod hokimi bobosidan o'z otasini uning huzuriga Yuborilishini so'raydi (Bartold V.V. Ulugbek i ego vremya. s. 56-57). 1404 yilda G'arbiy Eron, Mesopotamiya hamda Kavkazorti o'lkalari va Mironshohning barcha qo'shinlari uning ikkinchi o'g'li Mirzo Umar ixtiyoriga o'tadi (YAkuboeskiy A.YU. Temur, s. 67). Bu xat 1402 yil avgust oyida Mironshoh nomidan yozilgan. Ayni vaqtida, Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z esdaliklarida Sultoniyaga kelganda u yerda elchilarini Mironshoh qabul qilganligi haqida yozadi. Bu esa 1404 yil edi. Elchi kundaliklarida bu haqda quyidagilarni o'qiyimiz: "Payshanba kuni, yigirma oltinchi iYunda (1404 yil - B.M.) tush payti katta shaxar - Sultoniyaga kirib keldik va u yerda Temurbekning katta o'g'li (Klavixo shunday deb yozgan - B. M.) Miraxa Mirassa (Mironshoh - B. M.) ni ko'rishga tuyassar bo'ldik. Ertasiga, juma kuni ertalab ana shu Miraxa Mirassa huzuriga ravona bo'ldik... Uni katta bog' ichida qad ko'targan saroyda ko'plab qurolli soqchilar qurshovida ko'rdik. Uelchilarini katta xushnudlik bilan qabul qildi va ularni o'z chodiriga taklif etdi. Bu yerda bo'lgan suhbat chog'ida u elchilardan bizning senorimiz, ya'ni Kastiliya qirolining salomatligi haqida so'radi. Shu tarzda biroz suhbatlashgach, elchilar

Ushbu maktubning yozilishiga Osiyo arxiepiskopi Jandan olingen xabarlar sabab bo'ldi, boisi men uni dastlab sizlarning ikkita mashhur shahringiz - Genuya va Venesiya maktub-lar ila jo'natib erdim. Ul zot u tomonlardan sizlarning sultanatlariningizga oid ko'pgina xushxabarlar keltirdilar. Bundan tashqari, bu o'rtada monax Fransua Satru ham tashrif buyurdilar va yaxshi kugab olindilar¹.

Sizlar va sizlarning odamlaringizga nisbatan do'stlikka moyil bo'lg'on padari buzrukvorimiz va biz ham ularning axborotlarini hisobga olib, ko'pgina ishlar qildik va qilmoqdamiz. Chunki, ularning maslahatlariga ko'ra, hozirgi kunda juda kuchli bo'lgan bizning umumiy dushman Yuzma-Yuz bo'ldik, biz uni mag'lub yetdik, sindirdik va ma'lumingizkim, yana shundoq qilgaymiz². Buning uchun Olloh taologa shukronalar ayтурмиз va xoxlaymizkim, oramizdag'i do'stlik yanada kamol topsin.

Padari buzrukvorimiz o'shal arxiepiskopning bizga bo'lgan sadoqatini ko'rgach, ul kishini sizlarni barcha voqeadan xabardor qilmoq, bizning engilmas kuch-qudratimiz, amalga oshirayotgan ishlarimiz, xatti-harakatimiz, shuningdek, bu o'lkalarning afzalliklari haqinda axborot bermoq niyatinda huzuringizga jo'natdilar³.

Tojirlar xususinda esa, biz istardikki, ular biz tomonlarga omon-eson yetib kelsinlar va ular hozir ham shundaydirlar, biznikilar sizlarning Yurttingizda, sizlarni esa bizning Yurtlarda xavf-xatardan xoli bo'lsinlar. Alqissa, siz bilan bizning o'rtamizda diniy tafovut bo'lishiga qaramasdan, biz bu dunyoda barchaning, xususan, tijorat ahlining manfaati yo'linda do'stlikni asrab-avaylamog'imiz zarurdir.

Bizda amalga oshirilgan boshqa ishlar haqinda ul arxiepiskop janoblari so'zlab berg'usidir; shu boisdan ul zotni ishonchli vakil tariqasinda tinglag'aysizlar va xizmatlarini ko'pligini inobatga olib, biz kabi hurmatlarini o'rniga qo'yg'aysizlar.

Maktub hijriy 805 yilning Yuqorida ko'rsatilgan oyida Sivasda topshirildi.

Farangiston qiroli Karl VI ning Amir Temurga javob maktubi⁴

Karl, xudoning suykli bandasi, franklar qiroli, shavkatli va muzaffar xoqon Temurbey janobi oliylariga salomlar yo'llaydi, osoyishtalik tilaydi.

ziyofatga taklif etildilar va ularning rasm-rusumiga muvofiq tanavvul qildilar. Ular ketadigan vaqtida Miraxa Mirza elchilarga sarpolar ulashish haqida buyruq berdi " (Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya..., s. 80) Agar Mironshoh haqida Yuqorida bayon qilingan faktlar tarixiy haqiqat bo'lsa, u holda Mironshoh 1399 yildan keyin Amir Temur tomonidan yana o'z joyiga qaytarilgan va avvalgidek barcha ishlar uning nomidan boshqarilgan. Har holda Ovrupo qirollariga yozilgan ushbu maktub va ispan elchilarining uning tomonidan rasmiy suratda qabul etilishi fikrimizga dalil bo'la oladi.

¹ Demak arxiepiskop Jan Amir Temur davlashining Genuya va Venesiya bilan olib borgan muzokaralarida ham katta rol o'ynagan. Monax Fransua Satru esa Larijan qiroli Karl VI tomonidan Sultoniyaga Yuborilgan bo'lsa kerak. Ular Amir Temur harbiy Yurishlar bilan band bo'lgan paytlarida Mironshoh topshiriqlarini bajarib, Sohibqiron imperiyasi bilan G'arb davlatlari o'rtaisdagi diplomatik aloqalarda har vaqt muhim vazifalarni bajarib kelgan ko'rindilar.

² Bu yerda gap Anqara (Angora) yaqinida ro'y bergen 1402 yil 27 iyundagi jang haqida borayotibdi. Ma'lum-ki, bu harbiy to'qnashuvda Boyazid Yshgdirim qo'shinlari Amir Temur shomonidan batamom tor-mor etilgan va turk Sultonasi asir olingen edi.

³ Manbalarning xabariga qaraganda, Amir Temur imperiyasining garbiy qismida sultoniya shahri nafaqat siyosiy-harbiy poytaxt, balki eng gavjum savdo markazlaridan biriga ham aylangan. Bu yerda har yili G'arb va Sharq hamda shimolu Janubdag'i mintaqalardan keltirilgan tovarlar yarmarkalari uyushtirilgan. Buni o'z ko'zi bilan ko'rgan Klavixo quyidagilarni yozib qoldirgan: "Bu shahar (Sultoniy) juda gayrum, ammo Tiuis (Tabriz)- Chalik ulkan emas, ammo bu yerda savdo-soti qeng taraqqiy topgan. Har yili bu erga, ayniqsa, iYun, iYul va avgust oylarida ko'p tovarlar Yuklangan katta karvonlar keladi: Bu shahar katta savdo markazi bo'lib, u podshoga katta daromad keltiradi... Gilonda etishtiriladigan ipakning asosiy qismi shu erga keltiriladi... va bu tovar uchun Sultoniyaga hatto Venesiya va Genuyadan savdogarlar kelishadi... Xristian dunyosidan, Kaffa, Trapezund, shuningdek, Turkiya, Baldakdan keladigan barcha tujorlar xuddi shu paytlarda shu yerda yig'iladilar va kerakli mollarni xarid qiladilar" (Rui Gonsales de Klavixo, Dnevnik puteshestviya..., s. 80-81). Bu hol o'z navbatida Mironshohdan ana shu sohani yanada rivojlantirish uchun atrof hukmdorlar, ayniqsa, Ovrupo davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berishni taqozo qilgan. Ayni vaqtida, Ovrupoda ham bu masalaga katta qiziqish bilan qaraganlar.

⁴ Ushbu maktubning lotin tilidagi dastlabki nusxasi Larij milliy kutubxonasida saqlanib qolgan. Uni Rahim Qilichev va Muhammadjon Xolbekovlar o'zbek tiliga o'girishgan.

Qudratli va muzaffar hukmdor, ma'lumingizkim, shavkatli qirollar va nom taratgan podsholar o'zlarining diniy mazhab-laridan, zaboni, dunyoqarashi va qonunlarining turli-tuman-ligidan qat'i nazar, xohish bildirib, ittifoq bo'lsalar, oshno tutunsalar, ular qo'l ostidagi ahli fuqaroning ham tinch-osoy-ishtaligi ta'minlangan bo'lur edi. Shu boisdan, siz shavkatli va muzaffar hukmdorlarning arxiepiskop Ioann janoblari orqali Yuborgan nomangizni olarkanmiz, bu maktublar¹ orqali siz oliy hazratning bizga salomlar yo'llaganingizni, bizning mamlakatimiz maydoni va qirolligimiz imkoniyatlari xususida ma'lumot so'ranganingizni hamda Ollohning inoyati birla dushmanimiz Boyazid ustidan zafar quchganingizni bilib oldik. Ma'lumingizkim, bu nomalar bizga birgina zavq bag'ishlab qrilmaydir, boz ustiga, siz oliy hazratlariga ma'qul bo'lganidek, bizning va o'zga nasroniy davlatlarning tojirlari sizning fuqarolaringiz bilan savdo-sotiqlar, o'z mollarini xavf-xatarsiz olib borish, ayriboshlash imkoniyatiga ega bo'lsalar hamda sizning tasarrufingizdagi yerlarda emin-erkin Yursalar. Alqissa, o'zingiz aytganingizdek, bizdan oldingi hukmdorlar davrida xuddi shunday bo'lgan. O'z navbatida biz ham sizning ulug' iltifotingizga samimiyl, o'shal azmu qaror birla javob berurmiz, toki sizning odamlaringiz ham biznikilar sizning mamlakatingizda bo'lGANI kabi, bizning yerlar va muzofotlarga kelsinlar, savdo-sotiqlar bilan mashg'ul bo'lsinlar. Bu ishda bizning vafo qilajagimizni, va'damizning barqarorligini o'rtadagi elchimiz arxiepiskop Ioanning o'z og'zidan ham eshitgaysiz. Hazrati oliylari uning sidiqligi va bizning xayrioxligimizni inobatga olib, ul zotga ishonch bildirsalar. Bundan buyon ul zot sizning izmingshdagi mamlakatlardan biz tarafga o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan on o'z faoliyatining davomi borasinda bizga axborot berib borur².

Va, nihoyat, siz oliy hukmdorning o'z qo'l ostingizdagi o'lka-larda yashayotgan nasroniy mazhabiga mansub fuqarolarga nisbatan muruvvatli bo'layotganingizni ham eshitdik, buning uchun sizga o'z minnatdorchiligidan bayon yetg'umizdir. Biz ham siz hazratlarining fuqarolaringa, nasib yetgudek bo'lsa, bundan ham ziyoda mulozimat ko'rsatishga harakat qilurmiz.

Noma milodiy ming to'rt Yuz uchinchi yilning 15 iYunida Larijda bitildi.

Angliya qiroli Xenrix IV ning Amir Temurga yozgan javob maktubi³

"Xudoning inoyati bilan Angliya va Fransianing qiroli⁴, shuningdek, Irlandiya hokimi Henrix ulug' va qudratli podshoh Temurbekka so'zimiz, bizning do'stimiz, xudoning aziz bandasiga eng katta salomlar bo'lsin va xudo tinchlik ato qilsin.

¹ "bu maktublar" iborasi orqali qirol Karl VI Amir Temur maktubi bilan bir qatorda Mironshoh Mirzo tarafidan Ovrupo qirollariga yo'llangan maktub-murojaat mazmuni bilan ham oshno ekanligini va har ikkala xatda izhor qilingan fikr-mulohazalarning unga ma'qulligshsh ta'kidlamoqda.

² Ayrim xabarlargacha qaraganda, arxiepiskop Ioann (Jan) dastpab Fransiya qiroli Karl VI Vapuaning elnisi sifatida Amir Temur huzuriga kelgan. Fransuz qiroli uning Sulshoniyaga nasroniyalar arxiepiskopi lavozimiga tayinlanganidan foydalangan bo'lsa kerak. Manbalarning ta'kidlashicha, arxiepiskop Ioann (Jan) har tomonlama ma'lumoti va Ovrupo qirollari nazdida katta obro'-e'tiborga molik shaxs bo'lgan. Amir Temur Ovrupo mamlakatlari bilan olib borgan diplomatik munosabatlariada undan va boshqa nasroniy monahlardan keng foydalangan. Arxiepiskop Ioann (Jan)ning qaysi millatga mansubligi haqida ham turli fikrlar mayjud. Uning Sultoniyadan oldin 1394 yilda Naxichevanda episkop lavozimida bo'lganligi va o'sha joydan Rim papasi Janni Sultoniyar arxiepiskopi lavozimiga tayinlagani malum. Ubu yerda "butun sharqning arxiepiskopi" deb Yurshyiladi, chunki 1328 yilda Pekindagi Osiyo mitropoliti vafot etgach, bu nasab Sultoniyadagi nasroniy ruhoniya berilgandi. Fransuz tarixchisi LYusen Kerening takidlashicha, Angliya qiroli Henrix IV arxiepiskop Janni (Ioanni) Amir Temur huzuriga javob xashi bilan Yuborar ekan, unga ayni vaqshda Abissiniya qiroli, Kipr hukmdori, Venesiya doji, Konstantinopol va Trapezund imperatorlari hamda Gruziya podshosi bipan ham o'z nomidan muloqotda bo'lism huquqini bergen. Arxiepiskop Jandan keyin bir qancha asarlar qolgan. Ular ichida, ayniqsa, uning "Esdaliklar" i katta ahamiyatga molik bo'lib, ular fransuz tilida bitilgan. Arxiepiskop 1412 yilda Kaffadan Lvov shahriga ko'chib borgan va o'sha yerda vafot etgan.

³ Ushbu maktubning qoralama lotincha asli Londonda davlat arxivida saqlanadi. Uning o'zbekcha tarjimasi "Samarqand tarixi"nshg birinchi jildida keltirilgan (191-192 sahifalar). U Amir Temur xatiga javob tariqasida yozilgan. Unda Boyazid Yildirimning tor-mor keltirilishi voqeasi tilga olinganligidan, bu maktub 1403 yil o'rtalarida yozilganligini taxmin etish mumkin.

⁴ Angliya va Fransiya o'rtasida tarixda 100 yillik urush (1337-1453) nomini olgan muhorabaning turli bosqichlarida har ikkala tomon bir-birlariga zarba berib yoki mag'lubiyatga uchrab turganlar. Bu vaqtida Angliya Ovrupo subkontinentidagi qator viloyatlarni qo'lga kiritganligi uchun uning qiroli maktubda o'zini Fransiya qiroli ham deb atagan. Bu hol, tabiiyki, o'sha davrdagi siyosiy haqiqatga uncha to'g'ri kelmaydi.

Ulug' podshoh, do'stimiz, xudoning aziz bandasi, Iso pay-g'ambarning Sharkdagi vakili arxiepiskop orqali Yuborgan xatingiz (ya'ni unda yozilgan narsalar) bilan tanishibgina qolmay, siz ishonch bildirgan o'sha arxiepiskopning o'zidan og'zaki suhbat vaqtida gaplarni eshitib, Sizga bo'lgan do'stli-gimizni yana bir bor his qildik¹. Biz bildirgan do'stligingizga loyiq ish qilganimizcha yo'q hali; sizning eson-omonligingizni mazkur arxiepiskopdan eshitib quvondik, shu bilan birga, ayni vaqtida Fransiyaga sizning shavkatli o'g'lingiz topshirig'i bilan boshqa masalalar bo'yicha, ya'ni sulu va hamjihatlik Yuzasidan bildirilgan istaklar bizni xursand qildi², shundan so'ng sizning oldingizga boruvchi ruhoni (dominikanlar ordeniga mansub bo'lgan) Franchesko Shader tomonidan siz zoti oliylariga o'zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, davlatlarimiz savdogarlarining bir-birlari bilan ilgari, avlodlarimiz davrida bo'lganidek, uchrashib turishlarini ta'minlash niyatidamiz. Bu gaplarni, ulug' podshoh, sizga bo'lgan do'stligimizning ramzi sifatida aytmokdamiz... (qolgan kyetgan). Minnatdorchilik bilan chin qalbdan so'raymiz, bundan so'ng bizning savdogarlarimizning mamlakatingizda bemalol Yurishlariga imkon tug'ilsa.

Yuqorida zikr yetilgan xat mazmunidan sizning yaqinda Turkiya chegaralariga kelib, xudoning madadi bilan qisqa muddat ichida bizning va sizning eski dushmanimiz Boyazid va uning davlatini tor-mor qilganingizni bildik. Bu esa dillarimizni quvontirdi va katta shodlik keltirdi. Uning (xohishi bilan) podsholar hukm Yurgizadi, g'oliblar Yuksaklikka ko'tariladi, podshohlar hokimiyyati ulug'lanadi. G'alabani g'oyibdan Yuborgan parvardigorning nomini hamisha esda tutaylik.

Darvoqe, ulug' podshoh, Sizga bo'lgan muhabbatimiz va hurmatimiz haqqi Yuqoridagi biz tomonidan xursandchilik bilan kutib olingen arxiepiskopga xayrixohlik bildiribgina qolmay, balki do'stona munosabatda bo'ldik. Shuning uchun ham sizdan chin qalbdan iltimos qilamizki, siz zoti oliylari oldingizga borsa, u kishini qabul qilursiz, u bizning podshohligimizdagi ahvol va olib borilayotgan ishlarni aytib beradi, biz unga o'z mulohazalarimizni batatsil gapirib berganmiz, u bizning nomimizdan sizga yyetkazgan xabarga ishoning. Ulug' podshoh, xudoning aziz bandasi...³

Amir Temurning Yildirim Boyazidga maktubi⁴

Adolat shior va mukarrimat osor, eng ulug' va mashhur qudrat va shuhrat qoidalarini belgilovchi, davlat va iqbol qoidalarini o'rnatuvchi, izzat va salovat qudratining (balqib) chiqar joyi, mulk va din asarlarini zohir yetuvchi, g'oziylar va mujohidlarning boshpanasi, qo'lllaguvchi malik bo'lmish Olloh lutfiga (sazovor), qodir Olloh inoyati bilan siylangan, dinu dunyoning barchasi sodiq va boshdan-oyoq sidqu safodan iborat bo'lmish subhu sodiq safhalaridan soya tashlovchi, maqtovlar sahifalari hamda barchasi nuru ziyodan iborat bo'lmish yorqin ostob shu'lalari kabi latif duolar tuhfa va hadya yetiladi va beillat ato yetuvchi Olloxdan - uning so'zi ulug'lansin va qudrati ortsin! - aminu omonlikni keltirib chiqaruvchi, ikki gomonning oralig'ini isloh yetuvchi va taraflarni birlashti-ruvchi bir sabab yaratishini iltijo qilib qolamiz. U (Olloh) bunga qodir va ijobat yetishga loyikdir.

¹ Bu yerda gap monax Jan (Ioann) xususida borayotibdi. Amir Temur uni Anqara yonidagi jangdan keyin 1402 yilning kuzida Boyazid Yildirim ustidan qozonilgan g'alaba haqidagi xushxabarni yetkazish uchun Fransiya va Angliyaga Yuborgan edi. Manbalarning shohidlik berishicha, u Larijda ma'lum muddat qiroq Karl VI huzurida bo'lgach, Londonga jo'nab kvtgan va Amir Temurning maxsus nomasini Angliya qiroli Henrix IUGa topshirgan. Monax Jan (Ioann)ning diniy lavozimi xatlarda turliche ta'riflanadi. Uni ko'pincha "butun Sharqning arxiepiskopi" deb atashganini ko'ramiz. Bu yerda ham sal boshqacha ibora bilan shu narsa yana bir bor takidlanadi, ya'ni u "Iso payg'ambarning Sharqdagi vakili" deb ataladi.

² Demak, arxiepiskop Jan (Ioain) Angliya qiroli Henrix IV ni Mironshohning Ovrupo qirollariga yo'llagan maktub-murojaati bilan ham tanishtirgan. Xatdagi jumlalar do'stlik va savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatish haqivagi Mironshohning maktubi ingliz qirolida yaxshi taassurot qoldirganligini ko'rsatadi.

³ Shu yerda xat uzilib qolgan. 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Buyuk Britaniyaga rasmiy vizit bilan borgan vaqtida Angliya bosh ministri Meynjer unga ikki o'rtadagi do'stlikning tarixiy ramzi sifatida ushu maktubning Yunon tilida bitilgan dastxati aslidan nusxa tortiq etgan edi.

⁴ Amir Temur va Yildirim Boyazid yozishmalari 1963 yilda Tehronda manbashunos olim Abduhusayn Navoiy tomonidan nashr etilgan "Asnod va makotiboti tarixiy-yi Eron az Temur tpo Shoh Ismoil" («Temurdan to Shoh Ismoilgacha bo'lgan Eron tarixiy hujjat va yozishmalari») nomli to'plamdan olindi. (A. O'rinoev, D. Valieva tarjimas).

Agar zamona shu so'zni eshitsa,
Uning latifligidan ta'zimga moyil bo'ladi.

Uning lafzlarini mutolaa qilish va ma'nosidan ogoh bo'lishdan ko'p moyillik hosil bo'ldi va u xolislik va sodiqlik eshiklarini ochishga olib keldi. Malaksifat zotingizning salomatligi, davlat ishlarining intizomda ekanligi, huzur-halovat va iqboli Yutuklar uchun Oliy tangriga - uning ulug'ligi ortsin! - shukrlar bajo keltirildi. Maktubi sharifingiz

boshdan-oyoq maqbul dilpazir, ma'qul va yoqimli bo'lganligi uchun "So'z dildan chiqqanda, shubhasiz, dilga o'tiradi" (maqoliga) ko'ra, uni samimiyligini deb toyilib, ko'p maqtovlarga sazovor bo'ldi. Nazmu nasrdagi iboratlarning barchlsn shunday g'aroyib badialarki, qalblarni o'ziga tortadi.

Agarchi ahvol haqiqati va so'zning xulosasi ilgariroq Sanqur Chovush hamrohligida borgan Xoja Boyazid Fath orqali Yuborganimizdek bo'lsa va unga biror narsani qo'shishni hech bir jihatdan tasavvur qilib bo'lmasa hamda takdirga binoan, bu ma'ni qoidalarini o'zgartirib va almashtirib bo'lmasa ham ammo endilikda do'stlik va birlik yo'lida u ma'nini quvvat-lovchi va tasdiuyuvchi bir necha kalimani birlik qalami raqamiga olinadi. Va u shundan iborat: siz yozibsizki, biz va siz janobning oramizda biror sababsiz bir vahshat voqs bo'libdi. Bu ma'nini siz to'g'ri yozibsiz. U shunday: chunki dunyo va undagi narsalar (orasida) ikki o'rtada biror kechmishning voqe' bo'lishiga sabab bo'ladigan narsa yo'qliki (toki) u musulmonlarga zahmat yyetkazsa. Bu hayot aldamchi lazzatdir. ("Ol-i Imron", 182-oyat).

Dunyo tartiblari solih kishining odatlariga qarshi bo'lsa, solih kishi unga hamdu sanolar aytadimi?

Siz ota-bobolaringizdan tortib kofirlar va din dushmanlari bilan jangu muhoraba qilib kelayotganingiz haqida yozibsiz. Bu ma'ni ham biz uchun ravshan. Va biz doimo shu ma'ni sababli sizning xonadoningizga ishonch bilan qarab keldik va hozirda ham (daraxtning) shoxlari avval chang-to'zonga bulg'alanadi, keyin ko'karib-yashnab kyetadi. Suv avval loyqalanadi, keyin tinadi (baytining) dalolaticha shunday bo'lsinki, janobingiz xech bir xavotirsiz u diyor kofirlariga qarshi mashg'ul bo'lsinlar. Biz tarafdan esa janobingiz tomonga turli inoyatlar va madadlar qay bir vajxdaki tuyassar bo'lsa, ko'rsatiladi, toki la'natni farang kofirlariga qarshi olib borayotgan jihodingiz savobidan bizga ham bir ulush bo'lsin. Janobingizning biz bilan muvofiqlik va xolisliklari ravshanlik topgach, biz Sharq diyori kofirlariga qarigi olib borgan g'azotimiz savobidan siz janobingiz ham baxramanl bo'lursiz. Orada elchilar va kalimachilar o'tgan maliklaru sultonlar qo'llagan tartib va rasm-rusumlar bo'yicha borib-kelib tursinlar va shu sababli musulmonlar amnu omonlik belanchagida farog'atda va ishonch bilan hayot kechirsinlar hamda turli-tuman diniy foydalar va mulkiy naflar xar ikki tomonda hosil bo'lsin va yig'ilsin. YOrdam va tavfiq Olloxdandir.

Yana yozibsizki, agar sizning so'z va payg'omlaringiz vaqt maslahati (Yuzasidan) bo'lsa (ular orasida) tafovut yo'q. Aslo, u maktublarda biron bir yolg'on (shuhbali narsa) tasavvur qilinishidan xudo saqdasin va u so'zlarning chehrasi qasam jamoli bilan bezatilgan bo'lganligi uchun, xudo saklasinki, yozganlarimizga xilof narsa zohir bo'lsa. Biz va sizning oramizda Olloxning shohidligi kifoyadir. Ollo siz va biz uchun yetarli shohiddir. ("Yunus", 30-oyat).

Balki sulhning dasturlulamali va axdashish amri barchasi maktublarda zikr yetilgan o'sha so'zlardan iboratdir. Do'stlik binosining qurilishi va birlik ma'nisining asosi u maktublarning mazmuni va dalillaridan muqarrar va mustahkamdir.

Yana siz xabar beribsizki, agar rabboniy taqdir vahshat g'uborining oramizdan butunlay ko'tarilishiga qaratilgan bo'lsa, siz janob, biz bilan Misr hokimlari orasida vositachilik qilishni zimmangizga olibsiz. Har nimaiki janobingizga ma'qul bo'lsa, unga xech narsa qo'shilmaydi. Ammo bizning dorilfanodan rixlat qilgan Misr volysi bilan - u mufsid-lardan edi ("Qasas", 3-oyat) - oramizda voqe' bo'lgan xushunad janobingizga ma'lum; u voqeada shariat, aql va urf bo'yicha qaralganda ham biz xaqmiz, u kishi nohakdirlar. Chunonchi, saltanatni boshqarish qoidalaridan va jahondorlik rasm-rusumlaridan xabarsizligi oqibatida bizning turli-tuman fazilatlar bilan bezangan, xasab va nasabi pokizalik va taqvodorlik bilan ulanib kyetgan, Iroqi ajam urug'laridan bo'lgan Shayx Bahovuddin Savojiy boshchiligidagi yaxshi navkarlarimizning barchasini shihodat darajasiga yyetkazgan.

Agar er kishining nazari to'g'ri bo'lmasa,
Ajab emaski, u subhidam shu'lasiga ham shubha bilan qaraydi.
Bu shayton amallaridan bo'lgan gunoxdir ("Moida", 92-oyat).

Undan so'ng janobingizga ma'lum bo'lgan bir sabab bilan bizning ko'kaldoshimizning o'g'li Otlamishni bog'lab, mahbus qilib hibsda tutib turibdilar. QanChalik va'z-nasihatlar bilan uni ozod yetishni iltimos kildik, elchilar Yubordik, foydasi bo'lmadidi. Elchilarni ham qatlga yyetkazdilar va uning orqasidan o'yamasdan bordilar ("Saffot", 67-oyat) haqiqatini zohir qildilar. Natijada shu vosita bilan g'alabayor lashkarlar Shom tomonga harakatga keltirildi. Va o'sha xarobaliklarning barchasi ularning qabihliklari sababli darvishlar (oddiiy xalq) boshiga tushdi. Olloh taologa hamd bo'lsinki, ahvol boshlanishidan to ushbu kunlargacha jiddiy bir sababsiz va aniq hujjatsiz biror mamlakatga Yuz tutmaganmiz. Har bir sodir bo'lgan kechmishda biz ulardan har birini gunohiga yarasha jazoladik ("Ankabut", 39-oyat) mazmuni zohir va ravshan bo'lgan. Shu bilan birga Misrga Yurishga jazm qilgan edik, ular (Misr voliysi) Hojiy nomli mahramlaridan birini bir donishmand bilan birga Yuborib, iltijo qilibdilarki, "agar siz Misr Yurishini to'xtatib, Damashkdan qaytib kyetsangaz, hali Halabga yetib bormasingizdanoq Otlamishni orqangizdan Yuborajkmiz". Bu so'zlariga ham vafo qilmasdan va'dalariga xilof ish tutdilar. Qara, ular qanday yolg'onchilar ("Mujodal'a", 20-oyat).

Endi janobingiz aytganidek, orada vositachilik qilib, intigom shu'lasini pasaytirsangiz, bu sizning to'g'ri fikringizga taalluklidir. Har qalay axdashuv qoidalarini mustahkamlashga asoslanib, Otlamishni Yuborsalar, agar ular tinchlikka moyil bo'lsalar, unda sen ham unga qayishgin va Ollohga tavakkal qilgin ("Anfol", 63 - oyat) mazmunicha, janobingiz nimani to'g'ri topsangiz, unga hech narsa qo'shilmaydi. Ammo Misr hokimini farzandlikka qabul qildik deganingizni biz ravo ko'rmaymiz. (AYuo'g'li "Munshaoti"da "ravo ko'ramiz" deyilgan). Sizning xonadoningiz uzoq muddat-lardan dinga quvvat berish va to'g'ri shariatni yoyish bilan mashhur bo'lishiga qaramay, siz shunday qul va qulvachcha bilan yaqinlashayapsiz. Bu amal to'g'rilikdan xolidir ("Xud", 48-oyat) binoan orangizda bunday birlik sharoitlari va o'xshashlik haqiqati mumkin emas edi. Do'stlik jihatidan biz bu ma'nini munosib deb bilmaymiz. Chunki Misr hokimlarida haqiqatda mag'rurlanishlari uchun asos bo'ladigan biror qadr-qiyomat yo'q. Yana ularni Sulton ul-Haramayn {ikki haram sulton} deb yozishni ham munosib va loyiq deb hisoblamaymiz. Chunki Makka

xarami - Olloh taolo uning sharafini orttirsin! - Xudoyi taborak va taoloning haramidir; Madina harami esa Muhammad Mustafoning - u kishiga eng yaxshi duolar va eng go'zal maqtovlar bo'lsin! - pok harami va muattar qabridir. Qanday qilib, ularni bu ikki haramning sultoni deyish mumkin? Balki bu ikki xaramning xodimi deb atalishning o'zi ham ular uchun katta saodat bo'ladi. Shu bilan birga haqiqatdirki, janobingiz ularning mamlakatiga tama qilib va ularni inkor yetishga xrzir bo'lib, ba'zi viloyatlarni ularning tasarrufidan Yilib olgan edingiz, endi esa, har bir ashyoning haqiqiy mohiyati uning ziddiyatlari bilan ochiladi (maqoli) mazmunicha, uni farzand va ikki haram sultoni deb atayapsiz va shunga yarasha imtiyozlarni ham joiz deb bilyapsiz. Maslahatga ko'ra, bu ma'ni ustida muhokama qilish munosib emasdир.

Mening va o'zingizning dushmanlaringizni do'stlaringiz deb bilmangiz ("Mumtahana", 1 - oyat).

Yana (mazkur) xatning boshlanishida qalam tiliga olingani-dek, u janobning (ya'ni Temurning maktubi - tarj.) aziz maktubining barcha so'z va kalimalarini ma'qul va dilpazir debdilar. Biz Solih ibn Janohnning ikkita arabcha baytini keltirganimiz. Bu ma'ni vogelikning bayonidir. Biz to'g'ri yozganmiz va nimani nazarda tutganimizni bilamiz. Ammo u tarafga Yuborganimiz maktubning iboratlari xil'ati qasam bezaklari bilan tikilgan va bezatilganligi uchun nasablar takallufini tark yetish va so'zimizni tasdiqlash yaxshi va to'g'ridir va bu ushbudir:

Mening bitta otim bor, (uni) muhabbatga sodiq vaqtimda jilovlayman.

Yana bitta otim bor, (uni) halollikka axd qilganimda egarlayman. Agar senda shu ikki amal bo'lsa, sen to'g'ri odamsan.

Senga zid bo'lgan egrilikka hech o'rinn qolmaydi.

Yana janobingizga ma'lumdirki, mulk va mamlakatni boshqarish ishlarida bir noziklik bordir, uning latif tomonlari ko'p. Hozir biz eshitdikki, Ahmad Jaloyiriy Bag'dod va o'sha taraflarga qaytibdi, shu sababli lashkar amirlarini u tomonga Yuborildi. Bu ma'nidan Sankur CHovush

voqifdir. Agar Olloh taolonning inoyati bilan (amirlar) uni qo'lga tushursalar, bu ayni muddao. Yo'qsa, u qochib u taraflarga Yuzlansa, do'stlik vazifasi shundan iborat bo'ladiki, kelishuvimizning qatiyligiga binoan, uning u viloyatga kirishiga yo'l bermasalar. Chunonchi, shu narsa haqsirki, tirikligi chexrasidan davlat nuri o'chgan, ilohiy nazardan qolgan, kunlar zarbidan o'k egan va baxtsizlik ko'li ularning hayoti yetag'dan tutgan, taqdir raddiga uchragan u kishilar qadami qay bir viloyatga yetmasin, uning kelajagi qutlug' bo'lmaydi. Shu bilan birga, Ahmad Jaloyiriyy Qora Yusufga nisbatan yaxshi kadxudozodadir. Agar uning otasi amirlik va buzurglikka yetishmagan bo'lsada, uning otalaridan uch-to'rt kishi bu diyorda kimki qudratli va g'olib kelsa tortib olaveradi, degan naklning hukmiga binoan, mamlakat chehrasi CHingizzon shulasi Yulduzlar urug'inining' vujudi bszapshan xoli qolgandan keyin hokimlik va amirlikka yetishdilar; Qora Yusuf (otalariga) kelsak, ular qaroqchilardirlar, o'g'irlilik, yo'lto'sarlik, savdogarlar qonini to'kish bilan mashg'ul bo'lganlar va bu bobda gapirsa, gap tugamaydi. Endi janobingiz musulmonlik va dindorlikdagi, g'azot va jihotdagi shuhratingiz bilan ulardek fasod maddasi va aziyat unsurlarini rioyer qilib kuchlantirishingiz (quvvatlashingiz) qanday munosib bo'lar ekan? Chunonchi, aytabdilar:

Nopokzodadan umid tutmangiz hech, Zangi Yuvgan bilan oqarmaydi hech.

Aniqsirki, qachon bo'lmasin, badfe'llik xosiyati va tuturuqsiz tabiat taqozosi (bora-bora) imkoniyatdan amaliyotga aylanadi. Shu bilan birga eshitdikki, janobingizning Arzinjonga Yuzlanishining boisi u (Qora Yusuf) ekan. Har qanday mamlakat yaxshilanishining g'amini emaydigan, baxtsizlikka uchragan badxoxtlar, amirlar va maliklar biror vaqshatni keltirib chiqarish va qudratni ko'zg'atishdan xoli bo'la olmaydilar; do'stlik o'rnatilishiga, mustahkamlanishiga Olloh bizning mammunligimiz. U ishonchli Homiydir ("Ol-i Imron", 167-oyat) va Qanday go'zal bu ma'vo! Qanday go'zal bu ko'makchi! ("Anfol", 41-oyat) Ollohning (irodasi bilan) yaxshilik na hurramlikda tugatildi, muhr bosildi.

Sulton Boyazidning Amir Temurga javobi

Rubbi maskunning Humoyun podshohi Sohibqiron Xusrav, jaxon sultonlarining sultoni, ijobat yetuvchi malik (Olloh) ning ko'magi bilan qo'llangan davlat va dinning jilosi Temur Guragondan - Olloh taolo u kishining ulug'lik, izzatu iqbol kunlarini abadiy yetsin, umr va shonu shavkat yillarini davomli qilsin! - omonlik tumor, komronlik qo'shimcha, ya'ni xoqonning sharaf kitobi (maktubi) va jahondorlikning buyuk xitobi rabboniy ilhom va osmoniy vahiyisifat nozil bo'ldi. Unga javoban sha'ni ulug', hurramlik bisotiga loyiq bo'lgan behisob maqtovlar, cheksiz duolarni, ixlosu ixtisos tarixidan yo'llab (bizni) duo va niyozmandlikka mashg'ul deb bilsinlar.

Undan so'ng o'zining qutlug' tamomiga yetkan nomada sharhu bayonini topgan va birlikka yyetkazuvchi navkarlar bilan bezangan tafsilotlarni bir-bir mutolaa qilishda, ikkita hikoyatdan tashqari hammasi o'rini ekan. O'rtada sulh voqe' bo'lgandan keyin bu xayrixohning siz oliyjanob bilan Misr azizini isloh (sulh) ga keltirishdagi vositaligini bu beishtiboh do'stingizning foydasiga deb bilibsiz. Yo'q va aslo! Asl maqsadimiz mana shu musulmonlarning osoyishi, xususan, ikki sharaflı haramda - Olloh ularning sharafi va ulug'ligini ortgirsin! - yashovchi musulmonlarning osoyishidir. Boshqa narsa emas. Agar shu mulohaza bo'lmanida biz bilan (uning orasida) ham sulh shakllyanmagan va Misr va Shomni zabit yetish osonlik bilan amalgalashgan bo'lardi.

Ikkinchisi esa Ahmad Jaloyiriyyning Bag'dod tomon bori-shi va agar qaytib kelsa, mamlakatdan chiqarib Yuborish yoki tutish (hamda) Qora Yusuf turkman bilan Elxon qurultoyni Yuborishni taklif va qat'iy talab qilgan ekansiz. Bu ma'ni ham bahona izlashdan boshqa narsa bo'lub tuyulmadi. Chunki u nomlari atalganlar uzoq muddatlardan beri biz bilan yaqin do'stlik tanobiga qo'l urib, sira ham muxolifat yo'liga kirgan emaslar, Ahvol shundayki, (ular) bir qahramon kishvariston (mamlakatlarni oluvchi) ning qahridan turtki eb, bizdan himoyat izlab keldilar. Biz ularning uzrini (siz) yaxshi xislatli zotdan so'rashni istagan edik, muyassar bo'ljadi.

Shundan so'ng ularga ozgina rioyer qilib, bizning mamlakatdan chiqib kyetishlariga izojat berdik. Ular taqdir taqozosi bilan yana qaytib kelsalar, "mehmonni izzatlanadi" (degan maqol) talabicha ularga ozor berish usmoniyalar to'rasidan¹ tashqaridir; balki ayni shavqatsizlik, qatto

¹ To'ra - usmonli turk davlatini boshqarish nizomi.

iymonsizlikdir. CHingiziy Xulagu xon dor-us-salom Bag'dodni olib, xalifai zamon al-Musta'sim billoohniunga Olloxning rahmati bo'lsin! - shahid qilgan vaqtida xalifaning amakisi Misrga borgan, Misrning o'sha vaqtdagi azizi Beybars unga bundukdariy (mehmonorlikni) o'rniga qo'yib va yordam berib, behisob lashkari bilan Bag'dod tomonga jo'natgan. U ulug' nuyon Qarobuqo bilan jang qilib, misrliklar engilgach, har bir taraf o'z joyiga qaytgan. Xalifalarning avlodlari hozirgacha Misrda yashab kelmoqsa. U to'la g'alabadan keyin Xulaguxon xalifalik taxtining vorislari bo'lmish xalifalarni (berishni) misrliklardan talab qilmadi va (ularga) iltifot ham ko'rsatmadni. Endi esa bu ikkita qanoti singan, asaldan yiroq pashsha va o'z oshiyonidan ajralgan kabutarlarda nima had? Va ular nima olardilarki, bu ikki millat xojasi savlati burgutning panjasini qo'rqnichidan Xumo (Temur) bilan ham parvoz da'vosini qilsinlar. YOki bo'lmasa, dunyoni zabit yetuvchi fil yonidan o'rin olib vatan tutsalar. Bundan keyin ularning nomlarini tilga olishni va bular kabi kamnom shaxslarni zikr yetishni munosib deb bilmayman. Chunki biz (sizning) humoyun xotiringizni bitta-bitta falak zarbiga uchragan (kimsaning) fikri bilan ozurda qilishni istamaymiz. Agar ular qaytib kelsalar, biz ularga yordam bermasdan vaqt ixtiyoriga tashlab qo'yamiz.

Bas, siz oliyanob bunday ikir-chikirlarga qo'l siltab, voqe'an agar murodi sharifingiz islom ahlining ravnaqi va ikki tarafning islohi bo'lsa, Sivos atrofidan ishora qilinganidek, qo'lingizni tortib, amnuomonlik tadbirlariga kirishsalar. Bo'lmasa, nimaiki taqdirda (yozilgan) bo'lsa undan oyog'imizni tortmaymiz. Amringiz a'lo. Vassalom valikrom

A. O'rboev, D. Valieva tarjiması.

Amir Temurning Yildirim Boyazidga turtinch nomasi

Mamlakat panohi, sultanat qubbasi bo'lmish zamona hokimlarining maliki Boyazid Bahodirxon janobi oliylariga - Olloh uning izzatu iqbolini oshirsin! - shohona lutflar yo'llab ma'lum qilamizki, bu tomon Olloh taoloning ko'magi bilan imkon bo'lgan darajada musulmonlar ahvolini tuzatish bilan mashg'ulmiz va shunday bo'lishini sha'ni ulug'langur hazrat (Olloh) dan tilaymiz. Olloh bizni qo'llasin va qabul yetsin!

Shundan so'ng ma'lum qilinadiki, biz (munosabatlarimizning) boshlanishidayoq o'zimiz bilan u janob oramizda do'stlik qoidalarining mustahkam bo'lishini istadik. Shunga hamda o'tgan maliklar va qadimgi sultonlar sunnatiga ko'ra janobiningizga bir necha bor maktub yo'llab iltimos qilindi. Siz buni iltifotsizlik bilan rad yetdingiz va vahshatni ortgirdingiz. Nihoyat ish shunga borib yetdiki, biz Sivos tomon Yurdik va u kechmishlar sodir bo'ldi. Shu bilan birga uning ahvoli butunlay buzilmasin, kofirlar va mustahkam muhammadiy dinining - u zotga eng mukammal salovotlar va eng go'zal maktov-lar bo'lsin! - munkirlari islom ahli ustiga istilo qo'lini cho'zmasinlar va Olloh saklasin! Musulmonlar ommasiga zarar yyetkazishga sabab bo'lmasin, deb undan nariga harakat qilmadik va u viloyatni xarob qilishga kirishmadik. Sizning bemorligingiz xabari tarqalganligi va u viloyatga kirish Shomga Yurishdan ko'ra osonligiga qaramay, u viloyatni omon qoldirib, Shom tomonga Yuzlandik. Buning boisi yana shunda ediki, biz maliklar va sultonlar turasiga binoan o'z elchilar va navkarlarimizni tuhfa va hadyalar bilan Misr volysi huzuriga Yubordik. U hech bir sababsiz ularning hammasini qatlga yyetkazibdi. Intiqom Yuzasidan qasos talab qilib, yana o'sha tomonga Yurdik. Nima Yuqe'a bo'lsa, bo'ldi. Nima sodir bo'lsa, bo'ldi.

(Janobining) shunday bo'lishiga qaramay va yaxshilikni bilmay, bizni qaytib kyetdi, deb eshitganingiz zahotiyoyq, buni g'animat bilib, darxrl Arzinjonga kyetibdilar va u kishidan o'sha harakatlar sodir bo'libdi. Yana xar tomonga maktub yozib, bizni kofirlikka nisbat beribdilar. (Bu ma'ni musulmon kishi tomonidan bagoyat ajib va uzoqdir, qanday qilib musulmonlarni kofirlikka nisbat beradilar?!). "Qibla ahlini kofir demaydilar!" ("Anfol", 63). U joyning ulamo va imomlaridan savol so'rang, agar musulmon kishini kofir deyilsa, (buni aytgan) odamning musulmonligi qanday bo'ladi. Bizning musulmonligimiz islom shiorlariga bo'ysunishimiz, ahli sunnat va jamoaga e'tiqodimiz quyoshdan hamravshan. Janobining navkarları Sanqur va Ahmadlar bir muddat bizning lashkarlarimiz orasida musulmonlik alomatları qay tarzda ekanligini haqiqati bilan aytib berurlar. (Janobiningizning) Arzinjonga va sodir bo'lgan so'zlar va fe'llari (ishlari) aniq bo'lgach, tezlikda lashkarlarni va lashkarlarning katta va kichik amirlarini Arzinjonga ravon qildik va o'zimiz

ham baxtli tole' bilan ularning kyetidan yo'lga chikdik. Naxichevan va Xo'y hududiga borib tushgach, janobingiz qaytib kyetganligi qaqlida turli xabarlar yetishdi. Tahurtan Bahodirdan ham shuiday xabar keldi: "Mening farzandlarim va yaqinlarimni qaytarib Yubordilar, qilgan harakatlaridan pushaymon bo'libdilar, uzr so'ramoqchilar. Fitna qo'zg'atuvchilardan Ahmad Jaloyirni o'z huzurlaridan yiroklatibdilar va Krra Yusufning odamlarini ham parokanda qilib, undan ajratib Yuborbdilar". Biz ham "Agar ular sulhga mayl bo'lsalar, Sen ham unga qayish va Olloha tavakkal qil, Ollo - eshituvchi va bilguvchidir" (oyaatining) hukmiga binoan u taraflarga Yurishni kechiktirdik. Hozir izzatli va shavkatli farzandimiz Mu'iniddin Muhammad Sulton Bahodir - Olloh uni boqiy yetsin! - ham Samarqand dorilmulkidan saodat va kamronlikda u mamlakatlarning amirlari, g'ulomlari va lashkarlari bilan yetib keldi. Ularning kelishi bilan xursandligimiz afzun bo'ldi. Shundan so'ng lashkarlarni tartibga keltirish va jihozlashga mashg'ul bo'ldik. Qrim, Kafa va u tomonlarga Yurishga jazm qilingan edi. Olloh taolo ogoxdirki, biz Tuqmoq, Qrim, Kafa diyoriga Yurishga qat'iy qaror qilib, ba'zi amirlar va lashkarlar Shirvonning Darbandiga borib yetdilar, chunonchi, bu ma'ni kayfiyatidan janobingizning navkarlari Sanqur va Ahmad voqifdilar. Shu hol asnosida xabarchilar Kamox tarafidan kelishib, "u o'z navkarlarini Kamox qal'asiga kiritib, uxlagan fitnani yana qaytadan uyg'otibdi", degan axborotni yyetkazdilar. Bu ma'ni aniklangach janobingiz o'z nomuloyim (nomaqbul) xarakatlariningizdan pushaymon bo'lganligangiz haqida Tahurtan Bahodir yozgan gap noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Ollohnинг istixorasi bo'iicha Arzinjonga borib tushgumizdir, inshooloh. Vaholanki, Shom mulklaridan qaytganimizdan keyin bir necha bor maktublar yozib, sulh va do'stlikka da'vat qildik. Musulmonlar tinchligi va dini islomning ravnaqini nazarda tutib, tolib va g'olib, (hamma narsadan) xabardor, yo'q qiluvchi va barhayot, hushyor va o'lmaydigan Olloh haqqi sulh va do'stlik yo'lidan xar nimaiki yozgan bo'lsak, rost yozdik, to'g'ri yozdik. Janoblari bilan sulh va do'stlik istagida edik. Agar chunonchi janobingiz fitna Yu vahshatni istamasalar, hamda o'z mulki musulmonlari va u arning aholioi omonligining tarafdoi bo'lsalar, biz Arzinjondan nariga o'tib, u kishining viloyatlariga kirmasimizdan ilgari o'zlar bilib, ogoh tortib omonlik yo'lini tutsinlar va o'z qilmishlaridan pushaymon bo'lib, o'zlarining yaxshi odamlaridan birini biz tomonga Yuborsinlar, sulh va do'stlik qoidalarini mustahkamlasinlar. Chunonchi, ishonch va e'timod paydo bo'lsin, begonalik yaqdillikka almashilsin, kudurat mustafolikka aylansin, musulmonlar va fuqarolar omonlik va ishonchliqda bo'lsinlar. U tarafdan Ahmad Jaloyiriyni o'z huzurlaridan yiroqlashtirsinlar va Qora Yusufni ham o'z oldilaridan uzoqlashtirib, uning odamlarini tarqatib Yuborsinlar va uni garbiy tomonlarga badarg'a qilsinlar. Bu tarafdan biz ham janobingizning bu yerdagi g'arazgo'ylarining nizo va nuqson qidiruvchi so'zlariga hech bir jihatdan qulq solmaymiz, ularning so'ziga iltifot qilmaymiz. Har ikki tarafdan sulh, birlik va muvofiklik zaruratlari eshiklari ochilsin. Bundan ilgari bu tomonga taalluqpi bo'lgan Tahurtan Bahodir, Jirjiz Bahodir, Yalmon Bahodir, Hoji poshsho va ularning farzand va xeshlarini ushlab turgan va ularga mutasarrif bo'lgan bo'lsalar, (endi) ularning bu tomonga qaytishiga dahl qilmasinlar. Nimaiki u janobga taalluqli bo'lgan narsalarni, chunonchi Sivos, Malotiya, Albiston va boshqa-lar Siz janobingizga qatiyan barqaror bo'lib qoladi. Biz va bizning odamlarimiz u viloyatga dahl qilmaymiz. Janoblari ham Kamox qal'asiga kiritgan bir guruh navkarlarni u yerdan chiqarib olsinlar va sulh ahdi va savgan (qasamyod) ni shu tarzda muqarrar deb bilsinlar. Chunki sulhu sadoqat qoidasi maliklar va sultonlar orasida kelishilgan bir rasm va odatdagiligi yo'ldir.

Ular jahondorlik asoslarini doimo sulh va muvofiklik izxori bilan ta'kidlab, mustahkam turib kelganlar. Ikki orada taraflarning islohi mana shu zikr yetilgan daqiq tomonlar (shartlar) bilan barqaror yetilgach, axdnomalar Makkai sharifga - Ollohtaolo uni sharafla va ulug' yetsin! - Yuboriladi va Ka'bai muazzamning - Olloh uni ulug'lasin! - eshigiga osib qo'yiladi. (Kim xiyonat qilsa, u o'zigagina qarshi xiyonat qiladi; Olloh qarshisida qilgan ahdiga to'g'ri amal qilsa, o'shangacha Oolloh buyuk ajrini beradi) ("Fath", 10). Toki har kim o'z ahdini qanday bo'lmasin buzsa va kelishilganga xilof ish tutsa, abadiy azob va doimiy jazoga duchor bo'lsin. Va har bir nusrat egasi o'z axdiga vafo qilsa, (uning) ajriga sazovor bo'ladi.

Ollohbizning aytganlarimizga kafildir ("Yusuf", 66), biz izoxlashni istagan narsa "Ollox. eng yaxshi homiyidir" ("Ol-i Imron", 167). Qanday go'zal bu mavlo! (Egam!). Qanday go'zal bu ko'makchi! ("Anfol", 41). Ey rabbimiz, senga sig'inadilar, senga intiladilar.

Ana shu maslahat bilan maktubni eltuvchi Hoji Boyazidni Ahmad va Sanqur bilan birqalikda jo'natildi. YOlg'iz Ollohg'a hamdlar bo'lsin va sayid-imiz Muhammadga, uning yaxshi avlodlariga salomlar bo'lsin!

Amir Temurning to'rtinchi nomasiga Sulton Boyazidning Javobi

Oliy rutbali a'lohzrat, hashamatli jahonpanoh, baxtu iqbol voliylarining barqaror davlatli voliysi, g'olib quvvat (qohira) bilan podshohlar gardanini kesuvchi, jaxon nuinlarining nuini va nuin¹ nishonlik nuyon², kamronlikka erishgan oliy qadrli ulug' xoqon, qudrati muazzam qoon, saxiy malik, Olloh qo'llagan Abdulfatx. Temur Guragonga - Olloqtaolo adolati va saltanati qoidalarining asosini mustaqkamlasin, uning cheksiz xayru ehsonini olamga taratsin! - u kishiga yangitdan olamni qamrovchi keng bisotga nisor yetishga munosib bo'l mish muhabbat oyatlik sof durlar va birlikka eltuvchi yetuk madhlarni har tomonlama birlik va do'stlik va muhabbat va yaqdillik turlari bilan oliy maqomga sovg'a va baland poyaga hadya qilib, hamisha u oliy zotning xayrxohi va ahvol so'rovchisidirmiz. Nimadaki islam ahlining foydasi bo'lsa, Ollohtaolo ikki oraga nasib yetsin!

Shundan so'ng jahonga oro beruvchi ra'yga yyetkaziladi, humoyun mavkab Sivosga yetkandan keyin yozilgan sulk uslubiga marg'ub maktubingizga javob yozilganidek, islam mamlakatla-rining ma'murligi va insonlarning ahvoli osoyishtaligiga asoslangan sulk shartlari anjomiga yetsin. Hozirda u ahvol tarzini kuzatib turilganda janobingizdan yana bir sharaflı maktubni yyetkazdilar; uning mazmunidan anglashiladi, uni (xatni) Sivosga Yuzlanishdan oldin yyetkazgansiz. Undagi ba'zi masalalar makru xiylaga yo'yilib, bizning tanqidiy ta'bimiz va ziyrak fahmimizga maqbul kelmadi, balki shunday aniklandiki, qutlug' qadamli xabarchining Qaramon hududiga yetgan joyida bir necha mufsidlar u atrofdan bu kechmishdan voqif bo'lib, xabarchini nomnishonsiz qilib, o'zlarini bilmaslikka solganlar; (ahvol) shu darajaga yetganki, fitna otashi alanga olib, uni o'chirishni mahol deb bilganlar. Endi esa u nomani bir qancha fasod (buzuklik) zohir bo'lgandan keyin qishloqdan qishloqqa, shahardan shaharga qo'lma-qo'l aylantirib, shaytonlik va nomusulmonlik bilan bizning nusratmaqom lashkargohimizga Yuborganlar. Shu bilan birga yana ma'lum qilinadiki, agar kalimalarning g'alizligani biror g'avg'o uchun bahona qiladigan bo'lsalar, shafqatsiz so'zlarning boshlanishi u tomondandir. Va agar u nomaning javobi kechikkanligi haqida gapirayotgan bo'lsalar, u yetib kelgan bo'lsa, biz uni kechshsgirarmidik. Agar xushomad deb mulohaza qilsalar, oliy martabali sultonlar - Olloh ularni kechirsin! - Olloh dargohidan o'zga hech bir erga tavba-tazaru qilmaganlar va qilmaydilar. Agar Olloh istasa - bo'ladi, istamasa - bo'lmaydi degan xosiyatlari kalmani dilga jo qilib (ko'z ustiga o'rnatib), beg'araz dindorlar va chuqur fikrli vakillar bilan mashvarat qilgach, Eru Osmonning egasiga tavakkul qildik, deb Yuzlarini axdi iymon dushmanlarini daf' qilishga qaratadilar. Hikoyat uzundan uzoq qiylu qol (gap-so'z) - bahslashuvlardan o'tib kyetygach, bahona qidiruvchilarning yo'lini to'sish og'ir bo'ladi. Sulh (tinchlik) va urushni ixtiyor yetishni har ikki tomonidan kimki fitna bo'ronini qo'zg'atayotgan bo'lsa, uning savobi va gunohini o'shang havola qildik. Xudo haqqi, Sizning va bizning oramizda shuncha shahidlar bo'lgani yetar. Olloh bizga rizq beradi. Bilingki, kim uni qadrlasa, unga yaxshilik bo'ladi.

Olloh ishonchli homiydir {"Ol-i Imron", 167}.

Kanday go'zal bu mavlo! Kanday go'zal bu ko'makchi! ("Anfol", 41).

(A. O'rinoev va D. Valieva tarjimasи).

Amir Temurning Sulton Boyazidga yana bir maktubi

Adolatlil ulug' amir, zamona rahbarlarining rahbari, g'oziyaru mujohidlarning tayanchi Jaloliddin Yildirim Boyazid bahodir - uningadolati abadiy bo'lsin! - samimiyl aqidalarni va sof maqsadlarni yyetkazuvchi salom va maqgovlarni mutolaa qilsinlar. Humoyun himmatlarimizning

¹ Nuin - podsho.

² Nuyon - Elxonlar davlatida oliy harbiy rutba.

barchasini sultanat va komronlik ishlarini tartibga solishga o'z maqsad va ezguliklarimizga yetishishgZ sarflayotganimizni bilsinlar. Ishlarning muvaffaqiyatli bajarilishi Ollohning ixtiyorida va ommaning manfaatiga ko'maklashish uning hukmidadir.

Shundan so'ng (janobingizning) to'g'ri ra'yingizga chizilsinki, bundan ilgari Misr va Shom hukkomlari tomonidan shariat, akl va urf jihatlaridan qaralganda o'rinsiz va noma'lum bu jur'at surati sodir bo'lgan edi. Shu sababdan, bu ma'ni intiqomini olim va (oyatda): Kim yomonlik qilsa, jazosini olg'usidir ("Niso", 123) deyilganidek, ularning jazosini yyetkazish bizning oliv himmatimiz uchun lozim bo'lди. Shu vosita bilan mehribon malik (Olloh) ning inoyati bilan g'olib lashkarlarni u tarafga surib, ularga yaxshi adab va yetarli jazo beriddi. Ular o'z qilmishlariga yarasha jazolanadilar ("Zumar", 49). Bizga yyetkazgan ezguliklari va ne'matlari uchun Olloh taologa hamdlar bo'lsin!

Xotirdan o'tdiki, Rum diyoriga humoyun Yurish sodir bo'lganligi va u hududning sokinlari (aholisi) ahvoliga andak iztirob,besaranjomlik yo'l topganligi sababli mabodo (janobingizning) kuvvatlariga zaiflik yetishib, fursatdan foydalangan farang kofirlari g'olib kelmasinlar va u diyorda islom bog'larining rayhonlari tarovati so'nishga boshlamasin.

Binobarin, bilimdon malik Ollohning qo'llovi bilan Shom mulklari fath yetilib, istagimiz hosil bo'lgach, qaytish yaxshirokdir (maqomining) hukmicha qaytishga qatiy qaror qilindi. Bu tarafning holati va kechmishlari tegishlicha aniq sharxlar va kelajak oqibatlari bilan tahrir qilindi. Istagimiz shu ediki, unga ijozat berib, u tomonga jo'natib Yuborilsa. U ijozatsiz goyib bo'lgan. Shu holatda Firot suvidan o'tilgach, u janobingizning maxsus kishilaridan bo'lgan Forisning o'g'li YA'qubni Yuboriddi. Sadoqat yalovlari mustahkamlandi va yaqinlik yo'llari ochildi, toki u ma'ni ikki tarafning islohidan xoli bo'lmasin, balki Muhammadiy dinining - unga eng to'liq salovotlar va go'zal maqtovlar bo'lsin! - nizochilari va munkirlari uchun zo'ravonlik maydonida jur'at qilishga majoli bo'lmasin. Tezlikka rioyer qilgan holda janobingizdan kutilgan javob shuki, muhabbat shartlariga rioyer qilsalar, ikki mamlakat xaloyiqining va aholisining osoyishi bo'la olur. Bu do'stlik surati musulmonlik kunlari sahifalarida va bog'larida yozilgancha qolur. Olloh taolo kimni istasa o'shani) qil ko'priqda qo'llaydi. Ahvol shundayki, anikdanishicha, YA'qub sog'-salomat janobingiza qo'shilibdi. YAylamishiy (yayloq) qilmoqchun Olatoqqa Yurishga qaror qilindi. Hozirda barcha g'ulomlar, farzandlar, ulus amirlari, tumanlar amirlari, sayyidlar va mashoyixlarning ulug'lari, imomlarning mashhurlari, a'yonlar yyetakchilari va bizga taalluqli iqdimu mamlakatlarning mashhur zotlari va davlat arxonlari bilan kengash tuzildi. Ularning ma'qullashi bilan va Olloh taoloning istihorasidan so'ng dilbandu arjumand farzand bemonand maqtovli xislatlar egasi tangrining inoyati bilan baxtiyorlik nurlari va asarlari peshonasidan yarqirab turgan Mag'isuddin Muhammad Sulton Bahodirni - Olloh uning umrini uzun qilsin! - dorissalom Samarqanddan talab qildik, toki u ilohiy inoyat bilan uning amrida va qaramog'ida bo'lgan barcha mamlakatlар va iklimlarning amirlari, lashkar ulug'lari, qavmlarning mas'ul kishilari, voliylari, hokimlari va raislari bilan birga bu tomonga yetib kelsinlar.

Buljar shundayki, oly darajada bir qurultoy tuzib, baxtli va muborak bir tole'da (she'r):

Undan Yulduzlar saodatga yyetishuvchi bir soatda,

Taqvim undan do'stlik izlovchi bir tole'da.

U farzandi arjumandni - Olloh uni umrini uzaytirsin! - u mamlakatlar sultanati taxtiga o'tqazib, u diyoring hal qilish va bog'lash izmi va zabtbast jilovini uning jasorat va kifoyat panjasiga tutqazildi. Inshoolloh taolo. Olloh uchun bu qiyin emas ("Ibrohim", 23).

Ammo endilikda ma'lum qilamizki, biz Shom tomonidan qaytayotganimizda va Mordin hududiga muborak qo'ngan vaktimizda aziz farzand Rustam Bahodirni - Olloh taolo uni boqiy yetsin! - va Sulaymonshoh Bahodirni bir guruh amirlar va lashkar bilan Iroq tomonga u mulklarni zabit ztish (boshqdish) va yasomishiy qilish uchun Yuborgan edik. Olatog' tomonga harakat qilganimizdan so'ng ularning maktublari keldi. Mazmuni shundayki, Bag'dodda bir guruh rindlar, beboshlar va ba'zi boshqa kishilar to'dalashganlar va turk, tojik, arab, xalluh turkmanlardan kuplari jam' bo'lishib, shahar devori va darvozalarini mustahkamlab yotibdilar va bo'ysunmaslik va isyon yo'lini tutibdilar. Agarchi Bag'dod haroratining shiddatli mavsumi bo'lidan havoning g'oyatda issikligi tufayli u tomonga lashkarni harakatga keltirish nihoyatda qiyin bo'lsa ham, ammo tezda bu kechmishning gadorikini qilish va tuzatish uchun o'z muborak zotimiz bilan andak sipoq hamrohligida u tarafga Yurdik. Barcha noplak qaysarlar, sarkashlar, muborizlar dilovarlarning olov

sochuvchi obdor shamshiri chashmasidan yo'kdik sharbatini totganlaridan keyin, murdorlikka beriltan bunday xalq bitga qolmay qirildi. Olamlar Rabbiga hamdlar bo'lzin ("An'om", 45).

Saodat va kamronlik bilan rabboniy inoyat qo'llovida Olatog' yayloqiga borish qaroriga qaytib, ushbu xat uni eltguchi orqali Yuborildi. Endi do'stlik vazifasi va birlik takozosi shuki, janobingiz ham do'stlar quvonchi subhining tulu'i bo'lmish tabriklash va barakot kunlariga dohil bo'lib, (o'z) farzandlaridan birini va bizning xeshlarimizni yaxshi navkarlar va mahram mulozimlardan bir kishini tabriklash rasmi bilan jo'natsalar, toki ittifoklik surati u tomondan xoli qolmasin, balki u janobning muvofiqlik va do'stlik bezagi bilan jilolansin. Inshoolloqi taolo, shak yo'kdirki, u muqaddima (aytilgan)ning tartibga keltirilishi bilan sulk tizimlarining bog'lanishi ikki tomon uchun turli-tuman foydali va naflardan iborat natija bo'lg'usidir va bu yo'lni tutish niholi ohirat savobidan iborat har xil mevalarni bag'ishlag'usidir. Janobingizning sharif qulqlariga yetishsinki, Abxoz mamlakatining volysi va butun Gurjiston payg'ambarlar sayyidining shariatini inkor yetishni o'zlariga shior qilib olganliklari, balki barcha vajhlardan bizga nisbatan kelishmovchilik, nomuvofiqlik to'la sobit bo'lsa ham ahvol osoyishtaligi va o'z viloyati aholisining ofiyat va salomatligi uchun tobelik yo'lidan Yurib, xutba va sekka (tanga zARB qilish) humoyun laqablar bilan bezagan va muqarrar mol (xiroj) ni ado yetishni yilma-yil bajarishni qabul qilgan. Ana shu qoidaga asosan uning viloyati aholisi amnu omonlik to'shagida farog'atda va xotirjamliqda kun ko'rmoqsalar. Bizning siz janob bilan birlik va yakdilliqda bo'lismiz uchun turli-tuman sabab va boislar mavjuddir va (ularga) husni e'tiqod ko'magi bog'langandir. Shunga binoan aklu qiyosat yetukligi va mulkni boshqarish shuni taqozo yetadiki, do'stlik qoidalari mustahkamlashda sa'y-harakatlarini ayamasinlar va bu ma'nini ayni sadoqat deb bilsinlar va musoliha sharbatini samimiy aqida va sidqi niyatdan uzoq bo'lmish qudurat loyihasidan musaffot tutsinlar. Chunki dunyo va undagi barcha narsalar, qudrat egalari va arboblari shunday bir tarzda tiriklik o'tkazsinlarki, u yo'ldan musulmonlar va fuqarolarga zarar yetmasin.

(She'r):

*Ulug'lar oldida ham,
kichiklar oldida ham,
Bu jahon bitta chumoliga
ozor berishga arzimaydi.
Haqiqatda ham:
Xushnud loyiq emas,
jafo nomunosib,
Kel, sulhu tinchlik
va safo mavsumidir.*

Shak yo'qli, biz bilan u janob oramizda birlik asoslari mustahkamlansa, bu ma'ni qudratli dinga dushman toifalari va shariat munkirlariga qarshi (ish) bo'lib, ularning takabburligani sindirar edi. Agar bizning so'zimizni bu gal ham qabul kulog'i bilan eshitmasalar, to'g'rilikdan xoli deb bilib, sansalorlik yo'liga tashlab qo'isalar, ezgulik va saxiylikni yyetkazuvchi vojib ulvujud xazratlaridan umid tutaladi. Vosiqliki (ishonamizki), chunonki doimo barcha umumiyl matlablarimizga yetishishda hamma vaqg va holatda qudrat egasi Ollohning qo'llovi ravshan va zohir bo'lib, barcha murodlariga yetishilganidek, bu kechmiisha ham maqsad chehrasini g'ayb tugug'i (pardasi) dan tezlikda ko'rsatar va gaqdir pardasi ostida nima bo'lsa, zohirlik go'shangasidan namoyon bo'lar. U vaqtida g'adomat foyda va e'tiroz naf yyetkazmas. Ulug' tangri nomi bilan va anbiyo va avliyolar arvohini (o'rtaga qo'yib) istaymanki, siz janob bilan sulh qilmoqchiman. Ikki orada do'stlik qoidalari mustahkam bo'lzin, xusumatu nizo bo'lmasin, toki musulmonlar har ikki tarafda farog'atda bo'lzinlar, har kimki axdu musolixaning katta yo'lidan og'ishsa, nasihatni qabul qilmasa, fitna zanjirlarini xarakatga keltirib, vaxshat sabablarini hayajonga solsa, bu kechmishning zavoli albatga uning o'zita oid bo'ladi va u gunoxkor bo'ladi. Bu ma'nilarni haqikdg deb bilsinlar. Biz izohlashni iroda kilganimiz va u bilan tanbeh bermoqchi bo'lganimiz, mana shu».

Izoh: Amir Temurning bu maktubiga sulton Boyazidning javob yozgan-yozmagani ma'lum

emas.

(A. O'rinoev, D. Valieva tarjimasi).

(Abdulazizzonning) Hindiston viloyati shohiga yozgai maktublaridan biri¹

Do'stlik bahoristonining tozaligi va muhabbat bo'stonining ravnaqi yo'lida lab oshnolik shodligining kulkisi bilan g'uncha bo'lsin hamda qulqoshnolik harflarininghammasini eshitsin! Osyoishtalik gulshani, sog'-salomatlik chamani, oliv darajali, muboraksifat, maqtovga loyiq, sharofat osmonining oftobi, latofat konining gavhari, saltanat va quadratning doimiy bahori, buyuklik va ehson baxorining gulzori, baland martabalik, iltifotni biluvchi, do'stlik va birlikning xos gavhari, ittifoqlik va hamdamlikning tanilgan javhari, izzat va komron oilasining yodgori, xilofat va sohibqironlik xonadonining sarasi, ma'rifikat va oshnolik qoidalarini yangidan tiklovchi, samimiyyun munosabatlar va yakdillikka rivoj bag'ishlovchi, ulug'lik va shuhrat olamiga fayz beruvchi quyosh, izzat va iqbol eriga nur taratuvchi chirog', saodat va iltifot, muhabbat va birlilik, marhamat va kamol manbai (bo'l mish u janob) doimo salomatlik og'ushida va amniyat davrining kiftida bo'lib, urush-janjal ofatidan va ofat to's-to' polonidan (umuman) ular girdobidan uzoq bo'lsin va voqealarning badbin tamoshosini ko'rish (aslo unga) nasib bo'lmasin! Hamisha barcha murod qabul shabodasining esishidan ochilib, ayyomingiz yahlab qolmasin.

Va farosatli porloq dillari va ziyrak xotiralariga ochiq-oydin va ravshan bo'l sinki, tangrining marhamati va (Ollohnning) zo'r iltifoti bilan o'rtadagi do'stlik va oshnolikning sarrishtasi qadimiy munosabatlar va tabiiy payvandlik e'tibori nuqtai nazaridan dil va jon olamida intizom va mustahkamlit topgan ekan, hozirgi davrda va ko'rinish turgan zamonda hali muntazam bo'ladi, (bu) nuqson sizdir.

Do'stlikning gulzori bo'lган muvofiqlik rioxasi va ulfat-lik himoyasining vositasi bilan Iroq va Xuroson mamlakatlari ustiga Yurishni va din Ka'basi tomon boruvchilar yo'lida tikan hamda "tariqi yaqin" yo'lidan o'tuvchilarga g'ov bo'lган badbaxt shia asoslarini tub-tomiri bilan qo'porib va emirib tashlashlikni ko'ngilda qaror qildik va xar narsaki, bu safargalozim va nimaiki bu maslahatga kerak bo'lsa, uning iste'dodli hozirligi va tayyorligida iste'dod ko'rsatdik, ittifoklik hukmi bilan u qavm shiorining g'uborini dinning himmat yetagi chyetidan, albatta, qoqib tashlaymiz va davr ro'znomasi sahifalarini bu badnom guruhlarning nomidan tozalaymiz. Shoyad, tangri bandalari Ka'bani (ziyorat qilish) istagida maqsud qomini kom ko'ngillariga jo qilib, osuda xolda talab yo'llari tomon yo'l olurlar. Aynan shu vaqtida abadiy davlatlik xonadon tarafidan bizga nisbatan xayrioxlik asari ko'rinnadi. Balkim u oliv maqom xodimlarning vaqtning mone'ligi va (shunday) zamon hodisalari Yuzaga kelgandirkim (shu sababli) bu niyat Yuzasidan azimat yyetaklarini tortgan-tortmaganliklari, xususan, ma'lum bo'lmay qoldi. Vaqtiki, ogoxidik va idrok vajhidan hol-ahvol kayfiyati va muhim sirlar (bayoni) bilan maktub va elchilar Yuborish rasm-qoidasi xayol qilinsa, buni mejoziy e'tiqod va rivoj topayotgan diyonat vositasi bilan amalga oshirmoq lozim.

Hozirda ulug' Tangri marhamatidan hind iklimi cho'llarining sathida baxtiyor oqibatlik ul (janob) vujudining ziyosi bilan subh fayzlik davlat paydo bo'ldi va olimaqom (va) oliv dara-jot ul baxtiyorning himoya va adolat (o'z) karam matla'idan u diyor ro'zg'origa nur sochgan: u subhi davlatning shabiston og'ushidan shu xilda ravnaq Yuzaga keddi va ul navqiron mamlakatning guliston fazosidan (aslo) bu xildagi rostta'blik mamlakatning guliston fazosidan (aslo) bu xildagi rostta'blik ko'tarilmaydi. Mavjud oshnolikka qaramay, ilohim, begonalar oshnolik harfiga oshno bo'lmasin; mazhab durdonalariga tuhmat yetuvchilar va millat sirlarini oshkor qiluvchilar sirlar sohibi bo'lmasin.

Ul xonadonning Yuborgan kishisi Mustafaxonadan, garchi xushmuomalalik va mehribonlik zohir bo'lsa ham, masala pinhonligicha qoldi. Muvofiqlik gulining xushbo'y isi bo'lmasa va millat tarafiga himmat Yuzini qaratmasa (bu) tilni kufroni ne'matlarga ochishga o'xshab qoladi. Yetkizilishi lozim bo'lган har bir narsa do'stlikning muhim ahamiyatligi hamda mazhab va millatning toza yaxshilanishi zarurligidandir. Akutu farosatning chirog'i va amnu salomatlikning

¹ Hindiston va O'rta Osie o'rtasidagi yozishmalar I.G.Nizomiddinov tarjimasida berildi.

nuri bilan islomshiorlik va diyonatasarlik tomonlar o'rtasidagi do'stlik va samimiy munosabatga xizmat qilib, mehribonlik va birlik eshagini keng ochadi. Bu ma'nining isbotiga amirlik panohi, viloyat dastgoh, jasorat egasi, davlat (imiz) ning azizi Tohir-xon va pokiza katta hurmatga loyiq, izzatlik va mukarram, millat (imiz) ning sharafi Obidxon singarilar kafil bo'ladilar. Shubhasiz, bulardan biri elchilik rasmiga tayin qilinib, samimiyat qadami bilan ixlos yo'lini bosib o'tgan vaqtida oshnolik tariqi va sadoqat ravishi bilan mehribonlik darajasini bajo keltiradilar. Va bu navqiron oshnolik vositasi bilan muhabbat qiyinchiliklarining hal bo'lisi Yuzaga chiqib, do'stlik asosi abadiy va mustahkam bo'ladi.

**Hazrat Xalofatpanoh (Subxonqulixonning) aslzot
sayyidnasl Mir Abdurahmon Xo'ja Sadr elchiligi Yuzasidan
Hindiston shohiga yozgan nomasi**

"Hazrati Fattoh va g'oyiblar kalidi faqat unda bor, buni hech kimsa bilmaydi, magar shu hazratdan boshqa". Saxiy kashf egasi (ya'ni xudo) dil xonasidan iborat bo'lmish baland binolik ma'murxonani barcha nav insonlarga bir xilda kashf yetdi. "Olloh kimning ko'nglini islom yo'liga sharh yetsa, u rabbiy tomonidan munavvar yetiladi"ning daliliga asosan abadiy armug'on (ya'ni dunyo) muvaffaqiyatlariga lozim kalidlar bilan xar nafas yangi-yangi fatxlar baxsh yetadi, hamda olam ustuni bo'lmish barcha insonlarning "quvonch saroyi" - ko'ngil manziliga "ko'ngilni (islomga) och va ishga osonlik ber"ning yorug' chirog'i bilan va zavolsiz (tangri) fayzlarining fathi bilan har vaqt hisobsiz ziyorlar baxsh yetadi.

Shijoatdastgoh xilofat va qudrat taxtida o'lтирувчи, shuhrat va ulug'lik maydonining arsloni, xoqonlikning qudratli xonadonining poydevori, ko'ragoniylik hurmatiga loyiq oilaning poki, podshohlik nurlarining matla'i, shahanshoxlik falakning yorug' Yulduzi, adlu ehson anosirlari majmu'ining natijasi, eminu omonlik gavharlari birikmasining xulosasi, osmon taxtining quyosh bayrog'i, ilda Iskandardek va Dorodek jangchi, oldindan ko'rish, ko'z qorachig'ining nuri, jannat bog'inining ravshani, saodatmandlikning baland goji va sharaf va iqbol burjining saodat Yulduzi, iltifot, baland darajalik va oliylik osmoni quyoshining oliy ko'ngil nazari va xotir koshonasi har bir xona va oshyon tuzog'ida bo'lmish davr va zamon ofatining va turmushga lozim bo'lgan kulfat va quduratning balo g'uboridan musaffo va xoli bo'lsin!

Tangriga shukr va (undan) minnatdormizki, bizning qutlug' soat vaqt jarayonimiz va saodat-anjom kecha-kunduzimizning o'tib borayotgan vaqtি oliy darajali hazrat (xudo) va baxtiyorlar qozisiga toat va ibodat qilishdan so'ng, sharif shariat bayrog'ining rivoji yo'liga, baxtiyor millat hokimlarining intizomi, din ulamolari va bilim fuzalolarining tarbiyati, buyuk amirlar va qobiliyatli vazirlar martabalarining tartibi, (dushman) lashkarini barbod qiluvchi, mardonavor va lashkarshikan kurashuvchilarning qurol-asbobni yaxshilash, taqdirli Olloh qadri Yuzasidan barcha ra'iyatlar rioyasini qilish yo'liga sarf qilinadi.

Hadyalar Yuborilgach, jon jahonining ravzasidan anbar islarni taratib esuvchi shabboda oqillik va aql dumog'ini hushbo'y is bilan muattar qiladi.

Savobnoma ra'yimiz mexr jilolik qilmoqdaki, "kun fakona" ("Bo'l dedi, bo'ldi", ya'ni dunyo) do'konida undan ham qiyatliroq gavhar bo'lmaydigan mexri muhabbat tartiblik maktublar, ittifoq va birdamlikni barqaror qilishga chaqiruvchi aloqalar bir qancha marta va bir necha bor o'tgan elchiliklarda yozgan edik. Bu ne'mati ziyoda davlatning aqidasi (ra'i) shunday-kim, "Biz ular rizqini o'rtalarida taqsimlab qo'yanmiz" (oyati) ning mohiyati va xususiyati bilan buyuk ajdod va hurmatlik ota-bobolarning - Olloh ularning yotgan joylarini dorus-salom qilsin - ulug' sunnat va yaxshi tartibi yo'lidan borishdir, (va) xotirimiz bu (yo'l) ni mustahkamlash va saqlab qolishga o'zining tamom e'tiborini qaratganki, albatta, qadimgi dasturga binoan xar ikkala tomonidan maktub va elchilar Yuborish voqe bo'ladi. Maktublar va elchilar xabarlarining zo'r naf'i va katta lutfi sog'liq va tinchlikdirki, (boshqa) hech qanday ish undan ma'qulroq emasdir. Tangrining inoyati bilan qo'lda bo'lgan har qanday boylik shodu xurramlik masalasida lozim bo'ladi, hamjihatlik va itgifoklik olamida uni izxrr qilish zarur ko'rikadi, chunki mamlakat va o'lkalarni bo'ysundirish har ikkala tomonning shodu xurramligi sababli va xodimlar (ko'z qorachig'i)ni asrash hamda tomonlarning xotirini (ikki o'rtada) yoyish tufayli bo'ladi.

(Yuqorida aytilgan) so'zlarning tasdig'i (mana budir) mana shu bir qancha yil mobaynida oliy qalamravning eng katta qal'asi, valiy va nabiylar maqbarasi, shahid va solihlar qabrlarining e'tiborligi bilan va xususan, komkor podi Yuuhlar va qudratli nomdorlarning manguligi va tuprog'inimg vosigasi bilan ular qabri tinch va munavvar bo'lsin - ko'p shaharlardan fayzlik (tangri) himoyasidagi firdavs monand Samarqand shahrida taqdirga ko'ra, barcha noplak fasod (ahli va baxti qaro qoraguruhlar) tomonidan muhtaram "qaram"¹ (man qilish) ehtiromi Yuzasidan o'z qilmishlaridan qaytmay xonalariga kirib, (uni) oyoq osti qilishdek ko'ngilsiz voqeа sodir bo'lgan edi, mamlakatlarni fatq yetish yo'lidiagi oliy ne'mat himmat (imiz) va mulkorolikni saqlashni lozim deb bilgan niyat (imiz) uning Samarqandning fath qilishlikka tamoman-qaratildi (va) sarf qilindi. Tangriga shukurki, "Biz senga fath berdik, u - muayn fatxdir: biz senga yordam qildik, u -mo''tabar yordamdir" (degan) oyatining taqozosi bilan (Samarqand) yaxshi chehra bilan fath qilindi, fisqu fasodni bunyod yetgan kishilar bu pok o'lkadan butunlay quvildilar va tub-tomirlari bilan Yulib tashlandilar.

Ozodlik va to'g'rilik bilan bu xushxabarni o'zgalikka moyil bo'limgan ul mustahkam ogox, ulug' dargohga yyetkazish vajhidan pok va sayyidlar dastgohi, saodat va to'g'rilik ogoqi, ziyrak do'st, hayoti va nasabi zebu ziynat bilan bezalgan, ota-bobolaridan tortib bu viloyat ahlining izzat-hurmatiga yetishgan (va) o'zi nazar (imiz)ga hammadan ko'ra maqbul bo'lsin Mir Abdurahmon Xo'ja Sadrni elchilik rasmi bilan Yubordik.

(U) humoyun ko'rinishi bilan saodat topgach, ishonchimiz komilki, shoxlarga xos bo'lgan seriltifot va birovning qadriga yetishlik Yuzasidan boshqa safir va elchilardan (ko'ra) unga imtiyoz ko'rsatsalar, toki (bu imtiyoz) podshohlikning ehson bog'i g'unchasining hamda shahanshohlik iltifot sabosining esishidan ko'ngilning gul-gul ochilishi bo'lsin.

Va ul tarafdan ham elchi va maktublar ko'plab Yuborilsaki, bu ishonchimiz va hamjihatligimizning boisi bo'lsin. Davlat ayyomlari murodiga yetsin.

Hazrat Abdulazizzxonning Hindiston podshohi (Avrangzeb)ga yozgan javob maktubi²

Beqiyos hamd va muqaddas asos sano Egamga loyiqdirkim, "Ollox" bor edi, u bilan birga hech narsa bo'limgan" (hadisi) ning avvalidan to - "bugun mulk kimniki" (oyati) ning nihoyasigacha keng o'lchanigan mamlakatning yangilanishi (ham) birgina unikidir. Fayz bilan to'la, qulq solishlik vojib, "g'araz" va g'oyadan holi farmonning unvoni "Bo'l dedi; bo'ldi?" (oyati) u (tangri) gagina xosdir. Elchi va maktublar Yuborilishi uning ulug'vorligi va oliy martaba egasidan dasturdir. Hidoyat yo'lini tutuvchi yaxshi xislatlilarning to'g'ri yo'lga boshlashi uning saltanat va iqbol peshgohidan hujjatdir. Nomdor elchini Yuborish bilan millat va din qonun-qoidasini mustahkam qildi.

Muqaddas salavot quvonchi va buyuk salomning armug'oni (shunday) rasulga mansubki, "Olloha taolo hammadan avval mening nurimni yaratdi" (hadis) ning ibtidoidan to - "men singari boshqa (payg'ambar) bo'lmaydi" sharofat xotimalikning ohirigacha muborak soat vaqt (hamda) itoati lozim elchilik (ham) unikidir: oqibati saodatli tushuncha: "va lokin, rasulilloh (ya'ni Muhammad payg'ambar) - payg'ambarlarning so'nggisi" (oyati) payg'ambarlik muhri va so'nggi elchilik xosdir. "Va so'ng yaqinlashdi" qadrining balandligidan (tangriga) ikki qavs oralig'i darajasida (turishidan) yoki juda yaqin turishi darajasidan olamga "rahmat" martabasi tushdi (va u martaba) hiloyat yo'lini ko'rsatuvchi ashoblari uchun - tangri ulardan qiyomat-qoyimgacha rozi bo'lsin - hujjat bo'ldi.

So'ng, xi洛fat oftobining mashriqi, adolat quyoshining matla'i, mashhur podshohlar xulosasi, komkor shahriyorlar sulolasi, haqqoniy, to'g'ri yo'lni maxkam tutgan, ahli tug'yon va ahli isyonni

¹ Qaram-man qilish: Makkada ziyyaratgoh erga yaqinlashishga malum masofa qolganda "hayram" (man) - hech bir narsa, hatto pashshaga ham ozor berish man qipshadi. Bu yerda avliyo va podshohlar qabri mavjud sababli Samarqand Makkaga tashbih etilmoqda.

² Ushbu hujjat Subhonqulxonning Hindiston shohiga yozgan maktubidir. Bu yerda hattotlar xatoga yo'l qo'yib "Abdulazizzon" deb ko'chirganlar.

halokat qiluvchi, kofirlarga qarshi kurashuvchi, yomonlar dushmani, faridun kuvvatlik, iskandarasarlik, falak qadarlik, osmon soyabonlik, xaloyiqpanoh va xaqiqat ogoh ul (janob) ning oynaga o'xhash ko'nglida (shu narsa) qaror topsin va naqshlansinki, do'stlik va oshnolik aloqlari hamda birlik va hamjihatlik vositalari - ya'ni do'stlikning jami mazmuni va birlikning barcha ma'nilarini o'zida to'plagan kilknинг gavhartizma tasviri baxtiyor fursat va saodatmand soatda yetib kelib, bag'oyat xushdillik manbai va benihoya quvonchning sababi bo'lди; behisob fatxlar eshigani ochgan quvonchga to'la mazmundor shodkomlik darvozalari va hurram eshiklari keng ochildi. Ha, doimo farmonravolik orzusida va (boshqa) mamlakatlarni fath qilish xayolida bo'lgan saltanat taxtaning to'rida o'liruvchilar va adolat bisotining mumtozlari uchun qanday ham xayrli ish fathu zafar (xabari) ni eshitishdan quvonchliroq va qanaqa ham voqeа muvaffaqiyat va g'alabaga oid xabarni bilishdan mo'tabarroq bo'lsin. (Shunga ko'ra), shoxlik nozirining ko'ngil ko'zgusi aqlni zang g'uboridan tozalagan va jahongirlik asbobi har bir ish Yuzasidan tayyor qilingan, xursandchilik bilan to'lib-toshgan shu kunlarda tangri yo'lida kofirlarga tamoman qarshi kurashmoklikning hukmi bilan Olloh dargohida bu niyozmandning xohishi shundayki, jangu jadal maydonida va g'azovot javlongohida falakni (ham) oluvchi va dunyonи kezuvchi samand otga javlon berib, islomning o'tkir qilichini va intiqom dengizini dushmanlar qoni bilan kyetma-kyet baxtiyor qilmoq zarur. O'sha baxtsizlik asari yaramas shialar (dili) ga iltijo qilib, ba'zi buzuq xayollar pastkash fikrlariga yo'l bergenligi aniklangandan so'ng, mazkur orzu kuchaydi va mastahkamlandi. Xayrlik dilimizda nimaiki markazlashgan bo'lsa, (endi) oshkor bo'lди. Do'stlik odaitida bir-biriga badaidish bo'lish muqarrar dushmanlikdir. Shunday bo'lgach, adolat dastgoh ul janobni xrzirgacha u hududga g'azovat qilish ishlarida (so'zlab) xushnid qilinganicha yo'q- (Endi eshiting): bu boshdan-oyoq saodatlik Yurishni amalga oshirish yo'liga kirishiddi va harakat qilindi: favj-favj zafar asarlik lashkarlarni buzg'unchi qizilboshlar tomon jo'natdik (va) urushda mag'lubiyatga uchraydigan (qizil-boshlar) ning aksariyati halokat jariga quladilar va xaroba xonasida qoldilar.

Ollohga shukurki, bir ming bir Yuzinchi, ilon yilining rabbial avval oyida ko'p qal'alar va takrorlab bo'lmaydigan joylar, xusan, Eron mamlakatining kalidi va Xurosonning darvozasi hisoblanmish Boloi Murg'ob viloyati bosib olindi hamda qizilboshlarning ko'pgina ishonchlik nomdor kishilaridan bo'lgan, ul mamlakatning hokimlari asir olinib, xilofot poytaxtiga keltirildilar.

U joylarda alangalangan qirg'inning kuchli o'tidan va jangu jadal shiddatidan Iraq va Xuroson ahdi qo'rquvg'a tushib, so'zlashdan qoldi va ashoblarning laqabini o'zlariga gumbaz qildilar va (buni) o'zlariga odob bildilar. Ular sunniy (mazhabi) haqiqatiga ishontirildilar, ularda (ilgari) shia nopolklidan bo'lak odob yo'q edi. Ul o'jar guruhning masjid va ibodatxonalari juma va jamoatning turar joyiga hamda toat va ibodat maqomiga aylandi. Minbarlarning eng balandi va manshurlar¹ vajhi bo'lmish "Toho va Yosin" ga bo'ysundirish va xalifai roshidinga bo'lgan ta'zim qayta tiklandi va ("Toho va Yosin") ning ovozasi baland bo'lди.

Bosib boruvchi askarlarning ta'qib kirib borishidan u joylardagi nodon kallalar shunday tafakkur va xayol tangligida, mahbuslik va uloqtirib tashlanganlik (holi) dalar kim, vatanni tark yetishdan va o'z jonidan kechishdan bo'lak boshqa biror muhim ish qilishga fursatlari yo'kdir.

(Bayt):

Hech kim uning toqat shukrini qila olmaydi,

Magar bizning tuhfamiz ojizlik va muxtojlik bo'lsa, Ammo (bandalariga) in'omlar beruvchi hazrat (tangri) ning inoyatidan Iroqning dilkusho maydonini qon to'kuvchi shamshir xayr mavjining buluti bilan nifoq ahlining nopol vujudidan Yulib tashlamaguncha rohat va osoyishtalik taxtida bir lahza ham xotirjamlikda o'ltirmaslik lozimdir. Ochiq ravshanki, agar shu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'lida o'rtamizda o'zaro quvvati kuch va zuhr topsa va u bir to'da xaslarga nisbatan majbur yetadigan otash alangalansa, (unda) u baxtsiz toifadan bo'lak nomu nishon qolmaydi, balki u o'lkaning hamma tarafiga nur barq urib sochadi; saxiy millat ziyyosining va shariat quyoshining jilolik nuri - tangri (bandalarini) qorong'ulik va zimistondan saklasin - barcha jahonning hamma bo'laklarida yarqiraydi va porlaydi. Quyosh va Mushtariy xar biri burjda samimiyl holatda barqaror bo'lgach, qanday qilib ham shunday bo'lmasin. (Ular) muvofiqlik falaki va hamjihatlik osmonida

¹ Manshur - payg'ambar tomonidan xalqqa qarata imon keltirish uchun qilingan murojaatnomasi.

yaqinlashish holatida bo'lganlaridan g'arib ishlar manbai va ajib yo'sunlar masdaridir. (Janoblari) islomiya firqasida hukm qilishda yagona (shaxs) bo'lganliklaridan (ular) taassub engini astoydil shimarishda hamda Yuqori martaba egasi bo'lganliklaridan taqvoda ham sa'y-harakat qilishlari lozimdir.

Ushbu voqealar xabarini yyetkazish va qon-qarindoshlik loyihasi (u janobning) mukdsdas xotaralari hursandchiliga sabab bo'lur, deb ixlosmand va e'tiqod atvor bandamiz, mazkur g'azovatda ishtirok qilgan (va) bo'lgan voqealar tafsilotini mufassal biladigan Shohbekbiy elchilik rasmi bilan ul viloyatga Yuborildi. Elchilikka lozim bo'lgan marosimlarning ijrosidan xotirjam bo'lgach, (unga) tezlik bilan qaytishiga ruxsat berilib, ortiqcha ushlab qolmasalar va to'xtatib turmasalar.

(Hindiston shohi) Avrangzeb podshohning (Subxonqulixonga) yozgan maktubining nusxasi

Beqiyos odil (tangri) ga sanolardan so'ng (chunki) mulk va mol uning ulug'lik qudratining ato qilganlaridandir va koinot zarralari uning beqiyos kosining¹ (hamda) zavolsiz zilolining parvardasidir - son-sanoqsiz salomlar baxtiyor, maqtalgan payg'ambargaki, u odamzodga yanglishishning qop-qora tunida xidoyat nuri bilan rahbarlik qilib, ularni maqsadlarning sarmanzillariga yyetkazdi va uning kamyob iste'dodi mukammal, har narsadan xabardor, gunoxni kechiruvchi va hadya beruvchi xudovandning rahmatidan bo'lib, (uning) kibriyo asosi (xassasi) inson va ruhlar jonini silkitdi.

Ulug'lik va jamol saropardasi mahramning ul kamol topgan xonadoniga hamda jazo va xisob kunida gunoxtsor (bo'lmish) qari va yoshlar jarimalariga shafi bo'lувching shuhratlik ashoblariga ma'lum bo'lsinki, baland martabali, oliy xislatlik, Yuksaklik va shavkatpanoh, hashamat va shon-shavkat dastgoh, shijoat va botirlikni tamoman egallagan, shavkatlik va oliy xonadonning xulosasi, aziz va ulug' oilaning pokizasi, nomdorlik nurlarining zuhuri, baxtiyorlik alomatining niholi, falak hokimiyat uning gumbazi, ulug'lik doirasining markazi, jasurlik zarralarining yorug' nuri, davlat uzugining ko'zi (ya'ni Subxonqulixon) ning oydek munavvar ko'ngillarida maxfiy va pinhon qolmasinki, (ul) shavkatli va oliy xonadon pokizasining xonlik taxtida va hukmronlik yostug'ida qaror topganligining xabari munosib va buyuk qulog'imizga yetib kelganda, muattar bo'y iltifotimizning tabriknomasi bilan elchi Yuborishni istagan edshs

Ammo Muhammad Siddiq o'ta nodonligi va yoshlik g'ururi orqasida o'z mavqe andozasidan chiqib, o'z huquqini bo'y sunmaslik bilan almashtirib, o'sha yaxshilik yo'llini tutgan sarzaminda tugyon va isyon ko'targan edi va u tomonning yo'llari to's-to'polon hamda fitnachilar tartibsizligining xas va xashagidan toza bo'lmadi. (Shunga ko'ra) bu ma'ni (ya'ni elchi Yuborish) vaktincha kechikdi va bu ish ancha keyinga cho'zildi. Endilikda esa isyonning o'ti o'chgan va u tomon xududlarining notinch daraxti Tangrining tez esuv taqdir shamoli bilan qulagan ekan, jahonpanoh dargoqning yaqin kishilaridan, odobda azamat va falakdastgoh borgohning ogohning ogobi bo'lgan, shijoat nishon xonzod Zabardastxонни (u tomonga) Yubordikki, u (sizni) xonlik bolishi bilan (taxtga) utirishingiz hamda iqbol va komronlik taxtiga chiqishingizni tabriklash marosimini amalga oshirsin va u yerdan xashamatpanoh, shavkatdastgoh shodu xurramligining boisi bo'lmish ba'zi buyuk va shavkatli hodisalar hamda ulug' va baxtli voqealarning mufassal xabari bilan kaytib kelsin hamda muatgar bo'yli xoma (esa) bu (voqealar) ni zohir qiladi, (albatta).

(O'zimiz xususida quyidagilarni bayon qilamiz) bepoyon Hindistonning katta zamindorlaridan bo'lmish va fayz paydo yetuvchi ushbu (mamlakatning) chegarasidagi yirik hokimlaridan xisoblan mish Ronodan juz'ya olish niyati bilan jahonkusho bayroq va olamoro tug'dorulxayr Ajmir tomon ko'tarildi. Muham-mad Akbarni muzaffar qo'shinlar sardori qilib, u mazkur kofirni har tomon dan iskanjaga olib o'rabi o'rgan edi - u badnomni qirib tashlash uchun Yuborgan edik. U (Muhammad Akbar) yoshligi tufayli va tajribasizligi orqasida o'z qilmishlariga yarasha bo'lgan va nimaiki ko'rgan bo'lsalar ko'rgan toifalarning firib va aldonlariga uchib, uzoqni ko'rishlik vodiysidai Yurmadi, o'zini isyonga mansub qildi, o'z mavqeい va martabasini bilmadi va shu sababli

¹ Kos - katta nog'ora, ya'ni osmon ma'nosida.

u tig' tuggan mujahhidlar va bahromkirdor tig' tutganlar dastidan Hindiston viloyatida hech bir yerda karorgoh va manzil topmadi (va) nochor o'zini Sivoning kofir, urushqoq o'g'li Singxga qarashli tog' oralig'iga - bu yerda olib bo'lmayditan qal'alar, baland qal'alar, daraxtlar bilan qrplangan changalzor va Yurish mumkin bo'lman dashvor joylar ko'p urdi.

Mazkur Rono juz'yani to'lashda qat'iy turib olganidan va buni o'zining avlod-ajdodi uchun nomus deb o'ilagandan so'ng, (ko'p o'tmay) juz'yani o'z xohishi bilan to'ladi. Shu vaqqda peshma-pesh (bizga) boj to'lovchi, farmonbardor va falakmador davlat(imiz) ning inoyat qo'lini ushlagan Bijonur voliysining Singxning zulmiga qarshi doimiy yordam so'rab qilgan arizalari jahonpanoh saroygya yetib keldi. (Singxning) Dehqan tomondag'i ra'iyat va xalqqa qilgan zulmi adlu adolat peshgohida ma'ruzaga yetdi. Fayzli marhamatlarga shukurkim, ulug' molikul mulk (Tangri) jahondorlik eshiklarining kalidini va shahriyorlik vositalarining tartibini bizning azamat va qodir kaftimizga qo'ydi va ixtiloflarga minnatdorlikkim, olam hukmdori (tangri) (Hindiston) chegaralari va yo'laklarining va jumla jahon xalqlari matlablari xohishini ushslash jilovini bizning buyuk va ixtiyor ko'limizga tutdi. Keng mamlakat(imiz) ning o'lka va atroflarining sathi va chegarasini hamda ulkan viloyatlarning shaharlarini o'z himoyamiz bag'riga va mudofaa ihotamizga olib, yovuz va o'jar fitnachi toifalarning haqoratidan asrashdan boshqa niyatimiz yo'q. (Shuning uchun ham) jahondorlik hamma(imiz)ning zimmasiga lozim bo'ldiki, jahongir va olamni kezuvchi qo'shin va gardun misol va quyosh sifat chodir - oliv poyqadam(imiz) soyasini, Dehqan mulkinining maydoni ustiga tashlab, aholisining osoyishtaligani ta'minlash va dushmanni qo'lga tushirish hamda (mazkur) kofirni oradan ko'tarish zarur. Shu onda isyonchi olam bog'ini o'ziga teng ko'rib va ziklik changali hamda nadomat otashida erib, ul kofirning kuch va quvvati o'z ishida to'xtab va (uning) qudratu qodirligi xarakatda samarasiz qoldi. So'ng u (o'zining) pastkashligi va jinoyatlarini kechirishni so'rab arizalar Yubordi. (O'zi uchun) barcha vosita va iltimoslarni ishga solib, abadiy xalifatning osmondek baland rutbalik saroyi ostonasini o'pishga (ruxsat qilish)ni iltimos qildi. Shu bir-ikki yil mobaynida (o'sha) yovuz kofir nimalarni ham ko'rmadi: uning ko'p viloyatlari muzaffar nizomlik islom qo'shnilar otlarining oyog'i ostida poymol bo'ldi, bundan faqat sipoxlar taraddudiga joy bo'lman va shijoatlik jangchilarga jang maydoni hisoblanmaydigan g'or va chuqurliklargina mustasnodir; u (fitnachi) zindon hukmi va jahannam yo'liga egadir. Uning o'liasi tasarruf ihota(miz) ga kirdi va g'alibkor davlat valiyulari(miz) tomonidan bosib olindi va u urushda mag'lub bo'lgan xarobxonaga munosib bo'ldi. Bu aksizlik ishidan Yuz o'girib (kechirim so'rab) kelmoqchi bo'ldi. Ammo gullab-yashnagan Dehqandagi ozor chekkan bechora xalqni (o'z holicha) qoldirish maslahatdan bo'lman uchui jahonkusho azimat(imiz) shunga qaror qildiki, u tor-mor yetilgan, tag-tomiri bilan yo'q qilinadi, (toki) bu yerlarda qaytadan paydo bo'lmasin va uning istagi amalga oshmasin. Inshoollo taolo poyoniga yaqinlashgan ishlar (tez fursat ichida) saranjom topadi va fathu g'alaba hamda zafaru baxtiyorlik bilan biz kishvorkusho, tezYurar, jahonni kezuvchi otimiz jilovini xi洛fot taxti tomon iltifot bilan qdratamiz. Karamli muddao "ammo, Ollohnning muruvvatini ularga (ham) ko'rsat" (oyati) ning taqrzosiga ko'ra, bulut tangrining marhamatlaridandir.

Nihoyasiz ilohiy ne'matlar shukridan so'ng, homa ba'zi yangi fathlar sharxini qisqa va lo'nda, toza va ajoyib uslubda bayon qiladi. Tangriga shukr va (undan) minnatdormizki, shu baxtiyor anjomlik kunlar Qashg'ar viloyatiga tutashgan joylarga qilingan Yurish deyarli g'alaba bilan tugadi. Tog'u tepaliklarning ko'pligidan u tog'lik erni bosib olishni tasavvur qilish maholdir va ulug' iqbolli sultonlarning (bu o'lkani bosib olishdagi) ishlarining sarishtasi doimo uni qo'lga kiritish mumkin emasligiga duchor bo'lgan edi. Nihoyat (bu o'lka) abadiy davlat(imiz) valiyalariga nasib bo'ddi. Chumoli va chigirkadan ko'p, surbyetlik va beboklikda sher va yo'lbarsdan ham battar (bo'lgan) qalmoq qavmiga qattiq tanbeh berildi va (bizning) qrnga tashna qilichimiz dahshatidan jang daryosidagi timsoxlar va urushqoq yo'lbarslar o'z boshlarini panaga tortdilar.

Shuningdek, Dekan mamlakatida kengligi va kattaligi bilan mashxur bo'lgan Jonda viloyat hamda (qo'shnilarining) behisobligi va shon-shavkatlari bilan mag'rur bo'lgan u er chegarasidagi hokimlar ham bo'ysundirildi. Mamlakatlarni fath yetuvchi davlat(imiz) sof (qo'shnilarining) qaqshatg'ich zarbasidan

mazkur tor-mor qilingan zamindor ko'p urinish va kurashlardan so'ng xorlik hokiga o'tirdi va qochish vodiysi najot manzili deb bilib, qochish isnodini ixtiyor yetdi va islom lashkarlarining

goziylari qo'lidan qatl sharobini ichdi. Va jahondek keng ul joy oliv maqom dargoh bandalarining tasarrufi bilan oroyish topdi. (Shuning uchun ham) "Ollohg'a hamisha behisob, muttasil shukur bilan uning yetarli ne'mati uchun shukur qil va sof, barakali va astoydil, maqgash bilan uning to'la karami uchun (uni) makta".

Mazkur elchi (Buxoroga) yetib borib elchilik vazifasini ado yetgandan so'ng, uni ortiqcha ushlab qolishga rozi bo'lmay (uning qaytishiga) tez ruxsat yetsalar. Ddolat, insof va oliylik ravnaqi oqibati baxtiyor, oliv maqom ota-bobolarning maqtoviga sazovar yaxshi sifati bilan davr(ingiz)ga mansub bo'lsin.

Hazrat Subxonqulixonning Hindiston voliysiga yozgan maktubining nusxasi

Podshohni maqgash maktublarning ziynatidirki, sahifalar va elchilarining e'tibori shon-shavkat egasi bo'lgan shahriyorlarga qaratilgan. Uning maqtashga arziyidigan donishmandligi va maktublarni bezashi (hazrat) risolatpanoh (Muhammad payg'ambar) ni madh qilish bilan (belgilanadi)ki, munosib o'rinnik va qudratlk xalifalar uchun maktublar va elchilar ixgiyori (undan) qolgandir. "Uning ulug' sunnati bilan: Alhamdulilloxki, u o'z rasulini xidoyat yo'li bilan Yubordi va Muhammadga va hidoyat yo'lini tutgan uning avlodni va suhbatdoshlariga duo va salomlar bo'lsin!"

Ammo, so'ngra ularning oqil ra'i shahriyorlik burchi Yulduzining rahnamosi, nomdorlilik durjining gavhari, sultanat taxtining zebi-ziyinati, hashamat masnadining bezagi, podshohlik nurlarining matla'i, zillillohlik sirlarining xazinasi, iqbol va ulug'lik joyining husni, ulug'verlik va buyuklik saroyi to'risining ko'rki, xilofot martabalik, adolat xislatlik, KayYun darajalik, Mushtariy manzillik, jasurlik va shijoatning to'plami, buyuklik va ulug'likka shuhrat beruvchi ul aliy iltifotlikka so'z shulki, kamoli birdamlik to'g'risida bayon qiluvchi va samimiy hamijihatlikdan xabar beruvchi ajoyib

muhabbat uslub maktubingaz shariflik soatlar va baxtiyor onlarda ikbolan yetib kelib, marhamatlik ota-bobolar davridan to shu vaqtgacha muttasil davom yetib kelayotgan qadimiyo aloqalar va samimiy munosabatlarni mustahkamladi hamda (ularga) sobitlik baxsh yetdi. Mazmunidan to'la g'alabalar anglashilgan bu hissiyotdan yangi-yangi viloyatlarning bo'yundirilganligi va ko'pdan-kup mamlakatlarning olinganligi ochiq-oshkora bo'lib, tamom shodlik va so'zlab bo'lmaydigan quvonch (hosil) bo'ldi. Shuningdek, ravshan bo'ldiki, aksariy kaltabinlar itoat va bo'ysunish bo'yinbogidan bosh tortib (va) "Sening ahlingdan emas" (degan) maslak yo'lini tutob olganlar. Shubha yo'qli, bu ahvolning oqibati va jazosi xayol makridan qutilaoladi, chunonchi, ularning ro'zgorida darxol tartib tottgan xulosa osoyishtalik bilan to'lib-toshgan shod-xurramlikdan uzoq va olislashtirilib, (ular) g'urbat g'ami ga giriftor bo'lib qolganlar (va) to hanuzgacha bu dori (qalampirning) ofatlaridan mukofotlar ko'rmokdalar.

Hozirgi vaqtida o'rtamizda kamolot darajada bo'lgan xalqlar munosabati va doimiy muvofiklikka nazar tashlansa. Bu yerlarda har jihatdan ro'y bergan voqealar (shulardan) iboratki, vaqqiki bu Tangri dargohidagi niyozmand faxlanishga loyiq xilofot poytaxti (bo'lmiss) Buxoro va Movarounnahrga qarashli boshqa yerlar xilofotiga tuyassar bo'lgach, qubbatul islam Balx viloyatida Abdulmansur maydonga chiqib, bir qancha kun davomida Yuzsizlarcha g'avg'o va fitna g'uborini sochdi. Bu besaodat ko'p hosil daraxtining mevasidan togiy olmagandan so'ng, uning o'rnini Sniddiq egallab ba'zi kaltabin va ko'toh andishalarning rahnamoligi bilan aqslsizlik vaadolatsizlik rasmini o'ziga munosib bildi (va) zulm va bedodlik qoidasin ilgari surdi. Shu yo'sinda ul viloyatning xalqi kun sayin o'zlarining ojiz va niyoz Yuzlarini mazlumlarga navoz ishlar ko'rsatuvchi bu (oliv) dargohga kdratib, faryodimizga yeting, deb talab qildilar hamda (bu hakda bizga) nashatomuz va maslahat so'zleri yetib kelib turgani sababli gaflat paxtasini qulqoqa pardapo'sh qilib (bu talabni bajarishdan) aslo bo'yin tovlanmadni va ul xayrli joyga Yurish qasli muruvvatli dilimizdan joy oldi. Ammo, shu asnoda byetsizlik dashtidagi sargashta Anushta Xorazmiy meros mamlakat(imiz) xududlarining yaqinida paydo bo'lib, sahroda istiqomat qiluvchilar va cho'lni vatan tutganlar o'rtasida parishonlik bo'lishiga sababchi bo'lgan edi. Bu qora niyatlikni daf yetish va uning adabini berib qo'yishlikdan zarurlikdan eng muhim va lozim (ish) deb bilib, osmondek (katta) lashkar bilan u to'polonchi aqslsiz poda ustiga tashlandik. Lashkarning

muqaddimasida turib (dushman) saflarini buzib Yuboradigan bahodirlar va mardlarning dodini beradigan jangchilar guruhi oliy amrga binoan, u toifa ustidan ustun kelib, bиринчи hamladayoq barcha son-sanoqsiz va jamiy behisob kishilarni yashin tezligida anglatuvchi tig'ning yovuz suvidan o'tqazib do'zoh qarorgohi tomon jo'natdilar; (dushmanning) qolgan saflar(i) esa oldinma-kyetin qochishni ixtiyor qilib, (va) fisqu fasod bilan liqto'la kallalar uchun ayni oqibat bo'l mish yo'ldan borib badarg'a kyetdilar.

Shu on munavvar ko'ngilda joylashgan mazkur qubbatul islom tomon yo'lga tushildi. U baland, qo'rqinchli qal'aning atrofiga osmon hashamatli chodir o'rnatilganda Siddiq va uning tarafdarlari sarosimaga tushib, qal'adorlik qurolini va odobda ustivorlikni o'z omonliklarining garovi deb bilib, o'q va to'plar ramzi ustida ko'p o'ylamay va fursatni kechiktirmay faqirona tavajjuh bilan asir tushdilar. Ular xususida nimaiki muqarrar bo'lsa, qaror topdi. Xotir(imiz) ul viloyat ishlaridan xotirjam bo'lgandan so'ng qaytmoq-maqtovga sazovordir (maqomi) ning mazmuniga ko'ra, cheksiz inoyatimiz Turon tomon iltifot yetdi, iqbol va ulug'lik markazi (bo'l mish Buxoro) ga krytildi.

Ammo, gumroxlikni o'ziga kashf qilgan Anusha o'sha vaqxda Humoyun qo'shinining Balx hududi tomon kyetganini eshitiboq ba'zi la'nati mal'unlar hamroxligida va Xo'jaquli singari shaytonbachcha birodarlarining shaxsiy ig'vosi bilan fursatni g'animat deb hisoblab, Buxoro tomon Yuzlangan edi. Eshitilgan voqealar kayfiyatida juda larishonlik va tushkunlik sodir bo'ldiki, (lekin) shu xil g'amginlik va tushkunlikda ham o'zbilarmonlik bilan qatiy xdrakat qilindi. Ko'p bor islom lashkarlari shamshirining damidan o'lim qonini Yutgan xorazmliklar tangdil va kamhafsala bo'lgan edilar. (Hozirda) ular bundan ko'z Yumib, yoshu qarilari... {?}. Oqibatda bu cheksiz raxmatlarga muntazir uchun Tangrining inoyat nazari bilan aynan shunday bo'ldiki, uning qudrat barmog'i g'azab milini ul ofiyatbinlarning ko'ziga tortdi; ularni zohiran kuchli, aslida esa ko'r va nobino qilib qo'ydi.

Shu vaqtgacha xorazmliklar jogirnishinlik (ya'ni vassal) dulida shunday intizomga egadirlar va ularning umrlari doimo sarkashlik qorong'usi va gumroxlik zalolatnda o'tgan. Va ul qaro Yuzli deb atalganlar mardi-maydonlar qilichlarining yarqirashi bilan qo'r quoqlarcha, boshlarini yo'qtak tomon burib (va) yo'klik sarmanzili tomon qo'yib jahannam qa'rida muqim bo'ldilar. Shuningdek, qozoklarning tamom ulusi iqomat yo'lvda va istiqomat yostig'ida muqim va mustaqim bo'lib, Dashti qigtchoq chegarasini qo'riklashga buyurilgandirlar.

Va qalmoq qabilasining sardori bo'l mish Abuke ko'p quloq burashlar va had-hisobsiz tanbexlardan so'ng barcha ko'chmanchilar va qabilalar bilan birgalikda boshini itoat bo'yinbog'iga tiqib, doimo xizmat qilish yo'liga va bandalik tariqaga o'tdi.

Bundan tashqari, Rum o'lkasiga qarashli uzunligi va kengligi (e'tibori) bilan mazkur er (Rum) ga teng bo'lgan Qaramon viloyati jahongarlikka lozim bo'lgan ko'p tadbirlar va behisob harakatlar bilan "qancha shukr qilsang (ne'matimizni) shuncha ziyoda qilaman"ning mazmuni bilan farmon(imiz) ostiga kirdi.

Va yana, Qoshg'or tomonidan bir qancha boshliq va sardorlar oliy ostonada lutfan qabul yetilib baxtiyor bo'ldilar (va) ular u tomonning voliysi va hukmronining sodiqlik va e'tiqodni anglatuvchi ma'lumotnomasini keltirib (bu oliy dargohni) poyqadamlari bilan munavvar yetdilar.

Shuningdek, (shu) bo'y (ham) taraldiki, shu vaqgda, u adolat samarasining munavvar ko'ngillariga yomon asarlik shialarga qarshi zo'r jihod va g'azot dag'dag'asi tushibdi. Biz ham birlik va hamjihatlik Yuzasidan tamoman xayrlik bo'l mish bu ishga azm qilamiz. Ammo, to hanuzgacha u shavkat panoxga qdtor kofirlar tufayli xotirjamlik tuyassar bo'l magan ekan, biz mazkur niyat Yuzasidan peshqadamlik qilib, guruh-guruh muzaffar asarlik lashkarlarimizni bebosh qizilboshlar ustiga Yubordikki, muxlis, vafodor elchingiz (bu) voqealarning suratini ko'rli (va) undan so'ng ruxsat olib qaytib kyetdi.

Shu kunlari jangovar sipoxlarimizdan bir guruhi farmonga muvofiq u diyorga bostirib kirib Boloi Murg'ob viloyatining yigirmata mo''tabar qal'asi va ularning hokimlari bilan birga qo'lga kirtidilar. Shu ondayoq ul joylarning xalqi tilini "Toho va Yosin"ni¹ o'qish, xalifai roshidinlarga ta'zim yo'lida tobe'lik qilishga ochib, asxrblarning laqablarini o'zlariga qubba qildilar.

¹ "Toho va Yosin" - "Kur'on" dagi ikki (20-va 36-) oyatlarning nomlari bo'lib, ularning bu yig'indisi Muhammad payg'ambar nisbati sifatida ishlataladi.

Bayt:

**Qo'l va tildan nimaiki kelsa,
Uning shukrini qilishlikni ham
uhdasidan chiqmoq zarur.**

Bas, do'stlik va hamkorlik munosabatlarining hususiyatlarini qo'riqlash borasida (shu) munosibki, so'nggi kunlarni ham oqilonqa ravishda (bir-birimizga) elchilar va maktublar Yuborib turishga sarflab ajoyib hamjihatlik ravnaqini oshirmoq kerak. Shunga asosan podsholik ishlaridan va sultonlik xizmatining qonun-qoidasidan ogoh bo'lgan, e'tiqodni kuchaytiruvchi, xonazod bandasi Nazarbiy dodxohni u tomonga (Hindistonga) jo'natildiki, toki huzurlariga yetib borgan vaqtida elchilik odobining muddaosi hamda vakillik odatining shart-sharoitini bayon yetib va anglatib, do'stlik asosini va hamjihatlik qoidasini mustaxkamlasin va kuchaytirsin. Muqarrarki, (unga) tezroq (qaytishiga) ruxsat berib, tutib qolish va kechiktirish xohishini kilmasalar.

Intiqom shamshiri va qonxo'r qilich islom dini dushmanlarining tomiridagi qonlaridan hamisha qizil va qip-qizil bo'lsin, pok parvardigor haqi.

**Hazrat Xalofatpanox (Abulfayzxon) ning Hind viloyatiga
tabrik Yuzasidan Amoratpanoh Sultonbiy Qushbegi elchiligi
orqali yozib Yuborgan maktubi**

Tangriga shukurlar va (undan) minnatdor(miz)ki, koinotni barpo qilgan va mavjudotlar parvardigori (tomonidan) in'om (qilingan) sultonlikning barchaga barobar fayzi va bulut fazlidan - "ayt, Olloh mulklar moliki; u xoxlagan (kishi) ga mulk ato qiladi" (degan) yaxshi oyatning dalili bilan insonlarning maqsad va xohish daraxti shoxchalarining g'unchasi oliy daraja va yaxshi martabada - xoxlagan (kishi)imni aziz qilaman" fotihaning xushbo'y isi bilan yashab, ular turmushining rivoji va taraqqiyotiga vosita bo'lmoqsa. Umid - istak niholi, ulug'lik va shavkat, Yuksaklik va baxt ko'chati, qudrat va iqbol shajarasi, ulug'vor, xodim, oliy dargohning oliy maqomi hashamat vaadolat ravnaqi, saodat va sharofat ramzi, iltifot va marhamatning payti, hazrat Olloh "li ma'olloh"¹ xabarlarining masdari fuqaro va ulamoning bosh panohi, fuzalo va xalqlar qarorgohi, arshi a'lo manzillik va falak martabalik (janob) ga hamisha okeandek karam, dengizdek marhamat va hazrat karim ul-akramlikni "men seni er Yuzida xalifa yetdim (toki) xalqlar orasida haqiqatni hukm qilg'il" (oyati) ning ijrosi bilan va "Yuqori daraja (maqom) ga ko'tarish" (oyati) ning taqozosi bilan doimo serunum yetib, kishvarkusholik bayrog'ining mohchasini (oychasini) portlasin, tangri himoyasidagi ul davlat xayrixoxlariga (bir) ishbiston (osoyishtalik baxsh yetuvchi) bo'lsin.

"Ollohga shukr qilish (bilan) ne'matlar ustiga ne'matlar ko'shiladi". Qudratli va yagona hazrat (tangri) ning iltifot marhamati bilan davr kelinchaklarining xurshid ruxsori ia zamon qizlarining qamar orosi javhar va la'llar bilan huzurusururni bezadi.

Shu xush va intizom o'rnatilgan kunlarda "U - Olloh marhamati, uni xoxlagan (kishi) ga beradi" degan (oyat) ishorati bilan hojatlar qozisi (tangri) dargohidagi hojatmandning baxtli zotligadan va barakasining ziyyodaligidan shaharlarla yashovchilarining muddaolar chexrasi va mamlakat xalqlarining peshonasi farog'at va osoyishtalikning gul-gul ochilishi hamda omonlik va tinchlitsning naqshi bilan tamom zebu ziynatlandi. Fuqaro ahvolining chamani va ra'iyatning umid gulshani (bizga) xayrixoxlarning yordami bilan jabr shamoli va to'fon tug'yonidan salomat bo'lib, hamisha eminu omonlik boisi bo'l mish munavpar zotamizning sihat-salomatligi tilga olinish darajasiga yetdi.

Bu mislsiz hadyalarning shukronasi bilan muattar xotiri(miz) ning mulohazasi va fayzlik ko'ngil manzuri shulki, o'z maqsadinigina ko'zlab piyoda Yuruvchilar va maqsadsiz maydonda joyida turib qolganlar maqsad bisotida va talablarning katga yo'lida umid Yuzlarini diloram ot ustida (bizga) qaratib, farzin Yurishda hodisalarni band va filni mot qilishni (bir-biridan) farq qilmadilar hamda do'stlar yig'inida umid ko'vachasidan totli va lazzatli bo'lib, talxkomlikka

¹ *Li ma'olloh - so'fizmga oid termiilardan bo'lib, "Olloh yilan yaqinlashib, birlashib kyetgan" degan ma'noda.*

Yuzlantiruvchi mastlik qultumlar va (kishini) ikkilantiruvchi sog'irdan besaranjom bo'lmadilar.

Baxtiyorlik bilan egizak bo'lgan shu vaqtarda do'stlik gulistonining sevinchli mayin shabbadasining elchisi u buyuklik saroyining to'rida taxtda o'tiruvchi va adolat ayvoni sufasiyagi taxtga munosibning davlat quyoshining tulu'i va adolat nurlari paydo bo'lgani haqida xabar keltirdi. Bu xabar xotir bo'stoni rayhonlariga tozalik va ko'ngil bog'lari sunbullariga ravnaq baxsh yetdi; dil g'unchasi sadbarg (Yuzbarg) bo'lib ochildi. Va boshdan ohirigacha saodatli bo'lgan ul do'st ogoh (podshoh) zotning salomatligining quvonchidan ko'ngil tinchlik va sevinch boisi ziyoda bo'ldi.

Nihoyatda sidqidillik bilan ul oliv janob xodimlarining tinchligini istayman. Karim (tangri) ning oliv janob marhamatlaridan bu bandanavoz, musulmonlarga xayrixoh, hushyordirki, unga karamlik ota-bobolarimiz va ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan bu oliv himmatlik va komronlik tuyassar bo'ldi va abadiy bo'lib qoladi.

Buyuk ota-bobolarimizning rizolik yo'li do'stlik va (oliv) maqsad qoidalarini mustahkamlash bo'lib, elchi va maktublar Yuborib, muvofiqdik va haqqoniyatni izhor qilish ekan, lozim va zaruri shulki, bizning qayta tiklangan va avlod va farzandlarimizga taqdim qilinadigan rasm-odatimiz (ya'ni do'stligimiz) o'z xususiyatini yanada kuchaytirgan holda vojib bo'lmos'h-i kerak.

Shu ma'nini hosil qilish uchun amirlik panohi, viloyat dastgoh, shak-shubhasiz davlatxoh, to'g'ri e'tiqodlik, marhamatga loyiq, xonazod inoyatiga qobil; avlod-ajdodidan tortib oliv ostonamiz g'uborini tobe'lik ko'ziga to'tiyo deb bilgan, ajoyib odoblilik va maqtovga arziyidigan ahloqlik, mulozimatning qoida va dasturini yaxshi tushunadigan, adab ta'limi va ta'zim odobini biladigan Rustambiy Otaliqning o'g'li Sultonbiy dodxohni elchilik (ramzi) bilan va firuzbaxt taxt(ingiz) ni tabriklash vajhidan u tomonga elchi yetib tayin qilindi, borib kamol hamjihatlik xususiyati sharoitlariga rioya qilib, birlik rasm-qoidalarini ko'ngildagidek natijalik qilib va mustahkamlab, so'ng qaytadi.

Qachonki, (huzurlariga) tashrif buyurishdan mammun bo'lib, bandalik lozimatini o'rniga qo'ysa, unga topshirilgan earur ishlardan nimaiki eshitilsa qulqoq berib (unga) iqbol darajasini (ya'ni qabul yetib baxtiyor qilishlikni) munosib ko'rsalar.

Xilofot va komronlik qunlari abadiy va davomli bo'lsin.

Pok parvardigor haqi!

Hazrat Xalofatpanoh (Abdullahon)ning Muhammad Nazarbiy Dodxoh, elchiligi Yuzasidan Hind podshosiga yozgan maktubi

Quvonchlik davrimizning saodat va iqboliga zebu ziynat muqarrar bo'lsin! Shod-xurram ayyomimiz Yuksalish va shonu shavkatga tuyassar bo'lsin!

Adolat va saodat bo'stoni, hashamat va baxtiyorlik gulshani, shohlik nurlarining matla'i, shahanshoxlik falakining Yulduzi, saxovat va layoqat jam'inining xulosasi, shon-shavkat sahifasining unvoni, osmon qadrlik Yulduz, iqboli balandlikning porlar gavhari, olamni yorituvchi ostob, adolat va haqiqat osmoni, karam va ra'iyatparvarlikning jahonni Yurituvchi to'lin oyi, birdamlik poyasini mustahkamlovchi, do'stlik darajasini balandlatuvchi, kuragoniy (ya'ni Temur) xonardonining namunasi, CHingizzon oilasining zubdasi (ya'ni Akbarshoh) tangrining iltifotlari shu'lasidan, Ollohung xayru saxovat gulidan, xudoning yaratuvchilik karomati nurlaridan baxramand bo'lsin! Ulug'lik va zafar osmoniniig yorug' Yulduziga saodat sharafi bilan jahongirlik yo'ldosh bo'lsin!

Kalom oshnolik va vafodorlikka sabab bo'lувчи muhabbat asos marosimlarni ado qilgandan so'ng haqqoniy, olivjanob fikrimiz o'z mehr jilosini namoyon qiladiki, muattar islik havoning mushk-anbar taratishdan olam jannat rashk qiladigan holda bo'lgan bu qutlug' oqibat kunlarda muvofiqlikni asos qilib olgan haqshunos xotir (imiz) "Bu Olloh fazli, xoxlagan (kishim) ga beraman va tangri buyuk fazllar egasi" (oyati) ning mufassal (va) haqqoniy mazmuni bilan xudoning buyuk "vadi'a" si¹ bo'lmish Xalofatning muhim ishlari tartibidan xotirjam bo'ldi. Ollohunga shukur va (undan) minnatdormizki, (ushbu) oliv qalamravning aholisi va xalqi oldida orom va osoyish eshigi kushoyish bo'ldi.

Bahor yomg'iri kabi behisob va osmondagи Yulduzlardan ham ortiq Turon mulkinning to'qson

¹ Vadia - saqlash uchun berilgan buyum. Omonat.

ikki o'zbekiya firqasining bir kdncha ming el va usuli ilohiy fazlning fayzi bilan itoat va farmonbadorlik xalqasini jon quloqlariga osib (bizga) tamoman tobe' bo'ldilar va bo'yundilar; karam (imiz) ehsonidan xursand va mammundirlar.

Ijrosi vojib farmonga muvofiq mamlakat chekkalarida istiqomat qilib, qadim zamonlardan tortib shiorlari jangu jadal va (xulq) atvorlari qatl-om bo'lgan qozoq va qoraqalpoq va qirg'iz firqlari doimo nifoq bilan to'la kofir qalmoqlarga qarshi g'azo qilib shon-shavkati behisob (bo'lgan) makonga ko'plab asir va son-sanoqsiz mollar Yuborib turibdilar. Zafar nisbatlik uzangiga payvasta bo'lgan aholi va (saltanat) xizmatkorlarining jamiyati hamshu darajadaki, pok shariatning mustahkam qonuni va baxtiyor millatning buyuk rasmi a'yonlar va fuqarolar o'rtasida ravshan va mustahkamdir.

Shu xil martabaga yetishilgandan so'ng "YAxshilik qil, tangri senga yaxshilik qilgani kabi" ulug' (oyat) ning mavridi bilan ulug' xohishimizning barcha himmati" (unga) nima munosib bo'lsa Yuzaga keltir" - ya'ni elchilik va elchiliklarni hamda kamol aql egasi (bo'lgan) fozil vositachilarni Yuborish bilan er kurrasining har bir eriga va moviy osmon ostida yashovchining har biriga hamda (barcha) xaloyiq holi va ahvoliga sarf qilindi; ayniqsa, nomdorlik bisotining u tanlagan (janob)ning shod-hurramga to'lib toshgan xuzuriga (elchilar Yuborish yo'lida sarf qilindi). O'tgan kunlar va o'tmish oy va yillardan boshlab hurmatlik ulug' ajdodlarimiz - tangri ular yotgan joylarni to qiyomatgacha dorussalom qilsin, - o'rtasida bu maq.tovga munosib odatga rioya qilingan. Agar ularning aksariyati va ko'pchiligi makon va manzil (nuqtai nazari)dan bir-biridan uzoq bo'lib, o'rtada haqiqiy jismoniy ajralish (bo'lgan) bo'lsa hamki, ammo do'stlik va hamjihatlik e'tibori bilan elchi va nomalar Yuborishlikni ruhoniy uchrashuvlar noibliginish noibi deb o'ylab, (o'zaro elchi va nomalar Yuborishni) davom yetdirganlar.

So'z shulki, ruhiy yozishmalarda manzil uzokujgi bo'lmaydi, buni eng muhim deb bilamiz.

Saodatning boshi, qutli oqibat (ul oliv janobning) oliv maqom shohrnat taxt va qudrat masnadiga o'ltirganligi xabaridan arjumand bisoti va tamom shodu xurramlik Yuz berdi, chunki qanday davlat bundan yaxshiroq va qanaqa ham ehson bundan shirinroq bo'lsin!

Tangri marhamatining yordami va marhum ulug'lar pok ruxdarining madadi bilan zebu ziynat va sha'n-shavkat bilan umr kechirganlarning behisob sharafi (ularning) noiblaridan holi bo'lmasin, gullab-yashnayversin, uning mevasi merosxo'r bo'lsin.

Va yana, olam bezagi (podshoh) fikrida maxfiy va pinhon qolmasinkim, yaramas shia firqasi o'zlarining yomon xulq atvorlari asosida nomaqbul shior paydo qilib kundan kun yolg'oni orttirish va safsababzlikni kuchaytirishga intilmokdalar. Shuningdek, haqiqat ham qattiq azob berib og'riydigan kasalga sababchi bo'lgan shialar haramayn-sharafayn (Makka va Madina) - tangri ularning sharafini ziyoda qilsin (bu tabarruk joylarni aylanish niyati har dilda va bu oliv ostona yerlar tuprog'ini o'pish umid-orzusi har bir fikrdadir) yo'lida "tariqi mustaqim" va "vojibi ta'zim"ga g'ov, to'siq bo'lib, Ka'ba muridlari va Makka muxlislarini tan olmay va haqorat qilib ularni tahqir qilmokdalar.

"Unga Yumshoq so'z qilinglar" (degan) sharaflı oyatning taqozosi bilan jannatmakon, maqtovga sazovor xoqonlarning qoidasi (bo'lmish) tariqi muloyim va nasihat yo'lini o'zimizga birinchi darajali yo'l tutib, do'stona maktubni topshiruvchi, amirlarning tayanchi, shijoat dastgoh, dushmanlikni bitiruvchi, jang maydonida firibgar lashkarlarni enguvchi, g'azovot g'olibi, shohona marhamatlarni parvarish qiluvchi, ziyraklikda ogoh, rizojo'ylik yo'lidan qilcha ham tashqariga chiqarmay kuchi jangovar tabiatli bo'lismiga qaramay, o'tkir fikr va hozirjavoblik bilan ziynatlangan, avlod-ajdodlaridan tortib qudratli shoxlarga manzuri nazar bo'lib kelgan Muhammad Nazarbiy dodxohni - u ko'pincha zarur xizmatlar va podshoh-likning muhim ishlarini tartibga keltirishga tayin yetiladi - yo'ldan ozgan, adashgan ul toifaga nasihat qilish jihatidan Yuborgan edikki, borib ularning (bunday) xulq-atvorlarini yo'q qilishda sa'iylik ko'rsatgan. Mushorulilayh oliv ostonani olish bilan baxtiyor bo'lgandan so'ng ma'lum bo'ldiki, (shialar) islomga tobe'lik qilmaganlar. Binobarin, shoxlik ehsonidan parvarish topgan Xorazm viloyatining voliysiga, nihoyatda farmondor bo'lishlikni taqozo yetuvchi, o'z jonini saqlash shukronasining tuhfasi sifatida (oliv) ostonaning barcha bandalari bilan birlikda u qavm ustiga (bostirib borishga) amr qildikki, (ular) Mashhad, Astrolobod va Nishopurgacha borib, kyetma-kyet hujum va talon-taroj qilib, u tabiatan yomon xulqlar fig'oni (ko'kka) chiqarsin. Va (yana) bir tomondan, mang'itiya va turkman

jamoalariga buyurdikki, ular Marv hududidan borib, shialarning hayot tomirlarini qirqib tashlab, ko'plab asir va o'ljalar keltirsinlar. "Sizlarning qo'lingiz bilan tangri ularni o'ldirsin, azoblasin, ularni xorlasin va sizlarga ular ustidan g'alaba bersin" (degan oyatning) dalili bilan istaymizki, davlat va iqbol (hamda) daryodek oquvchi behisob zafar asarlik askarlar bilan Turon mulkini zafar nisbatlik uzangi ostiga olib (u tomonga) qarab Yuramiz. Ishbilarmon amirlar va ixlosmand oqsoqrllar shunday maslahat berib, arz qildilarki, ana shunday "kasiri g'animat"li g'azo Yurishi Yuzasidan ziyrak davlatxoxlardan birini din va millat masalasida (biz bilan) qadimdan buyon muvofiglik va hamjihatlikda bo'lган, (ul) oliv maqom va xalofat taxtiga munosibning shodlikka to'la huzurlariga Yuborib, ogohlilik berilsaki, porloq shariatni mustahkamlash va baxtiyor millatni kuchaytirish uchun barcha tog'dek basavlat mujohidlari va jangovar, muzaffar muborizlari bilan u tarafdan yo'ldan ozgan toifa ustiga otlansalar, toki shon-shuhrat konining har ikki gavqari (ya'ni Abdullaxon va Akbarshoh) o'zaro bir-birlariga yordam va madad berib u toifani oyog'idan qutlasalar. Va ularning diyorini (shunday) islomobod qilsalarki, (bu) yaxshi nom to olamning inqirozigacha jahon sahifasida qolsin va ziyorat qiluvchi va yo'lovchilar osoyishtalikda yo'l bosib o'tib, murod ka'basiga yetishsinlar.

Bu ma'ni ta'bi (mizga) ma'qul tushib, gap-so'z va (ba'zi bir) ishlar bo'yicha mazkur bandaga ishonch bor edi, uni shu maqsad Yuzasidan hamda osmondek baland taxtga baxtiyorlik bilan o'tirishlarini tabriklash uchun oqilona (ish) bo'lsin deb, shod-hurramga ziyoda bo'lган huzurlariga ravona qildik. Umid (imiz) qagiyki, osmondek (baland) taxt poyasiga yetib borib sharaflanish baxtiyorligidan so'ng podshohlikning turli ishlaridan xabardor bo'lisch uchun (uni) humoyun ko'rinish bilan sarafroz bo'lib, arz kdelgan (har bir) gapiga qulqoq solsalar va iimaiki arz qilsa, oliv quloklariga vositasiz eshitilsa. Va, shuningdek, o'z aziz xotiralarini u tomondan ham elchi va maktublar Yuborishga tavajjuh yetsalarki, (bu) do'stligimizning abadiyligiga sabab bo'lsin.

Hamisha baxtiyor kunlar bo'lsin, poki parvardigor haqi!

Abdullaxon O'zbekka birlikni kuchaytiruvchi maktub bntildi

(Abdullaxon), oliv martabalik va ulug' saxrvatlik, g'alaba va qudratga molik, Yuksaklik va shavkat egasi, qaxramonlik va sardorlik maydonining suvorisi, insof va adolat darajasining eng Yuqorisi, ulug' va oliv oilaning pokizasi, shon-shuhratlik va buyuk xonodonning tayanchi, ravshan ilohiy shu'lalar taraluvchi joy, ogoxlik nurlarining zuhr yetgan eri, shijoat va hashamat ustunlarini baland yetuvchi, botirlik va azamatlikka asos solgan, izzat va iqbol yerda (ya'ni Buxoroda) taxtda o'lтирувчи, qudratli va shavkatli saroyning ko'rkidirki, "yaratilish tabiatidan oliv himmatlarga ega va ulug' ne'matlar bilan fayz topgan baxtiyorlikka xos bo'lган".

Qit'a:

Abdullaxonning uzugi va tig'inining
qimmatini orttiruvchi
Tig'inining umid oynasidan zangini kyyetkazishdir.
Bo'z oti mardlik maydonida sherning ishini qiladi,
Uning qora (tusli) oti jang daryosida
timsoh maqsadlidir.

(Uning) "Davomli ravishda mustahkam uning muhabbat asoslari barqaror bo'lsin va yaxshi tartib asosida tashkil topgan uning davlati doimiy bo'lsin". (Abdullaxonning) iltifotli maktubida va ajoyib mazmunli xatida do'stona va xos aloqalar, muhabbat va yakdillik vositasi, ya'ni yaxshi xabarlar va do'stlikka oid so'zlar yozilgan va bitilgandir. Yaqinlik nisbatini va sobiq muhabbatni kuchaytirish va mustahkamlash hamda samimiyoq sadoqat qoidalarini barpo qilish to'g'risida so'z Yuritilgan ekan, amalga oshdi; sof ko'ngildagi armug'on va dil ravshanlik samarasi barpo va zohir bo'ldi; yakjihatlik va birdamlik asosi mustahkamlandi hamda do'stlik va yakdillik asoslari tartib topdi.

Muqaddas olam nuri bilan va tangrini dilga jo qilish odatining alomatlari bilan naqshlangan munavvar ko'ngillarining oynasiga va kunduzdek ravshan xotiralariga maxfiy va pinhona bo'lmasinki, podshohlik taxtiga o'tirgandan to ikkinchi asrning boshlanishi bo'lган hozirga qadar abadiy (ya'ni tangri) qudratning madadi va samoviy quvvatning yordami bilan xalqchil xotiramizda

shunday jilva namoyish qildiki, sultanat va hokimiyat hamda qudratlilik va jahongirlikdan maqsad molu dunyo jamlash hamda nafsoniyat bahrasiga va jismoniy lazzatlarga berilib kyetish emas, balki cho'ponlik marosimlarini yoklash va posbonlik lavozimlariga qadam qo'yishdir. Shuning uchun (ham) tangri dargohidagi bu hojatmandlikning xatti-harakati va tutgan yo'li - do'stu dushman hamda xeshu begona bilan muloyim va mehribon hamda iltifotli va hamjihatda bo'lishdan boshqa narsa emasdир, xotirimiz hamisha barcha xaloyiq va jumlai jahonning yaxshi ahvolda va osuda holda bo'lismiga sarflanadi va qalbdagi orzumiz ana shu oliy maqsad va oqilona ishga qaratilgan.

Buyuk va oliy Haq shohid va tangrining kafilligi kifoyadirki, rub'i maskun (ya'ni er sharining to'rtdan biri - quruklik bo'lagi) o'lchovlarining va tog'u biyobonlarda sayr qiluvchi sayyohlarning katta mamlakat va olamning "chohardonagi" (yetti iqlimning to'rt iklimida joylashgan) deb ta'riflagan va uch tomondan Daryoyi muhitga (ya'ni okeanga) tutashgan Hindiston mamlakatlarining zabit va fatx qilinishi xohish va havasning taqozosi bilan bo'lmaydi, aksincha, himmatimizning maqsadi - jabrlanganlar rioyasini va mazlumlar himoyasini xotirada tutishdan boshqa narsa emas. Shu sababdan Humoyun himmatimiz qay tomonga boqsa davlat va iqbolistiqbol(imiz) tomon azm qildi hamda muborak azimatimiz qaysi tomonga qaratilmasin, fathu zafar shoshilinch ravishda baxt-tole ko'rsatdi.

Ko'ngillik odatimiz va rozilik tabiatimiz Tangrining barcha bandalariga nisbatan shunday ekan, ulug' tangri dargohidan madad topguchilarining buyugi, u sultanat dastgoqqa (ham shu zaylda bo'ladi). Shuning bilan birga, tomonlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro muhabbat qoidalari haqqoniy va kuchlidir; qadimiy yaqinliklar (nasabiy) bog'lanish¹ bilan qo'shilib kyetgandir. YAxshilikni bilgan donolarga ma'lumki, muhabbat va do'stlikni tiklash ishida shu xil munosabatlarning birigina kifoya. Bas (bu) barcha xohishlar ham bo'lgach nega ham haq (va) haqiqat ravishlik nazar do'stlik va hamjihatlikdan bo'lak narsani manzur tutsin. Ma'lumki, bu muvofiqlik va do'stlikning barakali samarasи olam va olamdagи (barcha) kishilar ahvolini hamda jahon va jahonda yashovchilar holining tartib-intizomiga vosita bo'ladi. Elchilar va nomalar Yuborishga to'sqinlik qilgani xususidagi imo-ishorat esa qarchand uzoqni ko'ruchchi aql nazarida bu xususda so'zlamaslik so'zlashdan ko'ra yaxshiroqdир. Ammo, u to'sqinlikdan ko'z Yumushlikni bu o'rinda so'zni cho'zish singari nomuvofiq deb bilib, din akobirlari ulug'larining naqli bo'lmish ushbu qita bilan kifoyalanildi.

Qit'a:

"Tangrini - "sohibi farzand", deb ataganlar".

"Payg'ambarni - sehrgar deb aytganlar".

"Tangri va payg'ambarning xar ikkisi ham
(malomatdan) najot topmagach".

"Bas, qanday qilib men najot topaman?"

Tangriga shukurki, ijod va barpo yetilgan subh gulshanining, ya'ni sultanat egasi bo'lishning boshlanishidan va saodatlik sultanat yorug' nuri chiqishining ibtidosidan boshlab, nazarimizning xohishi doimo dinu millatning shavkatni yo'lida hamda haqiqat va ishonchni mustaxkamlash borasida bo'lib, mulku dinning yetazakligi tufayli Humoyun sultanatimiz darajasining Yuksakligi va kundan-kun taraqqiy topayotgan davlatimiz bayroklarining balandligi bizning kamol dindorligimizning katiy dalili va yorkin hujjatidir. Tangri barchani o'z irodasi bilan mustahkamlik va sobitkadam qilsin! Oliy taxt sadrnishinlari bo'lmish adolatli sultonlarning tamom himmatlari pok hazratning (tangrining) ajoyib omonati (bo'lmish) butun xalq va barcha xaloyiqning eminu omonlik beshigsda bo'lishi yo'lida ekan, ular ilohiy ibodat lavozimida va turmush yaxshilanishiga xayrixoxlik ko'rsatishda astoydil harakat qildilar. Shunga binoan, bir qancha oliy mikdor sultonlar va qudratli hokimlarga tegishli bo'lgan bu keng va ulkan mamlakatlarda shu muddat ichida tartib va intizom o'rnatishda sa'iylik qilindi. Tangri dargohidagi bu hojatmand (o'z) holiga shomil bo'lgan Xudoning inoyati bilan mamlakatlarning barcha ishlaridan, ya'ni bo'ysundirish ishlaridan batamom bo'shadi. Islom nurlari tulu ztgan vaqgdan to shu kunlargacha jahongir sultonlar otlarining tuyokdari va farmonra Yu xoqonlar qilichlarining yarqirashi bu makon va bu joylarga yaqinlasha olmagan. (Bu joylar) ahli imonlarga maskan va vatan bo'ldi; ahli qufr ya'ni hindlar va islomdan

¹ Bu yerda har ikki podshohning temuriylar xonadoniga mansub ekanligi nazarda tutiladi.

bebahralarning kanisa va ma'badlari ishonch arboblarning toat masqidlariga va ibodatxonalariga aylantirildi. Pok va oliv Tangridan minnatdormizki, dil nimaki xohlagan bo'lsa, bu intizomga va tuzalishga Yuz tutdi hamda muddaomizga muvofiq tartib-intizomga tushdi va saranjom topdi. Hindi askarlarning barcha sardorlari hamda bo'yin tovlaganlari va boshqalar itoat xalqasini e'tiqod quloklariga ilib g'alaba bilan shuhrat topgan askarlarimiz safiga kirdilar va (shu bilan) turli xalq guruxlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish va tartibga solish amalgalashdi. Biz ham "yaxshilik qil, tangri senga yaxshilik qilgani kabi" degan (oyat) ga sodiq bo'lib, barcha tavajjuhumizni mehribonlik qoidalarini kuchaytirishga va adolat asosini ta'sis yetish hamda g'amxo'rlik nurlarini tarqatishga sarf yetib, karam va ehson buluti tomchilaridan hamda fazlu iltifot yomg'iri qatralaridan omonlik bog'iga va xalqpar umidiga tozalik va ravnaq bag'ishladik.

Va lutifik xotirimiz himmatining oldiga qo'yan maqsadi shu ediki, bu muxim ishlardan butkul bo'shagach, Tangrining kuzatiigi va to'g'ri yo'l ko'rsatishi bilan, Daryoyi Sho'r Kambej qo'ltig'i orollariga kirib olib fitna qo'zg'atishga bosh ko'targan va xaramayn-sharafayn (ya'ni Makka va Madina) - (tangri ularnish sharafini ziyoda qilsin) ni ziyorat qiluvchilarga jabr qo'lini cho'zib, barchani ko'plab o'ldirib, ziyoratchi va tujoratchilar yo'lida g'ov bo'lib turgan kofir faranglar ya'ni portugallarga (qarshi) Tangrining madadi bilan otlanib bu yo'lni horu xaslardan pok qilinsa.

Lekin ma'lum bo'lmokdaki, Iroq amirlarining ba'zilari o'z voliylariga nisbatan beixloslik maqomida bo'lib, ularning oliv martabalarga ko'garilishlariga sabab bo'lgan yaxshi aqidani ko'ldan berib, ba'zi beadabliklar qilganlar. Haqiqatchi xotiramizdan (shu ham) o'tdiki, ravshan peshonasidan saodat nuri va ikbol toleining zoichasidan safar yo'li ko'rinish turgan nomdor va baxtiyor farzandlarimizdan birini u tomonga tayin qildik. Toki ularga yordam ko'rsatib xotirjam bo'lmaguncha boshqa biror ishga karamaymiz.

Ayni vaqtida, Rum (ya'ni Turkiya) sultonni ota-bobolarning (mavjud) axdu itgifoklarini "go'yo bo'lmagan", deb o'ylab, Iroq voliysining zaif ahvoliga nazar tashlab necha bor qo'shin Yuborgan. (Eronlilar) sunnat va jamoatning bosh yo'lidan toygan bo'lishlaridan qatiy nazar payg'ambar nasabligimiz vajhidan xolis payg'ambar xonadoni, ya'ni Eron tomon Yurish kilib yordam ko'rsatamiz, tokim bu (o'tmishdagi) ota-bobolarimizning o'zaro tanish-bilishligiga manzur bo'lsin.

Alalxusus, (aynan) shu vaqtida ma'lum bo'ldiki, Eron hukmdori yordam va madad so'rab, Aliquli Sulton Hamadon o'g'lini tuhfa va hadyalar bilan (huzurimizga) jo'natibdi. Niyatimizning oliv himmatiga vojib va lozimdirki, Iroq va Xuroson tomonga qdrab Yurishimiz lozim. Xotirimizga (yana) shunday fikr ham keldiki, u saltanat egasiga (ya'ni Abdullohga) nisbatan qadimiy vaqglardan beri do'stona aloqa va yaqii munosabat mavjud ekan va sayidlik panohi va taqvodor Mir Quraysh orqali muhabbat uslub maktubning Yuborilishi bilan do'stlik odati va birlik qoidasi yangidan mustaxkamlangan ekan, Xuroson xududi iqbol chodirining hiymagohi bo'lganda hamda oliv va ulug' chodir o'rnatilgan vaqqda u saltanatpanoh ham o'z viloyatlaridan Yurib, bu hududga lozim (va) maqbul buyuradilar bu o'lka buyuk va aliy ikki daryo (ya'ni Akbar va Abdullaxon qo'shnlari) ning qo'shilgan (ya'ni uchrashgan) hamda porloq va ravshan ikki baxt Yulduzining chiqqan joyi bo'lsin (va) elchiYu maYuublar vositaligisiz do'stlik va yakdillik asoslari yanada mustahkamlansin. Akobirlar ko'ngil xazinasidan yashiringan ba'zi dilovuz so'zlar va haqiqatomiz sirlar hamda to'la fayz beruvchining (ya'ni Tangrining) in'om-ehsoni bilan iste'dodga yarasha qo'lga kiritilgan xudojo'ylik va haqparastlik sharxi do'stlik majlisida zikr qilinadi va ul shavkat egasining muattar xotiralarida porlagan nafis ilohiy haqiqat hamda oliyanob ogoxlik ham (o'shanda) anglashiladi. Xayotdan xulosa va baxtiyorlikning zubdasi - insoniy qiyofadagi suhbat va ruhiy mujassamlikdagi do'stlikdir. (Shunday ekan), tangrining ikki mumtoz qilganlari va buyuk dargoxdagisi ikki nazarkarda o'rtasida, bu ma'ni (ya'ni uchrashuv) haqiqatga aylansa, bu shubhasiz, fayzning va umum fazilatning boisi bo'ladi.

Tangrining inoyati bilan bu orzular ro'yobga chiqqan zamonda Ollohgamanzur bo'lganlar va tangri shod yetganlarning ximmati nom chikdrish va xalqlar ustidan hokimiyat o'rnatish bo'lmay, balki tangri rizoligini holis qilish bo'ladi. Shunga asosan, haq ko'nglimizda o'rashgan do'sgaik haqidagi (fikrlar) navqirondir. Umid shulki, ul janobning orzu va maqsadi ham shu bo'lsaki, qaysi bir tomonda hakjo'ylik va xaqtalablik ortiq bo'lsa, o'zga tomon uning xotir rizoligini lozim deb bilib, kamoli yakjixatlik maqomida bo'lib, uning to'g'ri yo'lidan chiqmasa.

Birdamlik va ittifoq(imiz)ning nisbati olam xalqlariga ma'lum va oshkor bo'lgan shu kunlarda

Iraq va Xuroson hokimiga yordam va madad berish Yuzasidan nimaiki bizning va sizning to'g'ri mushohadamizda bo'lsa, u pinhonaliqdan zuhr olamiga chiqmog'i lozim.

Shohrux Mirzo farzandining masalasi xususida¹ muhabbat bilan uzr-ma'zur yozilgan ekan, insofni ixtiyor qilgan xotiramizga ma'qul tushdi. Haqiqatan (ham) nomi zikr qilingan (Shohrux Mirzo) yoshligi va o'zboshimChaligi orqasida kamakllilik va noto'g'ri mulohaza yo'lidan borishi bir qancha nomunosisib ishlarning kelib chiqishiga asos bo'ldi. Ularning (ya'ni qilmishlarining) har biri uning ishi shu darajaga borib yetishini talab yetdi: birinchidan, Shoxrux Mirzo kaltabinlar ig'vosi bilan bizga itoat qilish lozimini va bo'y sunish marosimini tamoman mensimay qo'ydi; ikkinchidan, biz va u oliv martabalik janobning o'rtamizdagi mayjud bo'lgan mustahkam do'stlik va yaqinlikka nazar qilmay, o'z xoli va martabasi Yuzasidan nisbat berilishi mumkin bo'lmasa ham u ulug' dastgohga ya'ni Sizga beadabona qarashi turdi; uchinchidan, zimmasiga qaror diniy va dunyoviy vazifalar qo'ya oladigan buzruk vor bobosiga Mirzo Sulaymonga nisbatan ana shunday yo'l tutdi (qarshi kurashdi). Unga nisbatan sodir bo'lgan har bir tanbeh ilohiy qismat hissini va tangri ilhomining farmoyishidir. Hozirda, Shoxrux Mirzo g'aflat uyqusidan bedor va mastlik g'ururidan xushyor bo'lib, marhamatimizning barqaror tayanchiga iltijo qildi va qo'l uzatgan ekan, uning holiga karam va lutfni imtiyoz deb bilishdan boshqa amr xotirimizga kelmadi. U buyuk dastgohning do'stlik va yaqinlik marosimlaridan ham umid shulki, uning xato qilmishlariga ko'z Yumib qarasalar.

Muhabbat asoslarini mustahkamlash va do'stlik qoidshshirini kuchaytirish jihatidan ifoda panoh va hikmatlik, yaqin xayrixoh kishilarning sarasi, ishbilarmon kishilarning tayanchi Hakim Xumomki, rostgo'y muxlis, to'g'ri muomilalik murid va mulozimlik qilgandan berli yaqin mulozim bo'lgan (va) uning uzoqlashishini hech vajxdan ma'qul ko'rмаган edik, elchilik rasmi bilan (huzuringizga) Yubordik. Bizning mulozi-matimizda unga berilgan nisbat haqiqat bo'lgani uchun u muddaolarni o'zgalarning vositasisiz arz joyiga yyetkazadi. Agar janoblarining sharaflı majlislarida ham bu uslubga rioya qilinsa, o'rtamizdagi so'zlashuv go'yo vositasiz bo'lgandek bo'lardi. Shafqatpanoh jannat dastgoh Iskandarxonning - Tangri qabrini (hamisha) munavvar yetsin - voqeasini so'rash jihatidan sayyidlik panohi, naqobat nasab, bu mamlakat ulug' sayyidlarining ulug'laridan, ruhoniylar ruhoniysi Mir Sadrjahonni tayin qilgan edik (lekin) ba'zi xayrlik ishlar sababli kechikib qolgan edi, shu vaqtida nomi zikr qilingan hikmatpanoh hamroxligida Yubordik. Tuhfa va hadya namunalarini esa alox.ida tushuntirishlar bilan xos kishilarimiz ulug'i Muhammad Ali orqali jo'natdik. "Bir-biringizga hadyalar Yuboring, (tokim) bir-biringizga do'st bo'ling" (degan) porloq (hadiisning) taqozosi bilan ish qilib, doimo o'zaro bir-biriga elchi Yuborish va tuhfalar hadya qilish tartibi yo'lga quyilmog'i lozim.

Larizod kabutarlarning Farg'onadan talab qilinishi va ularning Yuborilishi hamda (qushlar) ishqibobi Jayyibning kelishi sababli qanot sohiblari (kabutarlar) quvonch va sevinchga kelib, yakjihatlik va do'stlikning xushbo'y hidini iskatdi.

Agar bu parrandalarning parvoziga tavajjuh birinchi nazarda o'yin va tamoshoga bo'lgan tavajjuhdan ortiq bo'lib ko'rinsama hamki, lekin ikkinchi nazarda, kabutarlarning charxi va o'yini "arbobi vajd"larning (ya'ni xudoga nisbatan ishq sohiblarining) shavqqa bo'lgan nisbati va zavqqa bo'lgan munosabatidan darak beradi hamda yaratuvchiga tavvajjuh qilishning sababi bo'ladi. Hazrati Vojib taolo ko'ngil sirlaridan ogoh emasmikinkim, yaratuvchi jamoliga boqishda goho shu ish misolidagi suriy mashg'ulotlar pardadan ortiq bo'laolmaydi va haqandish xotirimiz tanho va ko'rinib turgan par bilangina kifoyalanmaydi, albatga.

Umid shuki, muhabbatning mo''tabar sahifalari va do'stlikning shonli elchilarini Yuborish bilan doimo ixlos silsilasini uyg'otgaylar va ixtisos (ya'ni xos, samimiyy munosabat) asosini ta'sis yetgaylar.

She'r:

Noma "ixtisos" so'zida bo'ldi tamom,

Vassalomu valikrom.

¹ Bu yerda Buxoro qo'shinlari tomonidan asir olingan Muhammad Zamoning vafoti haqida so'z boradi.

**Haqiqatni izlovchi jahondor, tog'dek savlatlik, adolatparvar, ilohiy soya osmonining
yulduzi, shahanshoxlik**
konining gavhari Jaloliddin Muhammad Akbarshoh
G'oziyning Turon mamlakatining sipohdori Abdullaxon
O'zbekka xitobnomasi

Qudsiy asos (muqaddas) shukr yaratuvchigaki, u o'z yaratuvchilik qudratining kuchi bilan bu xilma-xil olamni o'zining suvari ilmiyyasidan¹ iborat bo'l mish bir qancha voqe-a-hodisalar bilan birgalikda qorong'ulik maxfiyxonasidan yorug'lik olamiga keltirdi hamda kishilar toifalarini goh payg'ambarlarning va payg'ambarlar oliysi Rasulning - ularning hammalariga tangrining salavoti va salomi bo'lsin - pok zotlaridan bo'l mish ma'naviy rahbarlar hukmi ostida irodiy birlikka jipslab, ularga intizom va hamjihatlik bag'ishladi va goho esa ulug'lik borgohining ustunlari bo'l mish dunyoviy taxt bezovchilarining qudratli hamlasi bilan ularga tartib berib, kuch bilan amalga oshgan birlik orqali bu ko'rinish turgan olamning qonun-qoidasiga oroyish berdi.

Maqsadning katta yo'lidan boruvchi karvonboshilar (ya'ni payg'ambarlar) ruhiga olam-olam hamdi sanolar bo'lsinkim, ular bu ma'nini tanlagan xudojo'ylarni va bu borliq olamda yashovchi bandalarni gumrohlik changalidan va ixtilof biyobonidan ihtido va hamjihatlik dorulmulkiga olib kirib, maqgovga arziydigan muvaffaqiyat va oqibati baxtiyorlik bilan boqiy xilvatxona (ya'ni jannat) tomon shoshildilar.

Olam-olam ilohiy ko'maklar va samoviy yordamlar faqat zamon axvolini Fisku fujur g'avg'osidan va baxtsiz xodisalar falokatidan saqlaydigan. Uzlarining hamma ximmatlarini ittifokda bo'lган barcha xalqlarning eminu omonligi yo'liga qaratib. xarobalarni tuzatish bilan olam obodligi uchun intilayotgan davr urug'lari va buyuklariga xosdir.

Va zamona uchun saodatlik va ko'ngil uchun shodlikdan iborat bo'lган sevinchga to'liq va xursandchilikka shomil vaqtida dilni oluvchi, gullab-yashnagan Kobilda hamjihatlik nigoristonining namunasi bo'l mish nafis va musaffo lavhani (muktubni) ko'rish hamda do'stona va tanlangan debochani o'qishlik bilan dilxushlik va xurramlik paydo bo'ldi.

Samimiy do'stlikning toza hidir hamda ochiq ko'ngillik va dilxoqlikning muattar bo'yи yaratilgan bog'lar gulzoridan (ya'ni muktubdan) hamda ma'ni va mazmunlar rayhonidan esib, u fayzlik hushbo'y yangi ruh bilan tozalandi va jannatdek gullagan ko'ngil beandoza ravshanlik topdi. Muhabbat va qadimiy do'stlik bog'lari gullab-yashnab kyetdi hamda samimiylilik va hamjihatlik asosi mustahkamlandi.

Bu maqtovga sazovor xush odat (ya'ni o'zaro maktublar Yuborish) aslida ruhoni uchrashuv va so'zlashuvdan iborat bo'lib, faqat ugina mushtoq dillar shodligini orttira oladi va sof ko'ngil sevinching ziynati bo'la oladi. Bu xush odat Yuzma-Yuz o'tirib qilingan majlislar va ochiq-oshkora suhbatlarning mislsiz badali hisoblanishi mumkin.

Sulh asosini mustahkamlash va hamjihatlik chashmasini tozalash yo'lida har ikki tomon ahamiyat bersin deb, xushbo'y homa bilan yozilgan va "Hindiyo'h o'rtamizda bo'lsin" (degan) so'zlar "ma'qul nazarimizda jilva qiladi. Ma'lumki, (paygambarlar) bu mavjud va fasad olamida muhabbat va hamjihatlikka taalluq bo'lмагan narsaning paydo bo'lishini maqsadga muvofig deb ko'rsatmadilarkim, koinot silsilasining intizomi ana shunga (hamjihatlikka) bog'liq va aloqadordir. Va xar qanchonki, bu ma'ni qudratlik borgoh ustunlari bo'l mish sultonlar tabaqasi davrida zohir bo'lsa, (bu holda) hamma vaqt molu mulk barakali, samarali va yaxshi natijali bo'ladi hamda ming-minglab aqoli va (turli) sinfdagi (inson)lar sihat-salomatlik beshigida orom topadilar.

Sulx marosimlarini izhor yetishda va do'stlik lavozimlarini amalga oshirishda bizlarga peshqadam bo'lmoqlik kerakkim, o'tgan hokimlarning ko'pchiligiga qarama-qarshi o'laroq, barcha haq talab himmatimiz subhi saodatning ochilgan vaqtidan boshlab doimo hamma tabaqalar bilan yaxshi munosabat va samimiylilik aloqada bo'lish yo'liga qaratilsin. Va har qancha bu voqiyning (ya'ni

¹ Suvari ilmiyya - tasavvufga oid termin bo'lib, "borliq olam", "barcha mavjudot" demakdir.

do'stlikning) shabbodasi (ya'ni tashabbuschisi) u ulug' zot bo'lsalar, u vaqtda bu xil munosabatlarni saklash va bu zayldagi aloqalarni himoya qilishlik bizning himmat zimmamizga yanada ko'proq lozimdir. Binobarin, shu kunlari Eron hokimi kddimiyl tanish-bilishlikni va sobiq oshnolikni nazarda tutib, YOdgor Sulton Rumluni Yuborib yordam berishni iltimos qilgan ekan, (bu iltimos) qabul qilinmadni. Va yana, Shohrux Mirzo sovuq iqlim viloyatlaridan birida -Kobilda yoki Kashmir yo Savod Bujir va yoxud Tiroxda jogirga ega bo'lish orzusini qilgan edi, yaqin qo'shnichilik mulohazasini qilib, uning iltimosi ijobat olinmadi, unga Malva viloyatida jogir berdik.

Shuningdek, Qandahor mirzalarini oliy dargohga chaqirib, qadimdan imperiya(miz)ga kirgan bu viloyatni (Qandahorni) qo'riklash bobiriy mirzalarga tayin qilindiki, mabodo Turon ko'shinlari bu yerlarni Eronga tegishli deb o'ylab, (unga) qasd qilmasinlar va u baland shavkatlikning davlati bilan imperiya(miz) o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar voqe' bo'lmasin.

Va yana, daydi badtabiatlardan biri "men Shohrux Mirzoning o'g'liman" degan da'vo bilan Badaxshon Ko'xistonida qo'zgolon ko'targan. Udiyorning zamindorlari ham unga ko'shilganlari holda harchand iltimosnomalar Yuborib, yordam so'ramasinlar, (ularga) iltifot qilmadik, tokim (u) badbaxtlik dashtida sargardon bo'lsin. Demak, so'z ustidan chiqish oliy himmat uchun zarurdir. Modomiki, "sulh" ning bosh harfi o'rtaga tashlangan ekai, ko'ngil shuni istaydiki, bu voqeaning shakli shunday ma'nida amal topsinki, ulug'larning ishi - tangrining qilmishi bo'lsin.

Haqiqatan ham, agar ko'ngilni zavklantiruvchi bu so'zlarning asl ma'nosi elchi va nomalar Yuborishliqda o'z ifodasini topsa, qanday yaxshiki, oliy joyni (ya'ni uchrashuvni) muqarrar qilmoq kerak, toki bu qarorgoxda hamjihatlik bazmi bezalsin va vositachisiz hamda o'zgalarsiz diniy va dunyoviy maqsadlar, shakliy va ma'naviy matlablar sof, beg'ubor so'zlarda, to'gri-haqiqiy talqinda ravshan bo'lsin.

Muborak qulog'imizga yetdiki, Panjob hududida bo'lishimiz barcha bo'htonchilarga "bu do'stlik asosiga qarama-qarshi bo'lган ish", deb aytishlariga bahona bo'lgan. Xudo ko'rsatmasinkim, ko'ngil xilvat saroyida bo'Imagan ish til peshgohida zuhr topsa, taqrir va tahrir qilingan narsa unga qarama-qarshi holda amalga oshsa. Bu diyorning havosi va sayru shikori (ko'ngilga) xush kelgan bo'lishiga qaramay, xotirimizga (shu narsa) keldiki, doril-hilofot Agra tomon Yursak, toki bexuda so'zlovchilarning tili bog'lansin.

Shoxrux Mirzoga nisbatan hamon xotirimizda g'ubor bor, deb yozilgan so'zlar (chuqur) mulohaza qilindi. Illohiy nurlarning matla'i va yaxshi va sof xulq-atvorlarning zuhr yetgan joyi bo'l mish baland martabali hokimlar va oliy shavkatlilar o'rtasida, hech qachon, hanuzgacha tenglik ruhi va do'stlik ta'bi qaror topmagach, boshqa guruuhlar orasida qanday ham qaror topsin. Alalxusus, qilmishiga sabab yoshlik va nodonlik bo'lgach, necha afv va kechirimning zilol suvi bilan Yuvilmasin. Va u (Shohrux Mirzo) o'zboshimChaligi orqasida bu oliy xonadonga (ya'ni Akbar davlatiga) nisbatan qilgan gunohi tufayli uning mukofoti

o'laroq g'urbat biyobonida sarsonu sargardon bo'ldi. Bu tomonga panoh tortib kelgan vaqtida uning peshonasida afsuslanish alomatlari borligi ko'rindi.

Va Shohrux Mirzo va Muhammad Hakim Mirza farzandlarining bu davlat ostonasida iltijo qilib kelishlari u oliy va shavkatlik pok xonadonga muhabbatning alomatidir, deb ishora qilinibdi. Bizga tegishlik, xos kishilarning bu tomonga kelishini qanday qilib shunday tasavvur qilasiz? Muhabbat va hamjihatlikning taqozosi bilan fatxlar tafsili homa vositasi bilan yozilgan ekan, biz buni u oliy zot yaxshi niyatlarining natijasi deb hisoblab, hushvaqt bo'ldik. Aziz farzand (Abdulmo'min) yoshligi tufayli o'ziga nomunosib birmuncha ishlar qilinib, bundan ko'ngil qolib, do'stlik yetagiga chang o'tirishi mumkin, deb va buning uchun uzr-ma'zur aytilib do'stlik qalami bilan bitilgan (va) Maalono Husayniy kel-tirgan gaplarga kelsak, elchi kelishidan oldin yo'lda suvga cho'kib kyetganidan maktub mazmuni ma'lum bo'Imagan edi. Haqiqatni tanlangan xotirimiz bu voqeani eshitishdan afsuslandi. Qadimiy do'stona munosabatlar hech qachon shu xilda haqiqiy do'stlik qonun-qoidalari bilan tartib topmagan va intizomga kirmagan ediki, mabodo biror bir narsa bo'lsa hamki sadoqat yetagiga malomat g'ubori o'tirmas. Farzandlar o'z haqiqiy otalariga, xususan u oliy dastgoxga erkalik qilgach, majozi padarga nisbatan bu ma'ni va Yuz bersa nima bo'libdi?! Farzandlik baxt shuki, ota rizosi farzandning himmat burchi bo'lib, buni asrashda u astoydil harakat qiladi.

Ishbilarmen elchilarning vositasi bilan bir qancha marta qaror topgan buyuk ahdnomalar va

sharaflik shartnomalar haqpisand xotiramizda hamon jilolangan va naqshlangandir. Musulmonlik rasmi va valine'matlар odatiga ko'ra, do'stlik va yakjihatlik ustunlarini abadiylashtirish uchun haqiqatni ixtiyor yetgan va himmat xislatlik ommaga uning (bu xildagi sa'i harakatlarning) o'ndan biri ham yetarlik kofiyidir. (Yuqorida) ba'zi Yurishlar Ahmad Ali Otaliqning kelishiga qadar kechiktiriladi, deb yozilgan so'zlar (ma'nosi) tushunildi. U jahongashtaga ruxsat berilish haqiqati sharif quloqlariga yetib borsa, (u shundayki) ruxsatdan so'ng, oliv zot va ogohdil bilan uchrashishi haqidagi zarur amr ham qilindi. Agar muqaddas joyga yetib borib uning (Ahmad Ali Otaliqning) rostgo'y tilidan sadoqat sirlari va muvofiqlik nazokatlari u oliv gavharga ma'lum bo'lsa, savob andish ko'ngillarida yashiringan har bir irodani pinhonlik ichidan (chiqarib) ishga soladilar va do'stlikni mustahkamlash lozimligi yo'lida qanday yordam xaqiqatni ixtiyor qilgan xotirlariga kelsa aytsinlarki, bu munosib intilishda nur porlaydi. Tangriga shukurlar (bo'lsin)ki, farmonravolik taxtiga o'ltingan vaqtadan to hozirga qadar - hozir ikkinchi asrning o'ninchi yili subhe iqbol ravnaqining avvali hamda buyuk bahor gullashining ilk davridir, - bu tangri dargoxdsan (iltifotlar) so'rovchining barcha haqiqat asos niyati shuki, o'z g'araz-maqсадalarini nazarda tutmay, doimo jahon xalqlarining tartib va intizomi yo'lida sa'i harakat qiladi. Va bu saodat partov fe'li-atvorning samarasidan bir qancha Yuqori darajalik hukmdorlar o'rgasida (ilgari) bo'lib olingan keng Hindiston mamlakati tasarrufimizga va iqtidorlik ixotamizga kirdi. Va yana, kungurali tog'lar va mustahkam qal'alar hamda mushkul joylarda kibr va kabrli yerdagi hokimiyatga itoat qilmay, dushmanchilik yo'lidan borgan inson tabaqalari yaxshi niyat(imiz)ning taqozosi bilan kyetma-kyet itoat yo'liga kirdilar hamda turli inson guruxlari uchun - ularning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi kay-fiyatda va muholiflik fe'l-atvorda bo'lishlariga qaramay, o'zaro aloqada bo'lish munosabatlari paydo bo'ldi.

Durust (niyat) va rostgo'ylik hamda yaxshi ishlarning natijalaridan bo'lmish diloviz so'zlar to shungacha yetib kelgan ekan, nochor Tangri ne'matlarning ba'zilari haqida - xudoga shukurlar va odil tangriga maqtovlar bo'lsin - bayon qilib, yakjihatlik bazmini shodlik bilan bezatiladi. Muqaddas olam nuri bilan jilolangan qo'ngil oynangizga mahfiy va yashirin qolmasinki, shu kunlari buyuk qo'shining Panjob mamlakati tomon kirib kelishi sodir bo'ldi. Garchi (bu Yurish) Yuzaki karalganda bu o'lkaning sayri va shikori bo'lsa, ammo (aslida) mustahkam va ustivorlikda teng va misli yo'q, orombaxsh va latofatda uzoqni ko'ruchchi donolarning zarbulmasali ham ma'qul tushishi mushkul bo'lgan va to shu zamongacha davr sultonlarining poyi qadami yetmagan, ko'ngil(ni) oluvchi Kashmir viloyatini bo'ysindirish ham mahfiy fikrda bor edi, (chunki) u mamlakat hokimlarining adolatsizligi qudsiy qulog'imizga yetgan edi. Samoviy madad bilan basavlat baxrdirlar va shon-shavkatlik g'oziyalar andak fursat ichida u mulkni tasarrufimiz ihotasiga kiritdilar.

Magar u arning hokimlari jangu jadalda kam-ko'stlik ko'rsatmagan bo'lsalar ham, haq asos niyatimiz faqat yaxshilikdan iborat bo'lganidan (g'alaba) xush chehra bilan namoyon bo'ldi va o'zimiz ham tangri (biz uchun) yangitdan ato qilgan qutlug' ravishli mamlakatga borib, parvardigorga shukrni bajo keltirdik.

Va yana (Panjob mamlakatiga kirib kelishdan maqsad) Kobilning sayru shikori va u xursandlik ishrat saroyning gashti edi. Kashmir tog'larining eng uzoq chekkalari va Tabatda sayr qilib va u ilohiy san'at nigoristonining nodir (manzara)larini ibratbin ko'zimiz bilan ko'rib, bir-biriga tutashgan tog'lar va turli-tuman baland-pastliklar hamda o'nqir-cho'nqirlar bilan chegaralangan Pakli va Damtur viloyatlarining yo'li orqali osmonni sayr qilish har bir fikr va balandlikni o'lchash xayoli bu yo'llardan o'tishlikni vahimali va mushkul deb biladi - qo'shinimiz dilga ma'qul tushgan Kobilga yetib keldi.

Haqparast xotirdagi mahfiy fikrlardan biri shuki, mamlakati ro'zi afzunning (ya'ni Hindiston) g'arbida Daryoyi Sho'r sohilida joylashgan va o'z qo'l ostidagilarga adolat yo'lini tutmagan Tata hokimiga hushyorlikni oshiruvchi birinchi nasihatlar qilinsa, toki u farmonbardorlikning asosisiy yo'liga rahnamo bo'lsin va agar baxtning madadsizligi natijasida shinavanda nasihatlarga quloq osmasa, u keng mamlakat va u farovon o'lka bo'lmish bu viloyatni adolatlik farmonbardorlarning biriga gopshirsin. Va akli raso va uzoqni ko'ruchchi hamda (nasihatlarga) quloq beruvchi bo'Imagach, nasihatomuz dostonni afsona deb o'ylab, o'zboshimChalik kayfiyati bilan ozginagina akldan ham ajraldi. Munosib lashkarni u o'lka tomon Yubordik va ixlosmand bahodirlar har

xususda tayyorgarlik va taraddudga ahamiyat berib, ikki yilga yaqin muddat ichida xoh daryolarda (bo'lmasin) va xoh sahrolarda (bo'lmasin) ayrim-ayrim jangu jadal qildilar. Haqiqatni ixtiyor yetgan barcha niyatimiz jahon ahlining farovonligiga qaratilgani uchun hamma yerda zafar va g'alaba e'tiqodli kelajagi bor ul guruhning (islom lashkarlarining) holiga munosib bo'ldi va "muomalani bilmaydigan va uzoqni ko'raolmaydiganlarning ishi hamisha barobardir", degan qadimiy qrnnun-qoidaga binoan u erning hokimi ustiga shikast tushdi. Va uning ta'bida saodatlik asosi bor ekan, omonlik istab va axdu paymon qilib davlat voliylari qaroriga kirdi va u ulkan mamlakatning hammasi hamda bu daryoning barcha qal'alarini meros mamlakatga qo'shildi. Va har qancha jangu jadal qilganiga qaramay xizmat(imiz) ga musharraf bo'lgach, uning peshonasida saodatmandlik alomatlarini yana ko'rib, zo'r (va og'ir) janglar bilan qo'lga kiritilgan u mulknii qaytadan unga iltifot qildik.

Savobandish ko'lgidda bor niyatlardan biri - Bujir va Tiroh atroflaridagi mustahkam tog'larda makon qurib, doimo Turon yo'lidagi karvonlarga tajovuz qilib turuvchi, qurtu qumursqlardan ham ko'p bo'lgan hayvonsurat va vahshiy tabiat afg'onlarning tanbeh va adabini berish edi, bu ish hamadolat taqozosi bilan munosib ravishda amalga oshirildi. (Ularning) ko'pchiligi itoat va bo'ysunish xalqasini xushyor quloklariga ildilar va dimog'larida pastkashlik va dahriylik qora niyati bo'lgan bu yo'l to'suvchi qaroqchilarning bir guruhi (bo'lsa) tog' xaybatlik fillar oyog'i ostida poymol bo'ldilar va ko'plari ilohiy qahr hukmining arqoni bilan asir olinib sotib Yuborildilar.

Va yana, haqiqatni o'z ichiga olgan maxfiy fikrlardan biri ahloqi buzuq balujlarni to'g'ri yo'lga solish edkki, ular doimo xavf tug'dirib va g'orat umidida bo'lib, hamda itoatdan chiqib, Eron sayoxatchilarining yo'lini to'sganlar va talon-torojni "tamg'o" atab, musulmonlarning ko'pchilagini oziq-ovqatsiz va sarmoyasiz qilganlar. Bu (ish) ham ko'ngilga hush keladigan tartibda naqshlandi.

Dil ma'qul ko'rib ko'ngil oynasida mahfiy bo'lgan har qanday ish zuxr peshgohida dil xohlagandan ham yaxshiroq jilvalandi. YAxshi niyatligimizning barakotidan iqbol tug'imizning Panjobda bo'lishiga qaramay, qirqming kishi bilan maqtanchoqlik damini urgan sulton Muzaffar Gujarotiy g'olib mujohidlarning sa'yiy harakati bilan qo'lga tushdi va u diyorning barcha sarkashlari va bo'yin tovlovchilari omonlik istab itoatkorlik xirojini o'z zimmalariga oldilar.

Va ajoyib voqealardan biri shulki, uni (sulton Muzaffar Gujarotiyni) xilofot ostonasiga keltirayotgan vaqgda u o'z-o'zini o'ldirdi. Rahm-shafqatni ixtiyor yetgan xotiramiz biror bir odamni o'ldirish va (yoki) tangri bunyod yetgan (biror) narsani yo'q qilishda atroflyetcha va chuqr mulohaza qiladi. Va shu (fikr) g'olib chiqqan ediki, agar (uni) nazar peshgohimizga keltirsalar u (albatga) salomat qoladi.

Va yana jang talab muborizlarning harakati bilan mashhur Sumnot Bichunagada va Ummon dengizining janubga tomon kyetgan sohillarida joylashgan Suratning boshqa viloyatlari tasarrufimizga kiradi.

Va yana ulkan Dekan viloyatining ulug'i bo'lgan Nizomul-mulkning birodari Burxonulmulk zamon hodisalaridan bu tomonga panoh tortib kelgan edi. U o'lkadagi haqqoniy ahvol haqiqatni eshituvchi qulog'imizga yetib kelgach, Burxonulmulkka zo'r iltifotlar ko'rsatilib, Dekanni bo'ysundirishni unga topshirgan edik. Isyon va ra'iyatga sitam yyetkazilayotganlik xatari kelgandan so'ng, Malva va Hondis viloyatlarining amirlari hukmi oliyga itoat qilib ul viloyat (Dekan) hokimligini Burxonulmulkka topshirib qaytib keldilar. (Burxo-nulmulk esa) kam hafsalali bo'lganidan kishilar kayfi tobini sinamay turib, mustaqillikka intildi. Ko'rnamatlik yo'liga kirishga oshiqish - o'z-o'zini yo'q qilishdan iborat bo'lganidan, andak vaqg ichida undan va farzandlaridan asar ham qolmadi va u diyorning boshliklari ul silsilaga mansub bo'lgan kishilardan birini (hokimiyatga) ko'rsatib, mag'rurlanib kyetdilar.

Iqbol Yulduzi, davlat va shon-shavkatning ravshan ko'zi (bo'l mish) saodatmand farzandimiz sulton Murod boshchi-ligidagi zafarasar askarimizga (Dekanga Yurishga) farmon berdik, ular tangrining qo'llab-quvvatlashi bilan o'zi bir boshqa Hindiston atalgan ul keng mamlakatning ko'p qismini tasarrufimiz ihotasiga kirdilar.

Va yana haqiqatmand jangchilarimiz sharqiy mamlakatlar chekkasidagi Daryoyi Sho'rga tutashgan keng Udiysa (Orissa) viloyatini bo'ysundirdilar va bir necha ming sipohlari omonlik topib, mulozimlar qatori xilofot ostonasiga keldilar.

Tangri ne'matlarini sanab o'tmoq uzun bir dostondir. Ul qudratli dargoh xotiralarining

xushnudligi uchun shu xil darajada (bayon qilish) ma'qul ko'rindi.

Mavlono Husayniy mulozimat (ya'ni elchilik xizmati) bilan baxtiyor bo'lganidan ko'p o'tmay sultanat ishlarini bezatuvchi mutasaddilarg'a ishorat qilindiki, ular (Mavlono Husayniyning Hindistonga kirishi uchun) tezda munosib ruxsat qilsinlar. Debochada ko'rsatildiki, shu vaqgda birmuncha baxti qarolar dilga ma'qul tutgan Kashmirda fitnaYu fasod boshlab, Tangri ato kdelgan davlatga ixtilof va nizo ko'rsatdilar. Iqbol qo'shinimiz esa barcha yaqin kishilar bilan birlikda ayshu ishrat uchun ovga kyetgan bo'lib, tangri qudratining yordam kuchi bilan ibratbin ko'zimiz ochildi va u g'alayon haqida xabar toyildi. (So'ng) shamol va yomg'irning haddan oshishiga qaramay, (tezlik bilan) yo'lga tushdik. G'olib goziylar mushkul yo'llardan o'tib, bu mulkga kirishlaridan avval zaruriyat orqasida bu nopok to'fonga tushib qolgan ba'zi saodatlik xaqiqatmandlar fursatni qulay bilib, ularning eng katta boshlig'ini boshini keltirdilar. Shavkatlik qo'shinimiz yaqinlashib kelgan (ham) ediki, bu bexazon bog'istonga yana o'tishga to'g'ri keldi va bu fayzbaxsh gulzaminda shakliy va ma'naviy lazzatlar olindi. (Shuning uchun) elchi Yuborishlik kechiktirildi. Xisravona tug'imiz (o'sha viloyatdan) qaytayotganda yo'lda Mavlono Husayniy voqeasining xabari keldiki, u qorin shishish kasali bilan o'ldi (deb). (Bu xabar) afsuslanishimizning ortishiga sabab bo'ldi. Binobarin, muhabbatni ortdiruvchi ba'zi so'zlarni buyuk avliyolar avlodni, sof zotlilar xulosasi, bu oliv xonadonning ulug'laridan bo'l mish Xo'ja Ashraf orqali aytib Yuborildi, toki munavvar ko'ngillarini barcha haqiqiy ahvoldan ogoh qilsin va ham elchi va nomalar vositasi bilan tahsil yetilgan va mustahkamlangan axdu paymon munosabatlari aniq bo'lsin. Muhabbat va birdamlik shon-shuxratining qudratidan umid shulki, quvonchni orttiruvchi xushxabarlar bilan ko'ngil bo'stoniga tozalik bag'ishlasinlar.

**Jannatmakon, abadiy oromgohdagi Hazrat Sayyid Abdulaziz Muhammad
Bahodirxonning shoh Avrangzebga Hind (iston) taxtiga o'tirishini qutlash yuzasidan yozgan
Maktubi**

(Avrangzeb) taxtga o'tirigan Xisrav, osmon kabi Yuksak saroyning quvonchi, falakning to'rtinchi chahor bolishida¹ taxt bezatuvchi xoqon, zamon va zaminning quvonchi, yaratilgan odam ko'rinishining odob gulshani, ixtiro va ijod o'lkasi chaqqon Yuruvchilarning javlongohi bo'lib, u jahongirlik zuhuridan baland taxtga o'tirishlikning yorug' nuri, xalqlarning umid silsilasining payvasta va olam ahvoli nizomining boshqa-ruvchisidir. U hamisha xayru ehsонning yorug' nuri, iltifot-panoh, hushyorlik va muhabbat dastgohi, do'stlik va hamjihatlik ogohi, farmonravonlik maydonida taxtda o'tiruvchi, jahon-kusholik bisotida oliy makon, mulku millat asosini mustahkamlovchi, davlat va din poydevorini quruvchi, iroda masalalarining tug'rosi, fathu zafar muqaddimasi, podshohohik tojiga fath baxsh yetuvchi, shaxanshoxlik kulohiga ziynat beruvchi, ko'ragoniy bayrog'ini o'rnatuvchi, sohibqironlik oyatlarini ijod yetuvchi, din va millat yorug' tongining (va) osiylik hamda dushmanlik jaholatini barbod yetishning dalili bo'lган Yuksaklik va hashamat, buyuklik va iltifot, iqbol va shon-shuhrat uchun tayin qilingan bo'lsin (va) adolat va haqiqat makoniga ravnaq beruvchi hamda birdamlik va ittifoqning ko'rki bo'lsin.

Munavvar ko'ngillarga maxfiy qolmasinkim, barqarorlik va yakdillik rasmi zakovatliklar nazdida do'stlik siynasining javxaridir, hamda qadrshunoslarning mamlakatlararo ma'naviy do'stligi va ahilli - vafo va ulug'lik uchun qiymat bebaho bir matodir. Bu narsa boqiy maslagi (ya'ni islom) dagi karam yo'lidan boruvchilarning (asosiy) yo'li hamda sof va toza sufa (ya'ni taxt) da o'tiruvchilar (qo'lidi) qurol bo'lib, buning asl ma'nosi tushunib yetish tangri ato qilgan marhamatlaridan bo'ladi.

Haqiqatan ham o'rtadagi samimiyy muhabbat va ma'naviy hamda ruhiy so'zlashuv bo'l mish maktub va xabarlar orqali qilingan ma'lumotlarga birdamlik va hamjihatlik binosinish asosini mustahkamlashdir, deb nom bersalar.

Shu kunlari eshitildiki, xiлофотning olamni yorituvchi oftobi shahriyorlikning sharafi burjidan ul musaffo sabolik komronlik chamanining iqbol peshonasini yarqiratgan va ilohiy inoyatning barq urgan nurlari saroparda (osmon gumbazi) orqasidan ko'ragoniy avlodining ayni u a'zosining ulug'

¹ Falakning to'rtinchi chahor bolishi iborasi "CHahordonak" terminining sinonimi sifatida ishlatipgan, ya'ni Hindiston demakdir.

jabhasiga tole' va yog'du sochgan. Yaratilishidan boshlab odamzodga qatiy tegishli bo'lган jismoniy tanosib va ruhiy yaqinlikka ko'ra, oshnolik marosimi va do'stlik qoidasini ulug'lash va yangilash orausi bundan avval (ham) xotirimizda bor edi. Shu paytda (bu) xushxabar haqidagi yangi ma'lumotlardan va ko'pdan ko'p (boshqa) xabarlardan quvonch ustiga quvonch qo'shibil, xursandchilik had-hisobsiz ortdi. Ana shu on xaloyikka in'om yetilganlarning himoyasi va xalqlar shodu hurramligining quroli bo'l mish baxtiyor taxtga o'tirishlikni tabriklash Yuzasidan bu mamlakatning ko'zga ko'ringan akobirlaridan bo'lган saodatpanoh, taqvodor, avliyolar sulolasidan, azizlar zotidan bo'lган, baxtiyor oqibatlik Xoja Ahmad va Husayniy Naqshbandiyi farovon sarvarlik huzurlariga Yubordik, toki jannatdek hashamatlik manzilga yetib borgach, nomi zikr qilingan Xoja barcha aytigan so'zlarni (birma-bir) bayon qilur. Umid shulki, doimo shu tartibda birdamlikning zo'r ifodasi bo'lган maktub va elchilar Yuborib turishda sa'y-harakat qilib, birlik va hamjihatlik qonun-qoidasiga muhabbat va do'stlik asosining in'ikosi bilan imtiyoz va maxsus munosabat baxt yetsalar. Haq subhoniy taolo ehsonlik ajdodlarning u pokizasining davlatini hamisha barqaror va mustahkam qilib, (o'zini) fitnaning makridan va firibgarlikning aldovidan asrasin va saqlasin, pok parvardigor haqi.

**Hindiston podshohi (Avrangzeb)ning bir qancha
jonivor Yuborilgani sababli Abdulazizxoniga
javobnomasi**

Do'stlik va sodiqlikning anbar bo'y sabosi hamda birlik va muvofiklik shamolining hush isi oshnolik eriga atr sepuvchi va ittifoqlik majlisining ajoyib naqshi bo'lganidan hamisha ayshu huzur asosli va doimo xursandchilik va zavq ayyomli, baland manzillik, Yuqori martabalik, oliy maqom, shavkat va hashamatpanoh, saltanat va azamat dastgoh, boylik va farovonlikni ziyoda yetuvchi, do'stlikni va muhabbatni uyg'o-tuvchi,adolat va shavkatlik xonadonining sarasi, shijoat va iqbol oilasining ayni munosibi, sadoqatnazар, izzatasos, ziyrakravish, adolatshunos (u janob) doim baxtning mushki anbar taratishidan va iqbolning atr bo'y tarqatishidan ajoyib eram (bog'i) va jannat misol bo'lsinlar!

(Ey) iqbol egasi! Bir qancha tezuchar obgoz lochinlari sovg'a rasmi bilan Yuborilgan ekan, ular ko'p ta'lim va tarbiyadan so'ng yaxshi uchadigan va yaxshi ravishlik bo'ddilar. Yaratganning xizmatlari va xaloyiqning muhim ishlaridan xotirjam bo'lingach, marhamatlik xotir uchun hayot belgilab qo'yan tuzokdan ozod bo'lish yo'lida shikor mashg'ulotidan boshqa (biror bir) durustroq bahona va sabab yo'qsir. Umid shukri, bu safar ham bir qancha yaxshi, tezuchar obg'oz lochinlaridan, ularning bitga urg'ochi jo'rasi bilan (...) Yuborilsa. (Bu) albatga, (o'zaro) aloqalarning kuchayishi va do'stlik asosining mustah-kamlanishiga sabab bo'lardi.

YUborilgan tuyaqush tanholik Yukini tortishdan bir lahma ham farog'atdan kechirib, jo'ralaridan yakkalangan holda g'ariblik qafasida tanho qilingandirlar. Agar bularning hammasiga yor va g'amguzorlaridan Yuborsalar (bu ish) muhabbatdan holi bo'lmas edi. Iqbol lochini tuzokda bo'lsin, murod ovi maqsadga yetsin.

*O'zR FA ShI qo'lyozmalar xazinasi.
Inv. № 289.*

Turon mulkinining sipohsolari Abdulloxon O'zbekning xonlaridan biriga

(U) haqiqatga muxlis va ul pokiza saodatlari xonadonning aql gavhari, davlat kishilarining xotirida (mustahkam) o'mashganidir va u janobning ajoyibligi muqaddas shahon-shoxlik¹ majlisida hamma vaqt zikr qilinmoqda. Qanday yaxshiki, (u) baland baxtli davlatmand saodat yyetakchiligidagi o'z zotini shunday (oliy) shoxlikka² shaklan va ma'nani manzur qilabsa. (U vaqtida) bu to'g'ri payvandlikning natijalari barakasidan diniy tilaklar va dunyoviy maqsadlar dil xoxlagandek amalga oshadi. (Shunga ko'ra) haqiqiy ahvollari haqida uzlusiz yozib, o'zlarini esga solib tursinlar.

E'tiqodni ixtiyor yetgan ishbilarmonlarning rasm-odati shuki, o'zlarini birdamlik asosining

¹ 1. Akbar davlati.

² 1. Akbar davlati.

posboni bo'lganlaridek, o'zlariga o'xshash va o'zları kabilarga shu xilda yo'l tutishni o'rganishga harakat qilsalar. Ravshanki, u saodatlari har ikki ish¹ Yuzasidan ham muvaffaqiyat qozonadi. Yaxshi andishali, xikmatgalab Hakim Xumom "Muqaddas mulki"ni ixtiyor yetgan ekan², jahon podshohining Humoyun ishorati shunday bo'ddiki, bu haq yo'lning fidoyi maktublar³ Yuborishni boshlab Yuboradi, (Shu ham lozimki), haqiqat ichida qanday orzular pinhon bo'lsa, uni ma'lum qilish bilan (bizni)xushvakt qildilar. Oqibati xayrli bo'lsin.

Abdulfayzning Mextar Ubaydullo elchilig jihatidan Hindiston podshohiga yozganlari

Tangri fayzning shdadi va pok parvardigor karam buduganing tomchilari bilan mehru muhabbzti va hamjixdg'yaik rayxrnlarining muyetgar isi hamda ulfat va do'stlikning xushbo'y sabosi, xalq toifalarining umid chamani, barcha inson sinfyaarining tozalikni ortgiruvchi murod gulshani ravnaq topsin?

Osmon komronlikning abadiy taxti va falak jahonbonlikning domi masnadi, shon-shavkatli va jahongirlikning bisoti, birlzmchi baxt-saodat, (xudoning) yaatif xodim-larining unsuri, hashamat egasi, oliy maqom, qutlug' anjom, saodatmand, sultanat xislatlik, Iskandar martabalik, Jamshid shavkatlik, Bahrom savlatlik, Yulduz sipoxdik,adolatdastgoq, sharofatogoh daalat burjining Yulduzi, hashamat durjining⁴ iqbol gavhari, shohlik oila sulolasining ulugi, shahanshoxlik xonadonining xulosasi, shijoatlik va botirlikning sara javharlari, shavkat va karam xazinasiking javharlari, dono shoxlar nihol bog'inining mevasi, ulug' martabalik kishvarkusho sultonlar umidining natijasi, shon-shuhratlik, oliy dargoh va oliy maqomning - tangri uning mehribonlik soyasini to qiyomatgacha musulmonlar uchun abadiy ziynat, martaba, muborak va baxt yetsin - xohish va matlab bahoristoni daraxtlari shoqlarining gullarini zamonning sovuq shamoli va davr makrining to'fonidan saqlasin va asrasin, u oliy zotning (tobora) ortib boruvchi qudrat va iqtidori hamda kuchayib boruvchi azimat va e'tiborini to gardishsifat aylanuvchi falak charxining inqiroziga qadar zamonning shum qo'lidan va kecha-kunduz ofatidan uzoq qilsin.

Alhamdilloh, davlatimiz tongining va hashamat nurimizning barq urgandan boshlab meros mamlakatning (bu nурдан) ko'plab foyda topgan qal'alarida istiqomat qiluvchilar va shon-shuhrat ottirgan yerlarda yashovchilar tamom shod-hurramlik vajhidan ta'rifga sig'maydigan quvonchga ega bo'ldilar. Barcha ra'iyat va xalqlar omonlik va farog'at beshigida orom topib, davlatimizning barqarorligi va abadiyligini o'z oliy matlablari deb bilib quvonmokdalar. Shunga binoan, jaloli ahadiyet (Tangri) ning kundan-kun qilayotgan yangi hadyalari bilan davlatimiz boyligi va shavkatimiz vositasi kuchaymokda va ko'paymoqda. Pok parvardigor dargohidagi har nimaiki qaror topgan bo'lsa, g'aybiy madadning barakasi bilan uning maxsul nurlari butunlay va tamoman zuhr yetdi va porladi.

Shavkat va sultanataanohlar, chunonchi, o'tmishda ulug' ajdod va hurmatlik boblar "Senga Yuborilgan kitob - muborakdir" karim (oyatining) dalili bilan tomonlararo eyachilar Yuborish rasmiga rioya qilib, "odamlar orasidan seni tanlab oldim" (oyatining) kuvvatlashiga asoslanib, maktub va salomnomalar Yuborish bilan har ikki tomon davlat valiyalarining muhabbat Yuziga maktublar eshigi ochirib kelganlar.

Modomiki, o'tmishdan ota-bobolarning asosiy yo'li ulfat va do'stlik mash'alini yoqish hamda hamjihatlik va birlik silsilasini harakatga keltirish bo'lgan ekan, bu ma'nilar surati (bizning) xurshid xotirimizda ham jilo beradi.

Oq ko'ngil xotirimizda (shu) saqlanganki, keljak avlod bilan birliqsa o'tmishdosh ajdodlarimizning odatlarini kayta tiklash - davlat (larimizning) Yuksakligi va haqqoniy ishimizning mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Sunnatni qayta tiklovchi, qadimiy xonazod, durusiy e'tiqodli, sabotlikni samimiy ixtisos qilgan, banda ogoh, jahonpanoh dargohning zodagon bandalaridan biri bo'lmish mehtar Ubaydulloni savob

¹ Har ikki ish, yani do'stlik posboni bo'lish va boshqa (xonlar)ni ham shu ishga tortish.

² Vafot yetgan ekan.

³ Bu haq yo'ya fidoyi, yani noma bituvchi Abdulfazl Allomiy.

⁴ Durji - qimmatbaho buyum (tosh)lar saqlab qo'yadigan idish.

(to'g'rilik) bilan u tomonga Yuboriddi. Oliy martaba ostona qabulidan va avlod-ajdodlarimizdan tortib o'rtada tartib topgan do'stlik lavozimlari ado qilgandan so'ng unga qaytish uchun munosib ruxsat berilib, janoblari tomonidan maxsus mehtar Poyanda Boqi va Xudoyberdi tahvildorlar bilan birga (Yuboriladigan) mollar uning (elchingning) so'ziga asosan u orqali Yuborilsa, mazkur banda (elchi) ularning kamu ko'stsiz gardunmadon sarkor (ya'ni Buxoro xoni) huzuriga keltiradi. Xilofat va adolat ayyomlari (hamisha) barqaror bo'lsin!

Hindiston safari voqeanavisiga (berilgan nishon)

Mehribon tangri va bechoraparvar Olloh kashf yetilgan va zohiriy olamning katta yo'lidan boruvchi bilimdonlar hamda birlamchi ko'rinish va mavjudotning chahordonai bisotida Yuruvchi bo'lган barcha inson toifalari ahvolining tartib va intizomini "uni tanlab olganmiz" (oyati)ning mudsaosiga ko'ra, bizning podshohlikka ravnaq beruvchi ra'imizga havola qildi va "xohlaganimcha mulk ato qilaman" (degan) so'ziga binoan, "Bo'l, dedi, bo'lди", ya'ni olam kishilarining ixtiyor jilovini bizning qudratli kaftimizga qo'ydi. Shuning uchun (ham) quyosh misol pok ko'ngil taqsir suratining oynai va yaxshi tadbirlar majmuasining mundarijasidirki, (u) mamlakatning har bir o'lkasida (sodir bo'layotgan) axborotni bilib olishda, har bir mulk va viloyatning avgor va avozini anglashda, vogelardan voqif va har jihatdan qonunshunos bo'lishlikda umum va juzviy sirlarning barcha kayfiyatidan xabar topishlikda va (mamla-katimizning) har bir chegarasini aylanib chiqishlikda ravshanlik ko'rsatadi; meros mamlakat va boshqa (o'lka) lar xususida juda ko'p tirishqoqlik va sa'y-harakat qiladi. Jahonbonlik lavozimining davralaridan va mulkdorlik hamda posbonlik marosimining ulug'laridan bo'lган va mashhur xislatlarning Yuz berishi zo'r urinish va san'at bilan turmushga tatbiq qilinadi.

"Ayt, sayr qilganlar yerda, bu - fayzliqidir"ning misoliga ko'ra bu ish (sayr qilish)ning istagi oqillik, ramzshunoslik va xaqqrniylikni tajriba va imtihonning eng Yuqori bosqichiga ko'taruvchi, saltanat sirlaridan boxabarlardan birining ko'nglida, jilva berdi va (uning) savob andishalik fikriga tushdi. Binobarin, pokzotlik Xoja Abdurahimga ko'pdan-ko'p iltifotlar qilinib, uni elchilarga nisbatan iliklik (va) yoqimli iroda bilan Hind (iston) safarining voqeanavislik xizmatiga sarfaroz qildiki, Xoja Abdurahim (chegaradan) o'tishdan va ishga tushishdan boshlab to bu xizmatning anjomiga va ohiriga qadar har mulk va har yerda ro'y bergan turli voqealarning hammasini oqqa tushirib bayon qilib, xar kuni oliy taxt poyasining arziga yyetkazadi va shubhasizki, (buni) to'xtatish va (unga) xiloflik qilish (oliy) ostonaga bosh qo'Yuvchilarga dog' tushirishdan xabar beradi.

Xoja Samandar Termizi "Dastur ul-muluk" (XVII asr). Oltinchchi fasl. Elchingning sifati haqida

1 - Hikmat

Azizim, elchi o'tkir, yaltiroq shamshirga monand tildan chaqqonlik va mohirlik bilan foydalanishi lozim. Ammo uning ochiq Yuzligi, go'zal muomalasi biron-bir murosaga kelish yoki sulh tuzish paytida muloyim, yoqimli nutqidan taralib turgan so'z javharlaridan bilinib tursin. Agar u o'z nutqining avvalida dag'al, qo'rs, keskin so'zlar borligini sezsa, bunday so'zlarni Yumshoklik qaychisi bilan kesib tashlashi zarur. Elchi nutqining boshlanishida do'q-po'pisa tarzdagi so'zlarni aytgan bo'lsa, gapning xotimasini yaxshi. yoqimli munosabatlarni, mexribonlikni anglatadigan so'zlar bilan tugatishi kerak. Binobarin. aytadilarki:

BAYT

*Yoqimli so'z ko'nguldan har hasad, kinni aritgay,
Shirin so'z hatto dushman chehrasin nurdek yoritgay.*

2 - Hikmat

Azizim, to'rt toifa odamni elchi sifatida Yubormaslik tajribada isbotlangan. Birinchisi - podshohdan jafo ko'rgan, ikkinchisi - mol-mulk, hurmat-izzati podshoh g'azabi shamoli bilan sovurilgan, uchinchisi - o'z amalidan haydapgan, to'rtinchisi podshohning zarari hisobidan o'z manfaatini ko'zlagan, ya'ni davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yan kishilarni davlat

elchisi qilib Yuborish akldan uzoqdir. Zero, tajribadan shu narsa ma'lumki, zebu ziynatidan, obro'-e'tiboridan judo bo'lgan odamning qalbiga alam-iztirob tikanagi qadalgan bo'ladi. Shu bois bunday kishi dushmanning kuch-quvvati va shavkatini o'z davlatining kuch-quvvatiga nisbatan ustun, ortiq deb hisoblab, shunday bir paytda fursat topib, qalbida yashirinib yotgan adovatni Yuzaga chiqarib, podshohiga xiyonat qilish yo'liga kirib, unga qarshi fitna uyushtirishi mumkin.

Binobarin, aytadilarki:

BAYT

*Kishikim kin-adovash-la inoq bo'lg'ay –
Shafiqu mehribonlikdin yiroq bo'lg'ay.*

3 - Hikmat

Azizim, elchi ikki masalada nihoyat hushyor bo'lishi zarur. U o'z podshohiga sodiqligini ifodalash uchun mamlakatining nomusi, shon-shuhratini, sultanatining ulug'vorligini ehtiyyot qilishi, shuning bilan birga dushman bilan bo'lgan munosabatida uning makr-hiylasidan hamisha ogoh va hushyor bo'lib turishi lozim.

BAYT

Aqli raso odam so'z-la rosshlagay har bir ishni,
Yuz lashkari jarmor¹ ham qilmas bu Yumushni.

4 - Hikmat

Azizim, elchini biror joyga jo'natishda niqoyat katta e'tibor va ahamiyat bergen, unga safar mohiyati va mazmunini juda ko'p mubolag'ali so'zlar bilan chuqur tushuntir. Chunki elchi podshohning tilidir. Uning kamoloti, aqli, tajribasi guftorida - nutqida oydinlashadi.

Binobarin, aytadilarki:

BAYT

*Elchi bo'lsa gar jasur, dono, mohir,
Unga ravshan har muammo, hamma sir.
Neki so'rsang berg'uvsi darhol javob,
Bandasig'a tekkusi ondin savob.*

*Xush kalomlar so'y lamakni elchi funun aylag'ay,
Majlis ahlin beshumor maftunu mammun aylag'ay.
Nutqi sovuq ham g'aliz ersa hama giryon bo'lur,
O't tushur odamg'ayu bori ulus vayron bo'lur.
Oqil elchi xush kalomlar dilg'a payvand qilg'usi,
Ikki yovni bir-biriga do'stu dilband qilg'usi.*

Xiva solnomalari saxifalaridan namunalar² Xiva va Buxoro aloqalari haqida

1226 (1811/1812) yili Amir Haydar o'g'lining to'yi munosabati bilan Xorazmga Muhammad Rahimxon oldiga O'rroqboy Jo'ra Og'osi va Avaz Muhammad YAsovulboshi elchi qilib Yuboriladi. Shu munosabat bilan Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida uzoq davom yetgan sovuq aloqalarga chek qo'yilib, o'zaro diplomatik bordi-keldi tiklanadi.

("Firdavs ul-iqbol", 160-6-161-a)

"1261/1845 yil Buxorodan kelgan Qo'chqorbek Miroxurga Xiva Rahmatulla Qorako'zni qo'shib Buxoroga elchi qilib Yuborilgan edi. Xiva xoni Buxoro amiriga quyidagi nomani Yuborgan: "Amir Nasrulloning muddaosi agar musolaha qilib borishmoq va kelishmoq bo'lsa, bizning xohishimiz uldur va agar g'arazi savosh va talosh bo'lsa muxoriba maydoniga chiqsunkim, biz ham ul amrga muhayyo va amoddadurmiz. Bu ikki ishning qaysisini ixtiyor qilsa ul ishga bel bog'lasunkim ikkisi ham bizning maqsadimizdur. Bu so'z bila elchilarni Buxoro viloyatga irlsol qildi".

¹ Xoja Samandar Termizi. Dastur ul-muluk. Podshohlarga qo'llanma. Fors-tojik tilidan erkin tarjima. So'zboshi, izoh/gar muallifi Jabbor Esonov. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 1997.

² Bu silsiladagi qo'lyozmalar haqidagi ma'lumotlar bibliografiyada ko'rsatib o'tilgan.

("Zubdat ut-tavorix", 414-6)

"1856 yil... yamut mufsidlaridan bir jamoakim, burunroq Buxoro podshohi Amir Nasrulloning oldiga madad va ko'mak tilab bormish edilar va amirning qo'shg'on elchisi bila muovadat qilib, daryoyi Jayhun kanoriga kelib, YUmri ma'baridin ubur yetar chog'da qipchoq pardillaridan jalolat nishon Otajon Yuzboshi xabar topib, bir jamoa mutahavvir yigit bila och arslon va baloyi nogahondek hamul mufsidlarga hamla yetkrib, barcha amvol va asbobin olib, bir nechasin qahru kin tig' bila ulturdilar va o'zgasi Buxoro elchisi bila qochib, Yuz mashaqqat va ming kulfat bila aftonu xizon va nimjon o'zlarin qoraqal-poq arosiga yetkurlilar va qoraqal-poq tavoyifining davlatxoh va ixlos biylari Kenagas Ernazarbiy boshlig' ittifoq bila olarni dog'i tutib, Zarliqxon bila bir makonda band yetib Yuborib, ostoni oliy mulozimlarig'a hamul voqeani i'lom va axbor yettilar".

("Gulshani davlat", 41-6-42-a)

"1272 (1855/56) yil umarozi sadoqat intisobdin Avaz Murod mirobkiem, qiyot dudamonining izzat maobi erdi, iltifoti podshohonadin Buxoro elchiliga nomzod bo'l mish erdi, andoqkim Yuqorida bayon kilkining raqamzadasi bo'ldi, qat' manozil va tay marohildin so'ng Buxoro shahriga dohil bo'lib bir necha kun tavaqquf ko'rgezdi, nedinkim, Buxoro volisi Amir Nasrulloq'a Shahrisabz ulusi necha yildin beri muxolifat va adovat ko'rgezub inqiyod va itoat doirasig'a muvofaqat va mujobaat qadamin qo'ymos erdilar, amiri mazkur har yil karrotan marrot olar qasdig'a lashkar chekib, muhoriboti bisyor va muqotaloti beshumor zuhurg'a yetkurar erdi. Ul ovonda dog'i hamul dastur bila Shahrisabz ustig'a borib, g'alabai tamom bila musaxxar qilib, dasti tasarrufig'a kirguzub, hamul diyor muhimmotining saranjomig'a mashg'ul erdi. Chun Avaz Murod mirobning saforat rasmi bila Buxorog'a vorid bo'lib onda gavaqquf ko'rgezgonin eshitti, kishi Yuborib Shahrisabzga talab qilib podshohona lutf va navozishlar ko'rgezub oning borasida ta'zim va takrim sharoyitin bajo kelturdi va bir necha kundin so'ng izzati tamom bilan murojaat ruxsatin berdi va o'zining mu'tamadun alayh umarosidin Ibrohimbiy Yuzni elchilik gariqasi bila onga mashub qilib, ixlos va aqidat Yuzidin muhabbat va muvollafatnomaga irlsol qildi. Va olar masofati ba'idani tig'i sur'at bila qat yetib Buxoroga yetdilar va ondin azimat yakronin nuhzat maydonig'a surub, manozili mutanavvi'a qat'idin so'ng zulqa'da oyining o'n yettisida, yakshanba kuni atabay a'lo hok busliqi saodatig'a qoyid bo'lub, Amir Nasrulloning Yuborgon tuhfot va maktubotin nazari anvar mutolasig'a yetkurdilar va iltifoti podshohona Ibrohimbiyning holiga shomil bo'lub elchixonai musaffog'a tushurildi va o'z taqozosidin ziyodaroq vazoyf va tahoyf onga marsum bo'ddi va yigirma olti kun muddati inqizosidin so'ng, zulhijja oyining o'n beshida, shanba kuni xilo'i podshohona va navozishi xisravona bila onga murojaat ruxsatin berib Kot akobiridin Otaniyozbek qo'ng'irotnikim, arkoni davlat aozimidin erdi, elchilik rasmi bila qo'shub, muvolafatnomai va savgoti kiromiy bila topshurub Buxoro savbig'a irlsol qildi.

("Gulshani davlat", 76-a-76-b)

"Buxoro podshohi Amir Nasrulloning elchisi Mirzo Qarovulbegikim, burunroq amiri mazkurning muhabbatnomasini keltirub Xivaq shahrida elchixonai humoyunda mutamakkini erdi. xazrat sohibqiron umaroyi izom va kubaroyi fihol zumrasidin muqarrabi bargohi sultoniy, maxrayi asrori nihoni YAxshi Muhammad dorug'oni onga elchilik tariqasi bila mashub qilib, muhabbat afzo maktub va taajjubnama tuhfalar bila rabi'ussoni oyining o'n sakkizida seshanba kuni Buxoro janobig'a irlsol qildi».

("Gulshani davlat", 96-a)

"Yana ulkim: dargohi gardui ishtibohning shavkat panox fahomat dastgoh mulozimlari aozimidin muqarrabul hazrat zahiruddavlat mahrami Sarmad YAxshi Muhammad dorog'okim, inoyati podshohonag'a maxsus bo'lub, elchilik tariqasi bila Buxorog'a kyetmish erdi, ondoqkim, Yuqorida mazkur bo'ldi. Jumadassoni oyining o'n to'rtida, yakshanba kuni (1272), Buxoro volisi Amir Nasrulloning qo'shub Yuborgon elchisi sayodat panoh, najobat ogoh Porsoxo'ja Sadrning hamroxlig'i bila dargohi danlat ig'stino mulozamati sharafiga foyz bo'lub navozishi xisravonadin sarafrozlig' topti va elchi mazkur Amir Nasrulloni Yuborgan muhabbatnomasi va tuhofot va

tansuqotin hazrat sohibqironning nazari anvari mutolaasig'a yetkurub ihtiromi mulukona bila mu'azzaz va muhtaram bo'ldi va kyeturg'on tuhfalari g'aroybi jumlasidin biri bir tayri mukarram shahbozi balachd parYuz erdikim, jussasi o'zga bozlardin andak ulug'roq erdi va boshida munaqqash toji bor erdi va jahon shikor gahida hech bir mirishkor oning mislin mushohada qilmamish erdi va har turluk ovni kamoli jahd va ishtiho bila olur erdi.

BAYT

*Olur erdi jahd birla ovni,
Shah lashkari ul sulfashki yovni».*

(*"Gulshani davlat"*, 105-a-105-6)

"To'ra Murod atluqkim, inoyati podshohonadin elchi bo'lub Buxoroga kyet mish erdi ondoqkim, sobiqan taxrir topti. Amir Nasrullo oni ta'zim va tabjil bila kurinushi oliysig'a undob, lutfu navozishlar bila ahvol pursishliq qilib elchixonai oliyg'a tushurdi va bir necha muddat oning izzatu ixtiromig'a qiyom ko'rguzub, xilo'i zardor va in'omati bisyor bila mahzuz va bahra bardor qilib muovadat ruxsatin berdi va o'zining itgihodmandlik va yakjihatlik izhori uchun oliyjoh va rafi joygoh mu'tabar va izzatparvar umarosidin o'zbek tavoyifidin Yuz xonadonining xulosasi Abdulaziz to'qsobani elchi qilib musodaqatnomayi nomiy va tuhafoti kiromiy topchurub ixlos va e'tiqod Yuzidin oni To'ra Murod otaliqg'a masxub qilib, suddai xi洛fat xizmatig'a irsol yetgi. Elchi mazkur otaliqi mazburning musohabati bila qat'i manozil va tayyi marohil qilib shavvolul mukarram oyining o'n yetgisida, seshanba kuni dargohi sipehr ishtibox. ziyorati davlatig'a vosil bo'lub, amirning Yuborgon tuhaf va hadoyosin musodaqatnomasi bila nazari saodat asar arzig'a yetkurdy. Ul hazrat onga navozishlar ko'rguzub ahvolin istifsor qilg'ondin so'ng elchixonai Humoyunga topshirub, atoyoi mulukonadin bahramandliq yetkurub amomai izzatin charxi barin boshidin oshurdi».

(*"Gulshani davlat"*, 109-a-109-6)

"Hazrat a'lo xoqoni kishvarsiton zulqa'da oyining yigirma beshida, panjshanba kuni, Buxoro elchisi Abdulaziz to'qso-bogakim, sadoqatnomaga bila kelib bir necha muddatdin beri izzati tamom bila elchixonai firdavs nishonada oromguzin erdi, zarrin xal'atlar kiydurub lutfu ehson bila murojaat ruxsatin berdi va umaroyi oliyshon va shuj'oti gardun tavon zumrasidin sidqu ixlos nishon ubhat va shavkat iqtiron zubdai dudamoni qipchoq Iskandar inoqningahvoli xayriyat maolin marhamat va makramat ko'zi bila manzur yetib, Buxoro elchiligiga ta'yin va masrur qildi. Muvofaqat va muhabbat mazmunig'a mush'ir bir maktub topshurub, podshohona tuhaf va hadoyo bila Abdulaziz to'qsobog'a qo'shub Buxoro volisi Amir Nasrulloning oldig'a saforat tariqasi bila ravon qildi".

(*"Gulshani davlat"*, 110-b)

"Iskandar inoqga Nasrullo o'zining maqarrab va mo''tabar umarosidin Abdulvohid miroxurni saforat tariqasi bila oning hamroxlig'iga nomzod qildi... va ostoni oliv mulozimlarig'a munosib tuhfa va hadyalar topshurub irsol yetdi. Mazkur elchi safar oyining salhida, yakshanba kuni yetib keldi va "kelturgon maktub va tuhofotin odobi tamom bila nazari anvar mutola'sig'a yetkurdy..."

(*"O'sha asar"*, 118-6)

"1273 yil. Yana ulkim: mazkur oyining o'n uchida, dushanba kuni, Buxoro elchisi Abdulvohid miroxurkim, burunroq kelib Amir Nasrulloning musodaqatnomasini arzga yetkurub bir necha muddatdin beri mutamakkim erdi, onga e'zozi tamom bila murojaat ruxsatin berildi va dargohi gardun ishtibohning muqarrab va mu'tamad xodimlaridin Rahmatullo maxramnikim, "Qaroko'z" laqabi bila mashhurdur, elchilik Yusuni bila onga qo'shub muhabbatnomasi topshurub Buxoro sari irsol qilindi".

(*"O'sha asar"*, 121-6)

"1274 yil. Va mazkur oyining (rabi'ussoniy) yigirma ikkisida, shanba kuni, Buxoro elchisi Dovud xo'ja miroxurboshi Rahmatullo qorako'z bilakim, burunroq elchi bo'lub Buxorog'a bormish erdi, ondoqkim, Yuqorida bayon kilkining raqamzadasi bo'ddi. Amir Nasrulloning Yuborgon tuhfa

va hadyalarin kelturub ixlos va e'tiqodnomasin rusumi odob va ikrom bila xazrat xido saodat parvarning mutola'ia davlat asarig'a yetkurdy, marohimi xisravona oning holig'a shomil bo'lub, elchixonai oliyg'a tushuruldi va o'z muddaosidin afzunroq vazifa va qunuq yetkurdy.

(*"O'sha asar, 135-a*)

"1274 yil rajab oyining yigirma oltisida Xo'kand elchisi Muhammad Rahim eshog'osig'a Qorakalpoqiya tavoyifidin manqit urug'ining muntaxabi sohib Nazarbiyni saforat rasmi bila qo'shub, muhabbatnama bila Xo'kand viloyatig'a irsol qildi va sha'ban oyining' to'rtida jum'a kuni Dovud xo'ja miroxo'r boshig'a xo'ja eli sodotidin Madadullo xo'ja biyni risolat tariqasi bila mashub qilib, muvolafatnama bila Buxoro jonibig'a rohpaymo qildi".

(*"O'sha asar, 155-6- 156-a*)

"1276 yil. Va so'ngi kunkim, juma' erdi. Buxoro podshohi Amir Nasrulloning ulug' qo'shun bila borib O'rotupa Qo'rg'onin musaxxar qilib sevinchilatib Yuborgon elchisi Sayyid Murod to'qsoba keldi va dargohi falak ishtiboh hojiblarining vositasi bila huzur majlisig'a duxul sharafin topib, barcha vuqu'g'a yetkon voqe'ni odobi tamom bila taqrir qidsi. Va navozishoti xisravonadin shodkom bo'lub, ishorati oliy bila elchixonai firdavs nishonada orom tutti".

(*"Gulshani davlat", 168-a-168-6*)

"1277 yil rabiusseni oyining uchida (20 oktyabr 1860 yil) Amir Nasrullo... vafot topdi. Muzaffar to'ra uning o'miga o'tirdi. Ul... otasi vafotining izhori va o'z julusining axbori uchun o'zining mo'tabar umarosidin Shohxo'ja Sadrni muhabbatnomasi va yaxshi tuhfa va hadyalar topshurub, hazrati xidiv komkorning daryo falak madori xizmatig'a irsol yetti va Shohxo'ja Sadr bir necha muddat qat'i manozil qilib, rabiusseni oyining yigarma beshida oston bo'slig' saodatig'a yetib, kelturgon muhabbat uslub maktubni tuhfa va hadyalarini bila huzuri oliyg'a yetkurdy iltifoti podshohonadin xursandlig' va masrurlig' topti va bir necha kun tavaqquf qilib, farog' va osoyish hosil qilgondin so'ng hazrati sohibqiron, umaroyi oliyshon zumrasidin YAxshimuhammad dorug'ani anglo hamroh qilib muborakbodlig' va fotihaxonlig' rasmi bila Buxoro jonibig'a raYuna qildi".

(*"Gulshani davlat", 231-6-232-a*)

Xiva va Qo'qon xonliklari diplomatik aloqalariga doir ayrim parchalar

"1272 (1855) yil sayodat va najobatnishon Qubodxon xo'jakim, hazrat sohibqironi mamoliki sitonning farmoni vojibul izoni bila saforat tariqasida Xo'qand viloyati savbig'a ravon bo'l mish erdi, andoqkim, sobiqan bayon topti va mazkur viloyat volisi Xudoyorxon bir necha muddat onga mizbonlig' Yusuni bila ta'zim va takrimi farovon ko'rguzub, ul viloyatning sodoti mu>dgaramidin o'zining mu'azzaz va mukarram kishisi O'run Xo'ja Mirasadni elchilik rasmi bila onga musohib qilib, tuhfoti loyiq va tansuqoti muvofiq va musodaqt nomayn topshurub, mulotafat va navozishlari bila Xorazmi jannatbazm samtig'a irsol yetgi. Va olar masofoti ba'ida va manozili adidani bir necha muddat qadami sur'at bila qat' yetib, mohi mazkur ya'niy jumadul avval oyining o'n sag'skizida, seshanba kuni, ostoni saodatoshyon ziyoratig'a musharraf bo'lub Xudoyorxonning Yuborgan kiromand peshkashlar va arjumand tuhfalarin muhabbatnomasi bila hazrat sohibqironning nazari kimiyo nishoni peshgohidin o'tkorib navozishi podshohona va avotifi xisravonadin xursand va baxramand bo'ldilar".

(*"Gulshani davlat ", 103-6*)

"1273 (1856) yil. Yana ulkim: atabai gardun martaba mulozim-larining ixlos shior va jonsupor muqarrablari jumlasidin davlat va iqbol hamdam Do'stniyoz mahramkim, elchilik tariqasi bila burunroq Xo'qand viloyatig'a mursal bo'l mish erdi, ondoqkim, sobiqan tahrir topti. Chun mazkur viloyat volysi shavkat va xashamatnishon Xudoyorxonning ko'rnushu oliysig'a dohil bo'lub hazrati sohibqironning Yuborgon savg'ot va muhabbatnomasin oning arzig'a yetkurdy. Ul bag'oyat

masrur va mubtahij bo'lub podiYu-hona navozish va pursishlar ko'rguzdi va elchixonai firdavsnishonaga tushurub ta'zim va takrimi kamoyanbag'i sa'i va qo'shish qildi. Va bir necha muddatdin so'ng... o'zining mo'tabar mulozimlaridin Muhammad Rahim eshog'osini safarat rasmi bila onga mashub qilib xisravona tuhfalar bila ixlosnama topshurub Xorazmi jannat bazm jonibig'a ravona qildi. Mazkur elchi Do'stniyoz mahram rafoqati bila... rabi'ul avval oyining yigirma beshida panjshanba kuni ostoni davlat posibon xokbo'sliqi saodatig'a istisod topib, kelturgon ixlosnama va hadyalarin odobi tamom bila nazari kimiyo asar peshgohida ma'ruz ztti va navozishi xisravonag'a maxsus bo'lub ishorati oliy bila elchixonayi humoyunda manzilgazin va inoyati podshohonadin o'z murodiga ishratqarin bo'ddi".

(*"Gulshani davlat"*, 120-a)

"1275 (1858) yil. Dargohi jahonpanoh mulozimlaridin qaroqalpoqiya manqitining sarvari, sadoqatparvar, izzat asar Sohib Nazarbiykim, burunroq Xo'qand elchiligidagi ma'mur bo'lub Xudoyorxonning oldig'a bormish erdi. Xudoyorxonning inisi Muhammadyorxon Xo'qand viloyatida xon bo'lub, oning qo'shg'on elchisi Mirzo Abdulvahhob panjohboshi bila mazkur jumadussoniy oyining to'rtida, seshanba kuni kelib oston bo'slug' davlatig'a foyiz bo'ldi.

Bu ijmol tavsiyi ulkim, Xo'qand viloyatining voliysi Xudoyorxon necha muddatdin beri shayton ig'vosi va nafsu havo iqtizosi bila ayshu ishratg'a moyil bo'lub, lahv'u la'bg'a ishtig'ol ko'rguzdi va saltanat umuri va mamlakat musolihidin beparvolig' qilib, burung'i roh va ravishin buzdi. Ohir jami' umaro va riyo niroyatsiz tang va malul bo'lub, ittifoq bila inisi Muhammadyorxonni saltanat taxtig'a mindurub oni aal yetib, Yurtdin chiqorib quvub Yubordilar. Ul Buxorog'a borib Amir Nasrulloning davlati soyasin o'ziga panoh qildi. Va Muhammadiyorxon saltanat saririda mutamakkin bo'lub mamlakat muhimmoti va sipohu ra'iyat saranjomig'a ishtagol ko'rguzdi va umarosidin Abdulvahhob panjohboshini elchi qilib, podshohona tuhfalar bila ixlosnama topshurub, Sohib Nazarbiyga hamroh qilib dargohi falak ishtiboh mulozamatig'a irsol yetti. Ul... Muhammadyorxonning Yuborgon muvofaqatnama va hadyalarchn ul hazratning kimiyo asar nazarig'a odobi tamom bila yetkurub navozishoti mulukonadin sarafrozlig' topdi.

Yana ulkim, sha'bon oyining to'rtida seshanba kuni... Xo'qand elchisi Mirzo Abdulvahxrb panjohboshig'a janobi saltanat maob mulozimlaridin o'n to'rt urug' qaroqalpoqining sarxayli va muntaxabi ixlospanoh Ernazarbiyni risolat rasmi bila mashub qilib, muvolafat mazmuni bila bir maktub topshurub Xo'qand podshohi Muhammadyorxon jonibig'a ravon qildilar".

(*"Gulshani davlat"*, 179-a-179-b)

"Amri oliy mujibi bila Qoraqalpoq akobiridin Ernazar-biy Xo'qand elchilikiga marsul bo'l mish erdi andoqkim, sobiqan guzorish topti, mazkur viloyatning voliysi Muhammadyorxonning sidqu ixlos Yuzidin onga mahub qilib Yuborgon elchisi Mallabek dodhoh rabiul avval oyining o'nida jum'a kuni oston bo'slug' saodatig'a istis'od topib xoni mazkurning irsol qilgon tansuqotin musodaqatnomasi bila arzi a'log'a yetkurub navozishi mulukonadin xursand va baxramand bo'ldi".

(*"Gulshani davlat"*, 215-a)

"... jumadussoni oyining yigirma ikkisida Xo'qand podshohi Muhammadyorxonning oldig'a Qoraqalpoq akobiridin Oymuhammadbiyni elchi Yusunluq oning hamroxlig'ida nomzod qilib ravona qilildi".

(*O'sha asar*, 216-a)

"1276 (1859) yil. Shavvol oyining o'n oltisida Xo'qand viloyati voliysi Muhammadyorxonning elchisi Toshmuhammadbiy hazrat a'lo xoqonning Yuborgan elchisi Oymuhammadbiyning hamroxlig'i bila saltanat ostonasi ziyoratig'a mustas'id bo'lub, keltirgon ixlosnomasi bila savg'ot va hadoyosin arz mavfiqig'a yetkarub nazari anvar oldidan o'tkardi".

(*"Gulshani davlat"*, 217-6)

Xiva va Eron elchiliklari

"Shahzoda Vali 1812 yili Xiva xonligiga o'z elchisini Yuboradi. Shu yili Mashhadga Xiva xoni

shahzoda Vali huzuriga Nodir sardorni elchi qilib Yuboradi".

(*"Firdavs ul-iqbol"*, 177-6)

"1228 (1813-1814) yili "Umarshayxva Amirxonkim... Xuroson bilodining xonlariga elchi qilib Yubormish erdi... oston bo'sliqg'a yetib, barcha xonlarning arizadosht va ixlosnomalarin yetkurdilar... Rabi'-al-avval oyining avoyilida Hasan Murod otaliq Buxoro elchisi Boymuhammad jarchi boshi bilan... Muhammad Raximxon mulozimatiga foyiz bo'ldi. Mohi mazkurning avohirida Berdi inoqni elchiyi mazburga qo'shub, Buxoroga irsol qildi... Mazkur oyning 27 da yakshanba kuni Berdi inoq Amir Haydarning elchisi Podshoho'ja sadr bila Buxorodin kelib, oston bo'sliq sharafiga ixtisos topdilar. Buxoro elchisi Podshoho'jaga yana Berdi inoqni masjub qilib, Buxoroga Yubordi.

Jumod-ul-avval oyining o'nida juma kuni Kurdistondin elchilar kelib... tansuqoti mutakosira peshkash chiqdilar... Jumadiy-as-soniy oyining sakkizida juma kuni Xuroson elchilar i xsoni podshohona va in'omi begarona bila bahra-mand qilib, o'z Yurtlariga ruxsat berdi. Badirxon bek va Muhammad Husayn bekni... Sattor Quli oqo bila mazkur bo'lg'on elchilarga qo'shub Yubordi. Bu mazmun bilakim: "Agar ellig va itoat izxrrida sodiq bo'lsalar, kuz faslida inshoollo ul tarafg'a azm yetkumizdir. Agar el muxolif bo'lsalar, alar samtig'a nuhzat qilg'umizdur. Agar el bo'lsalar, Saodat Qulixon yanglig' akobir va mo''tabar kishilardan ko'p kishi mulozimatga irsol qilib, zakot va xirojni kamo hak^ahu Yuborsinlar. Alar seshanba kuni Xuroson azimati bila, yo'lga tushub ravon bo'ldilar".

(*"Firdavs ul-iqbol"*, 186-a,b)

"Muhammad Amin taxtga chiqqach, 1846 yiliyoq atrof va aknofdag'i qal'a va baladalarning hukmronlari kim, muhabbatnomalar Yuborib, yakjihatlikdin dam urar erdilar, barChalarig'a julusi humoyunning e'lomi uchun payg'om Yubormoqni munosib ko'rib, har biriga bir kishini tahniyatnama bila Yubordilar. Andopsim Shukrullaog'oni Tehronga Yuborib, andin Istanbulg'a bormoqni ham amr yetib, shohg'a va xalifag'a munosib to'hfa va peshkashlar berib nomalar topshurdilar va Xo'qandg'a Otaniyozbekni tahniyatnama bila Yubordilar. Ul vaqtida Rahmat Xalifikim, oni Rahimqulixon mag'fur Buxoroga elchi qilib Yuborib erdilar, amir Nasrullo anga Qobil to'qsaboni qo'shib Yuborib erdilar, alar kelib amir Nasrulloning muxabbatnomasini berdilar. Muhammad Aminxon Krbil to'qsa-bog'a ko'p mehribonliklar ko'rguzub xoni mag'furning vafoti va o'zlarining juluslari axbori uchun Bekjon mahramning birodari Muhammad Sharifboyni Qobil to'qsabog'a qo'shub Buxorog'a Yubordilar. Bundin bir oy o'tgandin so'ng Muhammad Sharifboy keldi. Amir aning yonig'a xoni mag'furning fotihaxonlig'i va Muhammad Aminxonning julusining muborakbody uchun bir juybori xo'ja ila Qobil to'qsaboni qo'shub Yubormish erdi. Muhammad Aminxonning amri bila shig'ovulbek elchilarning oldig'a chiqib, ag'roz va ikrom ila kelturub elchixonaga tushurdi".

(*Bayoniy, "Shajarayi Xorazmshohi"*, 326-a,b)

"Bu jamoa azimatining sababi ul erdikim chun Muhammadshoh Qojorning (Eronshohi) kuffori beshumor birla Hirot ustiga kelib tashaddudi tamom bila muxosara qilg'oni (1837 yil) barcha atrof va aknofda ishtixor topti va jame' musulmon ahlig'a ahli kuffor jihodig'a baqadri hol say' va ko'shish ko'rgizmoq lozim, balki farz bo'ldi. Shahri Xivaq... qozisi Muhammad Sodiq Eshon... hazrat sohibqiron... ostonasining mulozimi saodatnishonlarig'a arz qildikim: "al-on kufr chorikni mag'lub qilib, Hirot mamlakatining ulusi kim, musulmoni komil va imon nuri bila ravshandildurlar, muxosara kdpmish va mujodala ko'rguzmish. Ul jamoa jihadig'a jaxd qilmoq va urushiga Yurush ko'rguzmak ahli fatvo va ajibot jumlesi va farziyot qabilasidin bo'lg'ondin ko'rur".

Agar bu muxlis va duogo'y mo''taqid ixlosjuyg'a marhamat ko'rguzib ruxsat bersalar ham ul farz qarzin bo'ynimdin isqot qilsam va g'azot irodasin jazm yetib, safar mashaqqat va kulfatin o'zimg'a ayni nashot va inbisot bilsam" deb ijozat iltimosida ko'p mubolag'a ko'rgizdikim hech man' mufid va mutaassir bo'lmadi".

(*"Firdavs ul-iqbol"*, 345-6)

"Chun kuffori zalolat shior ya'ni Muhammad shoh Qojorning sipoqi sharorat osori oftobi olamtob Yuzidin sahobi zulmat maob zoil bo'lg'onidek Hirot ahli ustidin ko'tarilib ovoralig' dashtig'a moyil va inontob bo'ldi. Shoh Komrondin tavotir rasmi bila vaziri sohibitadbir qoshig'a

bu xabar behjad asar va bu mujdai farshod samar yetishti. Bu xabar istimoidin bashoshati tamomi va faraxi lokalom zamiri sadoqat ta'sirifig'a joyg'ir bo'lib taxniyat go'ylik va muborakbodlig' rusumi bila o'z tarafidin kishi Yubormok^i ansab va ujib ko'rib, fazilatoro farosat intimo Shukrulla og'oni elchi qilib va tansuq va armug'on tariqasida ming kalla qo'y va ming botmon g'alla topshirub Hirot Yubordi. Elchi mazkur iste'joli tamom bila ma'mur bo'lgon tarafg'a sabo daburdek murur qilib maroxdpga bepoyondin o'bur qilgondin so'ng Hirotg qal'asig'a dohil va shoh Komron suhbatig'a vosil bo'lib, janobi vazorati maobning tahniyatnomha va duo salomin arzg'a yetkurdii. Chun bir necha kun yo'l ranjidin osudaliq topib muovadat amrig'a muqtazo bo'ldi. Shoh Komron anga necha turlik navozishlar bila uzrlar qilib, aning hamroxlig'ig'a izzat nishon muallomakon Sultonxon kim, YOr Muhammadxon vazirning birodari arjumandi erdi, tayin yetib sox, ibqiron jannatmakon mulozimlarig'a maazirat Yusunida muhabbatnomha topshirib ruxsat berdi. Chun elchilar insirob ruxsatina hosil qilgondin so'ng masofati benihoyat va manozili bilog'oyat qadami sur'at bila qat' qilib, vaziri muazzam xizmatig'a yettilar va Hirot ahlining ahvoli va kuffor cherikining maoli kayfiyatini kamo haqqahu sharh yettilar. Vaziri hikmat taxmir ham ul elchilar kelgonidin so'ng maaskari saodat asardin, kim Qarovulxon mavzu'ida erdi, murojaat qilib, ohista-ohista qat'i manozil yetib Marv viloyatining xotiroso va dilkusho manziling'a vosil bo'ldi".

(*"Riyoz uddavla"*, 349-a)

"1839 yil. Xivaga Hirot shohi Komrondan Sultonhon otlig' elchi keldi va xonga o'z hukmdorining maktubini topshirdi. Mazmuni bul erdikim, Alhamdulillo va-l-minna ul hazratning nusrat va muovanati bila dushmani golibning sharridin qutuldiq. Mulkimizg'a ega bo'lidiq. Biz jamoaning joni ul hazrat o'ljasni va filhaqiqati Hirot viloyati ul hazratning mulkidir, emdi iltimosimiz bulki bul tarafga tashrif keltirib, Hirot mulkig'a davlat huzuringiz bilan intazom berib va bu ixloskashlarning boshin sharafi qudumingiz bilan falak avjiga yetkuringkim, bag'oyat muntazirdurmiz".

Ul hazrat bu nomaga javoban anga loyiq Hirot jonibig'a yaqin vaqtarda bormoqni va'da qilib, javob xatini elchiga topshirdi va kyetishga ruxsat berdi. Anga o'z nomidin elchi sifatinda Mehtarning inisi Vois Niyozboyni unga qo'shdi, tokim Marv viloyatig'a borib. hamul elchig'a ming tillog'a g'alla olib borib, Hirot sari uzatg'ay".

(*"Riyoz uddavla"*, 349-6-350-a)

"1840 yil. Ma'lum bo'l sinkim, chun Muhammadshoh Xorazm shujoasining dast burdiga toqat qila olmay Hirot ustidin firor ixtiyor qilib, Tehron dorilmulkig'a bordi. Avvolg'i faxomat va g'ururi qolmadi. Ohir hazrati sohibqiron, bihisht nishonning mulozimlarig'a oshnoliq qilmoqni sababi amniyat va mazidi davlat anglab o'z mo'tamidlaridin Hodixon otlig' bir kishisin elchi qilib, qo'lig'a muhabbatnomha togtshirib, Xorazm sari ravona qildi. Mazkur elchi necha kunlar yo'l Yurib, ostonbo'stlik sharafiq'a vosil bo'lib, Muhammadshohning Yuborgan nomasin arzga yetkurdii. Noma mazmuni ul erdikim: Qadim zamondin to bu ovoni saodatnishongacha Xorazm xonlari bila Eron podshohlari orasida do'stliq shevasi va raftu-omad tariqasi hech vaj bila matruk va maslub bo'l mamish erkan. Bas bizlardag'i hamul tariqada suluk qilib, mug'o'rat va musodaqat rasmin bunyod qilsaq, tokim bu she'vayi xo'p va rasmi marg'ib mayomanidin ikki Yurting fuqora va riroyosi farog'at va amniyat bilan maishat qilg'usidurlar". Chun ul xazrat nomadin xabardor bo'lg'ach, javobiga bul iborat bilan noma yozdirdikim, "Ko'p muddatdin beri eshitadurmizkim, Eron xaloyiqi ahli sunnat va jamoat mazhabiga muxolifat qilib, hazrati nabovat panohining azobi kirom va axbobi lozim extiromlariga sab va dashnom qshgur ermishlar. Bo vujud ul azizi sohibtamiz-larning ehonati mujibi qatl va boisi nifoq bo'laturur. Agar ul a'moli qabiha va af'oli fazihaning. ul jamoa tark tutsa, inshoollo taolo do'stliq binosi mushayyid va yakjihatlik ahsi paymoni muakkid, o'lib, tarafayn ra'iyatlariga forig'bolliq va osudaholliq yetishg'usidur".

(*"Riyoz ud-davla"*, 350-a-350-b)

"Muhammad shoh mo'tamid alayhi kishilaridin to'rt vazirining biri Mirzo Rizo otlig' vazirin masxub qilib, noma javobin ham anga topshirib, Xorazm jannatbazm sovbig'a irsol yetgi... Elchilar mazkur yilning (1840) ramazon oyining ohirida atabayi a'lo turob bo'sliqig'a yetdi va Muhammadshohning noma va tuhafot va tansuqotin nazari anvar peshgohidin o'tkardilar. Nomasi mazmuni ul erdikim: "Ul af'oli zamima va a'moli shania, ya'ni sabbi sahobai kiborkim, eron xalqi nisbatida mas'mo'lari bo'l mishdir, zamoni moziyda shoh Ismoil safohat nishonkim, Eron

mamolikining hokimi hukmron voliyi sohibfarmoni erkan, oning ayyomida mazhabи haqg'a tag'yir berilib oningdek aqvoli qabohat ishtimol va af'oli shanoatmaolni buniyod va ijod qilmishlar erkan. Alhamdilulloh bu ayyomi saodatnizomda shariat va dindorliq binosi bag'oyat mushayyid va mustahkamdir va ul kalomi mazzamat anjom qoyilig'a zajr va tanbiya ko'rgizildi va ravofiziy jam'iyati koshonasi siyosat selobi bila buzildi. Agar sab' va dashnom qilaturg'on kishilarni topaolsaq tig'i kin bila maqgul yetib, hayot mulkidin ma'zur qilg'umizdir".

(*"Riyoz ud-davla"*, 350-6)

"Xiva xoni bul maktubdin so'ng "atrof va javonibdagи chop-a-vulchi-olomonni Eron viloyatining toroj va g'oratidin man' qilib, Eroniya ulusining bo'yinlaridin asirlik qaydi xavfin ko'tardi va elchisig'a dag'i shafqat ne'matidin baxramandlig'lar yetkurdy".

(*"Riyoz ud-davla"*, 350-6)

"Hamul yil (1840 yil) zulhijja oyining o'n to'qqizida juma' kuni ul hazrat dargoh olampanoh mulozimlardin Yaqubboy Xanqayini oshnolig' izhori uchun Kobilda vaziri muxtorg'a kim, inglis akobiridin erdi, irsol qildi va hamul oyining yigirma yettisida shanba kuni Muhammadshoxdin kelgan Mirza Rizo otlig' elchiga ul hazrat maxsus mahramlar zumrasidin g'art makon, xususiyat nishon, sadoqat taYum Otaniyoz mahramin qo'shib Eron sari uzatti, to kim sabbe sahobag'a til ochaturg'on aqli rafizani man' va zahbar qilib ahli sunnat va jamoati tariqa sa'ig'a rivoj berib, anda sobit qadam bo'lsa, Muhammad shoh bila muhabbat va oshnolig' muohidasin mahkam va mustahkam qilib qaytg'ay".

(*"Riyoz uddavla"*, 352-6)

"Yuqorida mazkur bo'lmish erdikim, olampanoh dargohining sadoqatogoh xodimlaridin Otaniyoz Mahram Eron mamlakatiga va Rahmatulla Qrrako'z Xo'qand viloyatiga ham ul viloyatlar podshohlarining ixlosnomasi bu davlat ostonasiga Yuborgan elchilariga elchi yo'sunliq hamroh bo'lib bormish erdilar, ham ul podsholarning muhabbat izqori uchun qo'shg'on elchilari ila murojaat kilib hazrat Alachaxonni Marv safarig'a azm bo'lg'onidin so'ng dorilxulofa Xivaqg'a kelib tavaqqif ko'rgizmish erdilar. Ul hazrat shavvol oyining avosatida mazkur viloyatlardin kelgan elchilarni humaYun majlislarga undab podshohona navozishlar ila sarbaland qildilar. Yana ulkim, zulqada oyining o'n beshida payshanba kuni Eron podshohi Muhammad shohning Yuborgan elchisiga atabayi falak martaba mulozimlaridin donish va ixlos oroy Muhammad Sharifboyni elchilik tariqasi bila hamrohqilib, muhabbat noma bila Eron mamlakatiga irsol yettilar va andin bir necha kun so'ng Xo'qavd podshohining elchisiga Otaniyozbekni saforat rasmi bila qo'shub, Xo'qand viloyatiga Yubordilar".

(*"Jome' ul-voqeoti sultonı"*, 187-6-188)

"Xo'qand viloyati voliysining elchisi Bek Muhammadni kim Istanbuli sharifg'a ixsos topmish erdi, andoqkim Yuqorida mazkur bo'ldi, anga amri oliv mujubi bila atba sepexr martaba xodimlaridin Rahmatullo Qorako'z elchilik tariqasi bila mashub bo'lub, sana ming ikki Yuz oltmishe yettida (1851 yil) muharram oyining avvoyilida muraqqat ruxsati berildi. Yana ulkim, hamul oyining avohirida dargohi oliypanohning ixlosshior va aqidati osor mulozimlaridin davlat va iqbol tavom Ota Niyoz mahram Eron mamlakatining oliyjoh falak dastgoh voliysi Muhammadshoh qojorning muxabbat va vidod izhori uchun oston bo'sulig'g'a Yuborgan elchisiga amri oliv mavjabi bila elchi Yusunluq hamroh bo'lub Tehron viloyati jonibig'a azimat ko'rgizdi".

(*"Jome' ul-voqeoti sultonı"*, 180-180-6)

"Hazrat a'lo xoqonning humoyun juluslarining yettilamchi yilining (1852 yil) voqealari avval jumladin ulkim; faqirkim (Ogahiy) ba'zi kasal sababidin ul hazratning humoyun mukoblari bila Yurub safar qilmokdin ma'zur erdim. Bu jihatdin podshohona dildorlig'lar bila iltifot ko'rguzib o'z iltimosim mujibi bila safardin maof tutub sana ming ikki Yuz oltmishe sakkizda to'ng'iz yili muharram oyining o'n to'qqizida juma kechasi amakzodam Muhammad Karimbekni o'rning a miroblig' mansabig'a mansub yetib sarafroalig' va komyooblig' yetkurdilar.

Yana ulkim, rajab oyining yigirma beshida yakshanba kuni Muhammad Sharifboy Eron podshohi Muhammadshohning oldidin muovadat qilib, Yuborgan hadyalarin nazari anvar peshgohidin o'tkardi".

(*"Jome' ul-voqeoti sultonı"*, 190)

"Muhammad Amin Bahodirxonning juluslarining o'nlamchi yilining voqeoti-chun hijratning

bir ming ikki Yuz yetmish birlamchi yili kirdi va ikki oy oradin o'tib rabi-ul-avvalning g'urrasи keldi. Xon hazratlari Marv azmin jazm ztib navkarlargal pul berib va tamomi og'a-inilariga va tamomi umaro va arkoni davlatlarga in'omlar berib buyurdilar: hama safar asbobini gayyor yetsunlar. Muidin bir hafta o'tkandin so'ng Tangriquli to'raii joynishin yetib, otlanib chiqib ohista-ohista ravona bo'ldilar, tokim tamomi lashkar izlaridin tushub jam bo'ldilar. Qiyoqko'lining bir manziliga kelib erdilar, Maymananing xoni o'g'lini elchi qilib peshkashlar bila Yuborib erdi, ul yerda kelib mulozimatg'a yetdi. Hirot shohidin ham bir elchi ko'p tuhfa va peshkashlar bila bir fil kelturdi va Kobuldin ham elchi keldi. Xon hazratlari buyurdilar: filni yasatib ustig'a qanor yopib oning ustiga taxt qurub borgohning oldig'a kelturdilar.

(*"Shajarayi Xorazmshohi "*, 345-6-346-a)

"Elchilar bila birga Marvgaga yetib keldilar. "Tamomi Marv ulug'lari tuhfa va xadya va peshkashlar birla kelib xon hazratlarini ko'rdilar. Yo'lo-ton va Murg'ujon va Karayob va Tajan ulug'lari x.am tuhfa, hadya va peshkashlar bila keldilar.

Amir Haydarning Eron shohi Fathalishohga maktubi

"Hazrat amir Haydar Eron hrkimi Fathalishohga yozdilar:

Behisob hamdu sanolar shunday bir podshohga munosibdirki, uning davlati sathi yov xurujidan xoli va mulklari fazosi dushman zarbidan mustasnodir.

Rasulillohning ruhi pokiga beedad duolar tuhfa bo'lsinki, payg'ambarlik yyetakchiligi uning maqtovli zotiga ravodir. Unga, yaqinlariga va ashobalarining jam'iga - Ollohning salomlari bo'lsin!.

Yaratganga hamdu sanolar va maqtovli (mahmud yyetakchi) maqomidagi sulton (payg'ambar)ga duolar aytgandan so'ng ko'ngil oynasida benazir bo'lgan podshoh - Jamshid maqomiga munosib, lashkari Yulduzlarcha sanoqsiz, oftob yangliq toj egasi, osmondan baland, So'rattro (YUpiter) martabalik, Baxrom (Mars) savlatlik, Keyvon (Saturn) dek, Yuksak, Nohid (Venera) qobiliyatlik, O'ttorud (Merkuriy) dek ziyrak, Jamshiddek shavkatli: Ferudun hashamatli, Doro darbon, Xusravdek nishondor (belgilik), emni omonlik bisotini yoyuvchi, Eron mulklarining hukmdori shavkat va ulug'likxa tartib beruvchi, maqtov va jilolarga ehtiyoji bo'Imagan, tavsif va bayonlardan Yuqori turuvchi, davlatini Olloh inoyat qilgan Fathalishohga yyetkaziladi va ma'lum qilinadiki, ilohiy dargohning bu niyozmandi bundan avval hazrati halifai islomdan kitob so'ragan edi. Iltifot va mehribonlik mulklari taxtining bezagi (ya'ni xalifai islom) izzatli imomlar va buyuk mujtahidlarning -Ollox. ularning ruxlarini shod yetsin! - bir necha kitoblarini Bag'dod voliysiga Yuborib, ul kishiga o'sha kitoblarni o'zining ishonzchli kishilaridan biri orqali bu tarafga yyetkazdi.

Zoti shahriyoriy bu ma'nidan to'la xabardordirlar, chunki o'zлари (elchini) bu tomonga o'tkazib Yuborganlar, elchi yetib kelib kitoblarni topshirgandan so'ng lozim bo'ldiki, bu taraf (biz) ham o'z davlatxoxlarmizdan birini a'lohzrat xoqon saroyiga yo'llasak. Binobarin, imoratpanoh, ikki sharif haramga haj qilgan va davlatxoxlarmiz jumlasidan bo'lgan xrji Muhammad Sharafbeyni mazkur elchi hamrohligida jo'natdik, toki u humoyun ko'rinish sharafiga musharraf bo'lgach, zoti oliyni duo qilib, maqsad manzili tomon shoshilsin. Ikki davlat bir davlatdek, boshqa hech qanday maqsadu muddaoimiz yo'q. Bundan buyon ikki oliy davlat o'rtasida oshnolik va bordi-keldilar yo'li ochiq bo'lsa, Ollohning bandalari uchun hayriyat va marhamat bo'ltusidir. Boshqa og'zaki gaplarni mazkur imoratpanoh tilidan eshitursiz. Shahriyoriy davlatining quyuq soyasi uzun va davomli bo'lsin! Bu tarafga nisbatan qanChalik izzat-ikromga rioya qilsalar, umid shuki, "kim mening avlodimni ulug'lasa meni ulug'lagan bo'ladi", degan iboraga dahldor bo'lg'aylar. Qolaversa, duolar.

Muhammad Rizo Balxiy. Maktuboti

Amir Haydar.

O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi.

Inv. № 292. D. Valieva tarjimasi.

Amir Haydarning Rossiya podshohi Aleksandr I ga maktubi¹

"Lashkari Yulduzlarcha sanoqsiz, Mars (Mirrix) sifat dahshatlik, Saturn (Zuhal) yangliq Yuksak, Pleyadı (Surayyo) va YUpiter (Mushtariy) o'rnini egallovchi, Makedoniyalik Iskandardek ko'r kam, eng qudratli va ko'p mamlakatlarning egasi, quyoshdek toj bezagan podshoh (va) podshohlar avlodi, xoqon (va) xoqonlar avlodi, Aleksandr Pavlovich, Rossianing yakka hokimi!

Sizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik va shodu hurramlik tilayman. Salomlardan so'ng o'zimning (shundan) mammunligimni izhor qilish sharafiga muyassarmanki, hazratingizning qulog'imizga yetib kelgan barcha tashvishlari, Xudoning marhamati bilan barham topdi: chunonchi, viloyatlariningga bostirib kelgan fransuzlarning qo'shini Sizga ba'zi talofotlar yyetkazgan va bu do'stligimiz tufayli bizga ham dardu alam keltirgan edi. Biroq Sizning g'olib lashkaringizga nasib bo'lgan taqdирга shukurki, ular yov ustiga qilich yalong'ochlab borib qirib tashladi va quvib Yuborib, fitnani barbos qildilar, ko'plab o'ljalalar oldilar. (Bundan) biz uzoq vaqtlardan buyon davom yetib kelayotgan o'zaro do'stligimiz va totuvligimiz vajhidan bag'oyat shodlandik. Imperator a'lo hazratlariga shu tabriklarimizni yyetkazmoq uchun janobingiz Yuksak saroyiga g'ayratli amaldorim Azimjon devonbegini tanlab, o'zimdan elchi qilib Yubordim.

Moskovga yov hujumi Yuz berganda ko'p rus savdogarlar (qatori) buxorolik savdogarlar ham mol-mulqda katta talofatlar ko'rdilar; va umid qilamizki, imperator a'lo hazratlari, insonparvarlik va cheksiz marhamat Yuzasidan o'zingizning fuqarolaringizga tunganmas xazinangizdan mukofot bergenningizdek, bizning bechora savdogarlarimizni ham xuddi o'zingiznikidek ko'rib, har ikki davlatning roziligi bilan ularni (ham) marhamatingizdan darig' tutmag'aysiz.

Troiskdag'i ba'zi bir mansabdorlaringiz (u erga) boradigan buxorolik savdogarlarga turli xil ranju aziyatlar yyetkazishidan xabar topib, biz imperator a'lo hazratlaridan so'raymizki, ularga qattiq topshiriq bersangiz, tokim o'sha mansabdorlar mazkur savdogarlarga avvalgi qoidalari bo'yicha munosabatda bo'lsinlar; bundan a'lo hazratning nomlari hamma yoqsa shuhrat qozonadi va o'rtamizdag'i do'stlik oldingidan ko'ra ham mustahkamlanadi.

Biz turk sultoniga tabrik uchun Yuborgan g'ayratli va hurmatli mansabdor Mirza MuhammadYusuf qo'rhiboshi esa, umid qilamizki, imperator a'lo hazratlari, marhamatingiz Yuzasidan o'zingizning mansabdorlaringizga buyruq berishni lozim topsangizki, tokim u mansabdorni mulklaringiz bo'ylab hamma yerda, chegaragacha va orqaga qaytishda mansabdorlar qabul qilsalar, unga mehmonnavozlik ko'rsatsalar va u bexavotir safar qilaolsa.

Boshqa ishlarimiz haqida mansabdorlarimiz Azimjon devonbegiga og'zaki arz qilishga topshiriq berilgan va unga to'la ishonishingizni so'raymiz!"

YOrliq hijriy 1229 yil jumodul avval (1814 yil 21 aprel) da imzolanganligi va orqasida siyohli muhrda: Mirhaydarxon Mirma'sum o'g'li degan yozuv borligi qayd qilinadi.

**Orenburg harbiy gubernatori P.K. Essen tashqi ishlar
ministrligi boshqaruvchisi K.V. Nesselrodega
(1818 yil 7 (19) sentyabr)**

Orenburgga Buxoro xoni devonbegi Mirza Mo'minjonovning elchi bo'lib kelganligi haqida xabar beradi. (Bu uning ikkinchi elchshgagi); Birinchi marta u podsho saroyida 1815 yidda bo'lgan (q.: VPR., T. USH, pril. 107).

U Buxoro xonining yorlig'ini olib kelgan.

Mir Haydarxonning Aleksandr I ga (1818 yil 12/24) aprelda yozgan xati (yorlig'i)ning fors tilidan tarjimasi quyida to'laligicha keltiriladi.

"Bismillahir rahmonir rohiym":

Jamshid ulug'ligaga ega bo'lgan, lashkari Yulduzlarday ko'p, quyosh yang'liq toj egasi; Bahromdek sersavlat, Zuhal yang'liq Yuksak darajali, Mushtariydek martabalik, Merkuriydek ziyrak, Zuhrodek qobiliyatli, Zaxxoq sifat qudratli, Kavusdek ulug', Faridun yang'liq oliyjanob,

¹ Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya 1, T. USH. M. 1972. s. 650-651.

Jamshiddek kuchli, Doro yang'liq dabdabali, Parvizga teng (keluvchi), sohibqiron yakka hokim podshoh farzandi. Rusiyaning, CHerkazistonning, Armaniston va boshqa mamlakatlarning qudratli podshohi Aleksandr Pavlovich shodlik va tyetiklik mayidan sarxush bo'lib, yaxshi kayfiyatda va saodatli ruhiyatda qolaversinlar.

O'zlarini duo qilish bilan birga davlatning ziynati bo'lgan g'oyat Yuksak zotingizga yyetkazamanki, qudrat va ulug'likning manbai bo'lgan buyuk ota-bobolar va sharaflı ajdodlar qadim zamonalardan buyon bizning mamlakatimizdan borgak savdogarlar va musofirlarga nisbatan muayyan bir tartib va o'zaro munosabat belgilag'anlar.

(Bizning) savdogarlarimiz sarmOyasi kam va zaif xalq. Ikki Yuksak davlat totuvligi va itgifoqi manfaatlari uchun hamda o'zaro aloqalarning' asosini mustahkamlash uchun a'lo hazrat-larining oliv hujjatlariga umid qilamizki, oldingi qoidalar va munosabatlar o'z kuchida qoladi va boz ustiga kundan-kunga mustahkamlanayotgan davlatning podshohidan yangi imtiozlar beriladi.

Qozoklar va o'rganchilar o'z taraflaridan zimmalariga bechora savdogarlarning mol-mulkariga mas'uliyat oldilar va ularni o'zları kuzatib qo'yadigan bo'ldilar; bu hakda Sizga ma'lumot bermokdamiz.

Davlatga sadoqatli xodimimiz, hurmatli Azimjon devonbegini Zuhal sifat shuhratli saroyingizga elchi qilib Yuborayapmizki, (u) do'stlik va inoqlik asoslarini mustahkamsin.

Nimaiki aytmoqchi bo'lsak, do'stona maktubimizda bayon qildik, mazkur elchiga og'zaki aytish uchun vazifa va topshiriq berilmadi. Faqat duoda (qolamiz). 1233 yil 14 jumadulavval, dushanba kuni yozildi".

*Mironshoh munshi, Mulla Zohid munshi, Muhammad Tohir munshi. Maktubosh, munshaot va manshuot. O'zbekiston Respubhaksi Fanlar a kademiysi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi, Inv. №289. 200-a,b byetlar.
D. Valieva tarjimas.*

Azimjon Mo'minjonovning elchiligi haqida¹

Arxivda Buxoro elchisi Azimjon Mo'minjonovning Orenburg general-gubernatori G.S. Volkonskiyga xatining tarjimasi saqlanib qolgan. Quyida o'zbek tilidagi asl nusxasiga solishtirilgan ushbu tarjima keltiriladi: "Orenburg harbiy general-gubernatori saodatli knyaz Grigoriy Semenovich Volkonskiyga Buxoro shahrining elchisi devonbegi Azimjon Mo'minjonovdan. Meni imperator a'lohzratlarining Yuksak saroyiga elchi sifatida jo'natajotib, Buxoro hukmdori Mir Haydarxon lozim bo'lgan shartlar (gaplar) izhor qilingan yorliqni qo'limga berdi. Bu yorliqqa qo'shimcha qilib, Buxoro hukmdori quyidagilarni og'zaki aytishni buyurdi.

Birinchi. Basharti Rusiya podshohi, imperator hazratlari, rus va Buxoro savdo karvonlarining cho'ldan xavfsizligi uchun Buxoro shahrining ayni chegarasigacha bo'lmasa ham, biroq Sirdaryo bo'yigacha ularning beshikast o'tishi uchun rus harbiy himoyasini tayinlab, himoya tadbirlari tuzishni lozim deb bilsalar, unda Buxoro hokimi Mir Haydarxon ham, o'z tarafidan Sirdaryoda karvonni kutib olib, uni Buxorogacha kuzatib borishga yetarlik harbiy soqchi otryad tayinlaydi. Buxoroda savdo tugagandan so'ng Rusiyaga qaytayotgan karvon Sirdaryogacha Buxoro soqchi otryadi himoyasida boradi va Rusiya soqchi askarlariga topshiriladi. Buxoro hokimi buning qoidalarini butunrusiya podshosi imperator vakolat berishni lozim topgan shaxs bilan aniklaydi.

Ikkinci. Basharti butunrusiya podshosi, imperator, karvonlarda o'zlarining mollari bilan birga rus savdogarlarining o'zları yoki ularning ishonchli vakillari (pri kazchiklari) borishlarini lozim deb bilsalar, bu holda Buxoro hokimi ularning Buxoroga kirishiga va erkin savdo qilishlariga hech qanday qarshilik qilmaydi. Biroq, ularga homiylik qiladi va savdo ishlari bilan boshqa Osiyo shaharlariga borishlariga ruxsat beradi. Agar Buxoro hokimi Mir Haydarxon tomonidan taklif qilingan bu bitim ma'qullansa, unda rus mansabdorlari va savdogarlaridan konsulni, uning yonida faqat izzat-ehtirom uchungina, kichik harbiy soqchi otryad bilan qabul qiladi, tokim Buxoro ahli bu yangi farmoyishdan umumsavdo manfaatlariga zid bo'lgan xulosalar qilmasin. Shu masala haqida

¹ Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya 1. t. VIII, s. 646-647.

hamda umuman o'zaro savdoning manfaati uchun Mir Haydarxon Rusiya davlati bilan o'zaro savdoning butun muzofotida, ham engiltak qirg'iz va qozoqlarning talashidan qutulish uchun hamda o'zaro foyda uchun xalqaro savdo bitimi tuzishga va imzolashga tayyor.

Uchinchi. Buxoro hokimi Mir Haydarxon va Buxoro vazirligi menga, devonbegi Azimjonga, butunrusiya podshohi, imperatordan, shuni iltimos qilishni qattiq buyurdilariki, faqat Buxoro savdogarlarigina savdo qiladigan Osiyo bojxonalari boshqarmasi boshqa mansabdorga emas, (balki) yagona harbiy gubernatorga bo'ysundirilsa va Orenburg o'lkasi Buxoro bilan va boshqa shaharlar bilan qadimdan qanday qoida asosida savdo qilgan bo'lsa, xuddi o'shandayligicha qolsin. Buning ustiga, Buxoro hukmdori xohish bildiradiki, Astraxan, Orenburg, Troisk, Pyetropavlovsk bojxonalarida osiyolik jamoalar savdo qilayotganda Buxoro shahridan har yili eng boy va sarmoyasi ko'p bo'lgan ikki kishi o'sha jamoalar tomonidan saylab qo'yilsa, ular ustidan Siz tomondan nazorat qilib turilsa, tokim ular savdo haqidagi barcha farmoyishlardan va nazoratdan o'tgan mollardan tushadigan boj soliqlaridan boxabar bo'lib tursalar. Buning uchun ular maxsus daftarlari tutib, mollar va boj soliqlarini yozib borsalar, yil tugagach ular har ikkalasining imzosi bilan bojxona oborotida o'zlarining savdolari va xazinaga tushgan boj soliqlarining umumiylis hisob vedomostini berishlari lozim. Bojxonalarga tayinlangan Buxoro mansabdor-lariga o'z elatlarining savdoga taalluqli bo'lgan barcha ishlari bo'yicha iltimos qilish huquqi berilsin; ularga bojxonalarda (Yuz beradigan va) qagiy qaror qilish uchun Orenburg chegara komissiyasiga Yuboriladigan barcha da'volarni ko'rishda va tekshiruvlarda ipggirok yetishga ruxsat beriladi.

Yana Puxoro hokimi istaydiki, har yili ikkita buxorolik mansabdor mazkur komissiyaning ishida ishtirok yetsin; nihoyat, deyarlik butunlay Osiyo savdosi mujassam bo'lgan Orenburg va Troisk bojxonalari har jihatdan chegara komissiyasiga bo'ysundirilsin. Astraxan bojxonasini esa Sibir liniyasidagi Pyetro-pavlovsk bojxonasini o'sha joylarning mahalliy hokimiyatiga topshirilsin, chunki busiz buxorolik savdogarlar savdo oborotida juda qynaladilar va boshqa ijtimoiy mahkamalarda o'zlarining da'vogarlik prosesslarini tez va qoniqarli hal qilaolmaydilar. Elchi Azimjon so'raydiki, Orenburg harbiy gubernatori o'zining butunrusiya podshohi, imperator, huzuridagi vakolatini Buxoro xalqi foydasiga (ham) ishlatsin.

To'rtinchchi. Buxoro hokimi Mir Haydarxon (aytdilarki), basharti Buxorodagi rus asirlari¹ haqida masala ko'tarilsa, (va) agar imperator a'lohzratlari ularning tovon evaziga Rusiyaga qaytarilishini lozim deb topsa, chunki ular Buxoroda pulga sotib olinganlar, u holda Mir Haydarxon bu muhim masala haqida Rusiya vakili bilan munozara qilishga tayyor. agar faqat bunday harakatlarni Buxoro jamoasi maqbul ko'rsa, rus vakilini qabul qilishga ham rozi.

Beshinchi. Buxoro xokimi Rusiya podshosi, imieratordan, (shuni) qattiq turib so'rashni buyurdiki, qozoqdarni cho'lda karvonlarni talab olgan mollar bilan Orenburg, Troisk va boshqa savdoxonalarga kiritish man' qilinsin, chunki qirg'izlar va qozoqlar (talangan) savdogarlarning ko'zları oldida ularning ko'p narsalarini qarshiliksiz sotadilar va shu bilan guyo bundan buyon ham savdo karvonlarini talash rag'batlantirilgandek bo'ladi.

Oltinchi. Buxoro hukmdori menga, devonbegi Azimjonga, butunrusiya podshosi, imperatordan, qattiq turib so'rashni buyurdiki, buxorolik savdogarlarga avvalgi qoida bo'yicha o'zlarining mollarini bir bojxonadan boshqasiga ko'chirish man qilinmasin; bojxona nazoratidan o'tishda boj solig'i to'laisha ular hozir qynalmokdalar. Bu xatni devonbegi Azimjon Mo'-minjonov 1815 yil 18 yanvarida imzolagan (Arxiv material-laridan).

**V.K. Nesselrode S.-Peterburgdan Buxoro favqulodda
elchisi A. Mo'minjonovga
1816 yil 5 (17) iyul²**

Tashqi ishlar ministrligi Buxoro hokimi Mir Haydarxonning elchisi devonbegi Azimjon

¹ O'rta Osiyoda quzdorlik va qul savdosiga barham berish haqidagi masala XUN-XIX asrlarda Rusyaning xonliklar bilan munosabatida maxsus o'rinni tutardi. Ko'chmanchi qozoq va turkmanlar, ba'zan xivaliklar ham rus qishloqlariga, saedo karvonlariga, Kaspiy dengizida baliqchshshk qilayotgan kemaaarga hujum qilib, rus fuqarolarshsh asirga olar va Buxoro, Xiea va Qo'qonga qullikkha sotar edilar. Xonliklardan qullikda saqlanayotgan rus fuqarolarining soni bazan bir necha o'n minglarni tashkil qilar edi. (VPR. T. 1., dok. 133).

² Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. M., 1974. Seriya 11, t., I IX. s. 213-214.

Mo'minjonovni qaytarib Yuborish haqida imperator hazratlarining oliv amrini olishga tuyassar bo'lib, ayni a'lo hazratning iltafoti bilan mazkur elchiga e'lon qiladi:

1. A'lohzrat nomidan ishontiriladiki, imperator hazratlari Mir Haydarxonning bu elchilagini iltifot bilan qabul qilishga munosib ko'rib (Yuborilgan) maktubdan ham, devonbegi Azimjon Mo'minjonovning og'zaki so'zlaridan ham u Mir Haydarxonidan olib kelgan tabrikni hamda uning xar ikki tomon fuqarolarining o'zaro manfaati, ayniqsa savdo aloqalari uchun buyuk Rusiya imperiyasining Buxoro bilan do'stona munosabatlarini yanada mustahkamlash istagini mammuniyat bilan e'tirof yetdi.

2. Imperator hazratlari Mir Haydarxonning xohishiga ko'ra o'zaro savdo va har ikki tomonning boshqa xil manfaatlari tegishli bo'lgan va xususan karvonlarning Yurishini ta'-minlash, asirlarni - Rusiya fuqarolarini ozod qilish va Rusiya konsulini tayinlashga taalluqdi bo'lgan barcha masa-lalar bo'yicha shartlashilgan qarorlar qabul qilmoq uchun vakolatli bo'lgan Rusiya amaldorlarini Buxoroga bajonidil Yuboradi.

3. Buxoro hokimiga va uning fuqarolariga (ular hamma vaqt Rusiyaning maxsus homiyligi ostida bo'lib keladilar) oliv marhamatning isboti sifatida hozir ham, elchining o'tinchlariga ko'ra, ularga quyidagi yangi manfaatlar beriladi.

4. Elchi taklif qilgan buxoroliklar savdo qiladigan bojxonalar mahalliy fuqarolik xrkimliklariga yoki harbiy gubernatorga bo'ysindirilsin, degan farmoyish berish o'rniha (davlatdagi savdo ishlarning umumiy tashkiloti vajxidan uni amalga oshirib bo'lmaydi) Osiyo bilan umumiy savdo uchun eng qulay (bo'lgan) maxsus bojxona qoidalari tuziladi.

5. Orenburg liniyasidagi bojxonalarda buxorolik fuqarolarning ishlari ko'rileyotganda bu ishlar bo'yicha mazkur bojxonalarga buxorolik savdogarlar o'zlarini ichidan saylangan eng hurmatli ikkita vakil kiritiladi.

6. Buxoroliklarning da'volari Orenburg chegara komissiyasida ko'riladi va ular tekshirileyotganda ham, Buxoroda Rusiya konsulligi tashkil topgach, Buxoro amaldorlaridan ikkita vakil ishtirok yetishiga ruxsat beriladi.

7. Buxoroliklarga (o'z) mollarini bir bojxonadan ikkinchisiga ko'chirishga ruxsat beriladi.

8. 1812 yilda mollarini qirg'izlar talagan buxorolik savdogarlarni iloji boricha rozi qilish maqsadida qirg'izlardan undirib olishga harakat qilishni nafaqat general Glazenapga, balki Orenburg harbiy gubernatoriga ham topshiriladi, harbiy gubernator buxoroliklarga allaqachon 100.000 lik mollarini qaytarib berdi.

9. Rusiyada musulmon ayollarga uylangan buxoroliklarga o'sha xotinlari va farzandlari bilan o'z Yurtlariga qaytishga ruxsat beriladi, agar bunga xotinlarining ota-onalari rozi bo'lsalar, zero, ma'lumki, ular ko'pincha ayni Rusiyadan hech qachon kyetmaslik sharti bilan uylanadilar; biroq Buxoro xoni ham o'z tarafidan u yerda uylangan Rusiya tatarlariga shunday erkinlik berishi kerak. Buxoroliklarga Rusiyada butunlay qolish ham man' yetilmaydi, biroq ular davlat qonunlari asosida qanday bo'lmasin bir turmush tarzini tanlashlari lozim; chegara bo'yi qal'alarida beish sanqib Yurganlar- yoki ruxsat berilmagan kasblar bilan mashg'ul bo'lganlar foydasiz va jamiyat uchun zararli (shaxslar) sifatida umumiy qonun asosida chegaradan chiqarib Yuboriladi.

10. Buxoroliklarning o'z qisoblaridan Troiskda iomoz-xonlik uchun masjid, karvonsaroy, mehmonxona yoki kelib-kyetadigan buxoroliklar uchun boshpana hovli va o'quv Yurti qurishlariga qarshilik ko'rsatilmaydi, biroq shu shart bilanki, bu imoratlarning hammasi savdo rastasidan uzoqda bo'lmasligi kerak, mustahkamligi va yong'indan xavfsizligi uchun esa imoratlar g'ishtdan, tomlari tunukadan bo'lishi zarur; ularning tarxi va old qismining (ko'rinishi) mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanishi shart; ularning hammasiga lozim bo'lgan xarajatlarga yordam sifatida esa buxoroliklarga o'sha imoratlar qurilishiga lozim bo'lgan yog'ochni liniyaning narigi yog'idan, xususan, Troisk atrofidan, qirg'izlar (eri) dan olib kelishga ruxsat beriladi.

11. Laboratoriya (qayta ishlangan kanselyariya) urug'larni tayyorlaydigan omilkor ustani Buxoroga tezlikda jo'natishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkinligidan elchining bu taklifi zarurat Yuzasidan qulay fursat kelguncha to'xtatib turiladi; shu bilan birga buxoroliklarga laboratoriya urug'ini ishlanmagan holda, savdoning umumiy qoidalari kiraqidan mollar qatorida olib chiqib kyetish imkoniyati beriladi.

12. Troiskda bo'lgan va go'yo Buxorodan keladigan savdogarlarni ranjitadigan va ularga aziyat

yyetkazadigan rus mansabdorlari ustidan shikoyat borasida - qachon buxoroliklar o'sha mansabdolarning ayni kimligini va ular yyetkazgan ranju-aziyat nimadan iborat ekanini ko'rsatib bersalar, (o'shanda) tekshirish o'tkazish haqida buyruq bo'ladi.

13. Basharti karvonlarni himoya qilish haqida qaror qabul qilinsa va elchi aytganidek Buxoro xonining bu masalaga moyilligi haqiqatan amalda tasdiqlansa, qирг'изларнинг талонтороји юда осон бархам топди; унгача esa ularning o'g'irlangan mollarni sotishini man' qilishning imkonи ko'rinnmaydi, chunki qaysi mollari o'g'irlangan, qaysi biri xalol yo'llar bilan toyilganini ajratib bo'lmaydi.

14. Imperator hazratlari shaxsan elchiga oliv iltifot ko'rsatib, uning elchiligi masalalariga hurmat Yuzasidan (biroq kelajak vaktlar va hodisalar uchun namuna sifatida emas), uning 200 ta shol ro'molidan Pyetropavlovsk bojxo-nasida xazina uchun olingan soliqni qaytarib berish haqidagi iltimoslarini inobatga olishni lozim topdi; bu haqda moliya ministrligiga, unga bog'liq bo'lган topshiriq-larni amalga oshirish uchun amri oliv berildi. Nusxadan ko'chirma.

**A. Mo'minjonovning Orenburg harbiy
gubernatorining xatiga javobi
(1818yil 4(16)sentyabr)**

"Saodatli hazratingiz maktublarini olish sharafiga erishdim, mazmunini tushunib, goyat mamnun bo'ldim, saodatli hazratingizga xotirjamlik, sihat-salomatlik va imperator hazratlarining marhamatiga sazovor bo'lishingizni tilayman. Hazratingiz mening Yuksak darajali egam Mir xaydarxonidan imperator saroyiga va ministrligiga (yyetkazish uchun) menga qanday topshiriqlar berilganini bilishni talab qilasiz. Bunga javoban, (shuni) xabar qilish sharafiga tuyassarmanki, mening Yuksak darajali, Yuksak maqrin egam o'tgan 1816 yilda men orqali imperator podshohdan Yuksak yorliq va turli xil tortiklar olish sharafiga tuyassar bo'lib, ikki davlat o'rtasida mavjud bo'lган qadimgi do'stlik va ittifoqning ramzi sifatida menga imperator podshohga o'zining yorlig'ini topshirishni va beshta arg'umoq ot tortiq qilishni va imperator hazratlariga minnatdorchilik va ularning har kunu x.ar soatda komil farog'atda, salomatlikda, huzur-halovatda bo'lishlariga istak bildirishni buyurgan edi. Imperator podshoh Buxoroga o'zaro savdo va boshqa ikkiyoqdamma manfaatlarga aloqador bo'lган, xususan, karvonlarning Yurishini ta'minlashga, qullarning, rus fuqarolarining ozod qilinishiga va Rusiya konsulini tayinlashga tegishli bo'lishi mumkin bo'lган barcha masalalar haqida shartlashishga va qaror qilishga vakolatlari bo'lган Rusiyaning g'ayratli bir mansabdorini Yuborishni va'da qilgan edi. Shu bois buning e'lon qilinganiga uchinchi yil kyetayotibdi, biroq ulardan biron-tasi amalga oshmadi va Buxoroga hech qanday elchi kelmadi, bundan o'n besh yil oldin tayinlangan janob Gaver-dovskiydan tashqari; uni esa qирг'из-qaysaq qaroqchilarini talagan va unga berilgan topshiriq bajarilmay qolgan edi; (vaholanki) undan qenChalik o'zaro manfaat va yo'lida talangan turli xil mollarini qaytarib olish, xususan, hozirgi kunlargacha jazosiz qolib kelayotgan aybdor qирг'изlarga jazo berish usullarini kutish mumkin edi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar uzilib qoldi va imperator hazratlarining yaxshi niyatları Yuzaga chiqmadi. Xuddi mana shundan Yuksak darajali va atokli xon Mir Haydar juda tashvishda qoldi; Onhazrat (Mir Haydarxon) imperator hazratlariga jonbozlik ko'rsatab qalbdan yordam berishga kanChalik tayyor ekanini va Buxoroda rus elchisi bilan har xil foydali shartlar va qarorlar qilishni va hamma vaqg savdo bo'yicha har ikki tomonning foydasi uchun o'z Yurtida Rusiya konsuli bo'lishini, hamda imperator hazratlariga azaliy do'stlik va itgafoq (bo'lish)ni va Buxoro savdosining oliyjanob homiysiga va dushmanlari ustidan golib kelgan bunday mashhur podshohga o'zining chuqur sadoqatini ko'rsatishni istaydi. Shunday xulosa qilish mumkinki, karYunlarni va savdoni himoya qilishga albatga exlypoj bor. Chunki endilikda Sulton Horungozi Abdulaziz o'g'li qирг'из-qaysaq cho'llarida yaxshi ishlarni boshlagan va davom yetayotgan bo'lsada va, buni bilib, buxoroliklar bu yil ko'p sonli karvonlarni Yubordilar; biroq xali noma'lumki, bunday foydali ish qancha davom yetadi; biroq ma'lumki, qирг'из-qaysaq xalqi engiltak va vahshiy va yana bunday yaxshi sultonga bo'yshishdan zerikib qolishlari va uni, balki o'ldirib, yana karvonlarni talay boshlashlari va savdoga katta zarar yyetkazishlari (mumkin); shu sababdan mening Yuksak darajali, mashhur egam menga avvalgi arzlarim va xatlarim asosida imperator xazratlariga

iltimoslarni qayta boshlashni va o'tinib so'rashni topshirdi va undan juda foyda bo'ladi, imperator hazratlarining yashirin maslahatchisi janob ministr va graf Karl Vasilevich Nesselrode esa, garchi buyuk podshohining oliv amri bilan mening turli arzlarim qoniqgiriladi va buxoroliklarga turli xil foydalar yyetkaziladi, (deb) o'zining javobini bergan va, xuddi shunday, moliya ministri janoblari va kavaler Dmitriy Aleksandrovich Gurev (ham) mening iltimoslarimga yordamlashish va ko'maklashishni va'da kdsgsan bo'lsada, biroq haligacha hech narsa bajarilgani yo'q; Mana shuning uchun Yuksak darajali egam, Rusiyaning ulug' saroyida yaxshi tanish bo'lganim uchun meni elchi qilib bordi; Ministr janoblari, faf Karl Vasil'evich Nesselrode janoblarining o'zlarini ham bizning muhtaram otaligimiz Muhammad Hakimboyga yozgan xatlarida meni maqtagan; men marhamatli imperator hazratlaridan nimaiki so'rangan bo'lsam, imperator hazratlarining nomidan berilgan barcha va'dalar bajarilishi kerak, buxorolik savdogarlarga esa, avvalgicha, azaldan buyuk podshohning ajdodlari o'rnatgan va imperator hazratlarining dono va bexatar podshohligi davrida davom yetib kelgan (qoida asosida) muomala qilinishi kerak; va o'shavda, xususan, karvon himoya klinib va kuzatib borilganida va har ikki davlatning konsulligi va elchiligi tashkil yetilganda, Yuksak darajali hokim nomidan men avval qilgan iltimoslarim bajarilganda savdo har ikki davlat va (ularning) fuqarolari uchun juda foydali bo'lgan bo'lardi.

Saodatli xazratingiz mening bu javobimni nazardan o'tkazishni lozim topsangaz, shuni ko'rasizki, Yuksak darajali Mir Haydarxonning meni elchi qilib Yuborishdan maqsadi o'zaro aloqa va qadimgi do'stlikni mustahkamlash ham Rusiya, ham Buxoro davlatlari uchun foydali bo'lgan barcha ishni qilishdan iboratdir, bu haqda men imperator qazratlarining Yuksak saroyida tushuntirmay qo'ymayman; faqat saodatli hazratingiz, bizga qo'shni bo'lgan o'lkaning uzoqni ko'ruchchi boshlig'i va bosh qo'mondoni sifatida bizning arzlarimizni ko'rib chiqishingizni va o'zingizning vakolatingiz bilan tasdiqlashingizni o'tinib so'rayman va menga elchiligamni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam berishni so'rayman, tokim yaxshi ishlar bajarilmay qolmasin, bunday foydali ishlarning Sizning davringizda boshlanishi va davom yetishi Sizning nomingizni shuhratga burkash esa, albatga, Sizga ham xush keladi; faqat lozimki, bu yaxshi ishlarni kuchli qo'llar va oqil insonlar va g'ayratlilar bajarsinlar va saodatli hazrat, menga bu ishda yordam qilishin-gazni so'rayman; Buxoro xalqi nima yaxshi, nima yomon ekanini (o'zi) bilganicha ajratib olsin, Buxoro erini Rusiya bilan mahkam o'rnatish (bog'lash) va har ikki tomon savdosini mustahkamlash va kengaytirish vaqqi keldi; agar bu ish Sizning saodatli hazratingiz davrida men ulug' imperator podshoh. huzuriga kirishg'a muvaffaq bo'lganimda imperator a'lohzaratlaridan eshitganim asosida amalga oshirilsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Shunday qilib, mening S.-Pyeterburgta jo'nab kyetishim haqida amr bo'lganda, (xatga) ilova qilingan ro'yxatdagi odamlarni, xususan: mening o'z o'g'lim, katga qorovulbegi Mirza Nosirjonni; mening yordamchim, rus mansabдори, unvoni maslahatchi, Buxoro davlatida ko'rchiboshi mansabiga ega bo'lgan Nazarboy xoji Eshmuhammad o'g'li Boykishievni; mening o'rtanchi o'g'lim ponsadboshi Sharifjonni; mening kichik o'g'lim Mirza Umidjonni; Mahram boshi mulla Orifjon Ahmadjon o'g'lini, xazinador Mirza Fuzoil Razzoq o'g'lini, Yuzboshi Muhammad Yusuf Salim o'g'lini, yasovul Rajab boqi Ashur Muhammad o'g'lini, katta otboqar Muhammad Said Bekmuhammad o'g'lini, o'nboshi Muhammad Rahim Muhammad Sharif o'g'lini, bakovul Muhammad Rajab Nurillaboy o'g'lini va beshta xizmatkorni o'zim bilan birga olib kyetishga zaruriy ehtiyojim bor. Bizning Yuksak maqom xonimiz Mir Haydar imperator a'lo hazratlarining Yuksak saroyiga sovg'a qilib Yuborgan besh bosh arg'umoqlarga va men onhzaratga tortiq qilish uchun olib kelayotganim shaxsiy buyumlarimga kelsak, men saodatli hazratingizga og'zaki aytaman.

Biroq, saodatli hazratingizning menga maxsus muruvvatini kutib, xuddi shunday o'zimning o'tinchli iltimosim bilan qolaman, tokim muruvvatingiz o'zingizning menga bergan va meni qatqiq shoduhurram qilgan va huzur bag'ishlagan ko'rsatmangizga mos va muvofiqtarzda bo'lsa; xususan men o'zimning qat'iyatim bilan barcha istaklarimga, albatta, muvaffaqiyatli ravishda yetishmay qolmayman; shunga qatqiq ishongan hrdda ham saodatli hazratingizga (dilimni) ochmoqdaman, boshqa boshliqlar bilan esa men bunday ochiq gaplashmagan bo'lardim; saodatli hazratingiz menda o'zingazga nisbatan katga hurmat va ishonch uyg'otgansiz; men ham Siz bilan muloqotda bo'lishdan qanChalik huzur qilsam, shunChalik katta mammuniyat bilan Xudodan Saodatli

hazratingizning umrlarini uzun qilishni so'rayman; Sizning chegara ishlari bo'yicha farmoyishlaringiz eng yaxshi ishlardir va savdo sharoiti uchun ular hech qachon o'zgarmasdan umrbod mustahkam va buzilmas bo'lib qolishlarini istayman. CHegara komissiyasida raislik qilayotgan general o'zining vazifasini a'lo bajarayapti, u holda saodatli hazratingizga shunday xushfel va ishonchli yordamchi bilan (ishlash) albatta, yaxshi bo'lsa kerak, u bilan muloqotda bo'lish bizga ham yoqadi; albatga, Siz bu uzoq o'lkani obod qilasiz - Sizdan oldin bo'lган bosh qo'mondonlar istagan, biroq turli noqulayliklar vajhkdan erisha olmagan (ishni) Siz qilasiz. YOlg'iz va abadiy Xudo, albatga, Sizga yordam beradi. Zotingizga Yuksak hurmat va sadoqat bilan Buxoro elchisi devonbegi Mirza Azimjon Mirza Mo'minjon o'g'liman".

**Tashqi ishlar ministrligi boshqaruvchisi
K.V. Nesselrodening Buxoroning muxtor vakili
Mo'minjonovga notasi (1820 yil 3 (15) iyundan oldin¹)**

Rusiya imperatorlik tashqi ishlar ministrligi amri oliy bo'yicha Buxoro hokimi Mir Haydarxonning elchisi Azimjon Mo'minjonovga (shuni) xabar qilish sharafiga egaki, podshoh. imperator, do'stlik aloqalarini mustahkamlash va savdoni kengaytirish asosiy maqsadi bo'lган ushbu elchilikdan goyat xushvaqt bo'ddi, oqibatda yaqinda bizdan ham, Rusyaning Yuksak saroyidan, Buxoroga diplomatik mansabdor Yuboriladi. Elchi janoblari topshirgan notalarga² kelsak (ular haqida) ministrlik ruxsati oliy olib, (Sizni) xabardor qilishni o'zining vazifasi deb biladi:

1. Osiyo savdosi uchun yangi tasdiqlangan tarif³ o'rniga eski qoidani kiritish haqidagi iltimos tegishlicha e'tibor bilan ko'rib chiqildi. Talab qilinayotgan davlat qurilmasisidagi o'zgartishlar ko'p muqarrar noqulayliklar bilan bog'liq bo'lishi aniqlandi; bu Buxoroga jo'natilayotgan diplomatik mansabdor zimmasiga shuni Yuklash lozimligini e'tirof yetishga olib keldi, toki u bu masala haqida Buxoro hukumatiga tushuntirish bersin va orqaga qaytishla chegara bo'ylab yangi tarifning savdo ravnaqiga, farovonligiga qanday ta'sir o'tkazayotganini ko'rsin va bularning hammasi haqida imperator a'lo hazratlarining ministrligiga ma'lumot bersin va rusiyalik ham buxorolik savdogarlarning bevosita foydasini juda aniq tasavvur qilib, keyin eng yaxshi bo'lган tadbirlar ko'rilsin.

2. Elchingning notasida nomlari keltirilgan Buxoro fuqarolariga o'zlarining mollarini sotish uchun Moskvaga byeto'siq olib kelishlari uchun ruxsat berishga elchi janoblarning iltimosi bo'yicha (shu narsa) ma'lum bo'ldiki, bunday imtiyoz hatgo rusiyalik savdogarlarning o'zlariga ham, agar ular savdogarlar (uyushmasi)ga yozilgan bo'lmasalar, berilmagan ekan. Boz ustiga agar buxorolik savdogarlar foydasiga istisno qilinadigan bo'lsa, boshqa qo'shni xalqlarning ham shunday istisnoni talab qilishlariga asosli bahona berilgan bo'ladi va unda umumiy qoidaning buzilishidan savdoning butun foydasi chyet elliklarga va qiyinchiliklari esa - rusiyalik savdogarlar hissasiga qoladi. Shu sabablarga ko'ra, elchi janoblari xush yoqadigan ish qilish istagi bo'lsada, uning bu haqdagi iltimoslarini qondirib bo'lmaydi.

3. Elchi janoblari Rusiyaga olib kelgan mollari uchun bojxonada to'lagan 10. 464 rubl boj solig'ini qaytarib berish go'g'risida moliya ministri janoblari oliy farmoyish berildi. Ministrlik ishonadiki, elchi janoblari bu amri oliyni Rusiya bilan Buxoro savdo aloqalari foydasiga Sizning

¹ 1. K.V. Nesselrodening Orenburg harbiy gubernatori P.K. Essenga Yuborilgan qo'shimcha xatida shu sana ko'rsatilgan. Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka. Seriya II, t. III (XI), M., 1979, s. 415-416.

² 2. 1820 yil 6 (18) fevralda salom marosimida topshirilgan Aleksandr I nomiga yozilgan notada va unga ilova qshshngan rasmiy xatda Azimjon Mo'minjonov Buxoro xoni topshirig'i bilan yangi Osiyo savdo tarifi buxorolik savdogarlarga tegishli bo'lmasin, deb iltimos qildi. Elchi chegaradagi hukmdorlarga farmoyish berilishini, tokim "ular boj solig'ini avvalgi qoida bo'yicha olishlarini "so'radi. Bu iltimos buxorolik savdogarlarning belgilangan boj soliqlarini to'lash uchun yetarli kapitali bo'limganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, Mo'minjonov chegarada undan olingan 10. 460rublik boj solitni qaytarib berishni iptimos qildi. Notaga ilova qilingan rasmiy xatda Buxoro xonshshng Rusyaning Osiyo bilan savdoda yangi tarifini Buxoroga yoymasliYush so'rashining sabablari mufassal bayon qilingan edi.

³ Aleksandr I ning 1817 yil 30 may (11 iyun)dagagi Manifesti bilan 1818 yil 1 (13) yanvardan boshlab Osiyo mamlakatlari bilan savdo uchun yangi tarif va bojxona nizomi kiritilishi elon qilindi. O' chop yetilgan: PSZRI (Polnoe sobranie zakonov Rossiyskoy imperii s 1649 goda). T. XXXIV, s. 328-348; t. XIV, kniga tarifov, ch. III. Obtie dopolneniya k tarifam, s. 63-67. Sm. takje VPR, t. IX, annotasiyu na str. 569x.

ko'p mehnat-laringiz va harakatlaringizga imperator hazratlari (ko'rsa-tayotgan) e'tiborning isboti deb qabul qiladi.

Notaning asl nusxasini Buxoro elchisiga tashqi ishlar ministrligi boshqaruvchisi shaxsan topshirgan. Tarixi va raqami ko'rsatilmagan. Chiqim xatlar ro'yxatida № 481 dan keyin qayd qilingan. Nusxdan chop yetilgan.

MANBALAR, ADABIYOTLAR

1. Qo'lyozma asarlar.

Abdurazzoq Samarcandiying Hindiston safarnomasi. Kirish, tarjima va izoxlar muallifi A. O'rabloev, Toshkent., "Fan", 1980.

Abdurazzoq Samarcandiy. Matlai sa'dayn va majmai baxravn. II jild. I qism. A. O'rabloev tarjimasi. Toshkent, "Fan", 1969.

Abduraxmon Tole. Istorya Abdulfayzxana. Perevod, predis lovie, primechaniya i ukazateli A.A. Semenova, Tashkent, "Fan", 1959.

Abdulqodir bin Mulukshox. Badavoni. Muntaxab ut-tavorix. O'z FA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 25.

Abu Bakr an-Narshahiy Muhammad ibn Ja'far. Buxoro tarixi. Fors tilidan A. Rasulov tarjimasi. Toshkent, 1991.

Abulfazl Allomiy. Oini Akbariy. Laknau, 1983, O'zFA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Lit. № 5245.

Abulfazl Allomiy. Tarixi Akbarshohiy. O'zFA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 6.

Abu Rayxan Biruni (Pamyatniki minuvshix pokoleniy). Izbrannye proizvedeniya. T. 1 Perevod i primechaniya M. Sals. Tashkent, 1957 t. II (Indiya). Perevod. A. B. Xalidova i YU.N. Zavadovskogo. Tashkent., 1963.

Abu Sayid Gardizi. Zayn al-axbar. Ukrashenie izvestiy. Razdel ob istorii Xorasana. Perevod s persidskogo yazja A. K. Arenda. Vvedenie, kommentarii i ukazateli L. M. Epifanovoy. Tashkent, "Fan", 1991.

Abdulg'oziy. Shajarayi turk. Nashrga tayyorlovchilar - Q. Munirov, Q. Mahmudov. Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi B.A. Ahmedov. "CHO'lpon", Toshkent, 1992.

Abu-l-Fazl Beyxaki. Istorya Mas'uda (1030-1041). Vstupitelnaya statya, perevod i primechaniya A.K. Arenda. Tashkent, 1962. Izdanie vtoroe, dopolnennoe. Moskva, 1969.

Abulhusayn Navoiy. Esnod va makotiboti tarixiyi Eron (fors tilida). Tehron, 1963.

Bayoniy. Shajarayi xorazmshohiy. O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 2057.

Ogahiy. Gulshani davlat. UzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qulyozmalar xazinasi. Inv. № 7572.

Ogahiy. Jome ul-voqeoti Sultoniy. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 5786.

Ogahiy. Riyoz uddavla. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi. Inv. 0185-P.

Munis. Firdavs ul-iqbol. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 5364-1.

SHer Muhammad Mirob Munis va Muhammad Rizo Mirob Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Xorazm tarixi. Qiyyosiy-tanqidiy matn. Kirish (ingliz tilida) qismi muallifi va nashrga tayyorlovchi YU. Bregel. NYu-York, 1988.

Bekjon Rahmon o'g'li. Ozodnama. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 8956.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchilar Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev. T., "Fan". 1960.

Ibn Ardbshoh. Amir Temur tarixi ("Ajoyib al-llakdur fi tarixi Taymur" - "Temur tarixida

- taqsir ajoyibotlari"), 1-11 kitob. So'zboshi va tarjima U. Uvatovniki. "Mehnat", Toshkent, 1992.
- Ismoil Aqa. Temur va davlati (turk tilida). Anqara, 1991.
- Ismoil Aqa. Shoxruh va davlati (turk tilida). Anqara, 1995.
- Iskandar munshi. Tarixi Olamoroyi Abbosiy. O'zR FA SHI. Qo'lyozmalar xazinasi. Lit. № 5228.
- Materialm po istorii turkmen i Turkmenii. 1-P, Moskva-Leningrad. Izd-vo AN SSSR, 1938.
- Mirza Muhammad Xaydar. Tarix i-Rashidi. Vvedenie, perevod s persidskogo A. Urinbaeva, R.P. Djalilovoy., L.M. Epifanovoy. Tashkent, "Fan", 1996.
- Mirza Muhammad Soqiy, Olamgirnama. O'zR FA SHI. qo'lyozmalar xazinasi. Lit. № 12444.
- Mirza Muhammad Tovixon. Nosih ut-tavorix. O'zR FA SHI. qo'lyozmalar xazinasi. Lit. № 12444.
- Mirza Sirojiddin. Tuhami ahli Buxoro. O'zR FA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 2142.
- Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. K. Oben nashri (fors tilida). Tehron, 1957.
- Muhammad Tolib bin Tojiddin Hasanho'ja. Matlabi tolabin. O'zR FA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 80.
- Mulla Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, "Nasaf", 1991
- Mu'tamidxon Baxshi. Iqbolnomayi Jahongiriy. O'zR FA SHI, qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 4369.
- Rizoqulixon Hidoyat. Safarnomayi XaYurazm (fors tilida). Tehron. Tohuri, 1978.
- Saydi Ali Rais. Mir'at ul-mamolik (Mamlakatlar ko'zgusi). Tarjima i izoxlar I. Zunnunovniki. Tahrir va so'z boshi S. Azimjonovaniki. Toshkent, "Fan", 1963.
- Tadjad-din as-Salmani. Tarix-name. Perevod s turkskogo akad. V.M. Buniyatova. Baku, "Elm", 1991.
- Tarixi Muqimxani Muhammad Yusufa Munshi. Per. s tadj. s predisloviem, primechaniyami i ukazatelyami A.A. Semenova. Tashkent, 1956.
- Tarixi Hofiz Abru. O'zR FA SHI qo'lyozmalar xazinasi. Inv. № 5361.
- "Temur tuzuklari". Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi. Toshkent, 1991.
- Utemish-xadji. CHingiz-name. Faksimile, perevod, transkripsiya, tekstologicheskie primechaniya P. YUDina. Pod-gotovila k izdaniyu YU.G. Baranova. Kommentarii i ukazateli M.X. Abduseitoyuy. Otv. red. B.A. Axmedov. Alma-Ata, 1992.
- Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. (Sharafnomayi shohiy). 1-jild. (Forschadan Sodiq Mirzaev tarjimasi. Mas'ul muharrir YA.G. G'ulomov). Toshkent, "Fan", 1969.
- Hofiz Muhammad Fozilxon valadi Qosimxon. Tarixi mano-zili Buxoro. Aligarx universityeti kutubxonasi majmuasi. (Fors tilida, qo'lyozma). Abussalom kolleksiysi, № 692.
- Maxmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. O'z FA nashriyoti, Toshkent, 1960.
- Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent, "Fan", 1971.
- Sharafiddin Ali YAzdiy. Zafarnoma. Nashrga tayyorlash, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar A. O'rınboevniki. Toshkent, "Fan", 1972.
- Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o'giruvchi YUnusxon Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir Asomiddin O'rınboev. Toshkent, "O'zbekiston", 1996.

2. O'zbek va rus tillaridagi tadqiqotlar va adabiyotlar.

- Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. Toshkent, "Sharq", 2000.
- Amir Temur jahon tarixida (to'ldirilgan 2-nashri). Toshkent, 2001.
- Amir Temur va Yildirim Boyazid yozishmalari - "Milliy tiklanish". (Tarjimon: O'rınboev A., Valieva D.). 1995 yil, 1 dekabr.
- Amir Temuring Yildirim Boyazidga to'rtinchchi maktubi -"Milliytiklanish". (Tarjimon:O'rınboevA., ValievaD.). 1996, 9 yanvar.

Amir Temur maktublari. - "Milliy tiklanish" (Tarjimon: O'rinboev A., Valieva D.). 1996 yil, 30 yanvar.

Ahmedov Bo'ri. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XU1-XUSH vv., Tashkent, "Fan", 1985.

Baykova N. B. Rol Sredney Azii v russko-indiyskixtorgovmx svyazax. T., 1964.

Bartold V.V. Istorya izucheniya Vostoka v Evrope i v Rossii. L., 1925.

(Berns A.) Puteshestvie v Buxaru: rasskaz o plavani po Indu ot morya do Lagora s podarkami velikobritanskogo korolya i otchyet o puteshestvii iz Indii v Kabul, TatariYu i PersiYu, predprinyatom po predpisaniYu vmsshego pravitelstva Indii v 1831, 1832 i 1833 godax leytenantom Ost-Indskoy kompaneyskoy slujby Aleksandrom Bernsom. (Per. sang. ch. II.) M., 1848.

Bo'riev O. G'iyyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. Toshkent, "Fan", 1991.

Bo'riev O. Temur davrida Movarounnaxr va Mo'g'uliston munosabatlari. "Sharqshunoslik", №7, 1996. 37-44-byetlar.

Bo'riev O. Elchilar yo'l Yurdilar. "Sharqshunoslik". 1990, 1. 60-65-byetlar.

Valieva D. Buxoro-Eron diplomatik aloqalari tarixiga oid. "Sharqshunoslik", № 7, 1997. 133-148-byetlar.

Valieva D. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Xivaning tashqi iqtisodiy aloqalariga doir. "Sharqshunoslik", №8, 1997. 162-176-byetlar.

Valieva D. Amir Haydar maktublari Buxoro-Rossiya munosabatlariga oid muhim manba. "Mash'al", №1-2, 1999.

Vamberi A. Istorya Buxar SPb. 1873.

Veselovskiy N. Priem v Rossii i otpusk sredneaziatskix poslov v XUP-XUSH stolyetyiyax. Po dokumentam Moskovskogo glavnogo arxiva ministerstva inostrannix del. "Jurnal Ministerstva narodnogo prosvesheniya", ch. SSXXXI U, iYul, 1884.

"Vneshnyaya politika Rossii XIX i naChala XX veka". Sbornik dokumentov. T. 1-X. M., 1978-1986.

Gulyamov X.G. Izistorii diplomaticeskixotnosheniy Rossii s Buxarskim xanstvom v XIII v. T., «Fan», 1992.

Jalilova R. O'rta Osiyo va Turkiya munosabatlari tarixidan. "Sharqshunoslik", №2, 1991. 102-108-byetlar.

Jukovskiy S.V. Snoshenkya Rossii s Buxaroy i Xivoy za poslednee trexsotlyetie. SPb, 1915.

Ziyaev X. Srednyaya Aziya i Sibir (vtoraya polovina XVI-XIX vv.). Tashkent, 1964.

Ziyaev A. Perepiska praviteley SHeybanidov i Ashtarkhanidov s Iranom i Indiey, sb. Issledovaniya po istorii, istorii nauki i kulture narodov Sredney Azii. Tashkent, "Fan", 1993.s. 93-109.

Iz Tegeranskogo dnevnika polkovnika Kosogovskogo (podgotovil k. pechatni G.M. Pyetrov). M., 1960.

Karimova N. Ko'hna Turonning darvozasi (Xitoy manbalari asosida). "Sharqshunoslik", №5, 1994. 125-131-byetlar.

Karimova N. Temuriylar bilan Xitoy aloqalari, "Sharqshunoslik", №7, 1996. 44-60-byetlar.

Karen L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya, Toshkent, "Adolat", 1996

Mannonov B. O'zbek diplomatiyasi tarixi muammolari. "Sharqshunoslik", №4, 1993. 120-131-byetlar.

Mannonov B. Nodirshohning surriyodini toping. "Sharqshunoslik", №2, 1991. 90-102-byetlar.

Matievskiy P.K. O roli Orenburga v Russko-Indiyskoy torgovle. "Istoriya SSSR", №3, 1969.

Meyendorf E.K. Puteshestvie iz Orenburga v Buxaru (per. s fran. E. Byetgera). M., 1975.

Mixaleva G.A. Uzbekistan v XVIII - pergYuy polovine XIX veka.

Mixaleva G.A. Torgovte i posolskie svyazi Rossii so sredneaziatskimi xanstvami. Tashkent, "Fan", 1982.

Muhammadjonov A.R., Ne'matov T.N. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga oid manbalar. Tashkent, 1957.

Mo'minov Ibrohim. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Tashkent, 1991.

Nebolsin P.I. Ocherki torgovli Rossii so stranami Sredney Azii, Xivoy, Buxaroy i Kokanom. Zapiski Russkogo geograficheskogo obshhestva. T. X. Sib., 1856.

Nizomiddinov I.G'. XU1-XU1P asrlarda O'rta Osiyo-Hindiston munosabatlari. T., "Fan", 1966.

Nizamutdinov Ilyos. Iz istorii sredneaziatsko-indiyskix otnosheniy. Tashkent, Izd-vo "Uzbekistan", 1969.

Nizamutdinov Ilyas. Ocherki istorii kulturnix svyazey Sredney Azii i Indii v XVI- naChale XX vv. T., "Fan", 1981.

Nizamutdinov Ilyas. Sayyoxlarning yozganlari. Toshkent, O'zdavnashr, 1960.

Petrushevskiy I.P. Kommentariy geograficheskiy i istoricheskiy k "XojdeniYu za tri morya Afanasiya Nikitina". Izd. 2-e, M-L., 1958.

Bo'lat Soliev. O'zbekiston tarixi (XU1-XIX asrlar). Toshkent, Samarcand, 1929.

Roy P.C.H. Posolstvo Baba Ram-Singxa v russkiy Turkestan. "Problemm vostokovedeniya", № 4, 1959.

Rtveladze E.V., Saidov A.X. O'zbekiston hududida eng

qadimgi davrda diplomatik munosabatlarning rivojlanishi. Toshkent, 2001.

Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406). Perevod, predislovie i kommentarii I.S. Mirokovoy. Moskva, "Nauka", 1990.

Russko-indiyskie otnosheniya v XVII v. Sbornik dokumentov. Moskva, 1958.

Semenov A.A. K istorii diplomaticeskix snosheniy mejdu Rossiey i Buxaroy v naChale XIX veka - "Izvestiya AN UzSSR". Tashkent, № 1, 1951. s. 85.

Semenov A.A. K voprosu o kulturno-politicheskix svyazyax Buxarm s "Velikomogolskoy" Indiey v XVII v. "Materialm vtorogo soveshaniya arxeologov i yetnografov Azii". Moskva, Izd-vo AN SSSR, 1959. s. 1-10.

Sokolov SH.A. Buxara, Samarkand, Kelif v 1813 godu. "Trud! Sredneaziatskogo gosudarstvennogo universityeta. Tashkent, 1957. vsh. 90, kn. 14.

Stori S. Persidskaya literatura v 3 tomax. Moskva, 1978.

Uvatov U. Amir Temur va mamluklar. "Sharqshunoslik", 7, 1996. 60-74 byetlar.

Umnyakov I.I. Mejdunarodnme otnosheniya Sredney Azii v naChale XV v. Snosheniya Timura s Vizantiey i Fransiey. Trudi uzbekskogo universityeta. Samarkand, 1956, vsh. 61.

O'rınboev A., Bo'riev O. G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. Toshkent, "Fan", 1991.

Xalfin K.A. Angliyskaya kolonialnaya politika na Srednem Vostoke. Tashkent, 1957.

Xalfin K.A. Posolstvo Baba Ram-Singxa v Turkestan v 1879g. (Iz istorii russko-indiyskix otnosheniy v XIX v.) "Sovyetskoe vostokovedenie", № 2, 1957.

Xalfin K.A. Britanskaya ekspansiya v Sredney Azii v 30-40-godax XIX v. i missiya Richmonda Shekspira - "Istoriya SSSR". № 2, 1958. s. 103-112.

Xanjon K. Opisanie Buxarskogo xanstva. SPb., 1898.

Xasanov A.A. Iz istorii diplomaticeskix otnosheniy Sredney Azii s Egiptom v naChale XV v. - konse XIV v. "Vostokovedenie". Sb. nauchnih trudov. № 589, Tashkent, 1981.

Xidoyatov G.A., Kurbanniyazov R. Diplomaticeskie otnosheniya i diplomaticeskiy protokol v Sentralnoy Azii v epoxu temuridov. «Xalqaro munosabatlar», № 2, 2001. S. 75-80.

Hoshimov I. Hindistonda Boburiylar sulolasi sultanati. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.

Xronologicheskoe obozrenie politicheskix snosheniy Rossii s Buxariey. Diplomaticeskie prilojeniya. Sbornik knyazya Xilkova. "SPb.", 1879".

Fexner M.YU. Torgovlya Russkogo gosudarstva so stranami Vostoka v XVI v. M., 1956.

Chuloshnikov A. Torgovlya Moskovskogo gosudarstva s Sredney Aziey v XVI - XVII vv. MNUTG. vip. 3.

Shipelev A. Ocherk voennix i diplomaticeskix snosheniy Rossii so Sredney Aziey do naChala XIX v. - Almanax. Tashkent, "Srednyaya Aziya", 1895.

G'ulomov S. Amir Temur va Boyazid munosabatlari. "Sharq-shunoslik", 7, 1996. 74-83-byetlar.

G'ulomov S. Amir Tsmur bilan Ahmad ibn Uvays Jaloyir munosabatlariga doir. "Sharqshunoslik", № 8, 1997. 196-200-byetlar.

YULDASHEV M.YU. K istorii torgovnx i posolskix svyazey Sredney Azii s Rossiey v XVI - XVII vv. T., 1964.

YAKUBOVSKIY A.YU. Feodalnoe obtestvo Sredney Azii i ego torgovlya s Vostochnoy Evropoy v X - XV vv. - V kn. : Materialy po istorii Uzbekskoy, Tadzhikskoy i Turkmeneskoy SSR. Vsh. 3, ch. 1, 1962.

3. Chet tillardagi adabiyotlar

Ali Akbar Viloyatiy. Tarixi ravobati xorijiyi Eron dar davroni Nosiriddin shoh va Muzaffariddin shox (fors tilida). Texron, 1993.

Ali Akbar Viloyatiy. Tarixi ravobati xorijiyi Eron asri shox Abbosi avvali Safaviy (fors tilida). Tehron, 1995.

A. Zaki Validiy To'g'on. Umumiylar turk tarixiga kirish. J. I. Eng eski davrlardan XVI asrga qadar: 3-bosqich (turk tilida).. Istanbul, 1981.

Manija Turobzoda, Akram Xusaynpur, Farabo Shahidi Far,

Fahima Vaziriy. Mohiyati Taxvelot dar Osiyoyi Markaziy va Qafqoz (fors tilida). Texron, 1994.

Muhammad Alixon G'afur. Ro'znomayi safari Xavorazm (fors tilida). Texron, 1994.

Mehmyet Saray. Rus istilosi davrida Turkiston xonliklarining Usmonli davlati bilan siyosiy munosabatlari (turk tilida). Istanbul, 1990.

Mirza Muhammadxon Qazviniy. Bist maqoloti Qazviniy (fors tilida). Bombey, 1928.

Odamiyat. Amiri Kabir va Eron (fors tilida). Tehron, 1969.

Safarnomayi Buxoro (asri Muqammadshohi qojor. 1259-1260). Ba ehtimomi Husayn Zamoniy. (fors tilida). Texron, 1973.

Safarnomayi Turkiston az d-r Pashino. Tarjimon: Martiros Dovudxonov (fors tilida). Texron, 1372 h.q.

Said Nafisiy. Tarixi ijtimoiy va siyosiy Eron dar davrai maosir. J. I. (Az og'ozi sultanati qojorxo to poyoni janggi nuxustini bo Rusiya), (fors tilida). Texron, 1335 h.q.

O'roz Muhammad Sorli. Tarixi Turkmaniston. Jildi avval (fors tilida). Tehron, 1994.

Asnodi az ravobati Eron bo manotiqi Osiyoyi Markaziy. Markazi mutolioti Osiyoyi Markaziy va Qafqoz (fors tilida). Texron, 1994.

Usmonli davlati bilan Kavkaz, Turkiston va Qrim xonliklari orasidagi munosabatlarga doir arxiv hujjatlari (1687-1908 yillar), (turk tilida). Anqara, 1992.

Allworth, Edward, The Modern Uzbeks. Hoover Union. Pabo Alto CA. 1989.

Ali, M. Ather, Jahangir the Uzbeks. Proceeding of the 26th in Judian History Congress, 1964. pp. 108-109.

Dickson, Martin B. Shah Tahmasp and Uzbeks. Princyeton University, 1958.

Islam Riazul A, Calendar of Documents of Indo-Persian relations (1500-1750), 2 vols, Iranian Cultural Foundation, Tehran and Insitute of Central and West Asian Studies. Karachi 1979-1982.

Gopal, S. Indians Central Asia in the 16th and 17th Centuries, Proceedings of the 52nd In Judean History Congress. New Delhi, 1992.

Meer Izzat Oolah. Travels in Central Asia. Calcutta, 1872.

Mohan Lal. Travels in the Punjab. London, 1846.

Walter J, Fischel. A new latin Source on Tamerlan's conquest of Damascus (1400-1401). "Orlans" 9, 1956. p. 2.

Ramesh Chandra Verma. Akbar and Abdulla-khan. "Islamic Culture", vol. XXI, No.4. October, 1937. pp. 379-389.

Verma R. Ch. Foreing Policy of the Mughals. Agra, 1967.

Rahim, Abdur. Mughal Relation with Central Asia. Calcutta, 1955.

Foltz Richard. Cultural Contacts byetween Central Asia and Mughal India. "Central Asiatic journal", 42/1, 1998.

Farooqi, K.R. Six Ottoman Documents on Mughal – Ottoman Relations During the Reign of Akbar. Journal of Islamic Studies, 7/1, 1996. pp, 32-48.

Rossabi, Morris. The “Decline” of Central Asian Caravan Trade in the Rise of the Merehant Empires. Cambridge University Press. Cambridge, 1990.

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

**O'ZBEK DIPLOMATIYASI
TARIXIDAN
(Tarixiy ocherk va lavhalar)**

Nashr uchun mas'ul: Mannanov B.

Muharrirlar: Rustamov T., Shamsharov T.

EHM operatori: Semenyuk I.

Nashrga tayyorlangan materiallarning sifati, keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligi, shuningdek, ochiq nashr eetish man etilgan ma'lumotlarni ommaviyashirgani uchun matn mualliflari javobgardirlar.

JIDU ruxsatsiz qayta chop yetish man ilinadi.

Format 84x108 1/32. Hajmi 23,3 b.t.
Nusxa soni 1000. Kelishilgan narxda.

OOO "XEGA-PRINT" bosmaxonasida chop yetildi.
Toshkent sh., Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 257a.